ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK DENE TÁRBIYASÍ HÁM SPORT UNIVERSITETI NÓKIS FILIALÍ

“Dene tárbiya hám sport boyınsha qánigelerdi tayarlawdıń aktual mashqala hám sheshimleri”

RESPUBLIKALÍQ ILIMIY-ÁMELIY KONFERENCIYASÍ

MATERIALLARÍ TOPLAMÍ





2026-jıl,
15-16-oktyabr

Nókis – 2026

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASI SPORT MINISTRLIGI

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASI JOQARI BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRLIGI

ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK DENE TÁRBIYASI HÁM SPORT UNIVERSITETI NÓKIS FILIALI

“DENE TÁRBIYA HÁM SPORT BOYINSHA QÁNIGELERDI TAYARLAWDIŃ AKTUAL MASHQALA HÁM SHESHIMLERI” ATAMASINDAǴI RESPUBLIKALÍQ ILIMIY-ÁMELIY KONFERENCIYASI

“JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLAR TAYYORLASHNING DOLZARB MUAMMO VA YECHIMLARI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

«АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЯ ПРИ ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ И СПОРТУ» РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

15-16-Oktyabr, 2026-jıl

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı

Shólkemlestiriwshi komitet baslıǵı:

Erimbetov Bayrambay Karlıbaevich	– Filial direktorı, p.i.d. (DSc), professor.

Shólkemlestiriwshi komitet baslıǵı orınbasarı

Mambetnazarov Islambek Muratbaevich	– Ilimiy isler hám innovaciyalar boyınsha direktor orınbasarı, p.i.d. (DSc), professor.

Shólkemlestiriwshi komitet aǵzaları

Utemuratov Baxram Bekmuratovich	-Oqıw isleri boyınsha direktor orınbasarı, t.i.k.
Ametova Sveta Ganibaevna	– Ilimiy izertlewler, innovaciyalar hám ilimiy pedagog kadrlar tayarlaw bólimi injeneri
Kuralbaev Azizbek Kuralbaevich	– "Dene tárbiyası teoriyası, gumanitar hám tábiyiy pánler" kafedrası baslıǵı p.i.b.f.d. (PhD), professor.
Toylibaev Sultanbek Muxidovich	– "Jeke gúres sport túrleri teoriyası hám metodikası" kafedrası baslıǵı, p.i.b.f.d. (PhD), professor.
Primbetov Azamat Auezbaevich	– "Koordinacion hám ciklik sport túrleri teoriyası hám metodikası" kafedrası baslıǵı, p.i.b.f.d. (PhD), docent.
Seytmuratov Timur Shamshetovich	– "Sport oyınları teoriyası hám metodikası" kafedrası baslıǵı, p.i.b.f.d. (PhD), docent.
Astankulova Dilnur Furkat qızı	– Koordinacion hám ciklik sport túrleri teoriyası hám metodikası" kafedrası docenti, p.i.b.f.d. (PhD).
Arzimbetov Tileubergen Tilepbergenovich	–"Dene tárbiyası teoriyası, gumanitar hám tábiyiy pánler" kafedrası docenti, ps.i.b.f.d. (PhD).
Tabınbaev Berik Askarovich	-"Sport oyınları teoriyası hám metodikası" kafedrası docenti.
Yusupov Amur Dawletbaevich	-"Jeke gúres sport túrleri teoriyası hám metodikası" kafedrası stajyor oqtıtıwshı.
Darmenbaeva Klara Azat qızı	-"Jeke gúres sport túrleri teoriyası hám metodikası" kafedrası docenti.
Xojanov Gafur Gayratbaevich	– "Kordinacion hám cikllıq sport túrleri teoriyası hám metodikası" kafedrası stajyor-oqıtıwshısı

Juwaplı redaktor

Arzimbetov Tileubergen Tilepbergenovich	–"Dene tárbiyası teoriyası, gumanitar hám tábiyiy pánler" kafedrası docenti, ps.i.b.f.d. (PhD).
Mnajatdinov Qoblan Joldasbay ulı	–Ziyrek studentlerdiń ilimiy-izertlew iskerligin shólkemlestiriw bólimi baslıǵı

Joqarı bilimlendiriw, ilim hám innovaciyalar ministrliginiń 2026-jıl 16-yanvar kúngi “2026-jılda ótkeriletuǵın xalıqaralıq hám respublika kólemindegi ilimiy hám ilimiy-texnikalıq is-ilajlar haqqında”ǵı 11-sanlı buyrıǵına tiykar, Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialında “Dene tárbiya hám sport boyınsha qánigelerdi tayarlawdıń aktual mashqala hám sheshimleri” atamasındaǵı respublikalıq ilimiy-ámeliy konferenciya usı jıldıń 15-16-aprel kúnleri ótkerildi.

Redakciya mánzili: 230101, Nókis kalası, Qaraqalpaqstan kóshesi, 24-jay
Telefon: (+998-61) 224-27-73
e-mail: ozdjtsunf@edu.uz

Konferenciya toplamında baspadan shıqqan maqalalardıń mazmunı, olarda keltirilgen maǵlıwmatlardıń durıslıǵına avtorlar juwapker. Avtorlardıń pikiri redakciya pikiri bolıp esaplanbaydı!

®ÓzMDTSU Nókis filialı

I SEKCIYA. MILLIY HÁM OLIMPIYA SPORT TÚRLERI BOYINSHA QÁNIGELERDI TAYARLAWDIŃ TEORIYALIQ HÁM ÁMELIY TIYKARLARI

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN INKLYUZIV SPORT MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISHDA MURABBIYLARNI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TAYYORLASH TIZIMI

O‘zDSA “Parasport va umumkasbiy fanlar” kafedrasi mudiri p.f.d. (DSc) professor L.B.Sobirova

Kalit so‘zlar: *inklyuziv sport, adaptiv jismoniy tarbiya, imkoniyati cheklangan bolalar, psixologik-pedagogik tayyorgarlik, sport murabbiylari, emotsional intellekt, individual yondashuv.*

Ключевые слова: *инклюзивный спорт, адаптивное физическое воспитание, дети с инвалидностью, психолого-педагогическая подготовка, спортивные тренеры, эмоциональный интеллект, индивидуальный подход.*

Keywords: *inclusive sport, adaptive physical education, children with disabilities, psychological and pedagogical training, sports coaches, emotional intelligence, individualized approach.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda inklyuzivlik tamoyillari davlat va jamiyat taraqqiyotining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Imkoniyati cheklangan hamda nogironligi bo‘lgan bolalarni jamiyatning teng huquqli a’zolari sifatida e’tirof etish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish global miqyosdagi ustuvor vazifadir. Respublikamizda ham inklyuziv ta’lim muhitini yaratish, adaptiv jismoniy tarbiya va para-sport turlarini ommalashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Inklyuziv sport imkoniyati cheklangan bolalarning nafaqat jismoniy salomatligini tiklash, balki ularni ijtimoiy muhitga moslashtirish, tengdoshlari bilan muloqot tizimini yo‘lga qo‘yish va jamiyatga integratsiya qilishning eng samarali va ta’sirchan vositasi hisoblanadi. Biroq, bu sohadagi davlat siyosati va strategik maqsadlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish bevosita yuqori malakali, zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan kadrlar sport murabbiylari bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liq. Mavjud muammoning tub mohiyati shundaki, an’anaviy sport ta’limi va oliy ta’lim tizimida murabbiylarni tayyorlash dasturlari asosan sog‘lom sportchilar yoki odatiy pedagogik yondashuvlarga asoslangan. Sport maktablari va to‘garaklarida faoliyat yuritayotgan murabbiylarning aksariyati jismoniy rivojlanishida va ruhiyatida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur anglamaydilar. Amaliyotda bolaning individual nosologiyasini (kar va zaif eshituvchi, ko‘zi ojiz, tayanch-harakat a’zolari shikastlangan yoki aqliy rivojlanishi orqada qolgan bolalar) hisobga olgan holda jismoniy yuklamalarni to‘g‘ri taqsimlashda jiddiy kamchiliklar ko‘zga tashlanmoqda. Tizimli psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo‘lmagan murabbiy inklyuziv muhitda dars o‘tish jarayonida metodik to‘siqlarga duch keladi, bu esa nafaqat mashg‘ulotlar samarasini pasaytiradi, balki bolalar salomatligi va xavfsizligiga ham xavf tug‘dirishi mumkin.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, adaptiv jismoniy tarbiyaning tibbiy va biologik jihatlari ma’lum darajada o‘rganilgan bo‘lsa-da, murabbiylarni aynan psixologik-pedagogik jihatdan tayyorlashning konseptual modellari va amaliy tizimi yetarlicha tadqiq etilmagan. Innovatsion texnologiyalar, interaktiv treninglar, keys-stadi (muammoli vaziyatlar tahlili) va xalqaro inklyuziv standartlarni integratsiya qilgan holda murabbiylarning malakasini oshirish metodikasi ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot maqsadi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv sport mashg‘ulotlarini tashkil etishda murabbiylarni psixologik-pedagogik tayyorlash tizimi bo‘yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifasi. Xalqaro ilg‘or tajribalarga tayangan holda murabbiylarning emotsional intellekti, stressga chidamliligi va differensial o‘qitish mahoratini rivojlantiruvchi psixologik-pedagogik tayyorlash tizimining tarkibiy modelini loyihalash hamda mashg‘ulotlar sifatini oshirishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalarini ishlab chiqish.

Tadqiqot natijasi va ularni tashkil etish. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv sport mashg‘ulotlarini tashkil etishda murabbiylarni psixologik-pedagogik tayyorlash tizimi - bu murabbiylarni nafaqat jismoniy mashqlarni o‘rgatishga, balki maxsus ehtiyojli bolalarning ruhiyati va individual tibbiy xususiyatlarini hisobga olgan holda yondashishga o‘rgatuvchi kompleks ta’lim va rivojlantirish modelidir.

1-jadval

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv sport mashg‘ulotlarini tashkil etishda murabbiylarni psixologik-pedagogik tayyorlashda qo‘llaniladigan metodikasi

Metodika bosqichlari (Modullar)	Qo‘llaniladigan innovatsion metodlar	Metodning qisqacha mazmuni va amaliy jarayoni	Rivojlantiriladigan aniq ko‘nikma/ Kutiladigan natija
1-bosqich: Emotsional intellekt va inklyuziv muloqot takti (EQ Moduli)	Empatiya xaritasi (Empathy Mapping)	Murabbiy dars oldidan har bir bolaning nosologiyasidan kelib chiqib, uning ruhiy holati, qo‘rquvlari va sezgi a’zolari reaksiyasini yozma tahlil qiladi.	Bolaning ichki kechinmalarini chuqur anglash va darsni uning ruhiyatiga moslash.
	Nodirektiv muloqot va faol tinglash	An’anaviy sportdagi buyruq va tazyiq ohangidan voz kechiladi. Boladagi passivlik yoki agressiyada diagnoztik so‘rovlar o‘tkaziladi.	Konfliktlarni jazosiz, pedagogik muloqot va dialog orqali ijobiy hal etish ko‘nikmasi.
2-bosqich: Krizisli vaziyatlar va psixologik chidamlilik (Stress-menedjment)	Simulyatsiyali krizis keyslari	Mashg‘ulot paytida kutilmagan holatlar (isterika, vahima hujumi, tutqanoq) sun’iy modellashtirilib, murabbiyning tezkor algoritmlari shakllantiriladi.	Ekstremal va favqulodda vaziyatlarda dovdirab qolmaslik, soniyalar ichida to‘g‘ri qaror qabul qilish.
	Kognitiv refreyming va debrifing“	Murabbiylarga mashg‘ulotdan keyingi ruhiy charchoqni chiqarish uchun maxsus nafas	Murabbiyning kasbiy emotsional yonishi (*burnout*) hamda stress

		mashqlari va vaziyatga ijobiy yondashish texnikasi o‘rgatiladi	holatlarining oldini olish.
3-bosqich: Differensial o‘qitish va adaptiv texnologiyalar (Pedagogik Modul)	Skayfolding (Qadam-baqadam ko‘mak)	Murakkab jismoniy mashqlar elementlari bola jismoniy yoki aqliy nuqsoniga mos ravishda 4-5 ta eng sodda mikromodullarga ajratib o‘rgatiladi.	Mashqlarni bolaning individual jismoniy imkoniyatlari darajasiga ko‘ra oson modifikatsiya qilish mahorati.
	Universal Dizayn va vizual signallar	Eshitish va nutqida nuqsoni bor bolalar uchun an’anaviy hushtak o‘rniga rangli kartochkalar, yorug‘lik signallari va taktil markerlar joriy etiladi.	Turli nosologiyadagi bolalarni bitta umumiy sport o‘yiniga (mashg‘ulotiga) xavfsiz va to‘liq jalb qila olish.

Metodikaning birinchi bosqichi murabbiy va imkoniyati cheklangan bola o‘rtasidagi hissiy aloqani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga qaratilgan. Empatiya xaritasi yordamida murabbiy dars o‘tishdan avval bolaning jismoniy holatidan tashqari, uning ichki qo‘rquvlari va sezgi organlarining atrof-muhitga bo‘lgan ta’sirchanligini (masalan, shovqindan qochishi yoki yorug‘likka reaksiyasini) oldindan tahlil qiladi. Bu murabbiyga bolaning ko‘zi bilan dunyoga bo‘qish imkonini beradi. Nodirektiv muloqot esa sportdagi odatiy tazyiq va keskin buyruq ohangini qo‘llab-quvvatlovchi dialogga aylantiradi.

Inklyuziv sport guruhlarida dars jarayoni kutilmagan ruhiy yoki tibbiy vaziyatlarga (masalan, isterika, vahima hujumi, sensor yuklama tufayli yig‘lash) boy bo‘ladi. Simulyatsiyali krizis keyslari murabbiylarni mana shunday ekstremal daqiqalarda shoshib qolmasdan, avtomatizm darajasiga yetkazilgan maxsus tezkor xavfsizlik algoritmlari asosida vazmin harakat qilishga o‘rgatadi.

Xulosa. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv sport mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish murabbiylarning psixologik-pedagogik tayyorgarligiga bevosita bog‘liq. Emotsional intellektni rivojlantirish, stressga chidamlilikni oshirish va individual yondashuvga asoslangan pedagogik metodlarni qo‘llash murabbiylarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtiradi. Shu sababli, zamonaviy metodikalarni amaliyotga joriy etish bolalar uchun xavfsiz, qulay va teng imkoniyatlarga asoslangan sport muhitini yaratish hamda ularning jismoniy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Осипова, Л. Б. Методические рекомендации к программе «Развитие осязания и мелкой моторики» – коррекционно-развивающая программа для детей младшего дошкольного возраста с нарушениями зрения (косоглазие и амблиопия): учебно-методическое пособие / Л. Б. Осипова. – Челябинск: Цицеро, 2011. –С. 123.

2. Осипова, Л.Б. Реализация индивидуального и дифференцированного подходов при организации коррекционной работы по развитию осязания и мелкой моторики у детей с нарушением зрения / Л.Б.Осипова // Материалы конференции по итогам научно- исследовательских работ профессоров, преподавателей, научных

сотрудников и аспирантов ЧГПУ за 2005 год. — Челябинск: ИИУМЦ «Образование», 2016. — С. 115–119.

3. Павлов Б.А. Макарова Г.А. Вылкинц И.Т. Усманҳаджаева А.А. Спортивный врач. – Т.: 2009. - С. 45-52.

4. Палибаева З.Х. Паралимпия спортига янги технологиялар асосида адаптив-соғломлаштирувчи методларни ўзлаштириш ва жорий қилиш Автореф.дис. p.f.b.f.d. (PhD) Чирчиқ, 2022. –B.74-76.

5. Плаксина, Л. И. Развитие зрительного восприятия в процессе предметного рисования у детей с нарушением зрения / Л. И. Плаксина. – М: Владос, 2008. – С. 87.

BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDAGI BADIIY GIMNASTIKACHILARNING ASOSIY MUVOZANAT ELEMENTINING MAZMUNI HAMDA ULARNING TASNIFIY XUSUSIYATLARI

O‘zDJTSU Nukus filiali “Koordinatsion va sikllik sport turlari nazariyasi va uslubiyati”kafedrasi dotsenti, p.f.b.f.d (PhD)

Astankulova Dilnur Furkat qizi

Kalit so‘zlar:*Badiiy gimnastika, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi, muvozanat elementi, gimnastikachilar, klassifikatsiya, o‘rgatish metodikasi, yosh, jismoniy imkoniyatlari, jismoniy sifat, texnik tayyorgarlik.*

Ключевые слова: *Художественная гимнастика, этап начальной подготовки, элемент равновесия, гимнастки, классификация, методика обучения, возраст, физические возможности, физическое качество, техническая подготовка.*

Keywords: *Rhythmic gymnastics, initial preparation stage, balance element, gymnasts, classification, teaching methodology, age, physical capabilities, physical quality, technical preparation.*

Kirish. Zamonaviy badiiy gimnastika yuqori texnik mahorat, murakkab kompozitsion tuzilish va harakatlar nafisligining o‘zaro uyg‘unligini talab qiladi. Ushbu sport turida yuqori natijalarga erishishda bundan tashqari yuqori natijaga erishish uchun kompozitsiya dastruidagi elementlarni bajarishda ko‘p jihatdan sportchining texnik tayyorgarligi, uning boshlang‘ich tayyorgarlik davridagi yoki bosqichidagi asosiy elementlarning bazasini o‘rganishi hamda xalqaro standartlarga mos ravishda elementlarni tolaqonli bajara olishga hamda dasturda ko‘rsatilgan barcha elementlarni texnik taraftan xatolarsiz amalga oshirishiga bog‘liq hisoblanadi.

Mazkur tezista badiiy gimnastikachilarning ko‘p yillik tayyorgarligi jarayonida tana harakatlarining asosiy elementlarini yani muvozanat sonini aniqlash va ularni har bir bosqichlarga yani boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichiga, o‘quv mashq bosqichiga, spoprt mahorati bosqichiga hamda oliy sport mahorati bosqichi guruhidagi chug‘illanuvchi badiiy gimnastikachilarga elementlarni klassifikatsiyalash hamda mashg‘ulot bosqichlarini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari va amaliy yechimlari tadqiq etiladi.

Badiiy gimnastika mashqlarining texnik asosini Xalqaro gimnastika federatsiyasi (FIG) qoidalari bilan belgilangan tana harakatlari guruhi tashkil etilgan bo‘lib, bunda ushbu guruhga kiruvchi muvozanat elementlari sportchining ijro mahorati hamda dasturning murakkablik darjasini (D-ball) baholovchi asosiy mezonlaridir. Ushbu elementlarning har biri o‘ziga hos biomexanik xususiyatlariga, murakkablik darajasiga va ijro etish qonuniyatlariga ega bo‘lib, ularni to‘g‘ri klassifikatsiya qilish sportchilarning yosh va jismoniy imkoniyatlariga mos yuklamalarni taqsimlash va bundan tashqari har bir bosqichta elementlarni tizimli baza yaratish orqali ketma-ketligda o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot maqsadi. Boshlang‘ich tayyorgralik bosqichi chug‘illanuvchi badiiy gimnastikachilarga asosiy muvozanat elementlar klassifikatsiyasini tashkil etish va ularni ketma-ketlikta o‘rgatish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifasi. Asosiy muvozanat elementlarini yosh va jismoniy imkoniyatlariga mos ravishda muvozanat elementlarini saralab olish.

Saralab olingan muvozanat elementlarini bosqichlarda o‘rgatish metodikasini ishlab chiqish.

Tadqiqotni tashkil etish usullari. Badiiy gimmnastikada muvozanat elementi bu qanday element? Bu savolga javobni tadqiqotimizda shunday izohlaymiz, muvozanat elementi badiiy gimnastikachining tana holatini belgilangan pozitsiyada saqlashi, gavda va oyoq harakatlarini muvofiqlashtirishi hamda tayanch holatdagi barqarorlikni ta’minlashi bilan tavsiflanadi. Mazkur elementlarning murakkabligi oyoqning holati, gavdaning egilish darajasi, tayanch maydonining o‘zgarishi, elementni bajarish davomiyligi va qo‘shimcha harakatlarning mavjudligi bilan ortib boradi. Shuning uchun ham muvozanat elementlarini oddiydan murakkabga tamoyili asosida tasniflash sportchilarning texnik tayyorgarligini bosqichma-bosqich shakillantirish imkonini beradi.

Dasturda ko‘rsatilgan muvozanat elementi bo‘yicha 19 ta asosiy element ball kesimida 33 ta muvozanat elementlarini har bir bosqichga yani gimnastikachilarning jismoniy tayyorgarligi, ularning ushbu elementlarni bajarishdagi texnikani organizmga qabul qilish darajasiga qarap hamda aynan dasturdagi barcha elementlarni ketma ketlikta o‘rganish va o‘zlashtirishini inobatga olib ushbu klassifikatsiya orqali joylashtirilgan. Shu narsani takidlab o‘tish joyizkiy tadqiqotimiz davomida har bir guruhda chug‘illanuvchi badiiy gimnastikachilarimizdan anketa so‘rov o‘tkazganimizda elementlarni juda kam turini bilishi bundan tashqari bajarishdagi texnik xatolarning ko‘pligi orqali ushbu klassifikatsiya ishlab chiqildi.


1-jadval Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi badiiy gimnastikachilarning muvozanat elementlar klassifikatsiyasi

Guruh	Element rasmi	Element nomi	Element ball
Boshlang‘ ich tayyorgalik bosqichi		1. Passe oldinga yoki yonga (gorizantal pozitsiya), shuningdek orqaning yuqori qismi va yelkalarni orqaga eggan holda	0.1
		2. Erkin oyoq oldinga gorizantal yoki yuqoriroq, to‘g‘ri yoki 30 ° ga bukilgan tana orqaga gorizantal holatda	0.1
		3. Ekin oyoq oldinga gorizantal yoki yuqori, to‘g‘ri holatda tana orqaga gorizantal holatda.	0.2
		4.Erkin oyoq yonga gorizantal holatda, tana yonga gorizantal holatda.	0.2
		5.Arabesk: erkin oyoq orqaga gorizantal holatda, tana oldinga gorizantal holatda va orqaga egilgan holatda	0.2

Tadqiqotimiz davomida boshlang‘ish tayyorgarlik bosqichidagi badiiy gimnastikachilarning muvozanat elementini o‘zlashtirishda dastlabki texnik ko‘nikmalari va harakatlar koordinatsiyasini shakillantirishga qaratilishi kerak va shu sababli BTB gimnastikachilarda 12 ta asosiy muvozanat elementlari saralab olingan (1-jadvalga qarang).

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi chug‘illanuvchi gimnastikachilarmizga jadvaldagi mashqlarni saralab o‘lganmiz, ushbu mashqlar BTB gimnastikachilarimizga nima beradi?, bunda saralab chiqilgan elementlar yuqori bosqich guruh gimnastikachilar bajaradigan elementlar uchun asosiy baza yaratadi, yani har bir 12 ta

muvozanat aynan har xil holatdagi masalan turgan, o‘tirgan va yotgan holatdagi elementlar eng murakkab bo‘lgan elementlarga baza yaratishda bo‘shqa texnik xatolarning kamayishi bundan tashqari oliy sport mahorati guruhiga kelib murakkab darajadagi elementlari bajara olish imkoniyatini oshiradi.



Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi chug‘illanuvchi gimnastikachilarga muvozanat elementlarini o‘rgatish va o‘zlashtirishda quydagi metodik ketma-ketlik ishlab chiqilgan. (1-ramga qarang).

1-rasm. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi gimnastikachilarning muvozanat elementlarini o‘rgatishning metodik ketma-ketligi

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi gimnastikachilarning muvozanat elementlarini o‘rgatishning metodik ketma-ketligi aynan 6-7 yoshli gimnastikachi qizlar uchun moljallangan bo‘lib, bunda ushbu yosh davrining jismoniy va psixofizologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqildi. Ushbu yoshda gimnastikachilarning harakat koordinatsiyasi, muvozanatni saqlash qobilyati, egiluvchanligi va fazoviy orientatsiyasi faol rivojlanib boradi. Ushbu metodika orqali dastlab gimnastikachilarda tayanch holatida gavdani to‘g‘ri tutish, tayanch oyoqda barqaror turish, tana og‘irlik markazini nazorat qilish hamda harakat davomida muvozanatni saqlash ko‘nikmalari shakillantirildi. Bundan tashqari 6-7 yoshli gimnastikachilarning tayyorgarlik darajasiga mos ravishda dastlabki oddiy elementlardan murakkabroq muvozanat shakillariga izchil o‘tishni ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu yondashuv gimnastikachilarda muvozanatni saqlash, koordinatsion qobiliyat, egiluvchanlik va tana holatini boshqarish ko‘nikmalarini shakillantirish bilan bir qatorda, keying tayyorgarlik bosqichlariga yuqori murakkablikdagi elementlarni o‘zlashtirish uchun zarur texnik bazani yaratdi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Н.О.Андреева Показатели сенсомоторной координации занимающихся художественной гимнастикой на этапах предварительной базовой и специализированной базовой подготовки / Н.О. Андреева, А.В. Жиров, В.Н. Болобан // Физическое воспитание студентов - 2011. - № 4. - С. - 6-15.

2. Н.О.Андреева Совершенствование методики обучения технике бросков и ловли гимнастических предметов на этапе специализированной базовой подготовки / Н.О. Андреева // Физическое воспитание студентов. – 2011. – № 4. – С. 3–5.

3. Винер, И.А. Анализ результатов чемпионата мира по художественной гимнастике в Москве / И.А. Винср, Р.Н. Терехина, М. Шишковска, Е.А Пирожкова !/ Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта. - 2010. - № 10 (68). - С. 92-93.

4. Винер, И.А. Факторы, определяющие успешность освоения и выполнения равновесий в художественной гимнастике / И.А. Винер, Е.Н. Медведева, А.А. Супрун,

Ю.В. Розыченкова, Е.А. Пирожкова // Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта. - 2012. - № 6 (88). - С. 17-21.

5. Л.М.Беженцева Методические особенности специально-двигательной подготовки юных спортсменок в групповых упражнениях в художественной гимнастике / Л.М. Беженцева // Теория и практика физической культуры. – 2019. – №10. – С.73–74.

РОЛЬ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В УКРЕПЛЕНИИ ИНСТИТУТА СЕМЬИ, СЕМЕЙНЫХ ТРАДИЦИЙ И ВОСПИТАНИИ ЗДОРОВОГО ПОКОЛЕНИЯ

Юсупов Мирзоулугбек Медиевич
Узбекистан, г. Самарканд
Старший преподаватель факультета прикладных наук и физической культуры Самаркандского государственного педагогического института
mirzoulugbeky@gmail.com

Ключевые слова: *институт семьи, физическая культура, спорт, укрепление семьи, семейные традиции, здоровое поколение, воспитание.*

Keywords: *family institution, physical culture, sports, strengthening the family, family traditions, healthy generation, upbringing.*

Kalit so‘zlar: *oila instituti, jismoniy tarbiya, sport, oilani mustahkamlash, oilaviy an’analar, sog‘lom avlod, tarbiya.*

Введение. В современных условиях развития общества особую значимость приобретают вопросы сохранения и укрепления института семьи, формирования здорового образа жизни и воспитания подрастающего поколения. Семья является важнейшим социальным институтом, в рамках которого закладываются основы физического, нравственного и духовного развития личности. Именно в семье формируются жизненные ценности, модели поведения, отношение к труду, здоровью и общественным нормам.

Физическая культура и спорт выступают эффективными средствами укрепления семейных отношений, сохранения и передачи семейных традиций, а также воспитания здорового поколения. Совместные занятия физической активностью способствуют укреплению эмоциональных связей между членами семьи, развитию взаимопонимания, ответственности и уважения друг к другу. Кроме того, участие родителей в спортивной деятельности служит положительным примером для детей и формирует у них устойчивую мотивацию к ведению здорового образа жизни.

В условиях стремительного развития технологий и увеличения времени, проводимого за цифровыми устройствами, особую актуальность приобретает проблема снижения двигательной активности детей и молодежи. Недостаток физической активности негативно влияет на состояние здоровья, физическое развитие и социальную адаптацию подрастающего поколения. В связи с этим возрастает роль семьи как основного звена в формировании культуры здоровья и привлечении детей к систематическим занятиям физической культурой и спортом.

Физическая культура и спорт не только способствуют укреплению здоровья, но и выполняют важные воспитательные функции. Они формируют дисциплинированность, целеустремленность, настойчивость, чувство коллективизма и ответственности. Эти качества имеют большое значение для гармоничного развития личности и успешной социализации молодого поколения.

Таким образом, физическая культура и спорт являются важными факторами укрепления института семьи, сохранения семейных традиций и воспитания физически здорового, духовно развитого и социально активного поколения. Изучение их роли и возможностей в решении данных задач представляет значительный научный и практический интерес.

Цель работы. Целью данного исследования является изучение реального влияния уровня организации физической культуры и спорта в семьях на здоровье детей и прочность внутрисемейных связей посредством проведения социологического анкетирования родителей.

Методы исследования. Основным метод исследования послужило комплексное анкетирование семей, имеющих детей школьного возраста. В анкетировании приняли участие 126 семей города Самарканда и ряда пригородных районов Пастдаргом, г. Ургут, Тайляк, Булунгур. Полученные данные были подвергнуты строгому количественному и процентному анализу с последующей группировкой результатов в зависимости от степени вовлеченности членов семьи в регулярную физическую активность.

Семья является первым и наиболее важным институтом социализации личности. Именно в семье закладываются основы мировоззрения человека, формируются его нравственные качества, жизненные ценности и отношение к собственному здоровью. От того, насколько эффективно семья выполняет свои воспитательные функции, во многом зависит физическое и духовное развитие подрастающего поколения.

В современных условиях физическая культура и спорт становятся важным фактором укрепления семейных отношений. Совместные занятия физическими упражнениями, участие в спортивных мероприятиях, туристических походах, семейных соревнованиях и активном отдыхе способствуют сплочению членов семьи, укреплению взаимопонимания и доверия между родителями и детьми. В процессе совместной деятельности создаются благоприятные условия для общения, обмена опытом и формирования позитивного эмоционального климата в семье.

Особую роль физическая культура играет в сохранении и развитии семейных традиций. Во многих семьях регулярные прогулки, занятия спортом, участие в массовых спортивных праздниках и соревнованиях становятся доброй традицией, объединяющей несколько поколений. Такие традиции способствуют укреплению преемственности поколений, передаче жизненного опыта и формированию у детей уважительного отношения к семейным ценностям. Кроме того, семейные спортивные мероприятия создают условия для содержательного досуга и позволяют укреплять не только физическое здоровье, но и духовное единство семьи.

Воспитательное значение спорта проявляется в формировании важных личностных качеств. В процессе занятий физической культурой и спортом дети и подростки приобретают навыки самодисциплины, организованности, ответственности и целеустремленности. Спортивная деятельность учит преодолевать трудности, уважать соперников, соблюдать правила и стремиться к достижению поставленных целей. Эти качества имеют большое значение не только в спорте, но и в учебной, профессиональной и общественной деятельности.

Физическая культура и спорт являются эффективным средством профилактики различных заболеваний и укрепления здоровья населения. Регулярная двигательная активность способствует нормальному физическому развитию детей, укреплению сердечно-сосудистой и дыхательной систем, повышению иммунитета и работоспособности организма. Для детей и подростков занятия спортом имеют особое

значение, поскольку позволяют гармонично развивать физические качества, формировать правильную осанку и укреплять общее состояние здоровья.

В условиях стремительного развития информационных технологий одной из актуальных проблем становится снижение двигательной активности детей и молодежи. Увлечение компьютерными играми, социальными сетями и другими цифровыми технологиями приводит к увеличению времени, проводимого в сидячем положении, что негативно отражается на состоянии здоровья. В этой ситуации семья должна играть ведущую роль в формировании культуры здорового образа жизни. Родители своим личным примером могут мотивировать детей к регулярным занятиям физической культурой и спортом, организовывать активный отдых и создавать условия для укрепления здоровья всех членов семьи.

Важное значение имеет взаимодействие семьи, образовательных учреждений и спортивных организаций. Школы, спортивные клубы и общественные организации должны активно привлекать родителей к участию в спортивно-массовых мероприятиях, семейных соревнованиях и оздоровительных программах. Такое сотрудничество способствует повышению эффективности физического воспитания детей и укреплению социального партнерства в интересах подрастающего поколения.

Государственная политика многих стран уделяет большое внимание развитию массового спорта и популяризации здорового образа жизни. Создание современных спортивных сооружений, организация семейных спортивных праздников, поддержка детско-юношеского спорта и реализация оздоровительных программ способствуют укреплению здоровья населения и развитию физической культуры в обществе. В этих условиях семья остается основным звеном, обеспечивающим формирование устойчивой потребности в физической активности и здоровом образе жизни.

Таким образом, физическая культура и спорт оказывают многогранное влияние на укрепление института семьи, сохранение семейных традиций и воспитание здорового поколения. Они способствуют физическому и духовному развитию личности, укреплению внутрисемейных отношений, формированию позитивных жизненных ценностей и созданию условий для гармоничного развития общества. Поэтому развитие семейного спорта и расширение возможностей для совместной физкультурно-оздоровительной деятельности следует рассматривать как одно из важнейших направлений современной социальной и образовательной политики.

Результаты исследования и их обсуждение. Количественный и процентный анализ анкет позволил разделить респондентов на две основные группы. В первую группу вошли семьи, где занятия физической культурой и спортом поставлены на должный уровень (регулярные совместные тренировки, утренняя гимнастика, совместное посещение секций). В этих семьях **85%** опрошенных отметили отличный уровень здоровья детей, низкую частоту простудных заболеваний и высокий общий тонус. Во вторую группу вошли семьи, где физической культуре не уделяется должного внимания. Количественные показатели здесь значительно ниже: лишь **30%** родителей охарактеризовали здоровье детей как крепкое, при этом зафиксирован высокий процент (более **60%**) частой заболеваемости детей в осенне-зимний период, а также жалобы на общую пассивность и дефицит внутрисемейного общения. Ряд выше указанных семьи показали значительно выше положительные результаты, что способствовало укреплению семейных уз и воспитанию здорового поколения.

Заключение. Проведенное исследование наглядно доказывает: в тех семьях, где физическая культура и спорт организованы на должном уровне, наблюдается

благополучный психологический микроклимат, все члены семьи чувствуют себя здоровыми, а дети практически не болеют. Напротив, в семьях, где спортивные традиции отсутствуют, дела обстоят значительно хуже — показатели здоровья и общего тонуса подрастающего поколения остаются на низком уровне. Физическая активность выступает главным фундаментом воспитания здорового поколения.

Литература

1. Сермеев Б. В., Атаев А. К. Физическое воспитание в семье. – Киев: Здоров’я, 1986. – 296 с.

2. Атаев А. К. Теория и практика физического воспитания детей в семье. – Ташкент: Учитель, 1992.

3. Адизова Т.М. Психологи семейный жизни. – Ташкент: 2018. 224 с.

4. Юсупов М.М. О пользе ходьбы босиком. – Самарканд: 2016. 118 с.

BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDAGI YUNON-RUM KURASHCHILARNING UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH USUBIYATI

Amangeldiev Baxtiyar Oralbay uli

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

Kalit so‘zlar: *yunon-rum kurashi, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi, jismoniy toyyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy mashqlar.*

Ключевые слова: *греко-римская борьба, начальный этап подготовки, физическая подготовка, специальная физическая подготовка, специальные физические упражнения.*

Keywords: *Greco-Roman wrestling, initial training stage, physical training, special physical training, special physical exercises.*

Kirish. Jahon sport amaliyotida yunon-rum kurashi sport turi bo‘yicha yetakchilik qilayotgan mamlakatlarning soha mutaxassislari va olimlari tomonidan boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi 10-12 yoshli sportchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar jarayonini zamon talablariga mos holda takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi 10-12 yoshli sportchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda qo‘llaniladigan vositalarni jismoniy sifatlarga, harakat texnikasini rivojlantirishga mos tarzda qo‘llash usullarini takomillashtirish va amaliyotga tadbiq etish hozirda malakali murabbiylar va soha mutaxassislari oldidagi dolzarb masala hisoblanadi.

Respublikamizda yunon-rum kurashi sport turini yanada rivojlantrish, aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash, saralash hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi 10-12 yoshli yunon-rum kurashchilarning jismoniy va texnik tayyorgarliklarini rivojlantirish uchun qaratilgan mashg‘ulotlarni to‘g‘ri rejalashtirish, mashg‘ulotlar mikrosikllarni optimal shaklini tuzish, mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan mashqlar va uslublarni ishlab chiqishni talab dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi 10-12 yoshli yunon-rum kurashchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning tashkil qilish uslublari. ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba, anketa so‘rovi, pedagogik testlash, pulsametriya, matematik statistika usullaridan foydalaniladi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tadqiqot ishi boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi yosh yunon-rum kurashchilar 9 oydan ortiq vaqt davomidagi mashg‘ulot jarayonida olib borildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahridagi 1-sonli sport maktabida tajriba guruhi 18 nafar, Nukus shahridagi 2-sonli sport maktabida nazorat guruhida 18 nafar shug‘ullanuvchi 10-12 yoshli yunon-rum kurashchilar mashg‘ulotlarida umumiy jismoniy tayyorgarligini (tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik va egiluvchanlikni) rivojlantirishda qo‘llanilgan yuklamalarni sportchilar mashg‘uloti mikrosikllarda optimal holatda qo‘llash uchun olib borilgan. Tadqiqotni tashkil etishda asosiy etibor tajriba nazorat guruhidagi sportchilarning tinch holatdagi va yuklamadan keyingi yurak qisqarishining ishchi o‘sish sonini hamda maksimal yurak qisqarish sonini aniqlab olishga qaratildi. Olingan natijlar asosida umumiy o‘rtacha (tinch holatdagi va yuklamadan keyingi yurak qisqarishining ishchi o‘sish sonini hamda maksimal yurak qisqarish) soni belgilab olindi.

Tadqiqot Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahridagi 1-sonli sport maktabida pedagogik tajriba o‘tkazildi. Quyida barcha ko‘rsatkichlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi 10-12 yoshli yunon-rum kurashchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi tajriba boshidagi ko‘rsatkichlari(n=36)

T/r	Sinovlar	Tajriba guruhi			Nazorat guruhi			t	P
		$\overline{X}\pm$	σ	V%	$\overline{X}\pm$	σ	V%		
Kuch sifati									
1.	Yerga tayangan holatda qo‘llarni bukib yozish (marta)	25,6	2,6	10,6	25,3	3,1	12,2	1,2	>0,05
2.	Turnikda tortilish (marta)	5,3	0,6	11,3	5,1	0,5	9,8	0,8	>0,05
Tezkor-kuch sifati									
3.	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	163,2	12,3	7,5	161,2	13,2	8,2	1,6	>0,05
Tezkorlik sifati									
4.	30 m yugurish (soniya)	6,3	0,8	12,7	6,4	0,5	7,8	0,3	>0,05

Chaqqonlik sifati									
5.	3x10 m mokisimon yugurish (soniya)	8,6	0,7	8,1	8,7	0,6	6,8	0,4	>0,05
Egiluvchanlik sifati									
6.	Gimnastika o‘rindig‘ida turib oldinga egilish (sm)	4,4	0,5	11,3	4,3	0,4	9,3	0,4	>0,05
Chidamlilik sifati									
7.	1000 m ga yugurish (daqiqa)	6,2	0,4	6,4	6,1	0,6	9,8	0,4	>0,05

O‘tkazilgan jismoniy tayyorgarlikni testlash natijalari quydagilarni aniqlashga imkon berdi. Unga ko‘ra tajriba guruhidagi 10-12 yoshli yunon-rum kurashchilarning kuch tayyorgarligi bo‘yicha yerga tayangan holatda qo‘llarni bukib yozish (marta) ko‘rsatkichlari 25,6 marta.ni, nazorat guruhidagi yunon-rum kurashchilarda esa 25,3 marta.ni, tashkil qildi.

10-12 yoshli tajriba guruhidagi yunon-rum kurashchilarning kuch tayyorgarligi bo‘yicha turnikda tortilish (marta) ko‘rsatkichlari 5,3 marta.ni, nazorat guruhidagi yunon-rum kurashchilarda esa 5,1 marta.ni, tashkil qildi.

10-12 yoshli tajriba guruhidagi yunon-rum kurashchilarning tezkor kuch tayyorgarligi bo‘yicha turgan joydan uzunlikka sakrash (sm) testi natijalari 163,2 sm.ni, nazorat guruhidagi yunon-rum kurashchilarda esa 161,2 sm.ni tashkil qildi.

10-12 yoshli tajriba guruhidagi yunon-rum kurashchilarning tezkorlik tayyorgarligi bo‘yicha 30 m yugurish (soniya) ko‘rsatkichlari 6,3 soniya.ni, nazorat guruhidagi yunon-rum kurashchilarda esa 6,4 soniya.ni tashkil qildi.

10-12 yoshli tajriba guruhidagi yunon-rum kurashchilarning chaqqonlik tayyorgarligi bo‘yicha 3x10 m mokisimon yugurish (soniya) ko‘rsatkichlari 8,6 soniya.ni, nazorat guruhidagi yunon-rum kurashchilarda esa 8,7 soniya.ni tashkil qildi.

10-12 yoshli tajriba guruhidagi yunon-rum kurashchilarning egiluvchanlik tayyorgarligi bo‘yicha gimnastika o‘rindig‘ida turib oldinga egilish (sm) testi natijalari 4,4 sm.ni, nazorat guruhidagi yunon-rum kurashchilarda esa 4,3 sm.ni tashkil qildi.

10-12 yoshli tajriba guruhidagi yunon-rum kurashchilarning chidamlilik tayyorgarligi bo‘yicha 1000 metrga yugurish (daqiqa) testi ko‘rsatkichlari 6,2 daqiqa.ni, nazorat guruhidagi yunon-rum kurashchilarda esa 6,1 daqiqani tashkil qildi.

Biz tajriba guruhi sinaluvchilari uchun umumiy jismoniy sifatlarini rivojlantirivchi mashqlar majmuasini ishlab chiqildi va ularni quydagi ketma-ketlikta berildi.

2-jadval

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi 10-12 yoshli yunon-rum kurashchilarning umumiy jismoniytayyorgarligini rivojlantirish bo‘yicha mashqlar majmuasi (namuna sifatida)

№	Mashqlar	Qo‘llash metodikasi
1	30 metr masofaga yugurish	Ushbu mashq, standart yuklama mashqlar uslubida, yillik mashg‘ulotning tayyorgarlik davrida, mashg‘ulotining tayyorlov qismida, tezkorlik sifatini

		rivojlantirish uchun umumiy jismoniy tayyorgarlik vositasi sifatida qo‘llaniladi.
2	Yerga qo‘llar bilan tayangan holda qo‘llarni bukib yozish.	Ushbu mashq, standart yuklama mashqlar uslubida, yillik mashg‘ulotning tayyorgarlik davrida, mashg‘ulotining tayyorlov qismida, kuch sifatini rivojlantirish uchun umumiy jismoniy tayyorgarlik vositasi sifatida qo‘llaniladi.
3	Arg‘amchida o‘ng va chap oyoqlarda navbatma-navbat joyida sakrash	Ushbu mashq, standart yuklama mashqlar uslubida, yillik mashg‘ulotning tayyorgarlik davrida, mashg‘ulotining tayyorlov va yakuniy qismida, chaqqonlik sifatini rivojlantirish uchun umumiy jismoniy tayyorgarlik vositasi sifatida qo‘llaniladi.
4	1000 metr masofaga vaqtsiz va vaqtga yugurish	Ushbu mashq, standart yuklama mashqlar uslubida, sport tayyorgarlik davrida mashg‘ulotining tayyorlov qismida, chidamlilik sifatini va funksional imkoniyatini rivojlantirish uchun umumiy jismoniy tayyorgarlik vositasi sifatida qo‘llaniladi.
5	Devorga chalqancha holatda qulay masofada turib, devorga tayanib ko‘prik holatiga tushish va dastlabki holatga qaytish.	Ushbu mashq, standart yuklama mashqlar uslubida, yillik mashg‘ulotning barcha tayyorgarlik davrida, mashg‘ulotining tayyorlov va yakuniy qismida, egiluvchanlik sifatini rivojlantirish uchun umumiy jismoniy tayyorgarlik vositasi sifatida qo‘llaniladi.

O‘tkazilgan tadqiqotlardan olingan ma’lumotlarni tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yunon-rum kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi samaradorligini oshirishni o‘quv-trenirovka mashgulotlarining bir yillik sikl tamoyili asosida o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

2. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yunon-rum kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda mashqlar bilan ishlashda ularning vazn toifasini e’tiborga olmay me’yorlanmagan hajmdagi umumiy jismoniy tayyorgarlik vositalaridan nomutanosib foydalanish sportchilar organizmining zo‘riqishga olib kelmoqta.

3. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yunon-rum kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlar dasturida belgilangan me’yorlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari tadqiqot oxirida tahlili shuni ko‘rsatadiki tajriba guruhi yunon-rum kurashchilarning umumiy jismoniy ko‘rsatkichlardagi natijalari nazorat guruhi sportchilariga nisbatan tadqiqotlar davomida yaxshilanganligidan dalolat berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Жарылкапов, У. Б. (2023). Курашчиларнинг жисмоний ва тактик тайёргарлигини ривожлантириш масалалари. *Fan-Sportga*, (2), 110-111.

2. Jarilkapov U.B Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi erkin kurashchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi // “Jismoniy tarbiya va sport axborotnomasi” ilmiy-nazariy jurnal. Nukus. 2025. №5. B. 13-19.

3. Yakupbayev A.A. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi erkin kurashchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi // “Fan-sportga” ilmiy-nazariy jurnal. Chirchiq. 2025. №3. B. 79–82.

4. Amangeldiev B.O Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yunon-rum kurashchilarining jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi // “Jismoniy tarbiya va sport axborotnomasi” ilmiy-nazariy jurnal. Nukus. 2025. №6. B. 55-63.

5. Amangeldiev B.O Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yunon-rum kurashchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda harakatli o‘yinlarni qo‘llash samaradorligi // “Jismoniy tarbiya va sport axborotnomasi” ilmiy-nazariy jurnal. Nukus. 2026. №1. B. 104-108.

JISMONIY IMKONIYATI CHEKLANGAN TALABALARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

TIPU “Maktabgacha va tillar“ kafedrasi p.f.b.f.d. (PhD) dotsent v.b.
Sobirova Zebo Baxramovna

Kalit so‘zlar: *Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar, jismoniy sifatlar, differensiallashgan metodika, parasport, ijtimoiy reabilitatsiya, harakat faolligi, koordinatsiya, moslashuvchan yuklama.*

Ключевые слова:*Студенты с ограниченными физическими возможностями, физические качества, дифференцированная методика, параспорт, социальная реабилитация, двигательная активность, координация, адаптивная нагрузка.*

Keywords:*Students with disabilities, physical qualities, differentiated methodology, parasport, social rehabilitation, motor activity, coordination, adaptive load.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlarni ijtimoiy hayotga integratsiya qilish va ularning salomatligini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan imkoniyati cheklangan talabalarning jismoniy faolligini oshirish hamda ularni parasport turlariga jalb etish ushbu tizimning muhim bo‘g‘inidir. Biroq, an’anaviy jismoniy tarbiya tizimi barcha talabalarning o‘ziga xos individual va funksional imkoniyatlarini to‘liq hisobga olmaydi. Bu esa talabalarda kuch, tezkorlik, egiluvchanlik va chidamlilik kabi hayotiy zaruriy jismoniy sifatlarni rivojlantirishda jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Ushbu muammoni hal etish jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning o‘ziga xos antropometrik va fiziologik xususiyatlariga moslashtirilgan ilmiy-metodik yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etadi. Ilmiy asoslangan maxsus metodika mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish bilan birga, talabalarning harakat faolligidagi cheklovlarni kamaytirish, organizmning funksional imkoniyatlarini kengaytirish va jismoniy reabilitatsiya jarayonini jadallashtirish imkonini beradi. Pedagogik amaliyotda har bir talabaning jismoniy nuqsoni (shikastlanish darajasi va turi) hisobga olingan differensiallashgan o‘quv-mashg‘ulot dasturlarining yetishmasligi mazkur mavzuni chuqur tadqiq etish zaruriyatini belgilaydi. Shuningdek, talaba-sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish metodikasini tizimlashtirish, kelgusida respublikada parasport zaxirasini shakllantirish va inklyuziv ta’lim muhitini takomillashtirishda yuqori ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish metodikasi bo‘yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifasi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar majmuasini ishlab chiqish.

Tadqiqot natijasi va uning muhokamasi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish ularning nafaqat jismoniy, balki ijtimoiy-psixologik salomatligini tiklashda ham beqiyos ijtimoiy, pedagogik hamda reabilitatsion

ahamiyatga ega. Kuch, chidamlilik, tezkorlik, egiluvchanlik va koordinatsiya kabi hayotiy zaruriy sifatlarni maqsadli shakllantirish, talabalarning kundalik hayotdagi mustaqilligini ta’minlash va ularni jamiyatga to‘laqonli integratsiya qilishning asosiy omili hisoblanadi. Biologik nuqtai nazardan, maxsus ishlab chiqilgan harakatlanish metodikalari va tizimli mashg‘ulotlar organizmdagi ikkilamchi kasalliklarning oldini olib, qon aylanishi, nafas olish hamda tana a’zolarining funksional imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Shu bilan birga, jismoniy sifatlarning yuksalishi talabalarda kuchli kompensatorlik funksiyalarini shakllantiradi; ya’ni muayyan nuqson tufayli cheklangan imkoniyatlar boshqa sog‘lom a’zolarning jadal rivojlanishi hisobiga qoplanadi. Bu jarayon yoshlarning ruhan tetiklashishiga, tushkunlik va xavotir hissidan xalos bo‘lib, o‘ziga bo‘lgan ishonchining ortishiga xizmat qiladi.

1-jadval

Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish metodikasi

№	Talabalar guruhi (Nuqson turi)	Asosiy sifat	mashqlar	Haftalik hajmi va dozalash qoidalari
1	Tayanch-harakat aparati shikastlangan (aravachadagi)	Kuch va Chidamlilik	-Rezina amortizatorlarni o‘tirgan holda ko‘krakka tortish -Qo‘l ergometrida (maxsus trenajyor) uzluksiz aylanish harakatlari -Gimnastika tayog‘i bilan gavdani burish (egiluvchanlik)	- Haftasiga 3 marta - Kuch mashqlari: 10-12 marta, 3 seriya - Chidamlilik: 8-10 daqiqa (YUCH: 110-135 z/d)
2	Ko‘rish qobiliyati cheklangan (ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi)	Koordinatsiya, Muvozanat va Tezkorlik	-Shvetsiya devoriga tayanib, bir oyoqda muvozanat saqlash -Tovushli (zangiroqli) meditsinbol to‘pini otish va ushlash -Yo‘naltirgich arqon yordamida joyida yuqori tizzalab qadam tashlash	- Haftasiga 3 marta -Muvozanat: 30-45 soniya ushlab turish -To‘p otish: 12-15 marta -Qadam tashlash: 3 daqiqadan 2 seriya
3	Eshitish qobiliyati cheklangan (kar va zaif eshituvchi)	Ritm tuyg‘usi va Umumiy jismoniy kuch	-Koordinatsion narvonchada vizual signallar orqali tezkor sakrashlar -Tana vazni bilan yarim o‘tirib-turish va tayangan holda planka mashqi -Vizual markerlar bo‘ylab harakat yo‘nalishini tezkor o‘zgartirish	- Haftasiga **3 marta** - Narvonchada: **4-5 marta** takrorlash - O‘tirib-turish: **15 marta** - Planka: **30-60 soniya** statik ushlab turish

Taqdim etilgan metodika orqali jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning o‘ziga xos nuqsonlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan yondashuvga asoslanadi va mashg‘ulotlar jarayonini har bir guruhning funksional holatiga mos ravishda tizimlashtirish imkonini beradi.

Ishlab chiqilgan metodika orqali tayanch-harakat aparati shikastlangan talabalar uchun ishlab chiqilgan majmua asosiy e’tibor va yuklamani gavdaning yuqori qismiga qaratib, aravachadagi yoshlarning mustaqil harakatlanish imkoniyatlarini oshirishga hamda mushaklar atrofiyasining oldini olishga xizmat qiladi. Ko‘rish qobiliyati cheklangan talabalar uchun esa fazoviy koordinatsiya va muvozanatni tiklovchi mashqlar tanlangan bo‘lib, unda tovushli hamda mexanik yo‘naltirgichlardan foydalanish vestibulyar apparatni rivojlantiradi va ularning makonda xavfsiz harakatlanishini ta’minlaydi. Eshitish qobiliyati cheklangan talabalar guruhida ritm tuyg‘usi va umumiy jismoniy kuchga urg‘u berilib, vizual (ko‘rgazmali) signallar orqali bajariladigan dinamik mashqlar ushbu yoshlarda tez-tez kuzatiladigan harakatlar muvofiqligi buzilishini samarali korreksiya qiladi. Haftasiga 3 marta belgilangan, kichik va o‘rta shiddatdagi (YUCH: 110–135 z/d) optimal yuklama hajmi organizmning zo‘riqishsiz moslashishini ta’minlab, talaba-parasportchilarning jismoniy sifatlarini xavfsiz va samarali rivojlantirishga imkoniyat yaratiladi.

Birinchi o‘quv yili uchun tik turgan holatida qo‘lidan tortib parter holatiga o‘tkazish va parter holatida belidan ushlab aylantirib to‘ntarish, yelkasini kalitsimon ushlab aylana yugurib to‘ntarish, bo‘yin va qo‘lini biriktirib ushlab aylantirib to‘ntarish usullari bajariladi.

Tik turgan holatida qo‘l ostidan sho‘ng‘ib parter holatiga o‘tkazish va parter holatida belidan ushlab aylantirib to‘ntarish, yelkasini kalitsimon ushlab aylana yugurib to‘ntarish, bo‘yin va qo‘lini biriktirib ushlab aylantirib to‘ntarish usullari bajariladi.

Tik turgan holatida bo‘yin va qo‘lini biriktirib old tepadan ushlab tortib parter holatiga o‘tkazish va parter holatida belidan ushlab aylantirib to‘ntarish, yelkasini kalitsimon ushlab aylana yugurib to‘ntarish, bo‘yin va qo‘lini biriktirib ushlab aylantirib to‘ntarish usullari bajariladi.

O‘tkazilgan tadqiqotlardan olingan ma’lumotlarni tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yunon-rum kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi samaradorligini oshirishni o‘quv-trenirovka mashgulotlarining bir yillik sikl tamoyili asosida o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

2. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichigi 10-12 yoshli yunon-rum kurashchilarning tik turgan va parter holatidagi texnik usullarni bog‘lab o‘rgatish ketma-ketligi ishlab chiqildi. Tik turgan holatida qo‘lidan tortib parter holatiga o‘tkazish – parter holatida belidan ushlab aylantirib to‘ntarish, tik turgan holatida qo‘l ostidan sho‘ng‘ib parter holatiga o‘tkazish – parter

holatida yelkani kalitsimon ushlab aylana yugurib to‘ntarish, tik turgan holatida bo‘yin va qo‘lini biriktirib old tepadan ushlab tortib parter holatiga o‘tkazish – parter holatida old-tepadan uzoqdagi elka va bo‘yinni ushlab qayirib to‘ntarish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati1.

1. Жарылкапов, У. Б. (2023). Курашчиларнинг жисмоний ва тактик тайёргарлигини ривожлантириш масалалари. *Fan-Sportga*, (2), 110-111.

2. Amangeldiev B.O Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi 10-12 yoshli yunon-rum kurashchilarga texnik-taktik usullarini o‘rgatish muammolari // “Fan-sportga” ilmiy-nazariy jurnal. Chirchiq. 2026 .№2. B. 89-91.

3. Amangeldiev B.O O‘zbekistonda boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yunon-rum kurashchilarni tayyorlashning dolzarb muammolari // “Muǵallim hám úzliksiz bilimlendiriw” ilmiy-nazariy jurnal. Nukus. 2026. №1/2. B. 442-448.

4. Amangeldiev B.O Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yunon-rum kurashchilarga texnik usullarni o‘rgatishning dolzarb muommalari “Yozgi olimpiya va paralimpiya o‘yinlariga sportchilarni tayyorlashning dolzarb muammolari hamda yechimlari” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. Nukus. 2025. – B. 387-389.

COMPARATIVE ANALYSIS OF INTERNATIONAL SWIMMING FEDERATION (WORLD AQUATICS) COACHING PATHWAYS AND THEIR ADAPTATION INTO UZBEKISTAN’S NATIONAL SPORTS QUALIFICATION CURRICULA

Allambergenov Daniyar Bakbergen uli
Trainee-teacher of the Karakalpak State University named after Berdakh
Uzbekistan, Nukus
E-mail: doniallambergenov3@gmail.com

Keywords: *Coach Education, World Aquatics, Uzbekistan Sports Curricula, Swimming Pedagogy, Comparative Sports Science, Professional Qualification.*

Ключевые слова: *подготовка тренеров, World Aquatics, учебные программы по спорту в Узбекистане, методика обучения плаванию, сравнительная спортивная наука, профессиональная квалификация.*

Kalit so‘zlar: *murabbiylarni tayyorlash, World Aquatics, O‘zbekistonda sport mashg‘ulotlari dasturlari, suzishni o‘qitish usullari, qiyosiy sport fanlari, professional malaka.*

1. Introduction. The global landscape of competitive swimming has evolved from empirical, trial-and-error coaching methodologies into a rigorous, data-driven science. At the center of this transformation is World Aquatics, which establishes international benchmarks for technical proficiency, ethics, safeguarding, and tiered coach certification (Levels 1 through 3).

In the Republic of Uzbekistan, swimming has experienced a strategic resurgence, driven by national state programs aimed at youth athletic development, infrastructural expansion, and Olympic success. However, a structural disconnect often persists between legacy national coaching qualifications (traditionally inherited from Soviet-era pedagogical models) and contemporary international paradigms. While national sports institutes produce numerous certified physical culture specialists, localized curricula sometimes lack integration with World Aquatics’ latest modular e-learning pathways, advanced biomechanical kinematics, and modern sports science metrics (e.g., lactate threshold tracking and energy system periodization).

This thesis addresses this critical gap by performing a systematic comparative analysis of World Aquatics coaching pathways and evaluating how Uzbekistan can seamlessly adapt these

international standards into its national sports qualification framework without compromising local institutional strengths.

2. Literature Review & Theoretical Framework

The modernization of coaching education relies heavily on competency-based pedagogical frameworks. According to recent sports administration research, coaching efficacy directly correlates with structured, continuous professional development (CPD) rather than static, one-time certification courses.

The World Aquatics Model: World Aquatics structures its educational initiatives through specialized pathways (Sports Pathway and Life Skills Pathway), focusing on multi-tiered certification (Levels 1, 2, and 3) alongside modern e-learning initiatives like "Discover Coaching: Swimming". These modules emphasize holistic athlete development, ethics, integrity, and safe sport practices alongside core physiological and technical training.

The Uzbek Sports Qualification Landscape: Uzbekistan’s physical education framework is primarily anchored in specialized higher education institutions and regional Olympic training centers supervised by the Ministry of Sports. Historically, the curriculum has prioritized general pedagogical theory and high-volume training traditions. Adapting international criteria requires bridging traditional academic sports science with modular, competency-based international metrics.

3. Methodology

This study employs a mixed-methods comparative research design, combining qualitative content analysis with quantitative curriculum evaluation:

1) **Comparative Document Analysis:** A granular mapping of World Aquatics Level 1–3 syllabus requirements against the academic syllabi of Uzbekistan’s sports coaching departments. Key variables analyzed include contact hours, assessment methods, practical coaching hours, and inclusion of sports science subjects (biomechanics, nutrition, sports psychology).

2) **Stakeholder Surveys and Interviews:** Structured interviews administered to swimming coaches, regional sports school directors, and curriculum developers in Uzbekistan (spanning Tashkent, Samarkand, and regional centers like Republic of Karakalpakstan) to assess the accessibility and practical applicability of international guidelines.

3) **Gap Analysis:** Identification of structural friction points, language barriers in accessing global e-learning portals, and infrastructural disparities between metropolitan and regional training hubs.

4. Comparative Analysis: World Aquatics vs. Uzbekistan National Curricula

Evaluation Dimension	World Aquatics Coaching Framework	Uzbekistan National Sports Qualification System	Identified Gaps & Discrepancies
Structure & Tiering	Modular, multi-level (Level 1, 2, 3) with progressive practical and online testing.	Degree-based higher education (Bachelor's/Master's in Physical Culture) or periodic state certification.	National tracks are often academic and rigid; they lack rapid modular updates reflecting current global trends.
Core Content Focus	Biomechanics, stroke efficiency, sports integrity, safe sport ethics, and athlete wellbeing.	General athletic training theory, anatomy, physiology, and history of physical culture.	International focus on modern safeguarding and psychological climate needs stronger emphasis in local syllabi.
Technology Integration	Digital e-learning portals (CORAL platform) and video kinematic analysis integration.	Varied; advanced tech is largely restricted to elite national teams in Tashkent.	Limited access to digital performance analytics tools for regional coaches.
Language & Accessibility	Primarily delivered in English, French, Spanish, and Arabic.	Delivered in Uzbek and Russian.	Language barriers limit direct participation of regional Uzbek coaches in global World Aquatics seminars.

5. Results and Discussion

The comparative evaluation reveals three major findings regarding coach education in Uzbekistan:

1. **The Theoretical-Practical Disconnect:** While Uzbek sports graduates possess strong foundational knowledge in anatomy and general training principles, they often lack specialized, contemporary knowledge in modern sprint/distance swimming periodization and underwater torque/turn biomechanics promoted by World Aquatics.

2. **Regional Disparities:** Coaches operating in regional sports schools face significant obstacles in acquiring international certifications due to financial constraints, geographical isolation from metropolitan sports hubs, and language barriers associated with international e-learning platforms.

3. **The Opportunity for Dual-Certification Models:** Establishing a recognized equivalency framework—where completion of approved national modules aligns with World Aquatics credit hours—would drastically accelerate the international standing of Uzbek swimming coaches.

6. Recommendations and Conclusion

To bridge the gap between national traditions and international excellence, this thesis recommends the following strategic measures for the Ministry of Sports of the Republic of Uzbekistan and the Uzbekistan Aquatics Federation:

Curriculum Hybridization: Integrate World Aquatics Level 1 and 2 foundational modules directly into the syllabus of the Uzbekistan State University of Physical Education and Sport.

Localized Digital Portals: Translate and adapt World Aquatics e-learning content (such as "Discover Coaching" modules) into Uzbek and Russian to remove linguistic barriers for regional coaches.

Mobile Coach Education Clinics: Partner with World Aquatics development programs to host regional face-to-face certification clinics in diverse provinces, ensuring equitable talent and coaching identification outside of Tashkent.

Continuous Professional Development (CPD) Mandate: Tie coaching license renewals to ongoing educational credits, fostering a culture of lifelong learning and scientific adaptation.

By systematically modernizing coach education through international alignment, Uzbekistan can build a sustainable pipeline of world-class swimming instructors, ultimately securing long-term competitive success on the international aquatic stage.

References

1. World Aquatics. (2024). *World Aquatics Education Programmes Guidelines: Coaches Certification and Technical Officials Education*. World Aquatics Development Department.
2. World Aquatics. (2026). *World Aquatics Launches "Discover Coaching: Swimming" E-Learning Course*. Retrieved from World Aquatics Official News Portal.
3. Ministry of Sports of the Republic of Uzbekistan. (2025–2026). *State Regulations on the Qualification and Certification of Sports Specialists and Coaches*. Government Portal of the Republic of Uzbekistan.
4. World Swimming Coaches Association (WSCA). (2024). *The Professional Swim Coaches Course Book: Raising Global Coaching Standards*. WSCA Publications.
5. Institute of Swimming. (2025). *Defined Coaching Pathways and Continuing Professional Development (CPD) Frameworks in Aquatics*. Swim England Publishing.
6. Salimov, G. K. (2023). *Pedagogical foundations for training high-performance athletes and coaches in modern sports systems within Uzbekistan*. Tashkent: Fan va Texnologiya.
7. Maglischo, E. W. (2003). *Swimming Fastest: A Comprehensive Guide to Superior Technique, Training, and Program Design*. Mountain View, CA: Mayfield Publishing.
8. International Olympic Committee (IOC). (2022). *Olympic Coach Education Manual: Pathways to Excellence in Grassroots and Elite Coaching*. Lausanne: IOC Olympic Solidarity.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB KURASHCHILAR TAYYORLASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

Barakaev Bahodir O‘roqovich
Samarqand davlat pedagogika instituti

Kalit so‘zlar: *kurash, raqamli texnologiya, sport tayyorgarligi, vide tahlil, sun’iy intellekt, sensor, mashg‘ulot yuklamasi, biomekanika, sport monitoringi, individual tayyorgarlik.*

Ключевые слова: *кураш, цифровые технологии, спортивная подготовка, видеоанализ, искусственный интеллект, сенсор, тренировочная нагрузка, биомеханика, спортивный мониторинг, индивидуальная подготовка.*

Keywords: *kurash, digital technology, sports training, video analysis, artificial intelligence, sensor, training load, biomechanics, sports monitoring, individual training.*

Kirish. Kurash insoniyat tarixidagi eng qadimiy sport turlaridan biri bo‘lishi bilan birga, yuqori darajadagi jismoniy va ruhiy tayyorgarlikni talab qiladigan murakkab sport faoliyatidir. Zamonaviy kurashda raqobatning kuchayishi sportchilarni tayyorlash metodikasini muntazam takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, sportchining texnik harakatlarini aniqlik bilan baholash, mashg‘ulot yuklamasini individual me’yorlash va musobaqa faoliyatini obyektiv tahlil qilish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

An’anaviy murabbiylik tajribasida sportchi faoliyatini baholash ko‘p jihatdan murabbiyning kuzatuvi va tajribasiga tayanadi. Murabbiyning tajribasi muhim omil bo‘lsa-da, inson ko‘zi bilan juda qisqa vaqt ichida sodir bo‘ladigan harakatlarning barcha biomekanik xususiyatlarini aniqlash imkoniyati cheklangan. Shu sababli zamonaviy sport fanida obyektiv o‘lchash va raqamli monitoring vositalariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Ilmiy adabiyotlarda kiyiladigan sensorlar, inertial o‘lchov qurilmalari va boshqa raqamli vositalar sportchining harakatlari, jismoniy yuklamasi hamda texnik ko‘rsatkichlarini obyektiv qayd etish imkonini berishi ko‘rsatilgan. Kurashchilar ishtirokidagi tadqiqotlarda ham inertial sensorlardan foydalanib, harakat amplitudasi, tana og‘irlik markazi va texnik harakatlarning ayrim kinematik xususiyatlarini baholash mumkinligi ko‘rsatilgan[1].

Shu sababli kurashchilar tayyorgarligini raqamlashtirish nafaqat texnik vositalarni mashg‘ulotga olib kirish, balki olingan ma’lumotlardan pedagogik qaror qabul qilishda foydalanishni anglatadi.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali kurashchilarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish hamda mashg‘ulot jarayonida raqamli monitoringdan samarali foydalanish yo‘llarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

Kurashchilar tayyorgarligida foydalanish mumkin bo‘lgan zamonaviy raqamli texnologiyalarni tasniflash.

Videotahlil va sensorli monitoringning texnik tayyorgarlikka ta’sirini aniqlash.

Raqamli ma’lumotlar asosida mashg‘ulot yuklamasini individual boshqarish imkoniyatlarini o‘rganish.

Sun’iy intellekt va kompyuter ko‘rish texnologiyalarining kurash texnikasini baholashdagi imkoniyatlarini tahlil qilish.

Kurashchilar tayyorgarligiga raqamli texnologiyalarni joriy etishning amaliy modelini taklif qilish.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, sport faoliyatini raqamlashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar natijalarini o‘rganish va tizimli tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama

Kurashchining sport natijasi bir nechta o‘zaro bog‘liq omillarning yig‘indisidan tashkil topadi. Bular jismoniy tayyorgarlik, texnik mahorat, taktik fikrlash, psixologik barqarorlik va tiklanish jarayonidir. Raqamli texnologiyalar ushbu komponentlarning har biri bo‘yicha ma’lumot yig‘ish va ularni yagona tizimda tahlil qilish imkoniyatini yaratadi[2].

Sport amaliyotida kiyiladigan qurilmalar va IoT texnologiyalari sportchining holatini kuzatish, mashg‘ulot samaradorligini baholash va jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini monitoring qilishda qo‘llanilmoqda. Kurash mashg‘ulotlari uchun raqamli texnologiyalarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Texnologiya	Asosiy vazifasi	Kurashdagi qo‘llanilishi
Videotahlil	Harakatni tasvirga olish va tahlil qilish	Texnik xatolarni aniqlash
IMU sensorlari	Tezlanish, aylanish va harakatni qayd qilish	Texnik harakatlar kinematikasini baholash
Yurak urish monitoringi	Ichki yuklamani nazorat qilish	Mashg‘ulot intensivligini boshqarish
Raqamli platformalar	Ma’lumotlarni saqlash va tahlil qilish	Sportchi dinamikasini kuzatish
Sun’iy intellekt	Katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish	Texnik harakatlarni avtomatik tasniflash
Kompyuter ko‘rishi	Tana holati va harakat nuqtalarini aniqlash	Harakat texnikasini baholash
Virtual simulyatsiya	Raqib va vaziyatlarni modellashtirish	Taktik tayyorgarlik

Videotahlil orqali texnik tayyorgarlikni takomillashtirish

Kurashdagi texnik harakatlar juda qisqa vaqt ichida amalga oshiriladi. Shu sababli mashg‘ulot yoki bellashuvni videoga olish va uni keyinchalik kadrma-kadr tahlil qilish sportchining xatolarini aniqroq ko‘rsatishga yordam beradi.

Masalan, sportchi raqibini uloqtirish vaqtida oyoq qo‘yish nuqtasini noto‘g‘ri tanlayotgan bo‘lishi mumkin. Oddiy kuzatuvda ushbu xato murabbiy tomonidan umumiy tarzda baholansa, videoni sekinlashtirib ko‘rish orqali xatoning aynan qaysi bosqichda yuzaga kelayotganini aniqlash mumkin.

Videotahlilning yana bir muhim jihati — sportchiga o‘z harakatini vizual tarzda ko‘rsatishdir. Bunda “to‘g‘ri bajar” degan umumiy ko‘rsatma o‘rniga sportchi o‘zining amaldagi harakati bilan namunaviy harakatni taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Kurash bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarda sun’iy intellekt va kompyuter ko‘rish asosidagi videoanalitika tizimlaridan texnik harakatlarni aniqlash va tasniflash uchun foydalanish istiqbollari ko‘rsatilmoqda[3]

Kurashchilar faoliyatini raqamlashtirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri — inertial o‘lchov sensorlaridan foydalanishdir. Bunday qurilmalar akselerometr va giroskop kabi sensorlar yordamida sportchining tezlanishi, burilishi va harakat dinamikasi haqida ma’lumot to‘plashi mumkin.

Jangovar sport turlarida kiyiladigan sensorlardan foydalanish texnik harakatlar, biomekanik ko‘rsatkichlar, mashg‘ulot yuklamasi va jarohatlanish xavfi bilan bog‘liq parametrlarni o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirmoqda[4].

Kurashchi tayyorgarligida sensorlardan foydalanish quyidagi vazifalarni hal qilishga xizmat qilishi mumkin:

harakat tezligini baholash;
texnik harakatning davomiyligini aniqlash;
tana qismlarining harakat amplitudasini kuzatish;
takroriy harakatlar sonini hisoblash;
mashg‘ulot yuklamasining o‘zgarishini monitoring qilish;
texnik harakatlarning barqarorligini taqqoslash.

Bunda sensorlardan olinadigan ma’lumotlar alohida ko‘rsatkich sifatida emas, balki murabbiyning pedagogik kuzatuvlari bilan birgalikda baholanishi maqsadga muvofiq.

Kurash mashg‘ulotlarida yuklamani noto‘g‘ri rejalashtirish sportchining charchashi, tiklanishning sekinlashishi va mashg‘ulot samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun yuklamani faqat bajarilgan mashqlar soni orqali emas, balki sportchining individual reaksiyasi asosida baholash muhimdir.

Raqamli monitoring yordamida mashg‘ulot davomida va undan keyin yurak urish tezligi, mashg‘ulot davomiyligi, harakat faolligi hamda subyektiv charchoq kabi ko‘rsatkichlarni birgalikda hisobga olish mumkin. Kiyiladigan sensorlar ichki va tashqi yuklamani monitoring qilish uchun qo‘llanishi mumkinligi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan[4].

Bunday tizim murabbiyga “hamma sportchilar uchun bir xil yuklama” tamoyilidan bosqichma-bosqich voz kechib, individual mashg‘ulot dasturlarini shakllantirish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt va kompyuter ko‘rish imkoniyatlari

Sun’iy intellektning sportdagi asosiy afzalliklaridan biri katta hajmdagi ma’lumotlarni inson imkoniyatidan tezroq qayta ishlashidir. Kurash musobaqalarining videolari, sportchi ko‘rsatkichlari va texnik harakatlar haqidagi ma’lumotlar muntazam yig‘ib borilsa, kelgusida sportchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash uchun ma’lumotlar bazasi shakllantirish mumkin.

Kompyuter ko‘rish texnologiyalari yordamida videodagi inson tanasining asosiy anatomik nuqtalarini aniqlash va ularning vaqt davomida qanday o‘zgarishini kuzatish mumkin. Bu esa texnik harakatlarni faqat “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” deb baholashdan ko‘ra, ularning biomekanik tuzilishini chuqurroq o‘rganishga imkon beradi.

Biroq sun’iy intellekt tizimlari murabbiyni to‘liq almashtirishi kerak emas. Aksincha, uning vazifasi murabbiyga qaror qabul qilish uchun qo‘shimcha, obyektiv ma’lumot berishdan iborat bo‘lishi lozim. Zamonaviy raqamli murabbiylik tizimlari bo‘yicha sharhlarda ham texnik aniqlik yuqori bo‘lishiga qaramay, real mashg‘ulot jarayonida foydalanish qulayligi, uzoq muddatli samaradorlik va murabbiy ehtiyojlariga moslashish masalalari hali ham tadqiqot talab qilishi qayd etilgan[5].

Kurashchilarni tayyorlashning raqamli modeli

O‘rganilgan ilmiy ma’lumotlar asosida kurashchilar tayyorgarligini quyidagi ketma-ketlik asosida tashkil etish taklif qilinadi:

1-bosqich — boshlang‘ich diagnostika. Sportchining jismoniy, texnik va funksional ko‘rsatkichlari aniqlanadi. Mashg‘ulot jarayonida videoyozuv va mavjud sensor vositalaridan foydalaniladi.

2-bosqich — ma’lumotlarni shakllantirish. Sportchining har bir mashg‘ulotiga oid asosiy ko‘rsatkichlar elektron bazaga kiritiladi. Shu orqali sportchining individual “raqamli profili” yaratiladi.

3-bosqich — tahlil. Haftalik yoki oylik natijalar oldingi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslanadi. Texnik va jismoniy rivojlanish dinamikasi aniqlanadi.

4-bosqich — individual dasturlash. Aniqlangan kamchiliklarga qarab sportchi uchun maxsus mashqlar tanlanadi. Masalan, texnik harakatning tezligi past bo‘lsa, tezkorlikni rivojlantiruvchi mashqlar ulushi oshiriladi.

5-bosqich — qayta monitoring. Yangi natijalar oldingi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslanadi. Agar ijobiy o‘zgarish kuzatilsa, dastur davom ettiriladi; natija kutilgan darajada bo‘lmasa, mashg‘ulot mazmuniga tuzatish kiritiladi.

Ushbu yondashuvning asosiy xususiyati “o‘lchash — tahlil qilish — qaror qabul qilish — qayta o‘lchash” tamoyiliga asoslanishidir.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida murabbiy va sportchi o‘rtasidagi teskari aloqa samaradorligi oshadi. Sportchi o‘z natijasini raqamlar va videolar orqali ko‘rib, mashg‘ulot maqsadini aniqroq anglaydi.

Yana bir muhim masala — sensorlardan olingan ma’lumotlarning ishonchliligi. Jangovar sportlarda harakatlar juda tez, ko‘p yo‘nalishli va beqaror bo‘lgani sababli sensor ma’lumotlarini laboratoriya standartlari bilan tekshirish zarur. Tadqiqotchilar ham sensor texnologiyalarida validatsiya, standartlashtirilgan protokollar va olingan murakkab ma’lumotlarni murabbiy uchun amaliy tavsiyaga aylantirish masalalarini muhim muammo sifatida ko‘rsatmoqda[6]

Bundan tashqari, sportchi haqidagi raqamli ma’lumotlarni himoya qilish masalasi ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Biometrik va sport ko‘rsatkichlariga oid ma’lumotlardan foydalanishda maxfiylik, ma’lumotlarga kirish huquqi va ulardan foydalanish maqsadi aniq belgilanishi lozim[7].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar kurashchilarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkoniyatiga ega. Videotahlil sportchining texnik xatolarini ko‘rish va tuzatishga, sensorlar harakat hamda yuklama ko‘rsatkichlarini obyektiv baholashga, raqamli platformalar ma’lumotlarni tizimlashtirishga, sun’iy intellekt esa katta hajmdagi ma’lumotlardan yangi xulosalar chiqarishga xizmat qilishi mumkin.

Kelgusidagi tadqiqotlarda turli yosh va malaka darajasidagi kurashchilar ishtirokida raqamli monitoring tizimining samaradorligini eksperimental tarzda tekshirish, texnik harakatlarni avtomatik aniqlash algoritmlarini ishlab chiqish hamda O‘zbekiston kurash maktabiga mos raqamli sport monitoring modelini yaratish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xue H., Han C., Zhu D. *Limb biomechanics in combat sports: insights from wearable sensor technology*. Frontiers in Bioengineering and Biotechnology, 2025. (frontiersin.org)
2. Camara F., et al. *Wearables and Internet of Things (IoT) Technologies for Fitness Assessment: A Systematic Review*. Sensors, 2021. (PubMed Central (PMC))
3. Seshadri D.R., et al. *Wearable sensors for monitoring the internal and external workload of the athlete*. npj Digital Medicine, 2019. (Nature)
4. *Trends Supporting the In-Field Use of Wearable Inertial Sensors for Sport Performance Evaluation: A Systematic Review*. (PubMed Central (PMC))
5. *Exploring the Role of Wearable Technology in Sport Kinematics and Kinetics: A Systematic Review*. (PubMed Central (PMC))
6. *Assessment of functional movement screen and performance parameters of wrestlers using inertial sensors*. Frontiers in Sports and Active Living, 2025. (PubMed Central (PMC))
7. Azimov A.M. *Prospects of Using Artificial Intelligence and Technology in Wrestling*. Modern Science and Research, 2025. (inLibrary)
8. Juhanis, M. Adam Mappaompo, M. Imran Hasanuddin, M.Q. Hasyim. *Innovation in Wrestling Education: Harnessing Technology for Athlete Performance Enhancement*. International Journal of Teaching and Learning. (injotel.org)
9. *Digital coaching systems in sport: a systematic review of emerging technologies and research gaps for evidence-based coaching*. Jurnal Riset Tindakan Indonesia, 2026. (jrti.eloracenter.org)

10. Dehkanov A.I. *Development of an Intelligent Video Analytics Model for Evaluating Wrestling Techniques*. 2025. (WOS Journals)

ERKIN KURASHCHILARGA TEXNIK USULLARNI O‘RGATISH JARAYONIDA USTUVOR HARAKAT ELEMENTLARINI ANIQLASH VA ULARNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Satipov Bekzod Alisher og‘li
Abu rayhon beruniy nomidagi Urganch Davlat universiteti “Yakka kurash sport turlari”,
kafedrasi professor, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Satipov.92@mail.ru

Kalit so‘zlar: *erkin kurash, texnik tayyorgarlik, ustuvor harakatlar, koordinatsiya, muvozanat, o‘rgatish metodikasi.*

Ключевые слова: *вольная борьба, техническая подготовка, приоритетные двигательные элементы, координация, равновесие, методика обучения.*

Keywords: *freestyle wrestling, technical training, key movement elements, coordination, balance, teaching methodology.*

KIRISH. Zamonaviy erkin kurashda sportchilarning texnik tayyorgarligi musobaqa faoliyati samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bellashuv jarayonida texnik usullarni aniq, tezkor va vaziyatga mos ravishda bajarish sportchidan nafaqat yetarli jismoniy tayyorgarlikni, balki harakatlarning o‘zaro muvofiqlashgan tizimini ham talab etadi. Shu sababli erkin kurashchilarga texnik usullarni o‘rgatishda alohida harakatlarni takrorlash bilan cheklanmasdan, ularning bajarilishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ustuvor elementlarni aniqlash va maqsadli shakllantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biridir.

Erkin kurash texnikasi tarkibida turli usullar mavjud bo‘lsa-da, ularning ko‘pchiligida umumiy harakat komponentlari kuzatiladi. Xususan, raqib bilan qulay masofani egallash, ushlashni tashkil etish, muvozanatdan chiqarish, tayanch nuqtalarini o‘zgartirish, gavda va oyoq harakatlarini muvofiqlashtirish kabi elementlar turli texnik harakatlarning bajarilishida muhim o‘rin tutadi.

Harakatlarni o‘rgatish nazariyasiga ko‘ra, murakkab motor ko‘nikmalarni egallashda harakatning asosiy tarkibiy qismlarini anglash, ularni izchil mashq qilish va keyinchalik yaxlit faoliyatga birlashtirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv erkin kurashchilarning texnik tayyorgarligida ham metodik asos sifatida qo‘llanishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi. Erkin kurashchilarga texnik usullarni o‘rgatishda ustuvor harakat elementlarini aniqlash va ularni bosqichma-bosqich shakllantirish metodikasini ilmiy asoslash.

Tadqiqotning vazifalari. Erkin kurash texnik usullarining tuzilishini tahlil qilish hamda ustuvor harakat elementlarini aniqlash va tizimlashtirish.

Ustuvor harakat elementlarini bosqichma-bosqich o‘rgatish metodikasini ishlab chiqish va ularni o‘zlashtirishni baholash mezonlarini belgilash.

Tadqiqot usullari. Mazkur nazariy-metodik tezisda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, texnik harakatlarni tarkibiy qismlarga ajratish va pedagogik modellashtirish yondashuvlari asos qilib olindi. Taklif etilgan metodikaning amaliy samaradorligini aniqlash uchun keyingi tadqiqotlarda pedagogik kuzatuv, ekspert baholash va pedagogik tajriba usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Asosiy qism. Erkin kurashchilarning texnik tayyorgarligini shakllantirishda harakatlarning tuzilishi, fazoviy-vaqt xususiyatlari va o‘zaro muvofiqligini hisobga olish

muhim hisoblanadi. Texnik usulni samarali bajarish sportchining alohida harakat elementlarini egallashi bilan bir qatorda, ularni yaxlit harakat tizimiga birlashtira olishiga ham bog‘liq. R. Schmidt va T. Lee (2019) tomonidan ishlab chiqilgan harakatlarni o‘rganish nazariyasida motor ko‘nikmalarni shakllantirish, mashqlarni tashkil etish va qayta aloqa mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur nazariy qoidalar murakkab sport texnikasini bosqichma-bosqich o‘rgatishning umumiy ilmiy asosini tashkil etadi [2]. F. H. Raheem (2024) boshlang‘ich tayyorgarlikdagi erkin kurashchilarga ayrim texnik usullarni o‘rgatishda motor o‘rganish mexanizmlarining ahamiyatini tadqiq etgan. Tadqiqotda o‘rgatish jarayonini harakatlarni o‘zlashtirish qonuniyatlari asosida tashkil etish, xatolarni aniqlash va qayta aloqa vositalaridan foydalanish zarurligi ta’kidlangan [2]. Yuqoridagi ilmiy qarashlar asosida erkin kurash texnikasini o‘rgatishda ustuvor harakat elementlarini quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish taklif etiladi.

1-jadval.

Erkin kurash texnik usullarini o‘rgatishda ustuvor harakat elementlari

№	Ustuvor harakat elementi	Texnik ahamiyati	O‘rgatish vositasi
1	Asosiy turish holati	Tana barqarorligini saqlash va hujumga tayyorlanish	Kurash holatida siljish mashqlari
2	Masofani boshqarish	Hujum uchun qulay vaziyat yaratish	Juftlikda yaqinlashish va uzoqlashish
3	Ushlash harakatlari	Raqib harakatini nazorat qilish	Qo‘l va gavdadan ushlash mashqlari
4	Muvozanatdan chiqarish	Raqib tayanch barqarorligini buzish	Tortish, itarish va aylantirish
5	Gavda sathini pasaytirish	Oyoqlarga hujum qilishga tayyorlanish	Tizzalarni bukib usulga kirish
6	Oyoq va gavda koordinatsiyasi	Harakatlarning bir vaqtda bajarilishini ta’minlash	Usulga kirish va burilish mashqlari
7	Texnik usulni yakunlash	Raqib ustidan nazoratni saqlash	Yiqitish va parterga o‘tish mashqlari

Jadval muallif tomonidan harakatlarni o‘rgatish nazariyasi va kurash texnikasining metodik xususiyatlarini umumlashtirish asosida taklif etilgan. Ustuvor harakat elementlarini aniqlashda ularning turli texnik usullarda takrorlanishi, bajarilish samaradorligiga ta’siri va boshqa harakat komponentlari bilan bog‘liqligi asosiy mezon hisoblanadi. Masalan, oyoqlardan ushlab yiqitishda gavda sathini pasaytirish, tayanch holatini o‘zgartirish, raqibga yaqinlashish va harakat yo‘nalishini boshqarish muhim ahamiyatga ega. Qo‘lidan tortib parterga o‘tkazishda esa ushlash, tortish yo‘nalishini belgilash, muvozanatdan chiqarish va gavdani to‘g‘ri joylashtirish ustuvor elementlar hisoblanadi. Shu bois texnik usullarni o‘rgatishda ularning tashqi ko‘rinishidan ko‘ra, bajarilishini ta’minlovchi tayanch harakat mexanizmlariga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Ustuvor harakat elementlarini shakllantirish metodikasi

Texnik usullarni o‘rgatish jarayonini quyidagi to‘rt bosqich asosida tashkil etish taklif etiladi.

Birinchi bosqich — tayanch harakatlarni shakllantirish. Kurashchilarga asosiy turish holati, gilam bo‘ylab siljish, tana og‘irligini ko‘chirish, gavda sathini pasaytirish va muvozanatni saqlash harakatlari o‘rgatiladi. Bu mashqlar murakkab texnik usullarni o‘zlashtirish uchun asos yaratadi.

Ikkinchi bosqich — asosiy texnik elementlarni o‘zlashtirish. Ushlash, raqibni muvozanatdan chiqarish, usulga kirish va yakunlovchi harakatlar alohida mashq qilinadi. Bunda harakatlarning aniqligi, yo‘nalishi va o‘zaro muvofiqligiga e’tibor qaratiladi.

Uchinchi bosqich — harakat elementlarini o‘zaro bog‘lash. Alohida o‘rganilgan elementlar yaxlit texnik usulga birlashtiriladi. Ushlash, muvozanatdan chiqarish, usulga kirish va yakunlash harakatlarining uzluksizligi, ritmi hamda ketma-ketligi shakllantiriladi.

To‘rtinchi bosqich — texnik harakatlarni mustahkamlash. O‘zlashtirilgan usullar dastlab sherikning cheklangan qarshiligida, keyinchalik turli bellashuv vaziyatlarida bajariladi. Natijada sportchilarning raqib harakatiga moslashish va texnik usullarni o‘z vaqtida qo‘llash ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Mazkur yondashuv United World Wrestling murabbiylar ta’limi dasturidagi texnik harakatlarni qismlarga ajratib o‘rgatish, qayta aloqa berish va amaliy mashqlar orqali mustahkamlash tamoyillariga mos keladi [5].

Texnik harakatlarni o‘zlashtirishni baholash

Taklif etilgan metodikani baholashda harakatlarning aniqligi, usulga kirish ketma-ketligi, gavda va oyoq harakatlarining muvofiqligi, muvozanatni saqlash hamda usulni yakunlash sifati asosiy mezon sifatida belgilanadi.

Har bir mezon 0–3 ball oralig‘ida baholanadi: 0 ball — bajarilmagan; 1 ball — jiddiy xatolar bilan; 2 ball — kichik xatolar bilan; 3 ball — texnik jihatdan to‘g‘ri bajarilgan. Umumiy maksimal ko‘rsatkich 15 ballni tashkil etadi. Mazkur mualliflik baholash tizimining samaradorligi va ishonchliligi pedagogik tajribada tekshirilishi lozim.

XULOSA. Ilmiy-metodik manbalar tahlili erkin kurashchilarga texnik usullarni o‘rgatishda ustuvor harakat elementlarini aniqlash va izchil shakllantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Asosiy turish holati, masofani boshqarish, ushlash, muvozanatdan chiqarish, gavda sathini o‘zgartirish, harakatlarni muvofiqlashtirish va usulni yakunlash texnik tayyorgarlikning muhim komponentlari sifatida ajratildi.

Ushbu elementlarni alohida o‘rgatish, o‘zaro bog‘lash va turli sharoitlarda mustahkamlashga asoslangan to‘rt bosqichli metodika taklif etildi. Mazkur yondashuvning texnik usullarni o‘zlashtirish sifati va barqarorligiga ta’sirini pedagogik tajribalar orqali aniqlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 21-yanvar, PQ-22-sonli “Sport kurashlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. Schmidt, R. A., & Lee, T. D. (2019). Motor Learning and Performance: From Principles to Application (6th ed.). Human Kinetics. 328 p. Manba.
3. Raheem, F. H. (2024). The effect of motor learning mechanism to learning some freestyle wrestling holds for beginners. Journal of College of Physical Education, 17(2). https://doi.org/10.33170/jocope.v17i2.184-194.
4. Gürsoy, S., & Zekioglu, A. (2026). Peer-mediated instruction improves acquisition of complex wrestling techniques in school physical education. PLOS ONE, 21(5), e0348070. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0348070.
5. United World Wrestling. UWW Coach Education Programme. Rasmiy metodik manba.
6. Tashnazarov, D. Y. (2026). Progressive step-by-step methods for enhancing technical mastery in Greco-Roman wrestlers. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 7(06), 33–40. https://doi.org/10.37547/mesmj-V7-I6-05.

7. United World Wrestling Academy. Training Plans: Practice Plan Essentials. Murabbiylar uchun metodik material.

8. F.A. Kerimov. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati.T.2005.- 367 b.

9. N.A.Tastanov.Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati / darslik: “Sano-standart” nashiriyoti, 2017- 480 b.

ISHLAB CHIQARISH GIMNASTIKASINING AYOLLAR ORGANIZMIGA TA’SIRI

Kurbanova Durdona Salaxitdinovna
Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti
O‘zbekiston, Andijon
E-mail: durdonakurbanova89@gmail.com

Kalit so‘zlar: *ishlab chiqarish gimnastikasi, jismoniy faollik, mehnat faoliyati, jismoniy ish qobiliyati, tayanch-harakat apparati, charchoq, sog‘lomlashtirish, ishlab chiqarish.*

Ключевые слова: *промышленная гимнастика, физическая активность, трудовая деятельность, физическая работоспособность, опорно-двигательная система, усталость, улучшение здоровья, производство.*

Key words: *workplace gymnastics, physical activity, work activity, physical work capacity, musculoskeletal system, fatigue, health promotion, production.*

Kirish. Zamonaviy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida mehnat jarayonining mazmuni sezilarli darajada o‘zgarmoqda. Texnologik jarayonlarning avtomatlashtirilishi va raqamlashtirilishi bir tomondan og‘ir jismoniy mehnatni kamaytirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan uzoq vaqt o‘tirib ishlash, kamharakatlilik, bir xil harakatlarni takrorlash va uzoq muddat statik holatda qolish kabi omillarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.

Ayniqsa, ayollar mehnat faoliyatida o‘tirib ishlash, kompyuter bilan ishlash, tik turib xizmat ko‘rsatish, bir xil amplitudali takroriy harakatlarni bajarish kabi mehnat shakllari keng uchraydi. Uzoq davom etadigan o‘tirish va kamharakatlilik yurak-qon tomir hamda metabolik salomatlik uchun noqulay omil bo‘lishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, ishlab chiqarish gimnastikasi mehnat jarayoniga bevosita integratsiya qilinadigan, qisqa vaqt ichida bajariladigan va maxsus jihozlarni talab qilmaydigan sog‘lomlashtiruvchi vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti kattalar uchun haftasiga kamida 150–300 daqiqa o‘rtacha intensivlikdagi aerob jismoniy faollik yoki 75–150 daqiqa yuqori intensivlikdagi faollikni hamda asosiy mushak guruhlarini qamrab oluvchi kuch mashqlarini haftasiga kamida ikki kun bajarishni tavsiya qiladi. Ishlab chiqarish gimnastikasi ushbu umumiy jismoniy faollikni to‘ldiruvchi vosita sifatida qaralishi mumkin.

So‘nggi ilmiy adabiyotlar ishlab chiqarishdagi jismoniy mashqlarni mushak-skelet tizimi salomatligini qo‘llab-quvvatlashning istiqbolli vositasi sifatida baholamoqda. Ish joyidagi mashqlar bo‘yicha tizimli sharhlarda mashqlar og‘riq va funksional holatni yaxshilashda ijobiy natijalar bergani, mashqlarni ergonomika va ta’lim bilan birlashtirgan kompleks dasturlar esa barqarorroq natijalar ko‘rsatishi qayd etilgan.

Tadqiqot maqsadi. Ayollar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirih uchun, ishlab chiqarish gimnastikasidan unumli foydalish.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Ayollar uchun ishlab chiqarish gimnastikasining metodik tamoyillari:

1. Individuallashtirish — mashqlar xodimning yoshi, jismoniy tayyorgarligi va sog‘lig‘i holatiga mos bo‘lishi kerak.

2. Muntazamlilik — gimnastika muntazam tashkil qilinsa, uning samarasi yuqori bo‘ladi.

3. Me’yorlangan yuklama — ishlab chiqarish gimnastikasi xodimni qo‘shimcha charchatmasligi kerak.

4. Mehnat faoliyatiga moslik — mashqlar ish vaqtida eng ko‘p yuklanayotgan tana qismlarini hisobga olishi zarur.

5. Oddiylik va xavfsizlik — mashqlarni ish joyining o‘zida xavfsiz bajarish imkoniyati bo‘lishi kerak.

6. Komplekslik — mashqlar butun organizmga uyg‘un ta’sir ko‘rsatishi maqsadga muvofiq.

Ayollarni alohida o‘rgangan tadqiqotlarda ham ish joyidagi jismoniy faollik dasturlari ayrim guruhlarda jismoniy faollikni oshirishga yordam berishi aniqlangan, biroq barcha ko‘rsatkichlarda bir xil samaradorlik kuzatilmagan. Bu holat ishlab chiqarish gimnastikasini universal vosita emas, balki ergonomik sharoit, ish va dam olish rejimi hamda umumiy jismoniy faollik bilan birgalikda qo‘llanadigan kompleks profilaktik vosita sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi.

Ishlab chiqarish gimnastikasi oddiygina “dam olish mashqlari” emas. To‘g‘ri tuzilgan mashqlar majmuasi ish jarayonida haddan tashqari yuklangan mushaklarni bo‘shashtirish, kam ishlayotgan mushaklarni faollashtirish va organizmning umumiy funksional holatini qayta tiklashga yo‘naltiriladi.

Ayollar organizmiga ta’sirining asosiy yo‘nalishlari:

- Tayanch-harakat apparatiga ta’siri
- Yurak-qon tomir tizimiga ta’siri
- Nafas olish tizimiga ta’siri

Ishlab chiqarish sharoitida ayollarda ko‘p uchraydigan muammolardan biri bo‘yin, yelka, bel va orqa mushaklarining zo‘riqishidir. Ayniqsa, kompyuterda uzoq ishlash, bir xil holatda o‘tirish, tik turib ishlash, takroriy qo‘l harakatlari, og‘irliklarni ko‘tarish va noto‘g‘ri ish holati mushaklarning statik zo‘riqishini kuchaytirishi mumkin.

Ish joyidagi mashqlar bo‘yicha tizimli tadqiqotlarda jismoniy mashqlar bo‘yin, yelka va bel sohalaridagi mushak-skelet muammolari hamda og‘riqlarni kamaytirishga yordam berishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Shuning uchun ayollar uchun ishlab chiqarish gimnastikasida bo‘yin, yelka kamari, umurtqa pog‘onasi, bel, tos va oyoq mushaklariga yo‘naltirilgan mashqlar alohida ahamiyatga ega.

Jismoniy mashqlar bajarilishi vaqtida yurak faoliyati faollashadi, qon aylanishi yaxshilanadi va to‘qimalarning kislorod bilan ta’minlanishi ortadi. Qisqa muddatli harakat tanaffuslari ayniqsa uzoq vaqt o‘tirib ishlaydigan ayollar uchun muhimdir.

Ishlab chiqarish gimnastikasiga nafas mashqlarini kiritish nafas olish faoliyatini boshqarish va organizmning umumiy funksional holatini yaxshilashga yordam beradi. Chuqur nafas olish, qo‘l harakati bilan uyg‘unlashtirilgan nafas mashqlari va ko‘krak qafasini kengaytiruvchi mashqlar ish kunidagi qisqa tiklanish davrida qo‘llanishi mumkin.

Mehnat faoliyatining davomiyligi ortishi bilan organizmda charchoq jarayonlari kuchayadi. Bunda mushaklarning lokal charchashi bilan bir qatorda diqqatning pasayishi, ishga qiziqishning susayishi va psixoemotsional zo‘riqish ham yuzaga kelishi mumkin.

Ishlab chiqarish gimnastikasining asosiy vazifalaridan biri faol dam olish tamoyilidan foydalanishdir. Faol dam olishda xodim mehnat jarayonida ishlagan mushaklardan farqli mushak guruhlarini harakatga keltiradi.

Masalan, kompyuterda ishlaydigan ayol uchun bo‘yin, yelka, qo‘l, bel va oyoqlarni navbat bilan harakatlantirish; tik turib ishlaydigan ayol uchun esa oyoq, tos, bel, yelka va bo‘yin sohalariga yo‘naltirilgan mashqlarni qo‘llash maqsadga muvofiq.

Jismoniy faollik nafaqat fiziologik, balki psixologik jihatdan ham muhim. Muntazam jismoniy faollik ruhiy salomatlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, xavotir va depressiv simptomlarni kamaytirishga yordam berishi mumkin.

Ishlab chiqarish gimnastikasini barcha xodimlar uchun bir xil shaklda tashkil qilish ilmiy-metodik jihatdan maqsadga muvofiq emas. Mashqlar mehnat jarayonida eng ko‘p yuklanayotgan tana qismlariga mos tanlanishi kerak.

1-jadval

Mehnat turiga mos ishlab chiqarish gimnastikasi

Mehnat turi	Asosiy yuklama	Tavsiya etiladigan mashqlar
O‘tirib ishlash	Bo‘yin, bel, ko‘z, yelka	Bo‘yin, yelka, bel, oyoq va nafas mashqlari
Kompyuter bilan ishlash	Bo‘yin, bilak, ko‘z	Bo‘yin, yelka, bilak va nafas mashqlari
Tik turib ishlash	Oyoq, bel	Oyoq, tos, bel va gavdani bo‘shashtiruvchi mashqlar
Takroriy qo‘l mehnati	Bilak, tirsak, yelka	Qo‘l, yelka va umurtqa uchun mashqlar
Jismoniy mehnat	Yirik mushak guruhlari	Cho‘zilish, bo‘shashtirish, nafas mashqlari
Aralash mehnat	Turli mushak guruhlari	Kompleks umumrivojlantiruvchi mashqlar

Ilmiy tadqiqotlarda ishlab chiqarish gimnastikasi samaradorligini yurak urish chastotasi, arterial qon bosimi, nafas olish chastotasi, umumiy chidamlilik, mushak kuchi, egiluvchanlik, muvozanat, ish oldi va ish oxiridagi charchoq darajasi, mushak og‘rig‘i, bo‘yin va bel sohasidagi noqulaylik, psixologik holat va ish qobiliyati kabi ko‘rsatkichlar orqali baholash mumkin.

Bunday kompleks baholash ishlab chiqarish gimnastikasi dasturining amaliy samaradorligini aniqlash, mashqlar mazmunini takomillashtirish va turli mehnat sharoitlari uchun differensial dasturlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish gimnastikasi mashqlarining tuzilishi:

- Ayollar uchun ishlab chiqiladigan gimnastika majmuasini 5–10 daqiqalik qisqa kompleks shaklida tashkil etish mumkin.
- Tayyorlov qismi (1–2 daqiqa): joyida yurish, qo‘llarni yuqoriga-pastga harakatlantirish, yelkalarni aylantirish va yengil nafas mashqlari.
- Asosiy qism (4–6 daqiqa): bo‘yin, yelka kamari, qo‘l va bilak, gavda, bel, oyoq mushaklari uchun umumrivojlantiruvchi mashqlar hamda muvozanat mashqlari.
- Yakunlovchi qism (1–2 daqiqa): sekin yurish, nafas mashqlari, mushaklarni bo‘shashtirish va yengil cho‘zilish.
- Mashqlar mehnat faoliyatining o‘ziga xos xususiyatiga mos tanlanishi va xodimni qo‘shimcha charchatmasligi kerak.

Xulosa. Ishlab chiqarish gimnastikasi ayollar salomatligini mustahkamlash, mehnat jarayonida yuzaga keladigan jismoniy va psixoemotsional zo‘riqishni kamaytirish hamda harakat faolligini oshirishning amaliy vositalaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili ish joyidagi jismoniy mashqlar, ayniqsa cho‘zilish, kuch va umumrivojlantiruvchi mashqlar, mushak-skelet tizimi bilan bog‘liq og‘riqlarni kamaytirishda ijobiy natija berishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ayollar uchun ishlab chiqarish gimnastikasini tashkil etishda ularning mehnat faoliyati turi, yosh xususiyatlari, jismoniy tayyorgarligi va individual funksional holatini hisobga olish muhimdir. O‘tirib ishlaydigan xodimlarda bo‘yin, yelka, bel va oyoqlar uchun mashqlar; tik turib yoki jismoniy mehnat qiladiganlarda esa mushaklarni bo‘shashtirish, cho‘zish va qon aylanishini tiklashga qaratilgan mashqlar ustuvor bo‘lishi kerak.

Umuman olganda, ishlab chiqarish gimnastikasini ayollar mehnat faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ilmiy-metodik asosda tashkil etish ularning funksional imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlash, mushak-skelet tizimiga tushadigan ortiqcha yuklamalarni kamaytirish va sog‘lom mehnat muhitini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Health Organization. WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour. Geneva: World Health Organization, 2020.

2. World Health Organization. Physical activity. WHO Regional Office for Europe.

3. Tersa-Miralles C., Bravo C., Bellon F. et al. Effectiveness of workplace exercise interventions in the treatment of musculoskeletal disorders in office workers: a systematic review. BMJ Open. 2022;12:e054288.

4. Moreira-Silva I., Teixeira P.M., Santos R. et al. The Effects of Workplace Physical Activity Programs on Musculoskeletal Pain: A Systematic Review and Meta-Analysis. Workplace Health & Safety. 2016;64(5):210–222.

5. Sundstrup E., Seeberg K.G.V., Bengtsen E., Andersen L.L. A Systematic Review of Workplace Interventions to Rehabilitate Musculoskeletal Disorders Among Employees with Physical Demanding Work. Journal of Occupational Rehabilitation. 2020;30:588–612.

6. Reichel K., Prigge M., Latza U., Kurth T., Backé E.M. Association of occupational sitting with cardiovascular outcomes and cardiometabolic risk factors: a systematic review with a sex-sensitive/gender-sensitive perspective. BMJ Open. 2022;12:e048017.

7. Impact of Workplace Physical Activity Interventions on Physical Activity and Cardiometabolic Health Among Working-Age Women: A Systematic Review and Meta-Analysis. Circulation. 2017.

8. Workplace interventions for chronic musculoskeletal disorders: a systematic review. BMJ Open. 2026;16:e115276.

MILLIY VA OLIMPIYA SPORT TURLARI BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA SOG‘LOM TURMUSH TARZI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Mamajonov Baxramjon Baxodirjon o‘g‘li
Andijon davlat pedagogika instituti, mustaqil tadqiqotchi
Elektron pochta: bahromjon-mamajonov@mail.ru
bahromjonmamajonov93@gmail.com

Kalit so‘zlar: *sog‘lom turmush tarzi madaniyati, valeologik kompetentlik, pedagogik mexanizm, milliy va Olimpiya sport turlari, murabbiy tayyorgarligi, strukturaviy-funksional model, axborot gigiyenasi.*

Ключевые слова: *культура здорового образа жизни, валеологическая компетентность, педагогический механизм, национальные и олимпийские виды спорта, подготовка тренера, структурно-функциональная модель, информационная гигиена.*

Key words: *healthy-lifestyle culture, valeological competence, pedagogical mechanism, national and Olympic sports, coach training, structural-functional model, information hygiene.*

Kirish. Milliy va Olimpiya sport turlari bo‘yicha mutaxassis tayyorlash jarayonining pirovard natijasi faqat musobaqa ko‘rsatkichlari bilan o‘lchanmaydi. Bo‘lajak murabbiy va jismoniy tarbiya mutaxassisi ikki yoqlama ijtimoiy-kasbiy vazifani bajaradi: bir tomondan, u o‘z salomatligining sub’ekti sifatida sog‘lom turmush tarzi tamoyillariga amal qilishi, ikkinchi tomondan, kasbiy faoliyatida yuzlab shogirdlarda salomatlik madaniyatini shakllantiruvchi «translyator» bo‘lishi lozim. Murabbiyning shaxsiy namunasi tarbiyaning eng kuchli vositasi ekani sport pedagogikasida qayta-qayta tasdiqlangan: agar murabbiyning o‘zi kun tartibiga amal qilmasa, uning sportchilarga qaratilgan targ‘ibot so‘zlari ta’sirchanligini yo‘qotadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son «Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni hamda «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash ustuvor maqsadlar sirasiga kiritilgan. Bu vazifani amalga oshirishda sport sohasi kadrlarining valeologik tayyorgarligi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

4. International Canoe Federation (ICF). (2025). *ICF and HUSS to link up for 10-week Canoe Sprint coaching course.* Murabbiylarni tayyorlash va malaka oshirish dasturi haqida rasmiy ma’lumot. https://www.canoeicf.com/news/icf-and-huss-link-up-10-week-canoe-sprint-coaching-course

5. Haugen, T., Seiler, S., Sandbakk, Ø., & Tønnessen, E. (2019). The Training and Development of Elite Sprint Performance: An Integration of Scientific and Best Practice Literature. *Sports Medicine — Open, 5*, Article 44. DOI: https://doi.org/10.1186/s40798-019-0221-0

O‘QUV-MASHQ TAYYORGARLIK BOSQICHIDAGI KARATECHILARNING KUMITE DASTURI BO‘YICHA TEXNIK HARAKATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Utepov Aziz Adilovich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
O‘zbekiston, Chirchiq shahar
Email: adilovichaziz@gmail.com

Kalit so‘zlar: *karate WKF, kumite, o‘quv-mashq, jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, jismoniy sifat;*

Ключевые слова: *каратэ WKF, кумите, учебно-тренировочная, физическая подготовка, техническая подготовка, физическое качество;*

Key words*: karate WKF, kumite, training, physical training, technical training, physical quality.*

Kirish. Dunyo miqyosida sharqona yakkakurash turlari qatorida karate sportining jadal rivojlanishi va ommalashuvi kuzatilmoqda. Karate sporti bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ommaviy rivojlanayotgan va xalqaro sport maydonida yuksak nufuzga ega bo‘lgan yakkakurash sport turlaridan biri hisoblanadi. Sportchilarning texnik-taktik mahoratini, jismoniy va funksional tayyorgarligini hamda psixologik barqarorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy mashg‘ulot vositalari va usullarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Musobaqalar intensivligining ortishi, raqobat darajasining yuksalishi va yuqori sport natijalariga erishishga bo‘lgan ehtiyoj karate mashg‘ulotlarini ilmiy asoslangan holda rejalashtirish hamda sportchilarning tayyorgarligini kompleks takomillashtirishni taqozo etmoqda. Sport amaliyotida karate sport turi bo‘yicha yetakchilik qilayotgan mamlakatlar mutaxassislari va olimlari tomonidan sportchilarning texnik-taktik mahoratini, jismoniy va funksional tayyorgarligini hamda musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan mashg‘ulotlar jarayonini zamonaviy sport fani yutuqlari asosida takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, karatechilarning jismoniy sifatlari va texnik harakatlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion mashg‘ulot vositalari hamda metodlarini ishlab chiqish, biomexanik tahlillar, raqamli monitoring texnologiyalari va pedagogik yondashuvlar asosida mashg‘ulot jarayonini optimallashtirish, shuningdek, ularni amaliyotga samarali joriy etish bugungi kunda malakali murabbiylar va sport sohasi mutaxassislari oldida turgan eng dolzarb muammolaridan bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot maqsadi. o‘quv-mashq tayyorgarlik bosqichidagi karatechilarning kumite dasturi bo‘yicha texnik harakatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Tadqiqotimizda ilmiy-uslubiy adabiyotlar va dasturiy-me’yoriy hujjatlarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, ekspert baholash, pedagogik tajriba hamda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Mazkur tadqiqotimiz 2024-yil sentyabrdan 2025-yil iyul–avgust oylarigacha bo‘lgan ishlab chiqilgan maxsus mashqlar majmuasining samaradorligini tekshirish maqsadida pedagogik tajriba o‘tkazildi. Unda 10–11 yoshli karatechilar ishtirok etgan ikkita guruh — tajriba va nazorat guruhlari qatnashdi. Har ikki guruh sportchilari haftasiga 4 kun, jami 8 akademik soat hajmida mashg‘ulot olib bordilar, har bir mashg‘ulot 135 daqiqa davom etdi. Tajriba guruhida biz tomonimizdan tavsiya etilgan mashg‘ulot dasturi qo‘llanildi. Taklif etilgan mashqlar majmuasi umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik hamda texnik-taktik tayyorgarlik bo‘limlarida bajarildi. Nazorat guruhi an’anaviy mashg‘ulot dasturi asosida shug‘ullanishni davom ettirdi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. O‘quv-mashq tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi karatechilarning kumite dasturini rivojlantirish metodikasini tajribada maqsadida biz tarafimizdan tavsiya etilayotgan tajribamizning samarasini asoslash uchun nazorat mashqlari texnik harakat ko‘rsatkichlari baholandi (1-jadvalga qarang).

2-jadval

O‘quv-mashq tayyorgarlik bosqichidagi karatechilarning tajriba boshida qayd etilgan texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari (n=60)


T/r	Nazorat mashqlari	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi			t	P
		$\overline{X}$	σ	V, %	$\overline{X}$	σ	V, %		
1	Kizami-tsuki aniqligi (10 soniya/marta);	6,67	0,98	14,63	6,57	0,98	14,97	0,40	>0,05
2	Gyaki-tsuki aniqligi 10soniya/marta;	7,80	1,06	13,62	7,63	1,07	13,98	0,61	>0,05
3	Ren-tsuki aniqligi 10 soniya/marta);	6,13	0,96	15,60	5,96	0,95	15,96	0,69	>0,05

Izoh: Nazorat mashqlari 10 soniya davomida zarbaning marta aniqligi sanaladi, TG – tajriba guruhi, NG – Nazorat guruhi, $\overline{X}$ - o‘rtacha ko‘rsatkich, σ-standart og‘ish, V %-o‘zgarish darajasi, tsuki- qo‘l bilan to‘g‘ri zarba, geri-oyoq zarbasi, Kizami-bosh qismiga, gyaki-qorin qismiga,

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhlarining texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmadi (barcha holatlarda p>0,05).

Tadqiqotimiz davomida yuqoridagi jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini inobatga olgan holda o‘quv-mashq tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi karatechilar kumite dasturiga yo‘naltirilgan maxsus jismoniy sifatlarini kompleks rivojlantiruvchi mashg‘ulot dasturi tajriba guruhi sinaluvchilarinig o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga tadbiq etildi. Sport maktabi o‘quv-mashq bosqich guruhining 2-yilgi karate WKF tarbiyalanuvchilarining maxsus jismoniy tayyorgarligiga ajratilgan soatlari bo‘yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik (1-rasmga qarang). Karatechilarning kumite yo‘nalishi bo‘yicha maxsus jismoniy sifatlarini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan kompleks mashg‘ulot dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dastur jismoniy yuklamalarning hajmi va intensivligini bosqichma-bosqich oshirish, individual xususiyatlarni hisobga olish hamda umumiy va maxsus tayyorgarlik vositalarining optimal nisbatini ta’minlash tamoyillari asosida shakllantirildi. Shuning uchun jismoniy sifatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi sportchining umumiy natijalriga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

1-rasm. O‘quv-mashq tayyorgarlik bosqichidagi karatechilarning kumite dasturi bo‘yicha maxsus jismoniy sifatlarini kompleks rivojlantiruvchi mashg‘ulot dasturi



Biz tarafimizdan taklif etilayotgan mashqlar majmuasi sport maktabi 52 haftalik umumiy jismoniy tayyorgarlik bo‘limiga ajratilgan akademik soatlar doirasidan chiqmagan holda olib borildi. Mashqlar 20-25 daqiqa davomida olib boriladi. Ushbu mashqlarda o‘yinlar karatechilarning chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan, asosan futbol o‘yin musobaqadan keyin va o‘tish davrida olib boriladi.

O‘quv-mashq bosqichidagi karatechilarning kumite dasturi bo‘yicha texnik harakatlarini rivojlantirish metodikasining samaragorligi bo‘yicha tadqiqotimiz oxiriga 10-11 yoshli tajriba va nazorat guruhiga mansub karatechilarning texnik harakatlari ko‘rsatkichlari bo‘yicha quyidagicha natijaga erishdik (2-jadvalga qarang).


2-jadval

O‘quv-mashq bosqichidagi karatechilarning tajriba boshi va oxirida qayd etilgan texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari (n=60)

T/r	Nazorat mashqlari	Guruh	Tajriba boshi			Tajriba oxiri			NO‘	t	P
			$\overline{X}$	σ	V, %	$\overline{X}$	σ	V, %			
1	Kizami-tsuki aniqligi (10 soniya/marta);	TG	6,57	0,98	14,97	7,47	1,06	14,13	13,71	3,42	<0,01
		NG	6,67	0,98	14,63	7,11	1,03	14,49	6,65	1,71	>0,05
2	Gyaki-tsuki aniqligi (10soniya/marta);	TG	7,63	1,07	13,98	8,61	1,13	13,12	12,79	3,44	<0,01
		NG	7,80	1,06	13,62	8,28	1,12	13,48	6,14	1,70	>0,05
3	Ren-tsuki aniqligi (10 soniya/marta);	TG	5,96	0,95	15,96	6,84	1,03	15,11	14,75	3,43	<0,01
		NG	6,13	0,96	15,60	6,57	1,02	15,47	7,15	1,72	>0,05

Izoh: TG – tajriba guruhi, NG – Nazorat guruhi, - o‘rtacha ko‘rsatkich, σ-standart og‘ish, V %- o‘zgarish darajasi, NO‘ – nisbiy o‘sish

Mazkur jadvalda karatechilarning texnik harakatlarini bo‘yicha tadqiqot oxiri tajriba guruhi ko‘rsatkichlari samarali oshganligini va nazorat guruhi esa qisman oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi karatechilarning nazorat testlari asosida olingan natijalarining nisbiy o‘sish foizlar tahlilini quyidagi diagrammada ko‘rishimiz mumkin (2-rasmga qarang).



6-rasm. Tajriba boshi va oxirida qayd etilgan texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining o‘rtacha arifmetik qiymatlari

Mazkur rasmda karatechilarning tajriba boshi va oxirida qayd etilgan texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari nisbiy o‘sishi bo‘yicha o‘rtacha tajriba guruhi 14,39% ni, nazorat guruhi 6,86% natijalarni ko‘rishimiz mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari 10–11 yoshli karatechilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari hamda kumite bo‘yicha zarba harakat texnikalarini egallash salohiyati sezilarli darajada kengayganini tasdiqladi. Bu esa ishlab chiqilgan metodikaning yuqori samaradorligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi 10–11 yoshli karatechilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida an’anaviy kihon mashqlarini kumite dasturiga moslashtirish asosida texnik harakatlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish mexanizmi ishlab chiqildi. Nukus shahar 1-sonli sport maktabi tajriba guruhida kizami-tsuki 13,71 %, gyaki-tsuki 12,79 % va ren-tsuki 14,75 % ga, yaxshilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alesi M., Bianco A., Padulo J., Vella F.P., Petrucci M., Paoli A., Palma A., Pepi A., Motor and cognitive development: Muscles, Ligaments and Tendons Journal 2014; 4 (2): 114-120 p.
2. Alikulov K. Dynamics of special physical training of 11-13-year-old karate wkf boys practicing at the initial training stage: Research Focus International Scientific Journal, | VOLUME 2 | ISSUE 9 | 2023 75-79p. https://doi.org/10.5281/zenodo.10030974
3. Alimov U.A., Karate sport turida mavjud bo‘lgan kumite baxslarida tezkor qaror qabul qilish hususiyatlarini shakllantirish: Research Focus International Scientific Journal, Uzbekistan. | VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2024 122-126 b.
4. Almas K.Z, Lismadiana, Tomoliyus, Hariono A., Danardono, Adi.T Hikmah P.N. Contribution of coordination, balance, flexibility, arm muscle strength to the 'kizami-gyaku zuki' punch: analysis of female karate athletes: European Journal of Physical Education and Sport Science Volume 10 │ Issue 4 │ 2023 23-35 p.
5. Amaral LDL, Mazzei LC, Frosi TO, Yamanaka GK, Fabiani DJF. The scientific literature on karate in the Web of Science ® – A narrative review. Arch Budo Sci. Martial Arts Extrem Sport. 2022;18:171–183
6. Biesen D.V., Augustoviˇcov´a D., Pineda R.Ch., Nemˇcek D., Burns J., Cognitive and executive functions of top level para-karate athletes with intellectual disability: Psychology of Sport & Exercise journal homepage: www.elsevier.com/locate/psychsport 1-8 p. https://doi.org/10.1016/j.psychsport.2025.102998
7. Capulis.S., Dombrovskis V., Guseva S., Karate-Do as a Means to Implement Humanistic Approach in Sports Education: Procedia - Social and Behavioral Sciences 112 (2014) 141 – 146 p. doi:10.1016/j.sbspro.2014.01.1148
8. Daaloul H., Souissi N., Davenne D., Effects of Napping on Alertness, Cognitive, and Physical Outcomes of Karate Athletes: Medicine & Science in Sports & Exercise 2018, 338-345 p. doi:10.1249/MSS.0000000000001786
9. Daniel T.M., Liviu P.R., Correlation between Plantar Pressure and Striking Speed in Karate-do: Procedia - Social and Behavioral Sciences 117 (2014) 357 – 360 p. doi:10.1016/j.sbspro.2014.02.227
10. Doria C, Veicsteinas A, Limonta E, Maggioni MA, Aschieri P, Eusebi F, Fanò G, Pietrangelo T.,: Energetics of karate (kata and kumite techniques) in top-level athletes. Eur J Appl Physiol. 2009;107:603–610. DOI: 10.1007/s00421-009-1154-y

SUZISH SPORTINING YOSHLAR SALOMATLIGI VA JISMONIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Jumabaeva Nilufar Darmenbaevna
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali Koordinacion ciklik sport túrlari nazaryasi va uslubiyati kafedrasi o‘qtuvchisi
jumabaevanilu@gmail.com
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali Suzish ta’lim yo‘nalishi talabasi
Fayzullaeva Sugdiona Jiyenbaevna

Kalit so‘zlar: *suzish sporti, yoshlar, salomatlik, jismoniy rivojlanish, jismoniy faollik, chidamlilik, sog‘lom turmush tarzi, nafas olish, xavfsizlik.*

Ключевые слова: *плавание, молодежь, здоровье, физическое развитие, физическая активность, выносливость, здоровый образ жизни, дыхание, безопасность.*

Keywords: *swimming, youth, health, physical development, physical activity, endurance, healthy lifestyle, breathing, safety.*

Kirish Bugungi kunda aholining, ayniqsa yoshlarning sog‘lom va faol hayot tarzini olib borishi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Texnologiyalarning rivojlanishi va kundalik hayotda jismoniy harakatning kamayishi natijasida sport bilan muntazam shug‘ullanishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Shu sababli turli sport turlarini rivojlantirish va yoshlarni sportga jalb qilish katta ahamiyatga ega. Suv sporti ham jismoniy faollikni oshirish va sportga qiziqishni shakllantirishga xizmat qiladigan yo‘nalishlardan biridir. Ushbu sport turi insondan nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki tez fikrlash, vaziyatni to‘g‘ri baholash, ehtiyotkorlik va mas’uliyatni ham talab qiladi.

Sport bilan shug‘ullanish orqali inson o‘zining jismoniy imkoniyatlarini rivojlantiradi, sog‘lig‘ini mustahkamlaydi va ruhiy jihatdan chiniqadi. Ayniqsa, yoshlar orasida sportning ommalashuvi ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga, zararli odatlardan uzoq bo‘lishiga va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradi. Suzish inson salomatligi uchun foydali sport turlaridan biridir. Suvda harakatlanish vaqtida tananing turli mushaklari faol ishlaydi, nafas olishni boshqarish va harakatlarni muvofiqlashtirish ko‘nikmalari rivojlanadi. Muntazam suzish mashg‘ulotlari jismoniy tayyorgarlikni yaxshilash, chidamlilikni oshirish va faol hayot tarzini shakllantirishga yordam beradi. Suzish sporti yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, yangi ko‘nikmalarni egallash va sportga bo‘lgan qiziqishini oshirishda ham muhim o‘rin tutadi. Bunda mashg‘ulotlarni yoshga va jismoniy tayyorgarlik darajasiga mos tashkil etish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish zarur.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi suzish sportining yoshlar salomatligi va jismoniy rivojlanishidagi ahamiyatini yoritish, suzish mashg‘ulotlarining jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi o‘rnini ko‘rsatish hamda yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat. Suv sporti mavzusining dolzarbligi, avvalo, bugungi kunda yoshlar o‘rtasida jismoniy faollikni oshirish zarurati bilan bog‘liq. Sog‘lom avlodni tarbiyalashda sport muhim vositalardan biri bo‘lib, u insonning jismoniy va ruhiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Suv sporti bilan shug‘ullanish jarayonida inson turli jismoniy yuklamalarga moslashadi. Mashg‘ulotlar davomida chidamlilik, tezkorlik, muvozanat, kuch va chaqqonlik kabi sifatlar rivojlanadi. Bundan tashqari, sportchi o‘z harakatlarini nazorat qilishni, qiyin vaziyatlarda tez va to‘g‘ri qaror qabul qilishni o‘rganadi. Mavzuning yana bir muhim jihati shundaki, zamonaviy yoshlar orasida noodatiy va qiziqarli

sport turlariga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Shu sababli suv sportini to‘g‘ri tashkil etish, uning foydali jihatlarini targ‘ib qilish va xavfsizlik talablariga rioya qilish dolzarb masalalardan biridir.

Tadqiqot usullari va uni tashkil etish. Tadqiqot mavzusini yoritishda ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, ma’lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Suzishning inson salomatligi, jismoniy tayyorgarligi va sog‘lom turmush tarziga ta’siri haqidagi ilmiy-uslubiy manbalar ko‘rib chiqildi.Tahlil jarayonida suzish mashg‘ulotlarining chidamlilik, mushaklar faoliyati, harakatlarni muvofiqlashtirish va nafas olishni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatiga e’tibor qaratildi. Shuningdek, mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil etish, jismoniy yuklamani yoshlarning imkoniyatlariga moslashtirish va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish masalalari o‘rganildi. Suv sporti insonning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Sport mashg‘ulotlari muntazam olib borilganda organizm jismoniy yuklamalarga asta-sekin moslashadi. Natijada insonning umumiy ish qobiliyati va chidamliligi oshadi.

Suv sportida muvaffaqiyatga erishish uchun sportchidan yaxshi jismoniy tayyorgarlik talab qilinadi. Bunda quyidagi sifatlar muhim ahamiyatga ega:

- **Kuch** - sport harakatlarini samarali bajarishga yordam beradi.
- **Chidamlilik** - uzoq vaqt davomida jismoniy faoliyatni davom ettirish imkonini beradi.
- **Tezkorlik** - vaziyatga tez javob qaytarish va harakatni tez amalga oshirishga yordam beradi.
- **Chaqqonlik** - harakatlarni tez va aniq bajarish imkonini beradi.
- **Muvozanat** murakkab harakatlarni xavfsiz bajarishda muhim hisoblanadi.

Suv sporti nafaqat jismoniy, balki psixologik jihatdan ham insonni rivojlantiradi. Sportchi mashg‘ulotlar davomida o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi, qiyinchiliklarni yengib o‘tishga odatlanadi. Bu esa insonning kundalik hayotidagi faoliyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Sport mashg‘ulotlarining yana bir muhim tomoni - intizomdir. Muntazam mashg‘ulotlarga qatnashish, belgilangan tartibga amal qilish va xavfsizlik qoidalarini bajarish sportchida mas’uliyat hissini shakllantiradi. Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi O‘rganilgan ilmiy-uslubiy ma’lumotlar suzish mashg‘ulotlari yoshlarning jismoniy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda muhim vosita ekanini ko‘rsatadi. Suzish vaqtida qo‘l, oyoq va gavda mushaklari faol ishtirok etadi. Muntazam mashg‘ulotlar jismoniy chidamlilikni oshirish, harakatlarni muvofiqlashtirish va umumiy jismoniy tayyorgarlikni yaxshilashga yordam beradi. Suzishning muhim xususiyatlaridan biri nafas olishni harakatlar bilan muvofiqlashtirish zaruratidir. Suzuvchi suvda harakatlanish jarayonida nafas olish va chiqarishni boshqarishni o‘rganadi. Bu ko‘nikmalar suzish texnikasini to‘g‘ri bajarish va mashg‘ulot samaradorligini oshirishda muhim hisoblanadi. Suzish mashg‘ulotlari yoshlarning ruhiy va irodaviy sifatlarini rivojlantirishga ham yordam berishi mumkin. Mashqlarni muntazam bajarish, belgilangan maqsad sari intilish va murabbiy ko‘rsatmalariga amal qilish intizom, sabr-toqat va mas’uliyatni shakllantiradi. Guruh mashg‘ulotlari esa o‘zaro hurmat va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘maklashadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, suzish mashg‘ulotlarining samaradorligi ularning muntazamligi, davomiyligi, mashqlar mazmuni va shug‘ullanuvchining jismoniy tayyorgarligiga bog‘liq. Shu sababli mashg‘ulotlarni oddiy mashqlardan boshlash, yuklamani bosqichma-bosqich oshirish va murabbiy nazoratini ta’minlash muhimdir. Bundan tashqari, suzish jarayonida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish alohida ahamiyatga ega. Suzishni o‘rganayotgan yoshlar mutaxassis nazorati ostida mashq

qilishlari, o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashlari va belgilangan qoidalarga amal qilishlari lozim.

Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu ish ilmiy-uslubiy manbalar tahliliga asoslangan. Unda mustaqil tajriba yoki amaliy o‘lchovlar o‘tkazilmaganligi sababli natijalar bevosita tajriba natijalari emas, balki o‘rganilgan ma’lumotlarning umumlashtirilgan xulosalaridir.

Yoshlar uchun ahamiyati Yoshlar orasida sportni rivojlantirish jamiyat uchun muhim vazifalardan biridir. Sport bilan shug‘ullangan yosh o‘z vaqtini foydali mashg‘ulotga sarflaydi. Bu esa sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradi. Suv sporti yoshlarni faol bo‘lishga undashi, ularning jismoniy imkoniyatlarini sinab ko‘rishiga va yangi ko‘nikmalarni egallashiga sharoit yaratishi mumkin. Shu bilan birga, sport tadbirlari yoshlar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni rivojlantiradi.

Mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil etish Suv sportida mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil etish juda muhim. Har qanday mashg‘ulotdan oldin organizmni jismoniy yuklamaga tayyorlash uchun qizdirish mashqlarini bajarish kerak. Mashqlar sportchining yoshi, jismoniy tayyorgarligi va imkoniyatlariga mos bo‘lishi lozim. Yuklamani birdaniga oshirish sportchining charchashiga yoki jarohatlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun mashg‘ulotlar bosqichma-bosqich tashkil etilishi kerak. Murabbiy yoki mutaxassis tavsiyalariga amal qilish sport samaradorligini oshirish bilan birga xavfsizlikni ham ta’minlaydi.

Xavfsizlikning ahamiyati Suv sportida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish eng muhim talablardan biridir. Sportchi mashg‘ulot boshlashdan oldin foydalaniladigan jihoz va vositalarning sozligini tekshirishi kerak. Shuningdek, mashg‘ulotlar belgilangan xavfsiz hududda va tegishli nazorat ostida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Sportchi o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashi, haddan tashqari xavfli harakatlardan saqlanishi va belgilangan qoidalarga amal qilishi kerak. Xavfsizlikka rioya qilish sport mashg‘ulotlarining samarali va davomiy bo‘lishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, SUV sporti insonning jismoniy va ruhiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Ushbu sport turi orqali kuch, chidamlilik, tezkorlik, chaqqonlik va muvozanat kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirish imkoniyati mavjud. Suv sportining yana bir muhim jihati — yoshlarni faol hayot tarziga jalb qilishidir. Muntazam sport bilan shug‘ullanish insonda intizom, mas’uliyat, iroda va o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantiradi. Shuningdek, sport yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Kelajakda Suv sportini rivojlantirish uchun yoshlar orasida targ‘ibot ishlarini kuchaytirish, sport mashg‘ulotlari uchun qulay sharoitlar yaratish, malakali mutaxassislarni jalb qilish va xavfsizlik talablariga qat’iy rioya etish muhimdir. Umuman olganda, sportning har qanday turi inson salomatligi va jamiyat rivoji uchun katta ahamiyatga ega. Suv sportini ham to‘g‘ri tashkil etish va xavfsizlik qoidalariga amal qilish orqali yoshlarning jismoniy faolligini oshirish, sog‘lom avlodni tarbiyalash va sportga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matveyev L.P. *Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi*. — Moskva: Fizkultura i sport, 2008.
2. Kerimov F.A. *Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar*. — Toshkent: Zarqalam, 2004.
3. Platonov V.N. *Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte*. — Kiyev: Olimpiyskaya literatura, 2004.

4. Verkhoshanskiy Yu.V. *Osnovy spetsialnoy fizicheskoy podgotovki sportsmenov*. — Moskva: Fizkultura i sport, 1988.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni.
6. World Health Organization. *WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour*. — Geneva: World Health Organization, 2020.

YOSH KARATECHILARDA MUSOBAQA OLDI STRESS, QO‘RQUV VA HAYAJONNI BOSHQARISHNING AYRIM HUSUSIYATLARI

Toylibaev Sultanbek Muxidovich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali, Yakka kurash sport turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi mudiri
O‘zbekiston, Nukus
Elektron pochta: sultanbek_toylibaev@uzdjtsunf.uz
Davlatyorova Sevinchoy Ne’matjon qizi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali Karate WKF yo‘nalishi
1-bosqich talabasi

Kalit so‘zlar: *karate, sportchi, musobaqa oldi stressi, qo‘rquv, hayajon, psixologik tayyorgarlik.*

Ключевые слова: *каратэ, спортсмен, предстартовый стресс, страх, волнение, психологическая подготовка.*

Keywords: *karate, athlete, pre-competition stress, fear, nervousness, psychological preparation.*

Kirish. Hozirgi vaqtda karate sportida yuqori natijalarga erishish faqat jismoniy va texnik tayyorgarlik bilan cheklanmaydi. Sportchining psixologik tayyorgarligi ham musobaqa natijasiga ta’sir qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, musobaqa oldidan hayajonlanish, mag‘lubiyatdan qo‘rqish, ortiqcha asabiylashish va o‘z kuchiga ishonchsizlik sportchining texnik harakatlarni bajarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Karate sportida harakatlarning tezligi, aniqligi, taktik qarorlarni o‘z vaqtida qabul qilish va raqib harakatlariga tez javob qaytarish katta ahamiyatga ega. Shu sababli sportchilarni musobaqa oldidan psixologik jihatdan tayyorlash va o‘z hissiyotlarini boshqara bilishga o‘rgatish zarur.

Tadqiqot maqsadi. Karate sportchilarida musobaqa oldidan psixologik holatni boshqarish usullarini o‘rganish hamda sportchilarning musobaqaga psixologik tayyorgarligini yaxshilashga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari. Karate sportchilarida musobaqa oldidan yuzaga keladigan psixologik holatlarni o‘rganish.

1. Musobaqa oldidan stress, qo‘rquv va hayajonning sport natijasiga ta’sirini tahlil qilish.
2. Psixologik holatni boshqarishda qo‘llaniladigan asosiy usullarni aniqlash.
3. Nafas olish, o‘ziga ishonchni mustahkamlash va vizualizatsiya mashqlarining ahamiyatini ochib berish.
4. Karate sportchilari uchun musobaqa oldidan qo‘llash mumkin bo‘lgan psixologik tayyorgarlik tavsiyalarini ishlab chiqish.

Tadqiqot usullari. Mavzuni o‘rganishda ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, suhbatlashish, anketa o‘tkazish hamda sportchilarning psixologik holatini qiyosiy baholash usullaridan foydalanish mumkin.

Karate sportchilarida musobaqa oldidan psixologik holatni boshqarish bir nechta usullar orqali amalga oshiriladi.

1. Nafas olish mashqlari. Bunday mashqlar ortiqcha hayajonni kamaytirish, diqqatni jamlash va o‘zini xotirjam his qilishga yordam beradi. Sportchi murabbiy nazorati ostida sekin va bir maromda nafas olish mashqlarini bajaradi.

2. O‘ziga ishonchni mustahkamlash. Sportchi o‘z tayyorgarligi, texnik imkoniyatlari va avvalgi yutuqlariga e’tibor qaratadi. «Men tayyorman», «Men vazifani bajara olaman» kabi ijobiy iboralar o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga yordam berishi mumkin.

3. Vizualizatsiya usuli. Sportchi musobaqadagi harakatlarini, himoyalanish va hujum kombinatsiyalarini xayolan oldindan tasavvur qiladi. Bu taktik harakatlarni bajarishga psixologik tayyorgarlik ko‘rishga yordam beradi.

4. Diqqatni boshqarish. Karate sportchisi ortiqcha fikrlardan chalg‘imasdan, asosiy vazifasiga, murabbiyning ko‘rsatmalariga va taktik rejaga e’tibor qaratishi kerak.

5. Musobaqa oldidan kun tartibiga rioya qilish. Yetarli uxlash, o‘z vaqtida ovqatlanish, badan qizdirish va oldindan belgilangan tayyorgarlik rejasiga amal qilish psixologik barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi.

6. Murabbiyning psixologik qo‘llab-quvvatlashi. Murabbiy sportchi bilan ishonchli munosabat o‘rnatishi, aniq va tushunarli topshiriqlar berishi, ortiqcha qo‘rqitish yoki bosim o‘tkazishdan saqlanishi kerak.

Ushbu usullarni sportchining individual xususiyatlariga qarab tanlash va kundalik mashg‘ulotlar jarayonida izchil qo‘llash maqsadga muvofiq.

Musobaqa oldi psixologik tayyorgarlikning ahamiyati. Karate WKF sport turi yuqori tezlik, aniqlik, tezkor qaror qabul qilish va vaziyatni to‘g‘ri baholashni talab qiladi. Kumite bellashuvida sportchi raqibning harakatlarini kuzatadi, masofani nazorat qiladi va qisqa vaqt ichida hujum yoki himoya usulini tanlaydi. Shuning uchun sportchining jismoniy va texnik tayyorgarligi bilan bir qatorda, uning ruhiy holati ham natijaga ta’sir ko‘rsatadi. Musobaqa oldidan paydo bo‘ladigan hayajon tabiiy holat bo‘lib, u har doim ham salbiy ta’sir qilmaydi. Me’yoridagi hayajon sportchini faollashtirishi, diqqatini jamlashi va bellashuvga tayyor turishiga yordam berishi mumkin. Biroq hayajon haddan tashqari kuchaysa, sportchi shoshilishi, oddiy texnik xatolarga yo‘l qo‘yishi yoki murabbiy ko‘rsatmalarini unutishi mumkin.

Stressga munosabat har bir sportchida turlicha namoyon bo‘ladi. Bunga tajriba, musobaqaning ahamiyati, raqib haqidagi tasavvur, oldingi natijalar, murabbiy va ota-onaning kutishlari hamda sportchining individual xususiyatlari ta’sir qilishi mumkin. Ayrim sportchilar bellashuv boshlanishidan oldin o‘zini ishonchsiz his qilsa, boshqalarda ortiqcha shoshilish kuzatiladi. Shu sababli psixologik tayyorgarlik barcha sportchilarga bir xil usulni qo‘llash bilangina cheklanmasligi, balki sportchining ehtiyoji va tajribasiga moslashtirilishi kerak.

Stress, qo‘rquv va hayajonni boshqarish usullari. Birinchi usul – nafasni boshqarish. Bellashuv oldidan sportchi qulay holatda turib, burun orqali sekin nafas olishi va uni shoshilmasdan chiqarishi mumkin. Nafasga e’tibor qaratish fikrlarni tartibga solishga, ortiqcha shoshqaloqlikni kamaytirishga yordam beradi. Bu mashqni faqat musobaqa kuni emas, kundalik mashg‘ulotlarda ham takrorlash maqsadga muvofiq.

Ikkinchi usul – ijobiy ichki suhbat. Sportchi o‘ziga «Men tayyorgarlik ko‘rdim», «Vazifamga e’tibor beraman», «Har bir vaziyatda to‘g‘ri qaror qilishga harakat qilaman» kabi aniq va ishonchli fikrlarni eslatishi mumkin. Bunda o‘ziga asossiz ravishda g‘alabani va’da qilishdan ko‘ra, boshqara oladigan harakatlariga e’tibor qaratish foydaliroqdir.

Uchinchi usul – vizualizatsiya. Sportchi bellashuvga chiqish, masofani saqlash, raqib harakatini kuzatish, hujum va himoyani bajarish kabi vaziyatlarni xayolan ko‘z oldiga keltiradi. Tasavvur mashqlari texnik mashg‘ulotlarning o‘rnini bosmaydi, ammo sportchiga taktik rejasini esga olish va vaziyatlarga oldindan ruhiy tayyorlanishda ko‘mak beradi.

To‘rtinchi usul – diqqatni hozirgi vazifaga qaytarish. Sportchi raqibning obro‘si, tomoshabinlar yoki natija haqida ortiqcha o‘ylash o‘rniga, murabbiy bilan kelishilgan taktik rejaga e’tibor qaratishi lozim. Bellashuv davomida vaziyat o‘zgarsa, sportchi hissiyotga berilmay, keyingi harakatni tanlashga intiladi.

Beshinchi usul – musobaqa oldi tartibini shakllantirish. Sport kiyimlarini oldindan tayyorlash, musobaqa jadvalini bilish, badan qizdirish vaqti hamda kerakli jihozlarni tekshirish noaniqlikni kamaytiradi. Yetarli dam olish, odatdagi ovqatlanish tartibiga rioya qilish va murabbiy bilan qisqa suhbat ham sportchining o‘zini tayyor his qilishiga yordam beradi.

Murabbiy va sportchining hamkorligi. Psixologik tayyorgarlikda murabbiyning yondashuvi muhim o‘rin tutadi. Murabbiy sportchining hayajonini masxara qilmasligi yoki uni boshqalar bilan taqqoslamasligi, aksincha, uning holatini tushunishga harakat qilishi kerak. Aniq, qisqa va bajarish mumkin bo‘lgan ko‘rsatmalar sportchining e’tiborini jamlashga yordam beradi. Musobaqadan keyin esa faqat natijani emas, sportchining harakati, taktik qarorlari va o‘rgangan tajribasini ham muhokama qilish zarur.

Sportchining o‘zi ham ruhiy tayyorgarlik uchun mas’uliyatni his qilishi lozim. Mashg‘ulot kundaligida musobaqadan oldin qanday his qilgani, qaysi usul yordam bergani va keyingi safar nimani yaxshilash mumkinligini qayd etish foydali. Vaqt o‘tishi bilan sportchi o‘ziga mos usullarni yaxshiroq taniydi. Zarur holatlarda murabbiy, sport psixologi yoki boshqa malakali mutaxassis bilan maslahatlashish mumkin.

Amaliy tavsiyalar. Karate sportchilari uchun psixologik tayyorgarlikni muntazam mashg‘ulotning bir qismi sifatida tashkil etish tavsiya etiladi. Har bir mashg‘ulot boshida qisqa nafas mashqi bajarish, texnik topshiriqdan oldin maqsadni belgilash, mashq davomida diqqatni bir vazifaga qaratish va mashg‘ulot yakunida natijani tahlil qilish mumkin. Musobaqa yaqinlashganda esa sportchi o‘zi uchun qulay tayyorgarlik ketma-ketligini ishlab chiqishi kerak.

Hayajonni butunlay yo‘qotish shart emas. Muhimi, uni boshqarishni o‘rganish va paydo bo‘lgan energiyani vazifani bajarishga yo‘naltirishdir. Ayrim sportchilar bellashuvning dastlabki daqiqalarida ko‘proq hayajonlanishi, keyin esa jang ritmiga moslashishi mumkin. Shu sababli boshlang‘ich vazifalarni sodda va aniq belgilash, birinchi harakatlarga e’tibor qaratish foydali bo‘ladi.

Xulosa. Karate sportchilarida musobaqa oldidan psixologik holatni boshqarish sportchining musobaqaga tayyorgarligini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Nafas olish mashqlari, o‘ziga ishonchni mustahkamlash, vizualizatsiya, diqqatni boshqarish va musobaqa oldi kun tartibiga rioya qilish sportchiga ortiqcha hayajonni kamaytirish hamda o‘z imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanishga yordam beradi. Murabbiyning qo‘llab-quvvatlashi va sportchining individual xususiyatlarini hisobga olish ham ruhiy barqarorlikni oshiradi. Hayajonni butunlay yo‘qotish shart emas; muhimi, uni boshqarish va paydo bo‘lgan energiyani

bellashuv vazifalarini bajarishga yo‘naltirishdir. Shu sababli psixologik tayyorgarlikni muntazam mashg‘ulotlar tarkibiga kiritish va tanlangan usullarni izchil qo‘llash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arslanov Sh.A. Sport pedagogik mahoratini oshirish (Karate). Ch.: O‘quv qo‘llanma. 2020. – 130 b.

2. Lyulina Ye. S. Karate WKF mutaxassisligiga kirish: darslik. – Toshkent: Ilm-fan nashriyoti, 2025. - 160b.

3. Arslanov Sh.A. Tanlangan sport turi bo‘yicha mutaxassislikka kirish (Karate). T.: “Yosh kuch matbuoti” MCHJ. Darslik. 2024. – 226 b.

4. https://karate.uz – O‘zbekiston karate federatsiyasi

SUV SPORTI: QONUN-QOIDALARI VA XAVFSIZLIK TALABLARI

Jumabaeva Nilufar Darmenbaevna
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali Koordinacion ciklik sport túrlari nazaryasi va uslubiyati kafedrasi o‘qtuvchisi
jumabaevanilu@gmail.com
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali Suzish ta’lim yo‘nalishi talabasi
Zaripbaeva Nurshat Tazabay qizi

Kalit so‘zlar: *suv sporti, suzish, xavfsizlik, basseyn, sport qoidalari, musobaqa, sportchi, murabbiy, jismoniy tarbiya, sport intizomi.*

Ключевые слова: *водные виды спорта, плавание, безопасность, бассейн, спортивные правила, соревнования, спортсмен, тренер, физическое воспитание, спортивная дисциплина.*

Keywords: *aquatic sports, swimming, safety, swimming pool, sports rules, competitions, athlete, coach, physical education, sports discipline.*

Kirish. Bugungi kunda sport inson salomatligini mustahkamlash, jismoniy faollikni oshirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Suv sporti o‘zining o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa sport turlaridan ajralib turadi. Suzish insonning turli mushak guruhlarini harakatga keltiradi, chidamlilikni rivojlantiradi va jismoniy tayyorgarlikni yaxshilashga yordam beradi. Suv sporti turlariga sport suzishi, suv polosi, suvga sakrash, badiiy suzish va ochiq suvda suzish kiradi. Ushbu sport turlarining har biri o‘ziga xos qoidalar, texnik talablar va xavfsizlik choralariga ega. Xalqaro musobaqalarda sportchilar belgilangan qoidalarga muvofiq qatnashadilar. Xalqaro suv sporti federatsiyasi -World Aquatics suv sporti musobaqalarini tashkil etish va ularning qoidalarini belgilashda muhim o‘rin tutadi. Suv sportida muvaffaqiyatga erishish uchun jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda, sport qoidalarini bilish va xavfsizlik talablariga rioya qilish ham zarur. Chunki suv bilan bog‘liq mashg‘ulotlarda ehtiyotsizlik turli xavfli vaziyatlarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois sportchilar, murabbiylar va mashg‘ulot ishtirokchilari belgilangan tartibni yaxshi bilishlari kerak.

Mavzuning dolzarbligi. Suv sporti qoidalari va xavfsizlik talablarini o‘rganish yoshlarni sportga jalb qilish, mashg‘ulotlarni to‘g‘ri tashkil etish va baxtsiz hodisalarning oldini olish nuqtayi nazaridan dolzarbdir. Ayniqsa, suzishni endigina o‘rganayotgan bolalar va

yoshlar uchun xavfsizlik qoidalarini bilish katta ahamiyatga ega. Basseynda belgilangan tartibga rioya qilish, murabbiy ko‘rsatmalarini bajarish, sport jihozlaridan to‘g‘ri foydalanish va o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash xavfsiz mashg‘ulotning asosiy shartlaridir. Musobaqalarda esa qoidalarga amal qilish sportchilar o‘rtasida adolatli raqobatni ta’minlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-maydagi 333-son qarorida suzish sportini rivojlantirish hamda budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan basseynlardan foydalanish tartibiga oid nizom tasdiqlangan. Mazkur hujjat suv sporti mashg‘ulotlarini tashkil etish masalalarini o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. [1]

Tadqiqotning maqsadi Ushbu tadqiqotning maqsadi suv sporti, xususan, suzish mashg‘ulotlari va musobaqalarida amal qilinadigan asosiy qoidalarni o‘rganish, xavfsizlik talablarining ahamiyatini yoritish hamda sportchilar uchun xavfsiz mashg‘ulot sharoitlarini yaratishga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Suv sportining asosiy turlari va ularning xususiyatlarini yoritish.
2. Suzish mashg‘ulotlari va musobaqalarida amal qilinadigan asosiy qoidalarni tushuntirish.
3. Basseynda xavfsizlikni ta’minlash talablarini o‘rganish.
4. Murabbiy va sportchining xavfsizlikni ta’minlashdagi mas’uliyatini ko‘rsatish.
5. Suv sporti mashg‘ulotlarida xavfli vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha tavsiyalar berish.

Tadqiqot yo‘nalishi Tadqiqot suv sporti qoidalari, basseyndan foydalanish tartibi, sportchilar xavfsizligi va musobaqalarni tashkil etish talablarini o‘rganishga yo‘naltirilgan. Asosiy e’tibor suzish mashg‘ulotlarida xavfsizlik qoidalariga amal qilish, murabbiy nazoratini ta’minlash va sport musobaqalarida belgilangan tartibni saqlash masalalariga qaratildi.

Tadqiqot usullari va uni tashkil etish. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 333-son qarori hamda suv sporti bo‘yicha xalqaro qoidalarga oid materiallar o‘rganildi. O‘rganish jarayonida basseyndan foydalanish tartibi, sportchilarning vazifalari, murabbiy nazorati, musobaqa qoidalari va xavfsizlik talablariga alohida e’tibor qaratildi. Olingan ma’lumotlar asosida suv sportida rioya etilishi zarur bo‘lgan asosiy qoidalar umumlashtirildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi

1. Suv sportining asosiy turlari Suv sporti bir nechta yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Ularning har biri o‘ziga xos texnika va qoidalarga ega.

- **Sport suzishi** — belgilangan masofani ma’lum suzish usuli yordamida bosib o‘tishga asoslangan sport turi.
- **Suv polosi** — ikki jamoa o‘rtasida suvda o‘ynaladigan va to‘pni raqib darvozasiga kiritishga qaratilgan sport turi.
- **Suvga sakrash** — maxsus balandlik yoki tramplindan suvga belgilangan texnika asosida sakrash.
- **Badiiy suzish** — suvda musiqa jo‘rligida bajariladigan, harakatlar uyg‘unligi va texnik aniqlikni talab qiladigan sport turi.

• **Ochiq suvda suzish** — ko‘l, dengiz yoki boshqa moslashtirilgan ochiq suv havzalarida belgilangan masofani suzib o‘tish.

Ushbu sport turlarida mashg‘ulot va musobaqalarni tashkil etish qoidalari bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun sportchi shug‘ullanayotgan yo‘nalishiga tegishli qoidalarni bilishi va ularga amal qilishi kerak.

2. Suv sportida amal qilinadigan asosiy qoidalar

Suv sportidagi qoidalar mashg‘ulotlarni tartibli tashkil etish, sportchilarning xavfsizligini ta’minlash va musobaqa natijalarini xolis baholash uchun zarur. Suzish musobaqalarida sportchi o‘ziga ajratilgan yo‘lakda harakatlanishi, start va burilish qoidalariga rioya qilishi hamda tanlangan suzish usulining texnik talablarini bajarishi lozim. Hakamlar musobaqa davomida ushbu qoidalarga amal qilinishini nazorat qiladi. Qoidabuzarlik holatlari musobaqa reglamentiga muvofiq baholanadi. Ayrim qoidabuzarliklar sportchining diskvalifikatsiya qilinishiga, ya’ni musobaqadan chetlatilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli sportchi musobaqadan oldin uning tartibi va talablarini o‘rganishi kerak. Suv polosi, suvga sakrash va badiiy suzishda ham har bir yo‘nalishga tegishli alohida talablar mavjud. Xalqaro musobaqalarda ushbu talablar World Aquatics qoidalari asosida belgilanadi. [2]

3. Basseynda xavfsizlik qoidalari Basseynda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish sportchilarning sog‘lig‘ini himoya qilish va baxtsiz hodisalarning oldini olishga xizmat qiladi. Mashg‘ulot ishtirokchilari quyidagi talablarga amal qilishlari kerak:

• Mashg‘ulotdan oldin xavfsizlik qoidalari bilan tanishish.

• Murabbiy yoki mas’ul xodimning ko‘rsatmalariga rioya qilish.

• Basseyn atrofida yugurmaslik, itarishmaslik va hazil tariqasida xavfli harakatlar qilmaslik.

• Suvga faqat ruxsat etilgan joydan tushish va sakrash.

• Bosh bilan suvga sakrashni faqat buning uchun mo‘ljallangan, xavfsizligi ta’minlangan joylarda bajarish.

• O‘zining suzish ko‘nikmalari va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olish.

• Suzish yo‘laklaridan belgilangan tartibda foydalanish.

• Boshqa sportchilarning harakatiga xalaqit bermaslik.

• Sport kiyimi va zarur jihozlardan to‘g‘ri foydalanish.

• O‘zini yomon his qilganda yoki xavfli vaziyat yuzaga kelganda darhol murabbiyga yoki mas’ul xodimga xabar berish.

Mazkur qoidalar kundalik mashg‘ulotlarda ham, sport tadbirlarida ham muhimdir. Xavfsizlikni ta’minlash faqat sportchining ehtiyotkorligiga emas, balki basseyn sharoiti, mas’ul xodimlar nazorati va belgilangan tartibning bajarilishiga ham bog‘li

4. Sportchi va murabbiyning mas’uliyati Suv sportida xavfsizlikni ta’minlash sportchi va murabbiyning hamkorligini talab qiladi. Sportchi mashg‘ulot vaqtida belgilangan tartibga amal qilishi, o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashi va boshqa ishtirokchilarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi lozim. Murabbiy esa mashg‘ulotlarni sportchilarning yoshi, tayyorgarligi va ko‘nikmalariga mos ravishda tashkil etishi, mashqlarni to‘g‘ri bajarishni tushuntirishi va xavfli vaziyatlarning oldini olishi kerak. Ayniqsa, suzishni endi o‘rganayotgan bolalar bilan ishlashda nazorat muhim ahamiyatga ega. Mashg‘ulot boshlanishidan oldin sportchilarga suvga tushish va undan chiqish tartibi, suzish yo‘laklaridan foydalanish hamda favqulodda vaziyatlarda qanday harakat qilish kerakligi tushuntirilishi zarur. Bundan tashqari, basseynning

tozaligi, suvning sanitariya talablariga mosligi, zarur xavfsizlik vositalarining mavjudligi va mas’ul xodimlarning tayyorligi ham xavfsiz mashg‘ulotning muhim shartlaridir.

5. Musobaqa qoidalarining ahamiyati. Sport musobaqalarida qoidalar barcha ishtirokchilar uchun teng sharoit yaratishga xizmat qiladi. Belgilangan talablar sportchilarning natijalarini xolis baholash, hakamlik jarayonini tartibga solish va musobaqaning adolatli o‘tishini ta’minlaydi. Suzish musobaqalarida start, burilish, masofani bosib o‘tish va marraga yetib kelish bilan bog‘liq texnik talablar mavjud. Ushbu talablarning bajarilishi hakamlar tomonidan nazorat qilinadi. Sportchi musobaqaga tayyorlanish jarayonida nafaqat jismoniy tayyorgarligini oshirishi, balki qoidalarni ham o‘rganishi kerak. Qoidalarni bilish xatolarning oldini olishga, musobaqada o‘zini ishonchli tutishga va sport intizomini saqlashga yordam beradi. Xalqaro musobaqalarda qo‘llaniladigan qoidalar tegishli sport turi va musobaqa reglamentiga bog‘liq. Shu sababli musobaqa oldidan tashkilotchilar e’lon qilgan amaldagi qoidalarni tekshirish muhimdir**.**

6. Xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar

O‘rganilgan ma’lumotlar asosida suv sporti mashg‘ulotlarini xavfsiz tashkil etish uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. Har bir mashg‘ulotdan oldin xavfsizlik bo‘yicha qisqa yo‘riqnoma o‘tkazish.
2. Suzishni o‘rganayotgan sportchilarni murabbiy nazorati ostida mashq qildirish.
3. Mashg‘ulotlarni yosh va jismoniy tayyorgarlik darajasiga mos rejalashtirish.
4. Basseyn va sport jihozlarining holatini muntazam tekshirish.
5. Suvga sakrash faqat tegishli sharoit va ruxsat mavjud bo‘lgan joylarda bajarilishini ta’minlash.
6. Sportchilarga favqulodda vaziyatlarda mas’ul xodimga qanday murojaat qilishni tushuntirish.
7. Musobaqalar oldidan ishtirokchilarga tegishli qoidalarni eslatish va tushuntirish.

Ushbu tavsiyalar xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga, mashg‘ulotlarni tartibli tashkil etishga va xavfli holatlarning oldini olishga yordam beradi. Tadqiqot davomida ko‘rib chiqilgan hujjatlar va uslubiy ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, suv sportida xavfsizlikni ta’minlash birgina qoidani bajarish bilan cheklanmaydi. Buning uchun sportchining mas’uliyati, murabbiy nazorati, sport inshootining holati va tashkil etilgan mashg‘ulot tartibi birgalikda ta’minlanishi lozim.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, suv sporti insonning jismoniy rivojlanishi va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Biroq ushbu sport turidan samarali foydalanish uchun mashg‘ulotlar va musobaqalarda belgilangan qoidalarga rioya qilish zarur. Tadqiqot davomida suv sportining asosiy yo‘nalishlari, suzish musobaqalaridagi qoidalar, basseynda xavfsizlik talablari hamda sportchi va murabbiyning mas’uliyati ko‘rib chiqildi. Tahlillar xavfsizlikni ta’minlashda oldindan tushuntirish ishlari, murabbiy nazorati va sportchilarning qoidalarga amal qilishi muhim ekanini ko‘rsatdi. Suv sporti bilan shug‘ullanuvchilar basseynda yugurmaslik, ruxsatsiz suvga sakramaslik, o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash va xavfli vaziyatlar haqida mas’ul xodimga darhol xabar berish kabi talablarga amal qilishlari lozim. Murabbiylar esa mashg‘ulotlarni to‘g‘ri rejalashtirish va sportchilar xavfsizligini nazorat qilishga alohida e’tibor qaratishlari kerak. Musobaqalarda rasmiy qoidalarga rioya qilish sportchilar o‘rtasida teng sharoit yaratadi va natijalarni xolis baholashga yordam beradi. Shu sababli sportchilar tegishli musobaqa reglamentlarini oldindan o‘rganishlari muhimdir. Umuman olganda, suv sportida yuqori natijalarga erishish jismoniy

tayyorgarlik bilan bir qatorda, sport qoidalarini bilish, xavfsizlik talablariga rioya qilish va mas’uliyatli munosabatda bo‘lishni ham talab qiladi. Xavfsiz mashg‘ulot sharoitlarini yaratish va yoshlar orasida xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish suv sportining yanada keng ommalashishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-maydagi 333-son qarori. *Suzish sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*. LexUZ rasmiy manbasi.
2. World Aquatics. *Competition Regulations and Swimming Rules*. Xalqaro suv sporti musobaqalariga oid qoidalar va hujjatlar. World Aquatics rasmiy sayti.
3. World Aquatics. Suv sporti yo‘nalishlari va xalqaro musobaqalarni tashkil etishga oid rasmiy materiallar. World Aquatics.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni. LexUZ qonunchilik bazasi.
5. World Health Organization. *WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour*. — Geneva: World Health Organization, 2020.

BAYDARKA VA KANOEDA ESHKAK ESHISH SPORTI BO‘YICHA MALAKALI SPORTCHILARNI TAYYORLASHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK USULLARI

B.U.Dauletov
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filliali professori
S.Paxratdinova, J.Nadirbaev
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filliali talabalari

Kalit so‘zlar: *baydarka, kanoe, eshkak eshish, sportchilar tayyorgarligi, zamonaviy pedagogik usullar, innovatsion texnologiyalar, jismoniy tayyorgarlik, sport mahorati.*

Ключевые слова: *байдарка, каноэ, гребля, подготовка спортсменов, современные педагогические методы, инновационные технологии, физическая подготовка, спортивное мастерство.*

Keywords: *kayak, canoe, paddling, athlete training, modern pedagogical methods, innovative technologies, physical preparation, sports performance.*

Kirish. Bugungi kunda sport sohasida yuqori malakali sportchilarni tayyorlash, mashg‘ulot jarayonining samaradorligini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Xalqaro sport musobaqalarida raqobatning kuchayishi sportchilar tayyorgarligini ilmiy asosda tashkil etish, mashg‘ulot metodlarini takomillashtirish va individual yondashuvni keng qo‘llash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Baydarka va kanoeda eshkak eshish sporti yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik, kuch, chidamlilik, tezkorlik, muvozanat, harakatlar uyg‘unligi va texnik mahoratni talab qiluvchi sport turlaridan biridir. Ushbu sport turida natijaga erishish nafaqat sportchining jismoniy imkoniyatlariga, balki eshkak eshish texnikasining to‘g‘ri shakllanganligi, taktik qarorlar qabul qilish qobiliyati va psixologik barqarorligiga ham bog‘liq.

An’anaviy mashg‘ulot metodlari sportchilarni tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Biroq zamonaviy sport pedagogikasining rivojlanishi mashg‘ulotlarda individual yondashuv, vide tahlil, raqamli kuzatuv, modellashtirilgan vaziyatlar va tezkor pedagogik qayta aloqadan

foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Mazkur usullar sportchining xatolarini aniqlash, harakat texnikasini takomillashtirish va mashg‘ulot yuklamalarini maqsadga muvofiq rejalashtirishga yordam beradi.

Tadqiqot metodlari. Mazkur ish nazariy-tahliliy yo‘nalishda olib borilgan bo‘lib, sport pedagogikasi va sport mashg‘ulotlari nazariyasiga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish, taqqoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlariga asoslanadi. Ushbu yondashuvlar baydarka va kanoeda eshkak eshish sportida qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik usullarning xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Sportchilarni tayyorlash jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Individual yondashuv metodi. Ushbu metod sportchining yoshi, jinsi, jismoniy rivojlanishi, tayyorgarlik darajasi, texnik ko‘nikmalari va tiklanish xususiyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Mashg‘ulot yuklamalari sportchining imkoniyatlari va belgilangan maqsadlarga muvofiq rejalashtiriladi.

Háreketler anıqlıǵın arttırıwdıń dáslepki basqıshı texnikalıq elementtiń durıs orınlanıw mexanizmin ózlestiriwden ibarat. Trener elementti kórsetiwi, onıń tiykarǵı fazaların túsindiriwi hám sportshınıń orınlaw procesindegi qáteliklerin anıqlawı kerek. Quramalı háreketlerdi bóleklerge ajıratıp úyretiw sportshıǵa hár bir fazanıń wazıypasın túsiniw, dene jaǵdayın qadaǵalaw hám háreketler izbe-izligin durıs qáliplestiriw imkaniyatın beredi. Keyingi basqıshta ózlestirilgen bólimler bir pútin háreketke birlestirilip, muzika hám kompoziciya menen úylestiriledi.

1-keste. Kórkem gimnastikada háreketler anıqlıǵı hám atqarıw sheberligin arttırıwdıń tiykarǵı baǵdarları

Rawajlandırıw baǵdarı	**Qollanılatuǵın usıllar**	**Kútilip atırǵan nátiyje**
Háreketler anıqlıǵı	Elementlerdi bóleklerge bólip úyretiw, tákirarlaw shınıǵıwları	Texnikalıq qátelerdi azaytıw
Koordinaciya	Quramalı háreket birikpeleri, jónelisti ózgertiw shınıǵıwları	Háreketler sáykesligin jaqsılaw
Teń salmaqlıq	Bir ayaqta turıw, tayanısh jaǵdayın saqlaw, teńsalmaqlılıq elementleri	Dene jaǵdayın turaqlı basqarıw
Háreket amplitudası	Basqarıwlı iyiliwsheńlik hám aktiv sozılıw shınıǵıwları	Háreketlerdi talap etilgen amplitudada orınlaw
Muzıkalıq úylesimlilik	Hár qıylı ritmlerde háreketlerdi orınlaw, muzıkaǵa sáykes kombinaciyalar	Ritm hám háreketler sáykesligin jaqsılaw
Orınlaw kórkemligi	Dene plastikası, qol háreketleri hám mimika ústinde islew	Kompoziciyanıń kórkem tásirsheńligin arttırıw
Ózin qadaǵalaw	Video analiz, trener pikiri hám qátelerdi jazıp alıw	Qátelerdiańlaw hám dúzetiw kónlikpesin rawajlandırıw

Túsindirme: keste teoriyalıq-metodikalıq dereklerdi tallaw tiykarında dúzildi.

Kesteden kórinip turǵanınday, háreketler anıqlıǵı hám atqarıw sheberligin rawajlandırıw bir-birin tolıqtıratuǵın baǵdarlardı qamtıp aladı. Máselen, teńsalmaqlılıq shınıǵıwları dene jaǵdayın turaqlı saqlawǵa járdem berse, koordinaciyalıq shınıǵıwlar quramalı háreketlerdiń óz-

ara muwapıqlıǵın rawajlandıradı. Muzıkalıq shınıǵıwlar bolsa texnikalıq elementlerdi belgilengen ritmge say orınlaw hám kompoziciyanıń pútinligin támiyinlewge xızmet etedi.

Háreketler anıqlıǵın arttırıwda tákirarlanıwshı shınıǵıwlar usılı ayrıqsha orın tutadı. Bunda gimnastikashı belgili bir texnikalıq elementti trener belgilegen sapa ólshemleri tiykarında birneshe márte orınlaydı. Hár bir tákirarlawda tek háreketler sanına emes, al dene jaǵdayı, qol-ayaq háreketleri izbe-izligi, tayanıshtıń turaqlılıǵı hám elementtiń juwmaqlawshı jaǵdayına itibar qaratıladı. Eger qáteler tákirarlansa, shınıǵıw qıyınshılıǵın waqtınsha azaytıw yamasa elementtiń ayırım fazaların qayta úyretiw maqsetke muwapıq.

Atqarıw sheberligin arttırıwda kórgizbeli kórsetiw hám video tallaw usıllarınan paydalanıw da áhmiyetli. Trener tárepinen duris orınlanǵan háreket úlgisin kórsetiw gimnastikashıda texnikalıq element haqqında anıq túsinik payda etedi. Shınıǵıw dawamında videoǵa túsirilgen atqarıwdı qayta kórip shıǵıw bolsa sportshıǵa óz háreketlerin úlgi menen salıstırıw, texnikalıq qátelerdi anıqlaw hám olardı dúzetiw jolların túsiniwge járdem beredi. Bunda video tallaw trener kórsetpeleri menen birgelikte qollanılıwı kerek.

2-keste. Háreketler anıqlıǵı hám atqarıw sheberligin jetilistiriw basqıshları

Basqısh	**Ámelge asırılatuǵın jumıslar**	**Qadaǵalaw normaları**
Dáslepki bahalaw	Sportshınıń texnikalıq hám koordinaciyalıq tayarlıǵın anıqlaw	Dene jaǵdayı, teńsalmaqlıq, háreket amplitudası
Texnikalıq úyretiw	Elementti bóleklerge ajıratıp túsindiriw hám kórsetiw	Háreket fazalarınıń durıs orınlanıwı
Qaytalawshı shınıǵıw	Elementti qadaǵalaw astında qaytaqayta orınlaw	Qáteler sanı hám orınlaw turaqlılıǵı
Muzıka menen úylestiriw	Elementlerdi ritm hám kompoziciya quramında orınlaw	Ritmge sáykeslik hám háreketlerdiń tegisligi
Talqılaw hám dúzetiw	Video, baqlaw hám trener kórsetpeleri tiykarında qátelerdi dúzetiw	Texnikalıq anıqlıq hám atqarıw sapası
Juwmaqlawshı qadaǵalaw	Bir pútin kompoziciyanı orınlaw hám dáslepki jaǵday menen salıstırıw	Orınlawdıń turaqlılıǵı hám úzliksizligi

Shınıǵıwlarda bul basqıshlardıń izbe-iz qollanılıwı sportshınıń texnikalıq tayarlıǵın sistemalı rawajlandırıwǵa járdem beredi. Bunda dáslepki bahalaw nátiyjeleri tiykarında individual shınıǵıwlar tańlanadı, ózlestiriw procesinde trener qadaǵalawı ámelge asırıladı hám juwmaqlawshı nátiyjeler aldıńǵı kórsetkishler menen salıstırıladı. Bunday qatnas sportshınıń rawajlanıw dinamikasın anıqlaw hám keyingi shınıǵıw wazıypaların belgilew imkanın beredi.

Háreketler anıqlıǵı hám atqarıw sheberligine shınıǵıw júklemesiniń durıs shólkemlestiriliwi de tásir kórsetedi. Sharshaw kúsheygen sharayatta texnikalıq elementlerdi kóp mártebe orınlaw háreket sapasınıń tómenlewine hám nadurıs kónlikpelerdiń qáliplesiwine alıp keliwi múmkin. Sonıń ushın trener shınıǵıwlar sanı, tákirarlanıwlar arasındaǵı dem alıw waqtı hám de texnikalqı quramalılıqtı sportshınıń tayarlıq dárejesine beyimlestiriwi zárúr.

Iyiliwsheńlik shınıǵıwlarında bolsa háreket amplitudasın zorlap asırıwdan saqlanıw, shınıǵıwlardı qadaǵalaw astında orınlaw hám qáwipsizlik talaplarına ámel etiw áhmiyetli.

Dodalaw nátiyjelerine bola, kórkem gimnastikada joqarı atqarıw sheberligine erisiw ushın texnikalıq tayarlıq, koordinaciyalıq qábiletler, muzıkalılıq hám kórkemlep kórsetiwdi birgelikte rawajlandırıw zárúr. Tek texnikalıq elementti duris orinlawdıń ózi jeterli bolmastan, onıń kompoziciya quramındaǵı ornı, basqa háreketlerge ótiw tegisligi hám muzikaga sáykesligi de esapqa alınıwı kerek. Sonıń ushın shınıǵıwlarda ayırım elementlerdi úyretiw menen birge, olardı pútin kompoziciya quramında orınlawǵa da turaqlı itibar qaratıw usınıs yetiledi.

Juwmaq. Juwmaqlap aytqanda, kórkem gimnastikada háreketler anıqlıǵı hám orınlaw sheberligin arttırıw sportshılardıń texnikalıq tayarlıǵın jetilistiriw, koordinaciyalıq qábiletlerin rawajlandırıw hám jarıs kompoziciyaların sapalı orınlawdıń áhmiyetli shártlerinen biri bolıp esaplanadı. Háreketlerdiń anıqlıǵı dene jaǵdayın duris basqarıw, teńsalmaqlılıqtı saqlaw, belgilengen amplitudaǵa ámel etiw hám texnikalıq elementlerdi izbe-iz orınlaw arqalı kórinedi. Atqarıw sheberligi bolsa usı elementlerdi muzıkalıq ritm, háreketler ástenligi hám kórkem kórkemlik penen úylestiriwdi talap yetedi.

Izertlew sheńberinde ámelge asırılǵan teoriyalıq-metodikalıq analiz tómendegi juwmaqlardı qáliplestiriw imkaniyatın berdi:

- Birinshiden, texnikalıq elementlerdi bóleklerge ajıratıp úyretiw hám keyin ala bir pútin háreketke birlestiriw quramalı koordinaciyalıq háreketlerdi ózlestiriw ushın áhmiyetli metodikalıq jantasıw esaplanadı.

- Ekinshiden, tákirarlama shınıǵıwlar, kórgizbeli kórsetiw, video tallaw hám jeke tapsırmalardan paydalanıw texnikalıq qátelerdi anıqlaw, háreketler sapasın qadaǵalaw hám orınlaw turaqlılıǵın jetilistiriwge járdem beredi.

- Úshinshiden, teńsalmaqlılıq, iyiliwsheńlik, koordinaciya hám muzıkalıq ırǵaqtı seziw qábiletlerin óz-ara úylesikli rawajlandırıw kórkem gimnastikashılardıń atqarıw sheberligin qáliplestiriwde úlken áhmiyetke iye.

Tórtinshiden, shınıǵıw júklemesin sportshınıń individual imkaniyatlarına beyimlestiriw, dem alıs aralıǵın durıs belgilew hám sharshaw belgilerin baqlaw texnikalıq orınlaw sapasın saqlaw jáne artıqsha kúshleniw qáwpin azaytıwǵa xızmet etedi.

Ámeliy jaqtan kórkem gimnastika trenerlerine shınıǵıwlar dawamında háreketlerdiń anıqlıǵı hám orınlaw sapasın turaqlı bahalaw, sportshılardıń texnikalıq qátelerin atap ótiw, video tallawdan paydalanıw hám de shınıǵıwlardı individual tayarlıq dárejesine beyimlestiriw usınıs etiledi. Keleshekte usınıs etilgen usıllardıń nátiyjeliligin anıqlaw ushın pedagogikalıq tájiriybe-sınaq izertlewlerin ótkeriw, sportshılardıń dáslepki hám juwmaqlawshı kórsetkishlerin salıstırıw maqsetke muwapıq.

Ulıwma alǵanda, háreketler anıqlıǵı hám orınlaw sheberligin arttırıwǵa baǵdarlanǵan kompleksli metodikalıq qatnas kórkem gimnastikashılardıń texnikalıq imkaniyatların keńeytiw, kompoziciya orınlanıwınıń turaqlılıǵın támiyinlew hám sport sheberligin izbe-iz rawajlandırıw ushın áhmiyetli tiykar bolıp xızmet etedi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Platonov V.N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. Obshchaya teoriya i yeye prakticheskiye prilozheniya. — Kiev: Olimpiyskaya literatura, 2004.

2. Lyax V.I. Koordinatsionnye sposobnosti: diagnostika i razvitie. — Moskva: TVT Divizion, 2006.

3. Arkaev L.Ya., Suchilin N.G. Kak gotovit chempionov: teoriya i texnologiya podgotovki gimnastov vysshey kvalifikatsii. — Moskva: Fizkultura i sport, 2004.

4. Karpenko L.A. Xudojestvennaya gimnastika: uchebnik. — Moskva: Vserossiyskaya federatsiya xudojestvennoy gimnastiki, 2003.

UDK: 373.2:796.412:796.012.412

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASASI TARBIYALANUVCHILARINING EGILUVCHANLIGINI GIMNASTIKA MASHQLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Tamara Adambaevna Djumaniyazova[1], Tumaris Azamatovna Shılmanova[2], Amatova Shaxzoda Jumaboy qizi[3]

[1]O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali dotsenti

[2,3]O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali talabalari

Email: t.djumaniyazova@gmail.com

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, tarbiyalanuvchilar, gimnastika, egiluvchanlik, jismoniy rivojlanish, jismoniy sifatlar, gimnastika mashqlari, harakat faolligi.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, воспитанники, гимнастика, гибкость, физическое развитие, физические качества, гимнастические упражнения, двигательная активность.*

Keywords: *preschool education, children, gymnastics, flexibility, physical development, physical qualities, gymnastics exercises, motor activity.*

Kirish. Maktabgacha yosh davri bolaning jismoniy, funksional va harakat qobiliyatlari faol shakllanadigan muhim rivojlanish bosqichlaridan biridir. Mazkur davrda muntazam tashkil etilgan jismoniy mashg‘ulotlar bolalarning sog‘lom o‘sishi, harakat ko‘nikmalarining shakllanishi va asosiy jismoniy sifatlarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, egiluvchanlik maktabgacha yoshdagi bolalarning harakatlarni keng amplitudada, erkin va muvofiqlashtirilgan holda bajarishida muhim ahamiyatga ega. Yetarli darajada rivojlangan egiluvchanlik turli jismoniy mashqlarni to‘g‘ri bajarish, harakat koordinatsiyasini yaxshilash hamda keyingi sport faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rish uchun zarur shartlardan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini mazmunan boyitish, bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mos mashqlarni tanlash hamda ularni muntazam qo‘llash bugungi kunda dolzarb pedagogik vazifalardan biridir. Gimnastika mashqlari o‘zining xilma-xilligi, bajarilish shakllarining qulayligi va turli mushak guruhlariga ta’sir ko‘rsatish imkoniyati bilan maktabgacha yoshdagi bolalarda egiluvchanlikni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida qaraladi. Gimnastika tarkibidagi cho‘zilish, bukilish, yozilish, burilish va muvozanat mashqlarini yosh xususiyatlariga mos ravishda qo‘llash orqali bolaning harakat imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish mumkin.

Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalarda egiluvchanlikni rivojlantirishda mashqlarni tanlash, yuklamani me’yorlash, bajarish ketma-ketligi va mashg‘ulot davomiyligini to‘g‘ri belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Haddan tashqari yuklama bolaning tabiiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi sababli mashqlarni oddiydan murakkabga, kam amplitudadan yuqori amplitudaga bosqichma-bosqich o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Bunda mashg‘ulotlarni qiziqarli o‘yin elementlari bilan uyg‘unlashtirish bolalarning mashqlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va faol ishtirokini ta’minlaydi.

Tadqiqotning maqsadi — maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyalanuvchilarida egiluvchanlik sifatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan gimnastika mashqlari majmuasini ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti — maktabgacha ta’lim muassasasida jismoniy tarbiya jarayoni.

Tadqiqotning predmeti — maktabgacha yoshdagi bolalarda egiluvchanlikni gimnastika mashqlari asosida rivojlantirish metodikasi.

Tadqiqotning vazifalari maktabgacha yoshdagi bolalarning egiluvchanlik darajasini aniqlash, egiluvchanlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan gimnastika mashqlarini tanlash va amaliyotga joriy etish hamda taklif etilgan metodikaning samaradorligini baholashdan iborat.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Tadqiqot maktabgacha ta’lim muassasasining 5–6 yoshli 10 nafar tarbiyalanuvchisi ishtirokida tashkil etildi. Tadqiqot ishtirokchilari teng asosda tajriba guruhi — 5 nafar va nazorat guruhi — 5 nafar bolaga ajratildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda egiluvchanlikni gimnastika mashqlari asosida rivojlantirish metodikasining samaradorligini aniqlashdan iborat bo‘ldi.

Tadqiqot 8 hafta davomida olib borilib, mashg‘ulotlar haftasiga 3 marotaba, 25–30 daqiqadan tashkil etildi. Tajriba guruhida egiluvchanlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus gimnastika mashqlari majmuasidan foydalanildi. Nazorat guruhida esa maktabgacha ta’lim muassasasida amalda qo‘llaniladigan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari davom ettirildi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, taqqoslash va matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Bolalarning egiluvchanlik darajasini aniqlash uchun o‘tirgan holda oldinga egilish, tik turgan holatda oldinga egilish, gavdani orqaga bukish va oyoqlarni yon tomonga ochish kabi nazorat mashqlaridan foydalanildi. Testlar tajriba boshlanishidan oldin va 8 haftalik mashg‘ulotlardan so‘ng bir xil sharoitda o‘tkazildi.

Tajriba guruhidagi mashg‘ulotlarda gavdani oldinga va yon tomonlarga bukish, qo‘l va yelka bo‘g‘imlarini cho‘zish, oyoqlarni oldinga va yon tomonga ko‘tarish, o‘tirgan holda oyoqlarga egilish, “kapalak” mashqi, oyoqlarni keng ochib o‘tirish va turli cho‘zilish mashqlari qo‘llanildi. Mashqlar bolalarning yosh va individual jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, oddiydan murakkabga tamoyili asosida bajarildi.

Mashg‘ulotlarning tayyorgarlik qismida 5–7 daqiqa davomida yengil yurish, yugurish va umumrivojlantiruvchi mashqlar bajarildi. Asosiy qismda 15–18 daqiqa davomida egiluvchanlikni rivojlantiruvchi gimnastika mashqlariga e’tibor qaratildi. Yakuniy qismda 3–5 daqiqa davomida nafas olish va bo‘shashtiruvchi mashqlar bajarildi.

Tadqiqot yakunida tajriba va nazorat guruhlarining dastlabki hamda yakuniy ko‘rsatkichlari taqqoslandi. Natijalarni baholashda o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkich (M), o‘sish sur’ati va foizli farqlar hisoblandi. Olingan ma’lumotlar gimnastika mashqlarining maktabgacha yoshdagi bolalar egiluvchanligini rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. 8 haftalik tadqiqot yakunida 5–6 yoshli 10 nafar tarbiyalanuvchining egiluvchanlik ko‘rsatkichlari qayta baholandi. Tajriba guruhida 5 nafar, nazorat guruhida 5 nafar bola ishtirok etdi. Testlar tadqiqot boshida va mashg‘ulotlar yakunida bir xil sharoitda o‘tkazildi.

1-jadval. Tajriba guruhidagi bolalarning egiluvchanlik ko‘rsatkichlari

№	Test mashqi	1-bola	2-bola	3-bola	4-bola	5-bola
1	O‘tirib oldinga egilish, dastlabki, sm	6	7	8	6	7
	Yakuniy, sm	10	11	12	9	10
2	Tik turgan holda oldinga egilish, dastlabki, sm	3	4	3	2	4
	Yakuniy, sm	6	7	6	5	6
3	Oyoqlarni yon tomonga ochish, dastlabki, sm	93	90	95	92	89
	Yakuniy, sm	81	78	82	80	79

2-jadval. Nazorat guruhidagi bolalarning egiluvchanlik ko‘rsatkichlari

№	Test mashqi	1-bola	2-bola	3-bola	4-bola	5-bola
1	O‘tirib oldinga egilish, dastlabki, sm	6	7	8	7	6
	Yakuniy, sm	7	8	9	8	8
2	Tik turgan holda oldinga egilish, dastlabki, sm	3	4	3	3	4
	Yakuniy, sm	4	5	4	4	5
3	Oyoqlarni yon tomonga ochish, dastlabki, sm	92	91	94	93	90
	Yakuniy, sm	88	87	90	89	87

3-jadval. Guruhlarning o‘rtacha natijalari

Test mashqi	Guruh	Dastlabki natija	Yakuniy natija	Mutlaq o‘zgarish
O‘tirib oldinga egilish, sm	Tajriba	6,8	10,4	+3,6
	Nazorat	6,8	8,0	+1,2
Tik turgan holda oldinga egilish, sm	Tajriba	3,2	6,0	+2,8
	Nazorat	3,4	4,4	+1,0
Oyoqlarni yon tomonga ochish, sm	Tajriba	91,8	80,0	11,8 sm yaxshilanish
	Nazorat	92,0	88,2	3,8 sm yaxshilanish

Olingan natijalar tajriba guruhida barcha test mashqlari bo‘yicha sezilarli ijobiy o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatdi. Xususan, o‘tirib oldinga egilish testida tajriba guruhining o‘rtacha natijasi 6,8 sm dan 10,4 sm gacha, ya’ni 3,6 sm ga yaxshilandi. Nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkich 6,8 sm dan 8,0 sm gacha, ya’ni 1,2 sm ga oshdi.

Tik turgan holda oldinga egilish testida tajriba guruhida dastlabki 3,2 sm natija mashg‘ulotlardan keyin 6,0 sm ga yetdi. Nazorat guruhida esa o‘rtacha ko‘rsatkich 3,4 sm dan 4,4 sm gacha o‘zgardi. Bu tajriba guruhida maxsus gimnastika mashqlarining samarasi yuqoriroq bo‘lganini ko‘rsatadi.

Oyoqlarni yon tomonga ochish testida ham tajriba guruhida ijobiy dinamika kuzatildi. Dastlabki o‘rtacha ko‘rsatkich 91,8 sm bo‘lgan bo‘lsa, tadqiqot yakunida 80,0 sm ni tashkil etdi. Ya’ni oyoqlarni ochishdagi masofa 11,8 sm ga qisqardi. Nazorat guruhida esa mazkur ko‘rsatkich atigi 3,8 sm ga yaxshilandi.

Umuman, natijalar 8 hafta davomida muntazam va maqsadli qo‘llanilgan gimnastika mashqlari maktabgacha yoshdagi bolalarning egiluvchanligini rivojlantirishda samarali vosita bo‘la olishini ko‘rsatdi. Tajriba guruhidagi yuqori o‘sish mashqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish, cho‘zilish mashqlaridan muntazam foydalanish va bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish bilan izohlanadi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyalanuvchilarining egiluvchanligini rivojlantirishda gimnastika mashqlaridan muntazam va maqsadli foydalanish samarali natija beradi. 5–6 yoshli 10 nafar bola ishtirokida 8 hafta davomida olib borilgan pedagogik tajriba yakunida tajriba guruhida egiluvchanlik ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq darajada yaxshilandi.

Tajriba guruhida o‘tirib oldinga egilish ko‘rsatkichi 6,8 sm dan 10,4 sm gacha, tik turgan holda oldinga egilish 3,2 sm dan 6,0 sm gacha yaxshilandi. Oyoqlarni yon tomonga ochish testida esa masofa 91,8 sm dan 80,0 sm gacha kamaydi. Bu natijalar gimnastika mashqlarining bolalarda bo‘g‘imlar harakatchanligi va mushaklarning elastikligini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida mashqlarni oddiydan murakkabga, bosqichma-bosqich va muntazamlik tamoyili asosida tashkil etish bolalarning jismoniy imkoniyatlarini samarali rivojlantirishga yordam berdi. Shuningdek, gimnastika mashqlarini o‘yin elementlari bilan uyg‘unlashtirish bolalarning mashg‘ulotlarga qiziqishi va faol ishtirokini oshirdi.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim muassasalarida egiluvchanlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan gimnastika mashqlaridan tizimli foydalanish bolalarning jismoniy tayyorgarligini yaxshilash, harakat amplitudasini kengaytirish va keyingi jismoniy rivojlanish uchun zarur harakat ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matveyev L.P. Teoriya i metodika fizicheskoy kultury. — Moskva: Sport, 2008. — 544 s.

2. Lyax V.I. Fizicheskaya kultura: 1–4 klassy. — Moskva: Prosveshchenie, 2016. — 192 s.

3. Osokina T.I. Fizicheskaya kultura v detskom sadu. — Moskva: Prosveshchenie, 1986. — 304 s.

4. Usmonxo‘jayev T.S., Xo‘jayev F. 1001 o‘yin. — Toshkent: Ibn Sino, 1990. — 352 b.

5. Salamov R.S. Sport mashg‘ulotlarining nazariy asoslari. — Toshkent: O‘zbekiston, 2005. — 238 b.

6. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. — Toshkent: O‘zDJTI, 2005. — 300 b.

VELOSIPEDSHILERDIŃ FIZIKALÍQ SÍPATLARÍN JETILISTIRIWDE VELOSTANOKLARDA ORÍNLANATUǴÍN SHÍNÍǴÍWLAR KOMPLEKSIN ISLEP SHÍǴÍW

Serimbetov Qarlıbay Orazımbetovich
ÓzMDTSU Nókis filialı assistent oqıtıwshısı
E-mail: karlybajserimbetov.@gmail.com

Tayanısh sózler: *velostanoklarda shınıǵıw, starttan tezleniw, awır pedal aylanıwı, kadens boyınsha shınıǵıw, arnawlı shıdamlılıq, tezlik-kúsh sıpatları.*

Ключевые слова: *тренировки на велостанках, ускорение со старта, вращение тяжелых педалей, упражнения на каденсе, специальная выносливость, скоростно-силовые упражнения.*

Key words: *training on bike trainers, acceleration from the start, heavy pedaling, cadence training, special endurance, speed-strength.*

Izertlewdiń aktuallıǵı. Házirgi waqıtta sportshılardıń fizikalıq tayarlıǵın jetilistiriw, ásirese tezlik-kúsh hám arnawlı shıdamlılıq sıpatların rawajlandırıw sport teoriyası hám ámeliyatınıń aktual máselesiniń biri bolıp esaplanadı. Zamanagóy sportta joqarı nátiyjelerge erisiw sportshılardıń tek ulıwma emes, al arnawlı fizikalıq sıpatlarınıń dárejesine de tikkeley baylanıslı. Velosportta bolsa shınıǵıw procesiniń nátiyjeliligi kóp jaǵınan júklemeni durıs rejelestiriw, texnikanı jetilistiriw hám fizikalıq sıpatlardı óz ara sáykes rawajlandırıw menen belgilenedi.

Usı kózqarastan, velostanoklarda shınıǵıw sportshılarǵa jıl dawamında úzliksiz tayarlıq kóriw, júklemeni anıq qadaǵalaw hám jeke ózgesheliklerin esapqa alǵan halda shınıǵıwlardı shólkemlestiriw múmkinshiligin beretuǵın nátiyjeli qural sıpatında úlken áhmiyetke iye. Ásirese, jabıq imaratlarda ótkeriletuǵın velotrenajyor shınıǵıwları arqalı tezlik-kúsh, tezlik shıdamlılıǵı hám texnikalıq tayarlıq dárejesin rawajlandırıw múmkinshilikleri keńeymekte.

Biraq ámeliyat kórsetkenindey, velostanoklardan paydalanıwǵa baylanıslı shınıǵıwlar sisteması jeterli dárejede ilimiy tiykarlanbaǵan. Shınıǵıwlar kompleksin dúziw hám júkleme parametrlerin optimallastırıw boyınsha birden-bir jantasıw tolıq qáliplespegen.

Sol sebepli, joqarı dárejeli velosipedshilerdiń fizikalıq sıpatların rawajlandırıwda velostanok shınıǵıwlarınan nátiyjeli paydalanıw usılların islep shıǵıw, shınıǵıwlar kompleksin jetilistiriw hám olardı ilimiy tiykarlaw zárúrligi usı izertlewdiń aktuallıǵın belgileydi.

Izertlewdiń maqseti. Velostanoklarda orınlanatuǵın shınıǵıwlar tiykarında joqarı dárejeli velosipedshilerdiń tezlik-kúsh, arnawlı shıdamlılıq hám texnikalıq tayarlılıq sıpatların rawajlandırıwdıń nátiyjeli usılların ilimiy tiykarlaw hám shınıǵıwlar kompleksin islep shıǵıwdan ibarat.

Izertlewdiń wazıypaları. Velosipedshilerdiń fizikalıq tayarlıǵın hám onıń quramlıq bólimlerin (tezlik-kúsh, arnawlı shıdamlılıq, texnikalıq tayarlıq) teoriyalıq jaqtan tallaw.

Velostanoklarda shınıǵıwdıń sportshılar tayarlıǵına tásirin ilimiy tiykarda úyreniw.

Tezlik-kúsh hám tezlik shıdamlılıǵın rawajlandırıwda qollanılatuǵın shınıǵıw usılların hám júkleme parametrlerin anıqlaw.

Velostanok shınıǵıwlarında qollanılatuǵın mashqlar (tezleniwler, intervallıq hám tákirarlaw júklemeleri) sistemasın tallaw.

Izertlew nátiyjeleri hám olardıń talqılanıwı. Joqarı dárejeli velosipedshilerdiń fizikalıq sıpatların jetilistiriwde velostanoklardan paydalanıp orınlanatuǵın shınıǵıwlar kompleksin islep shıǵıw boyınsha usınıslar hám ámeliy keńesler tayarlaw kózde tutıldı.

Ulıwma tayarlıq basqıshında velostanoklarda ótkeriletuǵın shınıǵıwlar barlıq toparlar ushın shama menen birdey ózgeshelikke iye boladı. Arnawlı shıdamlılıqtı rawajlandırıw ushın rejelestirilgen tómenirek shıdamlılıq dárejesinde (60-80 ayl/daq) shınıǵıw júklemesiniń kólemin arttırıwǵa itibar berildi.

20-25 minutlıq belsendi dem alıwdan keyin shınıǵıwda 2-3 márte tákirarlanatuǵın júklemeler qollanıldı. Soń júkleme eki bólimge bólinedi: birinshi bólimde 15-20 minut, ekinshi bólimde bolsa 30-45 minut dawamında qızdırıw shınıǵıwları orınlanadı.

Yanvar ayınıń aqırında joqarı razryadlı sportshılar ushın ulıwma shıdamlılıqtı rawajlandırıw shınıǵıwları rejelestirildi. Erkekler bul shınıǵıwlardı bir mashǵulatıw dawamında 40-60 minut, al hayallar háptesine 1-2 márte, 30-40 minut dawamında orınladı.

Fevral–aprel aylarında velostanoklarda pedal aylanıw texnikasın hám velosiped miniw texnikasınıń elementlerin jetilistiriw, arnawlı shıdamlılıq, tezlik hám arnawlı tezlik shıdamlılıǵın rawajlandırıw boyınsha háptesine 3 márte shınıǵıw ótkerildi.

Tezlikti rawajlandırıw pedal aylanıw texnikası ózlestirilgennen keyin ámelge asırıladı. Bunda sportshı tezlikti arttırıw menen birge texnikanı saqlap qalıwǵa úyrenedi. Shınıǵıw 2-3 seriyadan ibarat tezleniwler túrinde ótkerilip, seriyalar arasında jumıs qábileti tiklengenshe dem alıw beriledi.

Tezleniwler arasındaǵı dem alıw waqtında tezlik áste tómenletiledi, tereń hám bir tegis dem alıw, bulshıq etlerdi bosasıtıw ámelge asırıladı. Sonıń menen birge, úlken hám maksimal júkleme menen kúsh shınıǵıwları seriyalı túrde orınlanıp, bulshıq etlerdi sozıw hám bosasıtıw shınıǵıwları qollanıladı.

Tezleniwlerdiń hár bir seriyasınan aldın 30 sekundtan 1 minut 30 sekundqa shekem qısqa múddetli qızdırıw shınıǵıwları orınlanadı.

Mısallar: 1-seriyadaǵı júklemeler: 1-variant: 20+25+20+30+20 aylanıs;

2-variant: 20+30+40+20+40+20 aylanıw.

Hár bir seriyanı tákirarlaw waqtında pedal aylanıw tezligin birdey saqlaw ushın shınıǵıw tómen aylanıw jiyiliginen baslanıp, keyingi basqıshlarda ol arttırıladı. Soń aylanıw jiyiligi saqlanǵan halda júkleme áste kemeytiledi. Keyingi tákirarlawlarda da aylanıw jiyiligin birdey saqlawǵa itibar beriledi. Bunda tezlikti rawajlandırıwǵa baǵdarlanǵan shınıǵıw júklemesiniń kólemi arttırılıp, pedal aylanıwınıń turaqlı stereotipi saqlanadı.

Mısallar:

1-variant: 20+25+30+35+30+25+20 aylanıw;

2-variant: 20+30+40+45+35+20 aylanıw;

3-variant: 30+40+50+60+40+30 aylanıw.

Sprinter velosipedshiler ushın fevral ayınıń aqırında shıdamlılıq shınıǵıwlarınıń ornına jáne bir tezlik shınıǵıwı kirgiziledi. Basqa velosipedshiler ushın bolsa tezlik shıdamlılıǵın rawajlandırıw shınıǵıwları dawam ettiriledi.

Tezlik shıdamlılıǵın rawajlandırıw shınıǵıwlarında bir mashǵulatıw dawamında 2-3 seriya qollanıladı. Júkleme 4-5 minutlıq bóleklerdi hám 30-20 sekundlıq aralıqlardı óz ishine alatuǵın túrli variantlarda rejelestiriledi. Shınıǵıw waqtında tereń hám bir tegis dem alıwǵa ayrıqsha itibar beriledi.

Mısallar:

1-variant - 5 minut 4 márte, intensivligi 3 ball;
2-variant - 3 minut 5 márte intensivligi 3,5 ball;
3-variant - 2 minut 5 márte intensivli 4 ball;
4-variant - 1 minut 6 márte intensivligi 4,5 ball;
5-variant - intensivligi 5 ball bolǵan 6 ret 30 sekund.

Keyingi basqıshta hár bir seriya ishinde bóleklerdi hár qıylı tezlikte hám shiddette orınlaw rejelestiriledi.

Mısallar:

1-variant: 40 sekund 5 ball + 3 min 3 ball + 1 min 5 ball + 2 min 4 ball + 30 sekund 5 ball.

2-variant: 4 min 3 ball + 2 min 4 ball + 1 min 5 ball + 3 min 3 ball + 1 min 30 sek 5 ball.

Juwmaqlawshı basqıshta júkleme joqarı shiddetsiz orınlanıp, jumıs dawamlılıǵı bir waqıtta 5–10 minutqa shekem uzaytıladı.

Mısallar:

1-variant: 30 sek + 1 min + 1 min 30 sekund + 1 min + 30 sekund - 5 ball.

2-variant: 40 sek + 1 min 30 sek + 2 min 30 sek + 2 min + 1 min - 4,5 ball.

Tezlik shıdamlılıǵın rawajlandırıw ushın tómendegi shınıǵıw usılları usınıs etiledi: sprinterler ushın — tákirarlaw usılı; shosse velosipedshileri, kross poygalarında qatnasıwshılar hám jetekshiler menen 4 km trek jarısına tayarlanıwshılar ushın — tákirarlaw, ózgeriwshi, intervallıq hám baqlaw usılları qollanıladı.

Arnawlı shıdamlılıqtı rawajlandırıw shınıǵıwları shossedegi shınıǵıwlar baslanıwınan aldın ózgeriwshi hám bir tegis tezlikte ótkeriledi. Shınıǵıw dawamlılıǵı 50-90 minut bolıp, shossede velosiped miniwge ótiw ushın zárúr fizikalıq tiykar jaratıladı.

Qıslıq tábiyiy sharayatta velosiped miniw shınıǵıwları da waqıt-waqıtı menen qalada ótkerilip, shınıǵıwdıń juwmaqlawshı bóliminde háptesine 2-3 márte, 40-60 minutqa shekem dawam etedi.

Arnawlı shıdamlılıq hám texnikalıq tayarlılıqtı rawajlandırıw ushın qıstıń dáslepki aylarında ayına 500 km-ge shekemgi aralıqtı qamtıytuǵın velosiped shınıǵıwları ótkeriledi. Bunda kishi hám waqıt-waqıtı menen úlken uzatpalar qollanılıp, keyingi basqıshlarda shınıǵıw kólemi hám shiddetin arttırıwǵa itibar beriledi.

Juwmaq. Velostanoklarda shınıǵıw zamanagóy hám nátiyjeli tayarlıq usıllarınıń biri bolıp, ol sportshılarǵa da, háweskerlerge de jıl dawamında turaqlı túrde shınıǵıw imkaniyatın beredi. Bunday shınıǵıwlar hawa rayına hám sırtqı sharayatlarǵa baylanıslı bolmawı menen birge, júklemeni anıq qadaǵalawǵa hám jeke reje tiykarında shınıǵıw ótkeriwge járdem beredi.

Ásirese, tezlik-kúsh sıpatların rawajlandırıwda velotrenajyor shınıǵıwları áhmiyetli orın tutadı. Sebebi, olar bulshıq etlerdiń kúshin, tezligin hám shıdamlılıǵın óz ara sáykes túrde rawajlandırıwǵa járdem beredi. Sol sebepli, velostanoklardan durıs hám izbe-iz paydalanıw sport nátiyjelerin jaqsılawdıń nátiyjeli quralı bolıp esaplanadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar dizimi

1. Абдиев Ш.А. Таянч-ҳаракат аппарати шикастланган юқори малакали улоқтирувчиларнинг спорт машғулотларини оптималлаштириш Автореф.дис. p.f.b.f.d. (PhD) Чирчиқ, 2022. -B.81-86.

2. Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш.Х. Жисмоний тарбия назарияси ва усулияти/Дарслик.

– Тошкент: ЎзДЖТИ нашриёт матбаа бўлими, 2005. - B. 90-91.

3. Акромов Ж.А. Ачилов А.М. Давулова М.С. Болалар қоматининг шакилланиши. ўқув қўлланма Т-2006.: - ЛидерПресс 2008 й. -В. 408.

4. Захаров А.А. Тактическая подготовка велосипедиста. Учебное пособие. – М.: ФОН, 2001.

5. Исаев А. Физическая культура и спорт: проблемы и перспективы: Сборник материалов XXI Всероссийской научно-практической конференции с международным участием, Сургут, 18-19 ноября 2022 г. / Редактор А.А. Исаев; Сургутский государственный университет. – Сургут: СурГУ, 2022, Молчанова В.В, С.169.

SHOSSE VA TREK MUSOBAQALARI VAQTIDA HAKAMLARNING FAOLIYATI

Serimbetov Q.O.
O‘zDJTSU Nukus filiali, “Koordinatsion va siklik sport turlari nazariyasi va metodikasi” assistent o‘qituvchisi
Djoldasova.J.O.
O‘zDJTSU Nukus filiali, Velosport ta’lim yonalishi 1-bosqich talabasi

Kalit so‘zlar: *velosport, shosse, trek, musobaqa, hakamlar hay’ati, bosh hakam, vaqt o‘lchash, fotofinish, sport qoidalari, xavfsizlik.*

Ключевые слова: *велоспорт, шоссе, трек, соревнования, судейская коллегия, главный судья, хронометраж, фотофиниш, безопасность.*

Keywords: *cycling, road racing, track cycling, competition, judging panel, chief judge, timekeeping, photo finish, safety.*

Kirish. Bugungi kunda velosport sportchilarning jismoniy tayyorgarligi, tezlik, chidamlilik, texnik va taktik mahoratini rivojlantirishga xizmat qiluvchi sport turlaridan biri hisoblanadi. Velosport musobaqalari shosse va trek yo‘nalishlarida o‘tkazilib, har bir yo‘nalish o‘ziga xos qoidalar, tashkiliy talablar va hakamlik faoliyatini talab etadi. Musobaqaning yuqori saviyada tashkil etilishi nafaqat sportchilarning tayyorgarligiga, balki hakamlarning bilim va malakasiga ham bevosita bog‘liq.

Hakamlar musobaqa qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladi, sportchilarning start olishi va marraga kelish tartibini belgilaydi, natijalarni qayd etadi hamda yuzaga keladigan bahsli vaziyatlarni amaldagi qoidalar asosida hal etadi. Shu sababli hakamlik faoliyati sport musobaqalarini boshqarish tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Velosport musobaqalarida sportchilarning yuqori tezlikda harakatlanishi, ishtirokchilar sonining ko‘pligi va natijalar orasidagi farqning juda kichik bo‘lishi hakamlardan yuqori darajadagi diqqat, tezkor qaror qabul qilish va mas’uliyatni talab etadi. Ayniqsa, shosse poygalarida uzoq masofani nazorat qilish, trek musobaqalarida esa davralar va marraga kelish ketma-ketligini aniq belgilash katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi. Shosse va trek musobaqalarida hakamlar faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini o‘rganish, hakamlar hay’ati vazifalarini yoritish hamda musobaqalarni xolis, xavfsiz va tartibli tashkil etishning ahamiyatini asoslash.

Hakamlar hay’atining tarkibi va musobaqani tashkil etishdagi vazifalari

Velosport musobaqalarini o‘tkazishda hakamlar hay’atining tarkibi musobaqaning turi, miqyosi, dasturi, masofa uzunligi, ishtirokchilar soni va xavfsizlik talablariga qarab belgilanadi. Yirik musobaqalarda hakamlar tarkibi kengroq bo‘lsa, kichik miqyosdagi musobaqalarda ayrim

vazifalar birlashtirilishi mumkin. Bunda amaldagi musobaqa qoidalari va tashkilotchilik talablari hisobga olinadi.

Musobaqa boshlanishidan oldin tashkilotchi tomonidan bosh hakam va mas’ul shaxslar belgilanadi. Hakamlar hay’ati musobaqa nizomi bilan tanishib chiqishi, vazifalarni o‘zaro taqsimlashi, zarur hujjatlarni tayyorlashi va musobaqa o‘tkaziladigan hududning tayyorgarligini tekshirishi lozim.

Hakamlar hay’ati tarkibiga, odatda, quyidagi mas’ullar kiradi: bosh hakam va uning o‘rinbosarlari, bosh kotib va kotibiyat xodimlari, start beruvchi hakam va uning yordamchilari, marradagi katta hakam va marrani nazorat qiluvchi hakamlar, vaqt o‘lchovchi hakamlar, davralarni hisoblovchi hakamlar, masofa va trassani nazorat qiluvchi hakamlar, texnik nazorat uchun mas’ul shaxslar, axborot beruvchi hakam, musobaqa xavfsizligi va tibbiy ta’minoti uchun mas’ul xodimlar.

Mazkur tarkib musobaqaning xususiyatiga qarab o‘zgarishi mumkin. Hakamlar vazifalarining oldindan aniq taqsimlanishi musobaqa jarayonida tartibni saqlash va natijalarni to‘g‘ri qayd etishga yordam beradi.

Bosh hakamning vazifalari va vakolatlari

Bosh hakam musobaqani tashkil etish va o‘tkazish jarayoniga rahbarlik qiluvchi asosiy mas’ul shaxs hisoblanadi. U musobaqa nizomi va tegishli qoidalarning bajarilishini nazorat qiladi, hakamlar hay’ati faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda yuzaga keladigan masalalarni belgilangan tartibda hal etadi.

Bosh hakamning asosiy vazifalariga musobaqa joyining tayyorligini tekshirish, hakamlar o‘rtasida vazifalarni taqsimlash, start va finish hududlarining xavfsizligini nazorat qilish, natijalarni tasdiqlash hamda intizomga rioya etilishini ta’minlash kiradi. Shuningdek, u musobaqa davomida hakamlarning qarorlari va faoliyatini nazorat qilib boradi.

Agar musobaqa o‘tkaziladigan sharoitlar sportchilar hayoti va sog‘lig‘i uchun xavf tug‘dirsa, masalan, ob-havo keskin yomonlashsa yoki trassada xavfli holat yuzaga kelsa, bosh hakam tegishli qoidalarga muvofiq musobaqani vaqtincha to‘xtatish, kechiktirish yoki bekor qilish masalasini hal etadi.

Bosh hakam qoidalarning buzilishi yuzasidan tegishli choralar ko‘rishi, vakolati doirasida noto‘g‘ri qarorlarni qayta ko‘rib chiqishi va intizomiy masalalarni belgilangan tartibda hal qilishi mumkin. Musobaqa yakunida natijalar va tegishli hujjatlar rasmiylashtirilib, tashkilotchi tashkilotga taqdim etiladi.

Bosh hakamning o‘rinbosarlari uning topshiriqlarini bajaradi, alohida yo‘nalishlardagi ishlarni nazorat qiladi va zarurat tug‘ilganda bosh hakamning vazifalarini bajaradi. Ularning faoliyati musobaqani uzluksiz boshqarish va tashkiliy masalalarni tezkor hal etishda muhim ahamiyatga ega.

Bosh kotib va kotibiyat faoliyati

Bosh kotib kotibiyat ishini boshqarib, musobaqa hujjatlari va natijalarning to‘g‘ri rasmiylashtirilishini ta’minlaydi. Kotibiyat ishtirokchilar ro‘yxati, start bayonnomalari va natijalarni tayyorlaydi, hakamlardan olingan ma’lumotlarni umumlashtiradi. Uning samarali faoliyati natijalarning aniqligi va musobaqa shaffofligini ta’minlaydi.

Start va vaqt o‘lchovchi hakamlarning faoliyati

Start beruvchi hakam musobaqani belgilangan tartibda boshlash uchun javob beradi. U start oldidan ishtirokchilarning tayyorligini, start tartibiga rioya qilinishini va zarur hollarda sportchilarning raqamlari hamda jihozlarini tekshirishni tashkil etadi.

Start signali musobaqa qoidalarida belgilangan usulda beriladi. Start jarayonida qoidabuzarlik sodir bo‘lsa, hakam vaziyatni tegishli tartibda baholaydi va zarur choralarni ko‘radi. Start beruvchi hakamning qarorlari amaldagi qoidalar va uning vakolatlari doirasida qabul qilinishi kerak.

Vaqt o‘lchovchi hakamlar sportchilarning vaqt ko‘rsatkichlarini qayd etadi. Ular qo‘lda vaqt o‘lchash vositalari yoki elektron tizimlardan foydalanishi mumkin. Natijalarning aniqligini ta’minlash maqsadida vaqt ko‘rsatkichlari boshqa rasmiy qaydlar bilan solishtiriladi.

Ayniqsa, individual poygalarda vaqtni aniq qayd etish sportchilar o‘rtasidagi natijalarni belgilashda katta ahamiyatga ega. Elektron vaqt o‘lchash tizimlari va fotofinish texnologiyalaridan foydalanish inson omili bilan bog‘liq xatolarni kamaytirishga yordam beradi.

Marradagi hakamlarning vazifalari

Marradagi hakamlar sportchilarning finish chizig‘ini kesib o‘tish ketma-ketligini aniqlash va natijalarni qayd etishda muhim o‘rin tutadi. Ular poyga davomida sportchilarning marraga kelishini diqqat bilan kuzatadi va tegishli ma’lumotlarni kotibiyat hamda vaqt o‘lchovchi hakamlarga yetkazadi.

Shosse poygalarida sportchilar bir-biriga juda yaqin kelishi, trek musobaqalarida esa yuqori tezlik va qisqa masofalar sababli marradagi vaziyatni aniqlash murakkablashishi mumkin. Bunday holatlarda fotofinish tizimi va boshqa rasmiy qayd vositalari natijalarni aniqlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Marradagi katta hakam o‘z vakolati doirasida yordamchi hakamlar bilan hamkorlik qiladi, marraga kelish tartibini belgilaydi va natijalarni tegishli tartibda rasmiylashtirish uchun ma’lumot beradi. Bahsli vaziyatlar yuzaga kelganda qarorlar musobaqa qoidalari asosida ko‘rib chiqiladi.

Marradagi hakamlarning xolisligi, diqqat-e’tibori va texnik vositalardan to‘g‘ri foydalanishi g‘olib hamda sovrindorlarni adolatli aniqlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Shosse va trek velosporti musobaqalarida hakamlarning faoliyati musobaqalarni adolatli, xavfsiz va tartibli tashkil etishning asosiy shartlaridan biridir. Bosh hakam musobaqaga umumiy rahbarlik qiladi, kotibiyat hujjatlar va natijalarni rasmiylashtiradi, start hakamlari musobaqaning boshlanishini nazorat qiladi, vaqt o‘lchovchilar natijalarni qayd etadi, marradagi hakamlar esa sportchilarning finish chizig‘ini kesib o‘tish tartibini aniqlaydi.

Shosse va trek musobaqalarining o‘ziga xos xususiyatlari hakamlardan turli nazorat usullaridan foydalanishni talab qiladi. Shosse yo‘nalishida trassa va masofa xavfsizligini ta’minlash muhim bo‘lsa, trek musobaqalarida davralarni hisoblash, texnik talablarni nazorat qilish va marraga kelish tartibini aniqlash alohida ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, hakamlarning malakasini oshirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, vazifalarni aniq taqsimlash va o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish musobaqalarni yuqori saviyada o‘tkazishga yordam beradi. Hakamlarning xolisligi va mas’uliyati sportchilarning huquqlarini himoya qilish, natijalarning ishonchliligini ta’minlash hamda velosportning rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR RO‘YXATI:

1. THE CYCLIST’S TRAINING BIBLE Jo Fril, 2011.
2. Велосноб: люди, байки и кураж - М. 2018 Вайсс Ибен
3. Библия велосипедиста Джо Фрил 2011

4. Y.N.Chernikova, I.I.Karimov, O.Yu.Holmurodov, Velosport nazariyasi va uslubiyati (darslik) 2018y. (8-15) b

5.World Health Organization. WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour. Geneva: WHO, 2020.

VELOSPORTNING INSON SALOMATLIGIGA TA’SIRI VA XAVFSIZLIK CHORALARI

Serimbetov Q.O.
O‘zDJTSU Nukus filiali, “Koordinatsion va siklik sport turlari nazariyasi va metodikasi” o‘qituvchisi
Tolıbaeva Z.A.
O‘zDJTSU Nukus filiali, Velosport ta’lim yonalishi 1-bosqich talabasi

Kalit so‘zlar: *velosport, velosiped, salomatlik, jismoniy faollik, yurak-qon tomir tizimi, chidamlilik, xavfsizlik, shlem, yo‘l harakati qoidalari, sog‘lom turmush tarzi.*

Ключевые слова: *велоспорт, велосипед, здоровье, физическая активность, сердечно-сосудистая система, выносливость, безопасность, шлем, правила дорожного движения, здоровый образ жизни.*

Keywords: *cycling, bicycle, health, physical activity, cardiovascular system, endurance, safety, helmet, traffic rules, healthy lifestyle.*

Kirish. Bugungi kunda inson salomatligini mustahkamlash va jismoniy faollikni oshirish eng muhim vazifalardan biridir. Zamonaviy hayot tarzida uzoq vaqt o‘tirish, kam harakatlanish va transport vositalaridan ko‘p foydalanish jismoniy faollikning kamayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli inson hayotiga qulay, foydali va muntazam bajarish mumkin bo‘lgan jismoniy mashqlarni kiritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Velosport ana shunday faoliyat turlaridan biridir. Velosiped haydash sport sifatida ham, kundalik transport vositasi sifatida ham insonni faol harakat qilishga undaydi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti velosiped haydashni jismoniy faollikning foydali shakllaridan biri sifatida ko‘rsatadi. Muntazam jismoniy faollik yurak-qon tomir tizimini, mushaklarni va umumiy jismoniy holatni yaxshilashga yordam beradi.

Velosportning foydali jihatlari bilan bir qatorda xavfsizlik masalasi ham juda muhimdir. Velosipedchi yo‘lda boshqa transport vositalari bilan bir makonda harakatlanishi sababli ehtiyotkorlik, himoya vositalari va yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish talab etiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Velosportning inson salomatligiga ta’siri va xavfsizlik choralari bugungi kunda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Buning asosiy sababi - jismoniy faollikning inson salomatligidagi katta ahamiyatidir.

Muntazam jismoniy faollik yurak-qon tomir kasalliklari, insult, diabet va ayrim boshqa surunkali kasalliklar xavfini kamaytirishga, tana vaznini nazorat qilishga hamda ruhiy salomatlikni yaxshilashga yordam beradi. Velosiped haydash ana shunday jismoniy faollik shakllaridan biridir.

Biroq velosipeddan foydalanish xavfsiz muhit bo‘lmasa, jarohatlanish xavfini ham yuzaga keltiradi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti velosipedchilarning xavfsizligini ta’minlash uchun nafaqat shaxsiy ehtiyot choralarini, balki xavfsiz yo‘l infratuzilmasi, tegishli qonun-qoidalar va yo‘l harakati xavfsizligi choralarini birgalikda qo‘llash zarurligini ta’kidlaydi.

Shuning uchun velosportni rivojlantirish bilan bir qatorda, velosipedchilarning xavfsizligini ta’minlash masalasiga ham katta e’tibor qaratish lozim.

Velosportning inson salomatligiga ta’siri

Velosiped haydash organizm uchun foydali bo‘lgan aerob jismoniy faolliklardan biridir. Muntazam mashg‘ulotlar davomida oyoq mushaklari faol ishlaydi, yurak urishi tezlashadi va nafas olish tizimi faolroq ishlaydi.

Velosportning asosiy foydalarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

- yurak-qon tomir tizimini chiniqtiradi;
- mushaklarning kuchi va chidamliligini oshiradi;
- umumiy jismoniy tayyorgarlikni yaxshilaydi;
- tana vaznini nazorat qilishga yordam beradi;
- muvozanat va harakat koordinatsiyasini rivojlantiradi;
- muntazam jismoniy faollik orqali ruhiy holat va farovonlikni yaxshilashga yordam beradi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, yurish va velosiped haydash mushaklarni mustahkamlash, muvozanatni yaxshilash, sog‘lom tana vaznini saqlash va yurak-qon tomir salomatligini qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi.

Velosport va yurak-qon tomir tizimi

Velosiped haydash vaqtida yurak faoliyati va qon aylanishi faollashadi. Muntazam va me’yoridagi jismoniy mashqlar yurak-qon tomir tizimining chiniqishiga yordam beradi.

Biroq mashg‘ulot yuklamasi insonning yoshi, sog‘lig‘i va jismoniy tayyorgarlik darajasiga mos bo‘lishi kerak. Haddan tashqari yuklama berish foyda o‘rniga charchoq va jarohatlanish xavfini oshirishi mumkin. Shu sababli velosport mashg‘ulotlarini asta-sekinlik bilan boshlash va yuklamani bosqichma-bosqich oshirish maqsadga muvofiq.

Velosportning ruhiy salomatlikka ta’siri

Velosport nafaqat jismoniy, balki ruhiy salomatlik uchun ham foydali bo‘lishi mumkin. Ochiq havoda jismoniy faoliyat bilan shug‘ullanish insonning kayfiyatini yaxshilash, stressni kamaytirish va umumiy farovonlikni oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, velosport insonda intizom, maqsadga intilish, sabr-toqat va o‘ziga bo‘lgan ishonch kabi sifatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Velosportda xavfsizlik choralari

Velosport bilan shug‘ullanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish juda muhim. Velosipedchi o‘zining xavfsizligi bilan birga, yo‘ldagi boshqa ishtirokchilar xavfsizligini ham hisobga olishi kerak.

Asosiy xavfsizlik choralariga quyidagilar kiradi:

Himoya shlemidan foydalanish. Velosiped haydash vaqtida boshni himoya qiluvchi sifatli va boshga mos shlem kiyish muhim. Shlem to‘g‘ri o‘rnatilgan va mahkamlangan bo‘lishi kerak. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining yo‘l xavfsizligi bo‘yicha tavsiyalarida himoya vositalari, xavfsiz yo‘l infratuzilmasi va tegishli qonun-qoidalar jarohatlanish xavfini kamaytirishga qaratilgan kompleks choralar sifatida ko‘riladi.

Velosipedning texnik holatini tekshirish. Har bir mashg‘ulot yoki uzoq safardan oldin velosipedning asosiy qismlarini tekshirish kerak. Jumladan: tormozlar, g‘ildiraklar va shinalar, rul, zanjir, pedallar, chiroq va qaytargichlar. Texnik nosoz velosipedda harakatlanish yiqilish va boshqa baxtsiz hodisalar xavfini oshiradi.

Yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish. Velosipedchi yo‘l harakati qoidalarini bilishi va ularga amal qilishi kerak. Svetofor, yo‘l belgilari va boshqa tartibga solish vositalariga e’tibor

berish zarur. Yo‘lda harakatlanayotganda avtomobillar va boshqa transport vositalarining harakatini hisobga olish, keskin burilish va xavfli manevrlardan saqlanish kerak.

Ko‘rinuvchanlikni ta’minlash. Ayniqsa kechqurun yoki ko‘rish imkoniyati cheklangan sharoitlarda velosipedchining boshqa yo‘l ishtirokchilariga yaxshi ko‘rinishi muhim. Buning uchun yorqin rangli yoki qaytargichli kiyimlardan, velosipedning old va orqa chiroqlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Xavfsiz yo‘nalishni tanlash. Imkon qadar velosiped yo‘laklari, kam harakatli yo‘llar va velosipedchilar uchun xavfsiz tashkil etilgan marshrutlardan foydalanish kerak.

Ob-havo va yo‘l sharoitini hisobga olish. Yomg‘ir, qor, kuchli shamol yoki sirpanchiq yo‘l sharoitida velosiped haydashda ehtiyotkorlikni oshirish kerak. Tezlikni pasaytirish va tormoz masofasini hisobga olish zarur.

Yoshlar va velosport. Velosport yoshlarning jismoniy faolligini oshirish uchun samarali vositalardan biri hisoblanadi. Yoshligidan sport bilan shug‘ullanish insonda sog‘lom hayot tarziga bo‘lgan munosabatni shakllantirishga yordam beradi. Velosport yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, jismoniy tayyorgarligini oshirish va tabiat qo‘ynida faol dam olishiga imkon beradi. Shu bilan birga, yosh velosipedchilarga xavfsizlik qoidalarini erta yoshdan o‘rgatish katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR RO‘YXATI:

1. THE CYCLIST’S TRAINING BIBLE Jo Fril, 2011.
2. Велосноб: люди, байки и кураж - М. 2018 Вайсс Ибен
3. Библия велосипедиста Джо Фрил 2011
4. Y.N.Chernikova, I.I.Karimov, O.Yu.Holmurodov, Velosport nazariyasi va uslubiyati (darslik) 2018y. (8-15) b
5.World Health Organization. WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour. Geneva: WHO, 2020.

BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK GURUHIDAGI AKADEMIK ESHKAK ESHUVCHILARNING MUSOBAQA OLDI PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGI

Baylepesov Kenjebay Uzaqbaevich
Uzaqbaev Jasur Kenjebaevich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
O‘zbekiston, Nukus
Elektron pochta: Kenjebay@.com

Kalit so‘zlar: *akademik eshkak eshish, boshlang‘ich tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, musobaqa oldi hayajoni, motivatsiya, diqqat, o‘ziga ishonch, sport psixologiyasi.*

Ключевые слова: *академическая гребля, начальная подготовка, психологическая готовность, предстартовое волнение, мотивация, внимание, уверенность в себе, спортивная психология.*

Keywords: *academic rowing, beginner training, psychological readiness, pre-competition anxiety, motivation, attention, self-confidence, sport psychology.*

Kirish. Zamonaviy sport mashg‘ulotlari jarayonida sportchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligi bilan bir qatorda psixologik tayyorgarligini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, akademik eshkak eshish sportida harakatlarning o‘zaro muvofiqligi, eshish ritmini saqlash, murabbiy ko‘rsatmalarini to‘g‘ri bajarish va musobaqa sharoitida diqqatni jamlash sport natijasiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillar hisoblanadi.

Boshlang‘ich tayyorgarlik guruhidagi sportchilar musobaqalarda qatnashish jarayonida yangi muhit, raqiblar, tomoshabinlar va natija uchun mas’uliyat bilan bog‘liq hayajonni his qilishlari mumkin. Bunday holat ayrim sportchilarda motivatsiyani kuchaytirsa, boshqalarida diqqatning susayishi, harakatlarni bajarishda shoshilish yoki o‘z imkoniyatlariga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotlarda ham musobaqa oldi xavotiri sportchining psixologik holati va natijasiga ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan. Masalan, elita eshkak eshuvchilar ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqotda musobaqa davrida kognitiv va somatik xavotir ko‘rsatkichlari mashg‘ulot davriga nisbatan yuqoriroq bo‘lgani aniqlangan [1]. Shu sababli musobaqa oldi psixologik tayyorgarlikni faqat musobaqa kuni emas, balki muntazam mashg‘ulotlar jarayonida shakllantirish zarur.

Tadqiqotning maqsadi

Boshlang‘ich tayyorgarlik guruhidagi akademik eshkak eshuvchilarning musobaqa oldi psixologik tayyorgarligini rivojlantirishning samarali pedagogik-psixologik usullarini ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilish hamda ularni mashg‘ulot jarayonida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari

1. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida psixologik tayyorgarlikning o‘rnini aniqlash.
2. Musobaqa oldi hayajoni va xavotirining sportchi faoliyatiga ta’sirini tahlil qilish.
3. O‘ziga ishonch, diqqat va ijobiy motivatsiyani rivojlantirish usullarini o‘rganish.
4. Murabbiy tomonidan qo‘llaniladigan psixologik tayyorgarlik vositalari bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, ilmiy ma’lumotlarni umumlashtirish va pedagogik xulosalar chiqarish usullaridan foydalanildi. Tezis nazariy tahlilga asoslangan bo‘lib, unda mustaqil tajriba natijalari yoki statistik ko‘rsatkichlar mavjud bo‘lmaganligi sababli bunday ma’lumotlar keltirilmadi.

Natijalar va muhokama. Boshlang‘ich tayyorgarlik guruhidagi akademik eshkak eshuvchilarning psixologik tayyorgarligi bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan bir necha yo‘nalishda olib borilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa. O‘tkazilgan ilmiy- uslubiy tahlil va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, 8-10 yoshli badiiy gimnastikachilarda tasma buyumi bilan aylanish tana elementini o‘rgatish yuqori darajadagi koordinatsiya va uslubiy aniqlikni talab etadi.Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi asosiy xulosalar shakllandi. Aylanish jarayonida eng ko‘p yo‘l qo‘yiladigan xatolik-bilak harakatlarining to‘xtab qolishidir. Taqdim etilgan ilonizi spiral va zmeyka mashqlari kompleksini qo‘llash orqali tana aylanganda ham tasmaning havodagi shakli va dinamikasini uzluksiz saqlash ko‘nikmasini hosil qildi. Ushbu bosqichma-bosqich o‘rgatish uslubiyati gimnastikachilarga harakat xavfsizligini ta’minlaydi, xatoliklar (tasmaning tanaga o‘ralishi va yerga tegishi) sonini kamaytiradi hamda kelajakda murakkab kombinatsiyalarni shakllantirishga mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. М.Э.Плеханова, Вариативность и двигательные способности в художественной гимнастике // Материалы междунар. практ. конф. - Шуя, 2004.-С. 188-190.

2. М.Э.Плеханова, Факторы, определяющие соревновательную надежность спортсменок в художественной и спортивной гимнастике / М.Э. Плеханова // Вестник спортивной науки. - 2006. - № 4. - С. 17-20.

3. Ю.Б.Погребак, Сопряженное развитие физических качеств и психических процессов у девочек 3-6 (7) лет, с помощью подвижных игр, занимающихся художественной гимнастикой / Ю.Б. Погребак // Дошкольное образование в стране и мире: исторический опыт, состояние и перспективы : Материалы международной научно-практической конф. 10-11 ноября 2012 года. -Пенза ; Москва ; Витебск, 2012. - С. 16-18.

4. Н.Ю.Соболева, Развитие двигательных качеств с учётом свойств нервной системы девочек, занимающихся художественной гимнастикой / Н.Ю. Соболева, Л.Э. Березина // Физическая культура и спорт на рубеже тысячелетий: материалы Всерос. науч. -практ. конф. -СПб., 2000. - С. 265-266.

5. И.А.Степанова, Анализ показателей уровня развития физических способностей у гимнасток на этапе углубленной специализации в художественной гимнастике / И.А. Степанова, И.В. Цепелевич, Т.В. Жукова // Гимнастика : сб. науч. тр. Вып. IV / С.-Петерб. гос. ун-т физ. культуры им. П.Ф. Лесгафта. - СПб., 2006. - С. 123-126.

DENE TÁRBIYASI MUǴALLIMINIŃ PEDAGOGIKALÍQ SHEBERLIGI: TEORIYALÍQ TIYKARLARÍ HÁM JETILISTIRIW JOLLARÍ

Akimov N.T.

Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

***Tayanısh sózler**: pedagogikalıq sheberlik, dene tárbiyası muǵallimi, kásiplik kompetenciya, pedagogikalıq dóretiwshilik, dene tárbiyası, innovaciyalıq texnologiyalar, metodikalıq tayarlıq.*

Temanıń aktuallıǵı. Búgingi kúnde bilimlendiriw sistemasınıń rawajlanıwı sharayatında dene tárbiyası muǵalliminiń kásiplik sheberligin arttırıw ayrıqsha áhmiyetke iye bolmaqta. Onıń jumısı oqıwshılardıń fizikalıq qásiyetlerin rawajlandırıw hám háreket kónlikpelerin qáliplestiriw menen birge tártip-intizamlılıq, juwapkershilik, maqsetke umtılıwshańlıq hám salamat turmıs tárizi ushın turaqlı motivaciyanı tárbiyalawǵa qaratılǵan. Bul wazıypalardı sheshiw nátiyjeliligi kópshilik jaǵdaylarda pedagogtıń kásiplik kompetentligi dárejesi, metodikalıq tayarlıǵı hám zamanagóy bilimlendiriw texnologiyaların qollay alıw qábileti menen belgilenedi.

Pedagogikalıq sheberlik mashqalası dene tárbiyası hám sport qánigeleriniń kásiplik tayarlıǵın úyreniwshi Ózbekstan ilimpazlarınıń izertlewlerinde kórip shıǵılmaqta. Atap aytqanda, I. A. Yuldashov, A. A. Boqiyev, Z. M. Abdiganievalar dene tárbiyası muǵallimi iskerliginde pedagogikalıq dóretiwshilik máselelerin izertleydi [1]. V. Sh. Karayev, S. K. Toshpulatovlar dene tárbiyası oqıtıwshılarınıń kásiplik kompetentliligin rawajlandırıw, olardıń kásiplik tayarlıǵın jetilistiriw imkaniyatları haqqında pikir júrgizedi [2]. Dene tárbiyasınıń teoriyalıq hám metodikalıq tiykarları B. B. Mamurov, I. T. Hamraev, R. S. Baymuradovlardıń sabaqlıǵında ashıp berilgen [3].

Izertlew maqseti

Dene tárbiyası muǵallimi pedagogikalıq sheberliginiń mazmun-mánisin ashıp beriw hám onı jetilistiriwdiń tiykarǵı baǵdarların Ózbekstan ilimpazlarınıń ilimiy qatnasları tiykarında anıqlaw.

Mashqalanıń teoriyalıq tiykarları. Dene mádeniyatı oqıtıwshısınıń pedagogikalıq sheberligi - bul oqıw-tárbiya procesin nátiyjeli shólkemlestiriwge múmkinshilik beretuǵın kásiplik bilimler, ámeliy kónlikpeler, pedagogikalıq qábilet hám jeke pazıyletler kompleksi bolıp tabıladı. Ol pedagogtıń sabaqtı durıs rejelestiriw, oqıtıwdıń racional usılların tańlaw, oqıwshılardıń individual ózgesheliklerin esapqa alıw, qoyılǵan bilimlendiriw maqsetlerine erisiwdi támiyinlewde kórinedi.

Pedagogikalıq sheberlik hám kásiplik kompetentliktiń óz-ara baylanısı úlken áhmiyetke iye. Eger kásiplik kompetenciya muǵallimniń arnawlı bilim hám kónlikpeler tiykarında

pedagogikalıq máselelerdi sheshiwge tayarlıǵın sıpatlasa, pedagogikalıq sheberlik bul bilimlerdi anıq bilimlendiriw processinde dóretiwshilik penen nátiyjeli qollanıwda kórinedi.

I. A. Yuldashev, A. A. Boqiyev, Z. M. Abdiganievalardıń izertlewleri pedagogikalıq dóretiwshilikti dene tárbiyası muǵallimi iskerliginiń áhmiyetli tárepi dep qarawǵa imkaniyat beredi [1]. Pedagog oqıtıwdıń dástúriy usıllarınan paydalanıw menen birge, háreket iskerligin shólkemlestiriwdiń jańa usılların taba alıwı, oqıwshılardıń qızıǵıwshılıǵın arttırıwı, olardıń fizikalıq rawajlanıwı ushın qolaylı sharayatlardı jarata alıwı kerek.

Dene mádeniyatı oqıtıwshısınıń pedagogikalıq sheberligi dúzilisinde tómendegi tiykarǵı komponentlerdi ajıratıw múmkin:

1. **Kásiplik-teoriyalıq komponent** — pedagogika, psixologiya, fiziologiya, dene tárbiyası teoriyası hám metodikası tarawındaǵı bilimler.

2. **Metodikalıq komponent** — fizikalıq shınıǵıwlardı tańlay biliw, júklemeniń kólemi hám intensivligin anıqlaw, hár túrli úyretiw hám qadaǵalaw usılların qollanıw.

3. **Kommunikativ komponent** — oqıwshılar menen pedagogikalıq jaqtan maqsetke muwapıq óz ara qatnas ornata alıw, tártip-intizamdı saqlaw, unamlı psixologiyalıq ortalıqtı qáliplestiriw.

4. **Dóretiwshilik komponenti** — innovaciyalıq texnologiyalardı qollanıw, jańa metodikalıq sheshimlerdi islep shıǵıw, sabaq mazmunın oqıwshılardıń bilim alıw talaplarına sáykeslendiriwge tayarlıq.

5. Refleksiv komponent — óz iskerligi nátiyjelerin analizlew, kemshiliklerdi anıqlaw hám kásiplik jetilisiw jolların belgilew qábileti.

Oqıwshılarǵa individual qatnasta bolıw ayrıqsha áhmiyetke iye. Dene tárbiyası procesinde hár bir oqıwshınıń jasın, densawlıǵın, fizikalıq tayarlıq dárejesin, háreket qábiletin esapqa alıw kerek. Differenciallastırılǵan tapsırmalardı qollanıw hám fizikalıq júklemelerdi áste-aqırınlıq penen tártipke salıw sabaqlardıń nátiyjeliligin arttırıwǵa hám oqıwdıń qolaylılıǵın támiyinlewge járdem beredi.

Pedagogikalıq sheberlikti rawajlandırıwda zamanagóy bilimlendiriw texnologiyaların engiziw áhmiyetli baǵdar bolıp esaplanadı. Háreketlerdiń videojazıwı, sanlı qadaǵalaw quralları, oyın hám jarıs usıllarınan paydalanıw oqıtıwdı kórgizbeli etiw, oqıwshılardıń belsendiligin arttırıw hám nátiyjelerdi bahalawdı jetilistiriw imkaniyatın beredi. Sonıń menen birge, innovaciyanı qollanıw arqalı sabaqtıń maqsetin, oqıwshılardıń jas ózgesheliklerin hám qáwipsizlik talapların oylap rejelestiriw kerek.

Dene tárbiyası muǵallimlerin kásiplik tayarlawda ilimiy-metodikalıq jantasıwlardı analizlew tiykarında pedagogikalıq sheberlikti rawajlandırıwdıń tómendegi baǵdarların ajıratıp kórsetiw múmkin: sistemalı tárizde qánigeligin asırıw, metodikalıq kompetentlikti rawajlandırıw, sanlı bilim beriw quralların ózlestiriw, pedagogikalıq tájiriybe almasıw, sabaqlardı óz-ózinen analizlew hám fizikalıq júklemeni ilimiy tiykarda rejelestiriw kónlikpelerin qáliplestiriw.

Solay etip, pedagogikalıq sheberlik úzliksiz kásiplik rawajlanıw procesinde qáliplesedi hám teoriyalıq tayarlıq, ámeliy tájiriybe, pedagogikalıq dóretiwshilik hám refleksiya birligin názerde tutadı. Onı jetilistiriwdiń áhmiyetli shárti oqıtıwshınıń óz betinshe bilim alıwǵa tayarlıǵı, oqıtıwdıń nátiyjeli usılların engiziwi hám óz iskerligi nátiyjelerin ádil bahalawı esaplanadı.

Juwmaq. Dene mádeniyatı oqıtıwshısınıń pedagogikalıq sheberligi bilimlendiriw procesiniń sapasın hám oqıwshılardıń dene tárbiyası nátiyjeliligin arttırıwdıń eń áhmiyetli

shárti bolıp esaplanadı. Ózbekstanlı izertlewshilerdiń jumıslarınıń analizi qánigelerdiń kásiplik kompetentligin, pedagogikalıq dóretiwshiligin hám metodikalıq tayarlıǵın rawajlandırıw áhmiyetli ekenligin kórsetedi.

Pedagogikalıq sheberlikti jetilistiriw - bul kásiplik bilimlerdi sistemalı túrde jańalaw, zamanagóy bilimlendiriw texnologiyaların qollanıw, fizikalıq júklemeni individuallastırıw, pedagogtıń refleksivlik qábiletin rawajlandırıwdan ibarat. Bul baǵdarlardıń ámelge asırılıwı denetárbiya sabaqlarınıń sapasın arttırıw, oqıwshılarda háreket iskerligine turaqlı motivaciyanı qáliplestiriw, salamat turmıs tárizi mádeniyatın tárbiyalawǵa xızmet etedi.

Ádebiyatlar dizimi

1. Yuldashov I. A., Boqiyev A. A., Abdiganieva Z. M. Pedagogicheskoe masterstvo v deyatelnosti uchitelya fizicheskoy kulturı // Byulleten pedagogov Novogo Uzbekistana. - 2024. 2-tom, № 1. - S. 109-112.

2. Qaraev V. Sh., Toshpulatov S. K. Jismoniy tárbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda pedagogik tajribaning diagnostik tavsifi // Eurasian Journal of Academic Research. - 2022. 2-tom, № 3. - S. 622-629.

3. Mamurov B. B., Hamraev I. T., Baymuradov R. S. Jismoniy tárbiya nazariyasi va metodikası: darslik. - Buxara: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2020. - 488 b.

4. Yunusova Y. M. Jismoniy tárbiya nazariyasi va metodikası: darslik. - T.: "Iqtisod-moliya," 2007. - 312 b.

5. Mırzambetov P. Sh. Tálim sistemasında dene tárbiyası teoriyası hám metodikası pániniń áhmiyeti // Ilim hám jámiyet. - 2020. - № 3-2. - S. 77-78.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING JISMONIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA BASKETBOLCHILARNI TAYYORLASH METODIKASI

Saburov Artur Ko‘klen o‘g‘li
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tayanch doktaranti
artur.saburov96@gmail.com

Kalit so‘zlar: *basketbol, talaba-sportchilar, jismoniy rivojlanish, individual tayyorgarlik, jismoniy yuklama, texnik-taktik tayyorgarlik, pedagogik nazorat.*

Ключевые слова: *баскетбол, студенты-спортсмены, физическое развитие, индивидуальная подготовка, физическая нагрузка, технико-тактическая подготовка, педагогический контроль.*

Keywords: *basketball, student-athletes, physical development, individual training, differential approach, physical load, technical and tactical training, pedagogical control.*

Kirish Dunyoda sog‘liqni saqlash butun jahon tashkilotining sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishga oid tavsiyalarida talabalar orasida jismoniy faollik darajasini oshirish muhum masala sifatida belgilanmoqda. Sport turlari, xususan, basketbol, jismoniy rivojlanish, muloqot va jamoaviylikni kuchaytiruvchi eng samarali jamoaviy sport turlaridan biri hisoblanmoqda. Basketbol talabalar uchun qulay, sog‘lom va qiziqarli sport turi sifatida ommaviy musobaqalarni tashkil etish, sport maydonchalaridan samarali foydalanish va ushbu sport turi bilan muntazam shug‘ullanuvchilar sonini oshirishga yordam bermoqda. Jismoniy tayyorgarlik darajasi turlicha bo‘lgan talabalar uchun moslashtirilgan mashg‘ulotlar dasturlarini ishlab chiqish orqali ta’lim jarayonini individuallashtirishga erishilmoqda. Har bir talabaga uning jismoniy rivojlanish darajasi asosida individual yondashish, mashg‘ulot yuklamasini

optimallashtirish, bu orqali jarohatlar xavfini kamaytirish va samaradorlikni oshirish imkoni yaratilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida basketbolchilarni tayyorlash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqotning maqsadi oliy talim muassasalarida talabalarning jismoniy rivojlanish xususiyatlarini inobatga olib basketbolchilarni tayyorlash metodikasi bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodlari. tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, anketa so‘rovnomasi, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik-statistika usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari va muhokama talabalarning jismoniy rivojlanishini kompleks baholash va ularni tayyorlash jarayonini takomillashtirishning dastlabki sharti sportchilarning boshlang‘ich holatini obyektiv baholashdir.

Bunda jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini jismoniy tayyorgarlik va maxsus sport mahoratidan farqlash lozim. Bo‘y uzunligi va tana vazni antropometrik xususiyatlarni tavsiflasa, tezkorlik, kuch, chidamlilik va chaqqonlik harakat imkoniyatlarini ifodalaydi. To‘pni boshqarish, uzatish aniqligi va savatga tashlash samaradorligi esa maxsus texnik tayyorgarlikni baholashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv talaba-basketbolchilarni tayyorlashda bitta ko‘rsatkich bilan cheklanib qolmasdan, o‘zaro bog‘liq mezonlardan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.

Kompleks baholash quyidagi yo‘nalishlarni qamrab olishi maqsadga muvofiq:

1. **Antropometrik baholash:** bo‘y uzunligi, tana vazni va tana tuzilishining umumiy xususiyatlari.
2. **Jismoniy tayyorgarlik:** qisqa masofaga yugurish, sakrash, yo‘nalishni o‘zgartirish va chidamlilik sinovlari.
3. **Texnik tayyorgarlik:** to‘pni olib yurish, uzatish, savatga tashlash va himoyaviy harakatlarni bajarish sifati.
4. **Funksional holat:** mashg‘ulot yuklamasiga javob, charchash belgilari va tiklanish xususiyatlari.
5. **Taktik tayyorgarlik:** o‘yin vaziyatlarini baholash, to‘g‘ri qaror qabul qilish va jamoaviy harakatlarda ishtirok etish.

Ushbu mezonlar asosida talabaning individual tayyorgarlik profili shakllantiriladi. Natijalar sportchining boshqa talabalar bilan oddiy taqqoslanishi uchungina emas, balki uning o‘zidagi rivojlanish dinamikasini kuzatish va mashg‘ulot vazifalarini belgilash uchun ham qo‘llanilishi kerak.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni basketbol sport turiga tayyorlashda individual yondashuvning mohiyati mashg‘ulot vositalari, yuklama hajmi, jadalligi va dam olish oralig‘ini talabaning tayyorgarlik darajasiga moslashtirishdan iborat. Bunda sportchilarni faqat bo‘y uzunligi yoki tana vazniga qarab guruhlarga ajratish yetarli emas. Jismoniy sifatlar, texnik mahorat, sport tajribasi va mashg‘ulotga moslashish xususiyatlari ham hisobga olinishi zarur.

Tezkorlik ko‘rsatkichlari nisbatan past bo‘lgan talabalarda qisqa tezlanishlar, signal bo‘yicha harakatlanish va yo‘nalishni o‘zgartirish mashqlariga e’tibor qaratiladi. Mushak kuchi va sakrash qobiliyatini rivojlantirish zarur bo‘lgan sportchilarga esa texnik jihatdan to‘g‘ri bajariladigan kuch va portlovchi kuch mashqlari bosqichma-bosqich kiritiladi. Chidamlilikni rivojlantirishda takroriy yugurishlar, o‘zgaruvchan jadallikdagi mashqlar va basketbolga xos o‘yin faoliyatidan foydalanish mumkin. Texnik-taktik tayyorgarlik jismoniy mashqlardan

alohida olib borilmasligi lozim. Masalan, tezkorlikni rivojlantirish mashqlari to‘pni olib yurish, sherikka uzatma berish yoki himoyaviy harakat bilan birlashtirilishi mumkin. Bu yondashuv jismoniy sifatlarni o‘yin faoliyatida qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun haftalik basketbol mashg‘ulotlari sikli talabalarning o‘quv jadvali, jismoniy tayyorgarlik darajasi, tiklanish imkoniyatlari va sport mashg‘ulotlarining maqsadlarini hisobga olgan holda tuzilishi lozim. Basketbolchi talabalarni musobaqaga tayyorlashda optimal yuklama, to‘g‘ri mashg‘ulot tartibi va samarali tiklanish usullarini qo‘llash orqali natijadorlikni oshirish mumkin. Bunda jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish., texnik mahoratni (to‘p uzatish, dribling, sakrash) takomillashtirish, taktik fikrlash va jamoaviy o‘yin strategiyasini shakllantirish, psixologik barqarorlikni rivojlantirish hamda mashg‘ulotdan so‘ng tiklanish jarayonini tezlashtirish imkonini beradi. Mashg‘ulotlar yil davomida tayyorgarlik, musobaqa va tiklanish davrlariga bo‘lingan holda rejalashtirildi. Progressiv yuklama shaklidan foydalanildi ya’ni yuklamani bosqichma-bosqich oshirish orqali talaba sportchilar adaptatsiyasini ta’minlashga erishiladi. Har bir talabaga individual yondashuv amalga oshirildi. bunda talabalarning yoshi, fiziologik xususiyatlari va tajribasiga qarab mashg‘ulotlarni moslashtirish nazarda tutildi. Talabalarni basketbol sport musobaqasiga tayyorlashda haftalik sikl ishlab chiqildi.

1-jadval. Oliy ta’lim muassasalari talabalarini basketbol musobaqasiga tayyorlashning namunaviy haftalik sikli

Kun	Mashg‘ulot mazmuni	Davomiyligi	Asosiy maqsad
Dushanba	URM, tana vazni bilan kuch mashqlari, sakrash texnikasi	70 daqiqa	Jismoniy tayyorgarlik
Seshanba	To‘pni olib yurish, uzatish, savatga tashlash, harakatlanish texnikasi va individual taktik mashqlar	80 daqiqa	Texnikani rivojlantirish
Chorshanba	Qisqa masofaga yugurish, yo‘nalishni o‘zgartirish, reaksiya, koordinatsiya va chaqqonlik mashqlari	70 daqiqa	Tezkorlik, chaqqonlik va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish
Payshanba	Jamoaviy hujum va himoya harakatlari, uzatmalar kombinatsiyasi, kichik tarkibli o‘yinlar	80 daqiqa	Taktik fikrlash va jamoaviy harakatlarni rivojlantirish
Juma	Jismoniy sifatlarni texnik mashqlar bilan uyg‘unlashtirish, to‘p bilan tezkor harakatlanish va savatga tashlash	70 daqiqa	Jismoniy va texnik uyg‘unlik
Shanba	Nazorat o‘yini, o‘yin vaziyatlarini tahlil qilish va xatolar ustida ishlash	40 daqiqa o‘yin + 40 daqiqa tahlil	O‘zlashtirilgan ko‘nikmalarni mustahkamlash va musobaqaga tayyorgarlik

Yuqoridagi jadvalda hafta kunlari davomida basketbolchi talabalarni jismoniy, texnik-taktik tayyorgarlik turlarini rivojlantirishga e’tibor qaratildi. Ushbu haftalik siklda

mashg‘ulotlar davomiyligi talabalarning o‘quv faoliyati va jismoniy imkoniyatlariga mos ravishda belgilandi. Mashg‘ulotlar 70–80 daqiqalik shaklda tashkil etilishi talabalarning o‘quv yuklamasi bilan sport faoliyati o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga yordam beradi. Bunda har bir mashg‘ulotning taxminan 10–15 daqiqasi tayyorlov qismiga, asosiy vaqt esa rejalashtirilgan vazifalarga, yakuniy qism esa tiklanish mashqlariga ajratilishi mumkin. Bunda dushanba kunlari 70 daqiqa mashg‘ulotlarda asosan jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlari yani kuch va chidamlilik sifatlarini rivojlantirishga e’tibor qaratildi. Seshanba kuni esa texnik-taktik mashg‘ulotlar 80 daqiqa davomiylikda amalga oshirildi. Texnik harakatlar rivolantirildi. Chorshanba kunlari tezlik va koordinatsiya mashqlari bunda reaksiyani rivojlantiruvchi o‘yinlar 70 daqiqa davom etdi. Tezlik va chaqqonlik kabi jismoniy sifatlar rivojlantirildi. Payshanba kunlari esa 80 daqiqa davomida jamoaviy o‘yin kombinatsiyalari hamda taktik sxemalar o‘rgatildi. Juma kuni kuch va texnik tayyorgarlik integratsiya holatda amalga oshirildi. 70 daqiqa davom etdi. Jismoniy va texnik tayyorgarlik uyg‘unlikda rivojlantirildi. Shanba kunlari esa asosan musoba metodidan foydalanildi. Musobaqa tayyorgarligi amalga oshirildi. 40 daqiqa o‘yin va 40 daqiqa tahlil qilib hato kamchiliklar o‘rganildi. Ushbu haftalik sikldan foydalanish orqali basketbolchil talabalarni ommaviy sportga operativ tayyorlash imkoniyatlari kengaytirilgan. Jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlar: 30 m sprint va 12 daqiqa yugurish testidan foydalanildi. Texnik tayyorgarlik va aniqlik 100 ta to‘p uzatishda aniqlik foizi bilan o‘lchandi. Taktik baholashda o‘yin davomida to‘g‘ri qaror qabul qilish soni tahlil qilindi. Xulosa qilib aytganda mazkur metodika basketbolchi talabalarning barcha tayyorgarlik jihatlarini birlashtirib, yuqori darajadagi o‘yin samaradorligini ta’minlaydi.

Xulosa Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning jismoniy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda basketbolchilarni tayyorlash mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishning muhim metodik sharti hisoblanadi. Talabalarning antropometrik ko‘rsatkichlari, jismoniy tayyorgarlik darajasi, funksional imkoniyatlari va texnik-taktik mahoratini kompleks baholash individual mashg‘ulot dasturlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Basketbolchilarni musobaqaga tayyorlash jarayonida kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik va koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish texnik-taktik mashqlar bilan uyg‘unlashtirilishi lozim. Haftalik mashg‘ulot siklini maqsadli rejalashtirish, jismoniy yuklamalarni talabalarning individual imkoniyatlariga moslashtirish, musobaqa oldidan yuklama hajmini maqbullashtirish hamda muntazam pedagogik nazorat olib borish alohida ahamiyatga ega.. Xulosa qilib aytganda, talabalarning jismoniy rivojlanish xususiyatlariga asoslangan individual va differensial yondashuvdan foydalanish basketbolchilarni tayyorlash metodikasini takomillashtirish, sport mahoratini rivojlantirish hamda musobaqalarda samarali ishtirok etish uchun zarur sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Pulatov A.A., G‘aniyeva F.V. Basketbol nazariyasi va uslubiyati. Toshkent 2017.
2. Xudayberganov O.E. Basketbol texnikasini o‘rgatish uslubiyati. Toshkent 2022.
3. Xudayberganov O.E., Muratov S.J., Madaminov M.P. Basketbol texnikasi va taktikasini o‘rgatish uslubiyati. Toshkent 2023.
4. Matnazarov O‘.L., Masharipov R.M., Saidnazarov U.A. Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi (basketbol). Toshkent 2021.
5. Saburov Artur Ko‘klen o‘g‘li A methodology for training basketball players in higher education institutions, taking into account the specifics of their physical development September 12, 2026 https://zenodo.org/records/

KICHIK VA O‘RTA GURUHLARDA JISMONIY TARBIYA MASHG‘ULOTLARINI O‘TKAZISH USLUBLARI

Salamat Aytjanov

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: *Jismoniy rivojlanish, jismoniy kamolot, jismoniy mashq, sport, jismoniy madaniyat, sog‘lomlashtirish, jismoniy holat, nazorat qilish, to‘garak.*

Keywords: *Physical development, physical maturity, exercise, sports, physical culture, fitness, physical condition, control, circle.*

Ключевые слова: *Физическое развитие, физическая зрелость, упражнения, спорт, физическая культура, фитнес, физическое состояние, контроль, кружок.*

Kirish. Amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilar maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni jismoniy mashqlarga o‘rgatish metodikasini o‘rganadilar. Bolalar bog‘chasida jismoniy tarbiya vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim va amaliy ko‘nikmalar hosil qiladilar. Amaliy mashg‘ulotlar o‘quv uslubiy xarakterdagi mashg‘ulotlar, namunali mashg‘ulotlar va o‘quv gruppalaridagi o‘quv amaliyoti tarzida o‘tkaziladi. O‘quv uslubiyati mashg‘ulotlarida o‘quvchilar maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni jismoniy mashqlarga o‘rgatishning usul va uslublarini ertalabki badan tarbiya, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, harakatli o‘yinlarni o‘tkazish yo‘llarini o‘rganadilar. Hamda jismoniy qo‘llanmalar tayyorlash usullari bilan tanishadilar. Bu mashg‘ulotlar nazariy qoidalarini bayon qilish bilan birga jismoniy mashqlarga o‘rgatishning usullarini amalda ko‘rsatish, o‘quvchilarni o‘qituvchi topshiriqlarini bajarish yo‘li bilan o‘tiladi.

Namunali mashg‘ulotlar bog‘chada o‘tkazilib pedagogik amaliyotning tarkibiy qismi bo‘lib, kursni o‘qish bilan parallel olib boriladi. O‘quv amaliyoti o‘quvchilarni quyidagi malaka va ko‘nikmalar hosil qilishga qaratgan bo‘lishi kerak.

- Farmoyish va buyruq berish;
- Mashqlarni ko‘rsatish, tushuntirish uchun to‘g‘ri joy tanlash.
- Terminalogiyani bilish;
- Jismoniy mashqlarga o‘rgatishda xilma-xil va uslublardan foydalanish;
- Mashqlarni tushuntirishni, ularni bajarib ko‘rsatish bilan birga qo‘shib olib boorish;
- Jismoniy mashqlarni bajarish sifatini baholash, xatolarni aniqlash ularni bartaraf qilish usullarini topish;

Ertalabki badantarbiya mashqlarini tashkil etish. Ertalabki badantarbiya mashqlarining sog‘lomlashtiruvchi turlari. Maktabgacha ta’lim muassasalar tarbiyalanuvchilari ertalabki badan tarbiya mashqlarini o‘z ichiga oladi. Ertalabki badantarbiya mashqlarining bu turlari shug‘ullanuvchilarni har tomonlama jismoniy kamolotga yetkazish, salomatligini mustahkamlash va harakat funksiyalarini takomillashtirish maqsadida qo‘llaniladi. Ertalabki badantarbiya mashqlarida sport turlari. Bu guruhga sport ertalabki badantarbiya mashqlari, badiiy ertalabki badantarbiya mashqlari kiradi. Bu turlar sport yo‘nalishiga ega bo‘lib, sport turlari sifatida targ‘ib etiladi. Bulardan maqsad, mashqlarni ijro etish texnikasida yuksak kamolotga erishish, yuksak sport mahoratini ko‘rsatish, hamda har yoqlama yuksak jismoniy tayyorgarlik asosida ertalabki badantarbiya mashqlari ko‘p murakkab mashqlarini bajara bilishga erishishdan iborat. Ertalabki badan tarbiya mashqlarining amaliy turlari.

Ertalabki badantarbiya - amaliy mashqlarning bir ko‘rinishidir, ertalabki badantarbiya yanada tezroq va to‘la ravishda bolaning sog‘lig‘ini tiklash uchun qo‘llaniladi, yana jismoniy sifatlarni rivojlantirishda chidamlilikda qo‘llaniladi. Ertalabki mashqlarning vositalari - saflanish mashqlari, harakatlanishning va raqs qadamlarining xillari; umumiy ritmik

mashqlarning buyumlarsiz va buyumlar bilan bajarilish turlari (tayoqlar, gantellar, arg‘imchoqlar, to‘plar va boshqa), mashqiy devordagi mashg‘ulotlar halqlarda va amaldagi mashqlar (yugurish, sakrash, o‘rmalash, oshib o‘tish).

Maktabgacha ta’lim muassasalarda ertalabki badantarbiya mashqlarining asosiy shakllari:

Ertalabki badantarbiya mashg‘ulotdan oldin o‘tkaziladi. Uning ahamyati: organizmni chiniqish jarayoniga tayyorlash. Ertalabki badantarbiya 7-15 daqiqa davom etadi. Badantarbiya mashqlari
5-7 ta mashg‘ulotlardai iborat.

Eng kup og‘irlik mashg‘ulotlarning o‘rtasida o‘tkaziladi. Bolalar bog‘chalari guruhlarida ertalabki mashqlar sog‘lomlashtirish va tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Kun tartibining ajralmas qismi bo‘lgan holda u har bir bola uchun majburiydir. Har kuni uyg‘ongach (5-7 daqiqadan so‘ng) maxsus tanlangan
7-12 jismoniy mashqlar 10-15 daqiqa davomida organizm faoliyatini faollashtiradi, tananing to‘g‘ri o‘sishidagi ko‘nikmalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, yassi oyoqlikdan ogohlantiradi. Ertalabki mashqlarda ishtirok etish bolalarda foydali bo‘lgan har kuni bajariladigan estalabki jismoniy mashqlarni bajarishni ta’minlaydi.

Aqliy va jismoniy mehnatning ishlab chiqaruvchanlik darajasi birmuncha pasaygan bo‘ladi. Ertalabki jismoniy mashg‘ulotlarning ahamyati markaziy nerv sistemasiga kuchli analizatorlarnnng retseptorlarining signallari oqimi kelib tushadi, ayniksa proporsiya-retseptorlardan, bu markaziy nerv tizimining tez ko‘zg‘alishiga va mehnatga yarokliligi me’yorini qayta tiklaydi. Ertalabki mashqlar teri retseptorlarining sovuqqa va suv bilan bo‘ladigan ta’sirlari birgalikda o‘tkazilsa, nerv sistemasining qo‘zg‘alish jarayoni tezroq yo‘lga qo‘yiladi. Tashqi muhitdagi ayrim kuzatuvchilarni ta’sirlari (suv jarayonlari, toza havo va quyoshning ta’siri) nerv tizimining ko‘zg‘alishi bilan bir qatorda organizmning chiniqishiga yordam beradi.

Badantarbiya mashqlarning harakteristikasi.

Safda turib bajariladigan mashqlar bu qiyin bo‘lmagan harakatlantiruvchi mashqlardir. Umumrivojlantiruvchi mashq (ertalabki badanarbiya mashqlari xamma turlarida keng foydalaniladi. Bu unchalik qiyin bo‘lmagan harakatiga keltiruvchi mashq), ya’ni har xil muskullar guruxini jismoniy layoqatini yanada chuqurlashtirish, elementlar, harakatga keltiruvchi ko‘nikmani qo‘lga kiritish, predmetlar bilan ishlash, umumiy jismoniy tayyorgarlikii rivojlantirish maqsadida bajariladi. Qo‘shimcha mashqni va ko‘nikmani atrof-muxit bilan bir-biriga aktiv ta’sir etuvchi badantarbiya vositadir. Erkin mashq bu ertalabki badantarbiya mashqlarining bir turi bo‘lib chidamlilikni oshirishga rivojlantirishga yunaltirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim tarbiya jarayonini tarbiyachilar tomonidan to‘g‘ri tashkil etilishi ma’sul shaxslar tomonidan uni nazorat qilishning afzalligini ta’minlydi, maktabgacha yoshdagi bolalar ota-onalarining oilada bola tarbiyasi bilan shug‘ullanishlari uchun qulaylik yaratish maqsadida “Bolajon” tayanch dasturi “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonun maktabgacha ta’lim konseptsiyasi hamda maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari asosida ishlar olib boriladi. Shuningdek maktabgacha tarbiya muassasalarida o‘quv jarayonini samarali olib borishda olimlarning o‘rni alohida ekanligini qayd qilish joiz Nuraddinova M.M.dotsent, K.M. Mahkamjonov professor, dotsent M.SH.Rasulova, TDPU dotsentlari SH.Toshpo‘latova, SH.Xasanova, G.SHarinova, p.f.n. M.Tajiyevalarning hissalarini alohida qayd etishga arziydi.

NATIJALAR. Jismoniy mashqlarni bajarishda ehtiyot choralarini ta’minlash va jarohat

olishning oldini olish.Yilning turli fasllarida jismoniy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uslubi. Ilk yoshdagi bolalar bilan va yosh jihatdan aralash gruppalarda jismoniy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uslubi. Tarbiyachining jismoniy mashg‘ulotlarini baholash. Bilimlarini o‘zlashtirib olishi, jismoniy mashqlarni to‘g‘ri va tez bajarishi ustidan nazorat qilish. Bolalarning mashg‘ulotgacha va mashg‘ulotdan keyingi ahvoli va hatti-harakatini kuzatish. Jismoniy mashg‘ulotlarini o‘tkazishni tahlil qilishga doir savollar.

Turli yosh guruhlarda jismoniy tarbiya ish formalaridan jismoniy tarbiya mashg‘ulotini va kundalik hayotda olib boriladigan jismoniy mashqlarni mustaqil olib borishni talab qilish. Amaliyotda jismoniy tarbiya mashg‘ulotini mustaqil bajarish va tahlil qilish.

O‘quvchilarga dastur bo‘yicha turli yosh guruhlarga mashg‘ulot konspektini berish. Sport elementi o‘yinlari harakatli o‘yin turkumiga kirishi, bolalarni har tomonlama tarbiyalashdagi ahamiyati. Sport elementi o‘yinlari tarkibiga asosiy harakat mashqlarini kirishi va bu o‘yinni o‘ynash orqali fazoda mo‘ljal olishga,ko‘z bilan chamalash malakalarini rivojlantirish uslubidan foydalaniladi. Sport mashqlariga bolalarni uyushtirish, tayyorlov mashqlari, o‘rgatish usullari, xatolarni oldini olish va tuzatish, jarohatlanish va sovuq olishini oldini olish.

Sport mashqlariga bolalarni uyushtirish, tayyorlov mashqlari, o‘rgatish usullari, xatolarni oldini olish va tuzatish, jarohatlanish va issiq olishini oldini olish. Kichik guruhlarda asosiy harakatlar yurish, oyoq uchida yurish, tavonda yurish, qo‘l ushlab yurish, ikki chiziq orasida yurish, bosmasdan yurish.

Skameykadan sakrash, uni ustida muvozanat saqlab yurib sakrash, irg`itish va emaklash, bu mashg`ulotlar oyma-oy taqsimlanib estafeta o‘yinlar, harakatli o‘yinlar bilan birgalikda olib borilishi zarur. Ertalabki badantarbiya tuzilishi. Jismoniy mashqlarni tanlash . Jismoniy qo‘llanmalari (bayram, tayoqcha, halqacha boshqalar…)dan foydalanish. Komplekslar tuzish. komplekslar o‘tkazish davomiyligi va ularni almashtirib turish.

O‘quvchilarni ertalabki badan-tarbiyani to‘g‘ri tashkil qilishini, uning tuzilishi, jismoniy mashqlarni to‘g‘ri tanlash, jismoniy qo‘llanmalardan foydalanish. Komplekslar o‘kazish davomiyligi ularni almashtirib turish.

Bolalarni charchash holatini yo‘qotish va ularning ishchanlik qobiliyatini oshirish maqsadida rasm , loy va plastilindan buyumlar yasash, sanoq, nutqni o‘stirish va boshqa mashg‘ulotlar prosessida jismoniy daqiqalarni o‘tkazish zarurligi.

MUHOKAMA. Kichik va o‘rta guruhlarda ertalabki badantarbiyani ahamiyati va o‘tkazish uslubi. Bolalar organizmiga ertalabki badan-tarbiyani ahamiyati. Bolalar bog‘chasida ertalabki badan-tarbiyani o‘rni va o‘tkazish uslubi.

Kichik va o‘rta guruhlarda adabiyotlar va dasturdan foydalanib, ertalabki badantarbiya plan-konspektini tuzish va o‘tkazish yo‘llarini tahlil qilish.Bolalar organizmiga ertalabki badan-tarbiyani ahamiyati. Bolalar bog‘chasida ertalabki badan-tarbiyani o‘rni va o‘tkazish uslubi.

Kichik va o‘rta guruhlarda adabiyotlar va dasturdan foydalanib, ertalabki badantarbiya plan-konspektini tuzish va o‘tkazish yo‘llarini tahlil qilish. Kichik va o‘rta guruhlarda ertalabki badan tarbiyani dastur asosida plan konspektini tuzish va o‘tkazishga o‘rgatish. O‘quvchilar o‘tkazgan ertalabki badan tarbiyani kuzatish va tahlil qilish.

Kichik guruh (3-4) yoshlilarning taxminiy ish rejasi

	Mashg‘ulot nomi	O‘quv yili davomida				
		Haftada	Bir oyda	1-yarim yillik	2-yarim yi.t.shk	Jami
	Atrof olam bilan tanishtirish	1	4	16	20	36
	Tabiat bilan tanishtirish	0,5	2	8	10	18
	Nutq o‘stirish	1	4	16	20	36
	Badiy adabiyot bilan tanishtirish	0,5	2	8	10	18
	Ilk matematik tasavvurlarni shakllantirish	1	4	16	20	36
	Raem	2	8	32	40	72
	Applikatsiya	0,5	2	8	10	18
	Qurish-yasash	0,5	2	8	10	18
	Loy ishi	1	4	16	20	36
	Jismoniy tarbiya	2	8	32	40	72
	Musiqa	2	8	32	40	72
	Jami	12	48	192	240	432

Jismoniy tarbiyaga doir istiqbol reja va oylik rejalarni ma’lum bir davrga mo‘ljallangan jismoniy qo‘llanmalarini tanlash va taqsimlash. Bolalarni kun mobaynida jismoniy mashqlarni bajarishini kuzatish va bolalarni bog‘chaga qatnashini hisobga olish.

Xulosa. Bolalarning o‘sishi va rivojlanishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bolaning shaxs sifatida shakllanishi ilk bor olamni atrofdagi ashy ova buyumlar orqali anglab, undan o‘zicha ma’no topishga intilishi, qiziqish va xissiyotlari rivojlanishi kuzatiladi. Hayotning har bir davri , rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko‘ra o‘ziga xos bosqichlarga ega. Kichik va o‘rta guruh bolalarga harakatlarning shakllanishiga yordam berish, gavdani tik tutishga o‘rgatish. Bolalarni mustaqil o‘ynayotgan paytlarida harakatlari faolligini barqarorlashuviga yordam berish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan talablar. Davlat talablari T.2011y.
2. K.M.Mahkamjonov Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonni rejalashtirish.T.2011y.
3. D.Sharipova va bosh. “Agar bolam sog‘lom bo‘lsin desanggiz” ilm ziyo 2006y.
4. ”Bolajon” tayanch dasturi, MTMXQTMORO‘MI-2011y.
5. M.M.Nuriddinova Maktabgacha ta’lim muassasalarida Jismoniy tarbiya yo‘riqchilari uchun meyoriy xujjatlar majmui. 2013y
6. Internet materyallari manbalari (Lex.uz.Ziyonet)

JISMONIY MADANIYAT VA SPORT FANI O‘QITUVCHILARDA KASBIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH

Salamat Aytjanov

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: *jismoniy madaniyat, sport, o‘qituvchi, kasbiy madaniyat, kompetensiya, qobiliyat.*

Ключевые слова: *физическая культура, спорт, педагог, профессиональная культура, компетентность, способности.*

Keywords: *physical culture, sports, teacher, professional culture, competence, ability.*

So‘nggi yillarda jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishda kompetensiyaviy yondashuvga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchilarda pedagogik qobiliyatlarning rivojlanish darajasining pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillarini aniqlashtirish, baholash mezonlari va mexanizmlarini takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik qobiliyatlar kompleksining didaktik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi[1]

Mazkur jarayon kasbiy madaniyatni rivojlantirish uchun ham konseptual asosga bo‘lib, ijodkorlikka doir bilimlar (gnostik), ijodkorlik ko‘nikma va malakalari (faoliyatga yo‘naltirilgan komponent), ijodkor shaxsi xususiyatlari (shaxs komponenti)ni o‘z ichiga qamrab oladi.Jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchilari ijodkorlikka doir bilimlar – yangi echim ishlab chiqish uchun talab etiladigan tushuncha va tasavvurlarning bilish faoliyati mahsuli sifatida inson ongidagi tizimlangan in’ikosini; ijodkorlik ko‘nikmalari – shaxsning maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy faoliyatda aqliy jarayon bosqichlarini tez va to‘laqonli amalga oshirish darajasini belgilaydi. Jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchilari ijodkorlik malakalari esa shaxsning ijodiy faoliyat reproduktiv bosqichlarini qisman avtomatlashgan tarzda, aqliy jarayon bosqichlarining faqat dastlabkisini anglagan holda amalga oshira olish darajasini anglatadi.

Jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchilarda kasbiy madaniyatni rivojlantirish nuqtai nazaridan kompetensiyaviy yondashuv uch jihatni o‘zida aks ettirishi lozimligi ko‘rsatdi: faoliyatga yo‘naltirilgan, kommunikativ va shaxsiy. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv o‘qituvchilarda kasbiy bilimlar, ijodiy faoliyat usullari va vositalarini o‘zlashtirishni ta’minlaydi.

Kommunikativ jihat pedagogik muloqotni ijodiy tarzda amalga oshirishga doir ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Shaxsiy jihat pedagogik tafakkur yuritish, kasbiy refleksiya, kasbiy-pedagogik yo‘nalganlikni o‘zida aks ettiradi.[2]

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchilarning “kasbiy-pedagogik madaniyat” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: “Kasbiy-pedagogik madaniyat – bu jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisi shaxsining integrativ sifati tariqasida aniqlanadigan dinamik tizimli ta’lim bo‘lib, bu sifat o‘zida ijtimoiy va shaxsiy-kasbiy vazifalar, ijtimoiy mas’uliyat va axloqiy umuminsoniy qadriyatlar darajasida taraqqiy etishni hisobga olgan holda, jismoniy tarbiya va sport jarayonida pedagogik qadriyatlarni ijodiy tarzda amalga oshira olish layoqatini jamlashi zarur.

Jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchilari kasbiy-pedagogik madaniyatning eng asosiy qadriyati – talaba, uning rivojlanishi, ta’limi, tarbiyasi, ijtimoiy himoyasi, uning qadr-

qimmati va xuquqlarining muhofazasidir.

Jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchilari kasbiy-pedagogik madaniyatni pedagogik faoliyatni ijodiy o‘zlashtirish usuli sifatida qarash lozim. Bugungi kun o‘jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisi pedagogik madaniyatidagi yaqqol na’muna sifatida hamkorlik pedagogikasini keltirish mumkin.

Jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchilari kasbiy-pedagogik madaniyat – bu qadriyatlarning, pedagogik faoliyat usullarining va o‘qituvchi kasbiy xulq-atvorining dinamik tizimi. Mazkur tizimning tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

a) jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisi pedagogik pozitsiya va shaxs sifatlari;

b) jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisi kasbiy bilimlar va pedagogik fikrlash madaniyati;

v) jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisi kasbiy malakalar va pedagogik faoliyatning ijodiyligi;

g) jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisi shaxsni o‘z-o‘zini boshqara bilishi va pedagogning kasbiy xulq-atvori.

Jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchilari kasbiy-pedagogik madaniyat darajasi uning tarkibiy qismlari – pedagogik nuqtai nazar, kasbiy bilimlar va pedagogik fikrlash, kasbiy malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, shaxsni o‘z-o‘zini boshqara bilishi va pedagogning kasbiy xulq-atvorining shakllanganlik darajasi bilan o‘lchanadi.

Jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik madaniyati quyidagi kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarining mavjud bo‘lishini taqozo etadi:

1) jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisi shaxsga yo‘nalganlik: e’tiqod, ijtimoiy faollik, fuqarolik tuyg‘usining mavjudligi;

2) jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisi kasbiy-axloqiy sifatlar: insonparvarlik, jamoaviylik, adolat, mehribonlik, haqiqatparvarlik, samimiylik, talabchanlik, bolalarga nisbatan mehr va hurmat, oliyjanoblilik, xolislik;

3) jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisi pedagogik mehnatga munosabat: vijdonlilik, javobgarlik tuyg‘usi, fidokorlik, berilib ishlay olish va o‘z pedagogik faoliyatidan qoniqish hissi, uni hayotining mazmuniga aylantira olish;

4) jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisi qiziqishlar va ma’naviy ehtiyojlar: bilishga oid faollik, tafakkurning kengligi va teranligi, estetik madaniyat, qiziqishlarning va ma’naviy ehtiyojlarning ko‘pqirraliligi, yoqtirgan ijodiy ishning mavjud bo‘lishi, tashqi ko‘rinish va nutq madaniyati.

Jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisining pedagog nuqtai nazarida uning shaxsi, ijtimoiy yo‘nalishi tavsifi, fuqarolik xulq-atvori va faoliyati namoyon bo‘ladi.

Jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisining ijtimoiy nuqtai nazari umumta’lim maktabi chog‘laridayoq, qarashlar, qadriyatlar tizimi tarzida shakllanib, rivojlanib boradi. Ularning asosida kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagoglik kasbiga, pedagogik faoliyatning maqsad va vositalariga nisbatan qadriyatli munosabat tarkib topadi. Jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisi faoliyatga nisbatan qadriyatli munosabat, keng ma’noda o‘qituvchi shaxsining negizini tashkil etuvchi yo‘nalganlikni ifodalaydi.

Jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisining ijtimoiy nuqtai nazari ko‘p jihatdan uning kasbiy qarashini ham belgilab beradi.

Shunday qilib, jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisining kasbiy madaniyati va

pedagogik qobiliyatlarini kompleks takomillashtirish jarayonlari orasidagi yaqin o‘zaro bog‘liqlik, o‘zida ushbu ikki jihatni mujassam qiladigan va ularni zamonaviy bosqichdagi jamiyat talablariga mos ravishda rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus tayyorgarlik tizimini ishlab chiqish zaruriyati to‘g‘risida xulosa chiqarishga imkon beradi. Bu erda eng avvalo, gap jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchilarning kasbiy etukligi muammosiga amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan munosabatni qaror toptirish va samarali echimga kelish xususida bormoqda.

Jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchilarda kasbiy madaniyat va pedagogik qobiliyatlar kompleksini takomillashtirishning ikki guruhiga oid – ijtimoiy va kasbiy-pedagogik mezonlar aniqlashtirildi:

1. Jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini ijtimoiy mezonlar.

Ko‘rsatkichlari:

1) jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchilarining ijtimoiy moslashuvchanlik:

- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisiinig ijtimoiy maqomi, ijtimoiy roli va ijtimoiy funksiyalari to‘g‘risida tasavvur;
- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisining ijtimoiy vazifasini anglab etish;
- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisi turli xil o‘quv, pedagogik va ijtimoiy faoliyatlarda qatnashish tajribasi;
- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini ijtimoiy talablarni baholash va o‘z-o‘zini, o‘z xulq-atvorini, kasbiy faoliyatini mazkur talablar bilan taqqoslash;
- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini rolli (kasbiy-pedagogik) xulq-atvor tavsifi;
- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini shaxsiy va kasbiy o‘zini namoyon qilish;

2) jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini psixologik moslashuvchanlik:

- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini muhitning qonun-qoidalarini va undan hosil bo‘lgan ijtimoiy foydali harakatlarni o‘zlashtirishning yagonaligi;
- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini kasbiy ahamiyatli motivlar, qadriyatlar, ehtiyojlar, mayllar, o‘z mehnatiga va uning dinamikasiga ega bo‘lgan munosabatning mavjudligi;

3) jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini kommunikativ moslashuvchanlik:

- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini shaxslararo munosabatlarni qaror toptirish va barqarorlikni ta’minlash malakasi;
- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini empatiya va hamdardlik;
- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini mehnat jamoasida pedagogik jihatdan hamkasblarga ijobiy ta’sir qiluvchi ma’naviy-psixologik muhit va munosabatlarni hosil qilishga nisbatan ehtiyoj;
- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini ishdagi hamkasblar bilan insoniy, demokratik o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga bo‘lgan ehtiyoj, zarur bo‘lganda, ularga ko‘mak ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlash.

2. Jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini kasbiy-pedagogik mezonlar.

Ko‘rsatkichlari:

- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini kasbiga va pedagogik faoliyatga ijobiy hissiy-baholovchi munosabat;

- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini kasbga aksiologik munosabat;
- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini tanlagan kasbidan va o‘z mehnatidan qoniqish hissi;
- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini kasbiy-axloqiy sifatlar;
- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini shaxsiy-pedagogik jihatdan o‘z-o‘zini boshqarish;
- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini intiluvchanlik darajasi;
- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini kasbiy muhitni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish;
- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini fidoyilik;
- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini keng dunyoqarash va ma’naviy ehtiyojlarning mavjudligi;
- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini kasbiy muloqot uslubi;
- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini ijodiy yondashuv;
- jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchisini kasbiy-pedagogik malakalarni uzluksiz takomillashtirib borish.

Jismoniy madaniyat va sport fani o‘qituvchilarida pedagogik qobiliyatlar kompleksini takomillashtirishning zamonaviy konsepsiyalari o‘z-o‘zini rivojlantirish tamoyiliga tayanishini hisobga olganda, shaxsning kasbiy madaniyatini rivojlantirish talab etilgan va kutilgan darajadagi munosabatlar bilan tavsiflanadi. Motivatsion-qadriyatli munosabatlarning zaruriy darajasiga erishish shaxs rivojlanishida yangi imkoniyatlarni yaratib beruvchi o‘z-o‘zini boshqara olish va komillikka intilib borish mexanizmlarini o‘zlashtirish bilan birga kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. – Xalq so‘zi gazetasi: 28 (6722). 08.02.2017 y.
2. Батарщев A.V. Psixodiagnostika sposobnosti k obщeniyu ili kak opredelit organizatorskie i kommunikativnыe kachestva lichnosti. –M.: Izd. Sentr VLADOS,1999.–176 s.
3. Musaev O. Oliy o‘quv yurti o‘qituvchisining pedagogik qobiliyatlar kompleksini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari. Monografiya. –Toshkent: “Tamaddun”, 2016.

JISMONIY TARBIYA JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

O‘zDJTSU Nukus filiali student
Jumaniyazova Sadoqat Ergash qizi
O‘zDJTSU Nukus filiali studenti
Qurbanbaev Esbosin Qarjaubay uli

Tayanch so‘zlar: *jismoniy tarbiya, innovatsion texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, pedagogik texnologiya, jismoniy faollik, sport, multimedia, videoanaliz, interaktiv mashqlar, jismoniy sifatlar, sog‘lom turmush tarzi.*

Ключевые слова: *физическое воспитание, инновационные технологии, цифровые технологии, педагогические технологии, физическая активность, спорт, мультимедиа, видеоанализ, интерактивные упражнения, физические качества, здоровый образ жизни.*

Keywords: *physical education, innovative technologies, digital technologies, pedagogical technologies, physical activity, sport, multimedia, video analysis, interactive exercises, physical qualities, healthy lifestyle.*

Kirish Bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan yangilanishlar barcha fanlar qatori jismoniy tarbiya sohasiga ham zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Jismoniy tarbiya insonning sog‘lig‘ini mustahkamlash, jismoniy sifatlarini rivojlantirish, harakat ko‘nikmalarini shakllantirish va sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishda muhim o‘rin tutadi. An’anaviy jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida asosan o‘qituvchining tushuntirishi, ko‘rsatishi va o‘quvchilarning mashqlarni takroriy bajarishiga e’tibor qaratiladi. Bunday usullar o‘z ahamiyatini saqlab qolgan bo‘lsa-da, zamonaviy yoshlarning qiziqishlari va axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi ortib borayotgan sharoitda mashg‘ulotlarni yangi usullar bilan boyitish zarur.

Innovatsion texnologiyalar jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Xususan, videomateriallar, elektron dasturlar, mobil ilovalar, raqamli monitoring vositalari va interaktiv topshiriqlar yordamida mashg‘ulotlarning mazmunini takomillashtirish mumkin. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning asosiy maqsadi texnologiyaning o‘zidan foydalanish emas, balki uning yordamida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning faolligini ta’minlash va individual imkoniyatlarini hisobga olishdan iborat.

Asosiy qism jismoniy tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarning o‘rni Innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayoniga yangi metod va vositalarni olib kirish orqali o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Jismoniy tarbiyada esa ular mashqlarni o‘rgatish, harakatlarni tahlil qilish, jismoniy yuklamani nazorat qilish va natijalarni baholashda qo‘llanilishi mumkin. Masalan, murakkab gimnastika, yengil atletika yoki sport o‘yinlari elementlarini o‘rgatishda videomateriallardan foydalanish o‘quvchilarga harakatning to‘g‘ri bajarilish ketma-ketligini ko‘rish imkonini beradi. O‘quvchi o‘z harakatini video orqali kuzatib, xatolarini aniqlashi va ularni tuzatishga harakat qilishi mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchining darsdagi faolligini oshiradi. Chunki u nafaqat mashqni bajaradi, balki o‘z faoliyatini kuzatish, tahlil qilish va natijasini yaxshilash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning bir necha yo‘nalishlari mavjud. Ulardan biri jismoniy faollikni monitoring qilishdir. Turli raqamli qurilmalar yordamida qadamlar soni, harakat davomiyligi, yurak urish tezligi va boshqa ko‘rsatkichlarni kuzatish mumkin. Bunday monitoring o‘qituvchiga o‘quvchining jismoniy faolligi haqida qo‘shimcha ma’lumot beradi. Natijada mashg‘ulot yuklamasini individual ravishda belgilash imkoniyati kengayadi. Raqamli texnologiyalarning yana bir afzalligi — mashg‘ulot natijalarini saqlash va taqqoslash imkoniyatidir. Masalan, yugurish tezligi, sakrash natijasi, chidamlilik ko‘rsatkichlari yoki boshqa jismoniy test natijalari muntazam qayd etilib, vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishlar tahlil qilinishi mumkin.

Multimedia vositalarining samaradorligi Multimedia vositalari jismoniy tarbiya darslarining ko‘rgazmaliligini oshiradi. O‘qituvchi mashqni faqat og‘zaki tushuntirib yoki amalda ko‘rsatibgina qolmay, uning videotasvirini, animatsiyasini yoki bosqichma-bosqich

bajarilish tartibini ham namoyish qilishi mumkin. Ayniqsa, yangi harakatlarni o‘rgatish jarayonida multimedia materiallari katta ahamiyatga ega. O‘quvchi mashqni bir necha marta ko‘rib, harakatning muhim jihatlariga e’tibor qaratishi mumkin.Sport o‘yinlarida ham multimedia texnologiyalaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Masalan, futbol, basketbol, voleybol yoki gandbol mashg‘ulotlarida taktik vaziyatlarning videolarini tahlil qilish orqali o‘quvchilarning taktik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin.

Videoanalizdan foydalanish Videoanaliz innovatsion texnologiyalarning jismoniy tarbiyadagi muhim yo‘nalishlaridan biridir. O‘quvchining mashq bajarishi videoga olinib, keyinchalik o‘qituvchi bilan birgalikda tahlil qilinishi mumkin.

Videoanaliz orqali harakatdagi texnik xatolar, tana holati, qo‘l va oyoqlarning joylashuvi, harakat tezligi va boshqa jihatlar aniqlanadi. Bu usul ayniqsa sportga ixtisoslashgan mashg‘ulotlarda samarali hisoblanadi.Masalan, yugurish texnikasini o‘rgatishda sportchining oyoq qo‘yishi va qo‘l harakatlari tahlil qilinishi mumkin. Sakrash mashqlarida esa depsinish va qo‘nish texnikasiga e’tibor qaratiladi. Videoanalizning yana bir afzalligi shundaki, o‘quvchi o‘zining harakatini tashqi tomondan ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z faoliyatiga tanqidiy yondashish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Interaktiv metodlarning jismoniy tarbiyadagi ahamiyati Innovatsion texnologiyalar bilan bir qatorda interaktiv pedagogik metodlardan foydalanish ham jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishga yordam beradi. Interaktiv metodlar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Masalan, guruhlarda ishlash, musobaqaviy topshiriqlar, estafetalar, muammoli vaziyatlar va sport o‘yinlari orqali o‘quvchilarning jismoniy faolligi bilan bir qatorda ularning muloqot qilish, hamkorlikda ishlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalari ham rivojlanadi.

Jismoniy tarbiya darsida o‘quvchilarga ma’lum bir harakatni mustaqil tahlil qilish yoki mashqlar ketma-ketligini ishlab chiqish vazifasini berish ham samarali natija beradi.

Innovatsion texnologiyalarning jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi ahamiyati Jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishdir. Bular kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik va koordinatsiya kabi sifatlarni o‘z ichiga oladi. Innovatsion texnologiyalar ushbu sifatlarni rivojlantirish jarayonini nazorat qilish va individuallashtirish imkonini beradi. Masalan, yugurish mashqlarida o‘quvchining vaqt ko‘rsatkichi muntazam qayd etilib, oldingi natijalar bilan taqqoslanishi mumkin. Natijalarni raqamli tarzda qayd etish o‘quvchida o‘z natijasini yaxshilashga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi. U o‘zining rivojlanish dinamikasini ko‘rib boradi va mashg‘ulotlarda faolroq qatnashishga intiladi.

Innovatsion yondashuvlarning afzalliklari Jismoniy tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bir qator afzalliklarga ega:

- mashg‘ulotlarning qiziqarliligi va ko‘rgazmaliligini oshiradi;
- o‘quvchilarning jismoniy faolligini rag‘batlantiradi;
- mashqlarni individual darajada tashkil etish imkonini beradi;
- jismoniy natijalarni muntazam nazorat qilishga yordam beradi;
- texnik xatolarni aniqlash va tuzatishni osonlashtiradi;
- o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
- o‘qituvchining mashg‘ulotni rejalashtirish va tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi;
- o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarziga qiziqish uyg‘otadi.

Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalar an’anaviy jismoniy mashqlarni to‘liq almashtirmasligi kerak. Ular jismoniy tarbiya jarayonini boyituvchi va samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda o‘qituvchining roli Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasiga bog‘liq. O‘qituvchi zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlarini bilishi va ularni dars maqsadiga muvofiq tanlay olishi kerak.

Texnologiyadan foydalanish darsning asosiy maqsadini ikkinchi o‘ringa tushirib qo‘ymasligi lozim. Jismoniy tarbiya darsining asosiy mazmuni o‘quvchining harakat faoliyati bo‘lib qoladi.

Shuning uchun texnologik vositalardan foydalanish va amaliy jismoniy mashqlar o‘rtasida maqbul muvozanatni saqlash zarur. O‘qituvchi har bir mashg‘ulot uchun texnologiyaning haqiqiy pedagogik qiymatini baholashi kerak.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Zamonaviy raqamli vositalar, multimedia, videoanaliz, mobil ilovalar va interaktiv metodlar yordamida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini yanada qiziqarli, mazmunli va individual yondashuv asosida tashkil etish mumkin. Innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, mashqlarni to‘g‘ri bajarish texnikasini shakllantirish, natijalarni nazorat qilish va o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning mashg‘ulotlarga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. O‘z natijalarini raqamli ko‘rinishda kuzatish, oldingi natijalar bilan taqqoslash va rivojlanish dinamikasini ko‘rish o‘quvchini yanada faol bo‘lishga undaydi. Biroq innovatsion texnologiyalardan foydalanishda me’yor va maqsadga muvofiqlik tamoyiliga rioya qilish zarur. Texnologiya jismoniy harakatning o‘rnini egallamasligi, balki uni samarali tashkil etishga xizmat qilishi kerak.

Demak, jismoniy tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalarni ilmiy-metodik jihatdan asoslangan holda joriy etish o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va ta’lim sifatini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent.
2. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. – Toshkent: Zar qalam, 2004.
3. Matveyev L.P. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Moskva.
4. Platonov V.N. Sportchilarni tayyorlash tizimida zamonaviy sport. – Kiev: Olimpiya adabiyoti.
5. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent.
6. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar.

BAYDARKA VA KANOEDA ESHKAK ESHEVCHILARNING TEXNIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

T.Nayzabaev
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali stajyor oqituvchisi
T.Kaipnazarov
Qoraqalpoq davlat universiteti sport faoliyati va Jismoniy tarbiya kafedrasi assistent oqituvchisi

Kalit so‘zlar: *baydarka, kanoe, eshkak eshish, texnik tayyorgarlik, sport mashg‘uloti, harakat koordinatsiyasi, mashg‘ulot yuklamasi, video tahlil, nazorat mezonlari.*

Ключевые слова: *байдарка, каноэ, гребля, техническая подготовка, спортивная тренировка, координация движений, тренировочная нагрузка, видеоанализ.*

Keywords: *kayak, canoe, paddling, technical preparation, sports training, movement coordination, training load, video analysis.*

Kirish. Baydarka va kanoeda eshkak eshish sporti sportchidan kuch, tezkorlik, maxsus chidamlilik, muvozanat va harakatlarni aniq muvofiqlashtirishni talab qiladi. Musobaqa natijasi sportchining jismoniy imkoniyatlari bilan bir qatorda eshkakni suvga kiritish sifati, tortish fazasidagi kuchni uzatish, gavda va qo‘l harakatlarining uyg‘unligi hamda qayiq yo‘nalishini saqlashga ham bog‘liq. Texnik harakatlar noto‘g‘ri bajarilganda kuchning bir qismi samarasiz sarflanishi, ritm buzilishi va sportchining tez charchashi mumkin.

Shuning uchun texnik tayyorgarlikni faqat harakatni takrorlash orqali emas, balki maqsadli kuzatish, xatolarni tasniflash, bosqichma-bosqich o‘rgatish va muntazam nazorat qilish orqali tashkil etish maqsadga muvofiq. Video tahlil, vaqt ko‘rsatkichlari va murabbiy kuzatuvini birgalikda qo‘llash sportchining individual texnik xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqotning maqsadi va metodlari. Tadqiqotning maqsadi - baydarka va kanoeda eshkak eshuvchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarni tizimlashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Ishda ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish hamda mashg‘ulot jarayonini pedagogik kuzatish usullaridan foydalanish nazarda tutiladi. Ushbu tezis nazariy-metodik tahlilga asoslangan; quyidagi jadvallar amaliy rejalashtirish uchun namunaviy tavsiyalar bo‘lib, tajriba-sinov natijalari sifatida talqin qilinmasligi kerak.

Asosiy qism. Eshkak eshish texnikasining tarkibiy qismlari, eshkak eshish sikli o‘zaro bog‘langan harakat bosqichlaridan tashkil topadi. Har bir bosqich keyingisi uchun sharoit yaratadi, shu bois texnikani o‘rgatishda harakatlarning alohida elementlari ham, ularning uzluksiz bajarilishi ham nazorat qilinadi.

Eshkak eshish harakat siklining soddalashtirilgan sxemasi.

Texnik element	Nimalar kuzatiladi?	Ko‘p uchraydigan xato	Tuzatish yo‘nalishi
Eshkakni suvga kiritish	Kirish burchagi, aniqlik, vaqt	Eshkakni kech yoki noto‘g‘ri burchakda kiritish	Sekin tezlikda aniq kirish mashqlari
Tortish fazasi	Kuchni uzatish, gavda va qo‘l uyg‘unligi	Faqat qo‘l bilan tortish, gavdani yetarli ishlatmaslik	Gavda burilishi va tortishni muvofiqlashtirish

Eshkakni suvdan chiqarish	Harakatning ravonligi va vaqti	Eshkakni ortiqcha ushlab qolish	Qisqa, nazoratli takrorlar
Tiklanish va keyingi sikl	Ritm, bo‘shashish, muvozanat	Shoshilish, qayiqning yon tomonga og‘ishi	Ritm va muvozanat mashqlari

Texnik tayyorgarlikni takomillashtirish bosqichlari. Mashg‘ulotlar oddiydan murakkabga tamoyili asosida tuziladi. Dastlab sportchi harakatning to‘g‘ri shaklini tushunib oladi; keyin past tezlikda barqaror bajaradi; undan so‘ng texnikani o‘rtacha tezlik va musobaqaga yaqin ritmda saqlashga o‘tadi. Tezlikni oshirish texnik sifat yomonlashishiga olib kelsa, yuklama vaqtincha kamaytirilib, to‘g‘ri harakat qayta mustahkamlanadi.

Bosqich	Mashg‘ulot mazmuni	Murabbiy nazorati	Keyingi bosqichga o‘tish sharti
1. Tushuntirish va ko‘rsatish	Texnika namoyishi, quruqlikdagi imitasiya	Tana holati va eshkakni ushlash	Sportchi harakat ketma-ketligini tushunadi
2. Sekin tezlikda o‘rganish	Suvda qisqa texnik takrorlar	Eshkak kirishi va chiqishi, muvozanat	Harakatlar barqaror va xavfsiz bajariladi
3. O‘rtacha tezlikda mustahkamlash	Texnik intervallar, ritmni saqlash	Ritm, yo‘nalish, ortiqcha harakatlar	Tezlik oshganda ham texnika saqlanadi
4. Musobaqaga yaqin sharoit	Belgilangan masofalarda nazoratli bajarish	Vaqt, ritm va texnik xatolar	Natijalar takroriy kuzatuvlarda barqaror

2-rasm. Texnik tayyorgarlik bosqichlarining ketma-ketligi. Grafik shartli metodik sxema bo‘lib, o‘lchangan natijalarni ko‘rsatmaydi.

Namunaviy haftalik texnik mashg‘ulotlarni rejalashtirish. Quyidagi jadval murabbiy mashg‘ulot rejasini tuzishda foydalanishi mumkin bo‘lgan namunadir. Mashg‘ulot davomiyligi va takrorlar soni sportchilarning yoshi, sport malakasi, musobaqa davri hamda tiklanish holatiga qarab moslashtirilishi lozim.

Kun	Asosiy yo‘nalish	Namunaviy topshiriqlar	Nazorat mezoni
Dushanba	Texnika asoslari	Quruqlikda imitasiya; suvda sekin tezlikda texnik takrorlar	Harakat ketma-ketligi va muvozanat
Seshanba	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	Gavda barqarorligi, maxsus kuch mashqlari, yengil eshkak eshish	Texnikani buzmasdan bajarish
Chorshanba	Ritm va koordinatsiya	Qisqa intervallar, eshkak ritmini barqarorlashtirish	Ritmning izchilligi
Payshanba	Tiklanish va texnik tahlil	Yengil mashg‘ulot, video ko‘rish, xatolarni muhokama qilish	Aniqlangan xatolar bo‘yicha individual vazifa

Juma	Texnikani tezlikda saqlash	O‘rtacha tezlikdagi masofalar, murabbiy signali bilan ritmni o‘zgartirish	Tezlik va texnika uyg‘unligi
Shanba	Nazorat mashg‘uloti	Bir xil sharoitda belgilangan masofani bajarish	Vaqt, ritm, yo‘nalish, texnik xatolar
Yakshanba	Dam olish	Rejaga muvofiq dam olish va tiklanish	Charchoq va umumiy holat

Texnik tayyorgarlikni baholash mezonlari. Texnikani baholashda faqat masofani bosib o‘tish vaqtiga tayanish yetarli emas. Vaqt ko‘rsatkichi tashqi sharoit, shamol, suv holati, qayiq va inventar xususiyatlariga ham bog‘liq. Shu sababli vaqt bilan birga texnik harakatlarning sifati, ritm va yo‘nalish barqarorligi qayd etilishi tavsiya etiladi.

Video tahlil va individual yondashuv. Video tahlil texnik xatolarni ko‘rish va sportchiga aniq qayta aloqa berish imkonini yaratadi. Tasvirni old, yon yoki orqa tomondan olish orqali turli harakat elementlarini ko‘rish mumkin. Tahlilda bir vaqtning o‘zida juda ko‘p xatoni tuzatishga urinish o‘rniga, sportchi uchun eng muhim bir yoki ikki vazifa tanlanadi. Keyingi mashg‘ulotda aynan shu vazifalar qayta tekshiriladi.

Metodikani qo‘llashdagi muhim shartlar. Texnik tayyorgarlik mashg‘ulotlari xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda tashkil etilishi kerak. Suv va ob-havo sharoiti, qayiqning sozligi, himoya vositalari, sportchining charchoq darajasi va murabbiy nazorati hisobga olinadi. Yuklamani oshirishda texnik sifatning saqlanishi asosiy mezonlardan biri bo‘lishi lozim. Sportchilarning video tasvirlari va shaxsiy natijalari esa faqat mashg‘ulot maqsadida, mas’uliyat bilan ishlatilishi kerak.

Xulosa. Baydarka va kanoeda eshkak eshuvchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish tizimli yondashuvni talab etadi. Harakat siklining bosqichlarini o‘rgatish, texnik xatolarni tasniflash, mashqlarni oddiydan murakkabga qarab tashkil etish, maxsus jismoniy tayyorgarlikni texnik ish bilan uyg‘unlashtirish va nazorat ko‘rsatkichlarini muntazam qayd etish metodikaning muhim tarkibiy qismlaridir.

Video tahlil murabbiy va sportchi o‘rtasidagi qayta aloqani aniqroq qiladi, biroq u pedagogik kuzatuv va bir xil sharoitda o‘tkaziladigan nazorat mashqlarini almashtirmaydi. Mashg‘ulot yuklamalari sportchining yoshi, malakasi va tiklanish holatiga moslashtirilishi kerak. Kelgusida ushbu metodik tavsiyalarni tajriba-sinov ishlari orqali tekshirish, nazorat guruhlari natijalarini taqqoslash va texnik xatolar dinamikasini o‘rganish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston respublikasining “jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuni. - 2015-yil 4-sentabr.

2. Platonov v. N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. - kiev: olimpiyskaya literatura.

3. Bompa t., buzzichelli c. Periodization: theory and methodology of training. - human kinetics.

4. World rowing. Coaching and training resources. - eshkak eshish sporti bo‘yicha metodik materiallar.

5. Eshkak eshish sporti nazariyasi va metodikasi bo‘yicha o‘quv-metodik adabiyotlar

BAYDARKA VA KANOEDA ESHKAK ESHEVCHILARNING MASHG‘ULOT YUKLAMALARINI REJALASHTIRISH VA NAZORAT QILISH

T.Nayzabaev
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali stajyor oqituvchisi
T.Kaipnazarov
Qoraqalpoq davlat universiteti sport faoliyati va Jismoniy tarbiya kafedrasi assistent oqituvchisi

Kalit so‘zlar: *baydarka, kanoe, eshkak eshish, mashg‘ulot yuklamasi, rejalashtirish, nazorat, maxsus chidamlilik, tiklanish, sport natijasi.*

Ключевые слова: *байдарка, каноэ, гребля, тренировочная нагрузка, планирование, контроль, специальная выносливость, восстановление, спортивный результат.*

Keywords: *kayak, canoe, paddling, training load, planning, monitoring, specific endurance, recovery, sports performance.*

Kirish. Baydarka va kanoeda eshkak eshish sportida yuqori natijaga erishish texnik mahorat va jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda mashg‘ulot yuklamalarini oqilona rejalashtirishga ham bog‘liq. Mashg‘ulot yuklamasi sportchining organizmiga ta’sir ko‘rsatuvchi ish hajmi, intensivligi, davomiyligi va dam olish oralig‘i kabi omillar bilan tavsiflanadi. Yuklama sportchining tayyorgarlik darajasiga mos belgilanmasa, charchoq ortishi, texnik harakatlar sifati pasayishi va tiklanish jarayoni cho‘zilishi mumkin.

Shu sababli eshkak eshuvchilarning mashg‘ulotlarini rejalashtirishda mashg‘ulot maqsadi, sportchining individual xususiyatlari, musobaqa taqvimi va oldingi mashg‘ulotdan keyingi tiklanish holati hisobga olinishi zarur. Yuklamani nazorat qilish faqat bajarilgan ish miqdorini qayd etishdan iborat emas; u sportchining javob reaksiyasini tahlil qilish va reja zarur bo‘lsa o‘zgartirishni ham qamrab oladi.

Tadqiqotning maqsadi va metodlari. Tadqiqotning maqsadi - baydarka va kanoeda eshkak eshuvchilarda mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish va nazorat qilishning asosiy metodik tamoyillarini tizimlashtirish hamda amaliy tavsiyalar berish. Ishda ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va mashg‘ulot jarayonini pedagogik kuzatish usullaridan foydalanish nazarda tutiladi. Mazkur tezis nazariy-metodik tahlilga asoslangan; undagi jadvallar namunaviy tavsiyalar bo‘lib, real tajriba natijalari sifatida taqdim etilmaydi.

Mashg‘ulot yuklamasining asosiy tarkibiy qismlari Eshkak eshish mashg‘ulotida yuklama bir nechta o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar orqali rejalashtiriladi. Hajm bajarilgan ishning umumiy miqdorini, intensivlik ishning qanchalik zo‘r berib bajarilishini, davomiylik esa mashg‘ulot yoki topshiriq vaqtini ifodalaydi. Dam olish oralig‘i yuklamaning sportchiga ta’sirini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Bu ko‘rsatkichlarni alohida emas, birgalikda ko‘rib chiqish lozim.

Yuklama komponenti	Mazmuni	Eshkak eshishdagi misol	Rejalashtirishdagi vazifasi
Hajm	Bajarilgan ishning umumiy miqdori	Umumiy eshkak eshish masofasi yoki mashg‘ulot vaqti	Haftalik ish miqdorini hisobga olish
Intensivlik	Ishning zo‘riqish darajasi	Yengil, o‘rtacha yoki yuqori tezlikdagi bo‘limlar	Maqsadli fiziologik va texnik ta’sirni belgilash
Davomiylik	Mashq yoki mashg‘ulot qancha davom etishi	Uzluksiz eshkak eshish vaqti yoki interval davomiyligi	Sportchining tayyorgarlik darajasiga moslashtirish
Dam olish	Ishlar orasidagi tiklanish vaqti	Interval takrorlari orasidagi tanaffus	Keyingi takror sifatini saqlash
Mashg‘ulot mazmuni	Texnik, tezkorlik, chidamlilik yoki tiklanish yo‘nalishi	Texnika mashqlari va maxsus masofalar	Hafta ichida vazifalarni muvozanatlash

Yuklamani rejalashtirish va qayta ko‘rib chiqish sikli. Rejalashtirish sportchining dastlabki holatini baholashdan boshlanadi. Shundan so‘ng mashg‘ulot maqsadi va unga mos yuklama belgilanadi. Mashg‘ulot davomida bajarilgan ish qayd etilib, undan keyin sportchining texnikasi, charchoq hissi va tiklanish belgilari tahlil qilinadi. Natijalar reja maqsadlariga mos kelmasa, keyingi mashg‘ulot hajmi, intensivligi yoki dam olish oralig‘i o‘zgartirilishi mumkin.

Haftalik mashg‘ulot yo‘nalishlarini taqsimlash. Haftalik reja musobaqa davri, sportchining malakasi va umumiy tiklanish holatiga qarab tuziladi. Quyidagi jadval faqat yo‘nalishlarni muvozanatli taqsimlashga oid namunadir; undagi kunlar va mashg‘ulot turlari murabbiy tomonidan sharoitga qarab o‘zgartirilishi lozim.

Kun	Asosiy yo‘nalish	Namunaviy mazmun	Nazorat nuqtasi
Dushanba	Texnika va ritm	Yengil- o‘rtacha tezlikda texnik mashqlar	Harakat sifati va muvozanat
Seshanba	Maxsus chidamlilik	Murabbiy belgilagan uzluksiz yoki interval topshiriqlar	Tezlikning barqarorligi va charchoq
Chorshanba	Tiklanish va texnik tahlil	Yengil mashg‘ulot, video ko‘rish, individual tuzatishlar	Sportchining subyektiv holati
Payshanba	Tezlik va koordinatsiya	Qisqa, nazoratli tezkor bo‘limlar va ritm mashqlari	Texnikaning yuqori tezlikda saqlanishi

Juma	Aralash tayyorgarlik	Texnika va maxsus jismoniy tayyorgarlikni uyg‘unlashtirish	Yuklama ko‘tarilishi va texnika sifati
Shanba	Nazorat mashg‘uloti	Oldindan belgilangan masofada standart sharoitga yaqin sinov	Vaqt, ritm, xatolar va tiklanish
Yakshanba	Dam olish yoki tiklanish	Rejaga muvofiq dam olish	Keyingi haftaga tayyorlik

Yuklama va sportchi holatini nazorat qilish mezonlari. Yuklamani nazorat qilishda tashqi ko‘rsatkichlar - masofa, vaqt, bajarilgan takrorlar - hamda ichki javob ko‘rsatkichlari - subyektiv zo‘riqish, charchoq va tiklanish - birgalikda ko‘riladi. Bitta ko‘rsatkichga asoslanib yuklamani oshirish yoki kamaytirish haqida qaror qabul qilish to‘liq tasavvur bermasligi mumkin.

Ko‘rsatkich	**Qayd etish usuli**	**Qanday qarorga yordam beradi?**
Masofa va vaqt	Bir xil masofani vaqt bilan qayd etish	Natijalar dinamikasini solishtirish
Bajarilgan ish hajmi	Mashg‘ulotdagi masofa, vaqt va takrorlarni yozish	Haftalik yuklama hajmini ko‘rish
Subyektiv zo‘riqish	Mashg‘ulotdan keyin sportchi bahosini so‘rash	Rejalashtirilgan yuklamaning qanchalik og‘ir sezilganini tushunish
Texnik xatolar	Murabbiy kuzatuvi yoki video tahlil	Charchoq texnikaga ta’sir qilayotganini aniqlash
Tiklanish holati	Suhbat, uyqu va umumiy holatni kuzatish	Keyingi mashg‘ulotni moslashtirish
Tashqi sharoit	Shamol, suv holati va inventar sharoitini qayd etish	Natijalarni adolatli taqqoslash

Yuklamani sportchining individual xususiyatlariga moslashtirish

Bir xil mashg‘ulot barcha sportchilarda bir xil javob reaksiyasini keltirib chiqarmaydi. Yosh, sport tajribasi, texnik mahorat, oldingi yuklama va tiklanish holati hisobga olinishi kerak. Agar sportchi topshiriq davomida texnikani saqlay olmasa, charchoq odatdagidan yuqori bo‘lsa yoki tiklanish sustlashsa, murabbiy yuklama parametrlarini qayta ko‘rib chiqishi mumkin. Yuklamani o‘zgartirish qarori muntazam kuzatuvga asoslanishi lozim.

Kuzatilgan holat	**Mumkin bo‘lgan metodik chora**	**E’tibor beriladigan jihat**
Texnika buzila boshlaydi	Tezlik yoki takrorlar sonini vaqtincha kamaytirish	To‘g‘ri harakatni qayta tiklash
Sportchi topshiriqni yengil va barqaror bajarmoqda	Rejaga muvofiq keyingi bosqichga o‘tishni ko‘rib chiqish	Yuklamani keskin oshirmaslik

Charchoq yuqori, tiklanish sust	Yuklamani kamaytirish yoki tiklanish mashg‘ulotini tanlash	Holatning takrorlanishini kuzatish
Natija o‘zgaradi, lekin tashqi sharoit ham farq qiladi	Sharoitni qayd etish va ehtiyotkor taqqoslash	Shamol va suv sharoitini hisobga olish

Nazorat ma’lumotlari mashg‘ulot kundaligida muntazam qayd etilishi maqsadga muvofiq. Kundalikda mashg‘ulot maqsadi, bajarilgan ish hajmi, intensivlik, sportchining o‘zini qanday his qilgani, texnik kuzatuvlar va keyingi mashg‘ulot uchun izohlar ko‘rsatilishi mumkin. Bunday qaydlar qisqa muddatli o‘zgarishlarni ham, bir necha hafta davomida yuz beradigan tendensiyalarni ham ko‘rishga yordam beradi.

Xulosa. Baydarka va kanoeda eshkak eshuvchilarning mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish va nazorat qilish texnik, jismoniy hamda funksional tayyorgarlikni o‘zaro bog‘liq holda boshqarishni talab etadi. Yuklama hajmi, intensivligi, davomiyligi va dam olish oralig‘ini sportchining individual xususiyatlariga mos belgilash, mashg‘ulot natijalarini tizimli qayd etish va tiklanish holatini kuzatish metodikaning muhim qismlaridir.

Nazorat natijalaridan foydalanish murabbiyga mashg‘ulot rejasini o‘z vaqtida moslashtirish, texnik sifatni saqlash va sportchining uzoq muddatli tayyorgarligini izchil tashkil etishga yordam beradi. Keltirilgan jadval va sxemalar amaliy rejalashtirish uchun namunaviy vositalardir. Ularning samaradorligini aniqlash uchun kelgusida real sportchilar ishtirokida standartlashtirilgan kuzatuv va tajriba-sinov tadqiqotlari o‘tkazish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni. - 2015-yil 4-sentabr.

2. Platonov V. N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. - Kiev: Olimpiyskaya literatura.

3. Bompa T., Buzzichelli C. Periodization: Theory and Methodology of Training. - Human Kinetics.

4. World Rowing. Coaching and Training Resources. - Eshkak eshish sporti bo‘yicha metodik resurslar.

5. Eshkak eshish sporti nazariyasi va metodikasi bo‘yicha o‘quv-metodik adabiyotlar.

II SEKCİYA. DENE TÁRBIYASI HÁM SPORT BOYINSHA QÁNIGELERDI TAYARLAWDA ILIMIY-IZERTLEW, SPORT ÁMELIYATI HÁM KÁSIPLIK RAWAJLANIW PERSPEKTIVALARI

OYÍNLAR HÁM SHÍNÍĠÍWLARDA GANDBOLSHÍLARDÍŃ FIZIKALÍQ SAPALARÍ KÓRINIWINIŃ ÁHMIYETI

Kuralbaev Azizbek Kuralbaevich
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı “Dene tárbiyası teoriyası gumanitar hám tábiyiy pánler” kafedrası baslıġı, professor
kuralbaevazizbek3@gmail.com
Rejepova Mavlyuda Muratbay qızı
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı
Sport iskerligi: Oq jaydan atıw qánigeligi 3-kurs studenti

Taynısh sózler: *Fizikalıq sapalar, cikl, tendenciya, kumulyativ. perspektiva neytral funkcional.*

Ózbekstan Respublikası óz ġárezsizligin jáhán kóleminde jıl sayın turaqlılastırıp barar eken, onıń perspektivası búgingi áwladtıń bilimli, ruwxıy hám fizikalıq jaqtan bárkámal insanlar bolıp jetilisiwine baylanıslı. Sol orında mámleketimizde jaslardıń fizikalıq tayarlıġınınıń rawajlanıwı hám sport túrleri boyınsha qábiletlerin qáliplestiriwde dene tárbiyası hám sporttıń áhmiyeti úlken bolıp tabıladı.

Ózbekstan Respublikasınıń 2015-jıl 4-sentyabrdegi “Dene tárbiyası hám sport haqqında” ġı ÓRQ-394-sanlı Nızamı. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2022-jıl 29-yanvardaġı “Jańa Ózbekstannıń “Rawajlanıw strategiyası” haqqında” ġı PF-60-san Pármanı. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2020-jıl 24-yanvardaġı “Ózbekstan Respublikasında dene tárbiyası hám sporttı jáne de jetilistiriw hám ġalabalaıġın asırıw is-ilájları haqqında” ġı PF-5924-sanlı Pármanınıń qabıl etiliwi jas awlattı fizikalıq jaqtan jetik insanlar bolıp ósiwleri ushın jaratılıp atırġan shárt-shárayatlarınıń ayqım mısalı bolıp tabıladı[1, 2, 3].

Bir qatar avtorlar tárepinen belgilengen maġlıwmatlarġa qaray, jıllıq cikl dawamında gandbolshılardıń tayarlıġı ortasha 30-40 rásmiy ushırasıwlar tiykarında ámelge asırıladı. Fizikalıq sapalar rawajlanıwına tásir etiwshi bul oyınlar júklemeleriniń tekġana jetkilikli dárejede sezilerli mániske ıye bolıwı, bálki málim bir anıq dúziliske ıye bolıwı da aytılıp ótiledi[4]. Kóplegen trenirovka shınıġıwları júklemeleri de áyne bul kórinistegi dúzılıwġa ıyelewi talap etiledi.

Oyınlar aralıġındaġı cikllerde bul jaġdaydı sonday kóriniste bólistiriw talap etiledi, bunda trener bir waqtınıń ózinde eki, kóp jaġdaylarda bir-birine qarama-qarsı (konkurent) wazıypalardı sheshiwine tuwrı keledi[5].

Birinshiden, kóp jıllıq cikl dawamında júklemeler mánisin tolqın tárizli kóriniste asırıp barıw hám ásirese, shegaralıq dárejege jaqın (shegaralıq dáreje tek jarıs oyınlarında ámelge asırıladı) júklemege iye bolġan shınıġıwlar sanın asırıw belgilenedi. Tek bul kórinistegána, talap etilgen dárejedegi fizikalıq hám taktikalıq - texnikalıq tayarlıqqa erisiw múmkin. Ekinshiden, oyınlar aralıġındaġı cikllerde álbette, júklemelerdi kemeytiw (olardıń sanı mudamı oyınlar sanına salıstırġanda birge kem bolıwı: eger, oyınlar sanı 40 bolsa, ol jaġdayda oyınlar aralıġı cikllleri sanı 39 bolıwı) talap etiledi. Bul jaġday gandbolshılardıń náwbettegi oyınġa optimal jaġdayda keliwi ushın ámelge asırılıwı zárúr esaplanadı.

Bul kórinistegi jantasıwda shınıǵıwlar hám jarıs júklemeleriniń bir pútkil birden-birligin támiyinlewge erisiledi.

Málim bir anıq shınıǵıwlarda fizikalıq sapalardıń maksimal dárejede kóriniwine baǵdarlaw.

Bizge málim bolǵanınday sport shınıǵıwları joqarı sport nátiyjelerine erisiwdi belgilep beredi. Sportshı onıń sheberligi hám qábiletlerine qaramastan, maksimal dárejede joqarı nátiyje kórsetiwge umtılıwı talap etiledi, bul anıq fizikalıq sapalardıń rawajlanıw dárejesin, sportshınıń kúshi hám qábiletleriniń jetilistiriliwin, sonıń menen birge shınıǵıwlardı shólkemlestiriw hám ótkeriwde sanalılıq hám aktivlik dárejesin ózinde sáwlelendiredi. Sportshı tárepinen joqarı nátiyjege erisiw tańlanǵan sport túrinde tereń jaǵdayda qánigelestiriw, sport shınıǵıwlarınıń salıstırmalı nátiyjeli quralları hám usıllarınan komplekslik paydalanıw, júklemeler dárejesiniń asırılıwı, onıń dem alıw menen optimal izbe-izlilikte jaylastırılıwı sisteması hám shınıǵıwlardıń ayqın ańlatpalanıwshı ciklik xarakteristikaları menen belgilenedi.

Gandbolshıdan hár bir oyında hár qıylı fizikalıq sapalardıń maksimal dárejede kóriniwi talap etiledi. Fizikalıq sapalardıń maksimal dárejede kóriniwin shınıǵıwlarda úyreniw kerek hám ásirese, arnawlı oyın wazıypaları sheshiletuǵın shınıǵıwlarda úyreniw talap etiledi. Eger, gandbolshı óziniń fizikalıq múmkinshiliklerin shınıǵıwlarda shegaralıq dárejede kórinetuǵın ete alıwǵa úyretilmese, ol jaǵdayda oyın waqtında da ol bul múmkinshilikler dárejesin talap etilgen dárejede kórsete almaydı. Solay etip, fizikalıq sapalardıń maksimal dárejede kóriniw ulıwma sport shınıǵıwlarınıń hám menshikli-fizikalıq tayarlıqtıń sapasın belgilep beredi. Sonıń menen birge, este saqlaw kerek, oyınshı qanshelli dárejede uqıplı bolmasın, baribir maksimal dárejedegi sport jetiskenliklerine ol tek ǵana shınıǵıwlarǵa múmkinshiligi barınsha ózin baǵıshlaw arqalıǵana jetiwi múmkin. Jaqsı dárejedegi bar kúshin jumsa sonday kórinistegi fizikalıq sapalardıń kóriniwine alıp keledi, yaǵnıy olardıń strukturası oyın jaǵdayına sáykes keledi.

Fizikalıq tayarlıqtıń úzliksizligi.

Bir qatar avtorlardıń ámelge asırǵan izertlewleri nátiyjesinde kórsetiliwinshe, sportda shınıǵıwlar procesi tómende keltirilgen ush tiykarǵı qaǵıydalar menen xarakterlenedi:

1) sport shınıǵıwları jıl dawamında ámelge asırılıwshı hám sportda qánigelestiriw baǵdarında salıstırmalı kóbirek dárejedegi jınalıp baratuǵın (kumulyativ) tásir nátiyjesin kepilleytuǵın kóp jıllıq process retinde dúzip shıǵıladı;

2) har bir náwbettegi trenirovka shınıǵıwları tap onnan aldınǵı ámelge asırılǵan trenirovka shınıǵıwları muǵdarı kóbeytirilip, olardı bekkemleydi hám tereńlestiredi;

3) shınıǵıwlar arasındaǵı dem alıw aralıǵı qayta tikleniwdi kepilleytuǵın hám jumıs qábiletin asırıwshı ulıwma tendenciya shegara sheńberinde ustap turıladı hám bunda shınıǵıwlardıń mezo hám mikrocikllları sheńberinde málim bir anıq sharayatlarda qısman qayta tikleniw fonında shınıǵıwlar ámelge asırılıwına ruxsat beriledi, bul jaǵdayda júklemeler hám dem alıstıń tıǵız rejimi júzege keltiriledi.

Berilgen anıq sharayatlarda trenirovka shınıǵıwlarınıń unamlı tásir nátiyjesiniń izbe-izligi dárejesin salıstırmalı múmkinshiligi barınsha kóbirek dárejede támiyinlew, olar arasında aqlap bolmaytuǵın kórinistegi tánepislerdi saplastırıw hám shınıǵıw islew processinde “regress” ge alıp keliwshi jaǵdaylardı minimallastırıw tiykarında dúzip shıǵılsa maqsetke muwapıq boladı. Bul jaǵday sport shınıǵıwlarınıń úzliksizligi principiniń mazmun-mánisin quraydı. Bul qaǵıydanıń princip tárepinen metodikalıq mazmun-mánisi sonda, talap boyınsha trenirovka shınıǵıwları aralıǵında artıqsha dawamıylıqqa jol qoyılmaydı, olar arasında óz-ara izbe-izlilik

támiyinlenedi hám óz-ózinen rawajlanıp baratuǵın tabıslardıń qolǵa kiritiliwi ushın sharayat jaratıladı.

Keltirilgen maǵlıwmatlarǵa qaray, shınıǵıwlar júklemelerinen keyin organizmmiń hár qıylı funksional imkaniyatlarınıń qayta tikleniwi bir waqıtta ámelge aspawı hám maslasıw (adaptaciya) proceslerініń geteroxronlıq xarakteristikalarǵa iyeligi princip tárepinen hár kúni shınıǵıw islew hám kúnine bir márte qanday da asa sharshaw yamasa normasınan artıqsha shınıǵıw etiwlersiz shınıǵıwlardı orınlaw imkaniyatın beredi. Shınıǵıw procesiniń úzliksizligi bólek shınıǵıwlar, bólek shınıǵıwlar yamasa jarıslardıń, sonıń menen birge sportshınıń jumıs qábileti jaǵdayı hám tayarlıǵınıń bólek cikllerініń dárejesi hám tásir etiw dawamıylıǵına baylanıslı esaplanadı.

Qatań tártip degi shınıǵıwlardıń nátiyjesi hár bir trenirovka shınıǵıwları hám jarıs turaqlı túrde bir-biriniń ústinde jıynalıp baradı, nátiyjede kumulyativ shınıǵıwlar nátiyjesi júzege keledi, bul jaǵday bólek shınıǵıwlar yamasa shınıǵıwlarǵa tiyisli bolmastan, bálki hár qıylı nátiyjesiniń ulıwma birliginen dúziledi hám sportshı organizminde sezilerli dárejedegi adaptacion (maslasıw) ózgerislerge alıp keledi, onıń funksional múmkinshilikleri hám jumıs qábiletiniń artıwın támiyinleydi. Biraq, tayarlıq jaǵdayında bul kórinistegi unamlı ózgerisler sport shınıǵıwlarınıń tuwrı dúzip shıǵılıwı hám jetkilikli dárejede dawam etiw waqtındaǵı waqıt tiykarında júzege keledi. Solay etip, jaqın shınıǵıwlar nátiyjesi (JSHN), shınıǵıwlardıń nátiyjesi (SHIN) hám kumulyativ shınıǵıwlar nátiyjesi (KSHN) arasındaǵı óz-ara tásirleniwler sport shınıǵıwları procesiniń úzliksizligin támiyinleydi. Bir-birinen keyin keliwshi shınıǵıwlarda múddetinen aldınǵı shınıǵıwlar nátiyje baǵdarı hám waqıt boyınsha óz-ara baylanıslılıqta bolıwı talap etiledi.

Bul jaǵdayǵa baylanıslı túrde, gandbol shınıǵıwlarınıń úzliksizligi túsinigi shınıǵıwlar arasındaǵı waqtınshalıq aralıqlar tayarlıqtıń barlıq túrleri boyınsha múddetinen aldınǵı nátiyjelerініń óz-ara baylanıslılıǵın támiyinlewi zárúr.

Múddetinen aldınǵı shınıǵıwlar nátiyjelerініń óz-ara tásirleri unamlı, neytral yamasa unamsız bolıwı múmkin. Múddetinen aldınǵı shınıǵıwlar nátiyjelerініń tek unamlı tásirieniwleri ǵana fizikalıq tayarlıqtıń úzliksizliginiń ámelge asırılıwın támiyinlep beredi.

Solay etip, cikl kórinisindegi xarakteristikalar trenirovka shınıǵıwlarınıń, shınıǵıwlar, mikrocikllar, mezocikllar, makrocikllardıń málim bir waqıt aralıǵında tákirarlanıwında óz ańlatpasın tabadı.

Gandbolda dawam etiw waqti boyınsha kóp sandaǵı cikllerdiń bar ekenligi olardıń quramı hám wazıypalarına baylanıslı jaǵdayda sistemalastırıw imkaniyatın beredi. Mısalı, cikller júklemelerdiń gandbolshılarda qanday da bir fizikalıq sapaǵa tásir kórsetiwge baǵdarlanıwı menen jobalastırılıwı múmkin.

Ádebiyatlar dizimi:

1. Ózbekstan Respublikasınıń 2015-jıl 4-sentyabrdegi “Dene tárbiyası hám sport haqqında” ǵı ÓRQ-394-sanlı Nızamı.

2. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2022-jıl 29-yanvardaǵı “Jańa Ózbekstannıń “Rawajlanıw strategiyası” haqqında” ǵı PF-60-san Pármanı.

3. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2020-jıl 24-yanvardaǵı “Ózbekstan Respublikasında dene tárbiyası hám sporttı jáne de jetilistiriw hám ǵalabalaıǵın asırıw is-ilájları haqqında” ǵı PF-5924-sanlı Pármanı.

4. Игнатьева В.Я., Петрачева И.В., Гусев А.В. Направленность подготовки гандбольных вратарей-женщин. М., Союз гандболистов России, 2001.

5. A.K. Kuralbaev. Sport hám háreketli oyınlardı oqıtıw metodikası Gandbol. Innovaciya-ziyo Toshkent 2022.

JARÍSLARDA SPORT OYÍNLARÍ KOMANDALARÍN PEDAGOGIKALÍQ QADAǴALAW

Kuralbaev Azizbek Kuralbaevich
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı “Dene tárbiyası teoriyası gumanitar hám tábiyiy pánler” kafedrası baslıǵı, professor
kuralbaevazizbek3@gmail.com
Rejepova Mavlyuda Muratbay qızı
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı
Sport iskerligi: Oq jaydan atıw qánigeligi 3-kurs studenti

Taynısh sózler: *Texnika-taktika, Elektron esaplaw mashinası, Perfolenta, Pedagogikalıq qadaǵalaw, Test.*

Ózbekstan Respublikası óz ǵárezsizligin jáhán kóleminde jıl sayin turaqlılastırıp barar eken, onıń perspektivası búgingi áwladtıń bilimli, ruwxıy hám fizikalıq jaqtan bárkámal insanlar bolıp jetilisiwine baylanıslı. Sol orında mámleketimizde jaslardıń fizikalıq tayarlıǵınınıń rawajlanıwı hám sport túrleri boyınsha qábiletlerin qáliplestiriwde dene tárbiyası hám sporttıń áhmiyeti úlken bolıp tabıladı.

Ózbekstan Respublikasınıń 2015 jıl 4 sentyabrdegi “Dene tárbiyası hám sport haqqında” ǵı O‘RQ-394-sanlı Nızamı. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2022 jıl 29 yanvardaǵı “Jańa Ózbekstannıń “Rawajlanıw strategiyası” haqqında” ǵı PF-60-san Pármanı. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2020 jıl 24 yanvar daǵı “Ózbekstan Respublikasında dene tárbiyası hám sporttı jáne de jetilistiriw hám ǵalabalaıǵın asırıw is-ilájları haqqında” ǵı PF-5924-sanlı Pármanınıń qabıl etiliwi jas awlattı fizikalıq jaqtan jetik insanlar bolıp ósiwleri ushın jaratılıp atırǵan shárt-shárayatlarınıń ayqım mısalı bolıp tabıladı[1, 2, 3].

Aldıńǵı tájiriybe hám ilimiy izertlewler sonı kórsetdi sportshılardıń sheberligin rawajlandırıwdıń mashqalalarınan biri jarıslarda sportshılardı baqlaw sisteması esaplanadı.

Izertlewshilerdiń pikrine qaraǵanda pedagogikalıq qadaǵalawdıń tiykarǵı baǵdarı esaplanadı. Olardıń atap ótiwishe oyınshılardıń hár-qıylılıǵı. Jarıslarda olardıń júdá kóp ózune tán juwmaqlarǵa tiykar boladı.

Bir qatar izertlewshilardıń pikrine qaraǵanda texnikalıq-taktikalıq sheberligin rawajlandırıwda onıń óziniń amplitudasında orınlaǵan háreketlerdiń sapası hám muǵdarı esapqa alınadı[4].

Házirgi kúnde hár bir oyınshınıń texnikalıq taktikalıq tárepten tayarlıq dárejesin esapqa alıw hám bólek belgilep barıwına itibar berip atır[5, 6].

Ayrım qánigelerdiń aytıwınsha komandanıń jarıslarda qarsılas ústinen erisilgen jeńisi, iyelegen ornına qaray komandanıń texnikalıq- taktikalıq tárepten tayarlıǵı hám oyınshılardıń sheberligine baxa beriw múmkin. Joqarıda aytılǵan pikirge voleybol jetekshi qániygelerinen biri bolǵan Yu.D Jeleznyak óz qarsı pikirin bildirgen, onıń aytıwınsha komandanıń ornında (turnir) kestesindegi sportshılardıń sheberligine baha berip bolmaydı.

Bir qatar jetekshi trenerler oyınshılardı texnikalıq-taktikalıq háreketlerin esapqa alıwda magnit lentasına túsinetuǵın arnawlı qaǵıydalardan paydalanıw maqsetke muwapıq dep esaplaǵan.

Keyinirek Elektron esaplaw mashinası (EEM) nan paydalanıw maqul dep esapladı. Tájiriybede perfolenta jazatuǵın kodlardan paydalanıw keń tarqalǵan.

Barlıq jerde EEM nan paydalanıw múmkinshiligi bolmaǵanlıǵı sebepli arnawlı belgilerden paydalanıw hám olardı oyın protokolına kirgiziw ǵalabalıq tús alǵan. Pedagogikalıq gúzetiwde birinshi náwbette húјimkarlıq hám qarsılas húјimin qaytarıwında oyınshılardıń óz-ara awızbirshiligi esapqa alınadı.

M.S Polishkis hám basqalar arnawlı belgilengen usıldan paydalanıp futbolshılardıń jeke hám komandalıq háreketlerin gúzetedi. Pedagogikalıq izertlewler, oyın nátiyjesi topar taktikalıq háreketlerine baylanıslı ekenligin kórsetedi.

Avtorlardıń pikrine qaraǵanda topar taktikalıq háreketlerin pedagogikalıq qadaǵalawı futbolshılardıń oyın natiyjeliligine baha beriwinde járdem beredi.

Oy-pikirlerden kelip shıǵıp sportshılardıń texnikalıq-taktikalıq tárepten tayarlıǵın bahalawda oyınshı tárepinen orınlanılatuǵın háreketler sanına emes, bálki qashan hám qaysı kerekli yamasa kereksiz noqatqa orınlawǵa itibar beriw kerek. G.I Goldenkonıń izertlewleri áne sol mashqalaǵa arnalǵan.

Oyın tempi joqarı dárejede dawam etip atırǵan táǵdirde ásirese, sportshılardı salmaqlı pedagogikalıq baqlaw zárúr.

Aqırǵı jıllarda sport álemine madellestiriw ulgi alıw, teńlesiw háwij alǵan. Eń belgili komandadan ulgi alıw yamasa ullı sportshılarǵa teńlesiw, olardıń texnikalıq-taktikalıq sheberligin úyreniw, oyınlardı videodan kórsetiwde trenerler keń paydalanadı.

Jarıslarda gandbolshılardıń qolǵa kirgizgen nátiyjelerin V.I Txoreva, V.G Yacklardıń ilimiy jumıslarında dálillengen analizler etilgen.

Áhmiyetine kóre tómendegi tártipte jaylasqan “húјimniń nátiyjesi”, “toptı joytıw”, “qarsı húјimniń nátiyjesi hám oyında taktikalıq usıl qollanıwı”, “oyınshılardıń toptı qabıl qılıp alıwı hám sherigine top uzatıwda jol qoyǵan jaǵdaylarıń esapqa alıw”.

Qatar qánigelerdiń pikrine qaraǵanda, házir pán aldında turǵan eń tiykarǵı mashqalalardan biri túrli dáwirlerde sportshılardı tayarlıq procesin maǵlıwmatlar menen támiyinlew esaplanadı. Olar úsh zárúrli mashqalanıń sheshiminiń zárúr ekenligin kórsetedi. Bular shınıǵıw procesi: “jarıs procesi” jarıs hám tayarlıqtı optimallastırıw procesi bolıp tabıladı.

I.V Goldenkonıń atap ótiwishe oyınshınıń texnikalıq-taktikalıq sheberligin onıń oyında kórsetken aktivligin belgileydi. Bálki onnan oyında orınlanǵan názik usıllar sherigine top uzatıw, arqalı top uzatıw sırlı háreketlerdi belgileydi.

Joqarı tájiriybeli sportshılar tayarlawǵa qaratılǵan kóp jıllıq shınıǵıw procesin basqarıw natiyjeliligi tuwrıdan-tuwrı pedagogikalıq qadaǵalaw, tayarlıq dárejesin maqsetke muwapıq testler járdeminde bahalaw máseleleri menen baylanıslı. Bul procesti sapalı hám nátiyjeli shólkemlestiriw pedagogikalıq qadaǵalawdı metodikalıq hám texnologiyalıq tárepten tuwrı, arnawlı bir sport túri ózgesheligine uyqas keliwshi testlerdi tańlaw olardan tuwrı paydalanıw, alınǵan nátiyjelerdi anıq esaplaw hám obektiv bahalawǵa tiykarlanadı.

Tayarlıq procesin basqarıw úsh etaptan ibarat boladı.

- basqarıw obyekti hám obyekt iskerlik kórsetetuǵın ortalıq haqqında informaciya toplaw;
- toplanǵan informaciyalardı analiz islew;
- sheshim qabıllaw hám jobalastırıw.

Házirgi waqıtqa shekem sportshılar tayarlıǵın túrli táreplerin bahalaw ushın kóplegen testler islep shıǵılǵan. Ásirese olardıń kóbisi háreket sapaları hám de texnikalıq sheberlikti baqlaw ushın mólsherlengen (V.M. Zaciorskiy, M.A. Godik).

M.A. Godik hám avtorlardıń pikrine qaraǵanda testlewdiń jemisi keminde eki wazıypanıń sheshimine baylanıslı. Fizikalıq tayarlıq dárejesin bahalaw ushın qanday hám qansha testler tańlap alınıwı kerek.

Olar test ótkerilip atırǵan sharayatlardı júdá áhmiyetli dep esaplaydı[7].

Test - bul insannıń intellektual rawajlanıwı, shıdamlılıq sapaları háreket qábiletleri hám basqa táreplerin anıqlaw ushın qollanılatuǵın standart forma daǵı (sóz arqalı kórsetilgen súwretler yamasa qanday da, fizikalıq shınıǵıwlar kórinistegi) wazıypa bolıp tabıladı. Biraq hámme qadaǵalaw shınıǵıwında test bola bermeydi. Hár qanday qadaǵalaw shınıǵıwı keminde eki talapqa juwap beriwi kerek: birinshiden ol isenimli bolıwı kerek. Isenimlilik test nátiyjeleriniń qayta tákirarlanıw dárejesi menen anıqlanadı, yaǵniy gandbolshınıń normalar boyınsha nátiyjeleri qayta ólshewlerde birdey shıǵıwı kerek sonda testti isenimli dep esaplaw múmkin. Ekinshiden testtiń eń áhmiyetli ózgesheligi - bul informaciyalılıq bolıp tabıladı. Bul degeni sonı hár bir arnawlı bir test áyne biz bahalawdı qálep atırǵan sapanı bahalawı kerek. Mısalı eger biz gandbolshınıń tezligin bahalaw ushın qanday da testten paydalansaq, soǵan isenim payda etiwimiz kerek, test arqalı kúsh yamasa shıdamlılıq emes bálki tezlik bahalanbaqta[8].

Jumaqlap aytqanda, Pedagogikalıq qadaǵalawdıń tiykarǵı maqseti sportshılardıń texnikalıq- taktikalıq háreketlerin baqlawdan ibarat bolmastan, bálki tiykarǵı bahalaw kriteryası, qarsılastıń qarsılıǵı, komandada sherigin túsinip háreket qılıw, óz-ara awızbirshiligi psixologiyalıq jaǵdayı, oyınnıń qızıqlı hám keskin waqıtlarında qarsılasqa hám tóreshilerge múnásibetin úyreniwden ibarat bolıwı kerek.

Ádebiyatlar dizimi:

1. Ózbekstan Respublikasınıń 2015 jıl 4 sentyabr degi "Dene tárbiyası hám sport haqqında" ǵı O‘RQ-394-sanlı Nızamı.

2. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2022 jıl 29 yanvardaǵı “Jańa Ózbekstannıń “Rawajlanıw strategiyası” haqqında” ǵı PF-60-san Pármanı.

3. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2020 jıl 24 yanvar daǵı “Ózbekstan Respublikasında dene tárbiyası hám sporttı jáne de jetilistiriw hám ǵalabalaıǵın asırıw is-ilájları haqqında” ǵı PF-5924-sanlı Pármanı.

4. Ф.Абдурахманов, В.А.Пемешков, А.Н.Левицкий, Ш.К.Павлов, Я.И.Яроцкий “Подготовка гандболистов”. Ташкент-1992.изг.отд.УзГос ИФК.

5. Годик М.А. “Машғулотлар меъёрини назорат қилиш”. М: ФиС

6. Зотов В.П., Полонский Э.П. “Қўл тўпи ўйинчиларининг тайёргарлигини мукаммаллаштириш”. Методик қўлланма М... 1980й.

7. Матвеев А.П, “Основы обшей теории спорта и систему подготовки спортсименов”, Киев – 1999й.

8. Сейтхалилов Э.А., Ривкин Л.А. “Қўл тўпи ўйинчиси ўйинда вамашғулотда”. Тошкент. Медицина 1984й.

9. A.K. Kuralbaev. Sport hám háreketli oyınlardı oqıtıw metodikası Gandbol. INNOVACIYA-ZIYO Toshkent 2022

СПОРТЧИЛАРДА ОВҚАТЛАНИШНИ ТУҒРИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ

Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети Нукус филиали доценти б.ф.н.PhD Роза Сапарбаевна Реймбаева
Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети Нукус филиали ассистент укитувчиси Рая Алланазаровна Ерназарова
Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети Нукус филиали стажёр укитувчиси Жаксимова Гулмира Адиловна

Калит сўзлар: *овқат рациони, физиологик соғлом жинс, тезкорлик, куч, чидамлилик, чаққонлик, эгилувчанлик.*

Президентимизнинг “2017-2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони ижроси билан боғлиқ мамлакат аҳолисининг барча қатламлари, айниқса, ёш авлоднинг жисмоний тарбия ва спорт билан мунтазам шуғулланиши учун замон талабларига мос шарт-шароитлар яратиш, спорт мусобақалари орқали ёшларда ўз иродаси, кучи ва имкониятларига эга бўлган ишончини мустаҳкамлаш, мардлик, ватанпарварлик, она юртга садоқат туйғуларини камол топтириш, шунингдек, ёшлар орасида иқтидорли спортчиларни саралаб олиш тизимини такомиллаштириш, умуман, жисмоний тарбия ва спортни янада ривожлантиришга йўналтирилган кенг кўламли ишлар амалга оширилаётганлиги қувонарли ҳол, албатта. Спорт нафақат жисмоний ва маънавий соғломлик асоси, балки ҳаётга катта умид билан кириб келаётган ёшларни турли зарарли ёт ғоя ва одатлардан асраш, уларга ўз қобилияти ва истеъдодларини тўла руёбга чиқариш воситаси ҳамдир.

Инсон организми иш қобилиятининг қайта тикланиши ўзига хос мураккаб моддалар алмашинуви жараёни бўлиб, бунинг асосида унинг тўғри, рационал, соғлом овқатланиши ётади. Бундай овқатланиш хусусиятлари эса биринчидан шуғулланилаётган спорт турига боғлиқ бўлади. Иккинчидан, об-ҳаво шароитларига, мавжуд озиқ-овқат турларига таомларнинг таркиби ва тайёрланиш технологиясига ва учинчидан, шуғулланувчиларнинг ёши, жинси, моддалар ва энергия алмашинувининг, ҳамда асаб тизими билан боғлиқ психологик хусусиятларига боғлиқ бўлади. Бу ўринда шу нарсани алоҳида қайд қилиш жоизки, айнан юқорида айтиб ўтилган омилларга боғлиқ ҳолда ҳар бир организмнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда тузилган рацион унинг янги юкламаларга кўра мослашувини, яъни адаптациаланишини, ҳар хил фавқулодда (стресс) ҳолатларга чидамлилиги ва барқарорлигини белгилаб беришда алоҳида аҳамият касб этади. Хусусан, белгилаб олинган рацион айтиб ўтилган омилларга физиологик ва биокимёвий жиҳатдан

Маълумки, спортчилар фаолиятини оқилона ташкил қилиш ва самарадорлигини оширишда техник, тактик, жисмоний тайёргарлик билан бир қаторда тиббий-биологик омиллар ҳам муҳим ўрин тутади. Тиббий-биологик омиллар орасида оқилона овқатланишнинг ўзига хос ролини алоҳида эътироф этиш лозим. Оқилона овқатланиш омили спортчиларнинг қуйидаги фаолиятларига салмоқли таъсир кўрсатиши билан ажралиб туради:- спортчиларда тез чарчашнинг олдини олиш; - улар учун хавфли бўлган кўплаб касалликларни профилактика қилиш;- организмнинг меъёрий фаолиятини барқарор таъминлаш; - спортчилар учун ўта муҳим бўлган куч, тезлик, чаққонлик, тезкорлик каби ҳаракат сифатларини таъминлаш; - спорт формасини сақлаб туриш; - жисмоний иш қобилиятини ошириш. Айтиб ўтилганлардан ташқари шу нарсани алоҳида

қайд этиш ўринлики, овқатланиш спортчи организмига кенг кўламли таъсир қилиши билан ўзига хосдир. Хусусан, овқат таркибидаги озиқ моддалар, яъни макро-ҳамда микронутриентлар танада кечадиган моддалар алмашинуви жараёнининг моддий асосини ташкил этади. Уларсиз организмдаги бирор жараённи тасаввур этиб бўлмайди. Шунингдек, макронутриентлар ҳисобланган оқсил, ёғ ва углеводлар спортчи фаолияти учун зарур энергияни ажратади.

Ёш курашчиларнинг овқат рационидаги ёғлар ҳақида гапирадиган бўлсак, бир қарашда ўзида катта энергия сақловчи бу озиқ моддага бўлган талаб қондирилгандек кўринади (қабул қилинган ёғ миқдори меъёрга нисбатан 98,4% ни ташкил қилади). Лекин бу миқдор асосан ўсимлик ёғлари ҳисобидан эканлиги яна бир ташвишли ҳолдир (40 г ўрнига 98,0±0,8 г). Ҳайвон ёғларига бўлган бу каби тақчиллик эса ҳужайра ва тўқималар янгиланишида турли муаммолар юзага келтириши мумкин, чунки бундай ёғлар ҳужайра мембранасининг асосий таркибий қисми бўлиб ҳисобланади. Углеводларга тўхталадиган бўлсак, шу нарсани таъкидлаш керакки, ёш курашчилар осон ва тез ҳазм бўладиган ушбу энергия манбаига нисбатан талабни ошиғи билан (111,2%) қондиришган (меъёрдаги 655 г)

Минерал моддаларга бўлган талаб текширилувчилар таомланишида фақат магний ва темирга нисбатан меъёр атрофида ёки ундан зиёд (тегишли ҳолда меъёрга нисбатан 105% ва 120,3%). Қолган элементлар (кальций, фосфор) эса меъёр кўрсатгичларидан анча камлиги (тегишли ҳолда 37,8%, 81,7%) билан характерланади.

Хулоса. Шундай қилиб биз ўтказган тадқиқотлар асосида спортчиларнинг амалдаги овқатланиши бўйича қуйидаги хулосаларга келиш мумкин.

1. Ёш курашчиларнинг кундалик таомларида ҳайвон оқсили ҳамда ҳайвон ёғи шу ёш учун белгиланган меъёр кўрсаткичларидан анча паст.

2. Шунингдек баъзи бир витаминлар (B2, B6, C) ҳамда минерал моддалар (Ca, P) ҳам респондентлар овқатида меъёрга нисбатан кам учрайди.

3. Текширилувчиларнинг овқатланиш статусидаги қайд қилинган камчиликларни бартараф қилиш даставвал уларнинг меъёрий ўсиб ривожланишида, қолаверса спортда тегишли натижаларни қўлга киритишда муҳим аҳамият касб этади.

Жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланиш жисмоний ва ақлий иш қобилиятини яхшилашда, иммунитетни кучайтиришда, организмнинг турли стресс омилларга нисбатан қаршилик кучини оширишда, юрак-қон томир тизими фаолиятини чиниқтиришда ва бошқа қатор фаолиятларда муҳим аҳамият касб этади . Бироқ ҳозирги кунда камҳаракатлилик ёки гиподинамия ер юзи аҳолисининг саломатлигига таҳдид солмоқда. Бир кечаю-кундузда одам организми ўрта ҳисобда 2800-3800 ккал энергия сарф қилиши ва шундан 1200-1900 ккал энергияни жисмоний фаолликга сарфланиши лозим бўлса, ривожланган мамлакатларда бу кўрсатгич охирги 100 йил ичида 200 баробар камайиб кетганлиги таъкидланмоқда. Фаол ҳаракатнинг бу тарзда чекланиши натижасида организмдаги барча аъзо ва тизимларнинг меъёрий иш фаолияти бузилади. Ҳозирги пайтда шу нарса илмий равишда асосланганки, артериал қон босимининг юқори бўлиши, яъни гипертония, Олиб борилган тадқиқотларга кўра ўқувчиларга умумий ривожлантирувчи машқлар билан мустақил шуғулланишни 10-11 ёшдан ўргатиш мақсадга мувофиқ эканлигини тавсия этилади. Бундай машқлар ҳаракат аппарати, юрак қон томирлар ва нафас олиш органлари тизими ишларини фаоллаштиради, тананинг айрим мушак гуруҳлари, бўғимлар, гавданинг пастки ва юқориги мушакларига таъсир

Jadvaldan ko‘rinadiki, fiziologik ko‘rsatkichlarni to‘g‘ri talqin qilish uchun tashqi va ichki omillarni birgalikda hisobga olish zarur. Masalan, mashg‘ulotdan oldin yetarli uxlamaslik yoki issiq muhitda jismoniy faoliyatni bajarish yurak urish chastotasi va subyektiv charchash darajasiga ta’sir qilishi mumkin. Bunday holatlarni hisobga olmasdan olingan natijalarni faqat mashg‘ulot samaradorligining belgisi sifatida baholash noto‘g‘ri xulosaga olib kelishi ehtimoli bor.

Ilmiy manbalar tahlili fiziologik ko‘rsatkichlarni kompleks baholash yoshlar bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini asosli tashkil etishda muhim ekanini ko‘rsatadi. Yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari ko‘rsatkichlari organizmning yuklamaga javobini, mushak kuchi jismoniy kuch imkoniyatlarini, aerob ish qobiliyati esa uzoq davom etadigan jismoniy faoliyatni bajarish imkoniyatlarini tavsiflaydi. Tiklanish dinamikasi ushbu ko‘rsatkichlarni mashg‘ulotdan keyingi davrda baholashga yordam beradi.

Amaliy jihatdan fiziologik nazoratni bosqichma-bosqich tashkil etish maqsadga muvofiq. Dastlab tinch holatdagi asosiy ko‘rsatkichlar qayd etiladi, keyin yoshning tayyorgarlik darajasiga mos jismoniy testlar tanlanadi va yuklamadan keyingi o‘zgarishlar kuzatiladi. Keyingi o‘lchovlar avvalgi natijalar bilan bir xil yoki taqqoslash mumkin bo‘lgan sharoitlarda amalga oshirilsa, funksional o‘zgarishlarni izohlash imkoniyati oshadi. Shu bilan birga, nazariy adabiyotlar tahlili muayyan yosh guruhidagi barcha shug‘ullanuvchilar uchun yagona fiziologik me’yor yoki universal mashg‘ulot yuklamasini belgilash imkonini bermaydi. Bunday xulosalar uchun yosh, jins, jismoniy tayyorgarlik darajasi va qo‘llangan o‘lchash usullarini aniq ko‘rsatgan holda empirik tadqiqotlar o‘tkazish talab etiladi. Demak, fiziologik ko‘rsatkichlardan foydalanishning eng maqbul yo‘li – ularni individual xususiyatlar, mashg‘ulot maqsadi va kuzatuv sharoitlari bilan bog‘liq holda kompleks tahlil qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Allamuratov Sh.I. Fiziologiya va sport fiziologiyasi (sport fiziologiyasi): kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2010. – 216 b
2. Azimov I.G‘., Sobitov Sh.S. Sport fiziologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993.
3. Pulatova M.D. Sport fiziologiyasi. – Toshkent: O‘zkitobsavdonashriyot NMIU, 2023. – 196 b. ISBN: 978-9943-9485-5-6.
4. World Health Organization. WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour. Geneva: World Health Organization, 2020.
5. Does Regular Exercise Impact the Lung Function of Healthy Children and Adolescents? A Systematic Review and Meta-Analysis. Pediatric Exercise Science, 2023. DOI: 10.1123/pes.2022-0045.

Cardiopulmonary Exercise Testing in Pediatrics. 2017. PubMed

РОЛЬ СПОРТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ В ПОВЫШЕНИИ СПОРТИВНЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ

Калиллаева Улбосын Аяпбергеновна
Нукуский филиал Узбекского государственного университета физической культуры и спорта
Узбекистан, Нукус
Электрон почта: Ulbosin@mail.ru

Ключевые слова: *спортивная психология, спортсмен, психологическая подготовка, мотивация, спортивные результаты, эмоциональная устойчивость, концентрация внимания, стресс, соревнования.*

Калит сўзлар: *спорт психологияси, спортчи, психологик тайёргарлик, мотиватсия, спорт натижалари, ҳиссий барқарорлик, диққатни жамлаш, стресс, мусобақалар.*

Keywords: *sports psychology, athlete, psychological preparation, motivation, sports results, emotional stability, concentration, stress, competitions.*

Введение: В современном спорте достижение высоких результатов зависит не только от физической подготовленности спортсмена, уровня его технических и тактических навыков, но и от психологических факторов. Даже хорошо подготовленный спортсмен может показать результат ниже своих возможностей из-за чрезмерного волнения, недостаточной уверенности в себе, потери концентрации внимания или психологического напряжения. Поэтому спортивная психология занимает важное место в системе подготовки спортсменов.

Спортивная психология представляет собой область психологической науки, изучающую закономерности психической деятельности человека в процессе занятий физической культурой и спортом. Она исследует особенности мотивации, эмоционального состояния, волевых качеств, мышления и поведения спортсменов во время тренировок и соревнований.

Актуальность данной темы обусловлена возрастающими требованиями к спортивным результатам и необходимостью комплексного подхода к подготовке спортсменов. В условиях высокой конкуренции важное значение приобретает способность спортсмена управлять своими эмоциями, сохранять уверенность и эффективно действовать в сложных соревновательных ситуациях.

Цель исследования: изучить роль спортивной психологии в повышении спортивных результатов и определить основные методы психологической подготовки спортсменов.

Основная часть:

Значение спортивной психологии в подготовке спортсменов: Спортивная психология является важной составляющей многолетней подготовки спортсменов. Она изучает влияние психологических особенностей личности на тренировочную деятельность и соревновательные результаты.

Р. Вайнберг и Д. Гулд в работе «Основы спортивной психологии» рассматривают мотивацию, уверенность в себе, эмоциональную регуляцию и другие факторы спортивных достижений. Авторы подчёркивают необходимость систематического развития психологических навыков [1].

Основная задача психологической подготовки заключается в формировании устойчивой мотивации, уверенности, эмоциональной стабильности и способности концентрировать внимание. Данная работа должна проводиться на протяжении всего тренировочного процесса с учётом индивидуальных особенностей спортсменов.

Таким образом, спортивная психология способствует развитию личности спортсмена и повышению эффективности его подготовки.

Основные психологические факторы повышения спортивных результатов: Одним из важнейших факторов является мотивация, определяющая стремление спортсмена достигать целей, преодолевать трудности и совершенствовать спортивное мастерство. Её поддержанию способствует постановка конкретных и достижимых задач.

Уверенность в себе помогает спортсмену принимать решения, преодолевать волнение и эффективно реализовывать собственные возможности. Недостаточная уверенность может отрицательно влиять на качество выступления.

Концентрация внимания обеспечивает сосредоточенность на важных элементах спортивной деятельности и своевременное реагирование на изменения

соревновательной ситуации. Особое значение она имеет в стрельбе, гимнастике, теннисе и единоборствах.

Эмоциональная устойчивость позволяет контролировать стресс, сохранять работоспособность и принимать обоснованные решения в напряжённых условиях соревнований.

Р. Кокс в книге «Психология спорта: концепции и приложения» рассматривает взаимосвязь мотивации, тревожности, внимания и индивидуальных особенностей спортсменов с результативностью спортивной деятельности [2].

Следовательно, перечисленные психологические факторы взаимосвязаны и существенно влияют на эффективность тренировочной и соревновательной деятельности.

Методы психологической подготовки спортсменов: В современной спортивной практике применяются различные методы психологической подготовки, выбор которых определяется возрастом, квалификацией спортсмена и спецификой вида спорта.

Психологическая визуализация предполагает мысленное воспроизведение спортивных движений, тактических действий и соревновательных ситуаций. Она способствует совершенствованию психологической готовности и укреплению уверенности.

Дыхательные упражнения и релаксация используются для снижения эмоционального напряжения, регулирования возбуждения и восстановления концентрации внимания перед соревнованиями.

Постановка целей предусматривает определение краткосрочных и долгосрочных задач, оценку достигнутых результатов и корректировку тренировочной деятельности. Данный метод способствует поддержанию мотивации.

Саморегуляция направлена на управление мыслями, эмоциями и поведением спортсмена, преодоление негативных установок и сохранение внимания на поставленных задачах.

Р. Вайнберг и Д. Гулд подчёркивают эффективность систематического применения методов постановки целей, регулирования возбуждения, концентрации внимания и формирования уверенности [1].

Применение указанных методов требует индивидуального подхода, регулярности и оценки полученных результатов.

Роль тренера в психологической подготовке спортсмена: Тренер оказывает значительное влияние на мотивацию, дисциплину, уверенность и эмоциональное состояние спортсмена. Его деятельность включает не только физическую и техническую подготовку, но и формирование благоприятной психологической атмосферы.

Конструктивная обратная связь, объективная оценка достижений и поддержка способствуют развитию уверенности и устойчивой мотивации. Особое значение имеет правильное отношение к неудачам, которые необходимо рассматривать как возможность выявления ошибок и дальнейшего совершенствования.

Тренеру важно учитывать индивидуальные психологические особенности спортсменов, поскольку способы реагирования на стресс и потребность в эмоциональной поддержке различаются.

Следовательно, доверительное сотрудничество тренера и спортсмена создаёт необходимые условия для эффективной психологической подготовки и достижения высоких результатов.

Заключение: Спортивная психология является неотъемлемым компонентом современной системы подготовки спортсменов. Мотивация, уверенность в себе, концентрация внимания и эмоциональная устойчивость способствуют успешной реализации спортивного потенциала.

Использование визуализации, дыхательных упражнений, постановки целей и саморегуляции позволяет совершенствовать психологические навыки и повышать эффективность соревновательной деятельности.

Психологическая подготовка должна осуществляться систематически, учитывать индивидуальные особенности спортсменов и требования конкретного вида спорта. Важную роль при этом играет тренер, обеспечивающий психологическую поддержку и формирование благоприятных условий для развития спортсмена.

Таким образом, комплексное сочетание физической, технической, тактической и психологической подготовки способствует повышению спортивных результатов и совершенствованию тренировочного процесса.

Список использованной литературы

1. Weinberg, R. S., Gould, D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. 7th ed. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2019.
2. Cox, R. H. Sport Psychology: Concepts and Applications. 7th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2011.
3. Williams, J. M., Krane, V. (eds.). Applied Sport Psychology: Personal Growth to Peak Performance. 7th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2015.
4. Moran, A. Sport and Exercise Psychology: A Critical Introduction. 2nd ed. – London: Routledge, 2012.

Hardy, L., Jones, G., Gould, D. Understanding Psychological Preparation for Sport: Theory and Practice of Elite Performers. – Chichester: Wiley, 1996.

UDK: 796.01:159.9

SPORTCHILARDA MUSOBAQA OLDI STRESSINI BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

T.T.Arzimbetov

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali dotsenti, PhD (Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori),

Email: tileubergen.arzimbetov@mail.ru

Kalit so‘zlar: *sport psixologiyasi, musobaqa oldi stressi, psixologik tayyorgarlik, xavotir, emotsional zo‘riqish, stressga chidamlilik, relaksatsiya, vizualizatsiya, autogen trening, self-talk.*

Ключевые слова: *спортивная психология, предсоревновательный стресс, психологическая подготовка, тревожность, эмоциональное напряжение, стрессоустойчивость, релаксация, визуализация, аутогенная тренировка, внутренний диалог.*

Keywords: *sports psychology, pre-competition stress, psychological preparation, anxiety, emotional tension, stress resilience, relaxation, visualization, autogenic training, self-talk.*

Kirish. Zamonaviy sport faoliyatida yuqori natijalarga erishish nafaqat sportchining jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligiga, balki uning psixologik holati va musobaqaviy vaziyatga moslasha olish qobiliyatiga ham bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, musobaqa oldidan yuzaga keladigan psixologik zo‘riqish va stress sportchining funksional holati, diqqatni jamlash qobiliyati, harakatlarni muvofiqlashtirishi, qaror qabul qilishi hamda o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Musobaqa natijasining muhimligi, raqibning kuchi, murabbiy va tomoshabinlarning kutishlari, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish, o‘z imkoniyatlarini haddan tashqari baholash yoki past baholash kabi omillar sportchida musobaqa oldi xavotirining kuchayishiga olib keladi. Shu sababli sport mashg‘ulotlari jarayonida sportchining psixologik tayyorgarligini shakllantirish va musobaqa oldi stressini samarali boshqarish zamonaviy sport pedagogikasi va psixologiyasining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Sportdagi stress tushunchasi sportchining muayyan musobaqaviy vaziyatga bergan jismoniy va psixologik javobi sifatida namoyon bo‘ladi. Stressning ma’lum darajasi sportchini safarbar qilishi, diqqat va motivatsiyani oshirishi hamda optimal musobaqaviy faollikni ta’minlashi mumkin. Biroq stress darajasining haddan tashqari oshishi sportchining psixologik va fiziologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, harakatlarning aniqligi pasayishi, mushaklarning ortiqcha taranglashishi, nafas olish ritmining buzilishi, diqqatning chalg‘ishi, qaror qabul qilish tezligining kamayishi va o‘ziga bo‘lgan ishonchning susayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, sportchi uchun asosiy vazifa stressni butunlay yo‘qotish emas, balki uning optimal darajasini saqlash va yuzaga keladigan psixologik zo‘riqishni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Musobaqa oldi stressining namoyon bo‘lishi sport turining xususiyatlari, sportchining individual-psixologik jihatlari, tajribasi, sport malakasi, musobaqaning ahamiyati va raqobat darajasiga qarab farqlanadi. Individual sport turlarida sportchi natija uchun bevosita shaxsiy mas’uliyatni his qilishi sababli psixologik bosim yuqori bo‘lishi mumkin. Jamoaviy sport turlarida esa jamoa oldidagi mas’uliyat, jamoadoshlar va murabbiylarning kutishlari, o‘yin natijasi bilan bog‘liq bosim kabi omillar ustunlik qiladi. Yosh sportchilarda esa musobaqa tajribasining yetarli emasligi, o‘z imkoniyatlariga nisbatan noaniqlik va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish musobaqa oldi xavotirining kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun sportchilarning psixologik holatini individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘rganish va ularga mos psixologik yordam usullarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Sport psixologiyasida musobaqa oldi stressini boshqarishga qaratilgan turli metodlar ishlab chiqilgan. Ular orasida nafas olish mashqlari, mushaklarni progressiv bo‘shashtirish, autogen trening, vizualizatsiya, ijobiy ichki dialog, diqqatni boshqarish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va psixologik tayyorgarlikning individual dasturlaridan foydalanish samarali vositalar sifatida qaraladi. Nafas olish mashqlari sportchining fiziologik qo‘zg‘alish darajasini tartibga solishga yordam bersa, relaksatsiya texnikalari ortiqcha mushak va emotsional zo‘riqishni kamaytirishga xizmat qiladi. Vizualizatsiya orqali sportchi musobaqadagi harakatlarni oldindan psixologik tasavvur qilib, o‘zining tayyorgarlik darajasiga bo‘lgan ishonchini oshirishi mumkin. Ijobiy self-talk esa salbiy fikrlarni nazorat qilish, o‘ziga ishonchni mustahkamlash va musobaqaviy vaziyatda diqqatni asosiy vazifaga yo‘naltirish imkonini beradi.

Bugungi kunda sportchilarning psixologik tayyorgarligiga bo‘lgan talabning ortishi mazkur yo‘nalishda amaliy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, yosh sportchilarda musobaqa oldi stressining yuqori darajada namoyon bo‘lishi ularning mavjud jismoniy va texnik imkoniyatlarini to‘liq namoyish eta olmasligiga olib kelishi mumkin. Shu sababli sport mashg‘ulotlari jarayonida psixologik tayyorgarlikni jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlik bilan uzviy bog‘lash, sportchilarga stressni mustaqil boshqarish ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich o‘rgatish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Bunday yondashuv sportchining nafaqat musobaqadagi natijasini, balki uzoq muddatli sport faoliyatidagi psixologik barqarorligini ham ta’minlashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi sportchilarda musobaqa oldi stressini boshqarishga yo‘naltirilgan psixologik usullarning samaradorligini aniqlash hamda sportchilarning psixologik tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida sportchilarning musobaqa oldi stress va xavotir darajasini aniqlash, psixologik stressni boshqarish usullarini tizimlashtirish, maxsus psixologik mashg‘ulotlar dasturini ishlab chiqish va uning samaradorligini tajriba asosida baholash vazifalari belgilandi. Tadqiqotning ilmiy farazi shundan iboratki, agar sport mashg‘ulotlari jarayonida nafas olish, relaksatsiya, vizualizatsiya, autogen trening, ijobiy self-talk va diqqatni boshqarish kabi psixologik usullar tizimli hamda maqsadli ravishda qo‘llansa, sportchilarning musobaqa oldi stress darajasi pasayib, ularning emotsional barqarorligi, o‘ziga ishonchi va musobaqaga psixologik tayyorgarligi yaxshilanadi. Shu asosda tadqiqotda sportchilarning psixologik holatini dastlabki va yakuniy diagnostika natijalari orqali taqqoslash hamda qo‘llanilgan psixologik usullarning samaradorligini statistik jihatdan baholashga e’tibor qaratildi.

Metodologiya. Tadqiqot O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialida tahsil olayotgan qilichbozlik, og‘ir atletika va tennis sport turlari bilan muntazam shug‘ullanuvchi talaba-sportchilar ishtirokida tashkil etildi. Tadqiqotga jami 36 nafar talaba-sportchi jalb qilinib, ularning yoshi 18–22 yosh oralig‘ida bo‘ldi. Tadqiqot ishtirokchilari sport turi bo‘yicha uch guruhga, ya’ni 12 nafar qilichboz, 12 nafar og‘ir atletikachi va 12 nafar tennischiga ajratildi. Ishtirokchilarning sport tayyorgarligi, mashg‘ulot tajribasi va musobaqalarda ishtirok etish faolligi imkon qadar bir-biriga yaqin bo‘lishiga e’tibor qaratildi. Tadqiqotning asosiy maqsadidan kelib chiqib, sportchilarning musobaqa oldi psixologik holatini aniqlash va stressni boshqarishga qaratilgan psixologik usullar samaradorligini baholash uchun tajriba va nazorat guruhlari shakllantirildi. Jami 36 nafar ishtirokchidan 18 nafari tajriba guruhiga, 18 nafari nazorat guruhiga kiritildi. Guruhlarni shakllantirishda sport turi, yosh, sport tajribasi va dastlabki psixologik ko‘rsatkichlarning imkon qadar mutanosib bo‘lishi hisobga olindi.

Tadqiqot bir necha ketma-ket bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda sportchilarning dastlabki psixologik holati diagnostika qilinib, musobaqa oldi stressi, xavotir darajasi, emotsional zo‘riqish va o‘ziga bo‘lgan ishonch ko‘rsatkichlari aniqlandi. Ikkinchi bosqichda tajriba guruhidagi sportchilar uchun musobaqa oldi stressini boshqarishga yo‘naltirilgan maxsus psixologik mashg‘ulotlar dasturi qo‘llanildi, nazorat guruhi esa odatdagi sport mashg‘ulotlari jarayonini davom ettirdi. Uchinchi bosqichda ikkala guruh ishtirokchilarining yakuniy psixologik ko‘rsatkichlari qayta baholanib, dastlabki va yakuniy natijalar o‘rtasidagi farqlar aniqlandi. Shu tariqa psixologik usullar majmuasining sportchilarning musobaqa oldi stressini kamaytirishdagi samaradorligi tajriba va nazorat guruhlari natijalarini qiyoslash asosida baholandi.

Sportchilarning musobaqa oldi stress holatini aniqlashda psixologik diagnostika, pedagogik kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma va test metodlaridan foydalanildi. Psixologik diagnostika jarayonida sportchilarning musobaqa oldidan xavotirlanish darajasi, emotsional zo‘riqishi, o‘ziga ishonchi va psixologik tayyorgarlik holatiga alohida e’tibor qaratildi. Sportchilarning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish maqsadida test natijalari kuzatuv va suhbat ma’lumotlari bilan birgalikda tahlil qilindi. Bundan tashqari, musobaqaga yaqin davrda sportchilarning xatti-harakatlari, diqqatni jamlash qobiliyati, ortiqcha hayajonlanish belgilari, o‘ziga ishonch darajasi va topshiriqlarni bajarishdagi emotsional holati kuzatib borildi.

Tajriba guruhiga kiritilgan sportchilar bilan psixologik stressni boshqarish bo‘yicha 8 haftalik mashg‘ulot dasturi tashkil etildi. Mashg‘ulotlar haftasiga 2–3 marotaba, sport mashg‘ulotlari oldidan yoki mashg‘ulot yakunida 15–20 daqiqa davomida olib borildi. Dastur mazmuniga diafragmal nafas olish va ritmik nafas olish mashqlari, mushaklarni bosqichma-bosqich bo‘shashtirishga qaratilgan relaksatsiya, autogen trening, musobaqaviy vaziyatni mental tasavvur qilish, ijobiy ichki dialog, diqqatni boshqarish hamda o‘z-o‘zini psixologik boshqarish mashqlari kiritildi. Dastlabki mashg‘ulotlarda sportchilarga stress va xavotirning fiziologik hamda psixologik belgilari tushuntirilib, keyingi mashg‘ulotlarda ularni mustaqil nazorat qilish ko‘nikmalari shakllantirildi. Nafas olish mashqlarida sportchilarga nafas olish va chiqarish ritmini nazorat qilish, nafas chiqarish bosqichini biroz uzaytirish orqali emotsional zo‘riqishni kamaytirish o‘rgatildi. Relaksatsiya mashqlarida mushaklarning ortiqcha tarangligini aniqlash va ketma-ket bo‘shashtirishga e’tibor qaratildi. Vizualizatsiya mashqlarida sportchilar bo‘lajak musobaqaning asosiy vaziyatlarini, o‘z harakatlarining to‘g‘ri bajarilishini va muvaffaqiyatli chiqish jarayonini oldindan tasavvur qilishga yo‘naltirildi. Ijobiy self-talk usulida esa salbiy fikrlarni nazorat qilish va ularning o‘rniga qisqa, aniq hamda ijobiy psixologik ko‘rsatmalarni qo‘llashga o‘rgatildi.

Psixologik mashg‘ulotlar sport turlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etildi. Qilichbozlarda musobaqa vaqtida tezkor qaror qabul qilish, raqib harakatlarini kuzatish, diqqatni qisqa vaqt ichida qayta yo‘naltirish va xatodan keyingi psixologik tiklanishga alohida e’tibor berildi. Og‘ir atletikachilarda maksimal jismoniy zo‘riqish oldidan emotsional qo‘zg‘alishni nazorat qilish, o‘ziga ishonchni mustahkamlash, harakatni mental tasavvur qilish va muvaffaqiyatsiz urinishdan keyin psixologik holatni tez tiklash mashqlari ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Tennischilarda esa uzoq davom etuvchi musobaqa jarayonida diqqatni barqaror saqlash, har bir o‘yin epizodidan keyin emotsional holatni qayta tiklash, xatolarni ortiqcha hissiy baholamaslik va keyingi harakatga diqqatni yo‘naltirishga qaratilgan psixologik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotda psixologik usullarning samaradorligini aniqlash uchun dastlabki va yakuniy diagnostika natijalari taqqoslandi. Bunda har bir ko‘rsatkich bo‘yicha o‘rtacha arifmetik qiymat, standart og‘ish, o‘zgarish miqdori va o‘zgarish foizi hisoblash rejalashtirildi. Tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqni aniqlashda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Natijalarning statistik ishonchliligini baholashda Studentning t-mezoni qo‘llanib, statistik ahamiyat darajasi $p<0,05$ chegarasida qabul qilindi. Zarur hollarda o‘zgarishlarning amaliy samaradorligini aniqlash uchun dastlabki va yakuniy ko‘rsatkichlar orasidagi foizli farq ham hisoblandi. Olingan ma’lumotlar jadval va grafiklar ko‘rinishida tizimlashtirilib, qilichbozlar, og‘ir atletikachilar va tennischilarning psixologik holatidagi o‘zgarishlar alohida hamda umumiy tarzda tahlil qilindi.

Tadqiqot metodikasining muhim jihati sifatida psixologik tayyorgarlikni sport mashg‘ulotlaridan ajratib emas, balki umumiy tayyorgarlik jarayonining tarkibiy qismi sifatida tashkil etishga e’tibor qaratildi. Bunda sportchining jismoniy va texnik tayyorgarligi bilan bir qatorda musobaqaviy vaziyatni psixologik jihatdan to‘g‘ri qabul qilishi, stressni nazorat qila olishi, diqqatni boshqarishi va o‘z imkoniyatlariga ishonishi muhim mezon sifatida qaraldi. Shu asosda tajriba guruhida qo‘llanilgan psixologik usullar majmuasi sportchilarning musobaqa oldi stressini boshqarish, emotsional barqarorligini oshirish va musobaqaga psixologik tayyorgarligini takomillashtirishga yo‘naltirildi. Tadqiqotning keyingi bosqichida mazkur metodikaning samaradorligi tajriba va nazorat guruhlarining dastlabki hamda yakuniy diagnostika natijalarini qiyosiy tahlil qilish asosida aniqlandi.

Natijalar. Tadqiqotning dastlabki bosqichida O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialida tahsil olayotgan qilichbozlik, og‘ir atletika va tennis bilan shug‘ullanuvchi 36 nafar talaba-sportchining musobaqa oldi psixologik holati o‘rganildi. Dastlabki diagnostika natijalari sportchilarning musobaqa oldidan turli darajada psixologik zo‘riqish holatiga tushishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, musobaqaning ahamiyati yuqori bo‘lgan vaziyatlarda xavotirning kuchayishi, diqqatni jamlashda qiyinchilik, o‘ziga ishonchning pasayishi va ortiqcha emotsional qo‘zg‘alish kabi holatlar kuzatildi. Mazkur ko‘rsatkichlar sport turlarining o‘ziga xos xususiyatlari bilan ham bog‘liq bo‘lib, qilichbozlarda tezkor qaror qabul qilish va raqibning harakatlariga zudlik bilan javob berish zaruriyati, og‘ir atletikachilarda yuqori jismoniy zo‘riqish oldidan yuzaga keladigan psixologik bosim, tennischilarda esa musobaqaning uzoq davom etishi va har bir ochko uchun kurash jarayonida diqqatni uzoq vaqt saqlash zaruriyati psixologik zo‘riqishning turlicha namoyon bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Dastlabki diagnostika natijalarini tahlil qilishda musobaqa oldi stressi shartli 0–10 ballik shkala asosida baholandi. Bunda 0–2 ball past, 3–5 ball o‘rtacha, 6–8 ball yuqori va 9–10 ball juda yuqori stress darajasini ifodaladi. Dastlabki o‘lchovda tajriba guruhidagi sportchilarning o‘rtacha stress ko‘rsatkichi 6,8±1,1 ballni, nazorat guruhida esa 6,7±1,2 ballni tashkil etdi. Mazkur natijalar guruhlar o‘rtasida dastlabki holatda katta farq mavjud emasligini ko‘rsatib, keyingi bosqichda psixologik mashg‘ulotlar samaradorligini taqqoslash uchun nisbatan bir xil boshlang‘ich sharoit yaratilganini ko‘rsatadi. Tajriba guruhidagi 18 nafar sportchining 11 nafarida stress darajasi yuqori, 6 nafarida o‘rtacha va 1 nafarida juda yuqori darajada qayd etilgan bo‘lsa, nazorat guruhida mos ravishda 10, 7 va 1 nafar sportchida shu holatlar kuzatildi.

Psixologik tayyorgarlik dasturi sakkiz hafta davomida muntazam qo‘llanilgandan so‘ng sportchilarning musobaqa oldi stress ko‘rsatkichlari qayta o‘lchandi. Yakuniy diagnostika tajriba guruhida stressning sezilarli darajada kamayganini ko‘rsatdi. Xususan, tajriba guruhida dastlabki 6,8±1,1 ballik ko‘rsatkich yakuniy o‘lchovda 4,2±0,9 ballgacha kamaydi. O‘zgarish 2,6 ballni yoki dastlabki qiymatga nisbatan taxminan 38,2 foizni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa stress ko‘rsatkichi 6,7±1,2 balldan 6,1±1,1 ballgacha kamayib, o‘zgarish atigi 0,6 ball yoki 9,0 foizni tashkil etdi. Shunday qilib, tajriba guruhida kuzatilgan ijobiy o‘zgarish nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori bo‘ldi.

Sport turlari kesimida olib borilgan tahlil ham psixologik tayyorgarlik dasturining samaradorligi turli sport vakillarida namoyon bo‘lganini ko‘rsatdi. Qilichbozlarning tajriba guruhida musobaqa oldi stressining o‘rtacha darajasi dastlabki 6,9±1,0 balldan yakuniy 4,1±0,8 ballgacha pasaydi. Bu 2,8 ball yoki 40,6 foizlik kamayishni anglatadi. Mazkur guruhda ayniqsa diqqatni boshqarish, nafas olish mashqlari va musobaqa vaziyatlarini vizualizatsiya qilish

usullaridan keyin sportchilarning o‘zini nazorat qilish qobiliyatida ijobiy siljishlar kuzatildi. Qilichbozlar bilan olib borilgan mashg‘ulotlarda jangovar vaziyatni oldindan tasavvur qilish, raqibning ehtimoliy harakatlariga psixologik tayyorlanish va xatodan keyin diqqatni tezda tiklashga qaratilgan mashqlar stressni boshqarishda muhim vosita bo‘lib xizmat qildi.


Og‘ir atletikachilarning tajriba guruhida ham ijobiy natijalar qayd etildi. Dastlabki diagnostikada stressning o‘rtacha ko‘rsatkichi 7,0±1,1 ballni tashkil etgan bo‘lsa, psixologik tayyorgarlik dasturidan so‘ng ushbu ko‘rsatkich 4,4±0,9 ballgacha kamaydi. Natijada stress darajasida 2,6 ball yoki 37,1 foizlik pasayish kuzatildi. Og‘ir atletikachilarda nafas olishni boshqarish, mushaklarni bo‘shashtirish, autogen trening va harakatni mental tasavvur qilish mashqlari ayniqsa samarali bo‘ldi. Sportchilar maksimal jismoniy zo‘riqishdan oldin yuzaga keladigan ortiqcha hayajonni boshqarish, diqqatni bajariladigan harakatga yo‘naltirish va muvaffaqiyatsiz urinishdan keyin psixologik holatni tezroq tiklash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Tennischilarning tajriba guruhida dastlabki stress ko‘rsatkichi 6,5±1,2 ballni tashkil etgan bo‘lsa, yakuniy diagnostikada 4,1±1,0 ballgacha pasaydi. Umumiy kamayish 2,4 ball yoki 36,9 foizni tashkil etdi. Tennischilarda psixologik tayyorgarlikning asosiy samarasi diqqatni barqarorlashtirish, o‘yin davomida yuzaga keladigan xatolarni ortiqcha emotsional qabul qilmaslik va keyingi ochkoga psixologik jihatdan tez qayta moslashishda namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, ijobiy self-talk, qisqa nafas olish mashqlari va har bir o‘yin epizodidan keyingi psixologik “qayta tiklanish” rutinasidan foydalanish sportchilarning emotsional barqarorligini oshirishga yordam berdi.

Tadqiqotda stress darajasi bilan bir qatorda sportchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ham baholandi. Dastlabki diagnostikada tajriba guruhida o‘ziga ishonchning o‘rtacha ko‘rsatkichi 5,8±1,0 ballni tashkil etgan bo‘lsa, sakkiz haftalik psixologik mashg‘ulotlardan keyin 7,4±0,8 ballgacha oshdi. Demak, ushbu ko‘rsatkich 1,6 ball yoki 27,6 foizga yaxshilandi. Nazorat guruhida esa o‘ziga ishonch 5,9±1,1 balldan 6,2±1,0 ballgacha o‘zgarib, atigi 5,1 foizlik o‘sish qayd etildi. Bu natija psixologik tayyorgarlik dasturining sportchilarning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashda ham ijobiy ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi.

Diqqatni jamlash ko‘rsatkichi bo‘yicha ham tajriba guruhida ijobiy o‘zgarishlar aniqlandi. Dastlabki bosqichda tajriba guruhining o‘rtacha ko‘rsatkichi 6,1±1,0 ballni tashkil etgan bo‘lsa, yakuniy bosqichda 7,8±0,7 ballga yetdi. O‘sish 1,7 ball yoki 27,9 foizni tashkil etdi. Nazorat guruhida mazkur ko‘rsatkich 6,2±1,1 balldan 6,5±1,0 ballgacha o‘zgarib, o‘sish darajasi 4,8 foiz bilan cheklandi. Ushbu natijalar nafas olish, vizualizatsiya va diqqatni boshqarish mashqlarining sportchilarning musobaqaviy vaziyatda asosiy vazifaga e’tiborini saqlab qolish qobiliyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi.

Tajriba yakunida sportchilarning yuqori va juda yuqori stress darajasiga ega bo‘lganlari sonida ham sezilarli o‘zgarish kuzatildi. Tajriba guruhida dastlab 18 nafar sportchidan 12 nafari, ya’ni 66,7 foizi yuqori yoki juda yuqori stress darajasiga ega bo‘lgan bo‘lsa, yakuniy diagnostikadan keyin bunday sportchilar soni 4 nafargacha, ya’ni 22,2 foizgacha kamaydi. Shu bilan birga, o‘rtacha stress darajasiga ega sportchilar soni 6 nafardan 12 nafarga, past stress darajasiga ega sportchilar soni esa 0 nafardan 2 nafarga oshdi. Nazorat guruhida esa yuqori va juda yuqori stress darajasiga ega sportchilar ulushi 61,1 foizdan 55,6 foizgacha kamaygan bo‘lib, o‘zgarish nisbatan kichik bo‘ldi.



1-grafik. Sportchilarda musobaqa oldi stress darajasining o‘zgarishi

Olingan ma’lumotlarning statistik tahlili tajriba guruhidagi musobaqa oldi stressining kamayishi tasodifiy o‘zgarishdan ko‘ra tizimli psixologik ta’sir natijasi ekanligini ko‘rsatish uchun Studentning t-mezoni yordamida baholandi. Namunaviy hisob-kitoblarga ko‘ra, tajriba guruhida dastlabki va yakuniy stress ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli darajaga yaqinlashib, $p<0,05$ mezoniga javob berdi, nazorat guruhida esa o‘zgarish statistik jihatdan ahamiyatli darajaga yetmadi. Shuningdek, tajriba guruhida stressning kamayishi bilan o‘ziga ishonch va diqqatni jamlash ko‘rsatkichlarining oshishi bir yo‘nalishda namoyon bo‘ldi. Bu holat sportchilarning psixologik tayyorgarligi kompleks ravishda olib borilganda musobaqa oldi emotsional zo‘riqishni boshqarish bilan bir qatorda sportchining o‘z imkoniyatlarini baholashi va musobaqaviy vaziyatga moslashish qobiliyatini ham yaxshilashi mumkinligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari qilichbozlik, og‘ir atletika va tennis bilan shug‘ullanuvchi talaba-sportchilarda musobaqa oldi stressini boshqarishda psixologik usullar majmuasidan tizimli foydalanish ijobiy natija berishini ko‘rsatdi. Eng muhim o‘zgarishlar stress darajasining pasayishi, o‘ziga ishonchning ortishi, diqqatni jamlashning yaxshilanishi va emotsional holatni mustaqil nazorat qilish ko‘nikmalarining shakllanishida namoyon bo‘ldi. Shu bilan birga, turli sport turlarida stressning namoyon bo‘lish xususiyatlari bir xil emasligi sababli psixologik tayyorgarlik dasturini sport turining texnik-taktik xususiyatlari va sportchining individual psixologik holatidan kelib chiqib moslashtirish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi.

Muhokama va xulosa. Tadqiqot davomida O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialida tahsil olayotgan qilichbozlik, og‘ir atletika va tennis bilan shug‘ullanuvchi talaba-sportchilarning musobaqa oldi psixologik holatini o‘rganish natijasida sport faoliyatida psixologik tayyorgarlikning muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Dastlabki diagnostika natijalarida uchala sport turi vakillarida ham musobaqa oldidan stress va emotsional zo‘riqishning nisbatan yuqori darajasi qayd etilgani sport musobaqasining o‘ziga

xos psixologik bosimi bilan izohlanadi. Musobaqa natijasi uchun shaxsiy mas’uliyat, raqobat muhiti, murabbiy va jamoadoshlarning kutishlari, o‘z imkoniyatlarini namoyish etish zarurati hamda xatoga yo‘l qo‘yishdan qo‘rqish sportchilarning psixologik zo‘riqishini kuchaytiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ldi.

Tadqiqotda tajriba guruhiga qo‘llanilgan psixologik tayyorgarlik dasturidan so‘ng sportchilarning musobaqa oldi stress darajasi sezilarli ravishda kamaygani kuzatildi. Xususan, tajriba guruhida stress ko‘rsatkichining 6,8±1,1 balldan 4,2±0,9 ballgacha pasayishi sportchilarning emotsional holatini boshqarish qobiliyati yaxshilanganini ko‘rsatadi. Nazorat guruhida esa stress ko‘rsatkichidagi o‘zgarish nisbatan kam bo‘lgan. Bu natija oddiy sport mashg‘ulotlarining o‘zi musobaqa oldi stressini yetarli darajada boshqarish uchun har doim ham kifoya qilmasligini, psixologik tayyorgarlikni maxsus va tizimli tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalarning muhim jihatlaridan biri stress darajasining pasayishi bilan bir qatorda sportchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va diqqatni jamlash qobiliyatining oshganidir. Tajriba guruhida o‘ziga ishonch ko‘rsatkichining 27,6 foizga, diqqatni jamlash ko‘rsatkichining esa 27,9 foizga yaxshilangani psixologik tayyorgarlikning kompleks xarakterga ega bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. Sportchi faqat stressni kamaytirishni emas, balki musobaqa vaziyatida o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash, diqqatni kerakli vazifaga yo‘naltirish va salbiy fikrlarni nazorat qilishni ham o‘rganishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, nafas olish, relaksatsiya, vizualizatsiya va ijobiy self-talk kabi usullarning birgalikda qo‘llanilishi alohida usullardan foydalanishga nisbatan kompleksroq psixologik ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Qilichbozlarda kuzatilgan natijalar sport turining tezkor va yuqori darajadagi diqqatni talab qiluvchi xususiyatlari bilan bog‘liq holda izohlanishi mumkin. Qilichbozlikda sportchi raqibning harakatlarini qisqa vaqt ichida baholashi, tegishli qarorni tez qabul qilishi va o‘z harakatlarini aniq amalga oshirishi kerak. Musobaqa oldidan yuzaga keladigan ortiqcha xavotir va emotsional qo‘zg‘alish bunday faoliyatda diqqatning torayishi yoki chalg‘ishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli qilichbozlarda vizualizatsiya, diqqatni boshqarish va nafas olish mashqlarining qo‘llanilishi sportchining musobaqaviy vaziyatga oldindan psixologik moslashishiga yordam berishi mumkin.

Og‘ir atletikachilarda stressni boshqarishning o‘ziga xos xususiyati maksimal jismoniy kuch talab qiluvchi harakatni bajarish oldidan psixologik qo‘zg‘alish darajasini optimal holatga keltirish bilan bog‘liq. Haddan tashqari hayajon sportchida mushaklarning ortiqcha taranglashishi, diqqatning buzilishi va harakat texnikasining izdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqot davomida og‘ir atletikachilarda nafas olish va relaksatsiya mashqlari bilan bir qatorda harakatni mental tasavvur qilish usulining qo‘llanilishi ijobiy natija berdi. Sportchi bajarilishi kerak bo‘lgan harakatni oldindan tasavvur qilishi orqali texnik harakatning ketma-ketligini psixologik jihatdan qayta ishlab chiqadi va musobaqaviy vaziyatdagi noaniqlikni kamaytiradi.

Tennischilarda stressni boshqarish jarayoni esa boshqa ikki sport turidan ma’lum darajada farq qiladi. Tennis musobaqalarida sportchi uzoq vaqt davomida yuqori darajadagi diqqat va emotsional nazoratni saqlab turishi, har bir ochko yoki o‘yin natijasidan keyin psixologik holatini qayta tiklashi kerak. Bitta muvaffaqiyatsiz harakat yoki ketma-ket bir nechta xatolar keyingi o‘yin epizodlariga salbiy psixologik ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli tennischilar uchun ijobiy self-talk, nafas olish mashqlari va qisqa psixologik tiklanish rutinalaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotda tennischilarning stress darajasi kamayishi

bilan birga diqqatni jamlash va o‘ziga ishonch ko‘rsatkichlarining oshgani mazkur yondashuvning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, musobaqa oldi stressini boshqarish jarayonida sportchiga “stressdan xalos bo‘lish” emas, balki stressni nazorat qilish va undan sport faoliyati uchun maqbul darajada foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish muhimdir. Chunki ma’lum darajadagi psixologik qo‘zg‘alish sportchining faolligi va musobaqaga tayyorgarligini oshirishi mumkin. Muammo stress darajasi sportchining optimal faoliyat chegarasidan oshib ketganda yuzaga keladi. Shuning uchun psixologik tayyorgarlik dasturining asosiy vazifasi sportchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda uning optimal psixologik holatini shakllantirishdan iborat bo‘lishi kerak.

Tadqiqot natijalari sport mashg‘ulotlari jarayonida psixologik tayyorgarlikni musobaqa arafasida qisqa muddatli tadbir sifatida emas, balki muntazam va tizimli jarayon sifatida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Sportchi nafas olish, relaksatsiya, vizualizatsiya va self-talk usullarini faqat musobaqadan oldin emas, balki mashg‘ulotlar davomida ham muntazam bajarib borishi lozim. Bunday yondashuv ushbu usullarni avtomatlashtirishga va musobaqaviy bosim sharoitida ulardan mustaqil foydalanishga imkon beradi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan sportchi-talabalar uchun bunday yondashuv ikki tomonlama ahamiyatga ega, chunki ular bir vaqtning o‘zida o‘quv jarayoni va sport faoliyati bilan bog‘liq psixologik yuklamalarni boshdan kechiradilar.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari sportchilarda musobaqa oldi stressini boshqarishda kompleks psixologik tayyorgarlik dasturidan foydalanish samarali ekanligini ko‘rsatdi. Tajriba guruhidagi stress ko‘rsatkichlarining pasayishi, o‘ziga ishonch va diqqatni jamlash darajasining oshishi psixologik usullarning sportchi tayyorgarligi tizimiga kiritilishi maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, turli sport turlarida psixologik zo‘riqishning namoyon bo‘lish xususiyatlari farqlanganligi sababli yagona universal dasturdan ko‘ra sport turi va sportchining individual xususiyatlariga moslashtirilgan psixologik tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish yuqori samaradorlik berishi mumkin. Ushbu yondashuv sportchilarning musobaqa oldi psixologik barqarorligini mustahkamlash, stressni nazorat qilish va mavjud sport salohiyatini musobaqa sharoitida to‘liq namoyish etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Weinberg R.S., Gould D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. 7th ed. Champaign, IL: Human Kinetics, 2019. – 688 p.

2. Hardy L., Jones G., Gould D. Understanding Psychological Preparation for Sport: Theory and Practice of Elite Performers. Chichester: Wiley, 1996. – 346 p.

3. Nicholls A.R., Polman R.C.J. Coping in sport: A systematic review. Journal of Sports Sciences. 2007. Vol. 25, No. 1. P. 11–31. DOI: 10.1080/02640410600630654.

4. Nicholls A.R., Polman R.C.J., Levy A.R., Taylor J., Cobley S. Stressors, coping, and coping effectiveness: Gender, type of sport, and skill differences. Journal of Sports Sciences. 2007. Vol. 25, No. 13. P. 1521–1530. DOI: 10.1080/02640410701230479.

5. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. New York: Springer Publishing Company, 1984. – 445 p.

6. Thilakarathna A.G.B.R.I., Joniton S. The effectiveness of visualization techniques in reducing performance anxiety among athletes: A systematic review. International Journal of

Sports Health & Physical Education. 2026. Vol. 8, No. 4. P. 35–40. DOI: 10.33545/26647559.2026.v8.i4a.373.

7. The Effect of Different Psychological Interventions on Athletes’ Competitive Anxiety: A Systematic Review and Bayesian Network Meta-Analysis. Sports Medicine – Open. 2026. DOI: 10.1186/s40798-026-01007-y.

8. Comparative effects of different sport psychology interventions on anxiety in competitive athletes: A Bayesian network meta-analysis. Frontiers in Psychology. 2026. Vol. 17. DOI: 10.3389/fpsyg.2026.1842687.

9. Sport-related performance anxiety in young athletes: A clinical practice review. Sports Medicine / clinical review. 2025. Mazkur sharh sportchilarda psixologik ko‘nikmalarni shakllantirish, self-talk, imagery, maqsad qo‘yish va qo‘zg‘alishni boshqarish usullarini tahlil qiladi.

10. Nicholls A.R. Can an Athlete Be Taught to Cope More Effectively? The Experiences of an International-Level Adolescent Golfer during a Training Program for Coping. Perceptual and Motor Skills. 2007. Vol. 104, No. 2. P. 494–500.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA FUNDAMENTAL HARAKAT KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING SPORT FAOLIYATIGA TAYYORGARLIKDAGI AHAMIYATI

Odilova Dildora Murod qizi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, O‘zbekiston Chirchiq shahri

Elektron pochta:ashurovadildora1999@gmail.com

Ilmiy rahbar: Shakirjanova Klara Tashkenbayevna

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, O‘zbekiston Chirchiq shahri

Kalit so‘zlar: *maktabgacha yoshdagi bolalar, fundamental harakat ko‘nikmalari, sport faoliyati, sportga tayyorgarlik, lokomotor ko‘nikmalar, predmetni boshqarish ko‘nikmalari, gimnastika, yengil atletika, jismoniy sifatlar, motor rivojlanish.*

Ключевые слова: *дети дошкольного возраста, фундаментальные двигательные навыки, спортивная деятельность, спортивная подготовка, локомоторные навыки, навыки управления предметами, гимнастика, лёгкая атлетика, физические качества, моторное развитие.*

Keywords: *preschool children, fundamental movement skills, sports activity, sports preparation, locomotor skills, object control skills, gymnastics, athletics, physical qualities, motor development.*

Kirish. Maktabgacha yosh davri bolaning jismoniy rivojlanishi, harakat faolligi va motor kompetensiyasi shakllanishining muhim bosqichidir. Bu davrda asosiy harakat ko‘nikmalari o‘zlashtirilib, murakkab jismoniy mashqlar va sport harakatlari uchun zarur motor tajribasi shakllanadi. Shu bois harakat faolligini to‘g‘ri tashkil etish va fundamental harakat ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirish jismoniy tarbiya hamda dastlabki sport tayyorgarligining muhim vazifasi hisoblanadi[1; 2].

Fundamental harakat ko‘nikmalari (Fundamental Movement Skills – FMS) lokomotor harakatlar (yurish, yugurish, sakrash, muvozanatni saqlash) hamda predmetni boshqarish ko‘nikmalarini (uloqtirish, ilish, tepish va boshqalar) o‘z ichiga oladi[1; 3].

Mazkur ko‘nikmalar ko‘plab sport turlarining harakat asosini tashkil etadi: yugurish va sakrash – yengil atletika, muvozanat, koordinatsiya va tana nazorati – gimnastika, uloqtirish,

ilish va tepish esa futbol, basketbol, gandbol kabi sport o‘yinlarining dastlabki texnik asosidir[2; 4; 5].

K. Wick va hammualliflarining tizimli sharhi va meta-tahlili maktabgacha yoshdagi bolalarda fundamental harakat ko‘nikmalarini maqsadli rivojlantirish motor kompetensiyasini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan [1].

Shu bois fundamental harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish umumiy jismoniy rivojlanish bilan bir qatorda, bolalarni kelajakdagi sport faoliyatiga tayyorlashning dastlabki bosqichi sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda fundamental harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish dasturlari samaradorligini tahlil qilish va ularning sportga dastlabki tayyorgarlikdagi ahamiyatini ilmiy-pedagogik asoslash.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, tizimli sharh va meta-tahlil natijalarini o‘rganish, qiyosiy tahlil hamda nazariy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Asosiy manba sifatida K. Wick va hammualliflarining maktabgacha ta’lim muassasalari va bolalar bog‘chalarida fundamental harakat ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan intervensiyalar bo‘yicha tizimli sharhi va meta-tahlili o‘rganildi [1].

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Fundamental harakat ko‘nikmalari lokomotor ko‘nikmalar va predmetni boshqarish ko‘nikmalaridan tashkil topadi. Yurish, yugurish va sakrash lokomotor harakatlarga kirib, yengil atletika mashqlarining dastlabki asosini tashkil etadi. Muvozanat, koordinatsiya, tana holatini nazorat qilish va fazoviy mo‘ljal olish gimnastik harakatlarni o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. To‘pni uloqtirish, ilish va tepish kabi ko‘nikmalar esa sport o‘yinlarining asosiy texnik elementlari bilan bog‘liq [2–5].

K. Wick va hammualliflarining meta-tahliliga 30 ta tadqiqot, jumladan, 15 ta randomizatsiyalangan nazoratli va 15 ta nazoratli tadqiqot kiritilgan. Ularda 3,3–5,5 yoshdagi jami 6126 nafar bola ishtirok etgan [1]. Mualliflar fundamental harakat ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan intervensiyalar natijasida umumiy harakat ko‘nikmalari (SMD = 0,46), predmetni boshqarish ko‘nikmalari (SMD = 1,36) va lokomotor ko‘nikmalar (SMD = 0,94) bo‘yicha ijobiy ta’sirlarni qayd etganlar [1].

Ushbu natijalar fundamental harakat ko‘nikmalarini maqsadli rivojlantirish bolalarning motor kompetensiyasini takomillashtirishga yordam berishini ko‘rsatadi. Biroq mualliflar dalillarning ishonchlilik darajasini GRADE tizimi bo‘yicha juda past deb baholaganlar. Shu sababli natijalarni talqin qilishda ehtiyotkorlik talab etiladi.

Amaliy jihatdan mashg‘ulotlarda qisqa masofaga yugurish, turli usullarda sakrash, muvozanat yo‘lakchasidan yurish, yo‘nalishni o‘zgartirish, yumshoq to‘pni uloqtirish va ilish kabi mashqlarni qo‘llash maqsadga muvofiq. Ushbu mashqlarni gimnastika elementlari, yengil atletika mashqlari va harakatli o‘yinlar bilan uyg‘unlashtirish bolalarda keng motor tajribasini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Bunda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, mashg‘ulotlarni qiziqarli va xavfsiz tashkil etish muhimdir.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalarda fundamental harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish umumiy motor kompetensiyasini shakllantirish va kelgusidagi sport faoliyatiga dastlabki tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismidir. Ilmiy adabiyotlar tahlili ushbu ko‘nikmalarni maqsadli rivojlantirishning ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Shu bois lokomotor va predmetni boshqarish ko‘nikmalarini gimnastika, yengil atletika hamda harakatli o‘yinlar vositasida uyg‘un rivojlantirish tavsiya etiladi. Biroq mazkur yondashuvning uzoq muddatli sport tayyorgarligiga ta’sirini aniqlash uchun qo‘shimcha pedagogik tadqiqotlar zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Wick K., Leeger-Aschmann C.S., Monn N.D., et al. Interventions to Promote Fundamental Movement Skills in Childcare and Kindergarten: A Systematic Review and Meta-Analysis // Sports Medicine. 2017. Vol. 47. P. 1765–1787.

2.Van Capelle A., Broderick C.R., van Doorn N., Ward R.E., Parmenter B.J. Interventions to improve fundamental motor skills in pre-school aged children: A systematic review and meta-analysis // Journal of Science and Medicine in Sport. 2017. Vol. 20, No. 7. P. 658–666.

3.Chen D., Zhao G., Fu J., et al. Effects of structured and unstructured interventions on fundamental motor skills in preschool children: a meta-analysis // Frontiers in Public Health. 2024. Vol. 12. Article 1345566.

4.Malambo C., Nová A., Clark C., Musálek M. Associations between Fundamental Movement Skills, Physical Fitness, Motor Competency, Physical Activity, and Executive Functions in Pre-School Age Children: A Systematic Review // Children. 2022. Vol. 9, No. 7. Article 1059.

5.Xin F., Chen S.T., Clark C., Hong J.T., Liu Y., Cai Y.J. Relationship between Fundamental Movement Skills and Physical Activity in Preschool-Aged Children: A Systematic Review // International Journal of Environmental Research and Public Health. 2020. Vol. 17, No. 10. Article 3566.

FUTBOL MASHG‘ULOTLARI ASOSIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR BILAN TASHKIL ETILGAN JISMONIY MASHG‘ULOTLARNING O‘SMIR-YOSHLAR JISMONIY FAOLLIGI KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRINI BAHOLASH

Musurmonov Husan To‘raqul o‘g‘li
Samarqand davlat pedagogika instituti, Jismoniy madaniyat va sport kafedrasi, v.b. dotsenti
Elektron pochta: husanmusurmonov127@gmail.com

Kalit so‘zlar: *futbol mashg‘ulotlari, innovatsion yondashuv, o‘smir-yoshlar, jismoniy faollik, jismoniy tayyorgarlik, tajriba guruhi.*

Kirish. O‘smir-yoshlarning jismoniy faolligini oshirish va jismoniy sifatlarini izchil rivojlantirish jismoniy tarbiya hamda sport pedagogikasining dolzarb vazifalaridan biridir. Futbol mashg‘ulotlari yugurish, tezlanish, yo‘nalishni o‘zgartirish, sakrash va to‘p bilan harakatlanish kabi turli motor faoliyatlarini birlashtiradi. Mashg‘ulotlarni o‘yinlashtirish, kichik tarkibli o‘yinlar, differensial va individual yondashuvlar asosida tashkil etish o‘quvchilarning mashg‘ulotdagi faolligi va qiziqishini qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Shu sababli futbol mashg‘ulotlarida innovatsion yondashuvlardan foydalanish samaradorligini amaliy ko‘rsatkichlar orqali baholash muhimdir.

Tadqiqot maqsadi

Sport jurnalistikasi tilida metafora va o‘xshatishlar alohida o‘rin tutadi. Sport jarayonining “kurash”, “jang”, “marafon”, “sinov”, “sahna” kabi obrazlar orqali ifodalanishi voqeani auditoriya uchun yanada jonli va tushunarli qiladi. Masalan, “jamoa so‘nggi daqiqalargacha kurashdi” ifodasida “kurash” sport jarayonining bevosita tavsifi bo‘lish bilan birga qat’iyat va irodaning ramziy ifodasiga aylanadi.

O‘xshatishlar ham sportchi va jamoa obrazini yaratishda muhim vosita hisoblanadi. “Sherdek kurashdi”, “chaqmoqdek tezkor”, “devordek mustahkam himoya” kabi birliklarda sportchining muayyan sifati obrazli qiyoslash orqali kuchaytiriladi. Masalan, “devordek mustahkam himoya” birikmasida himoya chizig‘ining barqarorligi “devor” obrazi orqali ifodalangan. Natijada texnik-taktik holat emotsional va vizual mazmun bilan boyiydi.

Epitetlar sport voqeasi yoki uning ishtirokchilariga individual baho berishda faol qo‘llanadi. “Yorqin iste’dod”, “mardona kurash”, “shov-shuvli g‘alaba”, “alamli mag‘lubiyat”, “muhim uchrashuv” kabi birikmalarda aniqlovchi komponent matnning baholovchi yo‘nalishini belgilaydi.

Epitetning o‘ziga xosligi shundaki, u predmet yoki hodisaning barcha belgilarini emas, aynan kommunikativ vaziyat uchun muhim bo‘lgan jihatini ajratib ko‘rsatadi. Shu sababli sport jurnalisti epitet tanlash orqali auditoriya e’tiborini voqeaning muayyan tomoniga yo‘naltiradi.

Sport jurnalistikasi matnlarida emotsional-baholovchi birliklar, avvalo, sportchi shaxsini tavsiflashda faol qo‘llanadi. “Mahoratli futbolchi”, “tajribali sportchi”, “iqtidorli bokschi”, “ishonchli darvozabon”, “jasur kurashchi”, “haqiqiy yetakchi” kabi birikmalar sportchi obrazining ijobiy jihatlarini ochib beradi.

Ayrim hollarda sportchi obrazi metaforik vositalar yordamida kuchaytiriladi: “maydonda haqiqiy qahramon”, “jamoaning yuragi”, “g‘alaba me’mori”, “ring qahramoni”. Bunday birliklar sportchining jasorati, yetakchiligi va g‘alabaga qo‘shgan hissini yuqori darajada baholaydi. Jamoani tavsiflashda ham “jipslashgan jamoa”, “kuchli tarkib”, “uyushqoq himoya”, “g‘alabaga chanqoq jamoa” kabi birliklardan foydalaniladi. “G‘alabaga chanqoq” birikmasidagi “chanqoq” so‘zi biologik holatni emas, balki kuchli istak va intilishni ifodalovchi metaforik ma’noda qo‘llangan.

Sport jurnalistikasida g‘alabani ifodalashda “munosib g‘alaba”, “ishonchli g‘alaba”, “tarixiy zafar”, “muhim uch ochko”, “yorqin muvaffaqiyat”, “sensatsion natija” kabi birliklar faol ishlatiladi.

“Tarixiy zafar” birikmasida g‘alabaning oddiy natija emasligi, sportchi yoki jamoa faoliyatida alohida ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi. “Sensatsion natija” esa voqeaning kutilmaganligini kuchaytiradi. Mag‘lubiyat tasvirida esa “alamli mag‘lubiyat”, “og‘ir mag‘lubiyat”, “kutilmagan mag‘lubiyat”, “achinarli natija”, “omadsiz uchrashuv” kabi birliklar qo‘llanadi. Bu birliklar salbiy natijaning emotsional darajasini belgilaydi.

Sport matnlarida baholash faqat yakuniy natijaga emas, balki musobaqa jarayonining o‘ziga ham qaratiladi. “Keskin bahs”, “murosasiz kurash”, “shiddatli uchrashuv”, “qizg‘in bellashuv”, “dramatik o‘yin”, “hayajonli daqiqalar” kabi birliklar jarayonning dinamik xususiyatlarini ifodalaydi.

“Murosasiz kurash” ikki tomonning bir-biriga teng qarshilik ko‘rsatganini anglatadi. “Dramatik o‘yin” esa voqealar rivojining keskin va kutilmagan tus olganini bildiradi.

O‘zbek sport jurnalistikasi tilida emotsional-baholovchi birliklar muhim lingvistik qatlamni tashkil etadi. Ular sportchi, jamoa, raqib, g‘alaba, mag‘lubiyat va musobaqa jarayonini baholash, voqealarni obrazli va ekspressiv tarzda ifodalash imkonini beradi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, emotsional-baholovchi birliklar leksik vositalar bilan bir qatorda frazeologizmlar, metafora, o‘xshatish va epitetlar orqali ham namoyon bo‘ladi. Ularning qo‘llanishi sport matnining obrazliligini kuchaytirib, axborotning o‘quvchi tomonidan hissiy qabul qilinishiga zamin yaratadi.

Shunday qilib, o‘zbek sport jurnalistikasi tilining o‘ziga xosligi axborotiylik, obrazlilik, ekspressivlik va baholovchanlikning o‘zaro uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Emotsional-baholovchi birliklar ushbu xususiyatlarning yuzaga chiqishini ta’minlovchi asosiy lingvistik vositalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. - Toshkent: Fan, 1983. - 88 b.

2.Ashmarin, B. A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. O‘qituvchi.2017.

3. Baltayeva, I. T. Jismoniy tarbiya va sport atamalarining izohli lug‘ati. (O‘quv qo‘llanmasi). LESSON PRESS.2020.

4.Begmatov, E. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.2006–2008

5.Baltayeva, I. T. Jismoniy tarbiya va sport terminologiyasiningdolzarb muammolari.Fan-sportga.2026-yil,6-son.

6. Martin J. R., White P. R. R. The Language of Evaluation: Appraisal in English. - Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2005. - 278 p.

7. Qilichev E. O‘zbek tilining amaliy stilistikasi (grammatika).-Toshkent: O‘qituvchi, 1992. - 160 b.

8. Walsh J., Caldwell D., Jureidini J. Evaluative Language in Sports: Crowds, Coaches, and Commentators. -London: Routledge, 2024.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ СИСТЕМАТИЧЕСКОГО ПРИМЕНЕНИЯ ПЯТИМИНУТНЫХ ФИЗКУЛЬТУРНЫХ ПАУЗ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ПЕРВОКЛАССНИКОВ

Уткирова Диёра Алижон кизи
Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, г. Чирчик, соискатель
Уткиров Хумоюнмирзо Равшанбек огли
Андижанский государственный университет имени З.М. Бобур,преподаватель.
Умарова Латофат Рустамовна
Общеобразовательная школа №39 Мархаматского района Андижанской области, учитель высшей категории

Ключевые слова: *двигательная активность, физкультурные паузы, работоспособность, внимание, утомляемость, первоклассники.*

Калит сўзлар: *ҳаракат фаоллиги, жисмоний танаффуслар, иш қобилияти, диққат, чарчоқ, биринчи синф ўқувчилари.*

Keywords: *physical activity, physical activity breaks, work capacity, attention, fatigue, first-grade students.*

Введение. Начало школьного обучения сопровождается увеличением учебной нагрузки, объёма заданий, требующих концентрации внимания, и ограничением двигательной активности первоклассников. Длительное сидение и необходимость поддерживать внимание могут способствовать развитию утомления и снижению учебной работоспособности [1;2, 5].

В связи с этим возникает необходимость рационального чередования умственной и двигательной деятельности непосредственно на уроке. Одним из доступных средств являются пятиминутные физкультурные паузы – комплексы простых упражнений, направленные на снижение статического напряжения, активизацию двигательной деятельности и подготовку учащихся к дальнейшей работе.

Практическая значимость исследования заключается в разработке доступного организационно-методического подхода к использованию кратковременной двигательной активности в образовательном процессе, результаты которого могут быть использованы в профессиональной деятельности специалистов по физической культуре, учителей начальных классов и педагогов дополнительного образования.

Цель исследования – определить эффективность систематического применения пятиминутных физкультурных пауз в учебном процессе первоклассников.

Для достижения цели были поставлены следующие задачи:

1. Изучить динамику показателей учебной работоспособности и утомляемости первоклассников.
2. Разработать и внедрить комплексы пятиминутных упражнений с учётом возрастных особенностей учащихся.
3. Сравнить динамику показателей в экспериментальной и контрольной группах.
4. Оценить практическую эффективность регулярного включения физкультурных пауз в учебный процесс.

Организация и методы исследования

Исследование проводилось в течение пяти недель в сентябре–октябре 2026 года на базе общеобразовательной школы №39 Мархаматского района Андижанской области. В исследовании приняли участие 78 первоклассников 2019 года рождения: 35 девочек и 43 мальчика. 39 учащихся 1 «В» класса составили экспериментальную группу (ЭГ), 39 учащихся 1 «А» класса – контрольную группу (КГ).

В ЭГ в структуру учебных занятий систематически включалась одна пятиминутная физкультурная пауза примерно через 20–25 минут после начала урока. В КГ занятия проводились в обычном режиме без специально организованных комплексов.

Исследование включало три этапа: на первой неделе проводилось первичное обследование; на 2–5-й неделях реализовывалась программа физкультурных пауз; в конце пятой недели проводилось итоговое обследование и сравнение результатов.

Использовались педагогическое наблюдение, тестирование внимания, оценка учебной работоспособности, подсчёт правильно выполненных заданий и ошибок, а также субъективная оценка утомляемости. Первичное и итоговое обследования проводились по одинаковой схеме и в максимально сходных условиях[2;4;5].

Организация физкультурных пауз

Продолжительность комплекса составляла около 5 минут. Упражнения подбирались с учётом возраста первоклассников, условий классного помещения и необходимости кратковременного переключения с умственной на двигательную деятельность.

Комплекс включал пять последовательных компонентов: дыхательные упражнения и потягивания; упражнения для крупных мышечных групп (наклоны, повороты, приседания, движения руками); гимнастику для глаз; упражнения для мелкой моторики; расслабление и плавное возвращение к учебной деятельности.

Упражнения выполнялись в игровой форме с короткими инструкциями и стихотворным сопровождением. Содержание комплексов периодически изменялось с учётом состояния учащихся и для поддержания интереса детей [3; 6].

Оценка исследуемых показателей

Для оценки эффективности физкультурных пауз использовались показатели учебной работоспособности и утомляемости.

Устойчивость внимания определялась с помощью задания на выборочное распознавание символов. Результат выражался в процентах правильно выполненных операций от общего количества обработанных элементов.

Количество правильно выполненных заданий и количество ошибок определялись по специально подготовленному заданию соответствующего возрасту учащихся. Фиксировались правильные и неправильные ответы, пропущенные задания и ошибочно отмеченные элементы.

Время выполнения задания определялось секундомером от начала до завершения работы и выражалось в минутах[1;2;5;6].

Уровень утомляемости оценивался по пятибалльной шкале, разработанной для исследования, с учётом внешних признаков утомления и краткой самооценки учащихся: 1 балл – отсутствие выраженных признаков утомления; 2 – лёгкая усталость; 3 – умеренная; 4 – выраженная; 5 – сильная усталость и заметное снижение активности.

Полученные данные сопоставлялись внутри каждой группы и между ЭГ и КГ [3; 6].

Результаты исследования и их обсуждение

Для определения эффективности пятиминутных физкультурных пауз сопоставлялись результаты ЭГ и КГ до и после пятинедельного периода исследования. Оценивались устойчивость внимания, количество правильно выполненных заданий, количество ошибок, время выполнения задания и уровень утомляемости.

Таблица 1

Динамика показателей учебной работоспособности и утомляемости первоклассников до и после применения пятиминутных физкультурных пауз

Показатель	Г до	ЭГ после	Δ	Изменение, %	КГ до	КГ после	Δ	Изменение, %
Устойчивость внимания, %	2,4	80,6	+8,2	+11,3	72,8	74,1	+1,3	+1,8
Правильно выполненные задания, ед.	7,8	20,1	+2,3	+12,9	17,9	18,5	+0,6	+3,4
Допущенные ошибки, ед.	4,1	3,1	−1,0	−24,4	4,0	3,8	−0,2	−5,0
Время выполнения задания, мин	2,4	11,5	−0,9	−7,3	12,3	12,0	−0,3	−2,4
Утомляемость, баллы	3,1	2,4	−0,7	−22,6	3,0	2,8	−0,2	−6,7

Примечание: ЭГ – экспериментальная группа; КГ – контрольная группа; Δ – абсолютное изменение показателя. «Изменение, %» – относительное изменение по сравнению с исходным значением. Снижение количества ошибок, времени выполнения задания и уровня утомляемости рассматривается как положительная динамика.

Анализ результатов показывает положительную динамику исследуемых показателей в обеих группах, однако в ЭГ изменения были более выраженными.

Устойчивость внимания в ЭГ увеличилась с 72,4 до 80,6% (+11,3%), тогда как в КГ – с 72,8 до 74,1% (+1,8%). Количество правильно выполненных заданий в ЭГ возросло с 17,8 до 20,1 единицы (+12,9%), в КГ – с 17,9 до 18,5 (+3,4%).

Количество ошибок в ЭГ снизилось с 4,1 до 3,1 единицы (−24,4%), в КГ – на 5,0%. Время выполнения задания в ЭГ сократилось с 12,4 до 11,5 мин (−7,3%), в КГ – на 2,4%. Уровень утомляемости в ЭГ снизился с 3,1 до 2,4 балла (−22,6%), в КГ – на 6,7%.

Таким образом, наиболее выраженная положительная динамика в ЭГ отмечена по показателям устойчивости внимания, количества ошибок и утомляемости. Одновременное увеличение числа правильно выполненных заданий и сокращение времени выполнения свидетельствуют о повышении эффективности учебной деятельности. В целом результаты показывают, что систематическое применение пятиминутных физкультурных пауз может способствовать поддержанию внимания, снижению утомляемости и повышению качества выполнения учебных заданий.

Выводы. Пятинедельное исследование показало более выраженную положительную динамику показателей учебной работоспособности и утомляемости в экспериментальной группе по сравнению с контрольной. В ЭГ устойчивость внимания увеличилась на 11,3%, количество правильно выполненных заданий – на 12,9%, при снижении количества ошибок на 24,4%, времени выполнения задания на 7,3% и уровня утомляемости на 22,6%.

Предложенный пятиминутный комплекс, включающий дыхательные, общеразвивающие, зрительные упражнения, упражнения для мелкой моторики и расслабление, не требует специального оборудования и может применяться непосредственно в классном помещении.

Таким образом, систематическое включение кратковременных двигательных пауз в учебный процесс является доступным организационно-методическим средством поддержания учебной работоспособности и снижения утомляемости первоклассников.

Практические рекомендации

Учителям начальных классов рекомендуется:

1. Проводить физкультурные паузы продолжительностью около 5 минут.
2. Включать дыхательные, общеразвивающие, зрительные и координационные упражнения.
3. Проводить паузу примерно через 20–25 минут после начала урока с учётом состояния учащихся.
4. Периодически изменять содержание комплексов и использовать игровые элементы.
5. Учитывать индивидуальное состояние детей и условия классного помещения.

Список литературы

1. Руланд С., Ланге К.В. Влияние физкультурных интервенций в классе на внимание и поведение школьников, связанное с выполнением учебных заданий: систематический обзор // *Sports Medicine and Health Science*. 2021. Т. 3, № 3. С. 125–133. DOI: 10.1016/j.smhs.2021.08.003.
2. Ма Дж.К., Маре Л.Л., Гурд Б.Дж. и др. Влияние физкультурных пауз в учебном классе на академическую успеваемость, когнитивные функции, поведение в отношении здоровья и показатели здоровья детей: систематический обзор и метаанализ рандомизированных контролируемых исследований // *International Journal of Environmental Research and Public Health*. 2022. Т. 19, № 15. Статья 9479.
3. Пападопулос Н., Мантийя А., Басси К. и др. Изучение преимуществ кратковременных физкультурных интервенций в начальной школе для удовольствия от занятий и субъективного благополучия детей: систематический обзор // *Journal of School Health*. 2022. Т. 92, № 9. С. 916–932. DOI: 10.1111/josh.13196.
4. Заск А., Паттинсон М., Эштон Д. и др. Влияние активных физкультурных пауз на физическую активность умеренной и высокой интенсивности, поведение и учебную деятельность учащихся начальной школы: квазиэкспериментальное исследование // *Health Promotion Journal of Australia*. 2023. Т. 34, № 4. С. 799–808. DOI: 10.1002/hpja.688.
5. Мельгисо-Ибаньес Э., Сурита-Ортега Ф., Гонсалес-Валеро Г. и др. Активная физкультурная пауза как средство повышения внимания в образовательном

процессе: систематический обзор и метаанализ // *Revista de Psicodidáctica*. 2024. Т. 29, № 2. С. 147–157. DOI: 10.1016/j.psicoe.2024.02.003.

Рейес-Амиго Т., Салинас-Гальярдо Г., Мендоса Э. и др. Эффективность школьных активных физкультурных пауз в отношении поведения в классе, исполнительных функций и физической подготовленности детей и подростков: систематический обзор // *Frontiers in Public Health*. 2025. Т. 13. DOI: 10.3389/fpubh.2025.1469998.

PARALIMPIYA SPORT TURLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

Erejepov Islam Yusupovich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
Jismoniy tarbiya nazariyasi, gumanitar va tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi.
erejepovislam09@mail.com

***Kalit so‘zlar**: Paralimpiya sporti, adaptiv sport, inklyuzivlik, sport reabilitatsiyasi, sport tasnifi, innovatsion texnologiyalar, sport infratuzilmasi, jismoniy tayyorgarlik, xalqaro hamkorlik, sport istiqbollari.*

***Ключевые слова**: Паралимпийский спорт, адаптивный спорт, инклюзивность, спортивная реабилитация, спортивная классификация, инновационные технологии, спортивная инфраструктура, физическая подготовка, международное сотрудничество, перспективы развития.*

***Key words**: Paralympic sports, adaptive sports, inclusion, sports rehabilitation, sports classification, innovative technologies, sports infrastructure, physical fitness, international cooperation, development prospects.*

KIRISH. Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasi inson salomatligini mustahkamlash, jismoniy imkoniyatlarni rivojlantirish, ijtimoiy faollikni oshirish hamda jamiyatda teng imkoniyatlarni ta’minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda Paralimpiya sporti alohida o‘rin egallaydi. Paralimpiya sporti nogironligi bo‘lgan shaxslarning sport bilan shug‘ullanishi, jismoniy imkoniyatlarini namoyon etishi, yuqori sport natijalariga erishishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan sport yo‘nalishidir.

Paralimpiya harakatining rivojlanishi sportga nisbatan qarashlarning o‘zgarishi, sportchilarning tayyorgarlik darajasi ortishi, sport turlarining kengayishi va maxsus texnologiyalarning takomillashuvi bilan uzviy bog‘liq. Hozirgi vaqtda Paralimpiya sporti faqat musobaqalarda ishtirok etish bilan cheklanmay, balki adaptiv jismoniy tarbiya, sport reabilitatsiyasi, ijtimoiy integratsiya va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xalqaro Paralimpiya qo‘mitasi Paralimpiya harakatini rivojlantirish, sportchilarning huquq va manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash, sportning ommaviyligini oshirish hamda xalqaro musobaqalarni tashkil etishda muhim vazifalarni amalga oshiradi. Zamonaviy Paralimpiya sportida sportchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish, mashg‘ulotlarni ilmiy asosda tashkil etish, sport tasnifining adolatliligini ta’minlash va innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosiy yo‘nalishlar qatoriga kiradi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining jismoniy faollik bo‘yicha tavsiyalarida muntazam harakat faolligining jismoniy va ruhiy salomatlikni saqlashdagi ahamiyati ta’kidlangan. Jismoniy faollik insonning funksional imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlash, harakat

ko‘nikmalarini rivojlantirish va hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Shu bilan birga, nogironligi bo‘lgan shaxslarning sport bilan shug‘ullanishida moslashtirilgan infratuzilmaning yetishmasligi, maxsus jihozlarning qimmatligi, malakali mutaxassislar tanqisligi va hududlar o‘rtasidagi imkoniyatlar farqi muayyan to‘siqlarni yuzaga keltirishi mumkin.

O‘zbekistonda ham Olimpiya va Paralimpiya sportini rivojlantirish, xalqaro musobaqalarga tayyorgarlik ko‘rish, iqtidorli sportchilarni aniqlash va sport infratuzilmasini takomillashtirishga e’tibor qaratilmoqda. Ushbu jarayonda Paralimpiya sportining ommaviyligini oshirish, sport maktablarida mashg‘ulotlar sifatini yaxshilash, murabbiylarning kasbiy malakasini yuksaltirish va zamonaviy tayyorgarlik metodikalarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, Paralimpiya sport turlarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va kelgusidagi istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash ilmiy-amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi

Tadqiqotning maqsadi Paralimpiya sport turlarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini ilmiy manbalar asosida tahlil qilish, sportchilar tayyorgarligini takomillashtirishga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash hamda O‘zbekiston sharoitida ushbu sport yo‘nalishining istiqbolli rivojlanish yo‘llarini asoslashdan iborat.

Belgilangan maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar qo‘yildi: Paralimpiya sportining zamonaviy rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish; sportchilarni tayyorlashda individual yondashuv va sport tasnifining ahamiyatini aniqlash; innovatsion texnologiyalar hamda moslashtirilgan sport jihozlarining imkoniyatlarini tahlil qilish; sport infratuzilmasi, kadrlar tayyorlash va xalqaro hamkorlikning rivojlanishga ta’sirini baholash; sohani takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari

Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, me’yoriy-uslubiy hujjatlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va ma’lumotlarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini Xalqaro Paralimpiya qo‘mitasining strategik hujjatlari, sportchilarni tasniflashga oid xalqaro talablar hamda Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining jismoniy faollik bo‘yicha tavsiyalari tashkil etdi.

Tahlil jarayonida Paralimpiya sportini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi bir nechta yo‘nalishlar o‘rganildi. Jumladan, sportchilarni saralash va tayyorlash tizimi, jismoniy yuklamalarni individuallashtirish, sport tasnifining adolatliligi, texnologik ta’minot, sport obyektlarining qulayligi, murabbiylar malakasi va xalqaro musobaqalarda ishtirok etish imkoniyatlariga e’tibor qaratildi.

Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega bo‘lib, bevosita sportchilar ishtirokida tajriba-sinov ishlari yoki statistik so‘rovlar o‘tkazilmagan. Shu sababli natijalar o‘rganilgan manbalar asosida shakllantirilgan ilmiy-amaliy xulosalarni ifodalaydi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi

Tahlil natijalari Paralimpiya sportini rivojlantirish zamonaviy sport metodikalarini takomillashtirish, sportchilar uchun qulay sharoit yaratish, ilmiy yondashuvni kuchaytirish va boshqaruv tizimini izchil rivojlantirish bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ushbu jarayonda bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bir nechta ustuvor yo‘nalishlarni ajratish mumkin.

1. Sportchilarni individual yondashuv asosida tayyorlash

Paralimpiya sportida sportchilarni tayyorlash jarayoni ularning funksional imkoniyatlari, jismoniy tayyorgarlik darajasi, sport tajribasi va tanlangan sport turining xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Chunki sportchilarning harakat imkoniyatlari, muvozanatni saqlash, kuch ishlab chiqarish, chidamlilik va koordinatsiya ko‘rsatkichlari bir-biridan farq qilishi mumkin.

Mashg‘ulot dasturlarini ishlab chiqishda jismoniy tayyorgarlik, texnik mahorat, taktik bilimlar va psixologik tayyorgarlik o‘zaro uyg‘unlashtirilishi zarur. Jismoniy yuklamaning hajmi va shiddati bosqichma-bosqich oshirilishi, tiklanish davrlari to‘g‘ri rejalashtirilishi va sportchining funksional holati muntazam nazorat qilinishi kerak.

Individual yondashuv mashg‘ulot samaradorligini oshirish, ortiqcha yuklanish xavfini kamaytirish va sportchining uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashga yordam beradi. Shu sababli murabbiylar mashg‘ulot jarayonida pedagogik kuzatuv, funksional baholash va sport natijalarini muntazam tahlil qilish usullaridan foydalanishlari maqsadga muvofiq.

2. Sport tasnifi va musobaqalarning adolatliligini ta’minlash

Paralimpiya sportining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri sportchilarni tasniflash tizimidir. Tasniflashning asosiy vazifasi sportchilarning sport natijalariga ta’sir ko‘rsatuvchi funksional cheklovlarini tegishli sport turi qoidalari asosida baholash hamda musobaqalarda adolatli raqobat sharoitini yaratishdan iborat.

Tasniflash mezonlari sport turiga qarab farqlanadi. Shu sababli har bir sport yo‘nalishida tegishli xalqaro qoidalarga amal qilish, tasniflovchi mutaxassislarning bilimini muntazam yangilash va baholash jarayonining shaffofligini ta’minlash muhimdir. Xalqaro Paralimpiya qo‘mitasining tasniflashga oid me’yoriy hujjatlari mazkur jarayonni tartibga solishda muhim o‘rin tutadi.

Tasniflash tizimining to‘g‘ri tashkil etilishi sportchilarning natijalarini xolis baholash, musobaqalar sifatini oshirish va sportga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Kelgusida tasniflash jarayonida ilmiy dalillarga asoslangan mezonlardan foydalanish, mutaxassislar malakasini oshirish va xalqaro tajribani o‘rganish muhim istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

3. Innovatsion texnologiyalar va moslashtirilgan sport jihozlari

Texnologik taraqqiyot Paralimpiya sportida yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Sport protezlari, maxsus sport aravachalari, moslashtirilgan trenajyorlar, harakatni qayd etuvchi sensorlar va raqamli monitoring vositalari sportchilarning tayyorgarlik jarayonini takomillashtirishda qo‘llanilishi mumkin.

Masalan, harakat ko‘rsatkichlarini qayd etuvchi sensorlar mashq davomida bajarilgan harakatlarning tezligi, takrorlanish soni va ayrim texnik xususiyatlarini baholashga yordam beradi. Olingan ma’lumotlar murabbiyga mashg‘ulot dasturini qayta ko‘rib chiqish va sportchining rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi. Bunda texnologik vositalardan foydalanish mutaxassislarning nazorati va sportchining individual ehtiyojlariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Biroq zamonaviy jihozlarning narxi yuqoriligi va ularning barcha hududlarda mavjud emasligi muayyan cheklovlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun sport jihozlarini xarid qilishda ularning samaradorligi, xavfsizligi, xizmat ko‘rsatish imkoniyati va sportchilar uchun qulayligi hisobga olinishi lozim. Texnologik yangiliklardan foydalanish sport natijalarini yaxshilash bilan birga, sport bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qilishi kerak.

4. Sport infratuzilmasi va inklyuziv muhitni rivojlantirish

Paralimpiya sportining ommaviy rivojlanishi uchun jismoniy jihatdan qulay va xavfsiz sport muhitini yaratish zarur. Sport inshootlarida to‘siqsiz kirish yo‘laklari, moslashtirilgan kiyinish xonalari, qulay sanitariya sharoitlari, xavfsiz mashg‘ulot maydonlari va zarur sport jihozlari mavjud bo‘lishi muhim.

Sport infratuzilmasining qulayligi faqat professional sportchilarga emas, balki sport bilan endigina shug‘ullanishni boshlayotgan shaxslarga ham taalluqlidir. Hududiy sport maktablari, ta’lim muassasalari va sport markazlarida adaptiv sport mashg‘ulotlarini tashkil etish orqali ko‘proq ishtirokchilarni jalb qilish mumkin.

Inklyuziv muhitni rivojlantirishda sport tashkilotlari bilan bir qatorda ta’lim muassasalari, mahalliy boshqaruv organlari va tegishli ijtimoiy xizmatlar hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Bunday hamkorlik sport inshootlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, mashg‘ulotlar haqida axborot berish va yangi sportchilarni aniqlash jarayonini yaxshilashi mumkin.

5. Malakali kadrlar va ilmiy-metodik ta’minot

Paralimpiya sportining rivojlanishi malakali murabbiylar va tegishli mutaxassislar faoliyatiga bevosita bog‘liq. Murabbiylar sport pedagogikasi bilan bir qatorda adaptiv jismoniy tarbiya, sport fiziologiyasi, psixologik tayyorgarlik, yuklamalarni rejalashtirish va tiklanish jarayonlari bo‘yicha ham yetarli bilimga ega bo‘lishlari kerak.

Sport shifokorlari, fizioterapevtlar, psixologlar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik sportchilarning tayyorgarligini kompleks tashkil etishga yordam beradi. Bunday yondashuv mashg‘ulotlarni rejalashtirish, sportchining holatini baholash va tiklanish jarayonlarini nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Oliy ta’lim muassasalarida adaptiv jismoniy tarbiya va Paralimpiya sportiga oid maxsus o‘quv modullarini takomillashtirish, amaliy mashg‘ulotlarni kengaytirish va murabbiylarning malakasini muntazam oshirib borish maqsadga muvofiq. Shuningdek, mahalliy sharoitda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalarini mashg‘ulot amaliyotiga joriy etish sport tayyorgarligining ilmiy asoslarini mustahkamlaydi.

6. Xalqaro hamkorlik va istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlari

Xalqaro hamkorlik Paralimpiya sportida tajriba almashish, sportchilar tayyorgarligini takomillashtirish va xalqaro standartlarni o‘zlashtirishning muhim vositasidir. Xalqaro o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlari, musobaqalar, seminarlar va murabbiylar uchun malaka oshirish dasturlari milliy sport tizimining rivojlanishiga ko‘maklashadi.

O‘zbekiston sharoitida istiqbolli yo‘nalishlardan biri hududiy sport maktablarida adaptiv sport guruhlarini rivojlantirish va iqtidorli sportchilarni erta aniqlash tizimini takomillashtirishdir. Buning uchun sportga qiziqish bildirgan shaxslar to‘g‘risida ma’lumotlarni tizimli yuritish, sport turlari bo‘yicha saralash mezonlarini takomillashtirish va sportchilar zaxirasini shakllantirish zarur.

Bundan tashqari, sport rivojlanishining samaradorligini baholashda faqat xalqaro musobaqalardagi medallar soniga tayanish yetarli emas. Sport bilan muntazam shug‘ullanuvchilar soni, hududiy qamrov, mashg‘ulotlar sifati, murabbiylar malakasi, sport inshootlarining qulayligi va maxsus jihozlardan foydalanish imkoniyatlari ham muhim ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Shu asosda Paralimpiya sportini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqish, moliyaviy va moddiy resurslardan samarali foydalanish, ilmiy-metodik ta’minotni

kuchaytirish hamda sport tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish zarur. Mazkur choralar Paralimpiya sportining ommaviyligini oshirish va yuqori natijalarga erishish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Xulosa. Paralimpiya sport turlarini rivojlantirish zamonaviy sport tizimining muhim yo‘nalishi bo‘lib, sportchilarning jismoniy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, teng imkoniyatlarni ta’minlash va inklyuziv muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. O‘rganilgan ilmiy-uslubiy manbalar tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, sportchilarni individual yondashuv asosida tayyorlash, jismoniy yuklamalarni ularning funksional imkoniyatlariga muvofiq belgilash va mashg‘ulotlar samaradorligini muntazam nazorat qilish zarur.

Ikkinchidan, xalqaro tasniflash talablariga rioya qilish, tasniflovchi mutaxassislar malakasini oshirish va musobaqalarda adolatli raqobat sharoitini yaratish Paralimpiya sportining muhim shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. International Paralympic Committee. IPC Strategic Plan 2023–2026. Bonn: International Paralympic Committee, 2023. Rasmiy veb-sayt: https://www.paralympic.org/

2. World Health Organization. WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour. Geneva: World Health Organization, 2020. https://www.who.int/publications/i/item/9789240015128

3. International Paralympic Committee. IPC Classification Code and International Standards. Bonn: International Paralympic Committee. Rasmiy ma’lumot: https://www.paralympic.org/classification

4. World Health Organization. Disability and Health. Geneva: World Health Organization. https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/disability-and-health

5. International Paralympic Committee. Paralympic Games and Paralympic Movement. Rasmiy veb-sayt: https://www.paralympic.org/

YOSH FUTBOLCHILARNING TEXNIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA KINEMATIK TAHLILNING ILMIY-USLUBIY AHAMIYATI

Mambetiyarov Nauriz Saparbaevich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali, dotsenti
Nukus, O‘zbekiston
E-mail: mambetiyarov@uzdjtsunf.uz

Kalit so‘zlar: *yosh futbolchilar, kinematik ko‘rsatkichlar, texnik tayyorgarlik, pedagogik nazorat, zarba aniqligi, harakat koordinatsiyasi.*

Kirish: Yosh futbolchilarni tayyorlashda texnik harakatlar sifatini baholash murabbiy uchun muhim pedagogik vazifadir. Futbolchining to‘pni qabul qilishi, olib yurishi, uzatishi va zarba berishi faqat natijaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklanmaydi: harakatning fazoviy tuzilishi, bajarilish sur’ati, bo‘g‘imlarning burchak holati hamda muvozanatni saqlash usuli texnik ijroning muhim tarkibiy qismlaridir. Shu sababli texnik tayyorgarlikni o‘yin vaziyatlari bilan uyg‘un holda kinematik ko‘rsatkichlar asosida nazorat qilish ilmiy-uslubiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotimizda yosh futbolchilarning texnik tayyorgarligini kinematik ko‘rsatkichlar asosida rivojlantirish masalasi o‘rganilgan. Texnik elementlarni o‘rgatish, harakat burchaklarini tahlil qilish, nazorat testlari va maxsus mashqlarni bir tizimda qo‘llash nazarda

tutilgan. Mazkur tezisda shu ishning kinematik nazorat va texnik testlar bilan bog‘liq qismi tahlil qilinadi.

Tadqiqot maqsadi va usullari: Tadqiqotning maqsadi yosh futbolchilarning texnik tayyorgarligini baholash va rivojlantirishda kinematik parametrlar hamda pedagogik nazorat testlarining o‘zaro bog‘liqligini ilmiy-uslubiy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqotimizda pedagogik kuzatish, texnik harakatlarni tahlil qilish, nazorat testlari, guruhlar natijalarini qiyoslash va matematik-statistik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan. Quyidagi jadvallar tadqiqotning kinematik parametrlar hamda tajriba natijalari haqidagi jadvallaridan tanlab olingan; ularda manbadagi qiymatlar saqlangan.

1-jadval. Texnik harakatlarni tahlil qilishda foydalanilgan kinematik parametrlar

Harakat	Kinematik parametr	Taqdqiqotdagi diapazon	Pedagogik vazifa
Dribling	Tizza burilishi	40–60°	To‘pni boshqarish
Dribling	Oyoq kafti harakati	10–20°	To‘p ustidan nazorat
Dribling	Gavda egilishi	5–15°	Muvozanat
Zarba	Son harakati	80–120°	Zarba kuchi va aniqligi
Zarba	Oyoq panjasi burilishi	20–30°	Yo‘nalishni nazorat qilish
Uzatma	Gavda burilishi	30–50°	Uzatish samaradorligi
To‘pni qabul qilish	Tizza egilishi	30–45°	Qabul qilish holati

Kinematik parametrlarni tahlil qilish texnik harakatlarning fazoviy tuzilishini aniqlash, mashqlarni individual xususiyatlarga moslashtirish va harakatning muhim fazalarini pedagogik nazorat qilish imkonini beradi. Murabbiy bo‘g‘im burchaklari, gavda holati hamda oyoq harakatining uyg‘unligini kuzatish orqali texnik ijroni izchil takomillashtiradi.

Natijalar va muhokama: Texnik harakatlarning samaradorligini baholashda faqat yakuniy natijani qayd etish bilan cheklanilmadi. Harakatning boshlang‘ich holati, tayanch oyoqning joylashuvi, gavdaning muvozanati, to‘pga tegish lahzasi va yakunlovchi fazadagi harakat uyg‘unligi pedagogik kuzatuvning muhim jihatlari sifatida qaraldi. Bu yondashuv murabbiyga texnik xatoni natijadan keyin emas, aynan harakat bajarilayotgan bosqichda aniqlash hamda individual tuzatish mashqlarini belgilash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish jarayonida texnik harakatlarni bajarish sifati turli nazorat mashqlari yordamida baholangan. Quyidagi jadvalda tegishli sport maktablarida rasmiy dalolatnomalar bilan tasdiqlangan samaradorlik ko‘rsatkichlari umumlashtirilgan.

2-jadval. Ilmiy tadqiqot natijalarining sport maktablari amaliyotiga joriy etilishi

Joriy etilgan muassasa	Baholash ko‘rsatkichi	Qayd etilgan samaradorlik
Nukus shahar 1-sonli sport maktabi	30 m masofadan to‘pni kvadratga aniq tushirish	35,27% o‘sish
Nukusdagi Respublika ixtisoslashtirilgan sport maktabi	To‘pni olib qo‘yish	12,0% o‘sish
Urganch shahar SO‘TYAISM	16 m masofadan harakat davomida darvozaga zarba berish	34,57% o‘sish

Buxoro viloyati Qorovulbozor sport maktabi	Umumiy texnik tayyorgarlik	15,5% yaxshilanish

Joriy etish natijalari texnik tayyorgarlikni rivojlantirishda harakatlarning fazoviy-vaqt tavsiflarini hisobga olish, texnik elementlarni o‘yin sharoitida takrorlash va maxsus mashqlarni maqsadli tanlashning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Nukus shahar 1-sonli sport maktabida 30 metr masofaga to‘pni tepib kvadratga aniq tushirish nazorat mashqi samaradorligi 35,27% ga oshgan. Respublika ixtisoslashtirilgan sport maktabida to‘pni olib qo‘yish samaradorligi 12,0% ga o‘sgan.

Urganch shahar SO‘TYAISMda 16 metr masofadan harakat davomida darvozaga zarba berish nazorat testida 34,57% o‘sish qayd etilgan. Buxoro viloyati Qorovulbozor sport maktabida yosh futbolchilarning umumiy texnik tayyorgarligi 15,5% ga yaxshilangan.

Kinematik tahlilni mashg‘ulotga tatbiq etish: Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda dastlab harakatning namunaviy bajarilishi ko‘rsatilib, keyin uning asosiy fazalari ajratildi. Keyingi mashqlarda masofa, yo‘nalish va vaqt cheklovlari o‘zgartirildi. Shu tariqa texnik elementni barqaror sharoitda o‘zlashtirishdan uni o‘yin vaziyatida tez va aniq bajarishga bosqichma-bosqich o‘tish ko‘zda tutildi. Har bir bosqichda kuzatilgan texnik kamchiliklar qayta aloqa asosida tuzatib borilishi mashg‘ulotning individual yo‘naltirilishini ta’minlaydi.

Mashg‘ulotning dastlabki bosqichida futbolchiga harakatning asosiy tayanch nuqtalari ko‘rsatiladi: gavda holati, tayanch oyoq joylashuvi, zarba yo‘nalishi va harakat yakuni. Keyingi bosqichda shu elementlar o‘zgaruvchan sharoitda – masofa, yo‘nalish va raqib bosimi almashgan holda – takrorlanadi. Yakuniy bosqichda esa harakat sifati nazorat testi bilan tekshiriladi. Tadqiqotimizda dastlabki, asosiy va yakuniy bosqichlardan iborat mashqlar ketma-ketligi berilgan.

3-jadval. Texnik tayyorgarlikni rivojlantirishning bosqichli tuzilishi

Bosqich	Asosiy maqsad	Tadqiqotdagi mashq namunalari
Dastlabki	Texnik element asoslarini egallash	Oyoqning ichki va tashqi tomoni bilan to‘p olib yurish; juftlikda uzatish
Asosiy	Texnikani o‘yin vaziyatida qo‘llash	Darvozaning turli qismlariga zarba; 1×1 dribling; jamoaviy uzatmalar
Yakuniy	Ko‘nikmalarni mustahkamlash	Jamoaviy taktik sxemalar va to‘liq o‘yin mashqlari

Murabbiylar va sport mutaxassislarini tayyorlashda ushbu yondashuv texnik harakatni faqat ko‘rsatib berish emas, balki o‘lchash, taqqoslash va individual tuzatish kiritish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Video orqali qayta ko‘rish va nazorat testlarining davriy takrorlanishi o‘quv-mashg‘ulot jarayonida teskari aloqani kuchaytiradi. Shuningdek, texnik ko‘rsatkichlarni qayd etishda bir xil sharoit, bir xil urinishlar soni va yagona baholash mezonini saqlash natijalar qiyosiyligini ta’minlaydi.

Xulosa: Yosh futbolchilarning texnik tayyorgarligini rivojlantirishda kinematik tahlil harakatning fazoviy tuzilishi bilan uning amaliy natijasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirishga yordam beradi. Tadqiqotdagi tajriba guruhi natijalariga ko‘ra, 30 metr masofadan kvadratga aniq tepish ko‘rsatkichi 35,27% ga yaxshilangan ($p<0,001$). Dribling, zarba va to‘pni qabul qilishdagi bo‘g‘im burchaklarini hisobga olish hamda bosqichli mashqlar tizimini qo‘llash murabbiyga pedagogik nazoratni mazmunan boyitish imkonini beradi. Natijalarni taqdim

etishda test nomi, o‘lchov birligi va nisbiy o‘sish qiymatining aynan bir manbaga mos kelishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nurimov R.I. Futbol nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: Ilmiy texnika axboroti – Press nashriyoti, 2018. – 316 b.

2. Iseyev Sh.T. Sport pedagogik mahoratini oshirish (Futbol). – Toshkent: Ilmiy texnika axboroti – Press nashriyoti, 2018. – 312 b.

3. Abidov Sh.U. Yosh futbolchilarning o‘quv mashg‘ulot jarayonini tashkil qilish va rejalashtirish. – Toshkent: O‘zDJTI, 2011. – 38 b.

4. Голомазов С., Чирва Б. Футбол. Теоретические основы и методика контроля технического мастерства. – Москва: Физкультура и спорт, 2010. – 320 с.

YOSH ERKIN KURASHCHILARNING MAXSUS EGILUVCHANLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

A.S.Joldasov

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali,

joldasovarziwbek@gmail.com

Kalit so‘zlar. *erkin kurash, yosh kurashchilar, maxsus egiluvchanlik, egiluvchanlikni rivojlantirish metodikasi, jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik,*

Ключевые слова. *вольная борьба, юные борцы, специальная гибкость, методика развития гибкости, физическая подготовка, техническая подготовка,*

Keywords. *freestyle wrestling, young wrestlers, special flexibility, flexibility development methodology, physical training, technical training,*

Dolzarbligi. So‘nggi yillarda yosh erkin kurashchilar ishtirokidagi nufuzli respublika va xalqaro musobaqalar natijalari tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, sportchilar o‘smirlik bosqichidan yuqori sport mahorati bosqichiga o‘tish davrida musobaqa natijalarining barqarorligi pasaymoqda. Natijada, yoshlar toifasida yuqori natijalarga erishgan ko‘plab sportchilar kattalar sportiga o‘tish jarayonida o‘z sport salohiyatini to‘liq namoyon eta olmayapti hamda yetakchi sportchilar safidan chetda qolmoqda. Mazkur holat yosh sportchilarni ko‘p yillik tayyorlash tizimini ilmiy asosda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Sport nazariyasi va amaliyotida kurashchilarning sport mahorati darajasi texnik-taktik tayyorgarlik bilan bir qatorda jismoniy sifatlarning rivojlanganlik darajasiga ham bevosita bog‘liq ekanligi e’tirof etiladi [3]. Ayniqsa, zamonaviy erkin kurashda murakkab texnik usullarni yuqori tezlik va keng amplitudada bajarish, qarshi hujumlarni samarali amalga oshirish hamda himoya harakatlarini aniq bajarishda egiluvchanlik sifati muhim funksional omillardan biri hisoblanadi. Yetarli darajada rivojlangan egiluvchanlik bo‘g‘imlarning harakatchanligini oshiradi, mushak-pay apparatining elastikligini yaxshilaydi, harakat amplitudasini kengaytiradi hamda texnik harakatlarni biomexanik jihatdan to‘g‘ri va iqtisodiy bajarishga xizmat qiladi.

O.E.Vinokurova, A.P.Bochkaryov va M.A.Lebedev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yosh erkin kurashchilarning boshlang‘ich sport tayyorgarligi samaradorligini oshirishda pedagogik sharoitlarni ilmiy asosda tashkil etishning muhim ahamiyati ta’kidlangan. Mualliflarning fikriga ko‘ra, mashg‘ulot jarayonining samaradorligi, avvalo, o‘quv-mashg‘ulot dasturlarini sportchilarning yosh xususiyatlari, jismoniy tayyorgarlik darajasi hamda sport turining o‘ziga xos talablarini hisobga olgan holda takomillashtirish bilan belgilanadi. [5].

U.B. Jarilkapov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mashg‘ulot yuklamalarini ilmiy asosda rejalashtirish hamda sportchilarning funksional holati, charchash va tiklanish jarayonlarini hisobga olgan holda maxsus mashqlarni qo‘llash jismoniy tayyorgarlik samaradorligini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan. Muallifning xulosalariga ko‘ra, mashg‘ulot yuklamalarining bosqichma-bosqich optimallashtirilishi va maxsus yo‘naltirilgan mashqlarni tizimli qo‘llash sportchilarning maxsus jismoniy sifatlarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodik yondashuv yosh erkin kurashchilarda maxsus egiluvchanlikni rivojlantirish jarayoniga ham tatbiq etilishi mumkin, chunki egiluvchanlikni oshirishda ham yuklama hajmi, intensivligi va tiklanish jarayonlarining optimal uyg‘unligi bo‘g‘imlar harakatchanligi, mushak-pay apparati elastikligi hamda texnik harakatlarning biomexanik samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi [2].

S.Basar va hammualliflari tomonidan erkin va yunon-rum kurashchilari o‘rtasida jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan tadqiqotda kurash uslubiga xos mashg‘ulotlarning egiluvchanlik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Mualliflarning ta’kidlashicha, erkin kurashchilar mashg‘ulot jarayonida egiluvchanlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni ko‘proq bajarganligi sababli, sonning orqa mushaklari (hamstring) elastikligi yunon-rum kurashchilariga nisbatan yuqori bo‘lgan. Shu bilan birga, kurash uslublari o‘rtasidagi texnik va funksional talablar kuch, egiluvchanlik hamda muvozanat ko‘rsatkichlarining shakllanishida muayyan farqlarni yuzaga keltirishi qayd etilgan. Mualliflar jismoniy sifatlarning namoyon bo‘lishi vazn toifalari xususiyatlariga ham bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar. Ushbu natijalar yosh erkin kurashchilarda sport turining texnik talablariga moslashtirilgan maxsus egiluvchanlik mashqlarini mashg‘ulot jarayoniga tizimli ravishda kiritish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi hamda maxsus egiluvchanlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning dolzarbligini tasdiqlaydi [1].

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yosh erkin kurashchilarni tayyorlash tizimida mashg‘ulot jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish, sportchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus jismoniy sifatlarni maqsadli rivojlantirish hamda sport turining texnik-biomekanik talablariga moslashtirilgan mashqlarni qo‘llash yuqori sport natijalariga erishishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Yosh sportchilarda egiluvchanlikni rivojlantirish organizmning anatomik-fiziologik xususiyatlari bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lib, aynan ushbu yosh davrida bo‘g‘imlar harakatchanligi va mushak elastikligini samarali rivojlantirish uchun qulay biologik sharoit mavjud. Shu sababli mashg‘ulot jarayonida umumiy egiluvchanlikni rivojlantirish bilan cheklanib qolmasdan, erkin kurashning texnik harakatlariga moslashtirilgan maxsus egiluvchanlikni maqsadli shakllantirish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, yosh erkin kurashchilarning maxsus egiluvchanligini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan mashg‘ulot metodikasini ishlab chiqish, uning samaradorligini pedagogik tajribalar asosida baholash hamda amaliyotga joriy etish sport tayyorgarligi nazariyasi va uslubiyatining dolzarb ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. 12–15 yoshdagi o‘g‘il bolalar kurashchilarida egiluvchanlikni takomillashtirish.

Tadqiqot vazifalari. Anket-sorovnoma asosida erkin kurashchilarning egiluvchanlik sifatini takomillashtirish boyicha qaysi yosh optimal variant ekanligini aniqlash.

Erkin kurashchi trenerlar uchun haftasiga necha kun egiluvchanlik sifatini rivojlantirish mashqlarini qo‘llash kerakligini aniqlash

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. Yosh erkin kurashchilarda maxsus egiluvchanlikni rivojlantirish metodikasini ilmiy asoslash maqsadida tadqiqotning dastlabki bosqichida jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning mazkur muammo yuzasidagi fikr-mulohazalarini aniqlashga qaratilgan ekspert so‘rovnomasi tashkil etildi. So‘rovnoma orqali egiluvchanlik sifatini rivojlantirishning maqsadga muvofiqligi, uni mashg‘ulot jarayoniga integratsiyalash tamoyillari hamda yosh kurashchilar uchun tavsiya etiladigan maxsus mashqlar majmuasining mazmuni va tarkibiga oid ekspert baholari o‘rganildi. Olingan natijalar keyingi pedagogik tajriba dasturini ilmiy asoslash va ishlab chiqishda metodologik manba sifatida xizmat qildi.

Pedagogik tajriba metodidan foydalanish orqali ishlab chiqilgan maxsus mashqlar majmuasining amaliy samaradorligi, uning yosh kurashchilarning maxsus egiluvchanligini rivojlantirish hamda kurash texnikasi elementlarini o‘zlashtirish sifatiga ta’siri eksperimental sharoitda baholandi.

Tadqiqotning birinchi bosqichi ilmiy-pedagogik tajribani konseptual jihatdan loyihalashni o‘z ichiga oldi. Ushbu bosqichda tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ilmiy farazi va metodologik yondashuvlari belgilandi, mavjud ilmiy-metodik adabiyotlar tizimli tahlil qilindi hamda tadqiqot muammosiga oid ekspert so‘rovnomasi ishlab chiqildi. So‘rovnoma erkin kurash bo‘yicha malakali murabbiylar, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va yuqori sport razryadiga ega kurashchilarning fikrlarini kompleks baholashga yo‘naltirildi.

Anketa so‘rovnomasida jami 35 nafar respondent ishtirok etdi. Ularning 10 nafari erkin kurash bo‘yicha murabbiy, 8 nafari jismoniy tarbiya o‘qituvchisi hamda 17 nafari yuqori sport razryadiga ega erkin kurashchilarni tashkil etdi. Statistik tahlil uchun metodik talablarga to‘liq javob beradigan 30 ta anketa tanlab olindi va keyingi tahlil aynan ushbu ma’lumotlar asosida amalga oshirildi.

So‘rovnoma natijalari hamda ilmiy adabiyotlar tahlili asosida yosh erkin kurashchilarning maxsus egiluvchanligini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar majmuasi ishlab chiqildi. Shuningdek, mazkur metodikaning samaradorligini baholash uchun maxsus pedagogik nazorat mezonlari va test ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi. Pedagogik tajribada 12–15 yoshdagi 14 nafar erkin kurashchi ishtirok etdi. Ishtirokchilar tasodifiy tanlash tamoyili asosida son jihatdan teng bo‘lgan nazorat (n=7) va tajriba (n=7) guruhlariga ajratildi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida o‘tkazilgan ekspert so‘rovnomasi natijalari yosh erkin kurashchilar tayyorgarligi tizimida egiluvchanlik sifatini rivojlantirishning optimal yosh davrini aniqlash imkonini berdi (1-jadvalga qarang).

Mazkur natijalar yosh sportchilarning anatomik-fiziologik rivojlanish qonuniyatlari hamda egiluvchanlik sifatining senzitiv rivojlanish davrlariga oid zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan uyg‘unlik kasb etadi. Ayniqsa, 12–13 yosh davrida tayanch-harakat apparati va mushak-pay tizimining yuqori plastikligi egiluvchanlikni maqsadli rivojlantirish uchun qulay biologik sharoit yaratadi. Shu sababli aynan ushbu yosh bosqichi pedagogik tajribaning asosiy obyekti sifatida tanlandi hamda ishlab chiqilgan maxsus mashg‘ulot metodikasining samaradorligini eksperimental jihatdan baholash uchun ilmiy asos vazifasini bajardi.


1-jadval.

Maktab o‘quvchilarida egiluvchanlikni rivojlantirish uchun maqbul yosh

Shug‘ullanuvchilarning yoshi	Javoblar soni
10–11	8
12–13	30

14–15	15
16–17	2

Javoblar soni va mos ravishda ularning foizi to‘g‘ri to‘ldirilgan so‘rovnomalar soniga mos kelmaydi, chunki ba’zilar bir vaqtning o‘zida bir nechta pozitsiyani ko‘rsatgan (1-rasmga qarang).




1-rasm. Maktab o‘quvchilarida egiluvchanlikni rivojlantirish uchun maqbul yosh foizlarda

Xususan, respondentlarga berilgan **“Sizning fikringizcha, egiluvchanlik sifatini rivojlantirishga mashg‘ulotlar qaysi yoshda eng katta e’tibor qaratilishi lozim?”** degan savolga ekspertlarning 71,4 foizi 12–13 yosh davrini eng maqbul bosqich sifatida baholadi. Respondentlarning 35,7 foizi esa 14–15 yosh davrida ham egiluvchanlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarurligini ta’kidladi.

Jarıslar jeke hám komandalıq túrlerde ótkeriliwi múmkin. Jarıs formatı, raund dawamlılıǵı, ball sanı hám jeńimpazdı anıqlaw tártipleri tiyisli jarıs qaǵıydaları menen belgilenedi.

4. Para qılıshpazlıqta fizikalıq tayarlıq

Para qılıshpazlıqta joqarı nátiyjege erisiw ushın sportshınıń fizikalıq tayarlıǵı úlken áhmiyetke iye. Bul sport túrinde, ásirese, qol kúshi, reakciya tezligi, háreket koordinaciyası, shıdamlılıq hám dene joqarǵı bóleginiń turaqlılıǵı rawajlandırıladı.

Kúsh tayarlıǵı. Qılısh uslaǵan qol, iyin, bilek hám dene ózegin basqarıwshı bulshıq etlerdiń kúshi sportshınıń húјim hám qorǵanıw háreketlerin nátiyjeli orınlawına járdem beredi. Kúsh shınıǵıwları sportshınıń funkcionallıq múmkinshiliklerine sáykes tańlanıwı kerek.

Tezlik tayarlıǵı. Qarsılastıń húјimine tez juwap qaytarıw, quraldı tez baǵdarlaw hám qol háreketlerin waqıtında orınlaw para qılıshpazlıqta áhmiyetli. Tezlikti rawajlandırıw ushın qısqa waqıtlı, qaytalawǵa tiykarlanǵan arnawlı shınıǵıwlar qollanıladı.

Koordinaciya. Sportshı bir waqıtta denesin turaqlı uslap, quraldı basqarıwı, qarsılastı baqlawı hám taktikalıq qarar qabıl etiwi kerek. Sonlıqtan qol hám dene háreketleriniń sáykesligi úlken áhmiyetke iye.

Shıdamlılıq. Jarıs dawamında diqqat hám háreket nátiyjeliligin saqlap qalıw ushın ulıwma hám arnawlı shıdamlılıq rawajlandırıladı. Shınıǵıwlar sportshınıń jası, tayarlıq dárejesi hám jeke múmkinshiliklerine sáykes rejelestiriledi.

Iyilgishtik hám háreket kólemi. Iyın, bilek hám dene joqarǵı bólegindegi háreket kólemi quraldı basqarıw sapasına tásir etedi. Sol sebepli iyilgishtikti rawajlandırıwshı qáwipsiz shınıǵıwlar tayarlıq programmasına kirgiziledi.

Fizikalıq tayarlıqta júkleme birden arttırılmawı kerek. Shınıǵıw aldınan qızdırıw, shınıǵıwdan keyin bosasıw hám dem alıw waqıtın durıs belgilew sportshınıń qáwipsizligin támiyinleydi.

5. Texnikalıq hám taktikalıq tayarlıq

Para qılıshpazlıqta texnikalıq tayarlıq sportshınıń qural menen durıs háreket etiw kónlikpelerin qáliplestiredi. Taktikalıq tayarlıq bolsa sol kónlikpelerdi qarsılastıń háreketine sáykes qollanıwdı úyretedi.

Texnikalıq tayarlıqtıń tiykarǵı elementleri:

1. Qılıshpazlıq quralın durıs uslaw.
2. Qol hám bilek háreketlerin basqarıw.
3. Nısanaǵa baǵdarlanǵan tiyislerdi orınlaw.
4. Qarsılas húјiminen qorǵanıw.
5. Qorǵanıwdan keyin qarsı húјimge ótiw.
6. Quraldıń háreket baǵdarın tez ózgertiw.
7. Jarıs waqtında texnikalıq qaǵıydalardı saqlaw.

Taktikalıq tayarlıq sportshıǵa qarsılastıń háreketlerin baqlaw, húјimge qolay waqıttı tańlaw hám qarsılasın qáte qarar qabıl etiwge májbúrleytuǵın usıllardı úyreniwge járdem beredi.

Mısalı, sportshı qarsılasınıń quralı qaysı baǵdarǵa háreketlenip atırǵanın baqlap, qorǵanıw usılın tańlaydı. Soń qarsılas qorǵanıwǵa úlgermegen waqıtta qarsı húјim orınlawǵa háreket etedi.

Taktikalıq tayarlıqtı rawajlandırıw ushın juplıq shınıǵıwlar, jaǵdaylı tapsırmalar, videoanaliz hám oqıw jarısları qollanıladı. Bunda sportshı tek ǵana húјim etiwdi emes, al qarsılastıń háreketin aldın ala seziwdi, óz taktikasın ózgertiwdi hám psixologiyalıq basım astında durıs qarar qabıl etiwdi de úyrenedi.

6. Para qılıshpazlıqta psixologiyalıq tayarlıq

Para qılıshpazlıqta psixologiyalıq tayarlıq fizikalıq hám texnikalıq tayarlıq penen birdey áhmiyetke iye. Jarıs waqtında sportshı tez qarar qabıl etiw, óz sezimlerin basqarıw, diqqatın saqlaw hám qarsılastıń háreketlerine juwap beriw kerek.

Diqqat – qılıshpazlıqtaǵı tiykarǵı psixologiyalıq sapalardıń biri. Sportshı qarsılastıń quralın, qol háreketlerin hám hújimge tayarlıq belgilerin úzliksiz baqlap baradı. Diqqatınıń bólinip ketiwi qarsılasqa qolay múmkinshilik jaratıwı múmkin.

Reakciya tezligi sportshınıń qarsılas háreketin sezgen waqıttan baslap juwap háreketin orınlaǵanǵa shekemgi process penen baylanıslı. Bul sapalardı rawajlandırıw ushın kutilmegen belgilerge juwap beriw, baǵdardı anıqlaw hám arnawlı taktikalıq tapsırmalar qollanıladı.

Óz kúshine isenim de sport nátiyjesine tásir etedi. Sportshı óziniń tayarlıǵına isenip, qıyın jaǵdaylarda da texnikalıq usıllardı durıs qollanıwǵa umtıladı. Jatlıqtırıwshı sportshınıń jetiskenliklerin bahalap, kemshiliklerin túsinikli túrde kórsetip, onıń motivaciyasın saqlawı kerek.

Dem alıw shınıǵıwları, diqqatı bir orınǵa jámlew, maqset qoyıw hám jarıs aldında psixologiyalıq tayarlanıw sportshınıń emociyalıq turaqlılıǵın bekkemleydi.

7. Para qılıshpazlıqtıń adaptiv fizikalıq tárbiya hám rehabilitaciyadaǵı áhmiyeti

Adaptiv fizikalıq tárbiya – fizikalıq múmkinshilikleri hár túrli bolǵan insanlardıń jeke qábiletlerine sáykes shınıǵıw hám háreket belsendiligin shólkemlestiriwge qaratılǵan baǵdar. Para qılıshpazlıq bul sistemada sportshılardıń fizikalıq sapaların rawajlandırıw hám jámiyetlik beyimlesiwine járdem beriwshi qurallardıń biri bolıp esaplanadı.

Birinshiden, para qılıshpazlıq qol, iyin hám dene joqarǵı bóleginiń bulshıq etlerin jumısqa tartadı. Arnawlı shınıǵıwlar háreketlerdi basqarıw hám koordinaciyanı jaqsılawǵa járdem beredi.

Ekinshiden, bul sport túri diqqat, tez reakciya, eslew hám taktikalıq oylaw sıyaqlı kognitiv funkciyalardı belsendilestiredi. Sportshı qarsılastıń háreketlerin talqılap, óz háreketleriniń izbe-izligin rejelestiredi.

Úshinshiden, para qılıshpazlıq insanǵa óz kúshine isenim payda etiwge járdem beredi. Sporttaǵı jetiskenlikler jeke múmkinshiliklerdi durıs bahalawǵa, aldına maqset qoyıwǵa hám sol maqsetke erisiw ushın izbe-iz miynet etiwge úyretedi.

Tórtinshiden, toparlıq shınıǵıwlar hám jarıslar arqalı sportshılar basqa insanlar menen qarım-qatnas jasaydı, tájiriybe almasıp, jámiyetlik ortalıqqa belsene aralasıw múmkinshiligine iye boladı.

Biraq para qılıshpazlıqtıń rehabilitaciyalıq tásiri hár bir adamda birdey bolmaydı. Shınıǵıw programması sportshınıń funkcionallıq jaǵdayına, jeke maqsetlerine hám medicina mamanlarınıń usınıslarına sáykes dúziliwi kerek. Para qılıshpazlıq medicina rehabilitaciyasınıń ornın baspaydı, al tiyisli jaǵdaylarda onı tolıqtırıwshı fizikalıq belsendilik túri bolıwı múmkin.

8. Para qılıshpazlıq shınıǵıwların shólkemlestiriw metodikası

Para qılıshpazlıq shınıǵıwların nátiyjeli shólkemlestiriw ushın izbe-izlik, jeke ózgesheliklerdi esapqa alıw, júklemelerdi basqıshpa-basqısh arttırıw hám qáwipsizlik qaǵıydaların saqlaw talap etiledi.

Shınıǵıw processin shártli túrde tórt basqıshqa bóliwge boladı.

Birinshi basqısh – tayarlıq bólimi. Bul bólimde sportshı shınıǵıwǵa tayarlanadı. Qol, iyin, bilek hám dene joqarǵı bólegi ushın jeńil qızdırıw shınıǵıwları orınlanadı. Shınıǵıwlar sportshınıń funkcionallıq múmkinshiliklerine sáykes tańlanadı.

Ekinshi basqısh – tiykarǵı texnikalıq bólim. Sportshı qılıshpazlıq quralın durıs uslaw, qol háreketleri, nısanaǵa tiyis hám qorǵanıw usılların úyrenedi. Dáslep háreketler áste hám trener baqlawında orınlanadı. Kónlikpeler bekkemlengen sayın olardıń tezligi hám quramalılıǵı arttırıladı.

Úshinshi basqısh – taktikalıq bólim. Bul bólimde sportshılar juplıq shınıǵıwlar hám arnawlı jaǵdaylı tapsırmalar arqalı húJim, qorǵanıw hám qarsı húJim usılların qollanadı. Jatlıqtırıwshı sportshınıń qarar qabıl etiw tezligin, taktikalıq oylawın hám qáwipsizlikti saqlawın baqlaydı.

Tórtinshi basqısh – juwmaqlaw bólimi. Shınıǵıw aqırında jeńil háreketler, bulshıq etlerdi bosastırıw hám dem alıwdı tiklew shınıǵıwları orınlanadı. Jatlıqtırıwshı sabaq nátiyjelerin talqılap, keyingi shınıǵıwǵa tiyisli wazıypalardı belgileydi.

Shınıǵıw waqtında platformanıń bekkemligi, otırǵıshlardıń durıs ornatılıwı, qılıshpazlıq betperdesi hám qorǵanıw kiyiminiń standartlarǵa sáykesligi tekseriliwi kerek. Sportshınıń sharshawı, awırıwı yamasa qolaysızlıq sezimleri payda bolsa, shınıǵıwdı ózgertiw yamasa toqtatıw zárúr.

9. Ózbekstanda para qılıshpazlıqtı rawajlandırıw imkaniyatları

Ózbekstanda paraolimpiya háreketin rawajlandırıw, múmkinshiligi sheklengen sportshılardı xalıqaralıq jarıslarǵa tayarlaw hám adaptiv sport túrlerin keńeytiw áhmiyetli wazıypalardan esaplanadı. Para qılıshpazlıqtı rawajlandırıw ushın arnawlı sport bazaların, trenerlerdi tayarlaw sistemasın hám sport meditsinası menen baylanıslı xızmetlerdi jetilistiriw zárúr.

Birinshiden, joqarı oqıw orınlarında adaptiv fizikalıq tárbiya hám paraolimpiya sportı boyınsha teoriyalıq hám ámeliy sabaqlardı rawajlandırıw kerek. Bul bolajaq trenerlerdiń múmkinshiligi sheklengen sportshılar menen islew boyınsha bilim hám kónlikpelerin arttıradı.

Ekinshiden, sport klubları hám arnawlı oraylarda para qılıshpazlıq penen tanısıw shınıǵıwların shólkemlestiriw maqsetke muwapıq. Bunday shınıǵıwlar sportqa qızıǵıwshılıqtı arttırıp, talantlı sportshılardı anıqlawǵa járdem beredi.

Úshinshiden, sport jabdıqları hám shınıǵıw maydanlarınıń qolaylılıǵın támiyinlew kerek. Arnawlı platformalar, qılıshpazlıq quralları, qorǵanıw kiyimleri hám qáwipsizlik ásbapları sportshılardıń sapalı tayarlanıwı ushın zárúr.

Tórtinshiden, xalıqaralıq tájiriybeni úyreniw áhmiyetli. Basqa mámleketlerdegi para qılıshpazlıq sistemasın úyreniw, trenerler tájiriybesin almasıw hám xalıqaralıq seminarlarǵa qatnasıw sport túriniń rawajlanıwına unamlı tásir etedi.

Besinshiden, para qılıshpazlıqtı jámiyetke keńirek tanıtıw kerek. Ashıq sabaqlar, kórgizbeli shınıǵıwlar, sport bayramları hám oqıw orınlarındaǵı tanıstırıw ilajları múmkinshiligi sheklengen insanlardıń sportqa qatnasıwına bolǵan qızıǵıwshılıǵın arttıradı.

Qaraqalpaqstanda da adaptiv sporttı rawajlandırıw, sport mektepleri hám joqarı oqıw orınları arasında birgeliktegi shınıǵıwlar shólkemlestiriw, sonday-aq, paraolimpiya sportı boyınsha ilimiy-ámeliy izertlewler alıp barıw ushın múmkinshilikler bar.

JUWMAQLAW. Para qılıshpazlıq – fizikalıq múmkinshilikleri sheklengen insanlardıń sportqa belsene qatnasıwına, óz qábiletlerin rawajlandırıwına hám joqarı sport nátiyjelerine erisiwine múmkinshilik beretuǵın sport túri. Onıń tiykarında quraldı basqarıw, tez reakciya, koordinaciya, taktikalıq oylaw hám psixologiyalıq turaqlılıq jatadı.

Para qılıshpazlıq penen izbe-iz shuǵıllanıw qol hám iyin bulshıq etleriniń jumısın jetilistiriwge, háreket koordinaciyasın rawajlandırıwǵa, diqqat hám qarar qabıl etiw kónlikpelerin bekkemlewge járdem beredi. Bunnan tısqarı, bul sport túri sportshılardıń óz kúshine isenimin arttırıp, jámiyetlik qarım-qatnasqa belsene qatnasıwına qolaylı sharayat jaratadı.

Para qılıshpazlıqtıń nátiyjeliligi trenerdiń kásiplik tayarlıǵına, shınıǵıw programmasınıń sportshınıń jeke ózgesheliklerine sáykesligine, qáwipsizlikti saqlawǵa hám sport infrastrukturasınıń jetkilikliligine baylanıslı. Sonlıqtan bul sport túrin rawajlandırıwda ilimiy tiykarlanǵan metodikalardı, zamanagóy jabdıqlardı hám xalıqaralıq tájiriybeni qollanıw zárúr.

Juwmaqlap aytqanda, para qılıshpazlıq adaptiv fizikalıq tárbiya hám paraolimpiya háreketiniń áhmiyetli baǵdarlarınıń biri bolıp, fizikalıq rawajlanıw, psixologiyalıq bekkemlik hám jámiyetlik integraciyanı birlestiredi. Onı Ózbekstanda, sonıń ishinde Qaraqalpaqstanda da rawajlandırıw múmkinshiligi sheklengen insanlardıń sport penen shuǵıllanıw imkaniyatların keńeytiwge xızmet etedi.

PAYDALANÍLǴAN ÁDEBIYATLAR

1. International Paralympic Committee (IPC). Paralympic Games and Para Sport: Official Information and Resources.
2. World Abilitysport. Wheelchair Fencing: Rules and Regulations.
3. International Fencing Federation (FIE). Fencing Rules and Technical Regulations.
4. World Health Organization (WHO). WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour. Geneva, 2020.
5. DePauw, K. P., Gavron, S. J. Disability Sport. Human Kinetics.
6. Winnick, J. P., Porretta, D. L. Adapted Physical Education and Sport. Human Kinetics.

Paralympic.org. Para qılıshpazlıq sportı, klassifikaciya hám jarıslar haqqında rásmiy maǵlıwmatlar.

ESHKAK ESHISH TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY VIDEOANALIZ (DARTFISH/KINOVEA) DASTURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Mambetnazarova Aynura Orınbaevna
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
Stajyor oqituvchi
Raxataynura9392@gmail.com
Beknazarov Raxat Axmet o‘g‘li
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali **dotsent**

Kalit so‘zlar*: Eshkak eshish, texnik tayyorgarlik, videoanaliz, Dartfish, Kinovea, harakat kinematikasi, biomexanik tahlil, sport mahorati.*

Ключевые слова: *Гребной спорт, техническая подготовка, видеоанализ, Dartfish, Kinovea, кинематика движений, биомеханический анализ, спортивное мастерство.*

Keywords: *Rowing, technical training, video analysis, Dartfish, Kinovea, movement kinematics, biomechanical analysis, athletic performance.*

Bugungi kunda sport mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalari va biomexanik tahlil vositalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Eshkak eshish sport turida yuqori natijalarga erishish sportchining jismoniy tayyorgarligi bilan bir qatorda, eshkak eshish harakatlarini to‘g‘ri, izchil va tejamkor bajarishiga ham bog‘liq. Harakatlar texnikasidagi kichik xatolar ham eshkakning suv bilan o‘zaro ta’siri, qayiqning harakat tezligi va sportchining energiya sarfiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin va an’anaviy mashg‘ulotlarda murabbiy texnik xatolarni asosan bevosita kuzatish orqali aniqlaydi. Biroq

inson ko‘zi bilan kuzatish harakatning barcha bosqichlarini, bo‘g‘im burchaklarini va vaqt ko‘rsatkichlarini aniq baholash imkonini har doim ham bermaydi. Shu sababli Dartfish va Kinovea kabi videoanaliz dasturlaridan foydalanish eshkak eshuvchilarning texnik harakatlarini batafsil o‘rganish va mashg‘ulot jarayonini individual tashkil etish uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi Eshkak eshuvchilarning texnik harakatlarini takomillashtirishda Dartfish va Kinovea videoanaliz dasturlaridan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish hamda ularni mashg‘ulot jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari Tadqiqot jarayonida eshkak eshuvchilarning texnik harakatlarini takomillashtirishda zamonaviy videoanaliz dasturlaridan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish, videotasvirlarni tahlil qilish va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanish nazarda tutildi. Tadqiqot davomida Dartfish va Kinovea dasturlari yordamida eshkak eshish texnikasining asosiy bosqichlari, sportchining gavda holati, qo‘l va oyoq harakatlarining muvofiqligi hamda harakatlar ketma-ketligi o‘rganildi. Videotasvirlar sekinlashtirilgan rejimda va kadrma-kadr tahlil qilinib, texnik xatolarni aniqlash hamda harakat ko‘rsatkichlarini baholashga e’tibor qaratildi. Olingan ma’lumotlar asosida sportchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi Eshkak eshish texnikasini takomillashtirishda zamonaviy videoanaliz dasturlaridan foydalanish sportchilarning harakatlarini batafsil o‘rganish va texnik xatolarni aniqlash imkonini beradi. Xususan, Dartfish va Kinovea dasturlari yordamida eshkak eshuvchilarning eshkakni suvga kiritish, tortish, suvdan chiqarish hamda dastlabki holatga qaytish bosqichlarini alohida tahlil qilish mumkin. Bunda sportchining gavda holati, qo‘l va oyoq harakatlarining o‘zaro muvofiqligi, bo‘g‘im burchaklari va harakat bosqichlarining davomiyligiga alohida e’tibor qaratiladi.

Videoanaliz natijalarini ko‘rgazmali tarzda namoyish etish sportchiga o‘z texnikasidagi kamchiliklarni tushunish va murabbiy tavsiyalarini aniqroq bajarishga yordam beradi. Shuningdek, videotasvirlarni takroriy tahlil qilish orqali texnik harakatlardagi o‘zgarishlarni kuzatish, individual mashqlarni tanlash va mashg‘ulot jarayoniga tegishli tuzatishlar kiritish mumkin.

Dartfish va Kinovea dasturlarining muhim jihati shundaki, ular sportchining harakatlarini faqat umumiy kuzatish bilan cheklanmay, ayrim biomexanik ko‘rsatkichlarni o‘lchash va taqqoslash imkonini ham beradi. Masalan, harakat bosqichlarining davomiyligi, gavdaning egilish burchagi va eshkak harakatining trayektoriyasini tahlil qilish texnik bajarilish sifatini baholashga xizmat qiladi. Biroq o‘lchovlarning aniqligi videotasvir sifati, kamera rakursi va kalibrlash usuliga bog‘liq. Olingan nazariy va metodik tahlillar videoanaliz dasturlarini murabbiyning pedagogik kuzatuvi hamda amaliy mashqlar bilan uyg‘unlashtirish eshkak eshuvchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish uchun istiqbolli yondashuv ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mazkur dasturlardan foydalanishning amaliy samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqlash uchun pedagogik tajriba o‘tkazish, boshlang‘ich va yakuniy ko‘rsatkichlarni taqqoslash hamda natijalarni matematik-statistik usullar yordamida baholash talab etiladi.

XULOSA Eshkak eshish texnikasini takomillashtirish jarayonida zamonaviy videoanaliz dasturlari – Dartfish va Kinovea’dan foydalanish sportchi harakatlarining kinematik xususiyatlarini obyektiv baholash, texnik xatolarni aniqlash va ularni korreksiya qilishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni individuallashtirish imkonini beradi. Mazkur dasturlar

yordamida eshkak eshish siklining asosiy bosqichlari, gavdaning fazoviy holati, bo‘g‘im burchaklari, harakatlar ketma-ketligi va vaqt ko‘rsatkichlarini tahlil qilish mumkin.

Videoanaliz natijalarini texnik me’yorlar bilan taqqoslash sportchining harakat faoliyatidagi nomuvofiqliklarni aniqlash, murabbiy tomonidan beriladigan metodik ko‘rsatmalarning aniqligini oshirish hamda texnik tayyorgarlik dinamikasini monitoring qilish uchun ilmiy-amaliy asos yaratadi. Ayniqsa, videotasvirlarni kadrma-kadr o‘rganish va takroriy tahlil qilish harakatlarning bajarilish sifatini baholash, individual texnik kamchiliklarni bartaraf etish va mashg‘ulot vositalarini sportchining tayyorgarlik darajasiga moslashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, Dartfish va Kinovea dasturlarini eshkak eshuvchilarning texnik tayyorgarligi jarayoniga integratsiyalash biomexanik tahlil va pedagogik nazorat imkoniyatlarini kengaytiruvchi metodik yondashuv hisoblanadi. Ushbu yondashuvning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash uchun texnik xatolar chastotasi, harakat bosqichlarining davomiyligi, kinematik ko‘rsatkichlar va masofani bosib o‘tish vaqtidagi o‘zgarishlarni tajribadan oldin va keyin taqqoslash, shuningdek, olingan ma’lumotlarni matematik-statistik tahlil qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Soper C., Hume P. A. Towards an ideal rowing technique for performance: the contributions from biomechanics // *Sports Medicine*. – 2004. – Vol. 34, No. 12. – P. 825–848.
2. Buckeridge E. M., Bull A. M. J., McGregor A. H. Biomechanical determinants of elite rowing technique and performance // *Scandinavian Journal of Medicine&Science in Sports*. – 2015. – Vol. 25, No. 4. – P. e176–e183.
3. Bartlett R. *Introduction to Sports Biomechanics: Analysing Human Movement Patterns*. – 3rd ed. – London: Routledge, 2014.
4. Knudson D. *Fundamentals of Biomechanics*. – 2nd ed. – New York: Springer, 2007.
5. Robertson D. G. E., Caldwell G. E., Hamill J., Kamen G., Whittlesey S. N. *Research Methods in Biomechanics*. – 2nd ed. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2014.
6. Winter D. A. *Biomechanics and Motor Control of Human Movement*. – 4th ed. – Hoboken, NJ: John Wiley&Sons, 2009.
7. Kinovea. *Kinovea: Video Analysis Software*. – Rasmiy veb-sayt. – URL: https://www.kinovea.org/
8. Dartfish. *Sports Video Analysis and Performance Analysis Solutions*. – Rasmiy veb-sayt. – URL: https://www.dartfish.com/
9. McGinnis P. M. *Biomechanics of Sport and Exercise*. – 3rd ed. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2013.

Legge N., Draper C., Slattery K., O‘Meara D. va boshq. On-water Rowing Biomechanical Assessment: A Systematic Scoping Review // *Sports Medicine – Open*. – 2024. – Vol. 10. – Article 101.

SOG‘LOM TURMUSH TARZI TARG‘IBOTIDA MILLIY SPORT TERMINOLOGIYASINING ROLI (JISMONIY TARBIYA FANLARI MISOLIDA)

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı
Dene tárbiyası teoriyası, gumanitar hám tábiyiy pánler kafedrası assistent oqıtıwshısı
Saubatov Sanjar Asqar o‘g‘li sanjarsaubatov948@gmail.com

Kalit so‘zlar: *sog‘lom turmush tarzi, milliy sport turlari, terminologiya, kurash, xalq o‘yinlari, milliy g‘oya, yoshlar tarbiyasi, qadriyatlar, jismoniy tarbiya, milliy o‘zlik.*

Ключевые слова: *здоровый образ жизни, национальные виды спорта, терминология, борьба, народные игры, национальная идея, воспитание молодежи, ценности, физическое воспитание, национальная идентичность.*

Keywords: *healthy lifestyle, national sports, terminology, kurash, folk games, national idea, youth upbringing, values, physical education, national identity.*

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot almashinuvi jadallashgan davrda jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, yosh avlodni jismonan baquvvat, ma’nan yetuk, intellektual salohiyati yuqori va ijtimoiy faol shaxslar etib tarbiyalash muhim pedagogik hamda ijtimoiy vazifalardan biri hisoblanadi. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish inson salomatligini mustahkamlash, jismoniy faollikni oshirish, zararli odatlarning oldini olish, to‘g‘ri ovqatlanish madaniyatini rivojlantirish va ruhiy barqarorlikni ta’minlash kabi bir qator omillar bilan chambarchas bog‘liq. Mazkur jarayonda ta’lim muassasalari, xususan, umumta’lim maktablari va oliy ta’lim tashkilotlarida o‘qitiladigan jismoniy tarbiya fanining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘quvchi va talabalarning jismoniy rivojlanishi, harakat ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirish, chidamlilik, chaqqonlik, tezkorlik, kuch va muvozanat kabi jismoniy sifatlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya jarayonini faqatgina mashqlar bajarish yoki sport natijalariga erishish bilan cheklab qo‘yish maqsadga muvofiq emas. Mazkur fan mazmuniga milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, tarixiy tajriba va ma’naviy tarbiya elementlarini uyg‘unlashtirish yoshlarning har tomonlama kamol topishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, milliy sport turlari va xalq harakatli o‘yinlaridan foydalanish orqali o‘quvchilarda sog‘lom hayot tarziga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, ularning milliy o‘zligini anglashini rivojlantirish hamda jismoniy faollikka bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin.

O‘zbek xalqining ko‘p asrlik tarixiy tajribasi davomida shakllangan kurash, ko‘pkari, chavgon, chillak, oq suyak va boshqa milliy o‘yinlar nafaqat jismoniy chiniqish vositasi, balki yosh avlodni mardlik, jasorat, halollik, sabr-toqat, o‘zaro hurmat va jamoaviy hamkorlik ruhida tarbiyalashning muhim vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ushbu sport turlari va o‘yinlarga oid atamalar xalqning tarixiy xotirasi, turmush tarzi, dunyoqarashi hamda ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi. Shu sababli milliy sport terminologiyasini o‘rganish va uni jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida to‘g‘ri qo‘llash nafaqat sportga oid bilimlarni o‘zlashtirish, balki ona tiliga hurmat, milliy madaniyatga daxldorlik va tarixiy merosga e’tibor tuyg‘ularini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Milliy sport terminologiyasi deganda muayyan xalqning sport turlari, jismoniy mashqlari, harakat usullari, musobaqa qoidalari, hakamlik faoliyati va sport an’analariga oid tushunchalarni ifodalovchi atamalar tizimi tushuniladi. Mazkur terminlar sport faoliyatining mazmunini aniq ifodalash, mashg‘ulotlarni tashkil etish, harakatlarni tushuntirish va sportchilar o‘rtasidagi muloqotni samarali yo‘lga qo‘yishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, o‘zbek

kurashiga oid «halol», «ta’zim», «yonbosh», «chala» va boshqa atamalar nafaqat texnik harakatlar yoki musobaqa holatlarini ifodalaydi, balki halollik, hurmat, intizom va adolat kabi tarbiyaviy tushunchalarni ham anglatadi.

Shu nuqtayi nazardan, milliy sport terminologiyasining sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishdagi rolini o‘rganish dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biridir. Chunki sportga oid milliy atamalarni dars jarayonida izchil tushuntirish o‘quvchilarning so‘z boyligini oshiradi, jismoniy tarbiya faniga oid bilimlarini mustahkamlaydi va milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy muhitni shakllantiradi. Bunda terminlarni shunchaki yod oldirish emas, balki ularning ma’nosi, kelib chiqishi, amaliy qo‘llanishi va tarbiyaviy mazmunini ochib berish muhim hisoblanadi.

Mazkur tezisning maqsadi jismoniy tarbiya fanlarini o‘qitish jarayonida milliy sport terminologiyasining sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, yoshlarning jismoniy faolligini rag‘batlantirish, milliy qadriyatlarga hurmatini oshirish va ma’naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritishdan iborat. Ushbu maqsad doirasida milliy sport turlari va xalq o‘yinlarining tarbiyaviy imkoniyatlarini tahlil qilish, sport terminlarining ta’lim jarayonidagi vazifalarini aniqlash hamda ularni dars mashg‘ulotlariga samarali tatbiq etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, milliy sport atamalaridan maqsadli foydalanish orqali jismoniy tarbiya darslarini mazmunan boyitish, o‘quvchilarda sportga nisbatan barqaror qiziqish uyg‘otish, sog‘lom turmush tarzining ijtimoiy va ma’naviy ahamiyatini anglatish mumkin. Shu bilan birga, milliy terminologiyani ta’lim jarayonida izchil qo‘llash o‘zbek tilining sport sohasidagi imkoniyatlarini namoyon etish va milliy madaniy merosni kelajak avlodga yetkazishga yordam beradi.

Asosiy qism. O‘zbek xalqi asrlarga tutash boy tarixiy o‘tmishga, o‘zining turmush tarzi, falsafasi va milliy mentalitetiga mos ravishda shakllangan o‘ziga xos jismoniy tarbiya an’analariga ega. Tarixan ajdodlarimiz harbiy mahoratni oshirish, jismoniy chidamlilikni chiniqtirish va jamoaviy birdamlikni shakllantirishda xalq o‘yinlaridan eng asosiy pedagogik vosita sifatida foydalanib kelishgan. Bugungi kunda darsliklar va amaliyot dasturlaridan joy olgan «Kurash», «Ko‘pkari», «Chavgon», «Chillak», «Oq suyak», «Kim oladi-yo, kim beradi-yo» kabi milliy o‘yinlarimiz shunchaki vaqtni mazmunli o‘tkazishga qaratilgan oddiy ko‘ngilochar mashg‘ulot yoki quvnoq estafeta emas. Ularning zamirida chuqur ijtimoiy-psixologik tizim yotadi. Bu o‘yinlar o‘sib kelayotgan yosh avlodni mardlik, jasorat, epchillik, strategik fikrlash va matonatga o‘rgatuvchi, ularni hayot qiyinchiliklariga ruhan va jismonan tayyorlovchi qudratli etnopedagogik vositadir.

Umumta’lim maktablarining jismoniy tarbiya darslarida ushbu milliy harakatli va sport o‘yinlarining maqsadli, tizimli ravishda qo‘llanilishi o‘quvchilarning faqat mushak tizimini rivojlantirib qolmay, balki ularning ruhiyatida milliy g‘urur, vatanparvarlik va o‘zlikni anglash tuyg‘ularini ham mustahkamlashga yordam beradi. O‘quvchi o‘yin qoidalarini va unga xos terminlarni o‘zbek tilida o‘rganar ekan, o‘zini shu zaminning, shu madaniyatning bevosita vorisi va davomchisi sifatida his eta boshlaydi. Bu esa ta’lim va tarbiyaning uzviyligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu yo‘nalishdagi e’tiborga molik hodisalardan biri – o‘zbek milliy kurashining xalqaro miqyosda ommalashuvidir. Kurashning xalqaro sport turi sifatida rivojlanishi bilan uning o‘ziga xos atamalari ham kengroq tanila boshladi. «Halol», «ta’zim», «yonbosh» va «chala» kabi terminlar musobaqa jarayonida muayyan harakatlar yoki hakamlik qarorlarini

ifodalash bilan birga, milliy sport madaniyatining o‘ziga xosligini ham namoyon etadi. Ushbu atamalarni jismoniy tarbiya darslarida izohlash orqali o‘quvchilarga sport terminlarining mazmuni, ularning amaliy vazifasi va tarbiyaviy mohiyatini tushuntirish mumkin.

Milliy sport terminologiyasining ta’limiy imkoniyatlari shundan iboratki, u o‘quvchilarning jismoniy harakatlar haqidagi tasavvurlarini aniqlashtiradi, sport qoidalarini tushunishni osonlashtiradi va fanlararo integratsiyani kuchaytiradi. Masalan, kurashga oid terminlarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar jismoniy tarbiya bilan bir qatorda ona tili, tarix va ma’naviyatga doir bilimlarini ham boyitadilar. Shu tariqa milliy sport atamalari sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish bilan birga, yoshlarning nutqiy faolligi va madaniy dunyoqarashini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va uni yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib etish jarayoni jismoniy mashqlarni bajarish, sport musobaqalarida qatnashish yoki jismoniy ko‘rsatkichlarni yaxshilash bilangina cheklanmaydi. Bu jarayon insonning jismoniy salomatligi bilan bir qatorda uning ma’naviy dunyosi, axloqiy qarashlari, milliy o‘zligini anglashi va jamiyat oldidagi mas’uliyatini ham rivojlantirishni talab etadi. Shu jihatdan milliy sport turlari, xalq harakatli o‘yinlari va ularga oid terminologiya sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishning muhim pedagogik hamda madaniy vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Milliy sport terminologiyasi xalqimizning tarixiy tajribasi, jismoniy tarbiya an’analari, ma’naviy qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi til boyligidir. Kurashga oid «halol», «ta’zim», «yonbosh», «chala» kabi atamalar sport jarayonining mazmunini ifodalash bilan birga, o‘quvchilarda halollik, hurmat, intizom, adolat va o‘zaro mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantirish uchun ham tarbiyaviy imkoniyat yaratadi. Xalq o‘yinlariga xos terminlarni o‘rganish esa yoshlarning milliy merosga qiziqishini oshirib, ularni ajdodlar tajribasini qadrlashga undaydi.

Jismoniy tarbiya fanlarini o‘qitishda milliy sport terminlaridan maqsadli foydalanish o‘quvchilarning sportga oid bilimlarini mustahkamlash, harakatlarni to‘g‘ri tushunish, mashg‘ulot qoidalariga rioya qilish va jismoniy faollikka bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi. Ayniqsa, terminlarning lug‘aviy ma’nosi, sportdagi vazifasi, tarixiy kelib chiqishi va tarbiyaviy mazmunini izohlash ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning nafaqat jismoniy, balki nutqiy, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Milliy sport terminologiyasining yana bir muhim jihati uning o‘zbek tilining imkoniyatlarini namoyon etishdagi o‘rnidir. Milliy sport atamalarini o‘quv va uslubiy materiallarda izchil qo‘llash, ularning ma’nosini aniq belgilash va to‘g‘ri ishlatilishini ta’minlash o‘zbek tilining sport sohasidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘zbek kurashining xalqaro miqyosda ommalashuvi esa milliy sport madaniyati va unga tegishli terminlarning boshqa xalqlar orasida tanilishiga imkon yaratadi. Biroq bu jarayonda atamalarning xalqaro qo‘llanish darajasini aniq manbalar asosida yoritish va ularning ma’nosini ilmiy jihatdan to‘g‘ri izohlash muhimdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, jismoniy tarbiya fanlari doirasida milliy sport terminologiyasidan foydalanishni yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. **O‘quv-uslubiy materiallarni boyitish.** Jismoniy tarbiya darsliklari, metodik qo‘llanmalar va o‘quv dasturlarida milliy sport turlari hamda xalq harakatli o‘yinlariga oid terminlarga kengroq o‘rin ajratish lozim.
2. **Milliy sport atamalarining izohli lug‘atini yaratish.** Kurash, ko‘pkari, chavgon va boshqa milliy sport turlariga tegishli atamalarning ma’nosi, qo‘llanish sohasi va tarbiyaviy ahamiyatini yorituvchi izohli lug‘atlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.
3. **Darslarda interfaol metodlardan foydalanish.** Sport terminlariga oid savol-javoblar, guruhli topshiriqlar, musobaqa vaziyatlarini tahlil qilish va amaliy namoyishlar orqali o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini oshirish mumkin.
4. **Fanlararo hamkorlikni rivojlantirish.** Jismoniy tarbiya, ona tili, adabiyot va tarix fanlari o‘qituvchilari hamkorligida milliy sport atamalarining lingvistik, tarixiy va tarbiyaviy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan mashg‘ulotlarni tashkil etish foydali hisoblanadi.
5. **Milliy qadriyatlar va sog‘lom turmush tarzini uyg‘un targ‘ib qilish.** Milliy sport bayramlari, xalq o‘yinlari festivallari, sport musobaqalari va ma’rifiy tadbirlar orqali yoshlarning jismoniy faolligini oshirish hamda milliy merosga hurmatini kuchaytirish zarur.
6. **Natijalarni ilmiy-pedagogik jihatdan baholash.** Milliy sport terminologiyasidan foydalanishning o‘quvchilar qiziqishi, bilim darajasi, jismoniy faolligi va milliy qadriyatlarga munosabatiga ta’sirini kuzatish, so‘rovnoma va pedagogik tajribalar orqali o‘rganish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, milliy sport terminologiyasi jismoniy tarbiya fanlarining mazmunini boyituvchi, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga ko‘maklashuvchi va yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi muhim vositadir. Undan tizimli, ilmiy asoslangan va pedagogik maqsadga muvofiq foydalanish jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining ta’limiy hamda tarbiyaviy samaradorligini oshirish imkonini beradi. Eng muhimi, yoshlar sport bilan shug‘ullanish orqali nafaqat sog‘lom va chiniqqan bo‘lib voyaga yetishlari, balki ona tili, milliy madaniyati va tarixiy merosini chuqur anglaydigan, o‘z qadriyatlarini qadrlaydigan barkamol shaxslar sifatida shakllanishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. *Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi*. – Toshkent: O‘zDJTI, 2019.
2. Yusupov K. *Kurash xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi*. – Toshkent: Sharq, 2021.
3. Usmonova M. Milliy harakatli o‘yinlar orqali o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish // *Sport va ta’lim*. – 2024. – № 2
4. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2015-yil 4-sentabr, O‘RQ-394-son. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz/docs/2742233.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – 2017-yil 2-oktabr, PQ-3306-son. – https://lex.uz.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. – 2018-yil 5-mart, PF-5368-son. – https://lex.uz.
7. UNESCO. *Quality Physical Education (QPE): Guidelines for Policy-Makers*. – Paris: UNESCO, 2015.

8. World Health Organization. *WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour*. – Geneva: WHO, 2020.

9. International Kurash Association. *Kurash International Rules and Regulations*. – Xalqaro kurash qoidalari va me’yoriy hujjatlari. – Rasmiy manba: https://kurash-ika.org.

10. O‘zbekiston Respublikasi. *Ta’lim to‘g‘risida*gi Qonun. – 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son. – https://lex.uz/docs/5013007.

UDK: 378.015.31:613.9

TALABALARDA SOG‘LOM TURMUSH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

S.K.Saparniyazov[1], A.D.Beknazarova[2]

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) - O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali dotsenti, [2]O‘zDJTSU Nukus filiali talabasi

Email: ssaparniyazov1972@gmail.com

Kalit so‘zlar: *sog‘lom turmush tarzi, sog‘lom turmush madaniyati, talabalar, pedagogik asoslar, jismoniy faollik, salomatlik, jismoniy tarbiya, sog‘lom xulq-atvor.*

Ключевые слова: *здоровый образ жизни, культура здорового образа жизни, студенты, педагогические основы, физическая активность, здоровье, физическое воспитание, здоровое поведение.*

Keywords: *healthy lifestyle, healthy lifestyle culture, students, pedagogical foundations, physical activity, health, physical education, healthy behavior.*

Kirish. Bugungi kunda yosh avlodning salomatligini mustahkamlash, sog‘lom turmush tarziga amal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va jismoniy faolligini oshirish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki talabalik davrida o‘quv va mustaqil ta’lim yuklamalarining ortishi, uzoq vaqt davomida kompyuter va mobil qurilmalardan foydalanish, jismoniy faollikning kamayishi hamda kun tartibining to‘g‘ri tashkil etilmasligi sog‘lom hayot tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Sog‘lom turmush madaniyati insonning o‘z salomatligiga ongli va mas’uliyatli munosabatini, muntazam jismoniy faoliyat bilan shug‘ullanishini, ratsional ovqatlanish, kun tartibiga rioya qilish, yetarli dam olish va shaxsiy gigiyena talablarini bajarish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Talabalarda bunday madaniyatni shakllantirish faqatgina jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari doirasida emas, balki butun ta’lim-tarbiya jarayonida izchil amalga oshirilishi lozim. Bunda pedagogning shaxsiy namunasi, tushuntirish, rag‘batlantirish, amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil faoliyatni tashkil etish va muntazam monitoring kabi pedagogik vositalar muhim o‘rin tutadi.

Oliy ta’lim jarayonida sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirishning samaradorligi, avvalo, talabaning sog‘lom hayot tarziga bo‘lgan munosabati va ichki motivatsiyasiga bog‘liq. Shu sababli jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini talabalarning qiziqishlari va individual imkoniyatlariga mos tashkil etish, ularga sog‘lom turmush tarzining afzalliklarini amaliy jihatdan namoyish etish va muntazam jismoniy faollikni kundalik hayotning ajralmas qismiga aylantirish muhimdir. Harakatli o‘yinlar, sport mashg‘ulotlari, mustaqil jismoniy mashqlar, sog‘lomlashtiruvchi tadbirlar va raqamli monitoring vositalaridan foydalanish ushbu jarayonning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Talabalarda sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish ularning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda psixologik barqarorligi, mehnat va o‘qish qobiliyati, ijtimoiy faolligi hamda o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Sog‘lom turmush tarziga ongli ravishda amal qiladigan talaba o‘z kun tartibini rejalashtirish, jismoniy yuklamani nazorat qilish va salomatligi uchun mas’uliyatni his qilish kabi muhim kompetensiyalarga ega bo‘ladi.

Mazkur muammoni pedagogik jihatdan o‘rganish talabalarning sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, samarali pedagogik usullarni ishlab chiqish va ularni oliy ta’lim amaliyotiga joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya va sport faoliyatini sog‘lomlashtiruvchi ta’lim-tarbiya bilan uyg‘unlashtirish talabalarning sog‘lom hayot tarziga bo‘lgan barqaror munosabatini shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi – talabalarda sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslarini aniqlash, samarali pedagogik vosita va usullarni ishlab chiqish hamda ularning talabalarning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan munosabati va jismoniy faolligiga ta’sirini baholashdan iborat.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Tadqiqot talabalarda sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslarini aniqlash hamda taklif etilgan pedagogik yondashuvlarning samaradorligini baholash maqsadida pedagogik tajriba asosida tashkil etildi. Tadqiqotda jami 40 nafar talaba ishtirok etdi. Ishtirokchilar teng miqdorda tajriba guruhi (20 nafar) va nazorat guruhi (20 nafar)ga ajratildi. Tadqiqot 8 hafta davomida amalga oshirildi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida talabalarning sog‘lom turmush madaniyati va jismoniy faollik darajasi o‘rganildi. Bunda anketa-so‘rovnoma, pedagogik kuzatuv, suhbat va pedagogik testlash usullaridan foydalanildi. So‘rovnoma orqali talabalarning kun tartibiga rioya qilishi, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish chastotasi, ovqatlanish madaniyati, shaxsiy gigiyena, dam olish va uyqu tartibi hamda sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan munosabati aniqlandi.

Talabalarning jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash uchun 30 metrga yugurish, 4×9 metrga mokisimon yugurish, joyidan uzunlikka sakrash, 1 daqiqa davomida gavdani ko‘tarish va 1000 metrga yugurish testlaridan foydalanildi. Shuningdek, kundalik jismoniy faollikni aniqlash maqsadida kunlik qadamlar soni va faol harakatga sarflangan vaqt qayd etildi. Mazkur ko‘rsatkichlar tadqiqot boshida va 8 haftalik tajriba yakunida qayta o‘lchandi.

Tajriba guruhida sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirishga qaratilgan kompleks pedagogik yondashuv qo‘llanildi. Mashg‘ulotlar davomida talabalarga jismoniy faollikning salomatlik uchun ahamiyati, ratsional ovqatlanish, kun tartibi, faol dam olish va shaxsiy gigiyena bo‘yicha qisqa nazariy ma’lumotlar berildi. Nazariy bilimlar amaliy jismoniy mashqlar bilan uyg‘unlashtirildi. Talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda jismoniy yuklama bosqichma-bosqich oshirib borildi.

Tajriba guruhida haftasiga 3 marotaba, har biri 50–60 daqiqa davom etadigan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari tashkil etildi. Mashg‘ulotlarning tayyorlov qismida 10–15 daqiqa davomida yengil yugurish va umumrivojlantiruvchi mashqlar bajarildi. Asosiy qismda 30–35 daqiqa davomida kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlikni rivojlantiruvchi mashqlar, harakatli o‘yinlar hamda aylanma mashg‘ulotlardan foydalanildi. Yakuniy qismda 5–10 daqiqa davomida tiklanish, nafas olish va cho‘zilish mashqlari bajarildi.

Talabalarning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish uchun individual maqsad belgilash, o‘z-o‘zini nazorat qilish, rag‘batlantirish, guruhli topshiriqlar va mini-musobaqalar tashkil etildi. Talabalarga kundalik qadamlar soni va jismoniy faollik vaqtini mustaqil qayd etish topshirildi. Haftalik natijalar tahlil qilinib, talabalarga individual tavsiyalar berildi. Bu yondashuv ularda o‘z salomatligi uchun shaxsiy mas’uliyatni oshirishga xizmat qildi.

Nazorat guruhida esa oliy ta’lim muassasasida amalda qo‘llanilayotgan an’anaviy jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari asosida ish olib borildi. Mazkur guruhda maxsus ishlab chiqilgan kompleks pedagogik dastur va individual monitoring tizimi muntazam ravishda qo‘llanilmadi. Bu tajriba yakunida ikki guruh natijalarini taqqoslash orqali taklif etilgan pedagogik yondashuvlarning samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlandi. Bunda o‘rtacha arifmetik qiymat (M), standart og‘ish (SD), absolyut va nisbiy o‘zgarishlar hamda foiz ko‘rsatkichlari hisoblandi. Tajriba boshidagi va yakunidagi natijalar o‘zaro taqqoslanib, tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlar tahlil qilindi.

Shunday qilib, tadqiqot metodikasi sog‘lom turmush madaniyatining bilim, munosabat va amaliy xulq-atvor komponentlarini birgalikda shakllantirishga yo‘naltirildi. Jismoniy mashqlarni nazariy tushuntirish, individual yondashuv, muntazam monitoring, motivatsion rag‘batlantirish va mustaqil jismoniy faoliyatni uyg‘unlashtirish asosiy pedagogik ta’sir vositalari sifatida belgilandi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. 8 haftalik pedagogik tajriba yakunida talabalarda sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlarning samaradorligi baholandi. Tajriba boshida tajriba va nazorat guruhlarining sog‘lom turmush tarzi, jismoniy faolligi va jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari bir-biriga yaqin bo‘ldi. Tajriba davomida tajriba guruhida jismoniy mashg‘ulotlar bilan bir qatorda sog‘lom ovqatlanish, kun tartibi, faol dam olish, shaxsiy gigiyena va o‘z-o‘zini nazorat qilish bo‘yicha pedagogik yondashuvlar muntazam qo‘llanildi.

Tadqiqot yakunida talabalarning sog‘lom turmush madaniyatining asosiy komponentlari bo‘yicha o‘zgarishlar quyidagicha qayd etildi.

1-jadval. Talabalarning sog‘lom turmush madaniyati ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Tajriba guruhi dastlab	Tajriba guruhi yakuniy	O‘zgarish, %	Nazorat guruhi dastlab	Nazorat guruhi yakuniy
Muntazam jismoniy mashg‘ulotlarga amal qilish, %	52	86	65,4	54	68
Kun tartibiga rioya qilish, %	58	82	41,4	57	68
Sog‘lom ovqatlanish tamoyillariga amal qilish, %	61	84	37,7	60	69

Faol dam olishga ajratilgan vaqt, daqiqa/kun	32	51	59,4	33	40
Shaxsiy gigiyena talablariga rioya qilish, %	72	91	26,4	71	78
Sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha bilim darajasi, %	63	89	41,3	62	72

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida sog‘lom turmush madaniyatining barcha asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha ijobiy dinamika kuzatildi. Eng katta o‘zgarish muntazam jismoniy mashg‘ulotlarga amal qilish ko‘rsatkichida qayd etildi: dastlabki 52% dan tajriba yakunida 86% gacha oshdi. Bu 34 foiz punktlik o‘sishni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkich 54% dan 68% gacha oshib, 14 foiz punktlik o‘zgarish bilan cheklandi.

Faol dam olishga ajratilgan vaqt tajriba guruhida kuniga 32 daqiqadan 51 daqiqagacha oshdi. Natijada ushbu ko‘rsatkichning nisbiy o‘sishi 59,4% ni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa faol dam olish vaqti 33 daqiqadan 40 daqiqagacha oshdi. Mazkur natija talabalarga faol dam olishning ahamiyatini tushuntirish va ularni mustaqil jismoniy faoliyatga jalb etish samarali pedagogik vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Tajriba guruhida kun tartibiga rioya qilish darajasi 58% dan 82% gacha, sog‘lom ovqatlanish tamoyillariga amal qilish 61% dan 84% gacha oshdi. Shaxsiy gigiyena talablariga rioya qilish ko‘rsatkichi esa 72% dan 91% gacha yaxshilandi. Sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha bilim darajasi 63% dan 89% gacha ko‘tarildi. Bu natijalar nazariy tushuntirish va amaliy faoliyatni uyg‘unlashtirish talabalarning sog‘lom turmush haqidagi bilimlarini kundalik xulq-atvoriga tatbiq etishiga yordam berganini ko‘rsatadi.

Tajriba jarayonida talabalarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari ham qayta baholandi.

2-jadval. Talabalarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari dinamikasi

Testlar	Guruh	Dastlabki natija (M±SD)	Yakuniy natija (M±SD)	Yaxshilanish
30 m yugurish, soniya	Tajriba	5,42±0,31	5,08±0,27	6,27%
	Nazorat	5,39±0,29	5,29±0,28	1,86%
4×9 m mokisimon yugurish, soniya	Tajriba	10,21±0,42	9,54±0,36	6,56%
	Nazorat	10,18±0,39	9,96±0,37	2,16%
Joyidan uzunlikka sakrash, sm	Tajriba	178±11,4	193±10,8	8,43%
	Nazorat	180±10,9	186±10,7	3,33%
Gavdani ko‘tarish, marta	Tajriba	24±3,1	31±3,4	29,17%
	Nazorat	25±3,0	28±3,2	12,00%
1000 m yugurish, daqiqa	Tajriba	5:12±0:21	4:48±0:18	7,69%
	Nazorat	5:10±0:20	5:01±0:19	2,90%

Jismoniy tayyorgarlik natijalarining tahlili ham tajriba guruhida yuqori ijobiy dinamika mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, 30 metrga yugurish natijasi 5,42 soniyadan 5,08 soniyagacha yaxshilandi. 4×9 metrga mokisimon yugurish natijasi 10,21 soniyadan 9,54 soniyagacha qisqardi. Joyidan uzunlikka sakrash natijasi 178 sm dan 193 sm gacha, gavdani ko‘tarish natijasi esa 24 martadan 31 martagacha oshdi. 1000 metrga yugurish vaqti 5 daqiqa 12 soniyadan 4 daqiqa 48 soniyagacha qisqardi.

Mazkur o‘zgarishlarni tajriba guruhida qo‘llanilgan pedagogik yondashuvlarning kompleksligi bilan izohlash mumkin. Talabalarga sog‘lom turmush tarzining nazariy asoslarini berish bilan birga ularni amaliy jismoniy faoliyatga jalb qilish, individual maqsadlarni belgilash, natijalarni monitoring qilish va muntazam rag‘batlantirish ularning faol ishtirokini ta’minladi.

Ayniqsa, individual yondashuv talabalarning jismoniy imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olish imkonini berdi. Jismoniy tayyorgarligi nisbatan past bo‘lgan talabalar uchun yuklama bosqichma-bosqich oshirildi, yuqori tayyorgarlikka ega talabalar uchun esa murakkabroq mashqlar berildi. Natijada mashg‘ulotlarda ortiqcha yuklama berish xavfi kamayib, talabalarning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi oshdi.

Motivatsion pedagogik usullar ham muhim natija berdi. Mini-musobaqalar, guruhli topshiriqlar, individual natijalarni qayd etish va rag‘batlantirish talabalarning mashg‘ulotlarda faol qatnashishiga yordam berdi. Talabalarning o‘z natijalarini muntazam kuzatib borishi ularda sog‘lom turmush tarziga nisbatan shaxsiy mas’uliyatni shakllantirdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish faqat jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etish bilan cheklanmasligi kerak. Ushbu jarayonda jismoniy faollik, sog‘lom ovqatlanish, kun tartibi, faol dam olish, gigiyena va o‘z-o‘zini nazorat qilish elementlari o‘zaro bog‘liq holda olib borilganda yuqoriroq natijaga erishish mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari talabalarda sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish jarayonida jismoniy tarbiya va pedagogik ta’sir vositalarini kompleks qo‘llash samarali ekanligini ko‘rsatdi. 8 haftalik pedagogik tajriba davomida tajriba guruhida sog‘lom turmush tarziga oid nazariy bilimlarni amaliy jismoniy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, individual yondashuv, motivatsion rag‘batlantirish, muntazam monitoring va mustaqil faoliyatni tashkil etishga alohida e’tibor qaratildi.

Tajriba yakunida tajriba guruhida muntazam jismoniy mashg‘ulotlarga amal qilish ko‘rsatkichi 52% dan 86% gacha, kun tartibiga rioya qilish 58% dan 82% gacha, sog‘lom ovqatlanish tamoyillariga amal qilish 61% dan 84% gacha, sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha bilim darajasi esa 63% dan 89% gacha oshdi. Shuningdek, faol dam olishga ajratiladigan vaqtning 32 daqiqadan 51 daqiqagacha ko‘payishi talabalarning kundalik hayotida jismoniy faollikning ortganligini ko‘rsatdi.

Jismoniy tayyorgarlik natijalarida ham ijobiy dinamika kuzatildi. Tajriba guruhida 30 metrga yugurish, 4×9 metrga mokisimon yugurish, joyidan uzunlikka sakrash, gavdani ko‘tarish va 1000 metrga yugurish ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq darajada yaxshilandi. Ayniqsa, gavdani ko‘tarish natijasining 24 martadan 31 martagacha oshishi talabalarning kuch sifatini rivojlantirishda qo‘llanilgan mashqlar samarali bo‘lganini ko‘rsatdi.

Tadqiqot asosida talabalarda sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish uchun jismoniy faollik, sog‘lom ovqatlanish, kun tartibi, faol dam olish, shaxsiy gigiyena va o‘z-o‘zini nazorat qilish yo‘nalishlarini yagona pedagogik tizim asosida tashkil etish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Bunda pedagogning muntazam maslahat va rag‘batlantirishi, talabaning

individual imkoniyatlarini hisobga olish hamda o‘z natijalarini mustaqil monitoring qilishi muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ilon zahari fermentlarining nafaqat toksikologik, balki farmakologik va biotexnologik ahamiyatga ham ega ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, gürza zaharidagi fibrinogenolitik va trombolitik fermentlar yurak-qon tomir kasalliklarini davolashda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan istiqbolli biologik faol birikmalar sifatida baholandi. Shu bois Qoraqalpog‘iston hududidagi zaharli ilonlar zaharining molekulyar tarkibi va biologik xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish yangi diagnostik vositalar hamda innovatsion dori preparatlarini yaratish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Markland F.S. Snake venoms and the hemostatic system // *Toxicon*. – 1998. – Vol. 36, No. 12. – P. 1749–1800.
2. Gutiérrez J.M., Rucavado A. Snake venom metalloproteinases: their role in the pathogenesis of local tissue damage // *Toxicon*. – 2000. – Vol. 38. – P. 1445–1460.
3. Swenson S., Markland F.S. Snake venom fibrinolytic enzymes // *Toxicon*. – 2005. – Vol. 45. – P. 1021–1039.
4. Fry B.G. *Venomous Reptiles and Their Toxins: Evolution, Pathophysiology and Biodiscovery*. – Oxford: Oxford University Press, 2015. – 574 p.
5. Oliveira A.L., Viegas M., Da Silva S.L. et al. The chemistry of snake venom and its medicinal potential // *Nature Reviews Chemistry*. – 2022. – Vol. 6. – P. 451–469.
6. Offor B.C., Muller B., Piater L. A Review of the Proteomic Profiling of African Viperidae and Elapidae Snake Venoms and Their AntivenomNeutralisation // *Toxins*. – 2022. – Vol. 14, No. 11. – P. 1–28.
7. Ferraz C.R., Arrahman A., Xie C. et al. Multifunctional toxins in snake venoms and therapeutic implications // *Frontiers in Ecology and Evolution*. – 2019. – Vol. 7. – P. 1–16.

АКТОПРОТЕКТОРНАЯ АКТИВНОСТЬ НОВОЙ КОМБИНАЦИИ НА ОСНОВЕ L-КАРНИТИНА: ВЫНОСЛИВОСТЬ И БИОХИМИЧЕСКИЙ ОТВЕТ НА НАГРУЗКУ У КРЫС

Тагангылыджова М.[1], Касымов А.Ш.[1]
Ташкентский фармацевтический институт, Узбекистан, г. Ташкент
E-mail:mehri2112@inbox.ru

Ключевые слова: *L-карнитин, тиотриазолин, янтарная кислота, актопротектор, плавание с грузом, выносливость, креатинкиназа, лактатдегидрогеназа.*

Актуальность. Поддержание высокой физической работоспособности необходимо не только спортсменам, но и представителям профессий, связанных с длительными нагрузками, в том числе в условиях жаркого климата. После того как

метаболические модуляторы мельдоний и триметазидин были включены Всемирным антидопинговым агентством в Запрещённый список [1, 2], возрос интерес к разрешённым веществам, улучшающим энергообмен мышцы. Однако каждое из них в отдельности даёт, как правило, умеренный эффект, поскольку утомление складывается из нескольких звеньев — энергетического дефицита, окислительного повреждения мембран и сдвигов гормонального баланса [3, 4].

Степень изученности. Механизмы действия компонентов изучаемой комбинации хорошо известны. L-карнитин переносит жирные кислоты в митохондрии и связывает избыток ацетил-КоА [5], янтарная кислота поддерживает работу дыхательной цепи через комплекс II при недостатке кислорода [6], тиотриазолин активирует собственные антиоксидантные ферменты клетки и стабилизирует мембраны [7]. Влияние каждого из этих веществ на выносливость животных описано в литературе [8, 9], однако их совместное действие на работоспособность и биохимический профиль крови ранее не изучалось.

Цель исследования — оценить влияние комбинации L-карнитина, тиотриазолина и янтарной кислоты на выносливость крыс в тесте плавания с грузом и на биохимические показатели крови в сравнении с отдельными компонентами.

Задачи: 1) определить время плавания крыс с грузом до отказа на 7-е, 14-е и 21-е сутки введения комбинации и её компонентов; 2) изучить динамику активности ферментов и содержания метаболитов и гормонов в крови после нагрузки; 3) сравнить эффект комбинации с эффектом каждого компонента.

Материалы и методы. Опыты проведены на беспородных крысах-самцах массой 200 ± 20 г после 14-суточного карантина. Животных распределили на 5 групп по 5 особей: контроль (дистиллированная вода); комбинация- 200 мг/кг; янтарная кислота- 500 мг/кг; L-карнитин- 500 мг/кг; тиотриазолин- 100 мг/кг. Вещества вводили внутрижелудочно ежедневно в течение 21 суток. Выносливость оценивали по времени плавания с грузом, равным 10 % массы тела и закреплённым на хвосте, в ёмкости 40 × 40 × 80 см до отказа [10, 11]. После появления признаков утомления на 7-е, 14-е и 21-е сутки у животных брали кровь и определяли активность АЛТ, АСТ, ЛДГ, КФК, содержание холестерина и общего белка на анализаторе Humalyzer Primus (Германия), кортизола и тестостерона — иммуноферментным методом на анализаторе Mindray MR-96A (Китай). Результаты обрабатывали в программе STATISTICA, различия считали достоверными при $p < 0,05$ [12].

Результаты и их анализ. Комбинация увеличивала время плавания с грузом уже к 7-м суткам — на 90 % по сравнению с контролем. Эффект нарастал по ходу курса и составил 156 % на 14-е и 227 % на 21-е сутки. На всех сроках комбинация превосходила каждый компонент, причём разрыв со временем увеличивался (табл. 1). Это особенно примечательно, если учесть, что суммарная доза комбинации была в 2,5 раза меньше доз янтарной кислоты и L-карнитина в монотерапии.

Таблица 1. Прирост времени плавания крыс с грузом в группе комбинации, %

Срок введения	К контролю	К янтарной кислоте	К L-карнитину	К тиотриазолину
7-е сутки	+90	+17,4	+26,8	+20,0
14-е сутки	+156	+20,5	+23,4	+22,1
21-е сутки	+227	+35,0	+40,2	+36,8

Биохимические показатели крови после нагрузки менялись в две фазы. На 7-е сутки у всех получавших вещества крыс были повышены АСТ и ЛДГ и снижен холестерин, на 14-е сутки — повышены АЛТ, АСТ и кортизол. Эти сдвиги мы связываем не с токсическим действием, а с тем, что животные опытных групп плавали в 2–3 раза дольше контрольных и, соответственно, выполняли значительно больший объём работы [4]. Показательно, что даже в этот период КФК — наиболее специфичный маркер повреждения скелетных мышц — оставалась ниже контроля, а у комбинации все сдвиги были наименее выражены.

К 21-м суткам в группе комбинации наступала экономизация обменных процессов (табл. 2). При максимальной продолжительности плавания активность АСТ была ниже контроля на 41 %, КФК — на 23 %, ЛДГ — на 69 %; содержание общего белка повышалось на 14,6 %, тестостерона — на 6,7 %, а кортизол и АЛТ не отличались от контроля. По снижению маркеров повреждения мышц комбинация превосходила все компоненты, что указывает на лучшую сохранность мембран мышечных клеток. В то же время общий белок и тестостерон сильнее повышались при монотерапии L-карнитином и тиотриазолином, вероятно, из-за их более высоких доз.

Таблица 2. Биохимические показатели крови крыс после нагрузки на 21-е сутки (M ± m, n = 5)

Показатель	Контроль	Комбинация	Янтарная кислота	L-карнитин	Тиотриазолин
АСТ	210,9 ± 24,6	124,4 ± 6,6*	232,5 ± 2,3	201,7 ± 3,9	200,9 ± 4,2
КФК	300,1 ± 3,2	231,5 ± 2,5*	258,2 ± 6,1*	244,3 ± 1,5*	244,3 ± 1,8*
ЛДГ	531,4 ± 47,9	165,6 ± 2,4*	229,4 ± 9,7*	201,7 ± 4,0*	216,8 ± 3,0*
АЛТ	71,2 ± 0,9	94,4 ± 11,7	135,2 ± 22,5*	91,1 ± 1,8*	91,4 ± 1,9*
Общий белок	71,1 ± 3,7	81,5 ± 1,0*	76,3 ± 1,3	85,2 ± 1,5*	85,5 ± 1,0*
Тестостерон	0,742 ± 0,013	0,792 ± 0,003*	0,818 ± 0,012*	0,812 ± 0,007*	0,824 ± 0,011*
Кортизол	65,8 ± 0,1	64,9 ± 0,4	66,5 ± 0,5	69,9 ± 3,5	70,3 ± 3,3

Примечание: * — $p < 0,05$ по сравнению с контролем. Дозы: комбинация 200 мг/кг, янтарная кислота и L-карнитин по 500 мг/кг, тиотриазолин 100 мг/кг.

Преимущество комбинации именно в тесте плавания с грузом, по-видимому, связано с характером этой нагрузки: работа с отягощением в воде протекает в условиях относительной гипоксии, при которой сукцинат поддерживает перенос электронов в дыхательной цепи [6], L-карнитин уменьшает образование лактата [5], а тиотриазолин

ограничивает окислительное повреждение мембран [7]. Сочетание этих механизмов даёт эффект, которого не удаётся достичь ни одним веществом в отдельности.

Выводы. 1Комбинация L-карнитина, тиотриазолина и янтарной кислоты в дозе 200 мг/кг при 21-суточном введении увеличивает время плавания крыс с грузом на 227 % по сравнению с контролем и на 35–40 % превосходит каждый компонент, вводимый в монотерапии в больших дозах. Преходящий рост АСТ, ЛДГ, АЛТ и кортизола на 7–14-е сутки к 21-м суткам сменяется снижением АСТ, КФК и ЛДГ и повышением общего белка и тестостерона, что отражает экономизацию обменных процессов при нагрузке. Полученные данные обосновывают дальнейшую разработку комбинации как разрешённого средства метаболической поддержки при интенсивных физических нагрузках.

Списоклитературы

1. World Anti-Doping Agency. The 2026 Prohibited List: International Standard. — Montreal: WADA, 2025. — URL: https://www.wada-ama.org (датаобращения: 15.10.2026).

2. Dambrova M., Makrecka-Kuka M., Vilskersts R. et al. Pharmacological effects of meldonium: biochemical mechanisms and biomarkers of cardiometabolic activity // Pharmacol. Res. — 2016. — Vol. 113. — P. 771–780.

3. Oliynyk S., Oh S. The pharmacology of actoprotectors: practical application for improvement of mental and physical performance // Biomol. Ther. (Seoul). — 2012. — Vol. 20, № 5. — P. 446–456.

4. Brancaccio P., Lippi G., Maffulli N. Biochemical markers of muscular damage // Clin. Chem. Lab. Med. — 2010. — Vol. 48, № 6. — P. 757–767.

5. Stephens F.B., Constantin-Teodosiu D., Greenhaff P.L. New insights concerning the role of carnitine in the regulation of fuel metabolism in skeletal muscle // J. Physiol. — 2007. — Vol. 581, № 2. — P. 431–444.

6. Tretter L., Patocs A., Chinopoulos C. Succinate, an intermediate in metabolism, signal transduction, ROS, hypoxia, and tumorigenesis // Biochim. Biophys. Acta. — 2016. — Vol. 1857, № 8. — P. 1086–1101.

7. Беленичев И.Ф., Визир В.А., Мамчур В.И., Курята А.В. Место тиотриазолина в галерее современных метаболитотропных лекарственных средств // Запорожский медицинский журнал. — 2019. — Т. 21, № 1. — DOI: 10.14739/2310-1210.2019.1.155856.

8. Posridee K., Kupittayanant S., Rachnavy P. et al. Role of ginseng and L-carnitine in modulating exercise endurance and oxidative stress in rats // Nutrients. — 2025. — Vol. 17, № 3. — P. 568.

9. Радько С.В., Дулепов А.Д. Влияние сукцинатсодержащих препаратов на физическую работоспособность и восстановление после нагрузки // Фармакокинетика и фармакодинамика. — 2019. — № 1. — С. 3–5.

10. Каркищенко В.Н., Берзин И.А., Касинская Н.В., Деньгина С.Е. Оценка физической выносливости мелких лабораторных животных на фоне применения спортивного питания «МиоАктив Форсаж» // Биомедицина. — 2013. — № 4. — С. 66–69.

11. Huang W.C., Hsu Y.J., Wei L. et al. Association of physical performance and biochemical profile of mice with intrinsic endurance swimming // Int. J. Med. Sci. — 2016. — Vol. 13, № 12. — P. 892–901.

12. Руководство по экспериментальному (доклиническому) изучению новых фармакологических веществ / под общ. ред. Р.У. Хабриева. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Медицина, 2005. — 832 с.

MUSOBAQA OLDI STRESSI VA UNING SPORTCHILAR FAOLIYATIGA PSIXOLOGIK TA’SIRI

Alliyarova Aygul Dauletyarovna
Osiyo xalqaro universiteti 1-kurs magistranti

Kalit so‘zlar: *musobaqa oldi stressi, kognitiv baholash, Yerkes–Dodson qonuni, startoldi hayajoni, emosional barqarorlik, koping-strategiyalar, sport natijadorligi, psixologik tayyorgarlik.*

Ключевые слова: *Предсоревновательный стресс, когнитивная оценка, закон Йеркса–Додсона, предстартовая тревожность, эмоциональная устойчивость, копинг-стратегии, спортивная результативность, психологическая подготовка.*

Keywords*: Pre-competition stress, cognitive appraisal, Yerkes–Dodson law, pre-start anxiety, emotional stability, coping strategies, athletic performance, psychological preparation.*

Dolzarbligi: Zamonaviy sportda sportchilarning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlik darajasi tobora tenglashib bormoqda. Bunday sharoitda musobaqalardagi g‘alaba va yuqori natijalarni belgilab beruvchi hal qiluvchi omil sifatida sportchining psixologik tayyorgarligi va emosional barqarorligi birinchi o‘ringa chiqmoqda. Yuqori darajadagi musobaqalar, tomoshabinlar va OAV bosimi, murabbiy ile jamiyat kutgan natijalar, shuningdek, kuchli raqobat sportchida jiddiy psixologik zo‘riqish – musobaqa oldi stressini keltirib chiqaradi. Musobaqa oldi stressi to‘g‘ri boshqarilmagan taqdirda diqqatning chalg‘ishiga, harakatlar koordinatsiyasining buzilishiga, qaror qabul qilish tezligining pasayishiga va oqibatda sportchining yillar davomida to‘plagan salohiyatini to‘liq namoyon eta olmasligiga olib keladi. Biroq, stress nafaqat salbiy, balki optimal darajada yo‘naltirilsa, organizmni safarbar etuvchi va natijadorlikni oshiruvchi resurs vazifasini ham bajarishi mumkin. Shu sababli, musobaqa oldi stressining psixologik tabiatini, uning sportchi faoliyatiga ta’sir etish mexanizmlarini chuqur o‘rganish va uni boshqarishning ilmiy asoslangan usullarini amaliyotga joriy etish zamonaviy sport psixologiyasi va jismoniy tarbiya nazariyasining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: musobaqa oldi stressining psixologik mohiyati va yuzaga kelish sabablarini chuqur tahlil qilish, uning sportchilarning musobaqa jarayonidagi faoliyatiga (diqqat, qaror qabul qilish, texnik harakatlar va emosional holat) ko‘rsatadigan ta’sirini ilmiy jihatdan asoslash hamda stressni optimal darajada boshqarish va sportchilarning psixologik barqarorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar va metodologik yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari: Musobaqa oldi stressini boshqarish va uni ijobiy quvvatga yo‘naltirishda nafasa olish texnikalari (diafragmal nafas orqali nerv tizimini tinchlantirish), mental trening va vizualizatsiya (musobaqa jarayonini hamda g‘alabani hayolan jonlantirish), ijobiy o‘z-o‘ziga murojaat (salbiy fikrlarni konstruktiv motivatsiyaga aylantirish), aniq jarayonga yo‘naltirilgan maqsadlarni belgilash hamda musobaqa oldi individual rutinalarini (odatiy xatti-harakatlar ketma-ketligini) qo‘llash kabi ilmiy asoslangan psixologik tayyorgarlik usullari muhim rol o‘ynaydi

Tajriba natiyjalari:

Tadqiqot va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, musobaqa oldi stressi sportchi faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi to‘siq emas, balki to‘g‘ri va o‘z vaqtida boshqarilsa, uning jismoniy hamda psixologik imkoniyatlarini maksimal darajada safarbar etuvchi muhim resursdir. Sportchining emosional holati, diqqat konsentratsiyasi va harakatlar aniqligi uning stressni qanday kognitiv baholashiga hamda qo‘zg‘alish darajasining optimal nuqtada ushlab turilishiga bevosita bog‘liq. Natijada, musobaqa oldidan qo‘llaniladigan nafas mashqlari, mental trening, ijobiy va realistik o‘z-o‘ziga murojaat hamda aniq yo‘naltirilgan rutinalar sportchining xavotir darajasini pasaytirib, uning emosional barqarorligini ta’minlaydi, bu esa eng mas’uliyatli daqiqalarda yuksak sport natijalariga erishish va musobaqa davomida yuqori raqobatbardoshlikni saqlab qolish imkonini beradi.

ASOSIY QISIM. Zamonaviy sport olami nafaqat jismoniy, texnik va taktik mahoratning, balki shaxsning ekstremal psixologik sharoitlardagi bardoshliligining ulkan sinov maydoniga aylanib bormoqda. Xalqaro va mahalliy miqyosdagi yirik musobaqalar, yuqori raqobat muhiti, tomoshabinlar va murabbiylarning talablari hamda sportchining o‘z oldiga qo‘ygan ulkan maqsadlari uning psixofiziologik tizimiga favqulodda kuchlanish yuklaydi. Sportchining jismoniy tayyorgarligi qanchalik mukammal bo‘lmasin, musobaqa oldidan yuzaga keladigan psixologik zo‘riqishlarni boshqara olmaslik ko‘pincha kutilgan natijaga erishishga to‘sqinlik qiladi. Sport psixologiyasi fanining asosiy vazifalaridan biri aynan ana shu startoldi jarayonlarini o‘rganish, sportchining emosional barqarorligini ta’minlash va uning yashirin psixologik resurslarini ochib berishdan iboratdir [4]. Ushbu tezisning dolzarbligi shundaki, u musobaqa oldi stressining kelib chiqish tabiatini chuqur ilmiy tahlil qilish va uni amaliyotda samarali boshqarish yo‘llarini ilmiy asoslashni talab etadi.

Sport psixologiyasida stress, xavotir, qo‘rquv, hayajon va psixologik zo‘riqish tushunchalari ko‘pincha sinonim sifatida qo‘llanilsa-da, ilmiy adabiyotlarda ular tubdan farq qiladi. Hans Selye ta’rifiga ko‘ra, stress organizmning har qanday talabga javoban namoyon bo‘ladigan, o‘ziga xos bo‘lmagan reaksiyasidir. Sport faoliyatida esa stress ko‘pincha tashqi talablar va shaxsning mavjud imkoniyatlari o‘rtasidagi nomutanosiblik sifatida namoyon bo‘ladi. Xavotir ise kelajakdagi noaniqlik va ehtimoliy xavf-xatar tufayli yuzaga keladigan, aniq manbasi ko‘rinmaydigan emosional holat bo‘lib, u shaxsiy xavotirlanish va vaziyatli xavotir turlariga bo‘linadi [1]. Qo‘rquv tushunchasi aniq va real tahdidga nisbatan yuzaga kelsa, startoldi hayajoni sportchining musobaqaga kirishish oldidan fiziologik va psixologik faollashuvi sifatida organizmni safarbar qiluvchi ijobiy jarayon bo‘lib xizmat qiladi. Richard Lazarus va Syuzan Folkman ishlab chiqqan kognitiv baholash nazariyasiga muvofiq, stress vaziyatning o‘zidan emas, balki sportchining o‘sha vaziyatni qanday baholashidan kelib chiqadi. Agar sportchi musobaqa talablarini o‘zining jismoniy va psixologik resurslaridan yuqori deb baholasagina, u yerda destruktiv stress yuzaga keladi, aks holda vaziyat qiyinchilik yoki imkoniyat sifatida qabul qilinadi [1].

Musobaqa oldidan stress darajasining keskin oshishiga ta’sir etuvchi omillar majmui juda keng bo‘lib, ular bir vaqtning o‘zida ham tashqi, ham ichki xarakterga ega. Birinchidan, natijaga qo‘yilgan o‘ta yuqori talablar va jamiyat hamda murabbiylar tomonidan bildirilayotgan ijtimoiy kutishlar sportchining zimmasiga og‘ir mas’uliyat yuklaydi. Ikkinchidan, mag‘lubiyatdan qo‘rqish, obro‘ni yo‘qotish, uzoq yillik mehnatlarning yo‘qqa chiqishi yoki homiylar va muxlislarning ishonchini oqlay olmaslik qo‘rquvi stressni keltirib chiqaruvchi asosiy katalizatorlardan biridir. Uchinchidan, raqibning kuchi, uning taktik ustunligi va oldingi o‘zaro uchrashuvlardagi muvaffaqiyatsizliklar ham sportchining psixologik holatiga salbiy ta’sir

ko‘rsatishi mumkin [5]. Shuningdek, sportchining shaxsiy xususiyatlari, temperamenti, nevrotizm darajasi va musobaqa tajribasining kamligi ham stressga moyillikni belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Stress va hayajonning sport natijalariga ko‘rsatadigan ta’sirini tushuntirishda Robert Yerkes va Jon Dodson tomonidan taklif etilgan teskari U shaklidagi qonuniyat muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [2]. Ushbu qonuniyatga ko‘ra, qo‘zg‘alish darajasi juda past bo‘lganda sportchining motivatsiyasi va faolligi yetishmaydi, natijada ko‘rsatkichlar past bo‘ladi. Aksincha, qo‘zg‘alish darajasi haddan tashqari yuqori bo‘lib ketganda ham kuchli stress, vahima va emosional buzilishlar tufayli sport natijasi keskin pasayib ketadi. Optimal sport natijasiga erishish uchun qo‘zg‘alish darajasi o‘rtacha, ya’ni optimal zonada bo‘lishi talab etiladi. Biroq, zamonaviy sport psixologiyasi tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, Yerkes–Dodson qonuni barcha sport turlari uchun bir xil ishlaydigan qat’iy qoida emas. Xususan, o‘q otish, kamondan otish, gimnastika kabi aniqlik va nozik motorikani talab qiluvchi sport turlarida hayajon va qo‘zg‘alish darajasining biroz pastroq bo‘lishi maqsadga muvofiqdir, chunki ortiqcha stress qo‘l titrashi va diqqatning parokandaligiga olib keladi. Bunga qarama-qarshi ravishda, og‘ir atletika, yugurish, kurash va jamoaviy tezkor sport turlarida yuqori darajadagi fiziologik safarbarlik va sport g‘azabi talab qilinadi [4].

Musobaqa oldi stressi sportchining diqqat jarayonlariga, qaror qabul qilish tezligiga, harakatlarning aniqligiga va emosional barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Haddan tashqari kuchaygan stress diqqat hajmini toraytirib, sportchining atrofdagi muhim taktik o‘zgarishlarni sezishiga to‘sqinlik qiladi, axborotni qayta ishlash jarayonini sekinlashtiradi va xatoga yo‘l qo‘yish ehtimolini oshiradi. Shu boisdan ham, sportchining psixologik tayyorgarligida stressni boshqarish va uni boshqariladigan ijodiy hayajonga aylantirish mexanizmlarini o‘zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislar tadqiqotlarida qayd etilishicha, musobaqa oldi davrida sportchining psixologik holatini to‘g‘ri baholash uning musobaqa sharoitidagi barqarorligini ta’minlaydi.

Sportchining musobaqa oldi stressini yengishi va uni samarali resursga aylantirishi uchun bir qator ilmiy jihatdan asoslangan usullar qo‘llaniladi. Birinchidan, nafasni boshqarish texnikalari, xususan, diafragmatik nafas olish mashqlari orqali simpatik nerv tizimining haddan tashqari faolligini pasaytirib, parasimpatik tizimni faollashtirish va fiziologik muvozanatni tiklash mumkin. Ikkinchidan, vizualizatsiya va mental trening usullari yordamida sportchi o‘zining muvaffaqiyatli harakatlarini, texnik elementlarini va musobaqa muhitini ongida oldindan gavdalantirib, psixologik moslashuv hosil qiladi. Uchinchidan, ijobiy va realistik o‘z-o‘ziga murojaat qilish strategiyalari salbiy va vahimali fikrlarni bartaraf etib, o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi. To‘rtinchidan, aniq maqsadlarni belgilash va diqqatni yakuniy natijaga emas, balki bajarilishi kerak bo‘lgan texnik va taktik harakatlar jarayoniga qaratish muhim samara beradi. Shuningdek, musobaqa oldidan bajariladigan maxsus rutinalar, ya’ni aniq va takrorlanuvchi harakatlar ketma-ketligi sportchiga o‘zini xavfsiz va nazorat ostida his qilish imkoniyatini taqdim etadi [3].

Ushbu jarayonda sportchilar, murabbiylar va sport psixologlarining o‘zaro hamkorligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Sportchilar o‘zlarining ichki holatini kuzatishni, ortiqcha hayajon alomatlarini o‘z vaqtida sezishni va o‘z-o‘zini boshqarish usullarini amalda qo‘llashni o‘rganishlari zarur. Murabbiylar esa sportchiga nisbatan haddan tashqari qattiq psixologik bosim o‘tkazmasdan, xatolarga konstruktiv yondashishni, har bir sportchining individual psixotipini va temperament xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashishni ta’minlashlari

lozim. Sport psixologlari esa ilmiy asoslangan kognitiv-bixevioral yondashuvlar asosida maxsus psixologik treninglar tashkil etib, sportchining emosional barqarorligini mustahkamlashga ko‘maklashadilar [4].

Musobaqa oldi stressi sport faoliyatining muqarrar va tabiiy tarkibiy qismi bo‘lib, u to‘g‘ri boshqarilsa, sportchining yashirin imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi qudratli rag‘batga aylanishi mumkin. Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, stressni butunlay yo‘q qilishga intilish noto‘g‘ri yondashuv bo‘lib, asosiy maqsad uni anglash, optimal darajada ushlab turish va samarali koping-strategiyalar orqali boshqarishdan iboratdir [1]. Sportchilarning individual xususiyatlari, shug‘ullanayotgan sport turining o‘ziga xosligi va ilmiy asoslangan psixologik tayyorgarlik usullarini uyg‘unlashtirish musobaqalardagi raqobatbardoshlikni keskin oshiradi hamda barqaror yuqori natijalarga erishishni ta’minlaydi [3].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lazarus, R. S., & Folkman, S. (1984). *Stress, Appraisal, and Coping*. New York: Springer Publishing Company. (DOI: 10.1007/978-0-387-79493-8)

2. Yerkes, R. M., & Dodson, J. D. (1908). *The relation of strength of stimulus to rapidity of habit-formation*. Journal of Comparative Neurology and Psychology, 18(5), 459–482. (DOI: 10.1002/cne.920180503)

3. Qodirov, R. V. (2021). *Sport psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti. (Qarang: ZiyoNET elektron kutubxonasi)

4. Weinberg, R. S., & Gould, D. (2019). *Foundations of Sport and Exercise Psychology* (7th ed.). Human Kinetics. (Manba haqida batafsil: Human Kinetics rasmiy sayti)

5. Karimov, A. T. (2023). Sportchilarning musobaqa oldi psixologik tayyorgarligini takomillashtirish yo‘llari. *Jismoniy tarbiya va sport ilmiy axborotnomasi*, 2(4), 45–49. (Mavzu bo‘yicha tahliliy maqola: Cyberleninka ilmiy bazasi)

RAQAMLI MONITORING ASOSIDA SPORTCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Osiyo xalqaro universiteti 1-magistranti
Nazarbaev Dastan Sarsenbaevich

Kalit so‘zlar: *Jismoniy tayyorgarlik, raqamli monitoring, mashg‘ulot yuklamalari, sportchi, ichki yuklama, tashqi yuklama, yurak urish chastotasi, tiklanish, individual yondashuv, mashg‘ulot jarayoni..*

Ключевые слова: *Физическая подготовка, цифровой мониторинг, тренировочные нагрузки, спортсмен, внутренняя нагрузка, внешняя нагрузка, частота сердечных сокращений, восстановление, индивидуальный подход, тренировочный процесс.*

Keywords: *Physical fitness, digital monitoring, training loads, athlete, internal load, external load, heart rate, recovery, individual approach, training process.*

Kirish. Sportchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish mashg‘ulot yuklamalarini maqsadga muvofiq rejalashtirish, jismoniy sifatlarni izchil rivojlantirish va organizmning mashg‘ulotga moslashuv reaksiyasini nazorat qilishni talab etadi. Murabbiy faqat rejalashtirilgan mashqlarni emas, balki amalda bajarilgan ish hajmi, uning intensivligi va sportchining ushbu yuklamaga javobini ham hisobga olishi lozim. An’anaviy pedagogik kuzatuv muhimligicha qoladi, biroq ko‘plab mashg‘ulotlar va ko‘rsatkichlarni muntazam qayd etishda raqamli vositalar ma’lumotlarni tizimli yig‘ish va taqqoslash imkonini beradi.

Raqamli datchiklar, puls o‘lchagichlar, GPS qurilmalari, inersial sensorlar, mashg‘ulot platformalari va elektron kundaliklar mashg‘ulot davomiyligi, masofa, tezlik, quvvat, takrorlar soni hamda yurak urish chastotasi kabi ma’lumotlarni jamlashga yordam beradi.

Mashg‘ulot yuklamasi odatda tashqi va ichki tarkibiy qismlarga ajratiladi. Tashqi yuklama bajarilgan ishni - masofa, tezlik, quvvat, takrorlar, og‘irlik yoki davomiylikni ifodalaydi. Ichki yuklama esa sportchining fiziologik va subyektiv reaksiyasini tavsiflaydi; bunda yurak urish chastotasi (YUCh), subyektiv zo‘riqish bahosi (RPE) va o‘zini his qilish ko‘rsatkichlari qo‘llanadi. Bir xil tashqi topshiriq turli sportchilarda tayyorgarlik darajasi, charchoq, uyqu, stress va boshqa omillarga ko‘ra turlicha reaksiya yuzaga keltirishi mumkin.

Shu sababli ilmiy-amaliy muammo raqamli monitoring ma’lumotlarini mashg‘ulot yuklamasini oqilona taqsimlash, tiklanishni rejalashtirish va jismoniy tayyorgarlikni individuallashtirish bo‘yicha asoslangan qarorlarga aylantirishdan iborat. Monitoring murabbiy qarorini almashtiruvchi avtomatik tizim emas, balki uni ma’lumot bilan qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida qaralishi kerak.

Tadqiqotning maqsadi. Tadqiqotning maqsadi - sportchilarning jismoniy tayyorgarligini rejalashtirish va individuallashtirishda mashg‘ulot yuklamalarini raqamli monitoring qilish imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslash hamda monitoring ma’lumotlaridan foydalanishning konseptual ketma-ketligini taklif etish.

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: yuklama monitoringining asosiy ko‘rsatkichlarini tizimlashtirish; raqamli ma’lumotlar yordamida bajarilgan ish va sportchining unga reaksiyasini baholash imkoniyatlarini aniqlash; yuklamani tuzatish algoritmini ishlab chiqish; murabbiylar uchun amaliy tavsiyalarni shakllantirish.

Tadqiqotni tashkil etish usullari. Tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega. Ish jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, ichki va tashqi yuklamani monitoring qilish yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilish, ko‘rsatkichlarni tizimlashtirish va murabbiy qarorini qabul qilish algoritmini nazariy modellashtirish usullaridan foydalanildi. Ilmiy asos sifatida sport yuklamalarini monitoring qilish bo‘yicha konsensus hujjatlari, RPE usuli, sportchining tiklanish holati hamda taqiladigan texnologiyalarni qo‘llashga oid nashrlar o‘rganildi. Mazkur ish doirasida sportchilar ishtirokidagi pedagogik tajriba o‘tkazilmadi; shuning uchun real tanlanma, tajriba muddati yoki statistik samaradorlik natijalari keltirilmaydi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mashg‘ulot yuklamasini baholashda alohida ko‘rsatkich bilan cheklanish yetarli emas. YUCh yurak-qon tomir tizimining javobini ko‘rsatadi, biroq qisqa maksimal kuch yoki tezkorlik mashqlarida uning axborot qiymati cheklanishi mumkin. Tashqi yuklama bajarilgan ishni miqdoriy tavsiflaydi, ammo uning sportchi uchun ichki “narxi”ni to‘liq ifodalamaydi. RPE sportchining subyektiv zo‘riqishini qayd etadi; session-RPE esa mashg‘ulot tugagach berilgan zo‘riqish bahosini mashg‘ulot davomiyligiga ko‘paytirish orqali ichki yuklamaning soddalashtirilgan yig‘indi bahosini beradi.

1-jadval

Mashg‘ulot yuklamalarini raqamli monitoring qilishning asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	**Qayd etish usuli**	**Ifodalanishi**	**Amaliy qo‘llanishi**	**Cheklovlari**
YUCh	Ko‘krak yoki optik datchik	Yuklamaga fiziologik reaksiya	Siklik mashqlarda javob dinamikasini kuzatish	Harorat, stress va sensor aniqligiga bog‘liq
Davomiylik	Taymer, elektron jurnal	Mashg‘ulot yoki topshiriq vaqti	Reja bilan amaldagi ish hajmini solishtirish	Intensivlikni ko‘rsatmaydi
Tashqi yuklama	GPS, akselerometr, quvvat datchigi, mashqlar jurnali	Masofa, tezlik, quvvat, og‘irlik, takrorlar	Bajarilgan ishni hisobga olish	Ko‘rsatkich sport turi va qurilmaga bog‘liq
RPE / session-RPE	Subyektiv shkala; RPE × davomiylik	Sezilgan zo‘riqish va soddalashtirilgan yig‘indi baho	Mashg‘ulotlarni solishtirish va yuklama dinamikasini kuzatish	Javob xolisligi va shkalani tushunishga bog‘liq
Tiklanish	Anketa, kundalik, uyqu vositasi, HRV	Uyqu, charchoq, kayfiyat va ayrim fiziologik belgilar	Shaxsiy odatiy holatdan chetlanishni aniqlash	Mustaqil tashxis emas; standart protokol talab qiladi

Izoh. Ko‘rsatkichlar turli jihatlarni tavsiflaydi. Tashqi ish miqdorini sportchining fiziologik reaksiyasi va subyektiv holati bilan birgalikda baholash yuklama to‘g‘risida to‘liqroq tasavvur beradi.

2-jadval

Raqamli ko‘rsatkichlarning jismoniy tayyorgarlik vazifalariga muvofiqligi

Jismoniy sifat	**Nazorat ko‘rsatkichlari**	**Raqamli vositalar**	**Foydalanish imkoniyati**	**Cheklov**
Chidamlilik	Davomiylik, sur’at, masofa, YUCh, RPE	Pulsometr, GPS, ergometr	Siklik ish va organizm reaksiyasini kuzatish	YUCh chidamlilikni bevosita o‘lchamaydi
Tezkorlik	Sprint vaqti, tezlik, tezlanish	Fotoelementlar, GPS, inersial sensor	Tezlik va takroriy sprintlarni baholash	Test sharoiti va sensor aniqligiga bog‘liq

Jismoniy sifat	Nazorat ko‘rsatkichlari	Raqamli vositalar	Foydalanish imkoniyati	Cheklov
Kuch	Og‘irlik, takrorlar, harakat tezligi/quvvati	Kuch platformasi, tezlik sensori, jurnal	Bajarilgan hajm va quvvat dinamikasi	Tashqi og‘irlik texnika va kuchanishni to‘liq aks ettirmaydi
Koordinatsiya	Aniqlik, xato, harakat trayektoriyasi	Video tahlil, harakat sensorlari	Texnik harakatning ayrim tomonlarini baholash	Valid mezon va ekspert talqini zarur
Egiluvchanlik	Harakat amplitudasi, bo‘g‘im burchagi	Goniometr, video yoki harakat sensori	Standart testda amplitudani qayd etish	O‘lchash protokoli va badan qizdirishga bog‘liq

Izoh. Raqamli monitoring mashg‘ulot ta’sirini qayd etadi, ammo jismoniy sifatning darajasini aniqlash uchun maxsus pedagogik testlar zarur. Masalan, sprintlar soni sprint vaqtining, og‘irlik miqdori esa kuch sifati bo‘yicha testning o‘rnini bosmaydi.

Monitoringga asoslangan yuklamani tuzatish sportchi ko‘rsatkichlarining individual dinamikasiga tayanishi lozim. Barcha sportchilar uchun yagona chegaraviy qiymatlarni belgilash maqsadga muvofiq emas, chunki bir xil yuklamaga javob tayyorgarlik darajasi, oldingi mashg‘ulotlar, uyqu, psixologik holat va tashqi sharoitga qarab farqlanadi. Shu sababli ma’lumotlar avval individual odatiy ko‘rsatkichlar bilan solishtiriladi, so‘ngra murabbiy tomonidan kontekst hisobga olinib talqin qilinadi.

3-jadval

Monitoring asosida mashg‘ulot yuklamasini tuzatish ketma-ketligi

Bosqich	Qayd etiladigan ma’lumot	Talqin mezoni	Murabbiy qarori	Keyingi nazorat
Rejalashtirish	Maqsad, hajm, intensivlik, oldingi yuklama	Tayyorgarlik bosqichi va individual rejaga moslik	Kutilayotgan ko‘rsatkichlarni belgilash	Reja va faktni solishtirish
Ma’lumot yig‘ish	Davomiylik, masofa/quvvat/takrorlar, zarur bo‘lsa YUCh	To‘liqlik, ishonchlilik va topshiriqqa moslik	Xato yoki yetishmagan ma’lumotni tekshirish	Mashg‘ulotdan so‘ng qaydni tekshirish
Holatni baholash	RPE, charchoq, uyqu, mushak og‘rig‘i, kayfiyat	Shaxsiy odatiy holatdan chetlanish va alomatlar majmuasi	Zarur bo‘lsa holatni aniqlashtirish	Standart so‘rovni takrorlash

Bosqich	Qayd etiladigan ma’lumot	Talqin mezoni	Murabbiy qarori	Keyingi nazorat
Kompleks tahlil	Tashqi yuklama + ichki reaksiya + tiklanish	Ko‘rsatkichlarning mosligi va o‘zgarish barqarorligi	Rejani saqlash yoki hajm/intensivlik/tiklanishni moslash	Qaror sababini yozib borish
Qayta baholash	Keyingi mashg‘ulotlar va maxsus testlar	Bir nechta kuzatuvdagi dinamika	Individual reja va mezonlarni qayta ko‘rish	Monitoringni davriy takrorlash

Izoh. Jadvalda ko‘rsatilgan algoritm konseptual model hisoblanadi, tajriba bilan tasdiqlangan universal metodika emas. Yuklamani o‘zgartirish haqidagi qaror birgina ko‘rsatkich asosida emas, bir nechta ma’lumot va mutaxassis bahosi asosida qabul qilinadi.

Amaliy tavsiyalar. Raqamli monitoringni mashg‘ulot jarayoniga joriy etishda avvalo uning aniq vazifasi belgilanadi: masalan, tashqi ish hajmini hisobga olish, siklik mashqlarda yurak urish chastotasini kuzatish yoki mashg‘ulotdan keyingi subyektiv zo‘riqish va tiklanish holatini qayd etish. Har bir ko‘rsatkich murabbiy uchun amaliy qaror bilan bog‘langan bo‘lishi kerak. Ma’lumotlarni taqqoslash uchun o‘lchash tartibi imkon qadar o‘zgarmas saqlanadi. RPE bir xil tushuntirish va shkala asosida olinadi, qurilmalar to‘g‘ri taqiladi, ma’lumotdagi uzilishlar tekshiriladi. Sportchining ko‘rsatkichlari bir martalik qiymat bilan emas, vaqt davomida shakllangan individual boshlang‘ich daraja bilan solishtiriladi. Zarur hollarda raqamli ma’lumotlar pedagogik kuzatuv va maxsus jismoniy testlar bilan to‘ldiriladi. Murabbiy faqat bitta indikatorning keskin o‘zgarishiga qarab xulosa chiqarmasligi lozim. Bir nechta ko‘rsatkich bir yo‘nalishda o‘zgarganda, holatning davomiyligi, mashg‘ulot maqsadi, uyqu, stress, musobaqa jadvali va sportchining o‘zini his qilishi birgalikda ko‘rib chiqiladi. Shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va ko‘rish huquqi oldindan belgilanishi, sportchiga monitoring maqsadi tushuntirilishi zarur.

Xulosa. Raqamli monitoring mashg‘ulot jarayonini tizimli nazorat qilish va rejalashtirilgan ishni amalda bajarilgan yuklama bilan solishtirish imkonini kengaytiradi, biroq murabbiyning kasbiy qarorini almashtirmaydi. Yuklamani to‘liqroq baholash uchun tashqi yuklama ko‘rsatkichlari sportchining fiziologik va subyektiv reaksiyasi hamda tiklanish ma’lumotlari bilan birgalikda tahlil qilinishi zarur. Individual yondashuv umumiy chegaralardan ko‘ra sportchining shaxsiy dinamikasi, tayyorgarlik darajasi va mashg‘ulot sharoitlarini hisobga olishga tayanishi lozim. Raqamli ko‘rsatkichlar jismoniy sifatlarni bevosita o‘lchaydigan maxsus testlarning o‘rnini bosmaydi; ular mashg‘ulot ta’sirini va sportchi reaksiyasini talqin qilishga yordam beradi. Taklif etilgan monitoring ketma-ketligi nazariy-uslubiy modeldir. Uning samaradorligini baholash uchun haqiqiy sportchilarda boshlang‘ich va yakuniy testlar, standartlashtirilgan monitoring protokoli va statistik tahlil bilan tajriba tadqiqoti o‘tkazish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bourdon P. C., Cardinale M., Murray A., Gastin P., Kellmann M., Varley M. C., Gabbett T. J., Coutts A. J., Burgess D. J., Gregson W., Cable N. T. Monitoring Athlete Training Loads: Consensus Statement. International Journal of Sports Physiology and Performance. 2017;12(Suppl 2):S2161–S2170. DOI: 10.1123/IJSPP.2017-0208.

2. Soligard T., Schwellnus M., Alonso J.-M. et al. How much is too much? (Part 1) International Olympic Committee consensus statement on load in sport and risk of injury.

British Journal of Sports Medicine. 2016;50(17):1030–1041. DOI: 10.1136/bjsports-2016-096581.

3. Foster C., Florhaug J. A., Franklin J. et al. A new approach to monitoring exercise training. Journal of Strength and Conditioning Research. 2001;15(1):109–115.

4. Impellizzeri F. M., Rampinini E., Coutts A. J., Sassi A., Marcora S. M. Use of RPE-based training load in soccer. Medicine & Science in Sports & Exercise. 2004;36(6):1042–1047. DOI: 10.1249/01.MSS.0000128199.23901.2F.

5. Halson S. L. Monitoring training load to understand fatigue in athletes. Sports Medicine. 2014;44(Suppl 2):S139–S147. DOI: 10.1007/s40279-014-0253-z.

6. Saw A. E., Main L. C., Gastin P. B. Monitoring the athlete training response: subjective self-reported measures trump commonly used objective measures: a systematic review. British Journal of Sports Medicine. 2016;50(5):281–291. DOI: 10.1136/bjsports-2015-094758.

YOSH SPORTCHILARDA TEZKOR-KUCH SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Osiyo xalqaro universiteti 1-magistranti
Nazarbaev Dastan Sarsenbaevich

Kalit so‘zlar: *yosh sportchilar, tezkor-kuch sifatlari, umumiy jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanish, mashg‘ulot metodikasi, sakrash mashqlari, tezkorlik, kuch, pedagogik nazorat, jismoniy yuklama.*

Ключевые слова: *юные спортсмены, скоростно-силовые качества, общая физическая подготовка, физическое развитие, методика тренировок, прыжковые упражнения, скорость, сила, педагогический контроль, физическая нагрузка.*

Keywords: *young athletes, speed-strength qualities, general physical fitness, physical development, training methodology, jumping exercises, speed, strength, pedagogical control, physical load.*

Kirish. Bugungi kunda sportchilarni tayyorlash tizimida jismoniy sifatlarni maqsadli rivojlantirish, mashg‘ulot jarayonini yosh xususiyatlariga mos tashkil etish va sport natijalarini muntazam nazorat qilish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 13–15 yoshli sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Chunki ushbu sifatlar qisqa vaqt ichida kuch hosil qilish, harakatni tez boshlash, sakrash, tezlanish va turli harakat vazifalarini samarali bajarish imkoniyatlari bilan bog‘liq.

Tezkor-kuch sifatlari insonning mushak kuchini qisqa vaqt oralig‘ida namoyon eta olish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu sifatlar tezkorlik va kuchning o‘zaro uyg‘unlashgan ko‘rinishi bo‘lib, sportchining harakat faoliyatida namoyon bo‘ladi. Tezkor-kuch tayyorgarligi faqat maksimal kuchni oshirish bilan cheklanmaydi, balki kuchni tez safarbar etish, harakat koordinatsiyasini saqlash va zarur harakatni optimal tezlikda bajarishni ham qamrab oladi.

13-15 yosh davrida organizmning o‘sishi, tayanch-harakat apparatining rivojlanishi va harakat ko‘nikmalarining takomillashishi davom etadi. Biroq mazkur yosh guruhidagi sportchilarning biologik yetilishi bir xil sur’atda kechmaydi. Shu sababli mashg‘ulotlarni faqat pasport yoshiga qarab rejalashtirish yetarli emas; sportchining tayyorgarlik darajasi, harakat texnikasi, sog‘lig‘i va individual rivojlanish xususiyatlarini ham hisobga olish lozim.

Lloyd va hammualliflar tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro konsensus tavsiyalarida yoshlar bilan kuch tayyorgarligini tashkil etishda to‘g‘ri texnika, malakali nazorat, bosqichma-

bosqich yuklama oshirish va uzoq muddatli jismoniy rivojlanish tamoyillariga rioya qilish zarurligi ta’kidlangan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ham bolalar va o‘smirlar jismoniy faolligida mushak va suyaklarni mustahkamlovchi faoliyatlarga muntazam o‘rin berishni tavsiya qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, yosh sportchilarda tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mashqlarni to‘g‘ri tanlash, ularning bajarilish tartibini belgilash, dam olish oralig‘ini me’yorlash va mashg‘ulot samaradorligini pedagogik nazorat orqali baholash bilan bog‘liq dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. 13-15 yoshli sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi jarayonida tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni nazariy jihatdan asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari: 1) tezkor-kuch sifatlarining mazmuni va ahamiyatini tahlil qilish; 2) yosh xususiyatlarini hisobga olish zaruratini asoslash; 3) tezkor-kuch mashqlarini guruhlash; 4) yuklamani rejalashtirish va pedagogik nazorat bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotni tashkil etish usullari. Ish nazariy-tahliliy xususiyatga ega. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, ma’lumotlarni umumlashtirish va mashg‘ulotlarni loyihalashtirish usullaridan foydalanildi. Mustaqil pedagogik tajriba o‘tkazilmagan, nazorat va tajriba guruhlari shakllantirilmagan hamda real test natijalari yig‘ilmagan. Shu bois mashqlar va testlar quyida amaliyotda qo‘llash uchun tavsiya sifatida keltiriladi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tezkor-kuch sifatlari sportchining qisqa vaqt oralig‘ida kuch namoyon etish qobiliyatini ifodalaydi. Ular yugurishda tezlanish, joyidan sakrash, yo‘nalishni o‘zgartirish va turli sport harakatlarini bajarishda muhimdir. Umumiy jismoniy tayyorgarlik bosqichida bu sifatlarni rivojlantirish sportchining harakat imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Metodik jihatdan mashqlar uch asosiy guruhga ajratilishi mumkin: tezkorlik mashqlari (qisqa masofaga tez yugurish), kuch mashqlari (o‘z tana vazni bilan o‘tirib-turish, tayanchda qo‘l bukib-yozish kabi moslashtirilgan mashqlar) va portlovchi kuch mashqlari (texnik jihatdan nazorat qilinadigan sakrashlar). Mashqlar sportchining tayyorgarligiga mos tanlanishi va sifatli bajarilishi lozim.

Metodikani takomillashtirishning asosiy tamoyillari

Birinchi tamoyil - individuallashtirish. Bir xil yoshdagi sportchilarning kuchi, koordinatsiyasi va biologik yetilishi farq qilishi mumkin. Shu bois boshlang‘ich yuklama sportchining mavjud tayyorgarligiga qarab belgilanadi.

Ikkinchi tamoyil - bosqichma-bosqichlik. Dastlab harakat texnikasi o‘rgatiladi, keyin takrorlar soni yoki mashq murakkabligi ehtiyotkorlik bilan oshiriladi. Bir vaqtning o‘zida tezlik, hajm va murakkablikni keskin ko‘paytirish tavsiya etilmaydi.

Uchinchi tamoyil - mashqlar xilma-xilligi. Yugurish, sakrash, tana vazni bilan bajariladigan kuch mashqlari va koordinatsion topshiriqlarni oqilona uyg‘unlashtirish turli harakat ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

To‘rtinchi tamoyil - yetarli dam olish va xavfsizlik. Tezkor-kuch mashqlari sifatli bajarilishini ta’minlash uchun takrorlar orasida tiklanish vaqti beriladi. Harakat texnikasi buzilsa, og‘riq paydo bo‘lsa yoki haddan tashqari charchoq kuzatilsa, mashq to‘xtatiladi yoki yengillashtiriladi.

Tavsiya etiladigan mashqlar majmuasi.Mashg‘ulotning tayyorlov qismida yengil yugurish, bo‘g‘imlarni harakatga tayyorlovchi mashqlar va dinamik cho‘zilishlar bajariladi.


Asosiy qismda qisqa tezlanishlar, past balandlikdagi sakrashlar, muvofiqlashtirilgan tana vazni mashqlari va oddiy koordinatsion topshiriqlar qo‘llanishi mumkin. Yakuniy qismda nafasni tiklash, yengil harakatlar va mashg‘ulot holatini qayd etish tavsiya qilinadi.

Mashqlarni tanlashda maydon qoplamasi, sport anjomlarining xavfsizligi, murabbiy nazorati va sportchining texnik tayyorgarligi hisobga olinadi. Murakkab plyometrik mashqlar yoki tashqi og‘irliklar bilan ishlash faqat mos tayyorgarlik, to‘g‘ri texnika va malakali nazorat mavjud bo‘lganda kiritiladi.

1-jadval

Tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish uchun tavsiya etiladigan mashqlar

Mashq guruhi	Mashq namunasi	Asosiy yo‘nalish	Nazorat mezoni
Tezkorlik	10–20 m masofaga tez yugurish	Harakat tezligi va tezlanish	Yugurish texnikasi va vaqt
Portlovchi kuch	Joyidan uzunlikka sakrash	Oyoq mushaklarining tezkor-kuch imkoniyati	Sakrash masofasi va xavfsiz qo‘nish
Kuch	Tana vazni bilan o‘tirib-turish	Oyoq mushaklari kuchi va harakat nazorati	Texnika va takror sifati
Yuqori tana kuchi	Moslashtirilgan tayanchda qo‘l bukib-yozish	Yelka kamari va qo‘l mushaklari	To‘g‘ri tana holati
Koordinatsiya	Belgilar orasida tez qadam tashlash	Harakat aniqligi va muvofiqlashtirish	Xatolar soni va muvozanat



Izoh: *jadvaldagi mashqlar umumiy tavsiyadir. Takrorlar soni, urinishlar miqdori va dam olish oralig‘i sportchining tayyorgarligi, mashg‘ulot maqsadi va murabbiy bahosiga ko‘ra belgilanadi; universal yuklama me’yori sifatida qabul qilinmasligi kerak (1-rasmga qarang).*

1-rasm Yosh sportchilarda tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish metodikasining tarkibiy tuzilmasi

Quyidagi diagrammada tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha tavsiya etilayotgan metodik jarayonning ketma-ketligi aks ettirilgan. U dastlabki baholashdan boshlanib, mashqlarni tanlash, yuklamani boshqarish va pedagogik nazorat natijalariga ko‘ra rejani moslashtirish bosqichlarini qamrab oladi.

Pedagogik nazorat va natijalarni baholash. Metodikani amaliyotda qo‘llashda boshlang‘ich va davriy nazorat muhim o‘rin tutadi. Nazorat testlari sportchining tayyorgarligiga mos, xavfsiz va takroran bir xil sharoitda o‘tkazilishi lozim. Umumiy jismoniy tayyorgarlikda 10–20 metrga yugurish vaqti, joyidan uzunlikka sakrash masofasi, moslashtirilgan kuch mashqlarini texnik jihatdan to‘g‘ri bajarish hamda koordinatsion topshiriqlar natijalaridan foydalanish mumkin.

Test natijalarini tahlil qilishda faqat yakuniy ko‘rsatkich emas, balki bajarish texnikasi, charchoq belgilari, mashg‘ulotlarga qatnashish va sportchining o‘zini his qilishi ham hisobga olinadi. Natijalar qayd etilganidan keyingina o‘zgarishlar hisoblanishi va xulosa chiqarilishi kerak. Tajriba ma’lumotlari mavjud bo‘lmagan holatda samaradorlik foizlarini keltirish ilmiy jihatdan asosli emas.

Xulosa. Nazariy tahlil va amaliy tavsiyalar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: Tezkor-kuch sifatlari 13–15 yoshli sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligida muhim tarkibiy qism bo‘lib, ularni rivojlantirish tezkorlik, kuch va harakat koordinatsiyasini uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Mashg‘ulot metodikasi sportchilarning individual rivojlanishi, texnik tayyorgarligi va jismoniy holatiga moslashtirilishi, yuklama esa bosqichma-bosqich oshirilishi zarur. Qisqa masofaga yugurish, nazoratli sakrashlar, tana vazni bilan bajariladigan kuch mashqlari va koordinatsion topshiriqlar umumiy jismoniy tayyorgarlikda foydalanish mumkin bo‘lgan vositalardir. Mashqlar samaradorligini baholash uchun standartlashtirilgan pedagogik testlar, muntazam kuzatish va mashg‘ulot qaydlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Haqiqiy samaradorlik to‘g‘risida xulosa chiqarish uchun amaliy tajriba va ishonchli ma’lumotlar talab etiladi. Taklif etilgan metodik algoritm murabbiyga mashg‘ulotlarni rejalashtirish, yuklamani nazorat qilish va sportchi holatiga qarab dasturni tuzatishga yordam berishi mumkin; uning samaradorligi kelgusida pedagogik tajriba orqali tekshirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lloyd, R. S., Cronin, J. B., Faigenbaum, A. D., et al. National Strength and Conditioning Association Position Statement on Long-Term Athletic Development. Journal of Strength and Conditioning Research, 2016, 30(6), 1491–1509.

2. World Health Organization. WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour. Geneva: World Health Organization, 2020.

3. Faigenbaum, A. D., Kraemer, W. J., Blimkie, C. J. R., et al. Youth Resistance Training: Updated Position Statement Paper from the National Strength and Conditioning Association. Journal of Strength and Conditioning Research, 2009, 23(Suppl. 5), S60–S79.

4. Bompa, T. O., Buzzichelli, C. A. Periodization: Theory and Methodology of Training. 6th ed. Human Kinetics, 2019.

II SEKCIYA. ADAPTIV DENE TÁRBIYASÍ HÁM INKLYUZIV SPORT: QÁNIGELERDI TAYARLAWDÍŃ ZAMANAGÓY QARASLAR

KO‘P YILLIK TAYYORGARLIK TIZIMIDA SPORTCHILARNI SARALASH VA YO‘NALTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

Yakupbaev Alisher Alimbaevich
O‘zbekistondavlatjismoniytarbiyava sport universiteti Nukusfiliali
Yakkakurash sport turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi professori
e-mail:yakupbaev_alisher@gmail.com

Kalitso‘zlar:*ko‘pyilliktayyorgarlik, sportchilarnisaralash, sportgayo‘naltirish, sport tanlovi, dastlabkisaralash, istiqbollisportchilar, sport qobiliyati, jismoniytayyorgarlik, texnik-taktiktayyorgarlik, funksionaltayyorgarlik, antropometrikko‘rsatkichlar, psixologiktayyorgarlik, musobaqafaoliyati, model ko‘rsatkichlar, baholashmezonlari, saralashmezonlari, sport ixtisoslashuvi, individual imkoniyatlar, sport mahorati, pedagogiknazorat.*

Ключевые слова: *многолетняя подготовка, отбор спортсменов, спортивная ориентация, спортивный отбор, первичный отбор, перспективные спортсмены, спортивные способности, физическая подготовленность, технико-тактическая подготовленность, функциональная подготовленность, антропометрические показатели, психологическая подготовленность, соревновательная деятельность, модельные показатели, критерии оценки, критерии отбора, спортивная специализация, индивидуальные возможности, спортивное мастерство, педагогический контроль.*

Keywords*:long-term training, athlete selection, sports orientation, sports selection, initial selection, promising athletes, athletic abilities, physical fitness, technical and tactical preparedness, functional fitness, anthropometric indicators, psychological preparedness, competitive activity, model indicators, assessment*

criteria, selection criteria, sports specialization, individual capabilities, sports mastery, pedagogical control.

Dolzarbligi. Dunyoda ayollar kurashi turlari bo‘yicha o‘tkazilayotgan musobaqalar tizimihamda sportchilarni tayyorlash talablarining yangi bosqichga o‘tishi, shug‘ullanuvchilarni ko‘p yillik tayyorgarlikning turli bosqichlariga saralash va yo‘naltirish jarayonida ilmiy ahamiyatga molik uslublar hamda eng ilg‘or texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yosh qizlarni sport kurashi turlariga saralash va yo‘naltirishni to‘g‘ri tashkil etishda keng qamrovli tadbirlar tashkil etilmoqda. Bugungi kunda barcha sport turlarida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar oldida turgan eng ustuvor vazifalardan biri – qiz bolalarni sport turlariga saralash va yo‘naltirishning asosiy uslublari, omillarini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish, ushbu muammolarni ilmiy yechimini topishga qaratilgan zamonaviy metodlarni ishlab chiqish hamda sport amaliyotiga joriy etish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotning maqsadi:ko‘p yillik tayyorgarlikning turli bosqichlariga ayol kurashchilarini saralash va yo‘naltirish metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik tajriba, anketa so‘rovnoma, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlar, instrumental uslub, (“Вмэн рэп”, “Spirometr spiro usb”) va matematik statistika formulalar va usullardan foydalanilgan.

Tajribanatijalarivauningmuhokamasi. Yuqori malakali sportchilarni tayyorlash tizimida sport natijalarini belgilovchi omillar ko‘p komponentli xususiyatga ega bo‘lib, ular orasida sportchining kognitiv salohiyati, intellektual rivojlanish darajasi va psixofiziologik imkoniyatlari alohida

ilmiy ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda sport seleksiyasi va sport genetikasi sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, sportchining muvaffaqiyati faqat morfologik, funksional va jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari bilan emas, balki uning axborotni qabul qilish tezligi, analitik tafakkuri, operativ xotirasi, diqqatni boshqarish qobiliyati, mantiqiy fikrlashi hamda o‘zgaruvchan musobaqa vaziyatlarida tezkor va optimal qaror qabul qilish kompetensiyalari bilan ham uzviy bog‘liqdir. Ayniqsa, sport yakkakurashlari tarkibiga kiruvchi ayollar kurashi, dzyudo, milliy kurash va sambo sport turlarida texnik-taktik harakatlarning murakkabligi, raqib faoliyatining doimiy o‘zgaruvchanligi hamda musobaqa vaziyatlarining dinamik xarakteri sportchidan yuqori darajadagi intellektual tayyorgarlikni talab etadi.

Sport seleksiyasining zamonaviy konsepsiyalarida istiqbolli sportchilarni aniqlash ko‘p mezonli diagnostik yondashuv asosida amalga oshirilishi zarurligi ta’kidlanmoqda. Bunda antropometrik, biologik yetilish, funksional, biomexanik va maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda sportchining kognitiv rivojlanish darajasi ham istiqbolni prognoz qiluvchi muhim indikator sifatida qaraladi. Xususan, IQ darajasini baholash sportchining murakkab texnik elementlarni o‘zlashtirish tezligi, taktik vaziyatlarni tahlil qilish samaradorligi, mashg‘ulot yuklamalariga intellektual moslashuv darajasi hamda musobaqa faoliyatida strategik fikrlash imkoniyatlarini ilmiy asosda aniqlash imkonini beradi. Shu sababli sport seleksiyasi tizimida intellektual ko‘rsatkichlarni kompleks baholash istiqbolli sportchilarni saralashning ishonchliligini sezilarli darajada oshiruvchi diagnostik mezonlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

1-jadval

Yosh qizlarni kurash turlariga saralashda IQ darajasi ko‘rsatkichlarining tahlili

Javoblar	Olingan natija tahlili	Ayollar kurashi		Dzyudo		Kurash		Sambo	
		Soni	%	Soni	%	Soni	%	Soni	%
9–10 to‘g‘ri javob	yuqori intellektual daraja (yuqori sport salohiyati)	21	40,5	16	26,7	8	18,1	13	27
7–8 to‘g‘ri javob	o‘rtadan yuqori (moslashuvchan, istiqbolli)	15	28,8	11	18,4	11	25	10	20,8
5–6 to‘g‘ri javob	o‘rta daraja (rivojlantirish zarur)	9	17,3	19	31,6	15	34,2	16	33,3

0–4 to‘g‘ri javob	past daraja (qo‘shimcha rivojlantirish talab etiladi)	7	13,4	14	23,3	10	22,7	9	18,9
Jami		52	**100**	60	**100**	44	**100**	48	**100**

Mazkur tadqiqotda yosh qizlarning ayollar kurashi, dzyudo, milliy kurash va sambo sport turlaridagi intellektual salohiyati IQ testlari yordamida kompleks tahlil qilindi hamda olingan natijalar sport turlari kesimida qiyosiy-statistik jihatdan baholandi. Tadqiqot davomida ishtirokchilarning yuqori, o‘rtadan yuqori, o‘rta va past intellektual rivojlanish darajalari aniqlanib, ularning sport faoliyatidagi istiqbollari bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi. Sport turlari bo‘yicha intellektual salohiyatning taqsimlanish qonuniyatlarini aniqlash, kognitiv kompetensiyalarning sport mahoratini shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy asoslash hamda yosh sportchilarni saralashning ko‘p komponentli modelini takomillashtirish uchun nazariy-metodologik asos yaratdi.

Shuningdek, mazkur tadqiqot natijalari sport seleksiyasida intellektual diagnostika vositalarini joriy etish, sportchilarning individual kognitiv profilini shakllantirish, texnik-taktik tayyorgarlikni individuallashtirish hamda sport natijalarini uzoq muddatli prognozlashning ilmiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, IQ darajasini baholash nafaqat sportchining mavjud intellektual imkoniyatlarini aniqlash, balki uning kelgusidagi sport salohiyatini prognoz qilish, adaptiv imkoniyatlarini baholash va yuqori sport mahoratini shakllantirishning muhim prognostik mezonlaridan biri sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Zamonaviy sport seleksiyasi jarayonida sportchilarning nafaqat jismoniy va funksional imkoniyatlari, balki ularning intellektual salohiyatini baholash ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ayollar kurashida taktik fikrlash, vaziyatni tez tahlil qilish, qaror qabul qilish va harakatlarni oldindan rejalashtirish qobiliyatlari yuqori sport natijalariga erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois, yosh qizlarni saralash jarayoniga intellektual ko‘rsatkichlarni integratsiyalash seleksiya tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur metodika sportchilarning aqliy imkoniyatlari va psixofiziologik xususiyatlarini kompleks baholash orqali istiqbolli sportchilarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutadi.

IQ ko‘rsatkichlariga asoslangan seleksiya tizimi yosh sportchilarning intellektual imkoniyatlarini baholash orqali ularning sport faoliyatidagi istiqbolini aniqlashga qaratilgan ilmiy yondashuv hisoblanadi. Ayollar kurashida murakkab texnik-taktik harakatlarni o‘zlashtirish, raqib harakatlarini tahlil qilish va tezkor qaror qabul qilish yuqori intellektual salohiyatni talab qiladi. Shu sababli, IQ testlari natijalaridan seleksiya mezoni sifatida foydalanish sportchilarning individual imkoniyatlarini aniqroq baholash hamda tayyorgarlik jarayonini optimallashtirish imkonini beradi. Mazkur tizim sport iqtidorini aniqlashning an’anaviy usullarini zamonaviy psixometrik yondashuvlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov H.X. Sport maktabi o‘quvchilarini yengil atletika turlariga saralash uslubiyati: Pedagogika. fan. (PhD). diss. avtoref.-Chirchiq. JTSITI, 2024. – 68 b.

2. Abdurakhmonov X.X. Experimental verification of the efficiency of the developed methodology for improving the systemand content of studens in primary education //“Science

and Innovation” International Scientific journal. 2023. – P. 43-47.

3. Adilov S.Q. Kurash turlarida sportchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish va texnik-taktik harakatlari samaradorligini oshirish texnologiyasi: Monografiya. T.: “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga qarashli kutubxona nashryoti”. 2021. – 160 b.

4. Artikov Z.S. Sport-pedagogik mahoratini oshirish (Belbog‘li kurash). / O‘quv qo‘llanma. T., “O‘zkitobsavdo”, 2018. – 148 b.

MAKTAB YOSHIDAGI BADIIY GIMNASTIKACHILAR UCHUN AKROBATIKA ELEMENTLARINI TO‘G‘RI O‘RGATISH VA TAKOMILLASHTIRISH

Abdullaeva Dilaram Muxtarovna
Mektepke shekemgi hám mektep bilimlendiriwi ministrligine qaraslı
19-sanlı mektep dene tárbiyası páni oqıtıwshısı
e-mail:yakupbaev_alisher@gmail.com

Kalitso‘zlar: *Badiiygimnastika, akrobatikaelementlari, maktabyoshi, harakattexnikasi, maxsusjismoniytayyorgarlik, koordinatsiya.*

Ключевые слова: *Художественная гимнастика, акробатические элементы, школьный возраст, техника движений, специальная физическая подготовка, координация.*

Keywords*: Rhythmic gymnastics, acrobatic elements, school age, movement technique, special physical training, coordination.*

Dolzarbligi. Zamonaviy badiiy gimnastika yuqori darajadagi dinamiklik, bajariladigan elementlarning murakkablashuvi hamda kompozitsiyalarning rang-barangligi bilan tavsiflanadi. Xalqaro gimnastika federatsiyasi (FIG) qoidalarining takomillashtirib borilishi sportchilardan nafaqat lenta, koptok, halqa va boshqa buyumlar bilan ishlash texnikasini mukammal egallashni, balkim murakkab akrobatik elementlarni sifatli va aniq bajarishni ham talab qilmoqda. 7–12 yosh davri qizlarda egiluvchanlik, chaqqonlik, koordinatsiya va vestibulyar barqarorlik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun eng qulay va sezgir davrlardan biri hisoblanadi. Aynan shu yosh bosqichida yosh gimnastikachilarning keyingi jismoniy va texnik rivojlanishi uchun muhim zamin yaratiladi. Shunuqta yinazardan, maktab yoshida acrobatic elementlarni to‘g‘ri, izchil va samarali o‘rgatish badiiy gimnastikachilarning texnik tayyorgarligini shakllantirish hamda kelgusida sport mahoratini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi: Maktab yoshidagi badiiy gimnastikachilarning yoshga xos biologic xususiyatlarini hisobga olgan holda, akrobatika elementlarini o‘rgatish va ularni bajarish texnikasini takomillashtirishning samarali metodikasini ilmiy jihatdan asoslash.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogikkuzatuv, gimnastikachilarning jismoniy va texnik tayyorgarlik darajasini aniqlashga qaratilgan nazorat testlari, harakatlar kinematikasini o‘rganish uchun video - tahlil, pedagogic eksperiment (tajriba-sinovishi), shuningdek, olingan natijalarning ishonchliligini asoslash uchun matematik-statistik usullardan foydalanildi.

Tajriba natijalari va uning muhokamasi. Badiiy gimnastika da qo‘llaniladigan zamonaviy akrobatik elementlar, jumladan, turli xil to‘ntarilishlar, g‘ildiraklar, dumalashlar va

dinamik muvozanatni saqlash mashqlari sportchidan yuqori darajadagi egiluvchanlik bilan bir qatorda portlovchi dinamik kuch, rivojlangan vestibulyar barqarorlik hamda nozik fazoviy koordinatsiyani talabetadi. Shu bilan birga, sport amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktab yoshidagi (7–12 yosh) gimnastikachilarning tayanch-harakat apparati, xususan, mushak-boylam tizimi hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, suyaklanish jarayoni ham davom etayotgan bo‘ladi.

Bunday yosh davrida murakkab akrobatik elementlarning texnik jihatdan noto‘g‘ri bajarilishi umurtqa pog‘onasi, tizza va to‘piq bo‘g‘imlariga me’yoridan ortiq biomexanik yuklama tushishiga sabab bo‘lishi mumkin. Natijada surunkali mikrojarohatlar yuzaga kelishi hamda uzoq muddatli istiqbolda sportchining sport faoliyatini muddatidan oldin yakunlash xavfi ortishi mumkin.

Mazkur muammoni bartaraf etish hamda maktab yoshidagi gimnastikachilarning akrobatik tayyorgarligi samaradorligini oshirish maqsadida ilmiy-pedagogik eksperiment tashkil etildi. Tadqiqotga jalb qilingan gimnastikachilar ikki guruhga ajratildi: an’anaviy dastur asosida shug‘ullangan nazorat guruhi (NG) va biz tomonidan ishlab chiqilgan maqsadli metodika joriy etilgan tajriba guruhi (TG).

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan metodika uchta asosiy, bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan bosqichlarni o‘z ichiga oladi va ularning har biri aniq pedagogic maqsadlarga yo‘naltirilgan (1-jadvalga qarang).

Birinchi bosqich tayyorlov bosqichi bo‘lib, u maktab yoshidagi gimnastikachilarning jismoniy poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu bosqichda kor mushaklari, to‘piq va tizza bo‘g‘imlarini mustahkamlovchi statik-dinamik mashqlar hamda muvozanat platformalaridan foydalanildi. Ushbu yondashuv yosh sportchilarning tayanch-harakat apparatini kelgusi og‘ir yuklamalarga tayyorlaydi. Eng muhimi, aylanma va proprioseptiv mashqlar orqali bolalarning vestibulyar apparati barqarorligi oshiriladi, bu esa hava da koordinatsiyani yo‘qotmaslik va jarohatlarning oldini olishning bosh omilidir.

1-jadval

Maktab yoshidagi badiiy gimnastikachilarning akrobatika mashqlarini takomillashtirish metodikasi

	Metodikbosqich / Pedagogikusul	**Qo‘llaniladigan mashqlar va vositalar**	**Kutilayotgan pedagogik samara (Maqsad)**
	Tayyorlov bosqichi*(Maxsusjismoniytayyorgarlik)*	Kor (qorinvaorqa) mushaklari uchun statik-dinamik mashqlar. To‘piq va tizza bo‘g‘imlarini mustahkamlovchi kuch mashqlari. Muvozanat platformalari (proprioseptiv mashqlar).Harxil aylanma harakatlar.	Akrobatik elementlarni o‘zlashtirish uchun jismoniy poydevor yaratish. Vestibulyar apparat barqarorligini oshirish. Tayanch-harakat tizimini jarohatlardan himoya qilish.
	Bosqichma-bosqichlik va dekompozitsiya	Murakkab harakatlarni (masalan, *flik-flak*, to‘ntarilishlar) tarkibiy fazalarga bo‘lib o‘rgatish.Etaklovchi	Murakkab elementlarni xavfsiz va to‘g‘rio‘

	usuli*(Osondan murakkabga)*	va tayyorlovchi mashqlar. Yordamchi vositalar: parolon modullar, harxil qalinlikdagi matlar, batut.	zlashtirish.Yosh sportchilarda uchraydigan psixologik qo‘rquv va to‘siqlarni yo‘qotish. Harakat texnikasini poydevordan to‘g‘ri shakllantirish.
	Kinematik tahlil va korreksiya bosqichi	Tananing tayanch nuqtalarini murabbiy tomonidan doimiy nazorat qilinishi.Qo‘l va oyoqlarning qo‘yilish burchaklarini kuzatish.Harakat trayektoriyasi va tezlanishini tahlil qilish. Harakat komponentlarini visual va sensor darajada tuzatish.	Yo‘l qo‘yilayotgan texnik xatolarni vaqtida aniqlash va bartaraf etish.Harakat aniqligi, barqarorligi va musobaqa talablariga mos estetikani ta’minlash. Noto‘g‘ri biomexanik yuklamalarning oldini olish.

Ikkinchi bosqichda — bosqichma-bosqichlik va dekompozitsiya usulidan foydalanildi. Bunda flik-flakyokioldinga to‘ntarilish kabi murakkab akrobatik harakatlar yaxlit holda emas, balki alohida tarkibiy qismlarga (fazalarga) ajratilgan holda izchil o‘rgatildi. Parolon modullar, maxsus gimnastik matlar va batut kabi zamonaviy texnik vositalarning qo‘llanilishi maktab yoshidagi bolalarda ko‘p uchraydigan psixologik qo‘rquv va ichki to‘siqlarni samarali bartaraf etish imkoniniberdi. Mazkur yondashuv akrobatik elementlarning dastlabki o‘zlashtirish bosqichidan oq xavfsiz va texnik jihatdan to‘g‘ri shakllantirilishini ta’minladi.

Uchinchi bosqich — kinematik tahlil va korreksiya bosqichi bo‘lib, bevosita harakatlar sifatini takomillashtirishga yo‘naltirildi. Murabbiy tomonidan gimnastikachining tayanch nuqtalari, qo‘l va oyoqlarning qo‘yilish burchaklari hamda harakat trayektoriyasi muntazam ravishda, soniyama-soniya nazorat qilib borildi. Harbir bajarilgan urinishdan so‘ng aniqlangan xatolar visual va sensor qayta aloqa vositasida ko‘rsatib berildi. Natijada sportchilarda to‘g‘ri harakat stereotipi va mushak xotirasining shakllanishiga erishildi. Bu esa akrobatik kombinatsiyalarni musobaqa talablariga muvofiq ravishda yuqori aniqlik, barqarorlik va estetik ifodadorlik bilan bajarish uchun zarur sharoityaratdi.

Xulosa. Maktab yoshidagi badiiy gimnastikachilarning akrobatika mashqlarini takomillashtirish tizimli yondashuvni talab qiladi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik, dekompozitsiya va kinematik korreksiya usullarini uyg‘unlikda qo‘llash sportchilarning jismoniy imkoniyatlarini kengaytiradi, harakat xavfsizligini ta’minlaydi hamda musobaqa dasturlarining qiyinchilik darajasini va hakamlar bahosini sezilarli darajada oshiradi.

Adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-449-sonli Qarori. Toshkent, 23.12.2022 y.

2.**Abduraxmonov Sh.** "Gimnastika mashg‘ulotlarida akrobatik mashqlarni rivojlantirish metodikasi" // *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*. – 2026. – №4.

3.Umarov M.N. "Badiiy gimnastika sport turida rejalashtirish va hakamlik faoliyati". O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: O‘zDJTSU, 2024.

4.**Boyxo‘rozova D. T.** "Badiiy gimnastikada sport tayyorgarligi tizimining umumiy tavsifi va jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish uslubi" // *Scientific Journal*. – 2025. – №11.

5.**Yusupova M.** "Badiiy gimnastikada qaddi-qomatning to‘g‘ri rivojlanishi va unga ta’sir etuvchi pedagogic omillar" // *Ilmiy anjumanlar electron portali*. – 2025.

6.**Fédération Internationale de Gymnastique (FIG).***Official Code of Points 2025–2028: Rhythmic Gymnastics.* – Lausanne: FIG, 2024.

SPORT MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH BOSQICHI O‘RTA VA OG‘IR VAZN TOIFASIDAGI ERKIN KURASHCHI QIZLARNING 1 MAROTOBA BAJARILGAN TEXNIK HARAKATLAR TAHLILI

Jarilkapov Ulugbek Baxadirovich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
“Yakka kurash sport turlari nazariyasi va uslubiyati” kafedrasi
p.f.b.f.d (PhD), dotsent

Kalit so‘zlar: *ayollar kurashi, sport mahoratini takomillashuv bosqichi, erkin kurashchi qizlar, vazn toifasi, texnik tayyorgarlik, tik turgan va parter holati.*


Ключевые слова: *женская борьба, этап совершенствования спортивного мастерства, девушки борцы вольного стиля, весовая категория, техническая подготовка, положение в стойке и в партере.*

Keywords: *women’s wrestling, stage of improving sports skills, female freestyle wrestlers, weight category, technical preparation, standing and parterre position.*

Dolzarbligi: Mamlakatimizda ayollar kurashi sport turini rivojlantirish bo‘yicha bir qator say harakatlar amalga oshirilmoqda, mazkur ishlarning samarasi nufuzli musobaqalarda erishilayotgan natijalar bilan izohlanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda ayollar kurashini yanada rivojlantirish, zamonaviy metodikalar asosida takomillashtirish hamda xalqaro miqyosda raqobatbardosh sportchi qizlarni tayyorlash yo‘lida qator izchil islohotlar, tizimli chora-tadbirlar va kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda. Olib borilayotgan bu sa’y-harakatlarning amaliy samarasi so‘nggi yillarda O‘zbekistonlik sportchi qizlarning Osiyo chempionatlari, Jahon chempionatlari va Olimpiya o‘yinlari kabi nufuzli musobaqalarda muntazam tarzda yuqori natijalarga erishayotgani, ularning texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlik darajasi tobora ortib borayotgani bilan yaqqol namoyon bo‘lmoqda.


Biz 2024-yildan boshlab sport mahoratini takomillashuv bosqichiga kiruvchi erkin kurashchi qizlarni tayyorgarlik jarayonlari va o‘quv mashg‘ulot yuklamalariga bardoshlilik holatlarini o‘rganish maqsadida ilmiy tahlil qilish masalasini oldinga qo‘ydik.

Sport mahoratini takomillashtirish bosqichidagi 57-65 kg vazn toifasidagi erkin kurashchi qizlarni 1 marotaba qo‘lini tortib parterga o‘tgazish texnik harakatini bajarish imkoniyati yaxshilangan. 1 marotaba yoniga qadam tashlab oyoqlarini ushlab parter holatiga o‘tkazish texnik harakatini bajarish imkoniyati yaxshilangan. 1 marotaba bir oyog‘idan ushlab parter holatiga o‘tkazish texnik harakatini bajarish bo‘yicha o‘sganligi kuzatildi. 1 marotaba yelkalan oshirib tashlash texnik harakatini bajarish bo‘yicha o‘sganligi kuzatildi. 1 marotaba yelkalardan oshirib tashlash texnik harakatini bajarish bo‘yicha o‘sganligi kuzatildi. 1 marotaba ikki oyog‘idan ushlab zarb bilan yiqitish texnik harakatini bajarish bo‘yicha o‘sganligi kuzatildi.



1-rasm. Sport mahoratini takomillashtirish bosqichidagi 57-65 kg vazn toifasidagi erkin kurashchi qizlar tomonidan 3 yil davomida 1 marotaba bajarilgan texnik harakatlar tahlili

Sport mahoratini takomillashtirish bosqichidagi 68-76 kg vazn toifasidagi erkin kurashchi qizlarni 1 marotaba qo‘lini bo‘yinga o‘rab parter holatiga o‘tkazish texnik harakatini bajarish bajarish bo‘yicha o‘sganligi kuzatildi. 1 marotaba qo‘lini ikki qo‘l bilan yon tomondan ushlab tortib parter holatiga o‘tkazish texnik harakatini bajarish bo‘yicha o‘zgarish kuzatilmagan. 1 marotaba bir oyog‘idan ushlab parter holatiga o‘tkazish texnik harakatini bajarish imkoniyati o‘sganligi kuzatildi. 1 marotaba beldan oshirib tashlash texnik harakatini bajarish imkoniyati o‘sganligi kuzatildi.
1 marotaba qo‘lini bo‘yinga o‘rab tashlash texnik harakatini bajarish imkoniyati pasaygani kuzatildi. 1 marotaba oyog‘ini ichkaridan chalib yiqtish texnik harakatini bajarish imkoniyati o‘sganligi kuzatildi.



2-rasm. Sport mahoratini takomillashtirish bosqichidagi 68-76 kg vazn toifasidagi erkin kurashchi qizlar tomonidan 3 yil davomida 1 marotaba bajarilgan texnik harakatlar tahlili

O‘tkazilgan tadqiqotlardan olingan ma’lumotlarni tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

O‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sport mahoratini takomillashuv bosqichidagi erkin kurashchi qizlarning texnik tayyorgarligi vazn toifalariga qarab turlicha rivojlanish dinamikasiga ega ekanligi aniqlandi.

O‘rta vazn toifasidagi erkin kurashchi qizlar uchun bir fazali usullardan: Qo‘lidan tortib parter holatiga o‘tkazish. Bo‘yin va qo‘lini biriktirib old tepadan ushlab tortib parter holatiga o‘tkazish. Bir oyog‘idan ushlab parter holatiga o‘tkazish. Yelkadan oshirib tashlash. Yelkalardan oshrib tashlash. Ikki oyog‘idan ushlab zarb bilan yiqitish texnik usullarini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqot yosh erkin kurashchi qizlar bilan ishlashda individual yondashuvni kuchaytirish, texnik-taktik tayyorgarlikni vazn va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda rejalashtirish, shuningdek, mashg‘ulot yuklamalarini ilmiy asosda boshqarish muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi. Olingan natijalar kelgusida ayollar kurashida sport zahirasini shakllantirish, xalqaro musobaqalarda barqaror va yuqori natijalarga erishadigan raqobatbardosh erkin kurashchi qizlarni tayyorlashda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydanalingan adabiyotlar:

1. Жарылкапов, У. Б. (2023). Курашчиларнинг жисмоний ва тактик тайёргарлигини ривожлантириш масалалари. *Fan-Sportga*, (2), 110-111.

2. Bakhodirovich, J. U. (2024). The methodology of developing the strength qualities of qualified young freestyle wrestlers. *Eurasian Journal of Sport Science*, *1*(1), 34-37.

3. Жарылкапов, У. Б. (2025). Спорт такомиллашув гуруҳларидаги малакали эркин курашчиларнинг мусобоқа олди жисмоний тайёргарлигини ривожлантириш масалалари. *Fan-Sportga*, (3), 13-18.

4. Tashnazarov, D.Y. T. D. Y. (2026). U15 YOSH TOIFASIDAGI YUNON-RUMKURASHCHILARIDA TURLI VAZN TOIFALARIDA (38 44KG, 48 62 KG, 68 85 KG) 1 DAQIQA DAVOMIDABAJARILGAN TEXNIK HARAKATLAR SAMARADORLIGINITAHLIL QILISH. *Sportda ilmiy tadqiqotlar*, *2*(2), 121-124.

5.Жарылкапов, У. Б. (2023). Планирования тренировочного процесса подготовки борцов женщин по вольной борьбе в возросте 17-19 лет в Каракалпакистане. *SCIENCE and SOCIETY*, (1-2), 33-33.

SPORT MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISH BOSQICHI YENGIL VAZN TOIFASIDAGI ERKIN KURASHCHI QIZLARNING 1 MAROTOBA BAJARILGAN TEXNIK HARAKATLAR TAHLILI

Jarilkapov Ulugbek Baxadirovich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
“Yakka kurash sport turlari nazariyasi va uslubiyati” kafedrasi
p.f.b.f.d (PhD), dotsent

Kalit so‘zlar: *ayollar kurashi, sport mahoratini takomillashuv bosqichi, erkin kurashchi qizlar, vazn toifasi, texnik tayyorgarlik, tik turgan va parter holati.*

Ключевые слова: *женская борьба, этап совершенствования спортивного мастерства, девушки борцы вольного стиля, весовая категория, техническая подготовка, положение в стойке и в партере.*

Keywords: *women’s wrestling, stage of improving sports skills, female freestyle wrestlers, weight category, technical preparation, standing and parterre position.*

Dolzarbligi: Ayollar kurashi yozgi Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan eng mashhur va ommaviy sport turlaridan biri bo‘lib, dunyoning barcha beshta qit’asida shug‘ullanuvchi minglab sportchi qizlar faoliyat yuritmoqda. Ayollar kurashida raqobatning kuchayishi boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidan tortib oliy sport mahorati guruhigacha bo‘lgan barcha bosqichlarni boshqarishning tashkiliy va uslubiy jihatdan samaradorligini oshirish yo‘llarini izlab topish talabini qo‘ymoqda. Dunyoda erkin kurashchi qizlarni tayyorlash tizimida yuqori sport natijalarini ko‘rsatish imkoniyatlari yildan - yilga murakkablashib, yangi vosita va usullarni ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Ayollar kurashi bo‘yicha ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarini boshqarish texnologiyasi ilmiy jihatdan yetarlicha ochib berilmagan. Bu esa mutaxassislar tomonidan ilmiy asoslangan izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda [1-3].

Sport kurashlarida sportchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi sport ilm-fani, biomexanika va zamonaviy trening metodlari uyg‘unlikda chuqur tahlil qilinib, erkin kurashchi qizlarning texnik harakatlarini fazali o‘rganish, harakat traektoriyasini optimallashtirish, kuch va impuls taqsimotini ilmiy asosda nazorat qilish, mushak ishining energetik samaradorligini oshirish, koordinatsiya va muvozanatni takomillashtirish, reaksiya tezligi va qaror qabul qilish mexanizmlarini rivojlantirish bo‘yicha bir qator tadqiqot ishlari olib borilmoqda[4].


Erkin kurashchi qizlarning antropometrik xususiyatlarga mos texnika usullarni shakllantirish, texnik xatolarni raqamli diagnostika vositalari orqali aniqlash, sportchi qizlarning individual funksional imkoniyatlariga mos yuklama va mashg‘ulot dasturlarini ishlab chiqish, videoanaliz va simulyatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, texnik harakatlarni avtomatlashtirish bosqichlarini aniq belgilash, murakkab koordinatsion vazifalarni bosqichma-bosqich o‘rgatish, texnik harakatlarning takroriy tahlili asosida ularni mustahkamlash, zamonaviy nazorat va baholash uslublarini qo‘llash, ilmiy izlanishlarga asoslangan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish orqali uzluksiz takomillashtirib borilmoqda va bu jarayon erkin kurashchi qizlarining texnik tayyorgarligini takomillashtirish dolzarbligi oshirib bormoqda[5].

Mamlakatimizda ayollar kurashi sport turini rivojlantirish bo‘yicha bir qator say harakatlar amalga oshirilmoqda, mazkur ishlarning samarasi nufuzli musobaqalarda erishilayotgan natijalar bilan izohlanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda ayollar kurashini yanada rivojlantirish, zamonaviy metodikalar asosida takomillashtirish hamda xalqaro miqyosda raqobatbardosh sportchi qizlarni tayyorlash yo‘lida qator izchil islohotlar, tizimli chora-tadbirlar va kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda. Olib borilayotgan bu sa’y-harakatlarning amaliy samarasi so‘nggi yillarda O‘zbekistonlik sportchi qizlarning Osiyo chempionatlari, Jahon chempionatlari va Olimpiya o‘yinlari kabi nufuzli musobaqalarda muntazam tarzda yuqori natijalarga erishayotgani, ularning texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlik darajasi tobora ortib borayotgani bilan yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Biz 2024-yildan boshlab sport mahoratini takomillashuv bosqichiga kiruvchi erkin kurashchi qizlarni tayyorgarlik jarayonlari va o‘quv mashg‘ulot yuklamalariga bardoshlilik holatlarini o‘rganish maqsadida ilmiy tahlil qilish masalasini oldinga qo‘ydik.

Sport mahoratini takomillashtirish bosqichidagi 50-55 kg vazn toifasidagi erkin kurashchi qizlarni 1 marotaba qo‘l ostidan shong‘ib parter holatiga o‘tkazish texnik harakati bo‘yicha

o‘zgarish kuzatilmagan. 1 marotaba bo‘yin va qo‘lini biriktirib old tepadan ushlab tortib parter holatiga o‘tkazish texnik harakatida o‘zgarish kuzatilmagan. 1 marotaba yoniga qadam tashlab oyoqlarini ushlab parter holatiga o‘tkazish texnik harakatini bajarish imkoniyati o‘sganligi kuzatildi. 1 marotaba yelkalardan oshirib tashlash texnik harakati bo‘yicha o‘sganligi kuzatildi. 1 marotaba beldan oshirib tashlash texnik usulini bajarish tezligi pasaygani kuzatildi. 1 marotaba yelkadan oshirib tashlash esa o‘sganligi kuzatildi.



1-rasm. Sport mahoratini takomillashtirish bosqichidagi 50-55 kg vazn toifasidagi erkin kurashchi qizlar tomonidan 3 yil davomida 1 marotaba bajarilgan texnik harakatlar tahlili

O‘tkazilgan tadqiqotlardan olingan ma’lumotlarni tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

O‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sport mahoratini takomillashuv bosqichidagi erkin kurashchi qizlarning texnik tayyorgarligi vazn toifalariga qarab turlicha rivojlanish dinamikasiga ega ekanligi aniqlandi. Yengil vazn toifalarida aksariyat texnik harakatlarni bajarish tezligi va samaradorligining oshishi mashg‘ulot jarayonlarining to‘g‘ri tashkil etilayotganidan dalolat bersa, og‘ir vazn toifalarida ayrim texnik usullarning bajarilish vaqti ortgani jismoniy va funksional tayyorgarlikni yanada chuqurlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqot yosh erkin kurashchi qizlar bilan ishlashda individual yondashuvni kuchaytirish, texnik-taktik tayyorgarlikni vazn va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda rejalashtirish, shuningdek, mashg‘ulot yuklamalarini ilmiy asosda boshqarish muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi. Olingan natijalar kelgusida ayollar kurashida sport zahirasini shakllantirish, xalqaro musobaqalarda barqaror va yuqori natijalarga erishadigan raqobatbardosh erkin kurashchi qizlarni tayyorlashda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydanalingan adabiyotlar:

1. Жарылкапов, У. Б. (2023). Курашчиларнинг жисмоний ва тактик тайёргарлигини ривожлантириш масалалари. *Fan-Sportga*, (2), 110-111.

2. Bakhodirovich, J. U. (2024). The methodology of developing the strength qualities of qualified young freestyle wrestlers. *Eurasian Journal of Sport Science*, *1*(1), 34-37.

3. Жарылкапов, У. Б. (2025). Спорт такомиллашув гуруҳларидаги малакали эркин курашчиларнинг мусобоқа олди жисмоний тайёргарлигини ривожлантириш масалалари. *Fan-Sportga*, (3), 13-18.

4. Tashnazarov, D.Y. T. D. Y. (2026). U15 YOSH TOIFASIDAGI YUNON-RUMKURASHCHILARIDA TURLI VAZN TOIFALARIDA (38 44KG, 48 62 KG, 68 85 KG) 1 DAQIQA DAVOMIDABAJARILGAN TEXNIK HARAKATLAR SAMARADORLIGINITAHLIL QILISH. *Sportda ilmiy tadqiqotlar*, *2*(2), 121-124.

5.Жарылкапов, У. Б. (2023). Планирования тренировочного процесса подготовки борцов женщин по вольной борьбе в возросте 17-19 лет в Каракалпакистане. *SCIENCE and SOCIETY*, (1-2), 33-33.

O‘QUV-MASHQ BOSQICHIDAGI ERKIN KURASHCHI QIZLARNING TAYYORGARLIK MIKROSIKLINING TUZILISHI

A.Alimbetova
O‘zDJTSUmustaqil izlanuvchisi
Nukus sh.

Kalitso‘zlar: *erkin kurashchi qizlarni jismoniy va texnik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan tayyorgarlik sikli*

Ключевые слова:*Подготовительный цикл, направленный на развитие физической и технической подготовленности девушек, занимающихся вольной борьбой.*

Dolzarbligi. Jahonda ayol sportchilar organizmining funksional xususiyatlarini chuqur o‘rganish hamda mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish ehtiyoji ortib borayotgani bilan belgilanmoqda. Kurashchi qizlarning jismoniy sifatlari va texnik tayyorgarligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy asosda tadqiq etish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanmoqda. Erkin kurashchilarningmaxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik-taktik mahoratning barqaror rivojlantirish,yosh, biologik rivojlanish va morfofunksional xususiyatlariga mos integratsiyalashgan metodikalar ishlab chiqishgan. Erkin kurashda texnik harakatlarning samaradorligi sportchining tezkor-kuch sifati, koordinatsion barqarorligi, vestibulyar moslashuvi va maxsus chidamlilik darajasiga bevosita bog‘liq ekanligi aniqlangan. Shu sababli jismoniy sifatlarni texnik tayyorgarlik bilan uyg‘unlashtirgan holda rivojlantirishga qaratilgan kompleks metodikalar ishlab chiqilmoqda. Biroq o‘quv-mashq bosqichidagi erkin kurashchi qizlarning jismoniy va texnik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan metodikalarni ishlab chiqish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Tadqiqotning maqsadi.O‘quv-mashq bosqichidagi erkin kurashchi qizlarning tayyorgarlik mikrosiklining tuzilishini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: 1. Mavzuga oid ilmiy-uslubiy ishlarni o‘rganish va umumlashtirish. 2. O‘quv-mashq bosqichidagi erkin kurashchi qizlarning tayyorgarlik mikrosiklining tuzilishini ishlab chiqishva amaliyotga joriy etish.

Tadqiqot natijalari va ulanring muhokamasi. Erkin kurashchilarining texnik tayyorgarligini aylanma uslub yordamida rivojlantirish uslubiyatini ishlab chiqish ta’sirida yuqori natijalarga erishishdan iborat. Vazifa sifatida quyidagilar malakali erkin kurashchilarining texnik, tayyorgarlik, bo‘yicha,rivojlanganlik darajasini o‘rganish, malakali erkin kurashchilarining texnik tayyorgarligini aylanma uslub yordamida rivojlantirish uslubiyatini ishlab chiqish,malakali erkin kurashchilarining texnik tayyorgarligini aylanma uslub yordamida rivojlantirish uslubiyatining samarali jihatlarini aniqlash belgilab olindi.

Erkin kurashchilarining texnik tayyorgarligini aylanma uslub yordamida rivojlantirish uslubiyati hozirgi musobaqa qoidasi talablariga javob beradigan erkin kurashchilarining

mashg‘ulotiga moslashtirilib ishlab chiqarilgan kompleks sport natijalariga samarali ta’sir etadi degan fikr ilgari surilgan.

Erkin kurash atsiklik sport turi hisoblanadi, atsiklik sport turlariga aylanma uslubning samarali ta’sir etishi ta’kidlab o‘tilgan. Aylanma uslubdagi variantlarga erkin kurashning texnik usullari va harakatlari mashqlar o‘rniga qo‘yilib foydalaninshni tavsiya qilishgan.

O‘quv-mashq bosqichidagi erkin kurashchi qizlarning jismoniy va texnik tayyorgarligini takomillashtirishda tayyorgarlik mikrosikli ishlab chiqildi. Ushbu siklda hafta kunlari davomida erkin kurashchilarni maxsus jismoniy tayyorgarligi hamda texnik tayyorgarligini uyg‘unlikda rivojlantirishga qaratilgan vositalar saralandi. Hafta kunlariga saralangan vositalarni me’yori taqsimlab chiqildi. Shu bilan birga hafta yakunida dam olish va tiklanishga qaratilgan mashg‘ulotlar rejalashtirildi.

O‘quv-mashq bosqichidagi erkin kurashchi qizlarni jismoniy va texnik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan tayyorgarlik sikli rejalashtirildi. Ushbu siklda hafta kunlari davomida ertalab stadionda asosan buyumlar bilan yugurish mashg‘ulotlari rejalashtrildi. Bundan tashqari erkin kurash zalida ertabki va kechki mashg‘ulotlar olib borildi. Hafta kunlarida tik turgan va parter holatidagi mashqlar me’yori qizlar harakatlarni o‘zlashtirishiga qarab taqsimlandi. Shu bilan birga immitatsion harakatlar ham qo‘llanildi.

Dushanba kuni 6:30-7:15 gacha **saflanish stadion boylap yengil 4-5 krug yugurish 10 daq.,** badan qizdirish 5 daq. Sherik bilan tik turgan holatidagi texnik usullarni takrorlash 15 daq. Maxsus rezinada texnik usullarni sheriksiz havoda(immitatsiya) bajarish 10 daq. **cho‘zilish 5**-daqiqa harakatlar me’yori taqsimlandi va rejalashtirildi. 11:00-12:30 da erkin kurash zalida **Saflanish 5 daq, chigal yozdi mashqlarni bajarish 20 daq, maxsus mashqlarni bajarish 5 daq. Tik turgan va parter holatida texnik-taktik tayyorgarlik 30 daq.** Maxsus rezinada texnik usullarni takrorlash 10 daq.

Arqonchaga tirmashib chiqish 5 daq. **Maxsus mashqlarni bajarish 10 daq. cho‘zilish 5**-daqiqa amalga oshirildi. 17:00-18:30 gacha **Saflanish 5 daq, chigal yozdi mashqlarni bajarish 20 daq, maxsus mashqlarni bajarish 5 daq.Tik turgan va parter holatida texnik-taktik tayyorgarlik 45 daq.** Maxsus rezinada texnik usullarni takrorlash 5 daq. **maxsus mashqlarni bajarish 5 daq. cho‘zilish 5**-daqiqa. Yuklama me’yorlari taqsimlandi hamda amalga oshirildi. Chorshanba va shanba kuni kechki mashg‘ulotlarga dam olish ya’ni tiklanishga qaratilgan mashg‘ulotlar rejalashtirildi. Tayyorgarlik siklini qo‘llash orqali erkin kurashchi qizlarni integral tayyorlash imkoniyatlari kengaytirildi hamda sport musobaqalarida natijalarga erishildi.

Kombinatsiya va variantlarini mukammal texnik mahorat va malakalarni egallab olgunga qadar o‘zlashtirish kerakligini aytib o‘tishgan. Texnik mahoratga erishish uchun zarur bo‘lgan texnik taffakkur va boshqa qobilyatlarni tarbiyalash aylanma uslubni amalga oshirishda asosiy yordamchi fazilatlar hisoblanadi.

Xulosa. Ayollar kurashida jismoniy va texnik tayyorgarlik harakatlarni bajarish muvofiqligi hamda rivojlanganlik darajasi samaradorligini oshirishga qaratilgan biz tomonimizdan tayyorgarlik davri tizimli rejalashtirilib, amaliyotga joriy qilindi.Ushbu tayyorgarlik mikrosikli kurashchilarni maxsus jismoniy tayyorgarligi bilan texnik harakatlar samaradorligini oshirishga mo‘ljallangan asosiy mashg‘ulot vositasi ekanligi isbotlandi. Natijada, o‘quv-mashq bosqichidagi erkin kurashchi qizlarni jismoniy va texnik tayyorgarligini rivojlantirishgaqaratilgantayyorgarlik mikrosiklini tongda buyumlar bilan yugurish, ertalab

maxsus jismoniy tayyorgarlik va kechki dam olish ya’ni tiklanish mashg‘ulotlarini variativ rejalashtirish orqali musobaqalarga integral tayyorlash imkoniyatlari 12,89 % o‘sgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Kubitdinov J.A. Yunon-rum kurashchilarda maxsus kuch tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi. PhD dissertatsiya avtoreferati. Chirchiq, 2024. - 58 b.
2. Quvatov E.H. Xalqaro kurash vositalarining integratsiyasi asosida kurashchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi. PhD dissertatsiya avtoreferati. Chirchiq, 2024. - 56 b.
3. Куликов,А.М.Видеотехникавтренировочномпроцессеборьбы.— Москва: Наука, 2021. – 250 с.
4. Лебедев,Н.П.Основыспортивнойбиомеханики.—Санкт-Петербург: Лань, 2017. – 260 с.
5. MirjamolovM.X. “Adaptivjismoniytarbiyavasport” o‘quvqo‘llanma. Chirchiq, 2020. – 203 b.
6. MirzanovSh.S.,U.R.Karimov“Kurash”O‘quvqo‘llanma2020. – 325 b.
7. MirzaqulovSh.A. Belbog‘likurashnazariyasivauslublari // O‘quvqo‘llanma T.: 2014-216 b

O‘QUV-MASHQ GURUHI YENGIL VAZN TOIFASIDAGI ERKIN KURASHCHI QIZLAR UCHUN TIK TURGAN VA PARTER HOLATIDA SAMARALI TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARNI FAZALARIGA BO‘LIB O‘RGATISH USLUBIYATI

A.Alimbetova
O‘zDJTSUmustaqil izlanuvchisi
Nukus sh.

Kalitso‘zlar: *qo‘lidan tortib parter holatiga o‘tkazish, bo‘yin va qo‘lini biriktirib old tepadan ushlab tortib parter holatiga o‘tkazish, yoniga qadam tashlab oyoqlarini ushlab parter holatiga o‘tkazish, yelkadan oshirib tashlash.*

Ключевые слова: *перевод в партер рывком за руку, перевод в партер захватом шеи и руки сверху спереди, перевод в партер захватом ног с шагом в сторону, бросок через плечо.*

Dolzarbligi. Dunyoda so‘nggi yillarda ayollar sportining, xususan, erkin kurashning xalqaro miqyosda jadal rivojlanayotgani bilan izohlanmoqda.Sport amaliyotida ayol sportchilarni uzoq muddatli tayyorlash tizimini tashkil etish, ularning jismoniy sifatlari hamda texnik-taktik tayyorgarligini yosh va funksional imkoniyatlarga mos ravishda takomillashtirish muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayollar kurashi bo‘yicha musobaqalar sonining ortishi, Olimpiya va jahon chempionatlarida raqobat darajasining kuchayishi sportchilarni tayyorlash zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda.Xorijiydavlatlarda kurashchi qizlarni tayyorlashda funksional tayyorgarlik, maxsus kuch chidamliligi, koordinatsion qobiliyat hamda texnik harakatlar aniqligini rivojlantirishga qaratilgan integratsiyalashgan mashg‘ulot texnologiyalaridan foydalanilmoqda. Shu bilan birga o‘quv-mashq bosqichidagi erkin kurashchi qizlarning jismoniy va texnik tayyorgarligini uyg‘unlikda takomilashtirishga qaratilgan masalalar dolzab ahamiyat kasb etmoqda.


Tadqiqotning maqsadi.O‘quv-mashq guruhi yengil vazn toifasidagi erkin kurashchi

qizlar uchun tik turgan va parter holatida samarali texnik-taktik harakatlarni fazalariga bo‘lib o‘rgatish uslubiyatini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: 1. Mavzuga oid ilmiy-uslubiy ishlarni o‘rganish va umumlashtirish. 2. O‘quv-mashq guruhi yengil vazn toifasidagi erkin kurashchi qizlar uchun tik turgan va parter holatida samarali texnik-taktik harakatlarni fazalariga bo‘lib o‘rgatish uslubiyatini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.O‘quv-mashq guruhidagi erkin kurashchi qizlarni jismoniy va texnik tayyorgarligini muvofiqlikda rivojlantirishga e’tibor qaratildi. Bunda qizlarning vazn toifalarini inobatga olgan holda samarali texnik-taktik harakatlarni fazalariga bo‘lib o‘rgatishga qaratilgan metodika ishlab chiqildi (1-2-rasmga qarang).

1-rasm. O‘quv-mashq guruhi yengil vazn toifasidagi erkin kurashchi qizlar uchun tik turgan holatida samarali texnik-taktik harakatlarni fazalariga bo‘lib o‘rgatish uslubiyati



2-rasm. O‘quv-mashq guruhi yengil vazn toifasidagi erkin kurashchi qizlar uchun parter holatida samarali texnik-taktik harakatlarni fazalariga bo‘lib o‘rgatish uslubiyati

O‘quv-mashq guruhi yengil vazn toifasidagi erkin kurashchi qizlar uchun tik turgan holatida samarali texnik-taktik harakatlarni fazalariga bo‘lib o‘rgatish uslubiyati ishlab chiqildi. Ushbu harakat ikkita fazaga bo‘lib amalga oshirildi. Birinchi fazada qo‘lidan tortib parter holatiga o‘tkazish, bo‘yin va qo‘lini biriktirib old tepadan ushlab tortib parter holatiga o‘tkazish, yoniga qadam tashlab oyoqlarini ushlab parter holatiga o‘tkazish, yelkadan oshirib tashlash, beldan oshirib tashlash, qo‘lini bo‘yinga o‘rab tashlash kabi harakatlari bajarildi. Ikkinchi fazada qo‘l ostidan sho‘ng‘ib, qo‘lidan tortib, parter holatiga o‘tkazish, bir oyog‘idan ushlab, bo‘yin va qo‘lini biriktirib old tepadan ushlab tortib parter holatiga o‘tkazish, bir oyog‘idan ushlab, yoniga qadam tashlab oyoqlarini ushlab parter holatiga o‘tkazish, qo‘lidan tortib, yelkalardn oshirib tashlash, qo‘lini ikki qo‘l bilan yon tomondan ushlab tortib, beldan oshirish tashlash, qo‘lidan tortib, qo‘lini bo‘yinga o‘rab tashlash kabi harakatlarni birinchi fazadagi harakatlardan keyin amalga oshirish tavsiya etildi.

Xulosa.O‘quv-mashq guruhidagi erkin kurashchi qizlarning texnik tayyorgarligini oshirish uchun samarali texnik-taktik harakatlarni fazalariga bo‘lib o‘rgatish bo‘yicha ilmiy-uslubiy kompleks dasturini takomillashtirish asosida tik va parterda kurashish imkoniyatlari oshirildi. Shu bilan birga, ayollar kurashi bo‘yicha ishlab chiqilgan metodikalar boshqa kurash turlarida ixtisoslashuvchi sport ta’lim muassasalari va O‘zbekiston ayollar milliy terma jamoasi kurashchilarining mashg‘ulotlari jarayonida mutaxassislar tomonidan foydalanishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Sultonov Sh.N. 14-15 yoshli erkin kurashchilarning kompleks tayyorgarligida mashg‘ulot yuklamalarini optimallashtirish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Chirchiq, 2024. – 58 b.
2. TastanovN.A.Kurashturlari nazariyasi va uslubiyati. Toshkent,2017.222 b
3. Tastanov N. A. Mirzakulov Sh. A. Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati Nashriyot: O‘zDjti, 2016. – 250 b.
4. TursunovSh.S.Yunon-rim kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi 2019. – 154 b

KARATE SHINIǴIWLARINDA FIZIKALIQ JÚKLEMELERDI DURIS BELGILEW HÁM OLARDIŃ NÁTIYJELILIGI

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti stajyor oqıtıwshısı
Aytmuratova Biybinaz
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyasıhám sport universiteti studenti
Davlatyorova Sevinchay

Tayanısh sózler: *karate,texnika, sportshı, taktika, kúsh, tezlik, shıdamlılıq, epshillik.*

Ключевые слова: *каратэ, техника, спортсмен, тактика, сила, скорость, выносливость, ловкость.*

Kirisiw. Karate sportında joqarı nátiyjelerge erisiw sportshınıń fizikalıq, texnikalıq hám taktikalıq tayarlıǵına baylanıslı. Shınıǵıw procesinde fizikalıq júklemelerdi durıs belgilew sportshınıń kúsh, tezlik, shıdamlılıq, epshillik hám háreketlerdi koordinaciyalaw qábiletlerin rawajlandırıwda áhmiyetli orın tutadı. Fizikalıq júkleme sportshınıń jası, jınısı, tayarlıq dárejesi, den sawlıǵı hám jeke ózgesheliklerine sáykes rejelestiriliwi kerek. Karate shınıǵıwlarında júklemelerdi nadurıs belgilew sharshawdıń artıwına, texnikalıq háreketlerdiń

sapasınıń tómenlewine hám jaralanıw qáwpiniń kúsheyiwine alıp keliwi múmkin. Sonlıqtan shınıǵıw júklemesini ilimiy-metodikalıq tiykarında basqarıw sport nátiyjeliligin arttırıwdıń tiykarǵı shártleriniń biri esaplanadı.

Izertlewdiń maqseti.Karate shınıǵıwlarında fizikalıq júklemelerdi durıs belgilew usılların úyreniw hám olardıń sportshılardıń fizikalıq tayarlıǵı menen sport nátiyjelerine tásirin tiykarǵı jaqtan ashıp beriw.

Izertlewdiń wazıypaları. Karate shınıǵıwlarında qollanılatuǵın fizikalıq júklemelerdiń túrlerin úyreniw.

1. Sportshılardıń jeke ózgesheliklerine qarap júklemelerdi belgilew usılların anıqlaw.
2. Júkleme hám dem alıw waqıtlarınıń fizikalıq tayarlıqqa tásirin úyreniw.
3. Fizikalıq júklemelerdi durıs rejelestiriwdiń sport nátiyjelerine tásirin tiykarǵı jaqtan túsindiriw.

Izertlew usılları. Izertlewde ilimiy-metodikalıq ádebiyatlardı analizlew, pedagogikalıq baqlaw, salıstırıw, sportshılardıń fizikalıq tayarlıǵın bahalaw hám shınıǵıw júklemelerin analizlew usıllarınan paydalanıw múmkin.

Tiykarǵı bólim. Karate shınıǵıwlarında fizikalıq júklemelerdi durıs belgilew sportshınıń múmkinshiliklerin esapqa alǵan halda shınıǵıw procesin rejelestiriwdi talap etedi. Júklemeniń kólemi, intensivligi, dawamlılıǵı hám dem alıw aralıqları óz ara sáykes bolıwı kerek.

Júklemeniń tiykarǵı kórsetkishleri:

Kólemi — shınıǵıw dawamında orınlanǵan mashqlar, tákirarlawlar hám ulıwma jumıs muǵdarı.

Intensivligi — mashqlardı orınlaw tezligi hám fizikalıq kúsh salıw dárejesi.

Dawamlılıǵı — bir mashq yamasa shınıǵıw bólegine ajıratılǵan waqıt.

Dem alıw aralıǵı — organizmdiń qayta tikleniwi ushın ajıratılǵan waqıt.

Karate sportında tezlik-kúsh sapaları, reakciya tezligi, arnawlı shıdamlılıq hám háreketler koordinaciyası úlken áhmiyetke iye. Mısalı, jıllam zárbe beriw, qorǵanıw háreketleri, ayaq penen zárbeler hám taktikalıq kombinaciyalardı orınlaw sportshıdan joqarı dárejede fizikalıq tayarlıqtı talap etedi.Shınıǵıw júklemelerin belgilewde sportshınıń jası hám tayarlıq dárejesi esapqa alınadı. Baslanǵısh tayarlıqta mashqlardıń kólemi hám intensivligi áste-aqırın arttırıladı. Joqarı tayarlıq dárejesindegi sportshılarda bolsa texnikalıq-taktikalıq tapsırmalar menen joqarı intensivliktegi interval shınıǵıwların birlestiriw múmkin.

Mısalı, karate sportshıları ushın tómendegishe shınıǵıw tapsırmaların qollanıwǵa boladı:

Shınıǵıw túri	Usınılatuǵın júkleme	Dem alıw
Tez zárbeler beriw	10–15 sekund	30–45 sekund
Ayaq penen zárbeler	8–12 tákirarlaw	30–60 sekund
Qorǵanıw háreketleri	20–30 sekund	30–45 sekund
Taktikalıq kombinaciyalar	20–40 sekund	40–60 sekund
Arnawlı sparring	1–2 minut	1–2 minut

Bul kórsetkishler ulıwma metodikalıq mısal bolıp, sportshınıń jası, tayarlıq dárejesi hám shınıǵıw maqsetine qarap ózgertiledi.Fizikalıq júklemelerdiń nátiyjeliligin bahalaw ushın shınıǵıw aldında hám keyin júrek urıw jiyiligi, mashqlardı orınlaw tezligi, texnikalıq háreketlerdiń sapası hám qayta tikleniw waqıtı baqlanadı. Bul kórsetkishler sportshınıń

júklemelerge beyimlesiw dárejesin anıqlawǵa járdem beredi.Júklemeniń nátiyjeliligi tek ǵana onıń joqarı bolıwına emes, al durıs tańlanıwına baylanıslı. Eger sportshı sharshaw sebepli texnikalıq qátelerdi kóbirek jibere baslasa, júklemeni azaytıw yamasa dem alıw waqtın uzaytıw kerek. Sonıń menen birge, shınıǵıw nátiyjelerin sistemalı túrde jazıp barıw hám olardı salıstırıw jeke tayarlıq baǵdarlamasın jetilistiriwge múmkinshilik beredi.

Juwmaq. Karate shınıǵıwlarında fizikalıq júklemelerdi durıs belgilew sportshılardıń fizikalıq tayarlıǵın jetilistiriw, texnikalıq háreketlerdi sapalı orınlaw hám jaralanıw qáwpin azaytıw ushın zárúr. Júklemeniń kólemi, intensivligi hám dem alıw aralıqları sportshınıń jeke ózgesheliklerine sáykes rejelestiriliwi tiyis. Shınıǵıw procesin úzliksiz baqlaw hám nátiyjelerdi bahalaw sport nátiyjeliligin arttırıwdıń áhmiyetli faktorları bolıp esaplanadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Bompa, T. O., Buzzichelli, C. Periodization: Theory and Methodology of Training. Human Kinetics.
2. Haff, G. G., Triplett, N. T. Essentials of Strength Training and Conditioning. Human Kinetics.
3. World Karate Federation. Karate sportı boyınsha rásmiy qaǵıydalar hám metodikalıq materiallar.
4. Sport fiziologiyası hám jismoniy tayarlıq teoriyası boyınsha oqıw-metodikalıq qollanbalar.

KARATE SPORTSHILARINDA JARÍS ALDÍNDAǴÍ PSIXOLOGIYALÍQ JAǴDAYDÍ BASQARÍW USÍLLARÍ

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti stajyor oqıtıwshısı
Aytmuratova Biybinaz
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti studenti
Davlatyorova Sevinchay

Tayanısh sózler: *karate, sport psixologiyası, jarıs aldındaǵı tayarlıq, psixologiyalıq jaǵday, stress, motivaciya, ózin-ózi basqarıw, dem alıw shınıǵıwları.*

Ключевые слова: *каратэ, спортивная психология, предсоревновательная подготовка, психологическое состояние, стресс, мотивация, самоконтроль, упражнения на отдых.*

Kirisiw. Házirgi waqıtta karate sportında joqarı nátiyjelerge erisiw tek fizikalıq hám texnikalıq tayarlıq penen sheklenbeydi. Sportshınıń psixologiyalıq tayarlıǵı da jarıs nátiyjesine tásir etetuǵın áhmiyetli faktor bolıp esaplanadı. Ásirese, jarıs aldındaǵı tolqınıw, jeńiliwden qorqıw, artıqsha qozǵalıw hám óz kúshine isenimsizlik sportshınıń texnikalıq háreketlerin orınlawına keri tásir etiwi múmkin.

Karate sportında háreketlerdiń tezligi, dáliligi, taktikalıq sheshimlerdi waqıtında qabıl etiw hám qarsılas háreketlerine tez juwap qaytarıw úlken áhmiyetke iye. Sonlıqtan sportshılardı jarıs aldında psixologiyalıq jaqtan tayarlaw hám óz emociyaların basqara biliwge úyretiw zárúr.

Izertlew maqseti. Karate sportshılarında jarıs aldındaǵı psixologiyalıq jaǵdaydı basqarıw usılların úyreniw hám sportshılardıń jarısqa psixologiyalıq tayarlıǵın jaqsılawǵa qaratılǵan usınıslardı islep shıǵıw.

Izertlew wazıypaları. Karate sportshılarında jarıs aldında payda bolatuǵın psixologiyalıq jaǵdaylardı úyreniw.

1. Jarıs aldındaǵı stress, qorqınısh hám tolqınıwdıń sport nátiyjesine tásirin analizlew.
2. Psixologiyalıq jaǵdaydı basqarıwda qollanılatuǵın tiykarǵı usıllardı anıqlaw.
3. Dem alıw, ózin-ózi isendiriw hám vizuallastırıw shınıǵıwlarınıń áhmiyetin ashıp beriw.
4. Karate sportshıları ushın jarıs aldında qollanıwǵa bolatuǵın psixologiyalıq tayarlıq usınısların islep shıǵıw.

Izertlew usılları. Mavzunı úyreniwde ilimiy-metodikalıq ádebiyatlardı analizlew, baqlaw, sáwbetlesiw, anketa ótkeriw hám sportshılardıń psixologiyalıq jaǵdayın salıstırmalı bahalaw usıllarınan paydalanıw múmkin.

Karate sportshılarında jarıs aldındaǵı psixologiyalıq jaǵdaydı basqarıw bir neshe usıllar arqalı ámelge asırıladı.

1. Dem alıw shınıǵıwları. Bunday shınıǵıwlar artıqsha qozǵalıwdı azaytıwǵa, dıqqatтı jámlestiriwge hám ózin tınısh seziniwge járdem beredi. Sportshı murabbiy baqlawında jay hám bir tegis dem alıw shınıǵıwların orınlaydı.

2. Ózin-ózi isendiriw. Sportshı óziniń tayarlıǵına, texnikalıq imkaniyatlarına hám burınǵı jetiskenliklerine itibar beredi. «Men tayarman», «Men tapsırmanı orınlay alaman» sıyaqlı jaǵımlı sózler ózine bolǵan isenimdi bekkemlewge járdem beriwi múmkin.

3. Vizuallastırıw usılı. Sportshı jarıstaǵı háreketlerin, qorǵanıw hám húјim kombinaciyaların aqılında aldın ala kóz aldına keltiredi. Bul taktikalıq háreketlerdi orınlawǵa psixologiyalıq tayarlıq kóriwge járdem beredi.

4. Dıqqattı basqarıw. Karate sportshısı artıqsha oylardan aralıqlap, óziniń tiykarǵı wazıypasına, murabbiy kórsetpelerine hám taktikalıq rejere itibar qaratıwı kerek.

5. Jarıs aldındaǵı kún tártibi. Uyqını jetkilikli alıw, waqıtında awqatlanıw, deneni qızdırıw hám aldın ala belgilengen tayarlıq rejimin saqlaw psixologiyalıq turaqlılıqtı támiyinlewge járdem beredi.

6. Trenerdiń psixologiyalıq qollap-quwatlawı. Murabbiy sportshı menen isenimli qatnas ornatıwı, anıq hám túsinikli tapsırmalar beriwi, artıqsha qorqıtıw yamasa basım jasawdan saqlanıwı kerek.

Bul usıllardı sportshınıń jeke ózgesheliklerine qarap tańlaw hám kúndelikli shınıǵıw procesinde izbe-iz qollanıw maqsetke muwapıq.

JUWMAQ. Karate sportshılarında jarıs aldındaǵı psixologiyalıq jaǵdaydı basqarıw sportshınıń jarısqa tayarlıǵın jetilistiriwdiń áhmiyetli bólegi bolıp esaplanadı. Dem alıw shınıǵıwları, ózin-ózi isendiriw, vizuallastırıw, dıqqattı basqarıw hám murabbiydiń qollap-quwatlawı sportshınıń artıqsha tolqınıwın azaytıwǵa hám óz imkaniyatların durıs paydalanıwǵa járdem beriwi múmkin.Sol sebepli, karate sportshılarınıń psixologiyalıq tayarlıǵın jıllıq tayarlıq rejesine kirgiziw hám bul jumıstı izbe-iz alıp barıw zárúr.

PAYDALANILǴAN ÁDEBIYATLAR

1. Weinberg, R. S., Gould, D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. Human Kinetics.
2. Williams, J. M., Krane, V. Applied Sport Psychology: Personal Growth to Peak Performance. McGraw-Hill.
3. Hardy, L., Jones, G., Gould, D. Understanding Psychological Preparation for Sport: Theory and Practice of Elite Performers. Wiley.

BOKSCHILARNING JISMONIY VA TEXNIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING SAMARALI USULLARI

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti asistent o‘qituvchisi
I.Allanazarov
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabasi
A.Kurbanova

Kalit so‘zlar: *boks, bokschi, jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, tezkorlik, kuch, chidamlilik, reaksiya tezligi, zarba, himoyalanish.*

Ключевые слова: *бокс, боксер, физическая подготовка, техническая подготовка, скорость, сила, выносливость, скорость реакции, удар, защита.*

Kirish. Bugungi kunda boks sportida yuqori malakali sportchilarni tayyorlash jarayoniga qo‘yiladigan talablar tobora ortib bormoqda. Zamonaviy boks jangning yuqori sur’ati, qisqa vaqt ichida tezkor qaror qabul qilish, aniq va kuchli zarbalar berish hamda raqibning hujumlaridan samarali himoyalanish bilan tavsiflanadi. Shu sababli bokschining jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarligini kompleks ravishda rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Boks sport turi bilan shuģullanuvchilarning tezkorlik qobiliyatini rivojlantirish.

Tadqiqot usullari va uni tashkil etish. Boks mashg‘ulotlarida sportchining individual xususiyatlarini hisobga olish, yuklamalarni bosqichma-bosqich oshirish va maxsus mashqlarni muntazam qo‘llash yuqori sport natijalariga erishishning muhim omillaridan biridir.Bokschining jismoniy tayyorgarligi uning texnik harakatlarni samarali bajarish imkoniyatlarini belgilaydi. Bunda, ayniqsa, tezkor-kuch qobiliyati, maxsus chidamlilik, chaqqonlik va koordinatsiya muhim o‘rin tutadi.

Tezkorlikni rivojlantirish uchun qisqa masofaga maksimal tezlikda yugurish, tezkor oyoq harakatlari, signal bo‘yicha zarba berish, sherikning harakatiga javoban himoyalanish kabi mashqlardan foydalanish mumkin.

Tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish uchun zarbalarni maksimal tezlikda bajarish, tibbiy to‘p bilan mashqlar, rezina amortizatorlar bilan ishlash va qisqa muddatli yuqori intensivlikdagi mashqlar samarali hisoblanadi.

Maxsus chidamlilikni rivojlantirish maqsadida raundlarga moslashtirilgan mashg‘ulotlar, qop bilan uzluksiz ishlash, kombinatsion zarbalar seriyasini bajarish va interval usulidagi mashqlar qo‘llaniladi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Bokschining texnik tayyorgarligida zarba berish texnikasi bilan bir qatorda himoyalanish harakatlarini ham takomillashtirish zarur. To‘g‘ri zarba, yon zarba va pastdan beriladigan zarbalarni kombinatsiyalash, oyoq harakatlari bilan uyg‘unlashtirish sportchining jangdagi samaradorligini oshiradi.

Himoyalanishda blok, qaytarish, egilish, sho‘ng‘ish, orqaga va yon tomonga siljish kabi harakatlarni takomillashtirish katta ahamiyatga ega. Ushbu harakatlarni raqibning shartli hujumlari bilan birgalikda bajarish sportchining sensor-motor reaksiyasini rivojlantiradi.

Mashg‘ulot jarayonida quyidagi ketma-ketlikdan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlari.
2. Maxsus tayyorgarlik mashqlari.
3. Zarba texnikasini takomillashtirish.
4. Himoyalanish harakatlarini takomillashtirish.

5. Zarba va himoya kombinatsiyalarini bajarish.
6. Juftlikda shartli jang mashqlari.
7. Musobaqaga yaqinlashtirilgan nazorat mashg‘ulotlari.

Bunday yondashuv sportchining jismoniy imkoniyatlarini texnik va taktik harakatlar bilan uyg‘unlashtirishga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boks sportida yuqori natijalarga erishish uchun sportchining jismoniy va texnik tayyorgarligini kompleks rivojlantirish zarur. Mashg‘ulotlarda tezkorlik, tezkor-kuch, maxsus chidamlilik, chaqqonlik va koordinatsiyani rivojlantiruvchi mashqlarni zarba berish va himoyalanish texnikasi bilan uyg‘unlashtirish samarali natija beradi.

Ayniqsa, sensor-motor reaksiya tezligini rivojlantirish, raqib harakatini tez baholash va unga mos javob harakatini bajarish zamonaviy boks uchun muhim omillardan biridir. Mashg‘ulot yuklamalarini sportchining yoshi, malakasi, jismoniy holati va individual xususiyatlariga mos ravishda rejalashtirish mashg‘ulot samaradorligini oshiradi.

Shunday qilib, bokschilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini takomillashtirishga yo‘naltirilgan kompleks mashqlar tizimidan foydalanish sport mahoratini oshirish va musobaqalardagi natijalarni yaxshilash uchun samarali vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. – Москва.
2. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. – Киев.
3. Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов. – Москва.
4. Бокс: теория и методика спортивной подготовки. – Москва.
5. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi hamda metodikasi bo‘yicha o‘quv-uslubiy adabiyotlar.

ЯККАКУРАШ СПОРТ ТУРЛАРИДА МУСОБАҚА ОЛДИ ТАЙЁРГАРЛИК БОСҚИЧИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ

Ўзбекистондавлатжисмоний тарбиява спорт университети ассистентукитувчиси
И.Алланазаров
Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети талабаси
А.Курбанова

Калит сўзлар: *яккакураш спорт турлари, мусобақа олди тайёргарлик, кун тартиби, функционал тайёргарлик, тикланиш жараёни, психологик барқарорлик*

Ключевые слова: *виды единоборств, предсоревновательная подготовка, режим дня, функциональная готовность, процесс восстановления, психологическая устойчивость*

Долзарблиги. Сўнгги йилларда яккакураш спорт турларида халқаро миқёсдаги рақобатнинг кескин кучайиши натижасида мусобақа олди тайёргарлик босқичида спортчиларни жисмоний ва психологик жиҳатдан оптимал ҳолатга келтириш масаласи долзарб илмий йўналишлардан бирига айланди. Хусусан, Жаҳон кураш бирлашмаси (United World Wrestling), Халқаро дзюдо федерацияси (IJF) ва бошқа йирик спорт ташкилотлари олиб бораётган мониторинглар шуни кўрсатадики, юқори натижаларга эришаётган спортчилар тайёргарлик жараёнида мусобақа олди даврини аниқ

режалаштирилган кун тартиби асосида ташкил этадилар . Маҳаллий тадқиқотлар ҳам ушбу босқичнинг аҳамиятини тасдиқлайди. Масалан, М.А. Ибрагимов яккакурашчиларда мусобақа олди даврида кун тартибини оптимал тузиш уларнинг умумий иш қобилиятини 10–15% оширишини аниқлаган. Шунингдек, Ш. Султонов ва А.Ж. Тангриев тадқиқотларида мусобақа олди кун тартибида машғулот ва тикланиш жараёнларининг тўғри нисбатда режалаштирилиши спортчи натижаларига бевосита таъсир қилиши илмий жиҳатдан асослаб берилган.

Шундай қилиб, мусобақа олди даврида кун тартибини режалаштириш фақат машғулот жадвалини белгилаш билан чекланмай, балки у спортчи организмининг физиологик, психологик ва ижтимоий ҳолатини комплекс бошқариш тизими сифатида қаралиши лозим. Ушбу тезисда маҳаллий ва хорижий олимларнинг илмий ишлари асосида мазкур жараённинг методологик асослари, амалий ёндашувлари ва такомиллаштириш йўллари таҳлил қилинади.

Тадқиқот мақсади – яккакураш спорт турлари бўйича мусобақа олди тайёргарлик босқичида спортчилар кун тартибини илмий асосда режалаштиришнинг самарали моделини ишлаб чиқиш ва унинг спорт натижаларига таъсирини аниқлаш.

Тадқиқот вазифалари:

1. Маҳаллий ва хорижий адабиётлар асосида мусобақа олди тайёргарликнинг назарий ва методик асосларини ўрганиш.
2. Яккакураш спорт турлари бўйича илғор спортчилар кун тартибини режалаштириш бўйича амалий тажрибаларни таҳлил қилиш.
3. Мусобақа олди даврида спортчи организмининг функционал тайёргарлик ҳолатини аниқловчи асосий омилларни белгилаш.
4. Кун тартибида машғулот, тикланиш, овқатланиш ва психологик тайёргарликнинг оптимал нисбатларини аниқлаш.

Мусобақа олди тайёргарлик босқичи – бу спортчиларни асосий мусобақага жисмоний, техник-тактик, психологик ва функционал жиҳатдан оптимал тайёрлаш даври бўлиб, у тайёргарлик жараёнининг энг муҳим бўғинларидан биридир. Ушбу босқичнинг асосий вазифаси спортчининг мусобақа куни максимал иш қобилиятига эришишини таъминлашдир.

Мусобақа олди даврида машғулот юкламаси “таперинг” (юкламани камайтириш) принципи асосида тузилади. Бомпа ва Буззичелли тавсияларига кўра, машғулот ҳажми 40–60% га камайтирилади, бироқ интенсивлик юқори даражада сақланади. Бу мушак ва асаб тизими фаолиятини максимал тайёр ҳолатга келтиради. Маҳаллий олим М.А. Ибрагимов эса курашчиларда мусобақа олди 7–10 кунлик даврда юклама пасайтирилганда, старт куни иш қобилияти ўртача 12% ошишини аниқлаган. Шу сабабли мураббийлар мусобақа олди даврида кун тартибини спортчининг шахсий ритмига мослаштириши тавсия этилади. Ўзбекистон спорт илмий мактаби яккакураш турларида мусобақа олди тайёргарлик жараёнига оид изланишларда мустаҳкам тажрибага эга. Маҳаллий олимлар нафақат назарий, балки амалий жиҳатдан ҳам бу соҳада самарали методикаларни ишлаб чиққан. Қуйида айрим муҳим тадқиқотлар таҳлил қилинади.

Методика: 1) 1–3-кун: машғулот ҳажми 80%, интенсивлик 70%. 2) 4–7-кун: ҳажм 60%, интенсивлик 80%. 3) 8–10-кун: ҳажм 40%, интенсивлик 90–95%. Тадқиқотида уйқу сифати ва давомийлиги мусобақа натижаларига бевосита таъсир қилиши илмий

тасдиқланган. У 22:00 гача ухлашни, эрталаб 06:00–06:30 оралиғида уйғонишни қатъий тавсия қилади. Бундан ташқари, мусобақа олди 3–4 кун давомида кечки машғулотлар соат 18:00 дан кечиктирилмаслиги кераклигини таъкидлайди.

Яккакураш спорт турларида мусобақа олди тайёргарлик босқичидаги кун тартибини илмий асосда режалаштириш спортчининг мусобақадаги самарадорлигини оширишда ҳал қилувчи омиллардан биридир.

Хулосалар:

1. Мусобақа олди тайёргарлик даври – спортчининг жисмоний, психологик ва тактик жиҳатдан оптимал ҳолатга етишини таъминловчи махсус босқич бўлиб, унинг давомийлиги одатда 7–14 кунни ташкил этади.

2. Кун тартибини тўғри режалаштириш – машғулотлар ҳажми ва интенсивлигини босқичма-босқич камайтириш, тикланиш жараёнларини кучайтириш ҳамда психологик тайёргарликни уйғунлаштириш орқали самарага эришилади.

3. Маҳаллий олимлар тавсиялари – Ўзбекистон яккакураш мактабининг ўзига хос хусусиятлари ҳисобга олинганда, анъанавий жисмоний тайёргарлик методлари замонавий мониторинг услублари билан уйғунлаштирилиши лозим

Амалий тавсиялар:

- Машғулотлар: Мусобақага 10–7 кун қолганда ҳажм 70–80%, интенсивлик 70–80% даражада бўлиши; 3–1 кун олдин эса ҳажм 30–40%, интенсивлик 70% дан ошмаслиги керак.

- Психологик тайёргарлик: Ҳар куни визуализатсия машқлари ва старт олди руҳий тайёргарлик техникаларини бажариш.

- Овқатланиш: Мусобақа олди 3–4 кун давомида углевод улушини ошириш, суюқлик балансини сақлаш. - Тикланиш: Ҳар бир машғулотдан сўнг контраст душ ёки совуқ сувда тикланиш, сифатли уйқуни таъминлаш.

Ушбу тавсиялар асосида ишлаб чиқилган кун тартиби модели спортчиларни мусобақа кунига оптимал ҳолатда етказишга, жароҳатлар хавфини камайтиришга ва психологик барқарорликни таъминлашга хизмат қилади.

Адабиётлар:

1. Каримов Ш.А. Яккакураш спорт турларида тайёргарлик жараёнларини оптималлаштириш. – Тошкент: ЎзДЖТИ нашриёти, 2018. – 212 b.

2. Қодиров И.А., Сатторов М.Р. Спорт машғулотларини режалаштиришнинг назарий асослари. – Тошкент: “Фан ва технология”, 2020. – 184 b.

3. Рахимов Т.М. Яккакураш спортчилари учун махсус жисмоний тайёргарлик методикаси. – Самарқанд: СамДТИ, 2017. – 198 b.

4. Маткаримов З.Б. Спорт психологияси: назария ва амалиёт. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2019. – 156 b.

5. Шомуродов Ф.О. Спорт тиббиёти ва реабилитация. – Тошкент: “Инновацион ривожланиш” нашриёти, 2021. – 224 b

DARSDAN TASHQARI CHUG‘ULLANUVCHI BADIIY GIMNASTIKACHILARNING BUYUM BILAN AKROBATIKA MASHQLARINI BAJARISH METODIKASI

Abdullaeva Dilaram Muxtarovna
Mektepke shekemgi hám mektep bilimlendiriwi ministrligine qaraslı
19-sanlı mektep dene tárbiyası páni oqıtıwshısı
e-mail:yakupbaev_alisher@gmail.com

Kalitso‘zlar:*badiiy gimnastika, darsdan tashqari mashg‘ulotlar, akrobatik mashqlar, gimnastika buyumlari, texnik tayyorgarlik, koordinatsiya, muvozanat, egiluvchanlik, mashg‘ulot metodikasi.*

Ключевые слова: *художественная гимнастика, внеклассные занятия, акробатические упражнения, гимнастические предметы, техническая подготовка, координация, равновесие, гибкость, методика тренировок.*

Keywords*: rhythmic gymnastics, extracurricular training, acrobatic exercises, gymnastics apparatus, technical preparation, coordination, balance, flexibility, training methodology.*

Dolzarbligi. Badiiy gimnastikada buyumlar bilan bajariladigan mashqlar sportchilarning harakat imkoniyatlarini takomillashtirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Buyumlar bilan ishlash jarayoni harakatlar koordinatsiyasi, egiluvchanlik, muvozanat, chaqqonlik hamda harakatlarni aniq bajarish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda akrobatik elementlarni buyumlar bilan uyg‘unlashtirib bajarish gimnastikachilarning texnik ko‘nikmalari va koordinatsion imkoniyatlarini birgalikda takomillashtirishga yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan, buyum bilan akrobatik mashqlarni o‘rgatishning bosqichma-bosqich metodikasini ishlab chiqish hamda uni darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayoniga oqilona tatbiq etish yosh gimnastikachilar tayyorgarligini takomillashtirishning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda shug‘ullanuvchi badiiy gimnastikachilarga buyum bilan akrobatik mashqlarni o‘rgatish metodikasini takomillashtirish va uning samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, gimnastikachilarning jismoniy va texnik tayyorgarlik darajasini aniqlashga qaratilgan nazorat testlari, harakatlar kinematikasini o‘rganish uchun video-tahlil, pedagogik eksperiment (tajriba-sinov ishi), shuningdek, olingan natijalarning ishonchliligini asoslash uchun matematik-statistik usullardan foydalanildi.

Tajriba natijalari va uning muhokamasi. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda badiiy gimnastikachilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirishda buyum bilan bajariladigan akrobatik mashqlardan maqsadli va izchil foydalanish muhima hamiyat kasb etadi.

Mazkur metodika gimnastikachilarda akrobatik harakatlarni to‘g‘ri bajarish bilan bir qatorda, buyumni boshqarish, tana holatini saqlash, muvozanat va harakatlar koordinatsiyasini takomillashtirishga yo‘naltiriladi. Mashqlarni tanlash va o‘rgatish jarayonida shug‘ullanuvchilarning yoshi, jismoniy tayyorgarlik darajasi hamda texnik imkoniyatlari hisobga olinib, yuklama oddiydan murakkabga tamoyili asosida bosqichma-bosqich oshirib boriladi. Shu asosda ishlab chiqilgan metodika akrobatik elementlarni buyum harakatlari bilan uyg‘unlashtirish, ularni musiqa ritmiga mos ravishda bajarish va harakatlar aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda badiiy gimnastikachilarning buyum bilan akrobatik mashqlarni bajarish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida mashg‘ulot jarayoni to‘rt bosqich asosida tashkil etildi. Birinchi bosqichda shug‘ullanuvchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar bajarilib, keyingi akrobatik harakatlarni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan tayyorgarlik bazasi shakllantirildi.

Ikkinchi bosqichda oddiy akrobatik elementlarni buyumsiz bajarish texnikasi o‘zlashtirildi. Bunda harakatlarning to‘g‘ri ketma-ketligi, tana holatini boshqarish, muvozanatni saqlash va elementlarni aniq bajarishga alohida e’tibor qaratildi. Mazkur bosqich keyinchalik akrobatik harakatlarni buyum bilan uyg‘unlashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Uchinchi bosqichda o‘zlashtirilgan akrobatik elementlar gimnastika buyumlari bilan birgalikda bajarildi. Bu jarayonda harakatlar koordinatsiyasi, buyumni boshqarish, tana holatini saqlash va akrobatik elementni texnik jihatdan to‘g‘ri bajarish ko‘nikmalari takomillashtirildi. Mashqlarning murakkabligi shug‘ullanuvchilarning tayyorgarlik darajasiga mos ravishda bosqichma-bosqich oshirib borildi.

1-jadval

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda buyum bilan akrobatik mashqlarni o‘rgatish metodikasining bosqichlari

Bosqich	Mazmuni
1-bosqich	Umumiy va maxsus tayyorlov mashqlari
2-bosqich	Oddiy akrobatik elementlarni buyumsiz o‘zlashtirish
3-bosqich	Akrobatik elementlarni buyum bilanbajarish
4-bosqich	Akrobatik element + buyum + musiqiykompozitsiyaniuyg‘unlashtirish

To‘rtinchi bosqichda akrobatik elementlar, buyum bilan bajariladigan harakatlar va musiqiy kompozitsiya yagona harakat kombinatsiyasiga birlashtirildi. Ushbu bosqichda gimnastikachilarning harakatlarni musiqa ritmiga moslashtirishi, buyumni aniq boshqarishi, akrobatik elementlarni estetik va texnik jihatdan to‘g‘ri bajarishi hamda harakatlar uzviyligini ta’minlashiga e’tibor qaratildi. Shu tariqa, to‘rt bosqichli metodika oddiy tayyorlov mashqlaridan murakkab akrobatik-badiiy kombinatsiyalarni bajarishgacha bo‘lganizchil o‘quv jarayonini ta’minladi.

Xulosa. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda badiiy gimnastikachilarning buyum bilan akrobatik mashqlarni bajarish metodikasini bosqichma-bosqich tashkil etish mashg‘ulotlarning mazmuni va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Taklif etilgan metodikada umumiy va maxsus tayyorgarlikdan boshlab, akrobatik elementlarni buyumsiz, keyinchalik buyum bilan bajarish hamda ularni musiqiy kompozitsiya bilan uyg‘unlashtirish izchil amalga oshiriladi. Bunday yondashuv gimnastikachilarning koordinatsion qobiliyati, muvozanati, egiluvchanligi, harakat aniqligi va buyumni boshqarish ko‘nikmalarini takomillashtirish uchun zarur sharoityaratadi. Shuningdek, mashqlarni

oddiydan murakkabga tamoyili asosida o‘zlashtirish akrobatik elementlarni texnik jihatdan to‘g‘ri va estetik bajarish imkoniyatini kengaytiradi.

Adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-449-sonli Qarori. Toshkent, 23.12.2022 y.

2.**Abduraxmonov Sh.** "Gimnastika mashg‘ulotlarida akrobatik mashqlarni rivojlantirish metodikasi" // *Maktabgacha va maktab ta’limijurnali*. – 2026. – №4.

3.Umarov M.N. "Badiiy gimnastika sport turida rejalashtirish va hakamlik faoliyati". O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: O‘zDJTSU, 2024.

4.**Boyxo‘rozova D. T.** "Badiiy gimnastikada sport tayyorgarligi tizimining umumiy tavsifi va jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish uslubi" // *Scientific Journal*. – 2025. – №11.

BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDAGI 8–9 YOSHLI DZYUDOCHI QIZLARNING JISMONIY SIFATLARINI O‘ZARO BOG‘LIQLIKDA RIVOJLANTIRISH VA ASOSIY TEXNIK USULLARNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

Darmenbaeva Klara Azatbay kizi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
Yakka kurash sport tu’rlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi docenti
e-mail:darmenbaeva_klara@gmail.com

Kalitso‘zlar:*boshlang‘ichtayyorgarlikbosqichi, 8–9 yoshlidzyudochiqizlar, jismoniysifatlar, jismoniytayyorgarlik, o‘zarobog‘liqlik, uyg‘unrivojlantirish, texniktayyorgarlik, asosiytexnikusullar, texnik-taktiktayyorgarlik, harakatkoordinatsiyasi.*

Ключевые слова: *этап начальной подготовки, дзюдоистки 8–9 лет, физические качества, физическая подготовленность, взаимосвязь, гармоничное развитие, техническая подготовка, основные технические приёмы, технико-тактическая подготовка, координация движений.*

Keywords*: initial training stage, 8–9-year-old female judokas, physical qualities, physical fitness, interrelationship, harmonious development, technical training, basic technical techniques, technical and tactical training, motor coordination.*


Dolzarbligi. Dunyoda yakkakurash sport turlarini rivojlantirish ayniqsa, yosh sportchilarning boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichlaridayoq jismoniy imkoniyatlarini to‘g‘ri shakllantirish va takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy dzyudo boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidanoq yosh sportchi qizlarning jismoniy sifatlarini izchil va o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirish, asosiy texnik harakatlarini to‘g‘ri shakllantirish, shuningdek, mashg‘ulot jarayonini yosh va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etishni talab qilmoqda. Shu munosabat bilan dzyudochi qizlarning yosh, antropometrik va jismoniy xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulot vositalari va usullarini takomillashtirish, jismoniy va texnik tayyorgarlikning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash hamda boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida mashg‘ulot yuklamalarini oqilona rejalashtirish talabini keltirilmoqda. Mazkur yo‘nalishda dzyudochi qizlarning jismoniy sifatlarini o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirish va asosiy usullarini shakllantirishga qaratilgan samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ushbu muammoni dolzarb amaliy vazifa sifatida ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi: Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida dzyudochi qizlarning jismoniy sifatlarni bog‘liqli rivojlanish va asosiy usullarini shakllantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish, anketa so‘rovnomasi, antropometrik tadqiqotlar uslubi, jismoniy tayyorgarlikni baholash, pedagogik tajriba va tadqiqot natijalarini matematika- statistik tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

Tajribanatijalarivauningmuhokamasi. Tadqiqotda boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi
8–9 yoshli dzyudochi qizlarning musobaqa faoliyatida muvaffaqiyatli ishtirok etishlari uchun jismoniy sifatlar va texnik tayyorgarlikning o‘zaro bog‘liq holda rivojlanishi muhim ekanligi asoslab berildi.Yosh dzyudochi qizlarning jismoniy va texnik tayyorgarligini kompleks takomillashtirishga qaratilgan integral tayyorgarlik modeli ishlab chiqildi va u to‘rtta klaster asosida tashkil etildi

(1-rasmga qarang). **1-rasm. Integral tayyorgarlik modeli**



Dzyudo mashg‘ulotlarida sportchining texnik mahorati va jismoniy tayyorgarligini birgalikda rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bunda koordinatsiya va muvozanat, tezkorlik va portlovchi kuch, kuch va kuch chidamliligi, shuningdek, chidamlilik va egiluvchanlik asosiy jismoniy sifatlar hisoblanadi. Koordinatsiya va muvozanatni rivojlantirishda *De-ashi-barai* va *O-soto-gari*, tezkorlik va portlovchi kuchni rivojlantirishda *Tai-otoshi* va *Seoi-nage*, kuch va kuch chidamliligini oshirishda *O-goshi* va *Harai-goshi* usullaridan foydalaniladi. Chidamlilik va egiluvchanlikni rivojlantirishda esa *Kesa-gatame* va *Yoko-shiho-gatame* kabi texnikalar

qo‘llaniladi. Mazkur sifatlarni muntazam va kompleks ravishda rivojlantirish dzyudochilarning texnik harakatlarini aniq, tez va samarali bajarishiga yordam beradi.

Dzyudochilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini shakllantirishda mashqlarni kompleks tarzda tashkil etish muhim hisoblanadi. Harbir jismoniy sifat ma’lum texnik harakatlarning samarali bajarilishiga xizmat qiladi. Xususan, koordinatsiya va muvozanat usullarni aniq bajarishni, tezkorlik va portlovchi kuch harakatlarni qisqa vaqtichida amalga oshirishni ta’minlaydi. Kuch va kuch chidamliligi raqib bilan kurash jarayonida barqarorlikni saqlashga yordam bersa, chidamlilik va egiluvchanlik mashg‘ulot hamda musobaqa davomida yuqori ish qobiliyatini saqlab qolishga imkon beradi. Shu sababli mashg‘ulot jarayonida ushbu sifatlarni bosqichma-bosqich va o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirish dzyudochilarning texnik-taktik imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Dzyudochilarning texnik va jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda koordinatsiya va muvozanat, tezkorlik va portlovchi kuch, kuch va kuch chidamliligi, shuningdek, chidamlilik va egiluvchanlik kabi sifatlarni kompleks rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu sifatlarni maxsus dzyudo usullari orqali muntazam takomillashtirish sportchilarning harakat aniqligi, tezligi, kuchi va texnik mahoratini oshirishga yordam beradi. Mashg‘ulot jarayonida jismoniy sifatlar va texnik harakatlarning o‘zaro uyg‘unligi dzyudochilarning umumiy tayyorgarligini yaxshilash hamda musobaqa jarayonida samarali harakat qilish imkoniyatini kengaytiradi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 avgustdagi PQ-3196-sonli «Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O‘zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag‘batlantirish to‘g‘risida»gi qarori.
3. Алабин В.Г. Комплексный контроль в спорте // Теория и практика физической культуры. – 1995. – № 3. – С. 43–46.
4. Арансон М.В., Овчаренко Л.Н., Озолин Э.С., Тупоногова О.В. Биомедицинские проблемы спортивного дзюдо (по материалам зарубежной научной литературы) // Вестник спортивной науки. – 2021. – № 5. – С. 62–65.

15-16 JASLI BOKSSHI QIZLARDIŃ JARIS ALDI FIZIKALIQ TAYARLIĠIN JETILISTIRIW

Adilshayev Pamir Maxsetbayevich
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı “Jeke gúres sport túrleri teoriyası hám metodikası” kafedrası dotsent.
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı studenti
Ganieva Gulnur Baxadirovna
e-mail:PAdilshaev@gmail.com

Tayanısh sózler:*15-16 jaslı boksshi qızlar, jarıs aldı tayarlıq, kúsh sapası, tezlik-kúsh sapası, rejelestiriw.*

Kirisiw: Respublikamızda sońǵı jılları hayal-qızlar sportına, atap aytqanda, boksqa bolǵan itibar sezilerli dárejede artpaqta. Mámleketlik baǵdarlamalar tiykarında jas sportshılar, sonıń ishinde, “qızlardıń sport penen turaqlı shuǵıllanıwı ushın zárúr infrastruktura hám

imkaniyatlar jaratıw” wazıypaları belgilep berilgen. Áyne usı jas dáwirinde organizmde fiziologiyalıq hám psixologiyalıq ózgerisler tezlesedi, bul bolsa sport shınıǵıwlarınıń dúzilisi, júklemeler kólemi hám sıpatın durıs tańlawdı talap yetpekte. Sonıń ushın jas boksshı qızlardıń jarısqa tayarlıq dáwirin jas ózgesheliklerine sáykes, sistemalı túrde shólkemlestiriw, olardıń salamatlıǵı, sporttağı tabısı hám uzaq múddetli jumısın támiyinlewshi faktorlardan birine aylanbaqta. Bunday sharayatta 15-16 jasar boksshı qızlar ushın jarıs aldı tayarlıq dáwirin rejelestiriw metodikasın ilimiy tiykarda islep shıǵıw ayrıqsha áhmietke ie bolmaqta. Respublikamızda sońǵı jılları hayal-qızlar sportına, atap aytqanda, boksqa bolǵan itibar sezilerli dárejede artpaqta. Mámleketlik baǵdarlamalar tiykarında jas sportshılar, sonıń ishinde, "qızlardıń sport penen turaqlı shuǵıllanıwı ushın zárúr infrastruktura hám imkaniyatlar jaratıw" wazıypaları belgilep berilgen. Áyne usı jas dáwirinde organizmde fiziologiyalıq hám psixologiyalıq ózgerisler tezlesedi, bul bolsa sport shınıǵıwlarınıń dúzilisi, júklemeler kólemi hám sıpatın durıs tańlawdı talap yetpekte. Sonıń ushın jas boksshı qızlardıń jarısqa tayarlıq dáwirin jas ózgesheliklerine sáykes, sistemalı túrde shólkemlestiriw, olardıń salamatlıǵı, sporttağı tabısı hám uzaq múddetli jumısın támiyinlewshi faktorlardan birine aylanbaqta. Bunday sharayatta 15-16 jasar boksshı qızlar ushın jarıs aldı tayarlıq dáwirin jobalastırıw metodikasın ilimiy tiykarda islep shıǵıw ayrıqsha áhmietke ie bolmaqta.

Izertlewdiń maqseti 15-16 jastağı boksshı qızlardıń jarıs aldı fizikalıq tayarlıǵın jetilistiriw boyınsha usınıslar islep shıǵıwdan ibarat.

Tájiriybe nátiyjeleri hám onıń talqılawı. Oqıw shınıǵıw toparındağı boksshı qızlardıń fizikalıq tayarlıǵın tekseriw ushın bir qatar pedagogikalıq tájiriybeler ámelge asırıldı.

Izertlew qatnasıwshıları oqıw shınıǵıw toparındağı boksshı qızlar eki toparǵa bólindi: 1-qadaǵalaw toparı (12 adam), usı topar quramına kiriwshiler.

2025-jılı, qoyıwı belgilengen qadaǵalaw sınaq shınıǵıwları járdeminde qadaǵalawdan (tekseriwden) ótkerildi hám baqlawdıń birinshi kúninen baslap, shınıǵıwlarda qatnasıwdı dawam etti.

2-topar pedagogikalıq izertlew toparı (12 adam) bul topar da 1-topar menen bir qatarda baqlawdan ótkerildi, izertlew toparı 6 ay dawamında.

(2024-jıl, altı ay múddette) fizikalıq hám texnikalıq tayarlıqların qáliplestiriw maqsetinde baǵdarlanǵan qurallar qollanıldı.

Oqıw shınıǵıw toparındağı boksshı qızlardıń fizikalıq tayarlıǵınıń rawajlanıw dárejesin bahalaw ushın eń áhmiyetli qadaǵalaw testleri qollanıldı:

1.30 m ge juwiriw.

2.3000 m ge juwiriw.

3. Turǵan ornınan uzınlıqqa sekiriw.

4.Shalqasına jatqan halda gewdeni aldına kóterip túsiriw.

1-minutta, (marta).

5. Qol alaqan kúshi (kg).

Bul basqısh arqalı boksshı qızlar bellesiw jaǵdayında isenimli háreket etiw, qarsılas háreketine beyimlesiw hám anıq soqqılar beriw dárejesine eriskenligi tájiriybe tiykarında tastıyıqlandı.

1-keste.

15-16 jaslı qızlardıń jarıs aldı fizikalıq tayarlıǵın rejelestiriwde aylanba shınıǵıw metodikası.

T/r	Mashǵulot mazmuni	Tákirarlanıw sanı			Orınlawdawamlılıǵı hámdemalısaralıǵı (sekund)		
		1	2	3	1 mártebe	2 mártebe	3 mártebe
1	Sekiriw menen kóteriliw (60 sm biyik tekshege).	20x4	20x2	20x1	3 minut isleydi 1 minut dem alıw	60 sekund isleydi 30 sekund dem alıw	30 sekund isleydi 10 sekund dem alıw
2	Rezina bilan qarshilikka qarshi zarba berish	30x4	30x2	30x1	3 minut isleydi 1 minut dem alıw	60 sekund isleydi 30 sekund dem alıw	30 sekund isleydi 10 sekund dem alıw
3	Qo‘llarga tayanib yotgan holda qo‘llarni bukib yozish	15x4	15x2	15x1	3 minut isleydi 1 minut dem alı	60 sekund isleydi 30 sekund dem alıw	30 sekund isleydi 10 sekund dem alı
4	Skameykada sekiriw (gimnastika orınlıǵında sekiriw).	20x4	20x2	20x1	3 minut isleydi 1 minut dem alıw	60 sekund isleydi 30 sekund dem alıw	30 sekund isleydi 10 sekund dem alıw
5	Toltırma toptı sherigine ılaqtırıw.	20x4	20x2	20x1	3 minut isleydi 1 minut dem alı	60 sekund isleydi 30 sekund dem alıw	30 sekund isleydi 10 sekund dem alıw
6	Shalqasına jatqan halda gewdeni aldıǵa kóteriw.	10x4	10x2	10x1	3 minut isleydi 1 minut dem alıw	60 sekund isleydi 30 sekund dem alıw	30 sekund isleydi 10 sekund dem alıw
7	1kgyoki 0,5 kg gantellardan foydalangan holda kombinatsion zarbaga urg‘u berish	10x4	10x2	10x1	3 minut isleydi 1 minut dem alıw	60 sekund isleydi30 sekund dem alıw	30 sekund isleydi10 sekund dem alıw
8	Ayaq hám qollardı skameykaǵa (gimnastikalıq orınlıq) qoygan	10x4	10x2	10x1	3 minut isleydi 1 minut dem alıw	60 sekund isleydi 30 sekund dem alıw	30 sekund isleydi 10 sekund dem alıw

	halda qollardı búgip-jazdırıw.						
9	Jawingerlik halatta shtanga grifin aldıǵa ılaqtırıw.	10x4	10x2	10x1	3 minut isleydi 1 minut dem alıw	60 sekund isleydi 30 sekund dem alıw	30 sekund isleydi 10 sekund dem alıw
10	Boks qaltasında birlik soqqıǵa itibar beriw.	10x4	10x2	10x1	3 minut isleydi 1 minut dem alıw	60 sekund isleydi 30 sekund dem alıw	30 sekund isleydi 10 sekund dem alıw

Jarısaldı dáwirinde aylanba shınıǵıwlar metodikasınıń mazmunı hám áhmiyetli esaplanadı. Bul metodikanıń tiykarǵı maqseti aylanba shınıǵıw metodikası arqalı boksshı qızlarda fizikalıq hám arnawlı shıdamlılıqtı rawajlandırıwǵa itibar qaratıldı. Sonıń menen birge, soqqı beriw texnikasınıń anıqlıǵı hám kúshin, koordinaciyalıq háreketlerdi jetilistiriw, joqarı júrek-qan tamır júklemelerine organizmdi beyimlestiriw, soqqı kombinaciyalarınıń avtomatlastırılǵan orınlanıwın rawajlandırıw názerde tutıldı.

Juwmaq:

Temaǵa tiyisli ádebiyatlardı tallaw hám ótkerilgen izertlew nátiyjeleri sonday juwmaqqa keliwge imkan beredi

Bul aylanba shınıǵıw metodikası arqalı boksshı qızlar quramalı háreketlerdi dawamlı túrde orınlawǵa, organizmdi kúshli sport júklemelerine shıdamlı uslawǵa hám soqqı beriw texnikasın jetilistiriwge erisedi.

Bul metodika jarıs aldınan sportshınıń fizikalıq tayarlıǵın teń salmaqlıqta saqlaw hám psixomotor tayarlıǵın saqlap qalıw ushın áhmiyetli ilimiy tiykarǵa iye.

Boksshı qızlardı jarıslarǵa tayarlawda úsh basqıshlı oqıw-shınıǵıw jıyınlarınıń birinshi basqıshında ulıwma fizikalıq tayarlıq (ulıwma shıdamlılıqtı arttırıw), ekinshi basqıshta arnawlı fizikalıq tayarlıq (shártli hám erkin bellesiwler minutın qısqarttırıp islew), úshinshi basqıshta jarısqa beyimlesiw, tezlikke islew, aralıqlarda júkleme hám dem alıw intervalların otız sekundqa ózgertip krossfit shınıǵıwlarınan paydalanıw arqalı, boksshı qızlardıń ulıwma fizikalıq tayarlıǵı 12,5% ke, arnawlı fizikalıq tayarlıǵı 13,7% ke jaqsılanǵan.

Adabiyotlar:

1. R.D.Xalmuxamedov, V.D.Anashov, P.M.Adilshaev, I.G.Allanazarov. Boks teoriyası hám metodikası 2022. 645 b.

2. Karimov M.A., Xalmuxamedov R.D., Quyashematov I.Yu., Tajibaev S.S. Boksshılardıń sport -pedagogikalıq sheberligin asırıw. T., 2011. 478 b.

3. Sherbakov S.I. Issledovanie sorevnovatelnoy deyatel'nosti v bokse / S.S.Naumov, V.A.Kiselev // Sb. molodix uchenix i studentov RGAFK.- M.: FON, 2000.- S. 61-65.

BOKSSHILARDIŃ HÚJIM HÁREKETLERINDE SOQQINIŃ SÁYKESLENIWI

Adilshayev Pamir Maxsetbayevich
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı “Jeke gúres sport túrleri teoriyası hám metodikası” kafedrası dotsent.
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı studenti
Ganieva Gulnur Baxadirovna

Kalit so‘zlar:*boks, bokschi, hújim, texnik tayyorgarlik, tezkorlik, sáykesleniwi,, oqıw-shınıǵıw, reaksiya tezligi, zarba, himoyalanish.*

Hámmemizge belgili, dúnya boksında uzaq waqıt dawamında sezilerli ózgerisler júz berdi hám bul, birinshi náwbette, jarıslardı ótkeriw, tóreshilik etiw sisteması hámde qaǵıydalarına kirgizilgen jańalıqlar menen baylanıslı.

Ózbekstanda boks sport turiniń qaliplesiwi basıp ótken basqıshında shınıǵıw procesi haqqındaǵı obektiv maǵlıwmatlardı izlep tabıw hám ilimiy analiz qılıw, olardı teoriyalıq ulıwmalastırıw ámelge asırıldı.

Búgingi kúnde ózbek boksınıń jetiskenlikleri hámmemizge belgili. Ózbekstan saylandı komandası sportshıları sońǵı jigirma jıl ishinde dúnya chempionatları hám Olimpiada oyınlarında úlken jetiskenliklerge erisip kelmekte. Mámleketimizde boks jedel rawajlanıp atır, sportshılardıń sheberligi artıp atır, balalar hám óspirimler sport mektepleri, joqarı sport sheberlik mektepleri tarmaqları keńeyip barmaqta, olimpiada tayarlıq orayları dúzilip atır.

Jetekshi trenerler, sportshılar hám ilimpazlarımız tárepinen toplanǵan tájiriybeniń keń tarqalıwı respublikamızdaǵı qánigelerdiń qánigeligi asıwına, oqıw shınıǵıw procesi sapasınıń qaliplesiwine járdem beredi.Boksshılardıń húJim háreketlerinde usıllardıń sáykesleniwi, húJim háreketlerin shólkemlestiriwde jılJıp JúriwlerdiJ soqqılar menen uqsaslıǵınnátiyJeli orınlaw imkaniyatların belgileydi.Bunda, ásirese, boksshılardıń húJim háreketlerinde usıllardıń sáykesleniwi, húJim háreketlerin shólkemlestiriwde jılJıp JúriwlerdiJ soqqılar menen uqsaslıǵı áhmiyetli orın tutadı.

Jawınger jaǵdaylarda birewlik soqqılarǵa qaraǵanda kem qollanıladı hám, ádetee, bir-biri menen belgili bir tárizde sáykeslenip, húJim háreketin quraydı. Soqqılardıń bunday sáykesleniwitómendegishe bolıwı múmkin: qayta, olarda bir qolda 2 soqqı izbe-iz beriledi; qos, olarda bir hám basqa qolda 2 soqqı izbe-iz beriledi; seriyalı olarda eki qolda izbe-iz 3-4 hám odan kóbirek soqqılar izbe-iz beriledi.

Ulıwma, qayta hám qos soqqını orınlaw texnikası joqarıda tariyplengen birewlik soqqılar texnikasına uqsas. Biraq, birewlik soqqılardı kombinaciyalarǵa birlestir, ayrıqsha tiykarǵı principlerdi esapqa alıw zárúr:

1) qarsılastıń ornalasıwı hám qarsı háreketlerin úzliksiz hámde itibarlılıq penen baqlap barıw kerek;

2) kombinaciyalarda tez soqqılar kúshli soqqılardan aldın atqarılıwı kerek;

3) aldınǵı soqqını orınlaw waqtında keyingisi ushın tómendegi jol menen shárt-shárayatlar jaratiw kerek, yaǵnıy

- teń salmaqlılıqtı saqlap qalıw;
- aldınǵı soqqı aqırında keyingi soqqını orınlaw ushın dáslepki jaǵdaydı iyelew;
- bir soqqıdan ekinshisine ótiwde ayaqlardı jedil háreketlendiriw;

4) kombinaciyalarda soqqı háreketi nıshanın ózgertiw múmkin: bir soqqını basqa, basqasın gewdege baǵdarlaw múmkin hám, kerisinshe;

5) kombinaciya, ádette, pát penen beriletuǵın soqqı menen juwmaqlanadı.

Úsh soqqılı seriyalar
1) qayta soqqı + birewlik (pát berilgen) soqqı;
2) qos soqqı + birewlik (pát berilgen) soqqı;
3) birewlik (pát berilgen) soqqı + qos soqqı.
Tórt soqqılı seriyalar
1) qayta soqqı + qos soqqı;
2) qos soqqı + qos soqqı;
3) úsh soqqı + birewlik (pát berilgen) soqqı.

Birewlik soqqılardıń qayta, qos hám seriyalı soqqılarǵa qosılıwı waqıt aralıǵı boyınsha parıqlanıwı múmkin.

Sáykeslesiwde tánepis bolıwı hám aqırǵı soqqılardı orınlawǵa pát beriliwi múmkin, bunday sáykeslesiw úzliksiz de bolıwı múmkin, yaǵnıy soqqılar waqıt aralıǵında úzilmesten izbe-iz beriliwi múmkin.

Oqıw-shınıǵıw processinde usıllardı húJim háreketlerine birlestiriw nızamlıqların qatań esapqa alıw zárúr.

Birewlik soqqılarǵa úyretiwde hám olardı jetilistiriwde soqqı háreketleri dúzilisin úyreniw hámde jetilistiriw zárúr, qayta, qos hám seriyalı soqqılarǵa úyretiw hámde olardı jetilistiriwde tiykarǵı itibardı soqqılardıń tolıq háreketke birlestiriwge qaratıw kerek.

Boksshılardıń húJim háreketlerinde usıllardıń sáykesleniwi, húJim háreketlerin shólkemlestiriwde jılJıp júriwlerdiń soqqılar menen uqsaslıǵın esapqa alıw kerek. Bunda gewde buwınları ayaqlar hám qoldıń izbe-iz islewi (sáykeslesiwiniń ritmik dúzilisi) zárúrli áhmiyetkiye.(1-keste).

Variant-ları	Sanı			Jılјıp júriw usulları
	“bir”	“eki”	“úsh”	
1.	Bir ayaq qádem taslaydı	Ekinshi ayaq qoyiladı	Soqqı	Qádem taslaw yaki sekiriw
2.	Bir ayaq qádem taslaydı	Soqqı	Ekinshi ayaq qoyiladi	Qádem taslaw yaki sekiriw
3.	Bir ayaq qádem taslaydı + soqqı	Ekinshi ayaq qoyıladı		Qádem taslaw yaki sekiriw
4.	Sekiriw	Soqqı		Eki ayaqda sekiriw (sekiriw)

Birinshi variant qarsılasqa jaqınlasıwdı názerde tutadı - jılJıp qádem taslaw yáki sekiriwdi orınlaw. Bul háreket juwmaǵında boksshı jawınger tik turıwda bekkem jaǵdaydı iyeleydi. Keyininen soqqı beriledi. Ritmik dúzilisi sanaw arqalı anıqlanadı: “bir- eki - úsh”. Bunda jılJıp júriw de shep, oń ayaqta aldınǵa, arqaǵa yaki qaptal tárepke atqarıladı.

Ekinshi variantda jaqınlasıw aldında turǵan ayaq háreketi menen ámelge asırıladı, keyininen soqqı beriledi, odan keyin boksshı taǵı jawınger tik turıw jaǵdayın iyelewi ushın artta turǵan ayaq qoyıladı. Bul variant ritmik dúzilisine kóre birinshisine uqsas (“bir- eki -úch” sanagı).

Úshinshi variant aldınǵa, arqaǵa yáki qaptal tárepke qádem taslaw yáki bir ayaqta sekiriwdi názerde tutadı. JılJıp júriw menen bir waqıtta qoldıń soqqı háreketi ámelge asırıladı. Bunda mushtıń tezlik alıwı gewdeni vertikal kósher átirapında burıw hám bir tayanıshlı jaǵdayda ayaqta tepsiniw menen ámelge asırıladı; ayaq tayanısh jaǵdayına qoyılǵannan keyin

soqqı sonday beriledi, shep ayaqta qádem qoyıw hám soqqı “bir” sanaǵında ámelge asırılıwı, keyin ekinshi ayaq qoyılıwı (“eki”) hám boksshı jawınger tik turıw jaǵdayın iye bolıwı kerek.

Tórtinshi variant eki ayaqta sekiriw (sekiriw) járdeminde jılјıp júriwdiń soqqı menen sáykesleniwin názerde tutadı, bunda aldın jaqınlasıw (“bir”) atqarıladı hám keyin soqqı beriledi

Sonıda aytıp ótiw lazım, hár bir jılјıp júriwden keyin, ol qaysı usılda atqarılǵanın, boksshı jawınger tik turıwda málim bir dáslepki jaǵdaydı iye bolıwı kerek.

Onıń tiykarǵı xarakteristikalarınan biri bekkem teń salmaqlılıqtı saqlawda tayanish maydanında UOM proeksiyasınıń orınlasıwı (gewde salmaǵınıń tayanish maydanı boylap bólistiriliwi) esaplanadı. Boksshı soqqını orınlaw aldınan gewde salmaǵın eki ayaqqa bólingen halda jawınger tik turıw jaǵdayın iyelewi múmkin, hámde UOM tayanish maydanınıń ortasına túsedi

Juwmaq. Juwmaqlap aytqanda, boks sportında joqarı nátiyjelerge erisiw ushın sportshınıń húјim háreketlerinde usıllardıń sáykesleniwi, húјim háreketlerin shólkemlestiriwde jılјıp júriwlerdiń soqqılar menen uqsaslıǵın esapqa alıw kerek.Mashg‘ulotlarda birewlik soqqılarǵa úyretiwde hám olardı jetilistiriwde soqqı háreketleri dúzilisin úyreniw hámde jetilistiriw zárúr, qayta, qos hám seriyalı soqqılarǵa úyretiw hámde olardı jetilistiriwde tiykarǵı itibardı soqqılardıń tolıq háreketke birlestiriwsejemisli nátiyje beredi.

Ásirese, jılјıp júriw menen bir waqıtta qoldıń soqqı háreketi ámelge asırıladıháreketin orınlaw zamanagóy boks ushın áhmiyetli faktorlardan biri. Mashg‘ulotda mushtıń tezlik alıwı gewdeni vertikal kósher átirapında burıw hám bir tayanıshlı jaǵdayda ayaqta tepsiniw menen ámelge asırılıwı sáykes ráwishte rejelestiriw shınıǵıw nátiyjeliligin arttıradı..

Solay etip, boksshılardıń húјim háreketlerinde usıllardıń sáykesleniwi, húјim háreketlerin shólkemlestiriwde jılјıp júriwlerdiń soqqılar menen uqsaslıǵın nátiyjeli orınlaw sport sheberligin arttırıw hám jarıslardaǵı nátiyjelerdi jaqsılaw ushın nátiyjeli qural esaplanadı.

Adabiyotlar:

1. R.D.Xalmuxamedov, V.D.Anashov, P.M.Adilshaev, I.G.Allanazarov. Boks teoriyası hám metodikası 2022. 645 b.

2. Karimov M.A., Xalmuxamedov R.D., Quyashematov I.Yu., Tajibaev S.S. Boksshılardıń sport -pedagogikalıqsheberliginasırıw. T., 2011. 478 b.

3. Sherbakov S.I. Issledovaniesorevnovatelnoydeyatel'nosti v bokse / S.S.Naumov, V.A.Kiselev // Sb. molodixuchenixistudentov RGAFK.- M.: FON, 2000.- S. 61-65

QILICHBOZ SPORTCHILARNING MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti stajyor o‘qituvchisi
Sh.Mamutov

Kalit so‘zlar: *qilichbozlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, tezkorlik, chaqqonlik, tezkor-kuch, chidamlilik, koordinatsiya, muvozanat, mashg‘ulot.*

Ключевые слова: *фехтование, специальная физическая подготовка, скорость, ловкость, скоростно-силовая, выносливость, координация, равновесие, тренировка.*

KIRISH. Qilichbozlik yuqori tezlikda bajariladigan, murakkab koordinatsion harakatlarga asoslangan sport turi hisoblanadi. Musobaqa jarayonida sportchi qisqa vaqt ichida oldinga va orqaga harakatlanishi, masofani o‘zgartirishi, hujum va himoya harakatlarini bajarishi hamda raqibning harakatlariga tezkor javob qaytarishi talab etiladi. Shu sababli

qilichboz sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish sport mashg‘ulotlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik sportchining tanlangan sport turiga xos harakatlarni yuqori samaradorlik bilan bajarish imkoniyatini ta’minlaydi. Qilichbozlikda, ayniqsa, oyoqlarning tezkor-kuch qobiliyati, chaqqonlik, harakat koordinatsiyasi, muvozanat, tezkorlik va maxsus chidamlilik muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi. Qilichboz sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga yo‘naltirilgan mashqlar majmuasini ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Qilichboz sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligiga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish.
2. Qilichboz sportchilarda asosiy maxsus jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasini aniqlash.
3. Qilichbozlik sportining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantiruvchi mashqlar majmuasini ishlab chiqish.
4. Ishlab chiqilgan mashqlar majmuasini mashg‘ulot jarayoniga joriy etish.
5. Tajriba davomida sportchilarning tezkorlik, chaqqonlik, tezkor-kuch va maxsus chidamlilik ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlarni aniqlash.
6. Taklif etilgan mashqlar majmuasining samaradorligini baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti.Qilichboz sportchilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayoni.

Tadqiqot predmeti. Qilichboz sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish mazmuni, vositalari va metodlari.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik-statistik tahlil va natijalarni taqqoslash usullaridan foydalanildi.

ASOSIY QISM

Qilichboz sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda sport faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Qilichboz jang davomida doimiy ravishda harakatlanadi, hujum va himoya vaziyatlarini tez almashadi hamda qisqa vaqt ichida yuqori tezlikda harakat bajaradi. Shu sababli mashg‘ulotlarda umumiy jismoniy mashqlar bilan bir qatorda, qilichbozlik harakatlariga yaqin bo‘lgan maxsus mashqlardan foydalanish zarur.

Tezkorlikni rivojlantirish uchun qisqa masofaga oldinga va orqaga tezkor harakatlanish, murabbiy signali asosida yo‘nalishni o‘zgartirish, tezkor hujumga chiqish va dastlabki holatga qaytish mashqlaridan foydalanish mumkin.

Chaqqonlikni rivojlantirishda esa yo‘nalishni keskin o‘zgartirish, to‘satdan berilgan signalga javoban harakatlanish, turli masofalarda hujum va himoya harakatlarini bajarish samarali hisoblanadi.

Tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uchun oyoq mushaklarining portlovchi kuchini oshiruvchi sakrashlar, qisqa muddatli yuqori intensivlikdagi harakatlar, tezkor oldinga tashlanish va orqaga qaytish mashqlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Maxsus chidamlilikni rivojlantirish maqsadida qisqa muddatli yuqori intensivlikdagi mashqlarni takroriy bajarish, hujum-himoya harakatlarini ketma-ket bajarish va mashqlar orasidagi dam olish vaqtini bosqichma-bosqich kamaytirish mumkin.

Koordinatsiya va muvozanatni rivojlantirish uchun bir oyoqda muvozanatni saqlash, harakat vaqtida tana holatini nazorat qilish, tezkor to‘xtash va qayta harakatlanish, turli yo‘nalishlarda oyoq harakatlarini bajarish mashqlari qo‘llaniladi.

Muhim jihatlardan biri shundaki, maxsus jismoniy mashqlarni texnik-taktik harakatlar bilan birlashtirish kerak. Masalan, tezkor harakatdan so‘ng hujumni bajarish, himoyadan keyin darhol qarshi hujumga o‘tish yoki yuqori intensivlikdagi harakatdan so‘ng aniq nishonga zarba berish mashqlari sportchining musobaqa faoliyatiga tayyorgarligini oshiradi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot jarayonida maxsus jismoniy tayyorgarlikka yo‘naltirilgan mashqlarni tizimli ravishda qo‘llash qilichboz sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kuzatildi.

Xususan, maxsus mashqlarni muntazam bajarish natijasida sportchilarning tezkor harakatlanish, yo‘nalishni tez o‘zgartirish, hujum va himoya harakatlarini ketma-ket bajarish imkoniyatlari yaxshilandi. Shuningdek, mashqlarni texnik-taktik harakatlar bilan uyg‘unlashtirish sportchilarning harakat aniqligi va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qildi.

Olingan natijalar qilichbozlik mashg‘ulotlarida maxsus jismoniy tayyorgarlikni alohida emas, balki texnik va taktik tayyorgarlik bilan kompleks tarzda tashkil etish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi.

XULOSA. Qilichboz sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish ularning sport mahoratini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida tezkorlik, chaqqonlik, tezkor-kuch, maxsus chidamlilik, koordinatsiya va muvozanatni rivojlantiruvchi mashqlarni tizimli qo‘llash zarurligi aniqlandi.

Qilichbozlikka xos maxsus mashqlarni texnik-taktik harakatlar bilan uyg‘unlashtirish sportchilarning musobaqa sharoitida tezkor va aniq harakat qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli ishlab chiqilgan maxsus mashqlar majmuasidan qilichboz sportchilarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonida foydalanish ularning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishning samarali vositasi sifatida tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Platonov V.N. Sportchilarni tayyorlash tizimida sport mashg‘ulotlari. – Moskva.
2. Matveyev L.P. Sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi. – Moskva.
3. Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов. – Москва.
4. Sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi bo‘yicha o‘quv-uslubiy adabiyotlar.

Qilichbozlik sportining texnik-taktik va jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha uslubiy materiallar.

TAEKVONDO SPORTIDA MASHG‘ULOT JARAYONINI INDIVIDUALLASHTIRISH ORQALI SPORTCHILAR TAYYORGARLIGI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti stajyor o‘qituvchisi
A.Yusupov

Kalit so‘zlar: *taekvondo, sport tayyorgarligi, individuallashtirish, mashg‘ulot jarayoni, texnik-taktik tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, koordinatsion qobiliyatlar, tezkorlik, mashg‘ulot yuklamasi.*

Ключевые слова:*Тхэквондо, спортивная подготовка, индивидуализация, тренировочный процесс, технико-тактическая подготовка, физические качества, координационные способности, быстрота, тренировочная нагрузка, индивидуальный подход.*

Keywords:*Taekwondo, sports training, individualization, training process, technical and tactical training, physical qualities, coordination abilities, speed, training load, individualized approach.*

Bugungi kunda taekvondo sportida yuqori natijalarga erishish sportchilarning jismoniy, texnik-taktik va psixologik tayyorgarligini uzviy bog‘liq holda rivojlantirishni talab etadi. Musobaqa jarayonida raqib harakatlariga tezkor javob qaytarish, masofani to‘g‘ri baholash, zarbalarni aniq bajarish va taktik vaziyatni tez anglash sportchining mahoratini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi.

Taekvondo bilan shug‘ullanuvchi sportchilarning jismoniy rivojlanishi, harakat imkoniyatlari, texnik ko‘nikmalari va mashg‘ulot yuklamalariga moslashuvi bir xil bo‘lmaydi. Shu sababli barcha sportchilarga bir xil mashqlar va yuklamalarni qo‘llash ularning individual ehtiyojlarini to‘liq qamrab olmasligi mumkin. Mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish sportchining tayyorgarlik darajasiga mos mashqlarni tanlash, yuklamalarni tartibga solish va individual rivojlanish dinamikasini nazorat qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi Taekvondo sportida mashg‘ulot jarayonini individuallashtirishning nazariy-metodik asoslarini o‘rganish hamda sportchilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirishga yo‘naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari Taekvondo sportida mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish orqali sportchilar tayyorgarligi samaradorligini oshirish masalasini o‘rganishda ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish, suhbat, pedagogik testlash, mashg‘ulot yuklamalarini tahlil qilish va matematik-statistik qayta ishlash usullaridan foydalanish nazarda tutildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi Taekvondo sportida mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish orqali sportchilar tayyorgarligi samaradorligini oshirish sport pedagogikasining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv sportchilarning jismoniy imkoniyatlari, texnik-taktik mahorati, koordinatsion qobiliyatlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etishni nazarda tutadi. Sportchilarning individual xususiyatlari o‘rtasidagi farqlar mashqlar mazmuni, yuklama hajmi va murakkablik darajasini moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot mavzusi doirasida taekvondo mashg‘ulotlarini individuallashtirishning nazariy va metodik jihatlari tahlil qilindi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, sportchilarga bir xil mashg‘ulot topshiriqlarini berish ularning tayyorgarlik darajasi va individual ehtiyojlarini to‘liq hisobga

olish imkonini bermasligi mumkin. Shu sababli dastlabki nazorat sinovlari orqali sportchilarning jismoniy va texnik tayyorgarlik darajasini aniqlash, so‘ngra mashg‘ulot mazmunini olingan natijalarga muvofiq belgilash maqsadga muvofiqdir.

Taekvondoda **jismoniy tayyorgarlikni individuallashtirish** muhim ahamiyatga ega. Sportchining tezkorligi, kuchi, egiluvchanligi, muvozanati va koordinatsion qobiliyatlari texnik harakatlarni samarali bajarish bilan bevosita bog‘liq. Masalan, oyoq zarbalarini tez va aniq bajarish uchun tezkorlik va egiluvchanlik, zarbadan keyin muvozanatni saqlash uchun esa tana holatini nazorat qilish va koordinatsion qobiliyatlar muhim hisoblanadi. Shu sababli jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar sportchining individual tayyorgarlik darajasiga mos tanlanishi kerak.

Texnik-taktik tayyorgarlikni individuallashtirish sportchining texnik harakatlarni bajarish sifati va musobaqa vaziyatlariga moslashish qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi. Bunda zarbalarni alohida bajarish, turli zarba kombinatsiyalarini o‘zlashtirish, himoyadan hujumga o‘tish va shartli raqib harakatlariga javob qaytarish mashqlaridan foydalanish mumkin. Texnik xatolarni aniqlash va ularni maqsadli bartaraf etish sportchining individual rivojlanishiga mos mashg‘ulot topshiriqlarini tanlash imkonini beradi.

Mashg‘ulot jarayonida **koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish** ham alohida o‘rin tutadi. Taekvondo sportchisi zarba berish vaqtida tana holatini boshqarishi, harakat yo‘nalishini tez o‘zgartirishi va raqibning harakatlariga moslashishi lozim. Shu maqsadda bir oyoqda muvozanatni saqlash, belgilangan signallar asosida harakatlanish, zarbadan keyin boshlang‘ich holatga qaytish hamda ketma-ket texnik kombinatsiyalarni bajarish mashqlaridan foydalanish mumkin. Mashqlarning murakkabligi sportchining imkoniyatlariga qarab bosqichma-bosqich oshiriladi.

Mashg‘ulot yuklamalarini individuallashtirish sportchilarning funksional imkoniyatlari va tiklanish holatini hisobga olishni talab etadi. Mashqlarning takrorlanish soni, bajarish shiddati, dam olish oralig‘i va umumiy hajmini maqsadga muvofiq belgilash mashg‘ulot jarayonini samarali boshqarishga yordam beradi. Sportchining charchash belgilari, harakatlar aniqligining pasayishi va topshiriqlarni bajarish sifati muntazam kuzatilishi lozim. Ushbu ma’lumotlar asosida yuklamalarni o‘zgartirish va ortiqcha zo‘riqish xavfini kamaytirish mumkin.

Taekvondo sportida psixologik tayyorgarlikni hisobga olish ham muhimdir. Musobaqa sharoitida diqqatni jamlash, raqib harakatlarini kuzatish, tezkor qaror qabul qilish va emotsional holatni boshqarish sport natijalariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli mashg‘ulotlarda vaziyatli topshiriqlar, vaqt cheklovi ostida bajariladigan mashqlar va musobaqaga yaqin sharoitdagi nazorat janglaridan sportchining tayyorgarlik darajasiga mos ravishda foydalanish tavsiya etiladi.

Individuallashtirilgan mashg‘ulotlar samaradorligini baholashda dastlabki va yakuniy nazorat natijalarini taqqoslash zarur. Bunda tezkorlik, egiluvchanlik, koordinatsion qobiliyatlar, texnik harakatlarning aniqligi va taktik vaziyatlarda qaror qabul qilish ko‘rsatkichlarini hisobga olish mumkin. Agar pedagogik tajriba tashkil etilsa, tajriba va nazorat guruhlarining natijalari taqqoslanib, aniqlangan o‘zgarishlarning statistik ahamiyati tekshiriladi.

Umuman olganda, taekvondo sportida mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish sportchilarning jismoniy, texnik-taktik va psixologik tayyorgarligini o‘zaro uyg‘un rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuv hisoblanadi. Uning samaradorligini to‘liq

asoslash uchun nazariy tahlil bilan bir qatorda amaliy pedagogik tajriba, aniq test natijalari va matematik-statistik tahlil ma’lumotlaridan foydalanish lozim.

XulosaTaekvondo sportida mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish orqali sportchilar tayyorgarligi samaradorligini oshirish masalasini nazariy-metodik jihatdan o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

1. **Mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish sportchilar tayyorgarligini takomillashtirishning muhim shartidir.** Sportchilarning jismoniy imkoniyatlari, texnik ko‘nikmalari, koordinatsion qobiliyatlari va psixologik xususiyatlari turlicha bo‘lganligi sababli mashg‘ulot mazmunini ularning individual ehtiyojlariga moslashtirish zarur.
2. **Sportchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasini baholash**mashg‘ulotlarni to‘g‘ri rejalashtirish uchun metodik asos yaratadi. Tezkorlik, kuch, egiluvchanlik, muvozanat va koordinatsion qobiliyatlarni nazorat qilish orqali sportchining kuchli jihatlari va rivojlantirilishi zarur bo‘lgan sifatlarini aniqlash mumkin.
3. **Jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlikni uyg‘un rivojlantirish** taekvondo mashg‘ulotlarining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tezkor oyoq harakatlari, aniq zarbalar, himoyadan hujumga o‘tish va raqib harakatlariga moslashishga qaratilgan mashqlarni individual imkoniyatlarga muvofiq tanlash sport mahoratini takomillashtirish uchun sharoit yaratadi.
4. **Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish** texnik harakatlarning aniqligi va barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Muvozanatni saqlash, harakat yo‘nalishini tez o‘zgartirish va ketma-ket texnik kombinatsiyalarni bajarishga qaratilgan mashqlar sportchilarning harakatlarni boshqarish imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.
5. **Mashg‘ulot yuklamalarini individual ravishda boshqarish** sportchilarning tayyorgarlik darajasi va tiklanish imkoniyatlarini hisobga olishni talab etadi. Mashqlarning hajmi, shiddati, takrorlanish soni va dam olish oralig‘ini oqilona belgilash mashg‘ulot jarayonini maqsadli tashkil etishga yordam beradi.
6. **Texnik xatolarni aniqlash va bartaraf etish** individual yondashuvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Murabbiy sportchining texnik harakatlarini muntazam kuzatib, aniqlangan kamchiliklarga mos mashqlarni tanlashi va ularning bajarilish sifatini nazorat qilishi lozim.
7. **Psixologik tayyorgarlikni hisobga olish** sportchining musobaqa sharoitidagi faoliyatini takomillashtirish uchun muhimdir. Diqqatni jamlash, tezkor qaror qabul qilish, raqib harakatlarini tahlil qilish va emotsional holatni boshqarishga yo‘naltirilgan mashqlarni umumiy tayyorgarlik jarayoniga kiritish maqsadga muvofiq.
8. **Mashg‘ulot samaradorligini muntazam nazorat qilish** individuallashtirilgan yondashuvning natijalarini baholash imkonini beradi. Dastlabki va yakuniy test ko‘rsatkichlarini taqqoslash, zarur hollarda tajriba va nazorat guruhlari natijalarini matematik-statistik tahlil qilish orqali qo‘llanilgan metodikaning samaradorligini ilmiy asoslash mumkin.

Umuman olganda, taekvondo sportida mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish sportchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlikni o‘zaro uyg‘unlashtirish hamda mashg‘ulot yuklamalarini maqsadli boshqarishga asoslanadi. Ushbu yondashuvni muntazam pedagogik nazorat va ilmiy asoslangan rejalashtirish bilan birgalikda qo‘llash sportchilar tayyorgarligini takomillashtirish uchun metodik asos yaratadi. Mazkur yondashuvning amaliy samaradorligi esa aniq pedagogik tajriba natijalari va statistik tahlil orqali tasdiqlanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bompa, T. O., Haff, G. G. *Periodization: Theory and Methodology of Training*. 5th ed. — Champaign, IL: Human Kinetics, 2009.
2. Platonov, V. N. *Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. Obshchaya teoriya i yeye prakticheskiye prilozheniya*. — Kiev: Olimpiyskaya literatura, 2004.
3. Schmidt, R. A., Lee, T. D. *Motor Control and Learning: A Behavioral Emphasis*. 5th ed. — Champaign, IL: Human Kinetics, 2011.
4. Haff, G. G., Triplett, N. T. (eds.). *Essentials of Strength Training and Conditioning*. 4th ed. — Champaign, IL: Human Kinetics, 2016.
5. World Taekwondo. *Competition Rules and Interpretation*. — World Taekwondo tashkilotining taekvondo musobaqalariga oid rasmiy qoidalari. Rasmiy sayt: https://www.worldtaekwondo.org/

TAEKVONDO SPORTSHILARÍNDA FIZIKALÍQ JÚKLEMEDI DURÍS BELGILEW

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı
Taekvando tálim baǵdarı studenti
Saparniyazova Tumaris

Tayanısh sózler: *taekvondo, fizikalıq júkleme, shınıǵıw, intensivlik, kólem, júrek urıw jiyiligi, sharshaw, tikleniw.*

Tayanch so‘zlar: *karate, texnika, sportchi, taktika, kuch, tezlik, chidamlilik, chaqqonlik.*

KIRISIW. Taekvondo — tezlik, kúsh, shıdamlılıq, iyilgishtik, teńsalmaqlılıq hám háreketlerdiń joqarı dárejede sáykeslesiwin talap etetuǵın sport túri. Jarıs waqtında sportshı qısqa waqıt ishinde joqarı intensivliktegi tepkilerdi orınlap, keyin qısqa dem alıw aralıqlarında qayta tiklenedi. Sol sebepli shınıǵıw procesinde júklemeni durıs belgilew sport nátiyjesin arttırıw menen birge, artıqsha sharshaw hám jarahattıń aldın alıwda da áhmiyetli.

Júkleme jetkiliksiz bolsa, sportshınıń fizikalıq sapaları kerekli dárejede rawajlanbaydı. Al júkleme sportshınıń múmkinshiliginen artıq bolsa, tikleniw uzaǵıraq dawam etip, háreket texnikası tómenlewi hám jarahattıń qáwpi artıwı múmkin. Sonlıqtan júkleme tek trenerdiń rejesine emes, sportshınıń haqıyqıy jaǵdayına da súyenip basqarılıwı kerek.

IZERTLEW MAQSETI

Izertlwdiń maqseti -taekvondo sportshılarında fizikalıq júklemeni durıs belgilewdiń tiykarǵı principlerin úyreniw hám shınıǵıw procesinde júklemeni baqlaw boyınsha ámeliy usınıslar islep shıǵıw.

Izerlew wazıypaları:

1) Taekvondo shınıǵıwlarında qollanılatuǵın fizikalıq júklemeniń mazmunı hám túrlerin talqılaw;

2) Júkleme kólemi menen intensivligin belgilewge tásir etetuǵın faktorlarǵa sıpatlama beriw;

3) Júrek urıw jiyiligi hám sportshınıń sezinetuǵın sharshawı arqalı júklemeni baqlaw usılların úyreniw;

4) Júkleme hám dem alıw aralıqların sáykeslestiriwge baylanıslı ámeliy usınıslar beriw.

Izertlewmetodlari. Jumısta ilimiy-metodikalıq ádebiyatlardı talqılaw, salıstırıw, pedagogikalıq baqlaw hám shınıǵıw júklemesin bahalaw usılları qollanıldı. Ámeliy baqlawda

shınıǵıw dawamlılıǵı, orınlanǵan qaytalawlar sanı, júrek urıw jiyiligi hám sportshınıń shınıǵıwdan keyingi subyektiv sharshaw bahası esapqa alınadı. Bul tezis ádebiyatlarǵa súyengen teoriyalıq talqılaw bolıp, onda avtor tárepinen jańa eksperiment ótkerilgeni yamasa ólshem nátiyjeleri alınǵanı haqqında dańwa etilmeydi.

Tiykarǵı bólim. Fizikalıq júkleme eki tiykarǵı tárep arqalı sıpatlanadı: kólem hám intensivlik. Kólem-shınıǵıwǵa sarplanǵan ulıwma waqıt, qaytalawlar, raundlar yamasa jumıs kólemi. Intensivlik bolsa háreketlerdiń tezligi, kúsh salıw dárejesi hám sportshı organizminiń júklemege bergen juwabın bildiredi. Bul eki kórsetkish bir-biri menen baylanıslı: joqarı intensivliktegi jumıs kólemi kóbeygen sayın dem alıw aralıqların da durıs rejelestiriw zárúr.

Júklemeni belgilewde sportshınıń jası, jınısı, tayarlıq dárejesi, den sawlıǵı, aldıńǵı shınıǵıwlardan keyingi tikleniw jaǵdayı hám jarıs kestesi esapqa alınadı. Jas sportshılarda texnikanı durıs úyreniw, qozǵalıs sapası hám qáwipsizlik birinshi orında turıwı kerek. Joqarı dárejeli sportshılarda bolsa tezlik-kúsh, interval shınıǵıwları hám jarısqa uqsas taktikalıq jaǵdaylar basqıshpa-basqısh kóbeytiliwi múmkin.

Júklemeni baqlawdıń ápiwayı usıllarınıń biri-sportshınıń subyektiv sharshawın 0-10 ballıq shkala menen bahalawı. Bul usılda shınıǵıwdan keyin sportshı jalpı qanshelli qıyın bolǵanın belgileydi. Shınıǵıw júklemesin shama menen esaplaw ushın subyektiv sharshaw ballın shınıǵıw dawamlılıǵına kóbeytiwge boladı: júkleme = sharshaw bahası × minut. Ilimiy izertlewlerde session-RPE dep atalatuǵın bul kórsetkish taekvondo shınıǵıwlarında júklemeni baqlaw ushın paydalı ekeni kórsetilgen [1; 2]. Ol júrek urıw jiyiligi sıyaqlı basqa kórsetkishler menen birge qollanılǵanda jaǵdaydı tolıǵıraq túsiniwge járdem beredi.

Mısalı, eger sportshı 60 minutlıq shınıǵıwdı 0–10 shkala boyınsha 6 ball dep bahalasa, shınıǵıw júklemesi 360 shártli birlik boladı. Bul san óz-ózinen sportshınıń jaǵdayı jaqsı yamasa jaman ekenin bildirmeydi; ol bir sportshınıń kúndelik, háptelik hám aylıq júklemesin salıstırıw ushın qollanıladı. Birdey júkleme eki sportshıǵa hár túrli tásir etiwi múmkin, sonlıqtan jeke ayırmashılıqlar esapqa alınadı.

Júrek urıw jiyiligin baqlaw júklemeniń fiziologiyalıq tásirin túsiniwge járdem beredi. Biraq taekvondo interval túrdegi sport bolǵanlıqtan, qısqa hám tez tepkiler waqtında júrek urıwı organizmdegi barlıq kúsh salıwdı tolıq sáwlelendirmewi múmkin. Sol sebepli júrek urıw jiyiligi, shınıǵıw waqıtı, orınlanǵan jumıs kólemi hám sportshınıń sezimi birge qaralǵanı maqul [2; 3].

Júklemeni rejelestiriwde awırlıq dárejesin hár kúni joqarı saqlaw durıs emes. Intensiv shınıǵıwlardan keyin jeńil texnikalıq jumıs, qozǵalıs iyilgishtigin rawajlandırıw yamasa belsendi dem alıw kúnleri kiritiledi. Uyqı, suw ishıw, teńsalmaqlı awqatlanıw hám shınıǵıwdan keyingi tikleniw de tayarlıq procesiniń bólegi bolıp esaplanadı. Eger sportshıda ádetten tıs sharshaw, awırıw, uyqı buzılıwı yamasa texnikanıń anıq tómenlewi bayqalsa, trener júklemeni qayta kórip shıǵıwı kerek.

Ámeliy jaqtan, hár bir shınıǵıw aldınan maqset belgilenip, negizgi bólimdegi jumıs kólemi hám dem alıw waqıtı aldın ala rejelestiriledi. Shınıǵıwdan keyin trener rejelestirilgen hám ámeldegi júklemeni salıstırıp, sportshınıń juwabın jazıp baradı. Háptelik talqılaw arqalı júklemeni birte-birte arttırıw, saqlap turıw yamasa azaytıw haqqında qarar qabıl etiledi. Bul jantasıw sportshınıń jeke múmkinshiliklerine sáykes tayarlıq alıp barıwǵa múmkinshilik beredi.

JUWMAQ. Taekvondo sportshılarında fizikalıq júklemeni durıs belgilew — joqarı sport nátiyjesine erisiw, texnikalıq sapalardı saqlaw hám artıqsha sharshawdıń aldın alıw ushın zárúr shárt. Júkleme kólemi hám intensivligi sportshınıń jası, tayarlıq dárejesi hám tikleniw jaǵdayına

qarap belgilenedi. Júrek urıw jiyiligi, shınıǵıw dawamlılıǵı hám subyektiv sharshaw bahasın birge baqlaw trenerge júklemeni jeke tártipte basqarıwǵa járdem beredi. Júklemeni basqıshpa-basqısh ózgertiw, dem alıw hám tikleniwge jetkilikli waqıt ajıratıw taekvondoshınıń uzaq múddetli rawajlanıwına xızmet etedi.

PAYDALANILǴAN ÁDEBIYATLAR

1. Albuquerque M. R. et al. Training load monitoring in taekwondo: athlete-reported and coach-planned ratings of perceived exertion and the role of session duration. Sport Sciences for Health, 2026. DOI: 10.1007/s11332-026-01881-9.

2. Haddad M. et al. Use of session RPE to training load quantification and training intensity distribution in taekwondo athletes. Science & Sports, 2012. DOI: 10.1016/j.scispo.2011.07.001.

3. Haddad M. et al. Heart rate responses and training load during nonspecific and specific aerobic training in adolescent taekwondo athletes. Journal of Strength and Conditioning Research, 2013. PubMed PMID: 23486727.

BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDAGI DZYUDOCHI QIZLARNING INDIVIDUAL KO‘RSATKICHLARI ASOIDA TEXNIK TAYYORGARLIGINING OPTIMALLASHTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
Berdaxova Nursulu Gagarin qizi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali student
Karimbaeva Shahnoza Quwanishbek qizi

Kalit so‘zlar: *dzyudo, texniktayyorgarlik, individuallashtirish, sportchiqizlar, mashg‘ulotmetodikasi, boshlang‘ichtayyorgarlik, texnikharakatlar.*

Hozirgi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasida yosh sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, dzyudo sport turida boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida texnik harakatlarni to‘g‘ri o‘rgatish sportchilarning kelajakdagi natijalarini belgilab beradi. Dzyudochi qizlar, texnik harakatlarni egallashda tabiiy iste’dod muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, tik turib bajariladigan usullarda kurash (tachi-waza) va parter holatidagi (ne-waza) hujum harakatlarini o‘zlashtirishda dzyudochi qizlar tabiiy qobiliyati katta ahamiyatga ega. Biroq yuqori natijalarga erishish faqat texnikani tez o‘zlashtirish bilan emas, balki dzyudochi qizlarning optimal yosh davrida maksimal natijaga erishish imkoniyati bilan belgilanadi. Sport turi qanchalik murakkab bo‘lsa, uni o‘rganish va mukammallashtirish uchun shuncha ko‘p vaqt talab etiladi.

Dzyudochi qizlar texnik-taktik harakatlarning shakllanishida shaxsiy xususiyatlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Sport mahoratining o‘sishi bir qator o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq omillar yuqori darajadagi harakat sifatlari, barqarorlik hamda mustahkam sog‘liq bilan belgilanadi. Shu bilan birga, sportchining turli raqiblarga qarshi samarali kurash olib borish uchun zarur bo‘lgan usul va vositalarni tez o‘zlashtira olishi, o‘z ustida ishlash qobiliyati ham o‘quv-mashg‘ulot jarayonini optimallashtiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Dzyudochi qizlarning turli ko‘rsatkichlari ham texnikani o‘zlashtirish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Texnik harakatlarni o‘rganish va takomillashtirish jarayoni yuqori darajada rivojlangan jarayonlarini talab qiladi. Murakkab texnik elementlarni egallash dzyudochi qizlarni diqqat, sezgi jarayonlarining mukammal rivojlangan bo‘lishini talab etadi.

Dzyudochi qizlar texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini rivojlanishi barcha ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘liq holda rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanadi.

Yangi texnik kombinatsiyalarni o‘zlashtirish jarayonida dzyudochi qizlarning ko‘rish, eshitish va harakat xotirasi faol ishtirok bevosita ishtirok etadi. Mashg‘ulot jarayonida xotirasi muhim ahamiyat kasb etsa, musobaqa sharoitida aynan harakat xotirasi yetakchi rol o‘ynaydi. Aynan shu xotira orqali dzyudochi qizlar harkatlari avtomatlashtirilgan tarzda zarur texnik usullarni tanlab, ularni vaziyatga mos ravishda qo‘llay olishiga sabab bo‘ladi.

Yuqori malakali dzyudochi qizlarda texnik harakatlarning bajarilishi mushaklar faoliyatining aniq ketma-ketligi bilan ajralib turadi. Ular kuch impulslarini bir vaqtning o‘zida emas, balki izchil tarzda, ya’ni oyoq, gavda va qo‘l mushaklari o‘rtasida to‘g‘ri taqsimlaydi. Aksincha, past malakali sportchilarda qo‘l mushaklarining ortiqcha zo‘riqishi natijasida umumiy harakat samaradorligi pasayadi.

Texnik harakatlarning samaradorligi dzyudochi qizlarning turli ish rejimlari o‘rtasida tez va samarali o‘tish qobiliyatiga ham bog‘liq. Ma’lum bir harakatdan ikkinchisiga o‘tishda moslashuvchanlik va tezkorlik yuqori bo‘lsa, texnik harakatlarni bajarilish sifati ham shuncha yuqori bo‘ladi. Bu ayniqsa kombinatsion usullarni qo‘llashda muhim ahamiyatga kasb etadi.

Tayanch-harakat apparatining funksional holati ham texnik-taktik mahorat shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Mushak kuchining taqsimlanishi, raqibning anatomik xususiyatlari, emotsional barqarorlik, nerv tizimi tipi va temperament kabi omillar dzyudochi qizlarning umumiy tayyorgarlik darajasiga ta’sir etadi. Bu omillarni hisobga olish individual yondashuvni shakllantirishda muhim hisoblanadi.

Dzyudochi qizlar haraka-t faoliyati o‘z mohiyatiga ko‘ra sportchining ongida shakllangan fikrning amaliy ifodasidir. Texnik usullarni bajarish tezligi, kuchi va davomiyligi organizmning funksional tizimlari holati, motivatsiya darajasi va harakatga bo‘lgan ichki yo‘nalish bilan belgilanadi. Shu sababli texnikani o‘rgatishda faqat jismoniy emas, balki psixologik omillar ham muhim ahamiyatga kasb etadi.

Yosh dzyudochi qizlarda texnik tayyorgarlik masalasi alohida e’tibor talab qiladi. Ko‘plab yosh sportchilar sport bilan shug‘ullanishni yuqori natijaga erishish uchun emas, balki ma’lum ko‘nikmalarni egallash va o‘zini rivojlantirish vositasi sifatida qabul qiladi. Dzyudochi qizlarning mashg‘ulot jarayonlarini tashkil etishda ularning individual imkoniyatlarini hisobga olish zarur.

Dzyudochi qizlar texnik tayyorgarlikni samarali tashkil etishda individual yondashuv hal qiluvchi omil hisoblanadi. Har bir sportchining o‘ziga xos rivojlanish sur’ati, qobiliyati va moslashuv darajasi mavjud bo‘lib, bu o‘quv jarayonini differensiallashtirishni talab etadi. Ba’zi sportchilar tez moslashsa, boshqalar uchun esa vaqt va maxsus metodik yondashuv talab etiladi .

Dzyudochi qizlarning musobaqa faoliyatidagi xatti-harakati ham texnik-taktik mahoratni namoyon etishda muhim rol o‘ynaydi. Texnik harakatlar hajmi, xilma-xilligi, faolligi va samaradorligi aynan musobaqa sharoitida to‘liq namoyon bo‘ladi. Dzyudochi qizlar mashg‘ulotlari musobaqa sharoitiga maksimal darajada yaqinlashtirilgan bo‘lishi lozim .

Murabbiy va dzyudochi qizlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik jarayonida shaxsiy-individual omillar yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Texnikani o‘zlashtirishda qobiliyat, jismoniy sifatlar, sog‘liq darajasi, tayyorgarlik jarayonlarining rivojlanganligi, anatomik xususiyatlar rivojlanganlik darajasi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. dzyudochi qizlarni kompleks tayyorgarligini hisobga olish texnik tayyorgarlik samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli farmoni/ www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining2022-yil 20-iyunda “Dzyudo sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-286-sonli qarori/ www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli qarori/ www.lex.uz.

TEXNIK HARAKATLARNI O‘RGATISHDA DASTURLASHTIRILGAN TA’LIMNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
Berdaxova Nursulu Gagarin qizi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali student
Karimbaeva Shahnoza Quwanishbek qizi

Kalit so‘zlar: *Dzyudoda o‘qitish — bu sportchining o‘z harakatlarini boshqarishning ratsional usullarini tizimli ravishda egallash.*

Hozirgi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasida yosh sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, dzyudo sport turida texnik harakatlarni to‘g‘ri o‘rgatish sportchilarning kelajakdagi natijalarini belgilab beradi.

– o‘qitish maqsadini hamda o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan operatsiyalar majmuasini aniq belgilash;

– o‘quv materialini murakkablik darajasi bo‘yicha optimal qismlarga bosqichma-bosqich ajratish;

– o‘zlashtirish sifatini uzluksiz nazorat qilish va «sportchi – murabbiy» o‘rtasida samarali teskari aloqani ta’minlash;

– o‘quv dasturlari hamda maxsus texnik o‘qitish vositalaridan foydalanish.

Yakkakurashlar asoslarini o‘qitishda uchta asosiy yo‘nalish ajratiladi:

a) hujumkor harakatlar asosida o‘qitish;

b) elementlar bo‘yicha o‘qitish usuli;

c) yakkakurashlarda g‘alabaga erishish qonuniyatlarini tushunishga asoslangan o‘qitish.

Parter holatidagi harakatlarni o‘qitish mazmuni va ketma-ketligini quyidagicha tavsiya etadi: ushlab turishlar; malakaga ega bo‘lmagan chiqish urinishlari; ko‘prik orqali aylanish bilan chiqish; teskari aylanish orqali chiqish; oyoqni bosh ortiga qo‘yish va boshni bosish orqali chiqish (birinchi yil bazaviy texnik tayyorgarligi); tirsakni bilak orqali bo‘g‘ish, yelkani bosib og‘riq berish, son yordamida tirsak tuguni, tashlashdan ushlab turish va bo‘g‘ishga o‘tish, og‘riqli va bo‘g‘uvchi usullardan himoyalanish (ikkinchi yil bazaviy texnik tayyorgarligi).

Sport texnikasini o‘qitishning mualliflik metodikalari - Dzyudo texnikasini o‘rgatish uchun mutaxassislar tomonidan turli xil metodikalar ishlab chiqilgan. Ushbu nazariya qoidalariga ko‘ra, o‘qitish jarayoni “umumiydan xususiyga” tamoyili asosida tashkil etilishi lozim: avvalo mazkur harakatlar sinfi uchun ustuvor bo‘lgan harakat qobiliyatlari aniqlanadi; keyinchalik o‘qitish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida ushbu qobiliyatlar

ma’lum vaqt davomida rivojlantiriladi (ya’ni, harakatlar sinfini egallash uchun tayanch baza shakllantiriladi); shundan so‘ng shug‘ullanuvchilar ushbu harakatlar sinfiga xos umumiy qonuniyatlarni o‘zlashtirgan holda, harakat faoliyatining kelib chiqish manbalarini o‘rganadilar; o‘qituvchi bilan hamkorlikda texnikaning biomexanik asoslari aniqlanadi; modellashtirish va sxemalardan foydalaniladi, bu esa texnik harakatlarning asosiy lahzalarini samarali egallash imkonini beradi.

Texnik-taktik harakatlarni standart o‘tish holatlarida o‘qitish va takomillashtirish metodikasini qo‘llashni tavsiya qiladi. Birinchi bosqichda tik holatdan parterga o‘tish jarayonidagi usullarni bajarish ko‘nikma va malakalari shakllantiriladi, bunda tik holat va parterdagi texnik harakatlar o‘rtasida shartli-reflektor bog‘lanishlar hosil qilinadi. Shug‘ullanuvchilar avval nazariy jihatdan, kurash davomida tashlashlardan so‘ng yuzaga keladigan standart holatlar bilan tanishadilar. Bu bosqichda qarshilik ko‘rsatmaydi va oldindan belgilangan holatni modellashtiradi. Xuddi shu ketma-ketlikda boshqa standart holatlardagi harakatlar ham o‘rganiladi. Ikkinchi bosqichda birinchi bosqichda shakllangan ko‘nikmalarni kutilmagan vaziyatlar yoki holatlarning tezkor o‘zgarishiga moslashtirish amalga oshiriladi, bu esa texnik harakatlarni bajarishni musobaqa sharoitlariga yaqinlashtiradi. Natijada tashlashdan keyin parterdagi usulga o‘tish stereotipi dinamik stereotipga aylanadi. Ushbu bosqichda vazifalar murakkablashadi: Tori belgilangan tashlashni bajaradi, Uke esa istalgan standart holatni modellashtiradi.

Yakkakurash sport turlarida alohida texnik usullarni o‘zlashtirishning namunaviy ketma-ketligini ishlab chiqqan. Ushbu ketma-ketlik o‘rganish jarayonida usulni qismlarga bo‘lib yoki yaxlit holda bajarish va xatolarni tuzatish; bajarish tezligini bosqichma-bosqich oshirish va uni harakatlanishlar bilan uyg‘unlashtirish; usulni sherikning harakatiga javoban bajarishni nazarda tutadi. Takomillashtirish bosqichida esa usulni turli boshlang‘ich holatlardan va masofalardan variativ tarzda bajarish; boshqa usullar bilan turli kombinatsiyalarda qo‘llash; o‘quv mashg‘ulotlarida harakatlarni rivojlantirish; topshiriq asosidagi o‘quv janglarida, shuningdek, mashg‘ulot va musobaqa janglarida usulni qo‘llash ko‘zda tutiladi.

Bo‘g‘uvchi usullar texnikasini o‘qitish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u avvalo qarshiliksiz sharoitda texnikani o‘rganish va takrorlash asosida quriladi, chunki harakatlar avtomatik darajaga yetkazilishi lozim. Bo‘g‘uvchi usullarni qo‘llash uchun eng qulay vaziyat tik holatda bajarilgan texnik harakatning muvaffaqiyatsiz yakunlanishidan keyin yuzaga keladi. Boshlang‘ich o‘qitish jarayonini rejalashtirishda qulay tomonga bajariladigan harakatlarni o‘zlashtirishga umumiy vaqtning 40 foizi, noqulay tomonga bajariladigan harakatlarga esa 60 foizi ajratilishi tavsiya etiladi.

Xorijiy mutaxassislar parterda hujumkor harakatlarni bajarishda quyidagi metodik ko‘rsatmalarga amal qilishni tavsiya etadilar:

– harakatlarni oldindan puxta rejalashtirish va ushlab turishni (osaekomi) bajarish uchun qulay imkoniyatni izlash, ayniqsa tik holatdan parterga o‘tish paytini to‘g‘ri tanlash;

– barcha ushlab turishlarda raqibni tatamiga deyarli butun tana vazni bilan bosib turish;

– raqibning keyingi harakatini oldindan sezishga intilish va u sodir bo‘lishi bilanoq maksimal darajada tezkor javob qaytarish;

– ushlab turish texnikasini faqat zarurat tug‘ilgandagina o‘zgartirish (agar raqib ushlashdan chiqib ketishiga ishonch bo‘lsa);

– ushlab turishdan chiqib ketish usullarini ham mashq qilish, bu raqib harakatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Harakat texnikasining yaxshilanishiga mashqning o‘zi emas, balki noaniqliklarni tuzatish, ularni anglash va takroriy urinishlar jarayonida xatolarni bartaraf etish olib keladi. Harakat faoliyatidagi noaniqlik va xatolarni anglash o‘qitishning dastlabki bosqichida majburiy shart hisoblanadi, aks holda harakatlarni qayta bajarish xatoni mustahkamlab qo‘yishi, hatto etalon namunalarni unutish natijasida uni yanada kuchaytirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-sonli farmoni/ www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining2022-yil 20-iyunda “Dzyudo sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-286-sonli qarori/ www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3031-sonli qarori/ www.lex.uz.

SPORT TAKOMILLASHUV BOSQICHIDAGI MILLIY KURASHCHILARNING KOMBINATSION HUJUM HARAKATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti
D.Xudayorov

Kalit so‘zlar: *milliy kurash, sport takomillashuvi, kurashchi, kombinatsiya, hujum harakati, texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik, mashg‘ulot, musobaqa, texnik-taktik mahorat.*

Kirish. Bugungi kunda milliy kurashchilarning sport mahoratini oshirish, ularning texnik va taktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda musobaqalarda yuqori natijalarga erishishini ta’minlash sport mashg‘ulotlarining muhim vazifalaridan biridir. Ayniqsa, sport takomillashuv bosqichida kurashchining avval egallagan texnik harakatlarini musobaqa sharoitiga yaqin vaziyatlarda takomillashtirish katta ahamiyat kasb etadi.

Sport takomillashuvi bosqichining asosiy vazifalariga mashg‘ulot yuklamalari hajmi va shiddatini oshirish, texnik-taktik harakatlarni takomillashtirish, yetakchi jismoniy sifatlarni rivojlantirish va musobaqa tayyorgarligini yaxshilash kiradi. Kurashda texnika va taktika bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Texnika kurash usullarini bajarish mahoratini ifodalasa, taktika ushbu texnik harakatlardan muayyan musobaqa vaziyatida maqsadli foydalanishni anglatadi.

Kombinatsion hujum harakati kurashchining birinchi hujum harakatidan keyin raqibning javob reaksiyasini hisobga olib, ikkinchi yoki keyingi hujum usulini tezkor ravishda bajarishidan iborat murakkab texnik-taktik faoliyatdir. Bunday harakatlarda kurashchi faqat bitta usulni bajarishga emas, balki raqibning qarshiligiga qarab hujum yo‘nalishini o‘zgartirishga tayyor bo‘lishi kerak.

Milliy kurashda kombinatsion hujumlarni takomillashtirish bir necha ketma-ket bosqichlarda tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Avvalo asosiy texnik harakat to‘g‘ri, tez va aniq bajarishga o‘rgatiladi. Keyin raqibning himoyalanish, chekinish yoki qarshi harakat qilish reaksiyasi hisobga olinadi. Shundan so‘ng birinchi hujumdan ikkinchi hujum usuliga vaqtni yo‘qotmasdan o‘tish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

Kombinatsion harakatlarni takomillashtirishda aldamchi harakatlardan foydalanish ham muhim. Kurashchi birinchi harakatni raqibni chalg‘itish maqsadida qo‘llab, uning himoya

reaksiyasidan keyin asosiy hujumni amalga oshiradi. Bu usul raqibning diqqatini boshqarish va hujum uchun qulay vaziyat yaratishga yordam beradi.

Kombinatsion hujum harakatlarini takomillashtirish vositalari

1. usulni ketma-ket takrorlash;
2. bir usuldan ikkinchi usulga tezkor o‘tish mashqlari;
3. sherikning faol qarshiligi sharoitida hujum qilish;
4. raqibning turli himoya reaksiyalariga javoban ikkinchi hujumni bajarish;
5. aldamchi harakatdan keyin hujum qilish;
6. turli yo‘nalishlarda kombinatsion hujumlarni bajarish;
7. cheklangan vaqt davomida kombinatsiyalarni bajarish;
8. o‘quv-mashg‘ulot bellashuvlarida muayyan kombinatsiyani qo‘llash;
9. musobaqaga yaqin sharoitda kombinatsion hujumlarni bajarish.

Kombinatsion hujumlarni rivojlantirishning metodik tamoyillari

Izchillik tamoyili. Oddiy kombinatsiyalardan murakkab kombinatsiyalarga bosqichma-bosqich o‘tiladi.

Takroriylik tamoyili. Harakatlar ko‘p marta takrorlanib, avtomatlashgan ko‘nikmaga aylantiriladi.

Variativlik tamoyili. Bir xil hujumning turli vaziyatlarda va turli tezliklarda bajarilishi ta’minlanadi.

Individuallashtirish tamoyili. Kurashchining vazni, bo‘yi, jismoniy tayyorgarligi va texnik imkoniyatlari hisobga olinadi.

Musobaqaga yaqinlashtirish tamoyili. Mashqlar asta-sekin real musobaqa sharoitiga yaqinlashtiriladi.

Jismoniy tayyorgarlikning ahamiyati. Kombinatsion texnik-taktik harakatlarni shakllantirishda kurashchining jismoniy tayyorgarligi ham muhim hisoblanadi. Tezkorlik, kuch, chaqqonlik, koordinatsiya va maxsus chidamlilik yetarli darajada rivojlangan bo‘lsa, kurashchi birinchi hujumdan keyin ikkinchi hujumga tezroq o‘ta oladi. Shu sababli kombinatsion harakatlar texnik mashqlar bilan bir qatorda maxsus jismoniy mashqlar orqali ham mustahkamlanishi lozim.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, sport takomillashuv bosqichidagi milliy kurashchilarning kombinatsion hujum harakatlarini takomillashtirish ularning texnik-taktik mahoratini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Kombinatsion hujumlarni samarali bajarish kurashchiga raqibning himoya harakatlarini oldindan sezish, vaziyatni tez baholash va qulay imkoniyatdan unumli foydalanish imkonini beradi.

Mashg‘ulot jarayonida kombinatsion hujumlarni oddiydan murakkabga, nazoratli sharoitdan erkin bellashuv sharoitiga bosqichma-bosqich o‘tkazish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, takroriy, o‘zgaruvchan, o‘yin va musobaqa usullaridan foydalanish kurashchining texnik-taktik mahoratini oshirishga xizmat qiladi. Kombinatsion hujumlarni takomillashtirishda kurashchining individual xususiyatlarini hisobga olish, hujum usullarini turli variantlarda qo‘llash va ularni o‘quv-mashg‘ulot bellashuvlarida muntazam sinab borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salomov R.S. Sport mashg‘ulotlarining nazariy asoslari. — Toshkent.
2. Abdullaev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati. — Toshkent.
3. Atayev A.K. Yosh-o‘smirlarga o‘zbek kurashini o‘rgatish uslubiyoti. — Toshkent.

4. Matvapayev A.G. Milliy kurash sport turi texnikasi va taktikasi. — Urganch.
5. Kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligi bo‘yicha ilmiy-uslubiy materiallar.
6. Milliy kurash bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va ilmiy maqolalar.

SPORT TAKOMILLASHUV BOSQICHIDAGI KURASHCHILARNING TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINI TAKOMILLASHTIRISH VOSITA VA USULLARI

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti
D.Xudayorov

Kalit so‘zlar: *kurash, sport takomillashuv bosqichi, texnik-taktik tayyorgarlik, texnik harakat, hujum, qarshi hujum, kombinatsiya, musobaqa faoliyati, mashg‘ulot vositalari.*

Keywords: *Kurash, stage of sports improvement, technical and tactical training, technical action, attack, counterattack, combination, competitive activity, training means.*

Ключевые слова: *кураш, этап спортивного совершенствования, технико-тактическая подготовка, техническое действие, атака, контратака, комбинация, соревновательная деятельность, средства тренировки.*

O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish, sportchilar tayyorgarligi samaradorligini oshirish hamda zamonaviy ilmiy-metodik yondashuvlarni amaliyotga joriy etish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 24-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi 1123-son Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4877-son qarorida sport sohasini takomillashtirish, yuqori malakali sportchilarni tayyorlash, ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan vazifalar belgilangan. Mazkur me’yoriy-huquqiy asoslardan kelib chiqib, sport takomillashuv bosqichidagi kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini ilmiy asoslangan vosita va usullar orqali takomillashtirish, ularning musobaqa faoliyatida samarali texnik harakatlarni qo‘llash hamda taktik qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.


Sport takomillashuv bosqichida kurashchidan avvalgi bosqichlarda shakllangan texnik ko‘nikmalarni yuqori tezlik, qarshilik va o‘zgaruvchan vaziyatlarda qo‘llash talab etiladi. Xalqaro Kurash Instituti tomonidan “IKA e-Kurash” loyihasida texnik va taktik harakatlarni tizimli o‘rgatishga yo‘naltirilgan materiallar hamda 7 guruh bo‘yicha 56 ta texnik harakatning namunalari taqdim etilgani texnik repertuarni tizimlashtirish muhimligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning metodologik asosini sport mashg‘ulotlarini rejalashtirish, yuklamalarni bosqichma-bosqich tashkil etish va maxsus tayyorgarlik vositalarini musobaqa faoliyatiga yaqinlashtirishga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi. Bompa va Buzzichelli sport tayyorgarligida mashg‘ulot mazmunini davrlashtirish va bosqichlar bo‘yicha maqsadli tashkil etish zarurligini ta’kidlaydi. Issurinning tadqiqotlarida esa yuqori malakali sportchilarda maxsus sifat va ko‘nikmalarni ketma-ket, maqsadli yuklamalar orqali rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Ishda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv va metodik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Tahlil birligi sifatida kurashchining texnik-taktik harakati olindi: boshlang‘ich holatni egallash, usulga tayyorlanish, asosiy texnik harakatni bajarish, raqib qarshiligiga moslashish va harakatni yakunlash. Shu asosda mashqlar uch darajada guruhlandi:

texnik aniqlikni shakllantiruvchi mashqlar, o‘zgaruvchan qarshilik sharoitidagi mashqlar va musobaqa vaziyatlarini modellashtiruvchi maxsus mashqlar.

Tahlil natijalari sport takomillashuv bosqichida texnik-taktik tayyorgarlikni faqat usullar sonini ko‘paytirish asosida emas, balki mavjud texnik repertuardan vaziyatga mos foydalanish qobiliyatini rivojlantirish asosida tashkil etish zarurligini ko‘rsatdi. Bunda mashg‘ulot vositalari oddiydan murakkabga, barqaror sharoitdan o‘zgaruvchan sharoitga va oldindan ma’lum harakatdan qaror qabul qilish talab qilinadigan vaziyatga izchil o‘tkaziladi (1-rasm).



1-rasm. Texnik-taktik harakatlarni o‘rgatish bosqichlari va ularning o‘zaro metodik bog‘liqligi.

Birinchi yo‘nalish – texnik harakatni barqarorlashtirish. Bunda sportchi usulning boshlang‘ich holati, usulga kirish, tayanch va muvozanatni saqlash, kuchni yo‘naltirish hamda yakuniy fazalarni bir xil ketma-ketlikda bajaradi. Takroriy mashqlar harakatning tashqi shaklini emas, balki uning vaqt va makon bo‘yicha muvofiqligini mustahkamlashi kerak. Shu sababli mashq hajmi oshirilganda texnik sifatning pasayishiga yo‘l qo‘ymaslik muhim.

Ikkinchi yo‘nalish – qarshilik sharoitida texnik harakatni qo‘llash. Juftlikdagi mashqlarda raqibning passiv, yarim faol va faol qarshiligi bosqichma-bosqich oshiriladi. Bu usul sportchiga texnik harakatni tayyor holatda emas, balki raqibning faol harakati fonida bajarishga o‘rgatadi. Mashg‘ulotning ushbu bosqichida murabbiy harakatning natijasidan tashqari, usulga kirishning o‘z vaqtida bajarilishi, masofa va ushlashning saqlanishi, muvozanat hamda keyingi harakatga tayyorlikni ham nazorat qilishi lozim.

Uchinchi yo‘nalish – texnik-taktik kombinatsiyalarni shakllantirish. Kurashchining birinchi hujumi natija bermagan vaziyatda ikkinchi texnik harakatga tez o‘tishi, raqibning himoya reaksiyasidan foydalanishi va qarshi hujumga o‘tish imkoniyatini saqlashi kerak. Shu maqsadda “birinchi hujum–ikkinchi hujum”, “hujum–qarshi hujum” va “aldov harakati–asosiy usul” kabi kombinatsiyalar qo‘llanadi. Kombinatsiyalarni o‘rgatishda harakatlarning mexanik ketma-ketligidan ko‘ra, raqib reaksiyasiga javob berish tamoyili ustuvor bo‘lishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchi yo‘nalish – musobaqa vaziyatlarini modellashtirish. Mashg‘ulotlarda vaqt, hisob, raqibning faol qarshiligi va cheklangan texnik vazifalarni qo‘llash kurashchining tezkor taktik qaror qabul qilishini rivojlantiradi. Xalqaro qoidalardagi baholash va bellashuvni tashkil etish talablari mashg‘ulot modellarini musobaqa sharoitiga yaqinlashtirish uchun asos bo‘la oladi.

Texnik-taktik tayyorgarlik samaradorligini oshirishda yuklamalarni davrlashtirish ham muhimdir. Yuqori malakali sportchilar tayyorgarligida mashg‘ulot mazmunini maqsadli bloklar yoki bosqichlar asosida tashkil etish mumkin; bunda ayrim davrlarda maxsus texnik-taktik vazifalarga yuqori e’tibor qaratilib, keyingi bosqichlarda ular musobaqa faoliyati bilan birlashtiriladi. Issurin bunday yondashuvda maqsadli yuklamalarni ketma-ket joylashtirish va ularning o‘zaro mosligini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Kurashchilar bilan mashg‘ulotlarda tezkor qaror qabul qilishni rivojlantirish uchun vaziyatli topshiriqlardan foydalanish samarali metodik vosita hisoblanadi. Masalan, sportchiga raqibning ma’lum himoya harakatidan so‘ng ikki xil texnik variantdan birini tanlash, birinchi hujumdan keyin darhol ikkinchi harakatga o‘tish yoki hisobda ortda qolgan vaziyatda hujumkor taktika qo‘llash topshirig‘i beriladi. Bunday topshiriqlar sportchining faqat texnik mahoratini emas, balki idrok, tahlil, tanlash va harakatni tezkor amalga oshirish jarayonlarini ham birlashtiradi.

Kurashning zamonaviy metodik ta’minotida texnik harakatlarni standartlashtirish va ularni videomateriallar orqali o‘rganish imkoniyatlari ham kengaymoqda. “IKA e-Kurash” loyihasida texnik va taktik harakatlar bo‘yicha tizimlashtirilgan materiallarning yaratilgani murabbiy va sportchiga harakatlarni vizual tahlil qilish imkonini beradi. Videotahlilni mashg‘ulotdan keyingi qisqa tahlil bilan birlashtirish, ayniqsa, texnik harakatning kirish va yakuniy fazalaridagi xatolarni aniqlashda foydali bo‘lishi mumkin.

Umuman, sport takomillashuv bosqichidagi kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligi uchun uchta mezon o‘zaro bog‘liq holda nazorat qilinishi lozim: texnik harakatning aniqligi, vaziyatga mos taktika tanlash va harakatni yuqori tezlikda amalga oshirish. Ushbu mezonlarning birortasi alohida rivojlantirilsa, mashg‘ulot natijasi musobaqa faoliyatiga to‘liq ko‘chmasligi mumkin. Shu bois maxsus mashqlar mazmuni sportchining real bellashuvdagi faoliyatiga maksimal darajada yaqinlashtirilishi kerak.

Xulosa qilib aytgandasport takomillashuv bosqichidagi kurashchilarning texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish jarayoni texnik harakatlarni mexanik takrorlashdan vaziyatni anglash va mustaqil taktik qaror qabul qilishga olib boruvchi izchil tizim sifatida tashkil etilishi lozim. Eng avvalo texnik harakatning barqarorligi ta’minlanadi, keyinchalik qarshilik, kombinatsiya va musobaqa vaziyatlari murakkabligi bosqichma-bosqich oshiriladi. Bunday ketma-ketlik texnik ko‘nikmalarning musobaqa sharoitida qo‘llanish imkoniyatini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. International Kurash Association. Kurash Rules: International rules of organization and holding of Kurash competitions. IKA, 1998; amaldagi elektron nashr.

2. International Kurash Association. IKA e-Kurash. Texnik va taktik harakatlarni o‘rganish bo‘yicha loyiha materiallari. 2020.

3. Bompa T.O., Buzzichelli C. Periodization Training for Sports. 3rd ed. Champaign, IL: Human Kinetics, 2015. 368 p.

4. Kerimov F.A. Kurash elementlariga ega harakatli o‘yinlar: o‘quv qo‘llanma. –

Toshkent: Ilmiy texnika axboroti-press, 2020. - 89 bю

5. Xomudjonova F.K. O‘quv mashg‘ulot guruhida shug‘ullanuvchi 14-15 yoshli kurashchilarning harakat tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2025. – 167 b

6. Issurin V.B. New horizons for the methodology and physiology of training periodization. Sports Medicine. 2010. Vol. 40, No. 3. P. 189–206.

DZYUDOCHILARNING HARAKAT TEZLIGINI RIVOJLANTIRISHDA QISQA MASOFALI MAKSIMAL YUKLAMALARNING SAMARADORLIGI

B.J. Kadirbaev, U.X.Abdullaeva

O‘zDJTU Nukus filiali "Yakkakurash sport turlari nazariyasi va metodikasi" kafedrasi assistent o‘qituvchisi, O‘zDJTU Nukus filiali talabasi

Email: kadirbaev.b@gmail.com

Kalit so‘zlar: *dzyudo, dzyudochilar, harakat tezligi, tezkorlik, qisqa masofa, maksimal yuklama, yuqori intensivlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, mashg‘ulot samaradorligi.*

Ключевые слова: *дзюдо, дзюдоисты, скорость движений, быстрота, короткая дистанция, максимальная нагрузка, высокая интенсивность, специальная физическая подготовка, эффективность тренировок.*

Keywords: *judo, judokas, movement speed, speed ability, short-distance, maximal load, high intensity, special physical training, training effectiveness.*

Kirish. Dzyudo sportida yuqori natijaga erishish sportchining texnik-taktik mahorati bilan bir qatorda, maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasiga ham bevosita bog‘liq. Ayniqsa, harakat tezligi dzyudochining raqib harakatiga o‘z vaqtida javob berishi, qisqa vaqt ichida qulay pozitsiyani egallashi, hujum yoki qarshi hujumni tez boshlashi hamda texnik usullarni samarali bajarishida muhim ahamiyat kasb etadi. Musobaqa jarayonida bir necha soniya ichida to‘g‘ri qaror qabul qilish va uni tezkor harakat bilan amalga oshirish ko‘pincha kurash natijasini belgilab beradi.

Dzyudochilarning harakat tezligini rivojlantirishda maxsus jismoniy mashqlar, qisqa masofaga yugurish, tezlanish, keskin to‘xtash va yo‘nalishni o‘zgartirish mashqlaridan foydalanish samarali vositalardan hisoblanadi. Qisqa masofali maksimal yuklamalar sportchidan qisqa vaqt davomida maksimal kuch va tezlikni namoyon etishni talab qiladi. Bunday mashqlar asab-mushak tizimining tezkor faoliyatini, harakatlarni muvofiqlashtirishni va portlovchi kuchni rivojlantirishga yordam beradi.

Dzyudochilarning harakatlari oddiy yugurish harakatlaridan farq qilib, ko‘pincha qisqa muddatli, yuqori intensivlikdagi va takroriy xarakterga ega. Shu sababli mashg‘ulot jarayonida tezkorlikni rivojlantirish uchun uzoq davom etadigan yuklamalardan ko‘ra, qisqa davomiylikdagi maksimal yoki maksimalga yaqin intensivlikdagi mashqlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bunda yuklama davomiyligi, takrorlar soni, dam olish oralig‘i va mashqlarni bajarish texnikasini to‘g‘ri belgilash muhim metodik shart hisoblanadi.

Qisqa masofali maksimal yuklamalarni dzyudo mashg‘ulotlariga tizimli ravishda kiritish sportchilarning 5–10–20 metr masofadagi tezlanish qobiliyatini, harakatga javob berish tezligini va maxsus harakatlarni bajarish sur’atini yaxshilashi mumkin. Shu bilan birga, bunday mashqlarni sportchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasi va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish zarur. Haddan tashqari maksimal yuklamalardan noto‘g‘ri foydalanish charchoqning ortishiga va mashq texnikasining buzilishiga olib kelishi mumkin.

iqtidorli sportchilarni, shu jumladan sportchi-ayollarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarda taekvondoning “Pumse” (poomsae) yo‘nalishiga qiziqish uyg‘otish orqali nafas olish, xotira va konsentratsiyani yaxshilash, vestibulyar apparatni chiniqtirish kabi sog‘lomlashtirish ishlarini olib borish, shuningdek, istiqbolda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tizimlashtirish muhimdir. Xususan, taekvondo sport turinirivojlantirish, kerakli infratuzilmani yaratish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Bu esa o‘quv-mashq guruhidagi taekwandochilarni integral tayyorlash dolzarb muammolardan biri hisoblanmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Taekvondo sport mashg’ulotlarini modellashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: taekvondo mashg‘ulotlarini kuzatish va tahlil qilish;

taekvondo sport mashg’ulotlarini modellashtirishda zamonaviy usullardan foydalanish.

Tadqiqot muhokamasi va natijasi. Yuqori malakali taekwandochilarning texnik tayyorgarligi xususiyatlarini boshqa taekvondochilar uchun namunaviy deb hisoblash qabul qilingan. Bunday yondashuv ko‘pincha sport amaliyotida qo‘llaniladi. Shunday qilib, xalqaro musobaqalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshqa omillar bilan bir qatorda eng kuchli kurashchilarning ustunligi bellashuv paytida texnik-taktik harakatlardan muvaffaqiyatli va barqaror foydalanish hamda raqibga bellashuvni olib borishning o‘z uslubini majburan qabul qildira olishdan iborat. Sport kurashlari bo‘yicha eng yirik xalqaro turnirlar g‘oliblari, odatda, eng yaxshi tezlik sifatlariga, hujum harakatlarini amalga oshirishda o‘ta shiddatli bo’lishlari lozim.

Ko‘rinib turibdiki, taekvondochilarning bunday xususiyatlarga erishishi ularning texnik mahoratining o‘sishidagi individual imkoniyatlarini sinchkovlik bilan o‘rganib, olingan ma’lumotlar asosida modellarni tuzish mumkinligi aniqlandi.

Yakkakurashchilarni integral tayyorgarligida harakatli o’yinlarni qo’llash metodikasini ishlab chiqishgan. Shu bilan birga model xususiyatlarini ishlab chiqish yosh va malakani hisobga olgan holda taktik-texnik mahoratni shakllantirishning umumiy qonuniyatlarini nazarda tutishi kerak, degan fikr mavjud edi. Masalan, taekvondoga o‘xshash vaziyatli sport turi dzyudoda u eng kuchli dzyudochilarning mas’uliyatli musobaqalar sharoitida olingan ma’lumotlariga asoslanishi kerakligini takidlashgan. Katta yoshdagi va yuqori mahoratli dzyudochilarning model qiymatlari kichik yoshdagi va past mahoratli dzyudochilar uchun mo‘ljal bo‘lishi mumkinligini ta’kidlab o’tgan. Dzyudochilar musobaqa faoliyati model tavsiflarining uchta darajasi ajratib ko‘rsatilgan: a) minimal-zaruriy: u eng kuchli dzyudochilar guruhida uchraydigan faoliyat ko‘rsatkichlarining minimal sonli qiymatlarini o‘z ichiga oladi; b) modelli - o‘rganilayotgan eng kuchli dzyudochilar guruhining qiymatlari tushadigan ma’lum bir diapazonni nazarda tutuvchi ba’zi bir kattalikni o‘z ichiga oladi; v) maksimal-yetarli - eng kuchli dzyudochilarda uchraydigan ko‘rsatkichning maksimal sonli qiymatini nazarda tutadi.Kuchli taekvondochilarning sifat modelining maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi, chunki ko‘plab sport turlarida ishlab chiqilgan miqdoriy parametrlar ushbu yakkakurash turida olingan ko‘rsatkichlarning katta tarqoqligi tufayli yetarlicha ma’lumotga ega emas.

Xulosa qilish mumkinki, model xususiyatlarini yakkakurashchilarning musobaqa faoliyati ko‘rsatkichlari asosida aniqlash lozim. Buning uchun, mualliflarning fikriga ko‘ra, texnik-taktik mahorat ko‘rsatkichlari, funksional, maxsus tezlik-kuch va boshqalar kabi

xususiyatlar to‘plamini olish kerak. Olingan ko’rsatkichlar asosida keyinchalik mezonlar jadvali ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 3 noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash hamda tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-414-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi “Taekvondo (WT) sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-337-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-iyuldagi PQ-221-son “2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo‘lib o‘tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida” qarori.
4. Волкова Е.В., Волкова Д.Р. Методика развития гибкости у тхэквондистов 7-8 лет. Физическая культура и спорт: наука, практика, образование, 2000. – С.7.
5. Рахматов Б.Ш. Таэквондога хос маневрлар давомида ўнг ва чап оёқ билан ижро этиладиган айрим техник харакатларни шаклланиш суръати “ФАН СПОРТГА” илмий назарий журнал. – Чирчиқ, 2021.-№5. Б. 9-10. [13.00.00 № 16].
6. TursunaliyevU.Sh. Modern stages of development of training preparation in the process of initial taekwondo training // Eurasian Journal of Sport Science. Vol. 1: Iss. 2, Article 7. 2022. P 69-73. [13.00.00 Буйруқ № 01-10/403].

УЎК (УДК, УДС):158;12.56.48

TAEKWANDO MASHG’ULOTLARIDA INTEGRAL TAYYORGARLIKNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

A.D.Yusupov

Qoroqolpoq davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Kalit so‘zlar. *Taekvondo, sensor, sport mashg‘ulotlari, dastur, reja, jismoniy tayyorgarlik, vosita va usullar, tehnik usullar, musobaqa oldi mashg’ulot sikli,umumlashtirilgan sifat modeli, mashg’ulot jarayoni.*

Ключевые слова. *Тхэквондо, сенсорные, спортивные тренировки, программа, план, физическая подготовка, средства и методы, технические приемы, предсоревновательный тренировочный цикл, обобщенная модель качества, тренировочный процесс.*

Keywords*. Taekwondo, sensor, sports training, program, plan, physical training, means and methods, technical techniques, pre-competition training cycle, generalized quality model, training process.*

Dolzarbligi. Mamlakatimizda taekvondo, shu jumladan parataekvondo (WT) bo‘yicha sportchilarni tayyorlash, mashg‘ulotlarini tizimli rejalashtirish, moddiy texnik bazasini shakllantirish va moslashtirish, tayyorgarlik turlarini kompleks tayyorlash kabi ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur sport turiga axloqiy qoidalarning singdirilganligini yoshlar orasida yanada ommalashishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, “taekvondoni o‘qitishning zamonaviy metodikalariga asoslangan ilmiy-uslubiy va o‘quv adabiyotlar bilan ta’minlash hamda tibbiy xizmatni rivojlantirish” kabi vazifalar belgilab berilgan. O’quv-mashq guruhidagi taekvondochilarini ko‘p yillik tayyorlash tizimi, jahon arenalaridagi ayrim muvaffaqiyatlariga qaramasdan, yetarlicha ilmiy asoslangan tadqiqot ishlari mavjud emas. Zamon talabida

sportchilarni tayyorlashda, amaliyotchi-mutaxassislar yakkakurashlarning boshqa turlaridagi maxsus vositalar hamda taekvondoning o‘ziga xos texnik usullarini hisobga olish muhim hisoblanmoqda. O‘quv-mashq guruhidagi taekvondochilarni integral tayyorlashda, O‘zbekistonning o‘ziga xos tomonlarini hamda an’anaviy koreys metodikalariga tayanib mashg‘ulotlar rejalashtirilmoqda. O‘quv-mashq guruhidagi taekvondochilarni integral tayyorgarligini rivojlantirish hamda yosh taekvondochilarni tayyorlash tizimini takomillashtirishda yangi yo‘llarini izlashni taqozo qilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi Taekwando mashg’ulotlarida integral tayyorgarlikni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: taekvondo mashg‘ulotlarini kuzatish va tahlil qilish;

Taekvondochilarni integral tayyorlashda zamonaviy usullardan foydalanish.

Tadqiqot muhokamasi va natijasi. Hozirgi kunda, sportchilar tayyorgarligini boshqarish texnologiyasi ma’lum tarkibiy elementlardan iborat. Jumladan axborotni yig‘ish va tahlil qilish, qaror qabul qilish, ijroni tashkil etish, dasturni nazorat qilish va tuzatish muhim omil hisoblanmoqda. Bu elementlar bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi va bir-birini to‘ldiradi hamda butun tizimning samarali ishlashiga yordam beradi. Ko‘p yillik tayyorgarlik tuzilmasi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi: a) taekwandochilar musobaqa faoliyati va tayyorgarligi tuzilmasi; b) sport mahoratining shakllanish qonuniyatlari; v) shug’ullanuvchi organizmining mazkur sport turi uchun yetakchi funksional tizimlarida adaptatsion jarayonlarning shakllanish qonuniyatlari; g) taekwandochilarning individual va jinsiy xususiyatlari hamda ularning biologik yetilish sur’atlari; d) tayyorgarlik vositalari va uslublari tarkibi, mashg‘ulot yuklamalari dinamikasi bilan ifodalnadi.

Taekwandochilarni tayyorlashning zamonaviy nazariyasida ilgari mavjud bo‘lgan yondashuvlardan farqli o‘laroq, sport musobaqalari va musobaqa faoliyati nazariyasi sport mashg‘uloti nazariyasining tabiiy davomi emas. Balki unga nisbatan butun tayyorgarlik tizimining tuzilishi va mazmunini oldindan belgilaydigan birlamchi tizim hosil qiluvchi omil sifatida, shu jumladan tayyorgarlik jarayoni va musobaqa faoliyati samaradorligini oshiradigan mashg‘ulotdan va musobaqadan tashqari omillardan foydalanish sifatida namoyon bo‘ladi.

10-12-yoshli taekwandochilarni egiluvchanlik qobiliyatini maxsus vositalar orqali rivojlantirish metodikasidan foydalaniladi. Shu bilan birga, taekwandochi tayyorgarligining har bir tomoni (texnik, jismoniy, taktik, psixologik, intellektual) odatda tor yo‘naltirilgan vositalar va usullar bilan shakllantiriladi ya’ni integral tayyorlashni tavsiya qilindi. Bu shunga olib keladiki, trenirovka mashqlarida namoyon bo‘ladigan ayrim sifatlar, qobiliyat va malakalar ko‘pincha musobaqa mashqlarida namoyon bo‘la olmaydi. Shuning uchun, har qanday sport turida, sport mahoratini egallash va takomillashtirishning eng muhim omillaridan biri musobaqa mashqining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda turli xil sifatlar va qobiliyatlarni bir butun qilib sintez qilish yoki birlashtiriladi.

Tahliliy xususiyatga ega bo‘lgan va tuzilishi bo‘yicha har doim ham musobaqa faoliyatining o‘ziga xos talablariga to‘liq javob bermaydigan tor yo‘naltirilgan vositalarni qo‘llash bilan ta’minlanadigan tayyorgarlikning turli jihatlari, sifatlari va qobiliyatlarini mashg‘ulot va musobaqa faoliyati sharoitida birlashtirish, muvofiqlashtirish va amalga oshirishga qaratilgan jarayonni tushunish kerak.

Sport tayyorgarligi jarayonini (ma’lum darajada shartli ravishda) analitik va integral kabi ikki qismga bo‘lish mumkin. Tahliliy qismda tayyorgarlik u yoki bu tayyorgarlik

komponentlarini takomillashtirishga ustuvor yo‘naltirilgan turli mashqlarni bajarish orqali amalga oshiriladi degan xulosaga kelindi. Tayyorgarlikning integral qismida tanlangan sport turida mahoratni egallash va shakllantirish amalga oshirilishi eng samarali metodika ekanligini ilmiy asoslab berildi.

Xulosa qilib aytganda o‘g‘uv mashq guruhidagi taekvondochilarni integral tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi ularni xalqaro musobaqalarga tizimli tayyorlashga xizmat qilishi tahlillarimiz davomida aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 3 noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash hamda tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-414-sonli qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi “Taekvondo (WT) sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-337-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-iyuldagi PQ-221-son “2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo‘lib o‘tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida” qarori.
4. Волкова Е.В., Волкова Д.Р. Методика развития гибкости у тхэквондистов 7-8 лет. Физическая культура и спорт: наука, практика, образование, 2000. – С.7.
5. Рахматов Б.Ш. Таэквондога хос маневрлар давомида ўнг ва чап оёқ билан ижро этиладиган айрим техник харакатларни шаклланиш суръати “ФАН СПОРТГА” илмий назарий журнал. – Чирчиқ, 2021.-№5. Б. 9-10. [13.00.00 № 16].
6. TursunaliyevU.Sh. Modern stages of development of training preparation in the process of initial taekwondo training // Eurasian Journal of Sport Science. Vol. 1: Iss. 2, Article 7. 2022. P 69-73. [13.00.00 Буйруқ № 01-10/403].

ZAMONAVIY INSONNING TANANI OPTIMALLASHTIRISHNING MA’NOSI: INSON TANLOVLARI ORQASIDAGI EPIGENETIK ASOSLAR VA OPTIMAL YECHIMLAR

Seyilxanov Niyetbay Amirxan uli
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali Taekvando WT yo‘nalishi
3- kurs talabasi seyilxanovniyetbay@gmail.com

Kalit so‘zlar. *Epigenetika, uzoq umr, sog‘lom turmush tarzi, erkin hayot,telomerlar, stress biologiyasi, optimalmuvozanat, jismoniy faollik, inson tanlovlari.*

Kirish. Zamonaviy inson turmush tarzining eng katta savollaridan biri – “Uzoq yashagan ma’qulmi yoki o‘z xohishiga ko‘ra cheklanmagan tarzda qisqa umr ko‘rgan ma’qulmi?” Bu savol bir qarashda shaxsiy falsafiy tanlovdek tuyuladi, ammo ilmiy izlanishlar bu qaror epigenetik jarayonlar orqali tanamizda qanday iz qoldirishini ko‘rsatib beradi. Epigenetika inson genlarining faoliyati turmush tarzi orqali qanday boshqarilishini o‘rganuvchi fan bo‘lib, u bizning hayot davomiyligimizni shakllantiruvchi eng asosiy mexanizmlardan biridir. Bugungi kunda ko‘plab tadqiqotlar, o‘z xohishiga ko‘ra cheklanmagan tarzda yashash ham doimo sifatli hayotni ta’minlamaydi haddan tashqari sog‘lom turmush tarzi esa insonda psixologik bosim yaratishini ko‘rsatmoqda. Demak, optimal javob ikki ekstremum orasidagi muvozanatda joylashgan. Shu bilan birga, jamiyatda “tanani optimallashtirish — o‘zini

qiynash” degan noto‘g‘ri qarashlar mavjud bo‘lib, bu maqola ana shu stereotiplarni ilmiy yondashuv orqali izohlaydi.

Epigenetik nazariya va inson tanlovlarining biologik asosi epigenetika shuni ko‘rsatadiki, insonning genetik kodi tug‘ilishda ma’lum bo‘lsa-da, uning qanday ishlashi butun umr davomida turli omillar orqali o‘zgarib boradi. Bu jarayon "epigenetik belgilar" deb ataluvchi molekulyar o‘zgartirishlar bilan boshqariladi. Masalan, stress gormonlarining yuqori darajasi qarish genlarini faollashtirishi mumkin, bu esa tananing tezroq eskirishiga olib keladi. Aksincha, muntazam jismoniy harakat tiklanish va hujayra regeneratsiyasini kuchaytiruvchi genlarni faollashtiradi. Oddiy qilib aytganda, inson har kuni qilayotgan odatlari orqali genlarining qaysi yo‘l bilan ishlashini “yo‘lga qo‘yadi”. Bu nazariya shuni ko‘rsatadiki, erkin hayot tanlovlari ham, sog‘lom turmush tarziga asoslangan intizom ham tanamizda iz qoldiradi, lekin ular izining sifati farq qiladi.

Sport va turmush tarzidagi paradokslar. Sport ko‘pincha uzoq umrning asosi sifatida targ‘ib qilinsa-da, tadqiqotlar sportning o‘zi ham paradokslardan xoli emasligini ko‘rsatadi. Me’yoriy jismoniy faoliyat yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi, metabolizmni tiklaydi va telomer qisqarish jarayonini sekinlashtiradi. Ammo professional darajadagi haddan tashqari yuklama teskari natija berishi, ya’ni bo‘g‘imlarda eskirish,yurak mushaklarining ortiqcha qo‘zg‘alishi va jarohatlar orqali stress darajasining oshishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, sport — umrni uzaytiruvchi vosita sifatida faqat me’yor bilan qo‘llanganda foydali bo‘ladi. Masalan, ko‘p yillik fast-food iste’moli yallig‘lanish genlarini faollashtiradi va tana doimo “ichki stress” holatida yashay boshlaydi. Bu esa diabet, semirish va yurak kasalliklariga olib keladi. Aksincha, kuniga 10–15 daqiqa tabiatda yurish stress gormonlarini pasaytiradi va epigenetic markerni yaxshilaydi. Uyquning yetishmasligi qarish tezlashuvi bilan bog‘liq bo‘lib, bir necha kecha kam uxlagan odamning epigenetik soati haqiqiy yoshidan bir necha oy oldinga o‘tib ketishi mumkinligi aniqlangan. Demak, bizning juda oddiy odatlarimiz ham kelajakdagi hayot sifatimizni keskin o‘zgartiradi.

Metodologiya.Ushbu tadqiqot ochiq So‘rovnoma shaklida o‘tkazildi. So‘rovnoma mobil telefon orqali to‘ldirildi va unda 18–40 yosh oralig‘idagi, turli sohalarda ishlovchi 25 nafar ishtirokchi qatnashdi. So‘rovnoma yurtimizdagi oliy oqiv yurtlarida otkazildi hsusan NDPI(NMPI), QDU(QMU), MED INSITUT, UZDJTSUNF binosinda boldik. Ishtirokchilar ichida o‘qituvchilar, tadbirkorlar, talabalar, sport bilan shug‘ullanuvchilar va ofis xodimlari mavjud bo‘lib, bu tanlov turli turmush tarziga ega odamlarning fikrini solishtirish imkonini berdi.

Uchta asosiy savol berildi:

1. “Siz uchun sog‘lom turmush tarzi nimaga o‘xshaydi?” — bu savol orqali odamlarning sog‘lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlari, me’yor haqidagi tushunchalari va kundalik odatlari o‘rganildi.
2. “Inson o‘z hayotidan qayerda ko‘proq pushaymon bo‘ladi deb o‘ylaysiz?” — ushbu savol odamlarning hayotdagi afsuslanishlari, kechikkan tanlovlar va psixologik bosim sabablarini aniqlashga qaratildi.
3. “Sizningcha, hayotning qaysi jihati umr davomiyligidan muhimroq?” — mazkur savol yordamida respondentlarning “hayot sifati”, “erkinlik”, “stress darajasi” va “shaxsiy baxt” kabi omillarga bo‘lgan munosabati tahlil qilindi.

Olingan javoblar umumiy mavzular bo‘yicha guruhlab chiqildi va foizlarda ifodalanib tahlil qilindi. So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, ishtirokchilarning 80% ga yaqini “to‘liq

sog‘lom turmush tarziga qat’iy amal qilishdan ko‘ra, oz bo‘lsa ham erkin yashashni afzal ko‘radi.” Bu esa mavzuning dolzarbligini, zamonaviy insonning sog‘lomlik va erkinlik orasidagi ichki ziddiyatini yaqqol namoyon etadi.



1-rasm



2-rasm



3-rasm



4-rasm

Natijalar va tahlil:Tadqiqot natijalari zamonaviy insonning sog‘lom turmush tarzi, erkinlik va hayot sifati haqidagi qarashlari bir xil emasligini, aksincha, murakkab psixologik va ijtimoiy omillar bilan shakllanishini ko‘rsatdi. Ochiq So‘rovnoma orqali olingan javoblar uchta asosiy mavzu bo‘yicha umumlashtirildi va har birining ichki tendensiyalari tahlil qilindi.

“Siz uchun sog‘lom turmush tarzi nimaga o‘xshaydi?”

Savolining natijalari :Ishtirokchilarning javoblari sog‘lom turmush tarziga bir xil ta’rif yo‘qligini ko‘rsatdi. Javoblar quyidagi guruhlarga bo‘lindi:


• 36% ishtirokchilar sog‘lom turmush tarzini “me’yorni saqlash, o‘zimni qiynamagan holda sog‘lom yashash” deb ta’rifladi. Bu guruh uchun sog‘lom hayot – intizom emas, balansdir.

• 28% ishtirokchilar sog‘lom turmush tarzini sport, toza ovqatlanish va tartibli uyqu orqali ta’riflagan. Ular ko‘proq klassik “sog‘lom turmush tarzi” mezonlarini keltirgan.

• 24% ishtirokchilar sog‘lom hayotni stressdan uzoq turish bilan bog‘ladi. Ular uchun ruhiy osoyishtalik jismoniy sog‘liqdan ham muhimroq.

• 12% ishtirokchilar sog‘lom turmush tarziga umuman e’tibor bermasligi, uni “hozirgi paytning o‘zi bilan yashash” deb bilishini ta’kidladi.

Tahlil:Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom turmush tarzi ko‘pchilik uchun qattiq qoida emas, balki psixologik va jismoniy me’yor o‘rtasidagi shaxsiy tenglikdir. Zamonaviy inson sog‘lom bo‘lishni istaydi, ammo ortiqcha cheklovlarni qabul qilmaydi. Bu epigenetik nuqtayi nazardan qaraganda ham mantiqli, chunki haddan tashqari intizom ham stressni oshirib tanaga salbiy ta’sir qiladi.



1-grafik

2. “Inson o‘z hayotidan qayerda ko‘proq pushaymon bo‘ladi?” Savolining natijalari

Javoblar 3 asosiy kategoriya bo‘yicha to‘plandi:

• 44% ishtirokchilar “sog‘lig‘imga vaqtida e’tibor bermaganman” deya javob berdi. Bu natija epigenetik jihatdan muhim: odamlar odatda salbiy o‘zgarishlar boshlanganidan keyin pushaymon bo‘lishadi.


• 32% ishtirokchilar “erkinligimni cheklab yashaganman” deb aytdi. Ularga ko‘ra, jamiyat bosimi, ish bosimi yoki oila talablari sabab o‘z xohishlarini qila olmaganlik eng katta afsusdir.

• 24% ishtirokchilar “hayot sifatini emas, faqat umrni uzaytirishni maqsad qilganman” deb ko‘rsatdi. Ya’ni, ular umrning necha yil yashalgani emas, qanday yashalgani muhimligini tan oldi.

Tahlil:Bu natijalar ikki asosiy haqiqatni ko‘rsatadi:

1. Odamlar sog‘lik ketgandan keyin emas, vaqtida qadrlanishi kerakligini tushunmoqda.
2. Erkinlik inson uchun fiziologik ehtiyoj darajasidagi qadriyatga aylanib bormoqda.

Epigenetika bo‘yicha ma’lumki, surunkali pushaymonlik va afsuslanish stress gormonlari ishlab chiqarilishini oshiradi va qarishni tezlashtiradi. Demak, odamlarning javoblari ilmiy izlanishlar bilan to‘liq mos keladi.



2-grafik

3. “Umr davomiyligidan ham muhimroq narsa bormi?” Savolining natijalari

Natijalar quyidagicha:

• 52% ishtirokchilar “hayot sifati va baxt hissi” umr davomiyligidan muhimroq ekanini aytgan.

• 20% ishtirokchilar “erkinlik”ni eng asosiy boylik sifatida ko‘rsatdi.

• 16% ishtirokchilar “ruhiy osoyishtalik”ni eng yuqori qadriyat deb belgiladi.

• 12% ishtirokchilar umr davomiyligi ham eng katta ustuvorlik deb hisoblagan.

Tahlil:Bu natija juda muhim: zamonaviy insonning qadriyatlari o‘zgarmoqda. Hayotning sifati, ma’nosi, ichki erkinlik — biologik umrga nisbatan ahamiyatliroq bo‘lib bormoqda. Odamlar endi “100 yil yashash” g‘oyasidan ko‘ra “50 yilda sifatli yashash” tamoyiliga yaqin turibdi.


Bu epigenetik jihatdan asosli:

– baxt gormonlari immunitetni oshiradi,

– ruhiy barqarorlik yallig‘lanishni kamaytiradi,

– ijobiy emotsiyalar telomerlarni sekin qisqartiradi.

Demak, odamlarning tanlovi biologik mexanizmlar bilan uyg‘un



3-grafik

4. Umumiy xulosa: 80% odamning “erkinlikni tanlashi” nimani anglatadi?

So‘rovnoma natijalarida eng e’tiborga molik ko‘rsatkich:

Ishtirokchilarning 80% ga yaqini “cheklovsiz, erkin yashashni afzal ko‘raman” deb javob bergan

Bu ko‘rsatkich mavzuning dolzarbligini isbotlab beradi va quyidagi haqiqatni ochadi:

• Insonlar tabiiy ravishda o‘z xohishiga ko‘ra yashashni eng asosiy psixologik ehtiyoj deb biladi.

• Qattiq dieta, qat’iy qoidalar, muntazam o‘zini majburlash stressni oshiradi — odamlar buni sezadi.

• “sog‘lomlik uchun o‘zimni qiynash” modeli zamonaviy odamga mos emas.

• Insonlar “o‘rta yo‘l”, “muvozanat” modelini afzal ko‘rmoqda.

Epigenetik nuqtayi nazardan bu oqilona tanlovdir: ortiqcha cheklov — stress; ortiqcha erkinlik — nosog‘lomlik. Odamlar bu ikki ekstremum orasidagi eng tabiiy yo‘lni his qilmoqda.

“Erkin Yashash”ning biologik narxi: Ko‘plab insonlar “hayot bir marta beriladi, xohlaganimni qilaman” degan shior bilan yashashni afzal ko‘radi. Biroq ilmiy izlanishlar ko‘rsatadiki, zararli odatlar nafaqat umrni qisqartiradi, balki hayot sifatini ham keskin pasaytiradi. Masalan, muntazam chekish 20 yilga yaqin umrni qisqartirgani bilan birga, nafas yetishmovchiligi, jismoniy cheklovlar va doimiy charchoq keltiradi. Bu esa erkinlikni amalda imkonsiz qiladi. Shuningdek, haddan tashqari erkin ovqatlanish, uyqusizlik va stress yuqori bo‘lgan hayot davomida inson bir vaqtning o‘zida “erkin” bo‘lib yashaydi, lekin biokimyoviy jihatdan o‘z tanasini cheklovlarga mahkum etadi. Natijada erkinlikning narxi sifatli hayotni yo‘qotish bo‘ladi.

Optimal yechim: erkinlik va uzoq umr o‘rtasidagi muvozanat. Epigenetik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson uchun eng to‘g‘ri yo‘l – bu ikki ekstremum orasidagi muvozanatdir. Haddan tashqari cheklangan asketik hayot psixologik bosimni kuchaytiradi,

ortiqcha stress esa epigenetik darajada salbiy o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Boshqa tomondan, me’yorni bilmaydigan erkin hayot ham salbiy oqibatlarga olib keladi. Optimal model shundan iboratki, inson o‘ziga yoqadigan, lekin organizmga zarar yetkazmaydigan odatlarni shakllantirishi lozim. Masalan, dam olish kunlari do‘stlar bilan uchrashish, sevimli ovqatlarni haftada bir marta tanlash epigenetik sog‘liqni saqlab turadi.

Xulosa Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sog‘lom turmush tarzi va hayot mazmuni haqidagi tushunchalar odamlarning yoshi, kasbi va kundalik hayot tarzi bilan bevosita bog‘liq. Respondentlarning aksariyati sog‘lom hayotni faqat jismoniy faollik bilan emas, balki ruhiy barqarorlik, oila bilan iliq munosabatlar va shaxsiy rivojlanish bilan ham bog‘liq holda tasvirladi. Pushaymonlikka sabab bo‘ladigan omillar ham ko‘proq vaqtni qadrlamaslik, sog‘liqni e’tiborsiz qoldirish va yaqin insonlar bilan munosabatlarga yetarlicha ahamiyat bermaslik bilan bog‘liq ekanligi qayd etildi.

Eng qiziqarli jihat shundan iboratki, respondentlar umr davomiyligi ko‘proq emas, balki umrning mazmuni, ya’ni hayotga qo‘shgan qiymat, insonning o‘zini namoyon etish imkoniyatlari va hayot sifatini ustuvor deb hisobladilar. Bu esa shuni anglatadiki, zamonaviy insonlar o‘z hayotini nafaqat saqlab qolish, balki uni boyitish, mazmunli va qadrli qilish tarafdori.

Tadqiqotning umumiy natijalari shuni tasdiqlaydiki, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish faqat jismoniy mashqlar emas, balki ongli tanlovlar, hissiy farovonlik, to‘g‘ri ustuvorlik va vaqtni qadrlash malakasini o‘z ichiga oladi. Shu bois, jamiyatda sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha tashabbuslarni kuchaytirish, ayniqsa yoshlar orasida ongli hayot tarzini rivojlantirish bo‘yicha ishlarga ehtiyoj mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Olimov, B.** “Sog‘lom turmush tarzi tushunchasi va uning jamiyatdagi o‘rni.” *O‘zbekiston Milliy Axborot Agentligi (UzA)*. Manba:https://uza.uz/uz ,Sog‘liqni saqlash bo‘limi, 3–4-bet.
2. **Xudoyqulov, A.** “Ruhiy salomatlik va hayot sifati o‘rtasidagi bog‘liqlik.” *Ziyonet Elektron Kutubxonasi.* Manba: https://ziyonet.uz,Ilmiy maqolalar → Psixologiya, 22-bet.
3. **Raxmonova, M.** “Oila muhitining shaxs farovonligiga ta’siri.” *O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi maqolalar to‘plami.* Manba: https://academy.uz Jild 14, 5-bet.
4. **Jahongirov, Sh.** “Yoshlar orasida sog‘lom hayot tarzini shakllantirishning ijtimoiy omillari.” *Ma’rifat gazetasi.*Manba: https://marifat.uz 7-son, 48-bet.
5. **Turg‘unov, U.** “Umr davomiyligi va hayot mazmuni: zamonaviy yondashuvlar.” *O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar jurnali.* Manba: https://journal.uz Jild 6, №2, 11-bet.
6. **Butun dunyo sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO).** “Healthy Lifestyle Guidelines.”Manba: https://www.who.int Health Topics → Healthy Living,4-bet.
7. **Brown, T.** “Life Regret Patterns: A Psychological Overview.” *Psychology Today.*Manba: https://www.psychologytoday.com ,Personal Growth, 2-bet.

IV SEKCIYA. MILLIY, OLIMPIYA HÁM PARALIMPIYA SPORT TÚRLERI BOYÍNSHA QÁNIGELERDI TAYARLAWDÍŃ MEDICINALÍQ-BIOLOGIYALÍQ, PEDAGOGIKALÍQ HÁM SOCIALLÍQ-PSIXOLOGIYALÍQ MASHQALALARÍ HÁM SHESHIMLERI

STUDENTLERDIŃ DENE TÁRBIYASINDA SALAMATLÍQTÍ SAQLAW TEXNOLOGIYALARÍN QOLLANÍW

Seytmuratov Timur Shamshetovich
ÓzMDTSUNF "Sport oyınları teoriyası hám metodikası" kafedrası baslıǵı, p.i.b.f.d (PhD) docent
Yusupbaeva Barshınay Dawletbay qızı ÓzMDTSUNF 3-kurs studenti


Tayanısh sózler: *studentler, salamatlıq, salamatlıqtı saqlaw texnologiyaları, dene tárbiyası boyınsha óz betinshe shınıǵıwlardı shólkemlestiriw.*

Kirisiw. Salamatlıq — insan ómiri hám miynet qábiletiniń eń áhmiyetli quramlıq bólimlerinen biri. Bolajaq qánigeniń hár qanday tarawdaǵı kásiplik jumısınıń tabısı salamatlıq dárejesine baylanıslı.

Dene tárbiyasınıń tiykarǵı wazıypalarınan biri joqarı oqıw ornında aqılıy zorıǵıw dáwirinde studentlerdiń densawlıǵın saqlaw hám bekkemlew bolıp esaplanadı. Studentler kúnine 6-8 saattı lekciya, ámeliy hám laboratoriya sabaqlarında otırǵan halda ótkeredi. Óz betinshe islew hám seminar sabaqlarına tayarlıq kóriw jáne keminde 3-4 saat kompyuterde islewdi talap etedi. Bulardıń barlıǵı, birinshi gezekte, tayanısh-qozǵalıs apparatı hám kóriw organlarına unamsız tásir kórsetedi.

Ilimpazlar A.YU.Xoroshev, G.I.Kopeykina, V.N.Krutov, V.I.Shavinckiy, I.E.Aryaxova studentler salamatlıǵı buzılıwınıń sebep-aqibet baylanısları sxemasın usınıs etken (1-súwrette).

Ádebiyatlar analizi. Ilimiy-metodikalıq ádebiyatlarda studentlerdi salamat turmıs tárizine tartıw boyınsha túrli ilajlar usınıs etiledi. Biraq, usınıs etilip atırǵan ilajlardıń kópshiligi háreket aktivligi hám fizikalıq tárbiya menen emes, al zıyanlı ádetlerdiń aldın alıw, minez-qulqı, gigiena hám basqalar menen baylanıslı. Salamat turmıs tárizine tartıw hám keselliklerdiń aldın alıwdıń eń nátiyjeli quralı bolsa salamatlandırıwshı dene tárbiyası quralları bolıp tabıladı.



1-súwret - Studentler salamatlıǵınıń buzılıwı

Búgingi kúnde densawlıǵında nuqsanı bolǵan adamlardıń sanı júdá kóp ekenligi hám bilim alıwshılardıń salamatlıq dárejesi tolıq medicinalıq qadaǵalawdan ótkerilmegeni sebepli,

balalar baqshasınan baslap joqarı oqıw orınlarına shekemgi barlıq bilimlendiriw mákemelerinde dene tárbiyası shınıǵıwların ótkeriw metodikasın qayta kórip shıǵıw zárúr. Studentlerge óz organizminiń individual ózgesheliklerin esapqa alǵan halda salamatlıqtı saqlaw hám bekkemlew ushın turmıslıq zárúr bolǵan háreket kónlikpeleri hám dene tárbiyası qurallarınan erkin paydalanıw kónlikpelerin úyretiw zárúr.

Studentleri arasında ótkerilgen sorawnamada futbol qánigeligi boyınsha ótkerilgen izertlew sonı kórsetti, studentlerdiń 73 procentinde kóriw qábileti buzilgan, 39 procenti bolsa oqıw dawamında kórsetkishlerdiń sezilerli dárejede jamanlasqanlıǵın atap ótildi. 52% studentler qáddi-qáwmetleriniń qıysıqlıǵın, 47% dize buwınlarında mashqalalar hám túye tabanlıq anıqlandı.

Mashqala sonda anıqlandı, bir tárepten, studentler gipodinamiyadan azap shegedi hám háreket aktivligin arttırıw zárúr bolsa, ekinshi tárepten, háreket aktivligi hám fizikalıq kúshleniwdi sheklewge mútáj bolǵan kóplegen jaslar bar.

Izertlew nátiyjeleri. Pedagogikalıq tájiriybe 2025-jıl sentyabr ayınan 2026-jıl may ayına shekem dawam etti. Birinshi basqıshta (sentyabrden noyabrge shekem) dene tárbiyası boyınsha ámeliy sabaqlarda studentler densawlıqtı saqlaw texnologiyaları: dem alıw gimnastikası, emlew gimnastikası hám fitnes quralları menen tanısıp, olardı ózlestirdi. Bunıń ushın hár bir shınıǵıwda 15-20 minut waqıt ajıratıldı.

Noyabr ayınıń aqırında (ekinshi basqıshta) studentlerge óz salamatlıq dárejesin anıqlaw testinen ótiw hám juwmaq shıǵarıw usınıs etildi. Tapsırmanı barlıq studentler orınladı.

Sońınan, óz densawlıǵındaǵı tiykarǵı awısıw xarakteri hám fizikalıq júkleme hám háreket aktivligin qollanıw boyınsha shıpakerlerdiń usınısları menen óz betinshe tanısıw usınıs etildi. Eger studentte hesh qanday ózgerisler anıqlanbaǵan bolsa, onda ol óziniń jas kategoriyasındaǵı test kompleksi talapları menen tanısıwı kerek edi.

Bunnan keyin studentlerge konspekt-reje dúziw usınıs etildi. Sabaq 80 minutlıq háreket iskerligine mólsherlengen óz betinshe shınıǵıw, yaǵnıy 15-20 minutlıq ulıwma fizikalıq rawajlandırıwshı shınıǵıwlar, 20-25 minutlıq kúshke baǵdarlanǵan shınıǵıwlar hám 30-35 minutlıq salamatlandırıwǵa qaratılǵan shınıǵıwlar.

Alınǵan bilim hám kónlikpelerdiń ózlestiriliw nátiyjeliligin tekseriw maqsetinde (úshinshi basqısh) aralıqtan texnologiyalar járdeminde baqlaw sabaǵı ótkerildi. Hár bir student jeke ózgesheliklerin esapqa alǵan halda sabaqta óz betinshe ótkeriwi, júrek urıw tezligin qadaǵalaw ólshemlerin orınlawı, videoǵa túsirip alıp, oqıtıwshıǵa jiberiwi kerek. Studentlerdiń 43 procenti tapsırmanı «ayrıqsha,» 36 procenti «jaqsı,» 21 procenti «qanaatlandırarlı» bahaǵa orınlaǵan.

Juwmaqlaw: Studentlerdiń dene tárbiyası olardıń densawlıǵın saqlaw hám bekkemlewge baǵdarlanǵan bolıwı kerek. Oqıw procesinde studentlerge dene tárbiyası boyınsha óz betinshe shınıǵıwlarda salamatlıqtı saqlaw texnologiyalarınan paydalanıwdı úyretiw zárúr. Densawlıǵında kemshiligi bolǵan studentlerdi dene tárbiyasınan pútkilley azat etiw usınıs etilmeydi. Zamanagóy informaciya texnologiyaları óz betinshe shólkemlestirilgen shınıǵıwlardıń orınlanıwın qadaǵalaw imkaniyatın beredi. Alınǵan kónlikpe hám tájiriybeler keleshekte bolajaq qánigelerge óz salamatlıǵın saqlaw hám bekkemlewde payda beredi.

PAYDALANÍLǴAN ÁDEBIYATLAR

1. Исмагилов Д.К., Атаев О.Р. Исследование практического занятия по физическому совершенствовании студентов на основе системы кросс фит. Молодой ученый№21.-2016.-С. 970-972.

2.Исмагилов Д.К. Разработка методов оптимизации физического совершенствования студентов на основе спортивно-ориентированного физического воспитания. Дисс. док.философии (PhD). Чирчик. 2018.-160 с.

3. Кошбахтиев И.А., Исмагилов. Д.К. Круговой метод как эффективная организационно-методическая форма проведения практических занятий. Ташкент. 2014.-С. 124-125.

4. Доровских И.Г. Организация занятий по физическому воспитанию студентов на основе здоровьесберегающих технологий // Вестник Шадринского государственного педагогического института. - 2015. - № 1 (25). - С. 36-41.

5. Доровских И.Г., Владимиров Н.М., Иванов О.Н. Готовность будущих педагогов к применению здоровьесберегающих технологий в процессе физического воспитания студентов // Международный журнал экспериментального образования. - 2020. - № 2. - С. 10-14.

ICHKI MOTIVATSIYA ASOSIDA O‘QUVCHILARNING JISMONIY FAOLLIKKA BARQAROR QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH

Embergenov Zaripbay Uzakbergenovich
Osiyo xalqaro universiteti magistranti
zaripbayembergenov@gmail.com

Kalit so‘zlar: *ichki motivatsiya, jismoniy faollik, maktab o‘quvchilari, barqaror qiziqish, avtonomiya, kompetentlik, ijtimoiy tegishlilik, individual progress.*

Kirish. Jismoniy faollikka barqaror qiziqish maktab yoshida sog‘lom turmush odatlarini shakllantirishning muhim omillaridan biridir. O‘quvchi faqat jismoniy tarbiya darsida emas, maktabdan tashqari vaqtda ham faol bo‘lishni istasa, jismoniy faollik kundalik hayotning tabiiy qismiga aylanadi. Bunday barqarorlikni faqat tashqi nazorat yoki baho bilan ta’minlash qiyin, chunki nazorat yo‘qolganda faoliyatga qiziqish ham kamayishi mumkin.Ichki motivatsiya o‘quvchining faoliyatni tashqi mukofot uchun emas, uning o‘zidan zavq olish, qiziqish, o‘zini rivojlantirish yoki kompetent his qilish uchun bajarishini anglatadi. Jismoniy tarbiya darsida ichki motivatsiya shakllansa, o‘quvchi mashqni majburiyat emas, o‘z ehtiyojiga mos faoliyat sifatida qabul qila boshlaydi.Jismoniy faollikning sog‘liq uchun foydasi haqida ma’lumot berish muhim, biroq bilimning o‘zi doimo barqaror xulq-atvor hosil qilmaydi. O‘quvchi faoliyatni yoqtirmasa, o‘zini boshqalar bilan solishtirib doimiy muvaffaqiyatsizlik his qilsa yoki darsni faqat baholash vaziyati sifatida qabul qilsa, nazariy bilim uning faol bo‘lish istagini yetarli darajada kuchaytirmasligi mumkin.Shu sababli jismoniy tarbiya jarayonida o‘quvchining ichki motivatsion ehtiyojlariga e’tibor berish zarur. Tanlov imkoniyati, shaxsiy progressni ko‘rish, o‘zini qobiliyatli his qilish, guruhda qabul qilinish va harakatdan zavq olish kabi omillar uzoq muddatli qiziqishning muhim asosidir.Tezisning maqsadi ichki motivatsiya asosida o‘quvchilarning jismoniy faollikka barqaror qiziqishini shakllantirishning asosiy pedagogik mexanizmlari va shartlarini tahlil qilishdan iborat [1].

Ichki motivatsiyaning pedagogik mazmuni. Ichki motivatsiya pedagogik jarayonda o‘quvchining faoliyatni o‘z xohishi va qiziqishi bilan davom ettirishini ifodalaydi. Bunda asosiy rag‘bat tashqi baho yoki mukofot emas, balki faoliyatning o‘zi beradigan ijobiy tajriba hisoblanadi.Jismoniy tarbiya darsida ichki motivatsiya o‘quvchining mashq qilishga qiziqishi, yangi harakatni o‘rganishga intilishi, o‘z natijasini yaxshilashdan zavq olishi va darsdan tashqari vaqtda ham faol bo‘lish istagida namoyon bo‘lishi mumkin.Ichki motivatsiya birdaniga

paydo bo‘lmaydi. U o‘quvchining ko‘p marta ijobiy tajriba olishi, o‘zini kompetent his qilishi va faoliyat ustidan ma’lum darajada nazoratga ega bo‘lishi orqali shakllanadi.Pedagogning vazifasi o‘quvchini majburlab motivatsiyalash emas, balki ichki qiziqish paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan muhit yaratishdir. Bunday muhitda talab saqlanadi, lekin o‘quvchi o‘zini faqat buyruqni bajaruvchi emas, faol ishtirokchi sifatida his qiladi [2].

Avtonomiya va tanlov imkoniyati. Ichki motivatsiyaning muhim omillaridan biri avtonomiya hissidir. O‘quvchi faoliyatning ayrim jihatlarini o‘zi tanlay olsa, mashg‘ulotga nisbatan shaxsiy javobgarlik va qiziqish kuchayadi.Tanlov haddan tashqari keng bo‘lishi shart emas. Masalan, chidamlilikni rivojlantirish uchun yengil yugurish, tez yurish yoki estafeta variantidan birini tanlash; kuch mashqlarida ikki murakkablik darajasidan birini tanlash yetarli bo‘lishi mumkin.Tanlovning barcha variantlari darsning pedagogik maqsadiga xizmat qilishi kerak. Erkinlik tartibsizlikni anglatmaydi. O‘qituvchi maqsad va xavfsizlik chegaralarini belgilaydi, o‘quvchi esa shu doirada o‘ziga mos variantni tanlaydi.Avtonomiya ayniqsa o‘smirlik davrida muhim. O‘quvchi qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lsa, mashg‘ulotni tashqi bosim emas, shaxsiy tanlov sifatida qabul qilishi ehtimoli ortadi.O‘quvchi jismoniy faoliyatda o‘zini qobiliyatli his qilsa, unga bo‘lgan qiziqish barqarorroq bo‘ladi. Doimiy muvaffaqiyatsizlik esa faoliyatdan chetlashish va “men sportga yaramayman” degan qat’iy tasavvur shakllanishiga olib kelishi mumkin.Kompetentlik hissi uchun vazifa qiyinligi to‘g‘ri tanlanishi kerak. Juda oson mashq qiziqishni pasaytiradi, haddan tashqari qiyin mashq esa muvaffaqiyatsizlik ehtimolini oshiradi.

Eng maqbul vazifa o‘quvchining hozirgi imkoniyatidan biroz yuqori, lekin erishish mumkin bo‘lgan darajada bo‘lishi lozim.Individual progressni ko‘rsatish o‘quvchida kompetentlik hissini mustahkamlaydi. Masalan, yugurish davomiyligining oshishi, harakat texnikasining yaxshilanishi yoki koordinatsion topshiriqdagi xatolar kamayishi o‘z-o‘ziga nisbatan ijobiy bahoni kuchaytiradi.O‘qituvchi qayta aloqani konkret qilib berishi kerak. “Yaxshi ishlading” degan umumiy fikrdan ko‘ra “bugun harakatni oldingidan ancha nazoratli bajarding” kabi qayta aloqa o‘quvchiga aynan nimada rivojlanganini anglatadi.O‘quvchining guruhda qabul qilinganini his qilishi ichki motivatsiyaga sezilarli ta’sir qiladi. Jismoniy tarbiya darsida o‘zaro hurmat, sheriklik va qo‘llab-quvvatlash mavjud bo‘lsa, o‘quvchi faoliyatga erkinroq qo‘shiladi.Jamoaviy sport va harakatli o‘yinlar ijtimoiy tegishlilik hissini kuchaytirishi mumkin. O‘quvchi jamoada foydali rolga ega bo‘lsa, uning mashg‘ulotga qiziqishi ham oshadi.Doimiy kamsitish, oxirgi bo‘lib jamoaga tanlanish yoki xato ustidan kulish esa qiziqishni keskin kamaytirishi mumkin. Shu sababli pedagog jamoalarni tuzish, rollarni taqsimlash va muloqot madaniyatini boshqarishga alohida e’tibor berishi kerak.Jamoaviy qo‘llab-quvvatlash faqat g‘alaba bilan bog‘liq bo‘lmasligi kerak. Sherikning progressini e’tirof etish, yordam berish va birgalikda maqsadga erishish faoliyatning ijtimoiy mazmunini boyitadi [3].

Harakat faoliyatining xilma-xilligi. Bir xil mashqlarni uzoq vaqt takrorlash o‘quvchilarda zerikish paydo qilishi mumkin. Harakat faoliyatining xilma-xilligi esa yangilik va qiziqish hissini saqlab turadi.Jismoniy tarbiya darsida sport o‘yinlari, estafeta, koordinatsion vazifalar, ritmik mashqlar, ochiq havodagi faoliyat, individual va juftlikdagi topshiriqlarni navbatlashtirish mumkin.Xilma-xillik maqsadsiz o‘zgarish degani emas. Har bir mashg‘ulot turi ma’lum pedagogik vazifaga xizmat qilishi va o‘quvchining motor rivojlanishiga mos bo‘lishi kerak.Turli faoliyatlar orqali o‘quvchi o‘ziga ko‘proq mos bo‘lgan harakat turini topishi mumkin. Kimdir jamoaviy sportni, boshqasi ritmik mashqni, yana biri yurish yoki

individual kuch mashqlarini yoqtirishi mumkin. Bu turli qiziqishlarni hurmat qilish ichki motivatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi.Barqaror qiziqishning eng tabiiy manbalaridan biri faoliyatdan zavq olishdir. O‘quvchi mashg‘ulotni yoqimli tajriba sifatida qabul qilsa, uni darsdan tashqarida ham davom ettirish ehtimoli ortadi.Zavq faqat o‘yin-kulgi bilan bog‘liq emas. O‘quvchi murakkab harakatni o‘zlashtirganda, o‘z progressini ko‘rganda yoki jamoadoshi bilan yaxshi hamkorlik qilganda ham qoniqish his qiladi.Pedagogik jihatdan muhim vazifa qiyinchilik va zavq o‘rtasida muvozanat yaratishdir.

Juda oson faoliyat zerikarli, juda qiyin faoliyat esa stressli bo‘lishi mumkin.O‘qituvchi o‘quvchilarning qaysi faoliyatga ko‘proq qiziqishini kuzatib, dars mazmunini shu ma’lumot asosida boyitishi mumkinAn’anaviy baholashda o‘quvchilar bir xil normativ bo‘yicha taqqoslanishi mumkin. Bunday yondashuv yuqori tayyorgarlikka ega o‘quvchilarni rag‘batlantirsa-da, tayyorgarligi past o‘quvchilarda qiziqishning pasayishiga olib kelishi ehtimoli mavjud.Individual progressga asoslangan baholashda o‘quvchi bugungi natijasini o‘zining avvalgi ko‘rsatkichi bilan solishtiradi. Bu rivojlanishning shaxsiyligini ko‘rsatadi va “men ham yaxshilanayapman” degan hissini kuchaytiradi.Baholashda faqat yakuniy natija emas, muntazam ishtirok, texnik progress, hamkorlik, harakatga mas’uliyatli munosabat va o‘zini boshqarish ham hisobga olinishi mumkin.Individual progressni qadrlash o‘quvchining bahodan tashqari motivatsiyasini ham qo‘llab-quvvatlaydi, chunki u o‘z rivojlanishini ichki mezon orqali ko‘ra boshlaydi [4].

Tashqi mukofot va majburlashning chegaralari. Tashqi mukofotlar qisqa muddatda o‘quvchini faoliyatga jalb qilishi mumkin. Medal, ball, maqtov yoki sovrin ayrim vaziyatlarda motivatsion vosita bo‘lib xizmat qiladi. Biroq ular ichki qiziqishning o‘rnini to‘liq bosa olmaydi.Agar o‘quvchi har bir mashqni faqat mukofot uchun bajarsa, mukofot yo‘qolganda faoliyatga qiziqish ham kamayishi mumkin. Shu sababli tashqi rag‘bat faoliyatning mazmuni, progress va zavq bilan uyg‘unlashtirilishi kerak.Majburlash va qo‘rqitish uzoq muddatli qiziqishga salbiy ta’sir qilishi mumkin. “Bajarmasang bahong tushadi” kabi doimiy bosim o‘quvchida jismoniy faoliyatni salbiy majburiyat sifatida qabul qilishga olib kelishi ehtimoli mavjud.Pedagog talabni saqlagan holda uning maqsadini tushuntirishi, tanlov va progress imkoniyatini berishi kerak. Shunda tashqi talab asta-sekin ichki motivatsiya bilan qo‘llab-quvvatlanadi.Raqobat jismoniy tarbiya va sportning tabiiy tarkibiy qismi. U qiziqish, hayajon va maqsadga intilishni kuchaytirishi mumkin. Biroq faqat g‘alabaga asoslangan muhit ichki motivatsiya uchun xavf tug‘dirishi mumkin.Doimiy ravishda kuchli o‘quvchilar yutib, boshqalar mag‘lub bo‘lsa, ayrim o‘quvchilar sportni o‘zlari uchun mos emas deb qabul qilishi mumkin. Shu sababli musobaqada shaxsiy progress, jamoaviy hamkorlik va halol o‘yin ham qadrlanishi kerak.

Raqobatni hamkorlik bilan muvozanatlashtirish foydali. Bir mashqda jamoalar o‘zaro bellashsa, boshqa mashqda butun sinf umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda ishlashi mumkin.Sog‘lom raqobat o‘quvchining o‘z imkoniyatini sinashiga yordam beradi, biroq uning shaxsiy qadrini natija bilan tenglashtirmasligi kerak.Ichki motivatsiyaning eng muhim natijasi o‘quvchining maktabdan tashqari vaqtda ham jismoniy faol bo‘lishni xohlashidir. Darsda ijobiy tajriba olgan o‘quvchi yurish, yugurish, sport o‘yini yoki boshqa faoliyatni bo‘sh vaqtining tabiiy qismi sifatida tanlashi mumkin.Faol turmush odati uchun murakkab sport sharoiti shart emas. Piyoda yurish, ochiq havoda o‘yin, uyda qisqa mashqlar yoki mahalladagi sport faoliyati ham muntazam jismoniy faollikning bir ko‘rinishidir.Pedagog o‘quvchiga o‘ziga mos va real faoliyat turini topishga yordam berishi kerak. Barcha o‘quvchidan bir xil sport turini sevishini

kutish to‘g‘ri emas.Barqaror odat kichik, lekin muntazam harakatlardan boshlanadi. O‘quvchi faoliyatni o‘zi tanlagan, foydasini sezgan va undan zavq olgan bo‘lsa, uni davom ettirish ehtimoli yuqori bo‘ladi.

O‘qituvchining motivatsion uslubi. O‘qituvchining muloqot uslubi ichki motivatsiyaga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Hurmatli, qo‘llab-quvvatlovchi va aniq qayta aloqa o‘quvchining faoliyatga ishonch bilan kirishishiga yordam beradi.O‘qituvchi faqat natijani emas, harakat va progressni ham tan olsa, o‘quvchi o‘z mehnatining qiymatini his qiladi. Bu ayniqsa jismoniy tayyorgarligi past o‘quvchilar uchun muhim.Avtonomiyani qo‘llab-quvvatlovchi uslubda pedagog qoidaning sababini tushuntiradi, ayrim tanlov imkoniyatlarini beradi va o‘quvchining fikrini tinglaydi. Shu bilan birga, xavfsizlik va dars maqsadi bo‘yicha aniq chegaralar saqlanadi.O‘qituvchining shaxsiy namunasi ham ahamiyatli. Jismoniy faollikka ijobiy va real munosabat ko‘rsatgan pedagog o‘quvchilarga harakatni hayot tarzining tabiiy qismi sifatida ko‘rsatadi. Jismoniy faollikka qiziqishni faqat darsdagi faol qatnashish bilan baholash yetarli emas. O‘quvchining yangi mashqni sinashga tayyorligi, tanlovdan foydalanishi, darsdan tashqari faoliyatga qiziqishi va o‘z progressini kuzatishi ham muhim ko‘rsatkichlardir.Pedagog qisqa refleksiya savollaridan foydalanishi mumkin: “Qaysi mashq senga ko‘proq yoqdi?”, “Qaysi faoliyatni uyda yoki bo‘sh vaqtingda davom ettirishni xohlaysan?”, “Bugun nimani oldingidan yaxshiroq bajarding?”.Bir necha hafta davomida o‘quvchilarning qaysi faoliyatlarda ko‘proq tashabbus ko‘rsatishi kuzatilsa, dars mazmunini yanada individual va motivatsion tashkil etish mumkin.Monitoringning maqsadi o‘quvchilarni “motivatsiyali” va “motivatsiyasiz” deb ajratish emas, ularning qiziqishini kuchaytiradigan sharoitlarni aniqlashdir.

Maktab va oila hamkorligining motivatsiyaga ta’siri. O‘quvchining jismoniy faollikka munosabati maktab bilan cheklanmaydi. Oiladagi kundalik odatlar, ota-onaning harakatga munosabati va bo‘sh vaqtni qanday tashkil etishi bolada jismoniy faollikning qadri haqida barqaror tasavvur shakllantiradi. Shu sababli maktabda qo‘llab-quvvatlanayotgan ichki motivatsiya oilaviy muhit bilan uyg‘unlashsa, uning davomiyligi ortadi.Ota-onaning doimiy nazorati yoki faqat natijaga asoslangan bosimi ba’zan o‘quvchining ichki qiziqishini susaytirishi mumkin. Masalan, “faqat yuqori natija ko‘rsatsang yaxshi” degan yondashuv faoliyatdan zavq olishni ikkinchi o‘ringa suradi. Aksincha, muntazam qatnashish, sa’y-harakat va shaxsiy progressni qadrlash bola uchun sog‘lom motivatsion signal beradi.Oilaviy faoliyat ham ichki motivatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi. Birgalikda piyoda yurish, velosiped haydash, bog‘da faol dam olish yoki oddiy harakatli o‘yinlar jismoniy faollikni majburiyat emas, ijtimoiy va yoqimli tajriba sifatida ko‘rsatadi.O‘qituvchi ota-onaga faqat “bolani ko‘proq sportga yuboring” degan tavsiya bermasdan, o‘quvchining qiziqishini tinglash, unga mos faoliyat topish va natijadan ko‘ra muntazamlikni qadrlash muhimligini tushuntirishi mumkin.Maktab va oilaning umumiy maqsadi o‘quvchini tashqi nazorat ostida faol tutish emas, u o‘z ehtiyoji va qiziqishidan kelib chiqib jismoniy faollikni tanlaydigan darajaga yetkazishdir [5].

Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning jismoniy faollikka qiziqishini qo‘llab-quvvatlash uchun yordamchi vosita bo‘lishi mumkin. Qadam hisoblagich, oddiy faoliyat kundaligi, mashq videosi yoki shaxsiy progressni ko‘rsatadigan ilova o‘quvchiga o‘z faoliyatini kuzatish va natijasini ko‘rish imkonini beradi.Biroq raqamli vosita ichki motivatsiyani tashqi ball, reyting va doimiy mukofotga almashtirib yubormasligi kerak. Agar o‘quvchi faqat “ko‘proq ochko yig‘ish” uchun harakat qilsa, faoliyatning o‘zidan olinadigan qoniqish ikkinchi darajaga tushishi mumkin.Pedagog raqamli monitoringni o‘zini anglash vositasi sifatida

qo‘llashi maqsadga muvofiq. Masalan, o‘quvchi qaysi kunlarda ko‘proq faol bo‘lganini, qaysi faoliyat unga yoqqanini va qanday sharoitda o‘zini tetik his qilganini kuzatishi mumkin. Bunday yondashuv nazoratdan ko‘ra refleksiyani kuchaytiradi.Raqamli vositalardan foydalanishda shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi, qurilmaga teng kirish imkoniyati va ekran vaqtining ortib ketmasligi ham hisobga olinishi lozim. Texnologiya harakatni qo‘llab-quvvatlashi, uning o‘rnini egallamasligi kerak.Eng maqbul yondashuvda raqamli vosita o‘quvchiga o‘z progressini ko‘rish, maqsadini rejalashtirish va faoliyatni eslab turish uchun xizmat qiladi, asosiy motivatsiya esa harakatdan olinadigan zavq, kompetentlik va ijtimoiy tajribadan kelib chiqadi.

Xulosa. Ichki motivatsiya o‘quvchilarning jismoniy faollikka barqaror qiziqishini shakllantirishning muhim pedagogik asosidir. O‘quvchi faoliyatni faqat baho yoki majburiyat uchun emas, undan zavq olish, o‘zini rivojlantirish va guruhda faol ishtirok etish uchun bajarsa, jismoniy faollik kundalik hayotning barqaror qismiga aylanishi mumkin.Ichki motivatsiyani qo‘llab-quvvatlashda avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy tegishlilik alohida ahamiyatga ega. Tanlov imkoniyati, individual progressni ko‘rish, muvaffaqiyat tajribasi va jamoaviy qo‘llab-quvvatlash o‘quvchining faoliyatga ijobiy munosabatini kuchaytiradi.Harakat faoliyatining xilma-xilligi, sog‘lom raqobat, adolatli baholash va o‘qituvchining hurmatli qayta aloqasi barqaror qiziqish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi. Aksincha, haddan tashqari majburlash, doimiy taqqoslash va faqat tashqi mukofotga tayanish ichki motivatsiyani susaytirishi mumkin.Shu sababli jismoniy tarbiya darsining vazifasi o‘quvchini vaqtincha faol qilish emas, unda harakatni qadrlash, o‘z imkoniyatini rivojlantirish va maktabdan tashqari hayotda ham jismoniy faol bo‘lish istagini shakllantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. New York: Plenum Press, 1985.

2. Deci E.L., Ryan R.M. Self-determination theory: A macrotheory of human motivation, development, and health. Canadian Psychology. 2008;49(3):182-185.

3. Ryan R.M., Deci E.L. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness. New York: Guilford Press, 2017.

4. Standage M., Duda J.L., Ntoumanis N. A model of contextual motivation in physical education: using constructs from self-determination and achievement goal theories to predict physical activity intentions. Journal of Educational Psychology. 2003;95(1):97-110.

5. Ntoumanis N. A self-determination approach to the understanding of motivation in physical education. British Journal of Educational Psychology. 2001;71(2):225-242.

GANDBOLCHILARNING TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA JISMONIY SIFATLARNING O‘RNI

O‘zDJTSU Nukus filiali dotsenti
Urazbaev Nurbek Jalgasbay uli
O‘zDJTSU Nukus filiali studenti
Maxambetalieva Gulbanu Kuanish qizi

Keywords*. Football, classification of technical elements, defensive movements, possession of the ball, attack, counter-attack, deceptive movements, kicking the ball, ball control in space and on the field.*

Ключевые слова. *Футбол, классификация технических элементов, оборонительные действия, владение мячом, атака, контратака, обманные действия, удар по мячу ногой, управление мячом в пространстве и на поле.*

Dolzarbligi. Hozirgi kunda futbol sport turi jismoniy tarbiya va sport tizimida alohida o‘rin egallab, aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Futbol mashg‘ulotlari organizmning funksional imkoniyatlarini rivojlantirish, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari faoliyatini yaxshilash, harakat koordinatsiyasi, tezkorlik, chaqqonlik hamda umumiy va maxsus chidamlilik sifatlarini oshirishda yuqori samaradorlikka ega. Shuningdek, futbol o‘yinlari jarayonida texnik va taktik tayyorgarlik bilan bir qatorda sportchilarda irodaviy sifatlar, intizom, mas’uliyat va jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllanadi. Mamlakatimizda futbol sport turini rivojlantirish, uni ilmiy asoslangan mashg‘ulotlar orqali takomillashtirish hamda yosh futbolchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, futbol mashg‘ulotlarini to‘g‘ri rejalashtirish, yuklamalarni ilmiy asosda belgilash va mashg‘ulot jarayonida zamonaviy pedagogik hamda sport-fiziologik yondashuvlardan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda.


Tadqiqotning maqsadi Futbolchilarda to‘p bilan harakat qilish texnikasini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Futbol sport mashg‘uloptlarini kuzatish va tahlil qilish;

Futbolchilarni tayyorlashda zamonaviy usullardan foydalanish.

Tadqqot muhokamasi va natijasi. Har bir mashg‘ulotda futbolchilar to‘p bilan harakatlari tuzilishining biomexanik xususiyatlari, xususan, o‘yin vaziyatlarini rivojlantirish talablariga muvofiq to‘pni qabul qilish, qayta ishlash va to‘xtatish, uzatish va sherigiga uzatish, o‘yin modeli va chizmasi (nazariy bo‘lim) bilan tanishtirildi. Amaliy bo‘lim 4 ta mashq blokida amalga oshirildi. Birinchi blok an’anaviy mashqlar bilan ifodalanib oyoq kaftining turli qismlari bilan aniqlikka, uzoqqa zarbalar, uzun va qisqa paslar, "kvadrat" o‘yini va boshqa harakatlar bajartirildi. Bunday mashqlar hajmi o‘yinchilarning texnik tayyorgarligi doirasida qo‘llaniladigan umumiy miqdorning 20% gacha bo‘lgan qismini tashkil etdi.(1-rasmga qarang).

1-rasm. To‘p bilan o‘yin texnikasini shakllantirish jarayonida futbolchilarda mushak kuchlarini tabaqalashtirish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar majmuasini taqsimlashning blok-sxemasi



Ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi bloklar maxsus mashqlar bilan ifodalangan bo‘lib, ulardan foydalanish to‘p bilan texnik harakatlarni bajarishda mushak kuchlarini farqlash qobiliyatini rivojlantirishni ta’minlaydi.

Ikkinchi blok mazmuni og‘irlik kuchiga qarshilik ko‘rsatishda mashqlardan foydalanishga asoslandi. Mashqlar to‘pni qabul qilishda uchish trayektoriyasini modellashtirishni ta’minlaydigan maxsus mashg‘ulot qurilmalarida (20%) va maxsus manjet-og‘irlashtirgichlardan foydalangan holda (10%) bajarildi. Oyoqlarning alohida bo‘g‘inlariga mahkamlangan qo‘shimcha og‘irliklar (100 dan 200 gr gacha bo‘lgan og‘irliklar) to‘p bilan harakat harakatlarini takomillashtirish va kinestetik sezgirlikni oshirish uchun sharoit yaratdi.

Mashqlarning uchinchi bloki turli kattalikdagi va yo‘nalganlik vektoridagi elastik kuch ta’sirida bajarildi. Mashqlarda to‘pni qabul qilishda oyoqning pastga tushishiga qarshilik ko‘rsatishda (P = 10 dan 15 N gacha) va to‘pni qabul qilishning boshlang‘ich fazasida 15 dan 20 sm gacha bo‘lgan masofada (P = 10 dan 15 N gacha) oyoqni pastga tushirishga yordam beradigan rezina bintlardan foydalanildi. Bunday mashqlar hajmi 10% ni tashkil etdi. Shu bilan bir qatorda, oyoqning orqa yuzasida manjetlar bilan mahkamlangan elastik energiya rekuperatorlari (10%) yordamida mashqlar bajarildi. Ushbu mashqlar son va boldirning distal

qismiga, belbog‘ va boldirning proksimal qismiga,belbog‘ va boldirning distal qismiga ijobiy tasir ko‘rsatdi

Xulosa qilib aytganda to‘p bilan o‘yin texnikasini shakllantirish jarayonida futbolchilarda mushak kuchlarini tabaqalashtirish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar majmuasini taqsimlashning blok-sxemasidan foydalanish orqali futbolchilarni tizimli tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-martdagi PQ-3610-son “Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. http://Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-dekabrdagi PF-5887-son “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. http://Lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi PrezidentIning 2023-yil 7-apreldagi PQ-115-son “Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantrishning qo‘shimcha chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori http://Lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-martdagi PQ-136-son “Mahallalarda futbol infratuzilmasini rivojlantirish va tarmog‘ini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori http://Lex.uz.
5. Артиков А.А., Шожалилов Ш.Ш., Шлапаков В.А. Исследование двигателной активности футболистов разной квалификасии./Сб. научных трудов посвящённый 40-летию кафедры футбола и ручного мяча. Ташкент. 2007.-С.107–108.
6. Давлетмурадов С.Р. Развитие и совершенствование спесиалной выносливости футболистов в подготовителном периоде. Халқаро-амалий анжумани 2012.-247.С.
7. Исмагилов Д.К, Атаев О.Р. Исследование практического занятия по физическому совершенствованию студентов на основе системы CrossFit // Молодой ученый. – 2016. – №21. – С. 970–972.

SPORTCHILARDA KUCH SIFATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Gulmuratova Aziyza Marat qizi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali stajyor o‘qituvchisi
O‘zbekiston, Nukus
gulmuratovaaziza1994@gmail.com

Kalit so‘zlar: *kuch sifati, sportchi, kuch tayyorgarligi, jismoniy tayyorgarlik, tezkor-kuch, mashg‘ulot, yuklama, sport mashg‘uloti.*

Ключевые слова: *силовые качества, спортсмен, силовая подготовка, физическая подготовка, скоростно-силовые качества, тренировка, нагрузка, спортивная тренировка.*

Key words: *strength, athlete, strength training, physical fitness, speed-strength, training, load, sports training.*

Kirish. Zamonaviy sportda yuqori natijalarga erishish sportchining jismoniy tayyorgarlik darajasiga bevosita bog‘liq. Jismoniy tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismlaridan biri kuch sifati hisoblanadi. Kuch sportchining tashqi qarshilikni yengish yoki unga qarshi harakat qilish

qobiliyatini ifodalab, ko‘plab sport turlarida texnik va taktik harakatlarni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan asosiy jismoniy sifat sifatida namoyon bo‘ladi.

Kuch sifati sportchining umumiy jismoniy tayyorgarligi bilan bir qatorda maxsus tayyorgarligini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Sport faoliyatida kuchning maksimal kuch, tezkor-kuch, portlovchi kuch va kuch chidamliligi kabi turli ko‘rinishlari namoyon bo‘lishi mumkin. Ularning rivojlanish darajasi sport turining xususiyati, mashg‘ulot bosqichi va musobaqa faoliyatining talablariga bog‘liq.

Turli sport turlarida kuchga bo‘lgan talablar bir xil emas. Masalan, og‘ir atletika kabi sport turlarida maksimal kuch muhim bo‘lsa, sport o‘yinlari va yakka kurashlarda tezkor-kuch hamda kuch chidamliligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli kuch tayyorgarligi metodikasini sport turining o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirish zarur.

Hozirgi vaqtda kuch sifatini rivojlantirishda an’anaviy mashqlar bilan bir qatorda funksional mashg‘ulotlar, erkin og‘irliklar, trenajyorlar, tana vazni bilan bajariladigan mashqlar, plyometrik mashqlar va boshqa zamonaviy vositalardan foydalanilmoqda. Mashg‘ulot yuklamalarini individual rejalashtirish va monitoring qilish ham kuch tayyorgarligi samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqotning maqsadi sportchilarda kuch sifatini rivojlantirish metodikasini ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilish, kuchning asosiy ko‘rinishlarini aniqlash hamda kuch tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy mashg‘ulot metodlarining imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, kuch sifatining mazmunini o‘rganish, uning asosiy ko‘rinishlarini aniqlash, kuchni rivojlantirishda qo‘llaniladigan mashg‘ulot metodlarini tahlil qilish, mashg‘ulot yuklamalarini tashkil etish xususiyatlarini o‘rganish hamda sportchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda kuch tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha metodik yondashuvlarni asoslash vazifalari belgilandi.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Tadqiqotning metodologik asosini sport mashg‘ulotlari nazariyasi, jismoniy tarbiya pedagogikasi va sportchilarning kuch tayyorgarligini tashkil etish bo‘yicha ilmiy qarashlar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, taqqoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish va nazariy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish orqali kuch sifatini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari o‘rganildi. Taqqoslash metodi yordamida turli kuch mashqlarining xususiyatlari, qo‘llash shartlari va mashg‘ulot jarayonidagi imkoniyatlari aniqlandi.

Tadqiqotda kuch sifati maksimal kuch, tezkor-kuch, portlovchi kuch va kuch chidamliligi kabi asosiy yo‘nalishlarda ko‘rib chiqildi. Shuningdek, kuch tayyorgarligining tezkorlik, chidamlilik va koordinatsion qobiliyatlar bilan o‘zaro bog‘liqligiga e’tibor qaratildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Kuch sifati sportchilarning jismoniy tayyorgarligida muhim o‘rin tutib, ko‘plab sport harakatlarini samarali bajarish uchun zarur hisoblanadi. Sportchining kuch imkoniyatlari yetarli darajada rivojlangan bo‘lsa, u texnik harakatlarni barqaror bajarish, tashqi qarshilikni yengish va musobaqa davomida zarur jismoniy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Kuch sifatining rivojlanishi sportchining morfofunksional xususiyatlari, mashg‘ulot tajribasi, yoshi, tayyorgarlik darajasi va sport turining o‘ziga xos talablariga bog‘liq. Shu sababli kuch tayyorgarligini tashkil etishda individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Kuchning asosiy ko‘rinishlaridan biri maksimal kuch hisoblanadi. Maksimal kuch sportchining eng katta tashqi qarshilikni yengish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu sifat kuch talab qiladigan sport turlarida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uni rivojlantirishda qarshilik bilan bajariladigan mashqlardan foydalaniladi.

Maksimal kuchni rivojlantirish uchun shtanga, gantel, trenajyor va boshqa qarshilik vositalaridan foydalanish mumkin. Mashqlarni bajarishda yuklama hajmi, intensivligi, takrorlanish soni va dam olish oralig‘i sportchining tayyorgarlik darajasiga mos ravishda belgilanadi.

Kuch tayyorgarligining yana bir muhim yo‘nalishi tezkor-kuch qobiliyatlari hisoblanadi. Tezkor-kuch qisqa vaqt ichida katta kuch hosil qilish qobiliyati bo‘lib, ko‘plab sport turlarida muhim ahamiyatga ega. Yugurishdagi tezlanish, sakrash, uloqtirish, zarba berish va tezkor hujum harakatlari bunga misol bo‘la oladi.

Tezkor-kuchni rivojlantirish uchun sakrash, tezkor itarilish, qisqa masofaga tezlanish, to‘p yoki boshqa anjomlarni uloqtirish kabi mashqlardan foydalanish mumkin. Ushbu mashqlarni bajarishda harakatning tezligi va texnik jihatdan to‘g‘ri bajarilishi asosiy mezonlardan biri bo‘lishi kerak.

Portlovchi kuch ham zamonaviy sport mashg‘ulotlarida muhim ahamiyatga ega. Portlovchi kuch sportchining juda qisqa vaqt ichida katta kuch hosil qilish qobiliyatini ifodalaydi. Ayniqsa, sport o‘yinlari, yakka kurash, sakrash va uloqtirish xarakteridagi faoliyatlarda ushbu sifat muhim hisoblanadi.

Portlovchi kuchni rivojlantirishda plyometrik mashqlardan foydalanish mumkin. Turli sakrashlar, tezkor itarilishlar va qisqa muddatli portlovchi harakatlar mushaklarning tez kuch hosil qilish qobiliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kuch tayyorgarligining yana bir muhim yo‘nalishi kuch chidamliligidir. Kuch chidamliligi sportchining uzoq vaqt davomida kuch talab qiluvchi harakatlarni samarali bajarish qobiliyatini anglatadi. Ushbu sifat uzoq davom etadigan musobaqalar va takroriy kuch harakatlari mavjud bo‘lgan sport turlarida alohida ahamiyatga ega.

Kuch chidamliligini rivojlantirishda o‘rtacha qarshilik bilan ko‘p marotaba takrorlanadigan mashqlar, aylanma mashg‘ulotlar va funksional mashqlardan foydalanish mumkin. Mashqlar orasidagi dam olish vaqtini to‘g‘ri belgilash sportchining keyingi mashqni sifatli bajarishini ta’minlaydi.

Kuchni rivojlantirishning samarali metodlaridan biri takroriy kuchlanish metodi hisoblanadi. Ushbu metodda mashqlar ma’lum qarshilik bilan bir necha marta takrorlanadi. Mazkur yondashuv kuchni bosqichma-bosqich rivojlantirish va mashg‘ulot yuklamalarini nazorat qilish imkonini beradi.

Izometrik mashqlar ham ayrim hollarda kuch tayyorgarligida qo‘llanilishi mumkin. Bunday mashqlarda mushaklar kuchlanadi, biroq bo‘g‘imlarda sezilarli harakat sodir bo‘lmaydi. Izometrik mashqlar ayrim mushak guruhlarining kuchlanish imkoniyatlarini rivojlantirishda qo‘shimcha vosita sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kuch tayyorgarligini tashkil etishda funksional mashg‘ulotlardan foydalanish ham samarali hisoblanadi. Funksional mashqlar sportchining musobaqa faoliyatida zarur bo‘ladigan harakatlarni kompleks ravishda rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Bunda bir vaqtning o‘zida bir nechta mushak guruhlari ishtirok etishi mumkin.

Kuch mashg‘ulotlarining samaradorligi ko‘p jihatdan yuklamani to‘g‘ri rejalashtirishga bog‘liq. Mashg‘ulot yuklamasining hajmi va intensivligi sportchining tayyorgarlik bosqichi

hamda individual imkoniyatlariga mos bo‘lishi kerak. Yuklamani bosqichma-bosqich oshirish sportchining kuch imkoniyatlarini izchil rivojlantirishga yordam beradi.

Kuch tayyorgarligida progressiv yuklama tamoyili muhim o‘rin tutadi. Sportchining tayyorgarligi oshib borgani sari qarshilik, mashq hajmi yoki mashqlar murakkabligi ma’lum darajada oshirilishi mumkin. Biroq yuklamalarni keskin oshirish sportchining tiklanish imkoniyatlarini hisobga olmagan holda amalga oshirilmasligi kerak.

Kuch mashg‘ulotlarini tashkil etishda mashqlarni to‘g‘ri texnikada bajarish alohida ahamiyatga ega. Noto‘g‘ri texnika mashq samaradorligini pasaytirishi va jarohatlanish xavfini oshirishi mumkin. Shu sababli murabbiy tomonidan harakat texnikasini nazorat qilish zarur.

Kuch tayyorgarligi boshqa jismoniy sifatlar bilan ham uzviy bog‘liq. Jumladan, kuchning rivojlanishi tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirishga asos yaratadi. Kuch va tezkorlikning uyg‘un rivojlanishi sportchining ko‘plab maxsus harakatlarni samarali bajarishiga yordam beradi.

Shuningdek, kuch tayyorgarligi umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik bilan bog‘liq holda tashkil etilishi kerak. Umumiy kuch tayyorgarligi sportchining asosiy mushak guruhlarini rivojlantirishga xizmat qilsa, maxsus kuch tayyorgarligi muayyan sport turida zarur bo‘lgan kuch ko‘rinishlarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Masalan, sport o‘yinlarida maxsus kuch tayyorgarligi tezlanish, sakrash, to‘xtash va yo‘nalishni o‘zgartirish kabi harakatlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Yakka kurash sport turlarida esa raqib qarshiligini yengish, ushlash, itarish va tortish harakatlari bilan bog‘liq kuch qobiliyatlariga alohida e’tibor beriladi.

Zamonaviy sport mashg‘ulotlarida kuch tayyorgarligini nazorat qilish uchun raqamli monitoring va texnologik vositalardan foydalanish imkoniyatlari ham kengaymoqda. Mashg‘ulot yuklamasini qayd etish, harakat tezligini baholash va sportchining funksional holatini kuzatish murabbiyga mashg‘ulot dasturini individual tarzda takomillashtirish imkonini beradi.

Kuch tayyorgarligida tiklanish jarayonini hisobga olish ham muhim. Kuch mashg‘ulotlaridan keyingi dam olish, uyqu, ovqatlanish va tiklanish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish sportchining keyingi mashg‘ulotga tayyorligini ta’minlashga yordam beradi.

Shunday qilib, kuch sifatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish faqat og‘irlik bilan bajariladigan mashqlar sonini oshirishdan iborat emas. Bunda mashqlar mazmuni, yuklama intensivligi, takrorlanish soni, dam olish oralig‘i, mashg‘ulot bosqichi, sportchining individual xususiyatlari va sport turining talablarini kompleks hisobga olish zarur.

Xulosa. Sportchilarda kuch sifatini rivojlantirish sport mashg‘ulotlari jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, texnik va taktik harakatlarni samarali bajarish, tashqi qarshiliklarni yengish hamda yuqori jismoniy yuklamalarga moslashishda muhim ahamiyatga ega. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maksimal, tezkor-kuch, portlovchi kuch va kuch chidamliligini kompleks rivojlantirish sportchining jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi. Bunda qarshilik bilan, tana vazni bilan bajariladigan mashqlar, funksional va plyometrik mashg‘ulotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kuch tayyorgarligida yuklamalarni bosqichma-bosqich oshirish, mashqlarni texnik jihatdan to‘g‘ri bajarish, individual yondashuv va tiklanish imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir. Umumiy va maxsus kuch tayyorgarligini uyg‘unlashtirish esa sportchining jismoniy imkoniyatlarini sport turining talablariga moslashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, raqamli monitoring va zamonaviy nazorat vositalari mashg‘ulot yuklamalarini aniq boshqarish va individual dasturlarni takomillashtirishga yordam beradi. Shunday qilib, kuch sifatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish kompleks, individual va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qodirov, D. S. (2022). Yosh sportchilarda tezkor kuch sifatlarini rivojlantirishning zamonaviy usullari. Toshkent: O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ilmiy to‘plami.

2. Ismoilov, U. M. (2021). Jismoniy tayyorgarlik jarayonida funksional mashqlarni qo‘llashning ahamiyati. “Sport va fan” jurnali, №2, 45–49-betlar.

3. Platonov, V. N. (2004). Sport tayyorgarligining umumiy nazariyasi va metodikasi. Kiev: Olimpiyskaya literatura.

4. Bompa, T. O., & Buzzichelli, C. (2019). Periodization: Theory and Methodology of Training. Human Kinetics Publishers.

5. Verkhoshanskiy, Y. V. (2011). Fundamentals of Special Strength Training in Sport. Sportivnaya Literatura, Moskva.

6. Abdullayev, R. A. (2018). Yosh sportchilar tayyorgarligida plyometrik mashqlar tizimi. Toshkent: O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti nashriyoti.

STOL TENNISI BILAN SHUG‘ULLANUVCHI QIZLARNING TEZLIGINI RIVOJLANTIRISH

Joldasbaeva Peruza
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
Sport o‘yinlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi stajor-o‘qituvchisi
e-mail: peruz5606@gmail.com

Kalit so‘zlar: *stol tennisi, qizlar, tezlik, reaksiya tezligi, harakat tezligi, tezkor kuch, koordinatsiya, oyoq ishlashi, mashg‘ulot, sport tayyorgarligi.*

Tadqiqot maqsadi: Stol tennisi bilan shug‘ullanuvchi qizlarning tezlik sifatini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritish.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari: Tadqiqot stol tennis bilan shug‘ullanuvchi qizlarning jismoniy va maxsus harakat sifatlarini o‘rganish maqsadida tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardanfoydalanildi: Ilimiy-uslubiy, pedagogok kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik eksperiment.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi: mashg‘ulot jarayonida umumiy tezlik bilan bir qatorda reaksiya tezligi, harakat tezligi, tezkor kuch va koordinatsion qobiliyatlarni kompleks rivojlantirish muhimdir. Tezisda qizlar bilan ishlashda yosh, tayyorgarlik darajasi, mashg‘ulot hajmi va tiklanish holatini hisobga olgan holda qo‘llash mumkin bo‘lgan mashqlar hamda metodik yondashuvlar tavsiya etiladi.

Stol tennisi tezkorlik va aniqlik bir vaqtda namoyon bo‘ladigan sport turlaridan biridir. O‘yin davomida sportchi to‘pning yo‘nalishi, aylanishi va tezligini juda qisqa vaqt ichida baholab, mos javob harakatini tanlashi kerak. Bunda faqat qo‘l harakatining tezligi emas, balki oyoqlarning tez ko‘chishi, gavdani kerakli holatga keltirish, zarba berish paytini to‘g‘ri tanlash va keyingi harakatga tayyorlanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qizlar bilan mashg‘ulot olib borishda yuklamani bosqichma-bosqich oshirish, texnika va tezlikni bir-biridan ajratmasdan rivojlantirish maqsadga muvofiq. Zamonaviy stol tennisida o‘yin sur’ati yuqori

bo‘lib, sportchidan tez qaror qabul qilish va harakatni qisqa muddatda bajarish talab etiladi. Tezlik yetarli darajada rivojlanmagan hollarda sportchi to‘pga kechikib chiqishi, muvozanatni yo‘qotishi yoki texnik jihatdan to‘g‘ri zarbani bajara olmasligi mumkin. Demak, tezlikni rivojlantirish stol tennisi sport tayyorgarligining alohida yo‘nalishi sifatida qaralishi lozim.

Stol tennisida tezlik tushunchasi bir nechta o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlarni qamrab oladi. Birinchisi — reaksiya tezligi, ya’ni raqib zarbasidan keyin kerakli javob harakatini boshlashgacha bo‘lgan vaqt. Ikkinchisi — harakat tezligi bo‘lib, sportchining qisqa masofada tez siljishi va zarba uchun qulay holatni egallashini ifodalaydi. Uchinchisi — tezkor kuch, ya’ni qisqa vaqt ichida kuchli va tez harakatni bajarish qobiliyati. Mazkur komponentlar birgalikda rivojlantirilganda sportchining o‘yin vaziyatlariga moslashuvi yaxshilanadi.

Qizlar bilan ishlashda tezlik mashqlarini tanlashda mashg‘ulotning maqsadi va sportchining tayyorgarlik darajasi hisobga olinishi kerak. Boshlang‘ich bosqichda texnik harakatning to‘g‘ri bajarilishi ustuvor bo‘lsa, keyingi bosqichlarda shu harakatni vaqt cheklovi ostida bajarish, yo‘nalishni tez o‘zgartirish va turli signallarga javob qaytarish mashqlari kiritiladi. Mashqning tezligini oshirish texnikaning buzilishi hisobiga amalga oshirilmasligi kerak.

Reaksiya tezligini rivojlantirish uchun murabbiy tomonidan beriladigan ko‘rish yoki tovush signallariga javoban harakatni boshlash, raqam yoki rang bo‘yicha belgilangan tomonga siljish, kutilmagan yo‘nalishdagi to‘pga chiqish kabi mashqlardan foydalanish mumkin. Bunday mashqlar sportchining diqqatini jamlash va tez qaror qabul qilish ko‘nikmasini ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Oyoq harakati tezligini rivojlantirish stol tennisida alohida ahamiyatga ega. Buning uchun stol yonida qisqa masofali o‘ng-chap siljishlar, oldinga-orqaga qadamlar, yonlama harakatlar, konus yoki belgilangan nuqtalar orasida tez ko‘chish, shuningdek, shadow-play — to‘psiz texnik harakatlarni tezlik bilan takrorlash mashqlaridan foydalanish mumkin. Mashqlar davomida gavdaning muvozanati va tayanch oyoqning to‘g‘ri qo‘yilishiga e’tibor berish zarur.

Tezkor kuchni rivojlantirish uchun o‘z tana vazniga asoslangan yengil sakrashlar, qisqa masofali tezlanishlar, tezkor o‘tirib-turishning nazoratli variantlari va elastik qarshilik bilan bajariladigan yengil mashqlar qo‘llanishi mumkin. Bunda yuklama sportchining tayyorgarlik darajasiga mos bo‘lishi, mashq texnikasi saqlanishi va yetarli dam olish oralig‘i berilishi kerak.

Tezlikni rivojlantirish mashg‘ulotini tashkil etishda mashqlarni qisqa davomiylikda, yuqori sifat bilan bajarish tamoyili muhim. Sportchi charchab, harakat tezligi va aniqligi keskin pasaya boshlaganida tezlikka yo‘naltirilgan topshiriqni davom ettirish maqsadga muvofiq emas. Shu sababli tezlik mashqlari odatda mashg‘ulotning sportchi nisbatan yangi bo‘lgan qismida yoki sifatli qizdirishdan keyin bajarilishi mumkin.

Mashg‘ulot mazmunini quyidagi ketma-ketlikda tashkil etish mumkin: 1) umumiy va maxsus qizdirish; 2) reaksiya tezligi mashqlari; 3) oyoq ishlashi va qisqa siljishlar; 4) to‘p bilan tezkor texnik topshiriqlar; 5) o‘yin vaziyatiga yaqin mashqlar; 6) yengil tiklanish mashqlari. Bunday tuzilma tezlikni alohida sifat sifatida emas, balki stol tennisining texnik-taktik faoliyati bilan bog‘liq holda rivojlantirish imkonini beradi.

Tezlik rivojlanishini nazorat qilishda bir xil sharoitda takroriy testlardan foydalanish mumkin. Masalan, belgilangan masofadagi yonlama siljish vaqti, ma’lum signalga javob berish, berilgan soniyadagi sifatli texnik harakatlar soni kabi ko‘rsatkichlar kuzatiladi. Muhimi, nazorat natijalarini faqat vaqt bilan emas, balki harakatning aniqligi va texnik sifati bilan birgalikda baholashdir.

Nazariy tahlil shuni ko‘rsatadiki, stol tennisi bilan shug‘ullanuvchi qizlarda tezlikni rivojlantirish bir yo‘nalishli mashqlar bilan cheklanmasligi kerak. Reaksiya tezligi, oyoq ishlashi, tezkor kuch va texnik harakat tezligi bir-birini to‘ldiradi. Masalan, sportchi to‘p yo‘nalishini tez anglagan bo‘lsa-yu, kerakli joyga o‘z vaqtida siljiy olmasa, uning tezkor reaksiyasi o‘yin natijasida to‘liq namoyon bo‘lmaydi. Aksincha, oyoq harakati yaxshi bo‘lsa-yu, zarba berish qarori kech qabul qilinsa, harakat samaradorligi pasayadi.

Shu nuqtai nazardan, tezlikni rivojlantirish uchun mashqlarni asta-sekin murakkablashtirish tavsiya etiladi: avval oddiy signalga javob, keyin yo‘nalishni tanlash, undan so‘ng to‘p bilan bajariladigan va raqib harakatiga bog‘langan topshiriqlar. Bu yondashuv sportchining tezkor harakatni real o‘yin sharoitiga ko‘chirishiga yordam beradi. Mashg‘ulotlarda individual farqlarni hisobga olish ham muhim: bir xil mashq barcha sportchilarga bir xil yuklama bilan berilmasligi kerak.Qizlarning mashg‘ulot jarayonida psixologik tayyorgarlik va motivatsiya omili ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Tezlik mashqlari qisqa, aniq maqsadli va turli shakllarda tashkil etilsa, mashg‘ulotning qiziqarliligi oshadi. Juftlik va kichik guruh mashqlari esa musobaqaga xos vaziyatni modellashtirishga imkon beradi. Biroq raqobat elementlari sportchining texnik xavfsizligi va sog‘lig‘iga zid bo‘lmasligi kerak.

Xulosa: Stol tennisi bilan shug‘ullanuvchi qizlarning tezligini rivojlantirish sport tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u reaksiya tezligi, harakat tezligi, tezkor kuch, koordinatsiya va texnik mahoratning o‘zaro uyg‘unligiga asoslanadi**.**

Tezlikni rivojlantirishda mashqlarni sportchining yoshiga, tayyorgarlik darajasiga va individual xususiyatlariga moslashtirish zarur. Eng maqbul yondashuv — oddiydan murakkabga, to‘psiz mashqlardan to‘p bilan bajariladigan topshiriqlarga, alohida tezlik mashqlaridan o‘yin vaziyatiga yaqin mashqlarga bosqichma-bosqich o‘tishdir.

Amaliy jihatdan murabbiylar mashg‘ulotlarda qisqa muddatli yuqori sifatli tezlik topshiriqlarini, reaksiya va oyoq ishlashi mashqlarini hamda texnik harakatlarni vaqt cheklovi ostida bajarishni tizimli ravishda qo‘llashlari mumkin. Tezlik natijasini baholashda faqat vaqt ko‘rsatkichi emas, balki harakatning aniqligi, muvozanat va texnik bajarilish sifati ham hisobga olinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Azamatov .: Stol tennis nazariyasi va uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2023

2. B.N.Anorqulov. : Stol tennis. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2024

3. Matveyev L.P. Sportivnaya trenirovka: teoriya i metodika. Moskva: Sport, 2010.

4. Platonov V.N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. Kiev: Olimpiyskaya literatura, 2004.

5. V.V.Komanov, G.B.Barchukova : Nachalnaya podgotovka nastolnaya tennis. Moskva .2017

CHAQQONLIK VA KOORDINATSION QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Tajieva Zlixa Markabaevna
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali stajyor o‘qituvchisi
zlixatajieva@gmail.com

Kalit so‘zlar: *chaqqonlik, koordinatsiya, sportchi, jismoniy tayyorgarlik, harakat aniqligi, muvozanat, zamonaviy texnologiyalar, sport mashg‘uloti.*

Ключевые слова: *ловкость, координация, спортсмен, физическая подготовка, точность движений, равновесие, современные технологии, спортивная тренировка.*

Key words: *agility, coordination, athlete, physical fitness, movement accuracy, balance, modern technologies, sports training.*

Kirish. Zamonaviy sportning rivojlanishi sportchilardan yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda murakkab harakatlarni tez, aniq va muvofiqlashtirilgan holda bajarish qobiliyatini ham talab etmoqda. Ayniqsa, sport faoliyatida vaziyatning tez-tez o‘zgarishi, raqib yoki sport anjomining harakatiga moslashish va qisqa vaqt ichida optimal harakat qarorini qabul qilish chaqqonlik va koordinatsion qobiliyatlarning yuqori darajada rivojlangan bo‘lishini taqozo etadi.

Chaqqonlik sportchining o‘zgaruvchan vaziyatlarda harakat yo‘nalishini tez o‘zgartirish, murakkab harakatlarni aniq bajarish va yangi harakatlarni qisqa vaqt ichida o‘zlashtirish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Koordinatsion qobiliyatlar esa sportchining harakatlarini boshqarish, ularni o‘zaro muvofiqlashtirish, muvozanatni saqlash va harakat faoliyatini vaziyatga mos ravishda qayta tashkil etish imkoniyatlarini ifodalaydi.

Turli sport turlarida chaqqonlik va koordinatsion qobiliyatlarning namoyon bo‘lish shakllari farq qiladi. Sport o‘yinlarida tezkor yo‘nalish o‘zgarishi, to‘xtash, tezlanish va texnik harakatlarni bajarish muhim bo‘lsa, yakka kurash sport turlarida raqib harakatiga moslashish, muvozanatni saqlash va qarshi harakatlarni tez bajarish talab etiladi. Murakkab koordinatsion sport turlarida esa harakatlarning aniqligi, ritmi va muvofiqligi ustuvor ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda chaqqonlik va koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishda an’anaviy mashqlar bilan bir qatorda raqamli texnologiyalar, videoanaliz, sensorli qurilmalar, reaksiya va tezlikni o‘lchash vositalari hamda interaktiv mashg‘ulot tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqotning maqsadi sportchilarning chaqqonlik va koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishda qo‘llaniladigan zamonaviy texnologiyalarni ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilish, ularning asosiy xususiyatlarini aniqlash hamda mashg‘ulot jarayonida foydalanish imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, chaqqonlik va koordinatsion qobiliyatlarning mazmunini o‘rganish, ularning asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash, zamonaviy mashg‘ulot texnologiyalarini tahlil qilish, raqamli vositalarning imkoniyatlarini o‘rganish hamda sportchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda chaqqonlik va koordinatsiyani rivojlantirish bo‘yicha metodik yondashuvlarni asoslash vazifalari belgilandi.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Tadqiqotning metodologik asosini sport mashg‘ulotlari nazariyasi, jismoniy tarbiya pedagogikasi, harakat faoliyatini boshqarish va sportchilarni tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, taqqoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish va nazariy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish orqali chaqqonlik va koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari o‘rganildi. Taqqoslash metodi yordamida an’anaviy va zamonaviy mashg‘ulot texnologiyalarining imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda chaqqonlik va koordinatsion qobiliyatlarning asosiy tarkibiy qismlari sifatida muvozanat, reaksiya tezligi, harakat aniqligi, fazoviy orientatsiya, ritm, harakatlarni qayta tashkil etish va murakkab harakatlarni boshqarish qobiliyatlari ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Chaqqonlik va koordinatsion qobiliyatlar sportchining jismoniy tayyorgarligida muhim o‘rin tutadi. Sport faoliyatida harakat vaziyatlarining tez o‘zgarishi sportchidan nafaqat yuqori tezlikni, balki ushbu harakatlarni aniq va muvofiqlashtirilgan tarzda bajarishni ham talab qiladi.

Chaqqonlikning muhim tarkibiy qismlaridan biri harakat yo‘nalishini tez o‘zgartirish qobiliyati hisoblanadi. Ushbu qobiliyat sportchining tezlikni saqlagan holda bir yo‘nalishdan ikkinchi yo‘nalishga o‘tishi bilan bog‘liq. Uni rivojlantirish uchun konuslar, to‘siqlar, belgilangan yo‘nalishlar va turli signallar asosida bajariladigan mashqlardan foydalanish mumkin.

Reaksiya tezligi ham chaqqonlik va koordinatsion qobiliyatlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Sportchi tashqi signalni qabul qilib, unga imkon qadar qisqa vaqt ichida javob harakatini amalga oshirishi kerak. Vizual, ovozli yoki harakatli signallar asosida bajariladigan mashqlar reaksiya tezligini takomillashtirishga yordam beradi.

Koordinatsion qobiliyatlarning muhim ko‘rinishlaridan biri muvozanatni saqlash hisoblanadi. Muvozanat sportchining statik yoki dinamik holatda tana holatini nazorat qilish qobiliyatini anglatadi. Muvozanat mashqlari turli sport turlarida texnik harakatlarning aniqligini oshirish uchun qo‘llanilishi mumkin.

Fazoviy orientatsiya sportchining o‘z tanasi va harakatining makondagi holatini aniqlash qobiliyatini ifodalaydi. Bu qobiliyat ayniqsa sport o‘yinlari, yakka kurash va murakkab koordinatsion harakatlarga asoslangan sport turlarida muhim ahamiyatga ega.

Chaqqonlik va koordinatsiyani rivojlantirishda to‘siqlar bilan bajariladigan mashqlar samarali vositalardan biridir. Konuslar, narvonchalar, to‘siqlar va boshqa jihozlardan foydalanish orqali sportchining yo‘nalishni o‘zgartirish, tezlanish, to‘xtash va harakatlarni muvofiqlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin.

Koordinatsion narvoncha bilan bajariladigan mashqlar ham zamonaviy sport mashg‘ulotlarida keng qo‘llaniladi. Ushbu mashqlar oyoq harakatlarining tezligi, aniqligi, ritmi va koordinatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mashqlarni turli yo‘nalish va ritmlarda bajarish orqali harakat murakkabligini bosqichma-bosqich oshirish mumkin.

Chaqqonlikni rivojlantirishda yo‘nalishni o‘zgartirish mashqlari alohida ahamiyatga ega. Sportchi belgilangan nuqtalar o‘rtasida harakatlanib, murabbiy signali asosida yo‘nalishni o‘zgartirishi mumkin. Bunday mashqlar sportchining reaksiya tezligi va harakatlarni qayta tashkil etish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Aylanma mashg‘ulotlar ham koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin. Turli stansiyalarda turli harakatlarni bajarish orqali sportchi bir mashqdan ikkinchisiga tez moslashish, harakatlarni boshqarish va jismoniy yuklamaga mos ravishda texnik faoliyatni saqlash imkoniyatini rivojlantiradi.

Chaqqonlik va koordinatsiyani rivojlantirishda mashqlarni o‘zgaruvchan sharoitlarda bajarish muhim ahamiyatga ega. Doimiy bir xil sharoitda bajariladigan mashqlardan farqli

ravishda, o‘zgaruvchan vaziyatlar sportchining harakatlarni qayta tashkil etish va yangi vaziyatga tez moslashish qobiliyatini rivojlantiradi.

Masalan, murabbiy turli rang, ovoz yoki raqamli signal berishi mumkin. Sportchi signalga qarab yo‘nalishni o‘zgartiradi, belgilangan harakatni bajaradi yoki ma’lum nuqtaga tez yetib boradi. Bunday mashqlar reaksiya tezligi, qaror qabul qilish va koordinatsiyani kompleks rivojlantirish imkonini beradi.

Zamonaviy texnologiyalardan biri videoanaliz hisoblanadi. Videoanaliz yordamida sportchining harakatlarini batafsil ko‘rib chiqish, texnik xatolarni aniqlash, harakat tezligi va amplitudasini baholash mumkin. Olingan ma’lumotlar asosida sportchining individual mashg‘ulot dasturiga tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi.

Sensorli va interaktiv qurilmalar chaqqonlik va reaksiya tezligini rivojlantirishda qo‘shimcha vosita sifatida qo‘llanilishi mumkin. Bunday qurilmalar sportchiga turli vizual yoki ovozli signallar beradi va sportchi ularga imkon qadar tez javob qaytaradi. Mashg‘ulot jarayonida signalning yo‘nalishi va paydo bo‘lish vaqtini o‘zgartirish orqali topshiriq murakkabligini oshirish mumkin.

Raqamli texnologiyalarning afzalliklaridan biri mashg‘ulot natijalarini aniqroq qayd etish imkoniyatidir. Sportchining reaksiya vaqti, harakat tezligi, takroriy harakatlardagi aniqligi va boshqa ko‘rsatkichlarini qayd etish individual rivojlanish dinamikasini kuzatishga yordam beradi.

Chaqqonlik va koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishda individual yondashuv ham muhim hisoblanadi. Sportchilarning harakat tajribasi, jismoniy tayyorgarligi, yoshi, sport turi va koordinatsion imkoniyatlari turlicha bo‘lishi mumkin. Shu sababli mashqlar murakkabligi va yuklamasi sportchining individual imkoniyatlariga mos ravishda belgilanadi.

Mashg‘ulotlarda koordinatsion mashqlarning murakkabligini bosqichma-bosqich oshirish maqsadga muvofiqdir. Dastlab oddiy harakatlar o‘zlashtiriladi, keyinchalik harakatlar soni, tezligi, yo‘nalishi yoki tashqi signallarga bog‘liqligi oshiriladi. Bunday yondashuv sportchining yangi harakatlarni o‘zlashtirish va mavjud ko‘nikmalarni murakkab sharoitlarda qo‘llash imkoniyatini kengaytiradi.

Chaqqonlik va koordinatsion qobiliyatlar boshqa jismoniy sifatlar bilan ham chambarchas bog‘liq. Tezkorlik, kuch, egiluvchanlik va chidamlilikning yetarli darajada rivojlanganligi koordinatsion harakatlarni samarali bajarishga yordam beradi. Shu sababli chaqqonlik mashqlarini boshqa jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan kompleks tarzda tashkil etish maqsadga muvofiq.

Sport mashg‘ulotlarida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish ham chaqqonlikni rivojlantirish uchun samarali vosita bo‘lishi mumkin. Harakatli o‘yinlar, raqobatli topshiriqlar va o‘zgaruvchan vaziyatlarga asoslangan mashqlar sportchilarning qiziqishini oshirish bilan birga, tezkor qaror qabul qilish va harakatlarni muvofiqlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Chaqqonlik va koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishda mashg‘ulotning sifati va sportchining diqqat-e’tibori ham muhim ahamiyatga ega. Murakkab koordinatsion mashqlarni haddan tashqari charchagan holatda bajarish harakat aniqligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli murakkab koordinatsion mashqlarni sportchining yuqori ish qobiliyatiga ega bo‘lgan davrida bajarish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, mashg‘ulotlarda xavfsizlik talablariga rioya qilish zarur. Ayniqsa, tezlik bilan yo‘nalishni o‘zgartirish, sakrash va muvozanat mashqlarida maydonning holati, jihozlarning xavfsizligi va sportchining tayyorgarlik darajasi hisobga olinishi kerak.

Umuman olganda, chaqqonlik va koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishda an’anaviy mashqlarni zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish sport mashg‘ulotlarining imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunda mashqlarni sport turining xususiyatlariga moslashtirish va individual yondashuvdan foydalanish muhim hisoblanadi.

Xulosa. Chaqqonlik va koordinatsion qobiliyatlar sportchilarning jismoniy tayyorgarligi hamda musobaqa faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Ularning rivojlanganligi murakkab harakatlarni tez, aniq va muvofiqlashtirilgan holda bajarish, o‘zgaruvchan vaziyatlarga moslashish va tezkor qaror qabul qilish imkonini beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yo‘nalishni o‘zgartirish mashqlari, koordinatsion narvoncha, to‘siqlar bilan mashqlar, signal asosidagi topshiriqlar, muvozanat va o‘zgaruvchan sharoitdagi mashqlardan foydalanish chaqqonlik va koordinatsiyani rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Zamonaviy videoanaliz, sensorli qurilmalar va interaktiv texnologiyalar harakatlarni nazorat qilish, reaksiya tezligini baholash va mashg‘ulot natijalarini individual tahlil qilish imkonini kengaytiradi. Shu bilan birga, mashqlar murakkabligini bosqichma-bosqich oshirish, individual xususiyatlarni hisobga olish va yuklamalarni to‘g‘ri rejalashtirish muhimdir.

Shunday qilib, an’anaviy pedagogik metodlarni zamonaviy raqamli texnologiyalar va individual yondashuv bilan uyg‘unlashtirish sportchilarning chaqqonlik va koordinatsion qobiliyatlarini samarali rivojlantirishning muhim yo‘nalishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Platonov V. N. Sport tayyorgarligi asoslari. Kiev: Olimpiyskaya literatura, 2015, 301–315-betlar.

2. Usmonxo‘jayev T. S. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari metodikasi. Toshkent: Ilm Ziyo, 2019, 67–82-betlar.

3. Nazarov A. B. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish. Samarqand: Zarafshon, 2020, 123–137-betlar.

4. Kerimov F. A. Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2018, 96–110-betlar.

5. Salomov R. S. Harakatli o‘yinlar va ularning ahamiyati. Toshkent: Fan, 2017, 142–156-betlar.

SPORTCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Seytmuratov Talǵat Qutlımuratovich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali stajyor o‘qituvchisi
Murodov Ulug‘bek O‘tkirjon o‘g‘li
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
1-kurs talabasi
seytmuratov3434@gmail.com

Kalit so‘zlar: *sportchilar, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, mashg‘ulot metodlari, kuch, tezkorlik, chidamlilik, zamonaviy texnologiyalar.*

Ключевые слова: *спортсмены, физическая подготовка, физические качества, методы тренировки, сила, быстрота, выносливость, современные технологии.*

Key words: *athletes, physical fitness, physical qualities, training methods, strength, speed, endurance, modern technologies.*

Kirish. Bugungi kunda sport sohasining jadal rivojlanishi sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, mashg‘ulot jarayoniga zamonaviy metod va texnologiyalarni joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xalqaro sport musobaqalarida raqobatning kuchayib borishi sportchilarning jismoniy, texnik-taktik, psixologik va funksional tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarning ortishiga sabab bo‘lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, sportchilarning jismoniy tayyorgarligini samarali tashkil etish va rivojlantirish zamonaviy sport mashg‘ulotlari nazariyasi va amaliyotining muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Jismoniy tayyorgarlik sportchining mashg‘ulot va musobaqa faoliyatini samarali bajarishi uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir. Sportchining kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik hamda koordinatsion qobiliyatlari uning umumiy va maxsus tayyorgarligining asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Turli sport turlarining o‘ziga xos xususiyatlari jismoniy tayyorgarlik mazmuni va unga qo‘yiladigan talablarning farqlanishiga olib keladi. Tezkor-kuch xarakteridagi sport turlarida portlovchi kuch va tezkorlik muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, uzoq davom etadigan sport faoliyatida umumiy va maxsus chidamlilik ustuvor hisoblanadi. Sport o‘yinlarida esa tezkorlik, chaqqonlik, koordinatsiya, tezkor-kuch va maxsus chidamlilikning uyg‘un rivojlanishi talab etiladi.

Hozirgi vaqtda sport mashg‘ulotlarida an’anaviy metodlar bilan bir qatorda interval, aylanma, yuqori intensivlikdagi, funksional va plyometrik mashg‘ulotlardan foydalanish keng tarqalmoqda. Shuningdek, sportchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, mashg‘ulot yuklamalarini monitoring qilish va raqamli texnologiyalardan foydalanish mashg‘ulot jarayonini boshqarishning muhim vositalariga aylanmoqda.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqotning maqsadi sportchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda qo‘llaniladigan zamonaviy metodlarni ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilish, ularning asosiy xususiyatlarini aniqlash hamda turli sport turlaridagi mashg‘ulot jarayonida foydalanish imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: sportchilarning jismoniy tayyorgarligi tarkibiy qismlarini tahlil qilish; kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlikni rivojlantirish metodlarini o‘rganish; zamonaviy mashg‘ulot metodlarining xususiyatlarini aniqlash; individual yondashuvning ahamiyatini asoslash; sport mashg‘ulotlarida raqamli monitoring va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Tadqiqotning metodologik asosini sport mashg‘ulotlari nazariyasi, jismoniy tarbiya pedagogikasi hamda sport tayyorgarligini boshqarish bo‘yicha ilmiy-metodik qarashlar tashkil etdi. Tadqiqot davomida ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, taqqoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish va nazariy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish orqali sportchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishning an’anaviy va zamonaviy metodlari o‘rganildi. Taqqoslash metodi yordamida turli mashg‘ulot metodlarining o‘ziga xos jihatlari aniqlandi. Tizimli yondashuv asosida jismoniy tayyorgarlikning tarkibiy qismlari o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi.

Tadqiqotda jismoniy tayyorgarlikning asosiy komponentlari sifatida kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik va koordinatsion qobiliyatlar belgilandi. Shuningdek, mashg‘ulot yuklamasining hajmi, intensivligi, davomiyligi, takrorlanish soni va dam olish oralig‘i sportchilarning tayyorgarlik darajasiga mos ravishda tashkil etilishi zarurligi tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Sportchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish ko‘p komponentli jarayon bo‘lib, unda jismoniy sifatlarning har biri o‘ziga xos metod va vositalar yordamida takomillashtiriladi. Shu bilan birga, zamonaviy sport mashg‘ulotlarida jismoniy sifatlarni alohida rivojlantirish bilan bir qatorda ularni kompleks tarzda shakllantirishga ham katta e’tibor qaratilmoqda.

Kuch sifatini rivojlantirish sportchilarning umumiy va maxsus tayyorgarligida muhim o‘rin tutadi. Kuchni rivojlantirishda tashqi qarshilik bilan bajariladigan mashqlar, tana vaznidan foydalaniladigan mashqlar, erkin og‘irliklar va trenajyorlardan foydalanish mumkin. Bunda mashqlarni tanlash sport turining xususiyatlari va sportchining individual tayyorgarlik darajasiga mos bo‘lishi lozim. Zamonaviy mashg‘ulotlarda maksimal kuch bilan bir qatorda tezkor-kuch va portlovchi kuchni rivojlantirishga ham alohida e’tibor beriladi.

Tezkorlik sportchining harakatlarni qisqa vaqt ichida bajarish qobiliyatini ifodalaydi. Tezkorlikni rivojlantirish uchun qisqa masofalarga yugurish, signal asosida harakatni boshlash, yo‘nalishni tez o‘zgartirish, tezkor reaksiya mashqlari va sport turiga xos maxsus mashqlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Tezkorlik mashqlarini bajarishda harakatlarning yuqori sifatda bajarilishi va sportchining yetarli darajada tiklanishi muhim ahamiyatga ega.

Chidamlilik sportchining uzoq vaqt davomida jismoniy faoliyatni samarali bajarish va charchoqqa qarshi turish qobiliyatidir. Chidamlilikni rivojlantirishda uzluksiz, interval, takroriy va aylanma mashg‘ulot metodlaridan foydalanish mumkin. Interval metod mashqlarni ma’lum ish va dam olish oraliqlarida bajarishni nazarda tutadi. Mazkur metod mashg‘ulot yuklamasining intensivligini nazorat qilish va sportchining funksional imkoniyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi.

Chaqqonlik va koordinatsion qobiliyatlar sport faoliyatida harakatlarni tez, aniq va muvofiqlashtirilgan holda bajarish imkonini beradi. Ayniqsa, sport o‘yinlari, yakka kurash sport turlari va murakkab koordinatsion harakatlar mavjud bo‘lgan sport turlarida ushbu sifatlarning rivojlanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Chaqqonlikni rivojlantirish uchun yo‘nalishni tez o‘zgartirish, to‘siqlardan foydalanish, muvozanat mashqlari va turli koordinatsion topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Egiluvchanlik sportchining harakat amplitudasini ta’minlovchi muhim jismoniy sifat hisoblanadi. Yetarli darajadagi egiluvchanlik harakatlarni texnik jihatdan to‘g‘ri bajarish, harakat amplitudasini oshirish va ayrim hollarda jarohatlanish xavfini kamaytirishga yordam beradi. Egiluvchanlikni rivojlantirishda dinamik va statik cho‘zilish mashqlaridan foydalaniladi.

Zamonaviy sport mashg‘ulotlarida aylanma mashg‘ulot metodi ham keng qo‘llaniladi. Mazkur metod bir nechta mashqlarni ma’lum ketma-ketlikda bajarishni nazarda tutadi. Aylanma mashg‘ulotning afzalligi shundaki, mashg‘ulot davomida bir nechta jismoniy sifatlarni kompleks ravishda rivojlantirish imkoniyati mavjud. Mashqlar soni, davomiyligi, takrorlanishi va dam olish oralig‘i sportchining tayyorgarlik darajasiga qarab belgilanadi.

Funksional mashg‘ulotlar ham sportchilarning zamonaviy jismoniy tayyorgarligida muhim o‘rin egallaydi. Funksional mashqlar sportchining sport faoliyatida zarur bo‘lgan

harakatlarni takomillashtirishga yo‘naltiriladi. Bunday mashg‘ulotlarda bir vaqtning o‘zida bir nechta mushak guruhlari va harakat tizimlari ishtirok etishi mumkin.

Plyometrik mashqlar tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vositalardan biridir. Sakrash, tezkor itarilish va portlovchi xarakterdagi harakatlar plyometrik mashqlarning asosini tashkil etadi. Ushbu mashqlarni qo‘llashda sportchining tayyorgarlik darajasi, mashqlar texnikasi va yuklama hajmiga alohida e’tibor berish talab etiladi.

Zamonaviy sport tayyorgarligining yana bir muhim jihati individual yondashuv hisoblanadi. Sportchilarning jismoniy imkoniyatlari, funksional holati, mashg‘ulot tajribasi va tiklanish tezligi bir-biridan farq qiladi. Shu sababli barcha sportchilar uchun bir xil mashg‘ulot yuklamasini belgilash har doim ham maqsadga muvofiq emas. Individual yondashuv asosida mashg‘ulot hajmi va intensivligini moslashtirish sportchining imkoniyatlaridan samarali foydalanishga yordam beradi.

Mashg‘ulot jarayonida yuklamalarni boshqarishda ish hajmi va intensivligi o‘rtasidagi nisbatni to‘g‘ri belgilash muhimdir. Haddan tashqari katta yuklama yetarli tiklanish bo‘lmagan sharoitda sportchining ish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois zamonaviy mashg‘ulot jarayonida yuklama va tiklanishning optimal nisbatini ta’minlash asosiy metodik vazifalardan biri hisoblanadi.

Sport mashg‘ulotlarini boshqarishda raqamli texnologiyalar va monitoring vositalaridan foydalanish ham yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Zamonaviy texnologiyalar yordamida mashg‘ulot davomiyligi, harakat faolligi, yurak urish tezligi, yuklama intensivligi va boshqa ko‘rsatkichlarni kuzatish imkoniyati mavjud. Ushbu ma’lumotlar murabbiyga mashg‘ulot jarayonini yanada aniq rejalashtirish va individual yuklamalarni belgilashda yordam beradi.

Shuningdek, videoanaliz texnologiyalaridan foydalanish sportchilarning texnik harakatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Harakatlarni videoga olish va keyinchalik tahlil qilish orqali texnik xatolarni aniqlash, harakat amplitudasi va tezligini baholash hamda sportchining tayyorgarlik jarayoniga tegishli tuzatishlar kiritish mumkin.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy jismoniy tayyorgarlik metodlaridan foydalanish sport mashg‘ulotlarining mazmunini boyitish bilan birga, sportchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish va mashg‘ulot jarayonini ilmiy asosda boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunda zamonaviy metodlarni tanlashda sport turi, sportchining yoshi, malakasi, tayyorgarlik darajasi va mashg‘ulot bosqichi hisobga olinishi zarur.

Xulosa. Sportchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish zamonaviy sport mashg‘ulotlari tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik va koordinatsion qobiliyatlarni kompleks rivojlantirishga asoslanadi. Zamonaviy mashg‘ulotlarda interval, aylanma, funksional, yuqori intensivlikdagi va plyometrik metodlardan sport turining xususiyatlariga mos ravishda foydalanish, yuklamalarni individual rejalashtirish hamda sportchilarning funksional holatini muntazam nazorat qilish muhimdir.

Shuningdek, raqamli monitoring va videoanaliz texnologiyalaridan foydalanish mashg‘ulot jarayonini nazorat qilish va individual dasturlarni takomillashtirish imkonini beradi. Shu bois an’anaviy mashg‘ulot metodlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar va raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish sport mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Artikov A.A. Alimjanov S.I. Shukurova Sh.T. Futbolchilarning mashg‘ulot jarayonida pedagogik nazorat. Uslubiy qo‘llanma Toshkent. 2014 y. 62 b.
2. Bekturov O.Yo. Yosh futbolchilarning nazariy bilimlarni oshirish. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent. 2013y. 35 bet.
3. Talipdjanov A.I. Yuqori malakali futbolchilar tayyorlashning zamonaviy tizimi. O‘quv qo‘llanma. T., O‘zDJTI. 2012 y. 164 b
4. Platonov V.N. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. – Киев: Олимпийская литература, 2004

UDK: 796.322:796.015.52

GANDBOLCHILARNING TEZKOR-KUCH SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAXSUS MASHQLAR MAJMUASINING SAMARADORLIGI

Tajimuratov Kuat Djalgasbayevich[1], Baltanova Shaxnoza Elmuratovna[2]
[1]O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
“Sport o‘yinlari nazariyasi va metodikasi” kafedrasi stajyor o‘qituvchisi
[2]O‘zDJTSU Nukus filiali talabasi
Email: kuattajimuratov1313@gmail.com

Kalit so‘zlar: *gandbol, gandbolchi, tezkor-kuch sifatlari, jismoniy tayyorgarlik, maxsus mashqlar, tezkorlik, portlovchi kuch, chaqqonlik, mashg‘ulot jarayoni, sport tayyorgarligi.*

Ключевые слова: *гандбол, гандболист, скоростно-силовые качества, физическая подготовленность, специальные упражнения, быстрота, взрывная сила, ловкость, тренировочный процесс, спортивная подготовка.*

Keywords: *handball, handball players, speed-strength abilities, physical fitness, special exercises, speed, explosive strength, agility, training process, sports training.*

Kirish. Bugungi kunda gandbol sportida yuqori natijalarga erishish sportchilarning texnik-taktik mahorati bilan bir qatorda, ularning jismoniy tayyorgarlik darajasiga ham bevosita bog‘liq. Zamonaviy gandbol yuqori tezlikda bajariladigan yugurishlar, keskin yo‘nalish almashishlar, qisqa masofaga tezlanishlar, sakrashlar, to‘p bilan bajariladigan texnik harakatlar hamda raqib qarshiligida kuch ishlatishni talab qiluvchi dinamik sport turi hisoblanadi. Shu sababli gandbolchilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish mashg‘ulot jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi. Tezkor-kuch sifati sportchining qisqa vaqt oralig‘ida katta kuch hosil qila olish qobiliyatini ifodalab, ayniqsa, gandboldagi sakrash, tezlanish, to‘p otish, himoyadan hujumga o‘tish va qarshi hujum harakatlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Gandbol musobaqalarining intensivligi ortib borayotgan sharoitda sportchilardan qisqa vaqt ichida tezkor harakat qilish, harakat yo‘nalishini o‘zgartirish va maksimal kuchni tez safarbar etish talab qilinmoqda. O‘yinning ayrim epizodlarida gandbolchi qisqa masofaga maksimal tezlikda yugurishi, to‘satdan to‘xtashi, sakrashi yoki raqib bilan kurash jarayonida kuch ishlatishi kerak bo‘ladi. Bunday harakatlarning samaradorligi, avvalo, oyoq va tana mushaklarining portlovchi kuchi, harakat tezligi hamda nerv-mushak tizimining tezkor javob reaksiyasiga bog‘liq. Shuning uchun gandbolchilarni tayyorlashda umumiy jismoniy mashqlar bilan bir qatorda, sport faoliyatining o‘ziga xos talablarini aks ettiruvchi maxsus tezkor-kuch mashqlaridan foydalanish muhimdir.

Sport pedagogikasi va jismoniy tayyorgarlik amaliyotida tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishning turli usullari mavjud. Jumladan, plyometrik mashqlar, qisqa masofaga maksimal tezlanishlar, sakrash mashqlari, qarshilik bilan bajariladigan harakatlar, tibbiy to‘p bilan mashqlar, tezkor yo‘nalish almashish va o‘yin vaziyatlariga yaqinlashtirilgan maxsus mashqlardan foydalanish sportchilarning kuch va tezlik imkoniyatlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq mashqlarni tanlashda gandbolning texnik-taktik xususiyatlari, sportchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasi, mashg‘ulot yuklamasi va individual imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Aks holda mashg‘ulot yuklamasining haddan tashqari oshirilishi charchoqning kuchayishiga va mashqlar texnikasining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Gandbolchilarning tezkor-kuch tayyorgarligini takomillashtirish masalasining dolzarbligi shundaki, ushbu sifatlar nafaqat alohida jismoniy ko‘rsatkichlarni, balki sportchining o‘yin davomida texnik-taktik harakatlarni samarali bajarish imkoniyatlarini ham belgilaydi. Masalan, yuqoriga sakrash qobiliyatining rivojlanganligi darvozaga sakrab to‘p otish va blok qo‘yishda, qisqa masofadagi tezlanishlar qarshi hujumda, yuqori portlovchi kuch esa to‘pni kuchli va aniq otishda muhim ahamiyatga ega. Demak, tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish gandbolchining individual sport mahoratini shakllantirish va musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Shu nuqtayi nazardan, gandbolchilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, mazmuni va yuklamasi tizimli ravishda rejalashtirilgan maxsus mashqlar majmuasini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini tajriba asosida aniqlash ilmiy-amaliy jihatdan muhim vazifa hisoblanadi. Maxsus mashqlar majmuasini muntazam ravishda mashg‘ulot jarayoniga kiritish orqali sportchilarning tezkorlik, portlovchi kuch, sakrovchanlik va chaqqonlik ko‘rsatkichlarini yaxshilash imkoniyatlari mavjud.

Tadqiqot materiallari va metodlari. Tadqiqot O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialida gandbol bilan muntazam shug‘ullanuvchi talaba-sportchilar ishtirokida tashkil etildi. Tadqiqotda jami 40 nafar gandbolchi qatnashdi. Ishtirokchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi va gandbol mashg‘ulotlaridagi tajribasi imkon qadar bir-biriga yaqin bo‘lishiga e’tibor qaratildi. Tadqiqot ishtirokchilari tasodifiy tanlash tamoyili asosida ikki guruhga — tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Har bir guruh 20 nafardan sportchini tashkil etdi. Tajriba guruhida asosiy mashg‘ulot dasturiga tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus mashqlar majmuasi qo‘shimcha ravishda kiritildi, nazorat guruhi esa amaldagi an’anaviy mashg‘ulot dasturi asosida shug‘ullandi.

Tadqiqot 8 hafta davomida olib borildi. Mashg‘ulotlar haftasiga 3 marotaba tashkil etilib, har bir mashg‘ulotning davomiyligi 75–90 daqiqani tashkil etdi. Tajriba guruhida maxsus mashqlar asosiy mashg‘ulotning tayyorgarlik va asosiy qismlariga tizimli ravishda kiritildi. Mashqlarni bajarishda yuklama hajmi va intensivligi sportchilarning individual tayyorgarlik darajasiga mos ravishda bosqichma-bosqich oshirib borildi. Mashg‘ulotlar davomida yetarli dam olish oralig‘iga rioya qilinib, mashqlarni texnik jihatdan to‘g‘ri bajarish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

1-jadval. Tajriba guruhida tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan 8 haftalik mashg‘ulot yuklamasi

Hafta	Mashg‘ulotlar soni	Asosiy mashqlar	Takrorlash/masofa	Intensivlik	Dam olish
1	3	10–15 m tezlanish, joyidan sakrash, tibbiy to‘p uloqtirish	3×4–5	65–70%	60–90 soniya
2	3	15–20 m tezlanish, uzunlikka sakrash, mokisimon yugurish	3×5–6	70–75%	60–90 soniya
3	3	20 m tezlanish, yuqoriga sakrash, to‘siqlardan sakrash	4×5–6	75–80%	90 soniya
4	3	20 m tezlanish, plyometrik sakrash, tibbiy to‘p bilan mashqlar	4×6	80–85%	90–120 soniya
5	3	20–25 m tezlanish, ketma-ket sakrash, 4×9 m mokisimon yugurish	4×6–8	80–85%	90–120 soniya
6	3	Maksimal tezlanish, plyometrik mashqlar, qarshilik bilan yugurish	4×6–8	85–90%	120 soniya
7	3	20–30 m maksimal tezlanish, maksimal sakrash, tibbiy to‘p uloqtirish	4×5–7	90–95%	120–150 soniya
8	3	Musobaqaga yaqin tezlik-kuch mashqlari, kombinatsiyalangan mashqlar	3×5–6	90–95%	120–150 soniya

Izoh: *Intensivlik foizlari sportchining maksimal imkoniyatiga nisbatan belgilandi. Mashqlar orasidagi dam olish oralig‘i sportchining qisman tiklanishini ta’minlash va keyingi takrorlashlarda yuqori harakat tezligini saqlab qolish maqsadida belgilandi.*

Tajriba guruhida maxsus mashqlar majmuasi 8 hafta davomida haftasiga 3 marotaba qo‘llanildi. Mashg‘ulot yuklamasi bosqichma-bosqich oshirib borildi. Dastlabki ikki haftada sportchilarning maxsus mashqlarga moslashuvi ta’minlanib, yuklama intensivligi 65–75% oralig‘ida belgilandi. 3–5-haftalarda mashqlar hajmi va intensivligi oshirilib, tezlanish, sakrash va plyometrik mashqlarning ulushi kuchaytirildi. 6–8-haftalarda esa yuklama intensivligi

85–95% gacha yetkazilib, mashqlar gandbolning musobaqa faoliyatiga xos bo‘lgan maksimal tezkor-kuch harakatlariga yaqinlashtirildi.

Shuningdek, **har bir mashg‘ulot uchun 75–90 daqiqa** vaqt ajratildi. Shundan 15–20 daqiqa umumiy va maxsus qizdirish mashqlariga, 25–35 daqiqa maxsus tezkor-kuch mashqlariga, 20–25 daqiqa texnik-taktik mashqlarga va 10–15 daqiqa tiklanish mashqlariga sarflandi. Bu taqsimot sportchilarning asosiy mashg‘ulot yuklamasini sifatli bajarishi va ortiqcha charchashning oldini olishga qaratildi.

Tajriba guruhiga qo‘llanilgan maxsus mashqlar majmuasi gandbol faoliyatiga xos bo‘lgan tezlanish, sakrash, yo‘nalishni keskin o‘zgartirish, qisqa muddatda maksimal kuch hosil qilish va to‘p bilan bajariladigan harakatlarni hisobga olgan holda shakllantirildi. Majmua tarkibiga 10–20 metrga maksimal tezlanishlar, joyidan va yugurib kelib yuqoriga sakrash, joyidan uzunlikka sakrash, ketma-ket to‘siqlardan sakrash, 4×9 metrga mokisimon yugurish elementlari, rezina qarshilik bilan tezkor yugurish, tibbiy to‘pni maksimal tezlikda oldinga va yuqoriga uloqtirish, qisqa masofada tezkor yo‘nalish almashish hamda gandbol to‘pi bilan bajariladigan maxsus tezlik-kuch mashqlari kiritildi.

Maxsus mashqlar majmuasini qo‘llash jarayonida mashg‘ulot yuklamasi uch bosqichda tashkil etildi. Birinchi bosqichda sportchilarning mashqlar texnikasini o‘zlashtirishi va funksional moslashuvi ta’minlandi. Ikkinchi bosqichda mashqlar intensivligi va takrorlashlar soni oshirilib, tezkor-kuch sifatlariga yo‘naltirilgan yuklama kuchaytirildi. Uchinchi bosqichda esa mashqlar gandbolning musobaqa faoliyatiga yaqinlashtirilib, maksimal tezlik va portlovchi kuchni namoyon qilish talab etildi. Mashqlar orasidagi dam olish intervallari sportchilarning qisman tiklanishini ta’minlash va keyingi urinishlarda yuqori intensivlikni saqlab qolish tamoyili asosida belgilandi.

Sportchilarning tezkor-kuch tayyorgarligini baholash uchun bir nechta nazorat testlaridan foydalanildi. 30 metrga yugurish testi gandbolchilarning qisqa masofadagi tezkorlik imkoniyatlarini aniqlash uchun qo‘llanildi. Natija soniyalarda qayd etildi va vaqtning kamayishi ijobiy natija sifatida baholandi. Joyidan uzunlikka sakrash testi oyoq mushaklarining portlovchi kuchini baholash maqsadida o‘tkazildi. Natija santimetrda o‘lchandi. Yuqoriga maksimal sakrash testi sportchilarning vertikal sakrovchanligini aniqlash uchun qo‘llanilib, sakrash balandligi santimetrda qayd etildi.

Gandbolchilarning tezkorlik va chaqqonlik bilan bog‘liq tezkor-kuch imkoniyatlarini aniqlash maqsadida 4×9 metrga mokisimon yugurish testi o‘tkazildi. Test natijasi sekundlarda qayd qilindi. Bundan tashqari, yuqori tana mushaklarining portlovchi kuchini baholash uchun tibbiy to‘pni uzoqqa uloqtirish testi qo‘llanildi. Ushbu testda sportchi belgilangan boshlang‘ich chiziqdan tibbiy to‘pni maksimal kuch bilan oldinga uloqtirdi va natija metrda qayd etildi. Har bir test ikki yoki uch marta bajarilib, eng yaxshi natija statistik tahlil uchun tanlab olindi.

Nazorat testlari tadqiqotning boshlanishidan oldin va 8 haftalik tajriba yakunida bir xil sharoitlarda o‘tkazildi. Testlarni bajarish vaqti, sportchilarning umumiy holati, mashg‘ulotdan oldingi dam olish darajasi, testlar ketma-ketligi va o‘lchash usullari imkon qadar bir xil saqlandi. Bu yondashuv tajriba yakunida aniqlangan o‘zgarishlarni maxsus mashqlar majmuasining ta’siri bilan bog‘lash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, qiyosiy tahlil va matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Pedagogik kuzatuv orqali sportchilarning mashqlarni bajarish sifati va mashg‘ulot jarayonidagi faolligi nazorat qilindi. Pedagogik testlash yordamida tezkor-kuch sifatlarining dastlabki va yakuniy ko‘rsatkichlari

aniqlandi. Pedagogik tajriba maxsus mashqlar majmuasining samaradorligini aniqlashning asosiy usuli sifatida qo‘llanildi.

Olingan natijalar matematik statistika usullari yordamida qayta ishlandi. Har bir ko‘rsatkich uchun arifmetik o‘rtacha qiymat (M), o‘rtacha arifmetik xatolik (m), o‘zgarish foizi (%) va guruhlar o‘rtasidagi farqning statistik ishonchliligi aniqlandi. Tajriba va nazorat guruhlarining dastlabki hamda yakuniy natijalarini taqqoslashda Studentning t-mezoni qo‘llanildi. Statistik ahamiyatlilik darajasi $p<0,05$ chegarasida qabul qilindi.

Tadqiqot metodikasining asosiy tamoyillari — izchillik, bosqichma-bosqichlik, individuallashtirish, yuklamani optimal taqsimlash va gandbolning musobaqa faoliyatiga xos harakatlarni modellashtirishdan iborat bo‘ldi. Mazkur metodik yondashuv maxsus mashqlar majmuasining gandbolchilarning tezkor-kuch sifatlariga ta’sirini kompleks baholash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotning dastlabki bosqichida tajriba va nazorat guruhlarining tezkor-kuch tayyorgarligi darajasi nazorat testlari orqali aniqlandi. Dastlabki natijalar tahlili ikki guruh sportchilari o‘rtasida asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli farq mavjud emasligini ko‘rsatdi. Bu holat tajriba yakunida aniqlangan o‘zgarishlarni qo‘llanilgan maxsus mashqlar majmuasi samaradorligi bilan bog‘lash imkonini berdi.

8 haftalik tajriba yakunida ikkala guruhda ham jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining ijobiy dinamikasi kuzatildi. Biroq tajriba guruhida o‘zgarishlar nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq bo‘ldi. Ayniqsa, vertikal sakrash, tibbiy to‘pni uzoqqa uloqtirish va 30 metrga yugurish natijalarida sezilarli ijobiy siljishlar qayd etildi.

1-jadval. Gandbolchilarning tezkor-kuch ko‘rsatkichlarining tajribadan oldingi va keyingi natijalari

Testlar	Guruh	Tajribagacha, M±m	Tajribadan keyin, M±m	O‘zgarish, %
30 m yugurish, s	Tajriba	5,21±0,32	4,82±0,28	7,49↓
	Nazorat	5,19±0,31	5,04±0,30	2,89↓
Joyidan uzunlikka sakrash, cm	Tajriba	181,5±14,2	198,7±13,5	9,48↑
	Nazorat	182,1±13,9	189,2±13,7	3,90↑
Yuqoriga maksimal sakrash, cm	Tajriba	38,6±4,8	44,9±4,5	16,32↑
	Nazorat	38,9±4,7	41,5±4,6	6,68↑
4×9 m mokisimon yugurish, s	Tajriba	10,42±0,51	9,71±0,45	6,81↓
	Nazorat	10,39±0,49	10,08±0,47	2,98↓
Tibbiy to‘pni uzoqqa uloqtirish, m	Tajriba	6,82±0,74	7,91±0,68	15,98↑
	Nazorat	6,79±0,72	7,24±0,70	6,63↑

Izoh: ↑ — ko‘rsatkichning yaxshilanishi; ↓ — vaqt ko‘rsatkichining kamayishi ijobiy natija hisoblanadi.

30 metrga yugurish natijalari tajriba guruhida 5,21±0,32 soniyadan 4,82±0,28 soniyagacha yaxshilandi. Natijadagi o‘zgarish 7,49 foizni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa mazkur ko‘rsatkich 5,19±0,31 soniyadan 5,04±0,30 soniyagacha yaxshilanib, o‘sish samarasi 2,89 foizni tashkil etdi. Demak, maxsus tezkor-kuch mashqlari qisqa masofaga tezlanish qobiliyatining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Joyidan uzunlikka sakrash natijalarida ham tajriba guruhida yuqoriroq o‘sish kuzatildi. Tajriba guruhining o‘rtacha natijasi 181,5±14,2 sm dan 198,7±13,5 sm gacha oshib, 9,48 foizga yaxshilandi. Nazorat guruhida esa o‘zgarish 182,1±13,9 sm dan 189,2±13,7 sm gacha, ya’ni 3,90 foizni tashkil etdi. Mazkur natijalar maxsus sakrash va portlovchi kuch mashqlarining oyoq mushaklari kuch imkoniyatlarini rivojlantirishdagi samaradorligini ko‘rsatadi.

Yuqoriga maksimal sakrash testida eng katta ijobiy dinamika tajriba guruhida qayd etildi. Dastlabki 38,6±4,8 sm ko‘rsatkich tajriba yakunida 44,9±4,5 sm gacha oshdi. O‘zgarish 16,32 foizni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkich 38,9±4,7 sm dan 41,5±4,6 sm gacha oshib, 6,68 foizga yaxshilandi. Tajriba guruhidagi yuqori natija plyometrik va vertikal sakrash mashqlarining portlovchi kuchni rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan izohlanadi.

4×9 metrga mokisimon yugurish testida tajriba guruhining natijasi 10,42±0,51 soniyadan 9,71±0,45 soniyagacha qisqardi. Natija 6,81 foizga yaxshilandi. Nazorat guruhida esa 10,39±0,49 soniyadan 10,08±0,47 soniyagacha yaxshilanish kuzatilib, o‘zgarish 2,98 foizni tashkil etdi. Bu natija maxsus mashqlar majmuasining tezkor yo‘nalish almashish va harakat koordinatsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganligini ko‘rsatadi.

Tibbiy to‘pni uzoqqa uloqtirish testida ham tajriba guruhida sezilarli o‘sish kuzatildi. Dastlabki 6,82±0,74 metr ko‘rsatkich tajriba yakunida 7,91±0,68 metrga yetib, 15,98 foizga oshdi. Nazorat guruhida esa natija 6,79±0,72 metrdan 7,24±0,70 metrgacha oshib, 6,63 foizlik o‘sish qayd etildi. Ushbu o‘zgarish maxsus kuch va tibbiy to‘p bilan bajarilgan portlovchi harakatlarning yuqori tana mushaklari kuchiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

2-jadval. Guruhlar o‘rtasidagi yakuniy natijalarning statistik taqqoslanishi

Test	Tajriba guruhi, M±m	Nazorat guruhi, M±m	t	p
30 m yugurish, s	4,82±0,28	5,04±0,30	2,42	<0,05
Joyidan uzunlikka sakrash, cm	198,7±13,5	189,2±13,7	2,22	<0,05
Yuqoriga maksimal sakrash, cm	44,9±4,5	41,5±4,6	2,37	<0,05
4×9 m mokisimon yugurish, s	9,71±0,45	10,08±0,47	2,55	<0,05
Tibbiy to‘pni uzoqqa uloqtirish, m	7,91±0,68	7,24±0,70	3,07	<0,01

Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, tajriba yakunida barcha asosiy testlar bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlar statistik jihatdan ishonchli bo‘ldi. 30 metrga yugurish, joyidan uzunlikka sakrash, yuqoriga maksimal sakrash va 4×9 metrga mokisimon yugurish

natijalarida p<0,05, tibbiy to‘pni uzoqqa uloqtirish natijasida esa p<0,01 darajasidagi farq qayd etildi.

3-jadval. Tezkor-kuch ko‘rsatkichlarining o‘zgarish samaradorligi

Ko‘rsatkich	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Farq
30 m yugurish	7,49%	2,89%	4,60 p.p.
Joyidan uzunlikka sakrash	9,48%	3,90%	5,58 p.p.
Yuqoriga maksimal sakrash	16,32%	6,68%	9,64 p.p.
4×9 m mokisimon yugurish	6,81%	2,98%	3,83 p.p.
Tibbiy to‘p uloqtirish	15,98%	6,63%	9,35 p.p.

Olingan natijalarni umumlashtirish shuni ko‘rsatdiki, 8 haftalik maxsus mashqlar dasturi tajriba guruhida barcha tekshirilgan tezkor-kuch ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga olib kelgan. Eng yuqori o‘sish yuqoriga maksimal sakrashda — 16,32%, tibbiy to‘pni uzoqqa uloqtirishda 15,98% va joyidan uzunlikka sakrashda 9,48% kuzatildi. Tezlik ko‘rsatkichlarida 30 metrga yugurish natijasi 7,49%, 4×9 metrga mokisimon yugurish natijasi esa 6,81% ga yaxshilandi.

Xulosa. O‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalari gandbolchilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishda maxsus mashqlar majmuasidan foydalanish samarali metodik vosita ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida tajriba guruhiga 8 hafta davomida haftasiga 3 marotaba gandbolning o‘ziga xos harakat faoliyatiga moslashtirilgan tezlanish, sakrash, plyometrik, yo‘nalish almashish, qarshilik bilan bajariladigan mashqlar hamda tibbiy to‘p bilan bajariladigan maxsus mashqlar tizimli ravishda qo‘llanildi.

Tadqiqot yakunida tajriba guruhida barcha nazorat testlari bo‘yicha ijobiy dinamika kuzatildi. 30 metrga yugurish natijasi 7,49 foizga, joyidan uzunlikka sakrash 9,48 foizga, yuqoriga maksimal sakrash 16,32 foizga, 4×9 metrga mokisimon yugurish 6,81 foizga va tibbiy to‘pni uzoqqa uloqtirish natijasi 15,98 foizga yaxshilandi. Nazorat guruhidagi o‘zgarishlar esa mos ravishda 2,89; 3,90; 6,68; 2,98 va 6,63 foizni tashkil etdi.

Statistik tahlil natijalarida tajriba va nazorat guruhlari yakuniy ko‘rsatkichlari o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farqlar aniqlandi. Asosiy testlarning aksariyatida p<0,05, tibbiy to‘pni uzoqqa uloqtirish ko‘rsatkichida esa p<0,01 darajasidagi farq qayd etildi. Bu holat maxsus mashqlar majmuasining gandbolchilarning tezkor-kuch tayyorgarligiga ijobiy ta’siri mavjudligini tasdiqlaydi.

Eng yuqori o‘sishning vertikal sakrash va tibbiy to‘pni uzoqqa uloqtirish ko‘rsatkichlarida qayd etilishi maxsus plyometrik hamda portlovchi kuch mashqlarining samaradorligini ko‘rsatadi. Mazkur sifatlarning rivojlanishi gandbolchilarning sakrab to‘p otish, to‘siq qo‘yish, tezkor qarshi hujumga chiqish va kuchli to‘p uzatish kabi musobaqa harakatlarini samarali bajarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalariga asoslanib, gandbolchilarning mashg‘ulot jarayonida maxsus tezkor-kuch mashqlarini izchil, bosqichma-bosqich va individual imkoniyatlarni hisobga olgan holda qo‘llash tavsiya etiladi. Ayniqsa, qisqa masofaga tezlanish, vertikal va gorizontal sakrash, plyometrik mashqlar, yo‘nalishni tez o‘zgartirish hamda tibbiy to‘p bilan bajariladigan portlovchi kuch mashqlarini kompleks tarzda qo‘llash gandbolchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan 8 haftalik maxsus mashqlar majmuasidan oliy ta’lim muassasalaridagi gandbol jamoalari, sport maktablari va

gandbol bo‘yicha o‘quv-mashg‘ulot guruhlarida sportchilarning tezkor-kuch tayyorgarligini oshirish maqsadida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bompa T.O., Buzzichelli C. Periodization: Theory and Methodology of Training. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2019.

2. Haff G.G., Triplett N.T. Essentials of Strength Training and Conditioning. – 4th ed. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2016.

3. Suchomel T.J., Nimphius S., Stone M.H. The Importance of Muscular Strength in Athletic Performance. – Sports Medicine, 2016. – Vol. 46. – P. 1419–1449.

4. Markovic G., Mikulic P. Neuro-Musculoskeletal and Performance Adaptations to Lower-Extremity Plyometric Training. – Sports Medicine, 2010. – Vol. 40, No. 10. – P. 859–895.

5. Chelly M.S., Hermassi S., Shephard R.J. Relationships between Power and Strength and Sprint Performance in Handball Players. – Journal of Human Kinetics, 2010.

6. Hermassi S., Chelly M.S., Tabka Z., Shephard R.J., Chamari K. Effects of 8 Weeks in-Season Upper and Lower Limb Heavy Resistance Training on the Peak Power, Throwing Velocity, and Sprint Performance of Elite Male Handball Players. – Journal of Strength and Conditioning Research, 2011.

7. Wagner H., Finkenzeller T., Wurth S., von Duvillard S.P. Individual and Team Performance in Team-Handball: A Review. – Journal of Sports Science and Medicine, 2014. – Vol. 13. – P. 808–816.

8. Курамшин Ю.Ф. Теория и методика физической культуры. – Москва: Советский спорт, 2010.

STOL TENNISIDA SPORTCHILARNING TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Bekmuratov.M Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı dotsenti

Amanyazov.S O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali o‘qituvchisi

Azatov.B O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali 1-kurs talabasi

Kalit so‘zlar: *stol tennisi, sportchi, texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik, zarba, reaksiya, koordinatsiya, tezkorlik, o‘yin samaradorligi.*

Kirish Stol tennisi yuqori tezlik, aniqlik, chaqqonlik va tezkor qaror qabul qilishni talab qiluvchi sport turlaridan biridir. Musobaqa jarayonida sportchi juda qisqa vaqt ichida raqibning harakatini kuzatishi, to‘pning yo‘nalishini baholashi va unga mos texnik harakatni tanlashi kerak. Shu sababli zamonaviy stol tennisida sportchining texnik mahorati bilan bir qatorda taktik fikrlashi ham muhim ahamiyatga ega.

Sportchining texnik-taktik tayyorgarligi qanchalik yuqori bo‘lsa, u turli o‘yin vaziyatlarida shunchalik samarali harakat qila oladi. Ayniqsa, to‘pni qabul qilish, xizmat ko‘rsatish, hujumkor va himoyaviy zarbalarni bajarish, raqibning kuchsiz tomonlaridan foydalanish hamda o‘yin tempini o‘zgartirish kabi harakatlar musobaqa natijasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy stol tennisida raqobat darajasi yuqori bo‘lib, sportchilardan texnik harakatlarni tez, aniq va barqaror bajarish bilan birga, o‘yin davomida mustaqil taktik qarorlar qabul qilish talab etiladi.

An’anaviy mashg‘ulotlarda ayrim texnik harakatlarni takroriy bajarishga katta e’tibor beriladi. Biroq musobaqa sharoitida sportchi har bir vaziyatda bir xil harakatni qo‘llay olmaydi. Raqibning zarbasi, to‘pning aylanishi, tezligi va yo‘nalishiga qarab texnik harakatni o‘zgartirish zarur. Shu sababli texnik va taktik tayyorgarlikni birgalikda olib borish bugungi stol tennisining muhim metodik vazifalaridan biridir.

Tadqiqot maqsadi Tadqiqotning asosiy maqsadi stol tennisi sportchilarining texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan samarali mashg‘ulot usullarini aniqlash hamda texnik harakatlarni turli o‘yin vaziyatlarida qo‘llash samaradorligini oshirishdan iborat.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ✓ **ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish** — stol tennisida texnik va taktik tayyorgarlikning nazariy asoslarini o‘rganish;
- ✓ **pedagogik kuzatuv** — sportchilarning mashg‘ulot va musobaqa jarayonidagi texnik-taktik harakatlarini kuzatish;
- ✓ **taqqoslash metodi** — turli mashg‘ulot usullarining xususiyatlarini taqqoslash;
- ✓ **pedagogik tahlil** — sportchilarning texnik xatolari va taktik qarorlarini tahlil qilish;
- ✓ **umumlashtirish metodi** — olingan ma’lumotlar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mashg‘ulotlarda xizmatni qabul qilish, qisqa va uzoq zarbalar, forehand va backhand zarbalari, hujumdan himoyaga o‘tish, yo‘nalishni o‘zgartirish hamda turli taktik kombinatsiyalarni bajarishga alohida e’tibor qaratildi.

Asosiy natijalar Tadqiqot natijalari texnik va taktik tayyorgarlikni alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda tashkil etish sportchining o‘yin faoliyatini takomillashtirish uchun muhim ekanligini ko‘rsatdi.

Birinchidan, **xizmat va xizmatni qabul qilish** texnik-taktik tayyorgarlikning muhim qismi ekanligi aniqlandi. Xizmatning yo‘nalishi, tezligi va aylanishini o‘zgartirish orqali raqibni noqulay vaziyatga tushirish mumkin. Shu sababli mashg‘ulotlarda turli xil xizmatlarni bajarish va ularni turli usullarda qabul qilish mashqlarini muntazam qo‘llash maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, **forehand va backhand zarbalarini takomillashtirish** sportchining hujum imkoniyatlarini kengaytiradi. Sportchi to‘pning yo‘nalishiga qarab zarba turini tez tanlay olishi kerak. Buning uchun harakat tezligi va zarba aniqligini birgalikda rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Uchinchidan, **taktik fikrlashni rivojlantirish** sportchining raqib harakatlarini oldindan baholash imkoniyatini oshiradi. Mashg‘ulotlarda faqat oldindan belgilangan zarbalarni takrorlash bilan cheklanmasdan, o‘zgaruvchan o‘yin vaziyatlarini yaratish muhim. Masalan, murabbiy toup yo‘nalishini oldindan aytmasdan turli nuqtalarga uzatishi orqali sportchining tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish mumkin.

To‘rtinchidan, **harakat koordinatsiyasi va reaksiya tezligi** texnik-taktik mahoratning muhim tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo‘ldi. Sportchi to‘pning yo‘nalishini tez aniqlashi va unga mos ravishda tana holatini o‘zgartirishi zarur.

Beshinchidan, **o‘yin vaziyatlarini modellashtirish** texnik-taktik tayyorgarlikni takomillashtirishning samarali yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraldi. Mashg‘ulotlarda musobaqaga yaqin sharoitlarni yaratish, hisob holatini o‘zgartirish, hujum va himoya vaziyatlarini takrorlash sportchining taktik qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. **Ilmiy va amaliy ahamiyati**

Tadqiqotning **ilmiy ahamiyati** stol tennisida texnik va taktik tayyorgarlikning o‘zaro bog‘liqligini yoritish hamda sportchilarning o‘yin samaradorligini oshirishga ta’sir qiluvchi asosiy omillarni tizimlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning **amaliy ahamiyati** ishlab chiqilgan tavsiyalardan sport maktablari, oliy ta’lim muassasalari, sport to‘garaklari va stol tennisi bo‘yicha mashg‘ulotlarda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi. Xususan, xizmat va uni qabul qilish, forehand va backhand zarbalari, tezkor harakatlanish, o‘yin vaziyatlarini modellashtirish va taktik kombinatsiyalarni bajarishga qaratilgan mashqlar sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirishda qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa Xulosa qilib aytganda, stol tennisida yuqori sport natijasiga erishish uchun texnik mahorat va taktik fikrlashni birgalikda rivojlantirish zarur. Sportchi texnik harakatlarni qanchalik aniq bajarmasin, agar u o‘yin vaziyatini to‘g‘ri baholay olmasa, texnik imkoniyatlardan to‘liq foydalana olmaydi.

Shu sababli mashg‘ulot jarayonida texnik harakatlarni takroriy o‘rgatish bilan bir qatorda, o‘zgaruvchan o‘yin vaziyatlarini yaratish, tezkor qaror qabul qilish, raqib harakatini tahlil qilish va turli taktik kombinatsiyalarni qo‘llashga alohida e’tibor berish lozim. Bunday yondashuv stol tennischilarning musobaqa sharoitidagi harakat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matveyev L.P. **Teoriya i metodika fizicheskoy kultury.** — Moskva: Sport, 2008.
2. Jeleznyak Yu.D., Petrov P.K. **Osnovy nauchno-metodicheskoy deyatelnosti v fizicheskoy kulture i sporte.** — Moskva: Akademiya, 2002.
3. Platonov V.N. **Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte.** — Kiyev: Olimpiyskaya literatura, 2004.
4. Stol tennisi bo‘yicha sportchilarni tayyorlash metodikasiga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar.
5. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasi bo‘yicha o‘quv-uslubiy materiallar.

STOL TENNISINING INSON SALOMATLIGI VA JISMONIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Bekmuratov.M
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı dotsenti
Amanyazov.S
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali o‘qituvchisi
Azatov.B
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali 1-kurs talabasi

Kalit so‘zlar: *stol tennisi, sport, salomatlik, jismoniy rivojlanish, jismoniy faollik, chaqqonlik, tezkorlik, reaksiya, koordinatsiya, diqqat, sog‘lom turmush tarzi.*

Kirish Jamiyatda sog‘lom avlodni tarbiyalash, yoshlarning jismoniy faolligini oshirish va ularni sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Zamonaviy hayot tarzida insonning harakat faolligi kamayib borayotgani sababli turli xil sport mashg‘ulotlarini hayot tarziga kiritish muhim ahamiyatga ega.

Jismoniy tarbiya va sport inson organizmining funksional imkoniyatlarini oshirish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, harakat faolligini yaxshilash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Sportning har bir turi inson organizmiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi. Shunday sport turlaridan biri stol tennisidir.

Stol tennisi kichik maydonda o‘ynalishiga qaramay, sportchidan yuqori darajadagi harakat faolligi va diqqatni talab qiladi. O‘yin davomida to‘p juda qisqa vaqt ichida katta tezlikda harakatlanishi mumkin. Sportchi esa raqib zarbasini kuzatib, to‘pning yo‘nalishi va tezligini baholaydi hamda unga mos harakatni amalga oshiradi.

Shu sababli stol tennisi insonning nafaqat jismoniy, balki aqliy va psixomotor qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi hozirgi davrda yoshlar o‘rtasida jismoniy faollikni oshirish, bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, maktab, kollej, texnikum va oliy ta’lim muassasalarida sport mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish yoshlarning jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Stol tennisi sport zallarida nisbatan kam joy talab qilishi, mashg‘ulotlarni turli darajadagi tayyorgarlikka ega bo‘lgan sportchilar bilan tashkil etish imkoniyati va harakatlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Stol tennisida sportchi doimiy ravishda harakatda bo‘ladi. U to‘pni kuzatish, zarbani qabul qilish, tana holatini o‘zgartirish, qo‘l harakatini muvofiqlashtirish va keyingi zarbaga tayyorlanish kabi harakatlarni bir vaqtning o‘zida bajaradi. Bu holat sportchining harakat koordinatsiyasi va reaksiya tezligini rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi Tadqiqotning asosiy maqsadi stol tennisi mashg‘ulotlarining inson salomatligi va jismoniy rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish, shuningdek, ushbu sport turidan yoshlarning jismoniy tarbiyasi va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda foydalanish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Stol tennisining jismoniy tarbiya tizimidagi ahamiyatini o‘rganish.
- Stol tennisi mashg‘ulotlarida rivojlanadigan asosiy jismoniy sifatlarni aniqlash.
- Mashg‘ulotlarning harakat koordinatsiyasi va reaksiya tezligiga ta’sirini tahlil qilish.
- Stol tennisining sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi ahamiyatini yoritish.
- Yosh stol tennischilar uchun mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot usullari

Tadqiqot jarayonida ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish va tahliliy usullardan foydalanildi.

Stol tennisi mashg‘ulotlarida bajariladigan asosiy harakatlar, jismoniy sifatlar va texnik harakatlarning xususiyatlari o‘rganildi.

Asosiy qism

Stol tennisining inson organizmiga ta’siri

Stol tennisidagi mashg‘ulotlar insonning harakat faolligini oshirishga xizmat qiladi. O‘yin vaqtida sportchi qisqa masofalarda tez-tez harakatlanadi, gavda holatini o‘zgartiradi va zarba berish uchun qulay pozitsiyani egallaydi.

Bunday harakatlar organizmning umumiy harakat faolligini oshiradi. Mashg‘ulotlarning muntazamligi insonning jismoniy tayyorgarlik darajasini yaxshilashga yordam berishi mumkin.

Stol tennisida harakatlar yuqori darajadagi aniqlikni talab qiladi. To‘pning harakatini kuzatish va unga mos zarba berish jarayonida ko‘rish analizatori, qo‘l harakatlari va gavda holati o‘zaro muvofiqlashadi. Bu esa harakat koordinatsiyasini rivojlantirish uchun muhim hisoblanadi.

Chaqqonlikni rivojlantirish

Chaqqonlik stol tennischi uchun muhim jismoniy sifatlardan biridir. Sportchi raqibning zarbasiga javob berish uchun juda qisqa vaqt ichida harakat yo‘nalishini o‘zgartirishi mumkin.

Masalan, to‘p stolning o‘ng tomoniga yo‘naltirilganda sportchi tezda o‘sha tomonga harakat qiladi, zarbani amalga oshiradi va keyingi zarba uchun boshlang‘ich holatga qaytadi. Bunday harakatlarning muntazam takrorlanishi chaqqonlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Reaksiya tezligini rivojlantirish

Stol tennisining o‘ziga xos jihatlaridan biri — to‘p harakatiga tez reaksiya qilish zaruratidir. Sportchi raqibning zarbasini kuzatib, to‘pning yo‘nalishi va ehtimoliy tushish nuqtasini tez baholashi kerak.

Reaksiya tezligi nafaqat stol tennisida, balki kundalik hayotda ham muhim harakat qobiliyati hisoblanadi. Stol tennisi mashg‘ulotlari orqali turli harakatlarga tez javob berish ko‘nikmasini shakllantirish mumkin.

Harakat koordinatsiyasini takomillashtirish koordinatsiya — inson harakatlarini aniq va muvofiq bajarish qobiliyatidir. Stol tennisida qo‘l, ko‘z, gavda va oyoq harakatlarining bir-biriga mos bo‘lishi talab etiladi.

To‘pga zarba berishda raketkaning burchagi, zarba kuchi, tana holati va to‘pning yo‘nalishi o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun muntazam mashg‘ulotlar harakatlarni boshqarish va muvofiqlashtirish qobiliyatini takomillashtirishga yordam beradi.

Tezkorlik va harakat aniqligi

Stol tennisida zarbalarni juda tez bajarish bilan birga, ularning aniqligi ham muhim. Faqat tez harakat qilishning o‘zi yetarli emas; sportchi to‘pni kerakli yo‘nalishga va belgilangan nuqtaga yo‘naltira olishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, mashg‘ulotlarda tezlik va aniqlikni birgalikda rivojlantirish maqsadga muvofiq. Buning uchun turli masofa va yo‘nalishlarga to‘p uzatish, belgilangan nuqtaga zarba berish kabi mashqlardan foydalanish mumkin.

Diqqat va konsentratsiya. Stol tennisida sportchi o‘yin davomida diqqatini doimiy ravishda to‘pga va raqib harakatlariga qaratib turishi kerak. Bir lahza diqqatning susayishi zarbani noto‘g‘ri bajarishga olib kelishi mumkin.

Shu sababli stol tennisi mashg‘ulotlarida diqqatni jamlash, to‘p harakatini kuzatish va tez qaror qabul qilish ko‘nikmalari ham shakllanadi.

Sog‘lom turmush tarzida stol tennisining o‘rni

Sog‘lom turmush tarzi insonning kundalik hayotida jismoniy faollik, to‘g‘ri ovqatlanish, yetarli dam olish va zararli odatlardan voz kechish kabi omillarni qamrab oladi. Stol tennisi

jismoniy faollikni oshirishning qulay shakllaridan biri bo‘lishi mumkin. Mashg‘ulotlarni muntazam tashkil etish insonni harakatchan bo‘lishga undaydi va bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish imkonini beradi.

Ayniqsa, yoshlarni sportga jalb qilish ularning kundalik faolligini oshirish va sportga qiziqishini shakllantirish nuqtayi nazaridan muhimdir.

Yoshlar jismoniy tarbiyasida stol tennisidan foydalanish

Yosh stol tennischilarni tayyorlashda mashg‘ulot yuklamalarini ularning yoshi, jismoniy tayyorgarligi va texnik ko‘nikmalariga mos ravishda belgilash zarur.

Dastlabki bosqichda asosiy e’tibor raketkani to‘g‘ri ushlash, to‘g‘ri turish, harakatlanish va to‘pni his qilish kabi oddiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratiladi.

Keyingi bosqichlarda texnik harakatlar murakkablashtiriladi. Turli zarbalar, to‘pni yo‘naltirish, raqib harakatini kuzatish va taktik qaror qabul qilish elementlari kiritiladi.

Mashg‘ulot jarayonida jismoniy tayyorgarlik va texnik tayyorgarlikni bir-biri bilan bog‘liq holda olib borish samarali hisoblanadi.

Mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar

Stol tennisi mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish uchun quyidagi jihatlarga e’tibor berish maqsadga muvofiq:

- mashg‘ulotni yengil badan qizdirish mashqlari bilan boshlash;
- yuklamani asta-sekin oshirish;
- sportchining yoshi va tayyorgarlik darajasini hisobga olish;
- texnik harakatlarni bosqichma-bosqich o‘rgatish;
- tezkorlik va reaksiyani rivojlantiruvchi maxsus mashqlardan foydalanish;
- harakat koordinatsiyasiga qaratilgan mashqlarni muntazam bajarish;
- mashg‘ulotlar davomida dam olish oraliqlarini to‘g‘ri tashkil etish;
- xavfsizlik qoidalariga rioya qilish;
- mashg‘ulot natijalarini muntazam kuzatib borish.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, stol tennisi insonning bir nechta jismoniy va psixomotor qobiliyatlarini kompleks ravishda rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, reaksiya tezligi, chaqqonlik, harakat koordinatsiyasi, tezkorlik va harakat aniqligi stol tennisida muhim ahamiyatga ega.

Mashg‘ulot jarayonida sportchi nafaqat jismoniy harakatlarni bajaradi, balki vaziyatni tez baholash va harakat rejasini o‘zgartirishga moslashadi. Bu holat stol tennisini jismoniy va psixomotor tayyorgarlikni birgalikda rivojlantirishga xizmat qiluvchi sport turi sifatida ko‘rsatadi.

Shuningdek, stol tennisi mashg‘ulotlarini yoshlar o‘rtasida ommalashtirish ularning sportga qiziqishini oshirish va bo‘sh vaqtlarini foydali tashkil etish imkonini beradi.

Amaliy ahamiyati tadqiqot natijalaridan umumta’lim maktablari, sport maktablari, oliy ta’lim muassasalari va sport to‘garaklarida stol tennisi mashg‘ulotlarini tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tavsiya etilgan mashqlar yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, texnik harakatlarni takomillashtirish va musobaqalarga tayyorgarlik jarayonini samarali tashkil etishda qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, stol tennisi inson salomatligi va jismoniy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sport turlaridan biridir. Uning asosiy xususiyati sportchidan tezkor

harakat, aniq zarba, yuqori reaksiya tezligi, diqqat va harakatlarni muvofiqlashtirishni talab qilishidir.

Stol tennisi mashg‘ulotlari chaqqonlik, tezkorlik, reaksiya, koordinatsiya va harakat aniqligini rivojlantirishga yordam beradi. O‘yin jarayonida sportchi to‘pning harakatini kuzatadi, vaziyatni baholaydi va qisqa vaqt ichida qaror qabul qiladi. Bu esa jismoniy sifatlar bilan bir qatorda psixomotor qobiliyatlarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yoshlarni stol tennisiga muntazam jalb qilish ularning jismoniy faolligini oshirish, sportga qiziqishini kuchaytirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim vosita bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun ta’lim muassasalari va sport tashkilotlarida stol tennisi mashg‘ulotlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish, mashg‘ulot mazmunini yosh sportchilarning individual xususiyatlariga moslashtirish va jismoniy hamda texnik tayyorgarlikni kompleks ravishda olib borish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matveyev L.P. **Teoriya i metodika fizicheskoy kultury.** — Moskva: Sport, 2008.
2. Jeleznyak Yu.D., Petrov P.K. **Osnovy nauchno-metodicheskoy deyatelnosti v fizicheskoy kulture i sporte.** — Moskva: Akademiya, 2002.
3. Volkov L.V. **Teoriya i metodika detskogo i yunosheskogo sporta.** — Kiyev: Olimpiyskaya literatura, 2002.
4. Platonov V.N. **Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte.** — Kiyev: Olimpiyskaya literatura, 2004.
5. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasi bo‘yicha o‘quv-uslubiy materiallar.
6. Stol tennisi bo‘yicha sportchilarni tayyorlash metodikasiga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar.

ПРОЦЕССЫ ОБУЧЕНИЯ ТЕХНИКЕ ИГРЫ В ВОЛЕЙБОЛ

Худайбергенова Нигора Назарбаевна
Студент 2-го курса по направлению волейбол Нукусского филиала Узбекского государственного университета физической культуры и спорта

Ключевые слова- *волейбол, тренировка, спорт, подготовка, техника, игра, мастерство, скорость.*

Kalit so‘zlar– *voleybol, mashg‘ulot, sport, tayyorgarlik, texnika, o‘yin, mahorat, tezlik.*

Keywords- *volleyball, training, sport, preparation, technique, game, skill, speed.*

Введение: Волейбол является одним из командных видов спорта, в котором техническая и тактическая подготовка игроков имеет важное значение. Во время игры спортсмен должен за короткое время определить направление мяча, выбрать нужное движение и выполнить его с высокой точностью. Поэтому процесс обучения технике волейбола не состоит из повторения простых движений, а требует постепенного формирования двигательных навыков.

Под техникой волейбола понимается комплекс специальных приемов, позволяющих эффективно действовать в игровых ситуациях. К ним относятся опорные и подвижные положения, передача и прием мяча, выполнение подачи, атакующий удар, блокирование и защитные действия.

Основной целью технической подготовки является формирование у спортсмена способности быстро, точно и эффективно выполнять действия, соответствующие игровой ситуации.

Процесс первичного обучения спортивным навыкам является фундаментом системы многолетней спортивной подготовки. Чем основательнее и качественнее первичное обучение с организационной, научной и материально-технической точки зрения, тем короче и проще путь подготовки спортивных заместителей. Но это, конечно, напрямую зависит от знаний, профессиональных навыков и квалификации специалиста. Поэтому одним из наиболее важных и основных разделов учебной программы, предназначенной для подготовки специалистов, является методика (технология) начального обучения.

В данной лекции интерпретируются цели, задачи, методы и средства процесса начального обучения, а также информация по данной теме. Одним из основных условий достижения эффективного результата в соревновательном процессе является совершенствование технической подготовки и технического мастерства волейболиста. Следовательно, первоначальной и основной целью процесса обучения является совершенное овладение техникой игры.

Процесс обучения - это педагогический процесс, требующий от тренера большого мастерства, профессиональной подготовки. Повышение игрового мастерства учащегося и обучение технике исполнения связаны и с другими важными факторами активность ребенка, количество и качество занятий, продолжительность, подходящее техническое оборудование, условия места проведения занятия, интерес ребенка, опыт (богатство) движений и т. д.

ОСНОВНЫЕ ЗАДАЧИ ОБУЧЕНИЯ ТЕХНИКЕ ВОЛЕЙБОЛА

В процессе обучения технике волейбола выполняются следующие задачи:

-Дать учащимся теоретическое представление об основных технических элементах волейбола.

-Обучение правильной форме выполнения движений.

-Поэтапный перевод действий из обычных условий в сложные.

-Повышение точности и скорости технических действий.

-Формирование навыков применения действий в игровых условиях.

-Выявление и устранение технических ошибок.

-Учет физических и психологических особенностей учащихся.

-Увязка технической и тактической подготовки.

При обучении техническим действиям важно обращать внимание не только на результат, но и на то, как выполняется действие. Если неправильно сформированное движение впоследствии автоматизируется, его будет гораздо сложнее исправить.

Необходимо также отметить, что сроки освоения техники движений зависят от семейных условий ребенка, его социальных и экономических возможностей, а также психического состояния. Процесс предварительного обучения осуществляется в несколько этапов, и каждый из этих этапов включает в себя своеобразные методические средства. Общеразвивающие упражнения используют для развития у игрока физической выносливости и необходимых для игрока двигательных навыков и умений.

Все упражнения, объединенные в соответствии со своим направлением, составляют основные части специальной тренировочной подготовки: общая физическая,

специальная физическая, технико-тактическая, игровая подготовка, каждый вид подготовки имеет свои ведущие факторы, с помощью которых достигается поставленная цель. При этом все виды подготовки неразрывно связаны друг с другом. Например, если ученик плохо подготовлен физически, он не сможет хорошо выполнить техническое упражнение по удару в атаке. В этом случае физическое закаливание учащегося полезнее, чем многократное повторение приема удара.

Первый этап - ознакомление с изучаемой техникой движений. При этом используются методы рассказа, демонстрации и объяснения. Наряду с личным показанием тренер использует наглядные пособия. (кинофильм, изобразительный фильм, схема, макет поля и т.д.).

Второй этап - изучение техники в обычном режиме. Успех на данном этапе обучения во многом зависит от правильного выбора подводящих упражнений. Они по своей форме строения должны быть близки к изучаемой технике движения и выполняться учащимися. Движение (атакующий удар), имеющее сложную структуру, выполняется, разделив его на основные звенья. На этом этапе используются методы управления (приказ, указание, зрение и слух, визуальная обработка, технические средства и т. д.), а также такие методы, как наглядные действия (непосредственная помощь учителя, использование вспомогательного оборудования), информация (сила удара по мячу, определение места падения), световое или звуковое обозначение.

Третий этап - обучение технике в усложненных условиях. При этом применяются повторный метод, выполнение движения в сложных условиях, игровой и оценочный метод, комбинированный метод, круговые упражнения и т.д. Метод повторения является самым главным на этом этапе. Только многократное повторение формирует навык. Для приобретения навыка повторение требует выполнения упражнения в различных условиях (изменение условий движения, постепенное усложнение). Упражнения выполняются даже при усталости, совместные игровые приемы одновременно направлены на оттачивание техники и совершенствование технико-тактической подготовки и игрового мастерства.

Четвертый этап - предусматривает закрепление движения в процессе игры. При этом используется метод интерпретации выполненных действий (рисунки, таблицы, учебные фильмы, изобразительные фильмы). В процессе игры применяются технико-тактические, специальные подготовительные задания, игровые и соревновательные приемы.

В обучении активные методы имеют большие возможности. Среди них особое значение имеет методика проблемного обучения, постановки проблемных задач и оценки собственного успеваемости. Постановка проблемных задач создает состояние, ситуацию, в которой ищется ее решение, а самооценка приводит к дальнейшей активизации двигательной деятельности, что еще больше повышает интерес учащегося и учит позитивно мыслить.

Применение вышеизложенного имеет важное значение в волейболе и приводит к намеченной цели. Основная суть метода самооценки заключается в том, чтобы видеть результаты, понимать их и четко чувствовать приближение к цели.

Заключение: Обучение технике игры в волейбол является многоэтапным и системным педагогическим процессом. Для эффективного формирования технических навыков необходимо сначала получить правильное представление о движении, затем

изучить движение, разделив его на части, выполнить в целом, повторить и, наконец, применить в игровой ситуации.

Основные технические элементы, такие как передача мяча сверху и снизу, выполнение подачи, атакующий удар и блокировка, должны быть обучены в тесной взаимосвязи друг с другом. Рациональное использование методов объяснения, демонстрации, повторения, игры и соревнования в тренировочном процессе повышает эффективность технической подготовки.

В процессе обучения технике волейбола важно учитывать возрастные и индивидуальные особенности учащихся, постепенно увеличивать тренировочную нагрузку и своевременно исправлять технические ошибки. Правильно организованная техническая подготовка повышает не только индивидуальное мастерство спортсмена, но и эффективность командной игры.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Abdullaeva M. Bolalar o‘yinlarida o‘z-aro munosabatlar.//Boshlangich ta’lim.-Toshkent.2000-№3.-b.47-48.

2. Solomov R.S. Sport mashg`ulotining nazariy asoslari Toshkent, 2005

3.Ayrapetyants L.R., Voleybol. «Учебник для высших учебник заведений”. ZAR QALAM, T. 2006 y. 239 b

4. PulatovA.A.Voleybol.//JTII kurs talabalariga mo‘ljallangan ma’ruzalar to‘plami. -T., 2004, 71 b.

5.Pulatov A.A., IsroilovSh.X. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. -T., 2007,148 b.

INDIVIDUAL-PSIXOLOGIYALÍQ ÓZGESHELIKLERDI ESAPQA ALÍW TIYKARÍNDA 14-16 JASLÍ TENNISSHILERDIŃ TEXNIKALÍQ-TAKTIKALÍQ TAYARLÍǴÍN QÁLIPLESTIRIW

"Sport oyınları teoriyası hám metodikası" kafedrası dotsenti Berdekeev Abubakir Abutalipovich, Uzaqbergenov Aydos 3-kurs

berdekeevabubakir @gmail.com

Gilt sózler: *tennis, jas sportshılar, individual-psixologiyalıq ózgeshelikler, temperament, texnikalıq tayarlıq, taktikalıq tayarlıq, jekelestirilgen shınıǵıw.*

Ключевые слова: *теннис, юные спортсмены, индивидуально-психологические особенности, темперамент, техническая подготовка, тактическая подготовка, индивидуализированная тренировка.*

Keywords: *tennis, young athletes, individual psychological characteristics, temperament, technical training, tactical training, individualized training.*

Kirisiw. Házirgi zaman tennisi joqarı tezlik, turaqlı hám uzaq muddetli psixologiyalıq shıdamlılıqtı talap etetuǵın sport túri. Sportshınıń jetiskenligi tek fizikalıq kúshi hám texnikasına emes, al oyın jaǵdayın tez bahalaw, ózin basqarıw hám kritikalıq pátte durıs qarar qabıllaw qábiletine de baylanıslı. Sol sebepli tennis boyınsha jas sportshılardı tayarlawda psixologiyalıq faktorlar tiykarǵı orınlardan birin iyeleydi.

14-16 jas dáwiri bolajaq sportshı ushın sheshiwshi basqısh esaplanadı. Usı dáwirde texnikalıq kónlikpeler bekkemlenedi, taktikalıq oylaw qáliplesedi, minez hám motivaciya jaqtan turaqlasıw baslanadı. Sonıń menen birge jas ósiwi menen baylanıslı fiziologiyalıq ózgerisler, emocionallıq turaqsızlıq hám ózin basqalar menen salıstırıw sezimi kúsheyedi.

Bunday jaǵdayda birdey shınıǵıw metodikasın barlıq sportshıǵa qollanıw kútilgen nátiyjeni bermeydi.

Sol sebepli individual-psixologiyalıq ózgesheliklerdi esapqa alıw — tayarlıq procesin nátiyjeli shólkemlestiriwdiń zárúrli shártlerinen biri. Bul tema ilimiy hám ámeliy jaqtan aktual bolıp, tennis boyınsha trenerlerdiń kúndelikli jumısında tikkeley qollanıwǵa múmkinshilik beredi.

Izertlewdiń maqseti hám wazıypaları

Maqseti: 14-16 jaslı tennisshilerdiń individual-psixologiyalıq ózgesheliklerin esapqa alǵan halda, olardıń texnikalıq hám taktikalıq tayarlıǵın qáliplestiriwdiń metodikalıq tiykarların tiykarlaw.

Wazıypaları:

1) Tennis boyınsha shuǵıllanıwshı 14-16 jaslı jas sportshılardıń psixologiyalıq ózgesheliklerin úyreniw hám anıqlaw usılların analizlew.
2) Temperament hám minez tiplerine qarap texnikalıq hám taktikalıq tayarlıq metodikasın islep shıǵıw.
3) Usınılǵan metodikanıń nátiyjeliligin pedagogikalıq tájiriybe arqalı tekseriw.

1. 14-16 jaslı tennisshilerdiń jas hám psixologiyalıq ózgeshelikleri

Usı jas dáwiri organizmniń tez ósiwi menen xarakterlenedi. Deneniń uzınlıǵı keskin artıp, bulshıq et hám súyek sistemasınıń ósiw tempi bir-birinen parıq etiwi múmkin. Nátiyjede qozǵalıs koordinaciyası waqıtsha bozılıp, ilgeri ózlestirilgen texnikalıq kónlikpelerde turaqsızlıq payda boladı. Bul jaǵday sportshınıń ózine isenimine tásir etedi, trener bolsa bunday jaǵdayda sabır menen qaraw hám júklemeni waqtınsha sáykeslestiriwi zárúr.

Psixologiyalıq jaqtan usı jaslarda ózin-ózi bahalaw turaqsız bolıp, sınawǵa hám jeńiliske sezimtallıq kúsheyedi. Sportshı jaslar tenglesleri menen ózin salıstırıwǵa beyim boladı, bul bir tárepten motivaciyanı arttırsa, ekinshi tárepten qorqıw hám ózin kemsitiw sezimin keltirip shıǵarıwı múmkin. Sonıń menen birge ózbetinshelik, ózi qarar qabıllawǵa umtılıw payda boladı, sol sebepli trener menen sportshı arasında hurmetke tiykarlanǵan qatnas áhmiyetli.

Tiykarǵı psixologiyalıq kórsetkishler

–**Temperament** — nerv sistemasınıń qásiyetleri (kúshi, qozǵalıwshańlıǵı, teń salmaqlılıǵı) menen baylanıslı turaqlı ózgesheliklер.

–**Dıqqat** — kólemi, turaqlılıǵı, tenniste ásirese tez orınlaw hám kontsentraciya zárúr.

–**Emocionallıq turaqlılıq** — jarıs stresine, qátelikke hám sudya qararlarına tınısh qatnas jasaw qábileti.

–**Motivaciya** — jetiskenlikke umtılıw hám qátelikten qashıw motivleriniń qatnası.

–**Ózine isenim hám ózin-ózi basqarıw** — maqset qoyıw, oyın dawamında ózin jıynaw qábileti.

2. Individual-psixologiyalıq ózgesheliklerdi anıqlaw usılları

Trener jumısın jekelestiriwdi sportshınıń psixologiyalıq portretin úyreniwden baslawı kerek. Buniń ushın kompleks túrde bir neshe usıl qollanıladı: pedagogikalıq baqlaw, sportshı menen sáwbet, ápiwayı testler hám anketalar, dıqqat hám reaksiya tezligin ólshewshi sınawlar, sonday-aq jarıs dawamında minez-qulıqtı baqlaw.

Nátiyjeler bir márte emes, al dáwirli túrde (mısalı, mawsimniń basında, ortasında hám sońında) salıstırıladı. Sebebi usı jasta psixologiyalıq kórsetkishler tez ózgeriwi múmkin. Alınǵan maǵlıwmatlar sportshınıń jeke kartasına jazıp barıladı hám shınıǵıw rejesin dúziwde

tiykar sıpatında paydalanıladı. Sonıń menen birge sportshınıń jeke maǵlıwmatları gúpiya saqlanıp, ol tek tárbiyalıq maqsetlerde qollanılıwı tiyis.

3. Psixologiyalıq tiplerge qarap tayarlıq metodikası

Temperament hám minez ózgeshelikleri shınıǵıw usılın tańlawda belgilewshi áhmiyetke iye. Tómendegi tiplerge bóliw shártli bolıp, ámelde sportshılarda aralas ózgeshelikler ushırasadı. Sol sebepli bul klassifikaciya trenerge baǵdar beredi, biraq sportshını qatań qálıpqa salmaydı.

1-keste. Psixologiyalıq tiplerge qarap tayarlıq metodikasınıń ózgeshelikleri

Tip	Tiykarǵı ózgeshelikleri	Texnikalıq tayarlıqta	Taktikalıq tayarlıqta
Xolerik tipke jaqın	Tez qozıwshań, háreketshen, sabırı az, emociyası kúshli, qátelikten soń tez asıǵadı.	Qısqa, anıq tapsırmalar; háreket dálligine itibar; hár seriyadan soń pauza hám tınıshlanıw.	Sabırlılıq talap etiletuǵın uzaq rozıgırıslar; húјim menen qorǵanıwdı almastırıwǵa úyretiw.
Sangvinik tipke jaqın	Jeńil beyimlesedi, kóńilli, jańalıqqa qızıǵadı, biraq bir qıylılıqtan tez zerigedi.	Oyın formasındaǵı hám básekilik elementli shınıǵıwlar; tapsırmalardı jiyi almastırıw.	Kóp variantlı oyın jaǵdayları; universal stildi qáliplestiriw; nátiyjege qarata dıqqatın turaqlastırıw.
Flegmatik tipke jaqın	Tınısh, turaqlı, shıdamlı, biraq háreketi hám reaksiyası ásiste.	Tezlik hám reaksiyaǵa baǵdarlanǵan shınıǵıwlar; kútilmegen signallarǵa juwap beriw.	Belsendi taktikalıq qarar qabıllawǵa úyretiw; tez almasıwshı oyın jaǵdayları.
Melanxolik tipke jaqın	Sezimtal, jeńiliske awır qaraydı, ózine isenimi turaqsız, ápiwayı tásirlenedi.	Kishi basqıshlarǵa bólingen tapsırmalar; hár jetiskenlikti atap ótiw; dostlıq ortalıq.	Aldınan jaqsı tayarlanǵan jaǵdaylar; qátelikti tallaw arqalı ózine isenimdi arttırıw.

Keste kórsetkenindey, qozǵalıwshań sportshılarǵa tınıshlandırıwshı hám dıqqattı jıynawshı shınıǵıwlar, tınısh sportshılarǵa tezlik hám reaksiya shınıǵıwları, jeńil beyimlesiwshilerge ártúrli hám oyın túrindegi tapsırmalar, sezimtal sportshılarǵa bolsa qollap-quwatlawshı pedagogikalıq ortalıq kerek boladı.

4. Texnikalıq tayarlıqtı qáliplestiriw

Texnikalıq tayarlıq — tennisshiniń tiykarǵı soqqılardı (servis, forhend, bekhend, voleya, smash) durıs, turaqlı hám unamlı orınlaw kónlikpesi. 14-16 jasta bul kónlikpeler bekkemlenedi, biraq organizmniń tez ósiwi sebepli qayta tiklew hám juwıqlastırıw zárúr boladı.

Texnikalıq tayarlıqtıń tiykarǵı principleri

–**Jekelik jaqınlasıw:** dıqqatı tez awısatuǵın sportshılarǵa texnika kishi bólimlerge bólinip, qısqa tapsırmalar arqalı úyretiledi; dálliklikke beyim sportshılarǵa kóp tákirarlawǵa tiykarlanǵan shınıǵıwlar beriledi.

–**Basqıshpa-basqısh ózlestiriw:** dáslep qozǵalıstıń tiykarǵı sxeması úyreniledi, keyin tezlik, dálliklik hám turaqlılıq ústinde islenedi, aqırında jarıs sharayatına jaqın jaǵdaylarda bekkemlenedi.

–**Video-analiz:** sportshınıń óz háreketin sırttan kóriwi qáteliklerdi sanalı túrde túsiniwine járdem beredi hám óz-ózin baqlaw kónlikpesin qáliplestiredi.

–**Unamlı baylanıs:** trener tek qátelikti emes, al durıs orınlanǵan háreketti de aytıp ótiwi kerek; bul ásirese sezimtal sportshılarda ózine isenimdi arttıradı.

–**Jas ózgeshelikleri:** ósiw dáwirinde júklemeni waqıtsha azaytıp, koordinaciyanı tiklewge baǵdarlanǵan shınıǵıwlarǵa kóbirek orın beriledi.

5. Taktikalıq tayarlıqtı qáliplestiriw

Taktikalıq tayarlıq — oyın jaǵdayın tez bahalaw, qarsılastıń kúshli hám ázzi tárepin anıqlaw hám tiyisli qarar qabıllaw qábileti. Bul qábiletti rawajlandırıw ushın sáwbet hám oyın jaǵdayların birgelikte tallaw, shártli oyınlar, belgili bir wazıypa berilgen oyınlar hám jarıs simulyaciyaları paydalı.

Hár bir sportshıǵa onıń psixologiyalıq ózgesheligine say oyın stili tańlanadı: húјimshil, qorǵanıwshı yamasa universal. Mısalı, qozǵalıwshań sportshı kóbinese húјimshil stilge beyim boladı, biraq oǵan sabırlılıq talap etiletuǵın rozıgırıslar úyretiledi; tınısh sportshıǵa bolsa belsendirek taktikalıq qararlar qabıllawǵa úyretiw zárúr. Biraq tańlanǵan stil turaqlı dep esaplanbaydı: jas ósiwi menen ol rawajlanıp baradı hám sportshı basqa stillerdiń elementlerin de iyeleydi.

Taktikalıq oylawdı rawajlandırıw usılları

–oyın jaǵdayların birgelikte sheshiw hám «neden bunday qarar qabıllandı?» degen sorawlar arqalı tallaw;

–sheklengen maydan hám sheklengen soqqılar menen shártli oyınlar;

–jarıs simulyaciyaları: esap teń bolǵan, artta qalǵan yamasa aldında bolǵan jaǵdaylardı shınıǵıw;

–qarsılastı baqlaw hám oyın aldınan jeke plan dúziw kónlikpesin qáliplestiriw;

–jarıstan keyin ózin-ózi bahalaw: jetiskenlikler hám qátelikler dizimin dúziw.

6. Pedagogikalıq shárt-sharayatlar

Tayarlıq procesiniń nátiyjeli bolıwı ushın bir qatar pedagogikalıq shártler orınlanıwı tiyis:

4) Sportshınıń psixologiyalıq portretin dáwirli túrde úyreniw hám shınıǵıw rejesin sol tiykarda jańalap barıw.

5) Trener menen sportshı arasında isenimli hám hurmetke tiykarlanǵan qatnas ornatıw.

6) Shańaraq penen birgelikte islew: ata-analarǵa jeńis hám jeńiliske durıs qatnas, balaǵa basım jasamawdıń áhmiyeti túsindiriledi.

7) Jeńis hám jeńiliske salmaqlı qatnas qáliplestiriw, jeńiliske úyreniw imkaniyatı sıpatında qarawǵa úyretiw.

8) Shınıǵıw júklemesin jas hám jeke ózgeshelikke say rejelestiriw, dem alıw hám tiklew waqtın esapqa alıw.

7. Kútilgen nátiyjeler

Individual-psixologiyalıq ózgesheliklerdi esapqa alıp qurılǵan metodikanıń ámelde qollanılıwı tómendegi nátiyjelerdi beredi dep kútiledi: texnikalıq kónlikpelerdi ózlestiriw tezligi artadı; soqqılardıń dálligi hám turaqlılıǵı jaqsılanadı; jarıs stresine shıdamlılıq kúsheyedi; taktikalıq qarar qabıllaw sapası asadı; sportshılardıń motivaciyası hám ózine isenimi bekkemlenedi; shınıǵıwdan ketip qalıw qáwipi azayadı.

Juwmaq.14-16 jaslı tennisshilerdiń texnikalıq-taktikalıq tayarlıǵın qáliplestiriwde individual-psixologiyalıq ózgesheliklerdi esapqa alıw tayarlıq procesin jeke baǵdarǵa aylandıradı. Bul jol sportshınıń ózine isenimin arttıradı, úyreniw tezligin asıradı hám bolajaqta joqarı sport nátiyjelerine erisiw ushın tiyanaq boladı.

Sonday-aq, temperament tipleri shártli ekenin, sportshılardıń ózgesheliklerı jas ósiwi menen ózgerip baratuǵının esapqa alıw kerek. Sol sebepli trener ushın universal shablon emes, al hár bir jas sportshını shaxs retinde túsiniwge tiykarlanǵan, dáwirli túrde jańalanıp turatuǵın jumıs usılı zárúr.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Ilyin E.P. Psixologiya sporta. — Sankt-Peterburg: Piter, 2008.
2. Matveev L.P. Obshchaya teoriya sporta i eyo prikladnye aspekty. — Moskva: Sovetskiy sport, 2010.
3. Platonov V.N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. Obshchaya teoriya i eyo prakticheskie prilozheniya. — Kiev: Olimpiyskaya literatura, 2004.
4. Puni A.Ts. Ocherki psixologii sporta. — Moskva: Fizkultura i sport, 1959.
5. Teplov B.M. Problemy individualnyx razlichiy. — Moskva: Izdatelstvo APN RSFSR, 1961.
6. Nebylitsyn V.D. Osnovnye svoystva nervnoy sistemy cheloveka. — Moskva: Prosveshchenie, 1966.

SPORTCHILARNING TEZKORLIK SIFATINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Gulmuratova Aziyza Marat qizi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali stajyor o‘qituvchisi
O‘zbekiston, Nukus
gulmuratovaaziza1994@gmail.com

Kalit so‘zlar: *tezkorlik, sportchi, jismoniy tayyorgarlik, tezkor-kuch, reaksiya, mashg‘ulot, harakat tezligi, sport mashg‘uloti.*

Ключевые слова: *быстрота, спортсмен, физическая подготовка, скоростно-силовые качества, реакция, тренировка, скорость движений, спортивная тренировка.*

Key words: *speed, athlete, physical fitness, speed-strength, reaction, training, movement speed, sports training.*

Kirish. Zamonaviy sportda sportchilar o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi jismoniy sifatlarni yuqori darajada rivojlantirishni talab qilmoqda. Ayniqsa, tezkorlik sifati ko‘plab sport turlarida sportchining texnik-taktik harakatlarni samarali bajarishi, raqib yoki vaziyatning o‘zgarishiga tez javob berishi hamda musobaqa faoliyatida yuqori natijalarga erishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tezkorlik sportchining harakatlarni qisqa vaqt ichida bajarish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur sifat oddiy harakat tezligi bilan cheklanib qolmay, harakat reaksiyasi tezligi, alohida harakatni bajarish tezligi va harakatlar chastotasi kabi tarkibiy qismlarni ham o‘z ichiga oladi.

Turli sport turlarida tezkorlikning namoyon bo‘lish shakllari bir-biridan farq qiladi. Masalan, sport o‘yinlarida sportchi to‘p yoki raqibning harakatiga tezkor reaksiya bildirishi, yo‘nalishni o‘zgartirishi va qisqa masofaga tezlanishi talab etiladi. Yakka kurash sport turlarida esa hujum va himoya harakatlarini qisqa vaqt ichida bajarish muhim hisoblanadi. Sikllik sport turlarida esa harakatlar tezligini yuqori darajada saqlab qolish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Tezkorlikni rivojlantirish jarayonida mashqlarning mazmuni, bajarilish tezligi, takrorlanish soni, dam olish oralig‘i va sportchining individual xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Shu sababli tezkorlikni rivojlantirishning samarali usullarini aniqlash va ularni sport mashg‘ulotlari jarayoniga to‘g‘ri tatbiq etish dolzarb ilmiy-metodik masalalardan biridir.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqotning maqsadi sportchilarning tezkorlik sifatini rivojlantirishning samarali usullarini ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilish, tezkorlikning asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash hamda turli sport turlarida tezkorlikni rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan mashg‘ulot vositalarining imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, tezkorlik sifatining mazmunini o‘rganish, tezkorlikning asosiy shakllarini aniqlash, tezkorlikni rivojlantirishda qo‘llaniladigan mashq va metodlarni tahlil qilish, mashg‘ulot yuklamalarini tashkil etish xususiyatlarini aniqlash hamda tezkorlikni rivojlantirishda individual yondashuvning ahamiyatini asoslash vazifalari belgilandi.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Tadqiqotning metodologik asosini sport mashg‘ulotlari nazariyasi, jismoniy tarbiya pedagogikasi va sportchilarni tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, taqqoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish va nazariy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish orqali sportchilarning tezkorlik sifatini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari o‘rganildi. Taqqoslash metodi yordamida tezkorlikni rivojlantirishning turli metodlari va mashqlarining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi.

Tadqiqotda tezkorlikning asosiy tarkibiy qismlari sifatida reaksiya tezligi, alohida harakat tezligi va harakatlar chastotasi ko‘rib chiqildi. Shuningdek, tezkorlikning tezkor-kuch qobiliyatlari, koordinatsiya va maxsus chidamlilik bilan o‘zaro bog‘liqligiga e’tibor qaratildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tezkorlik sportchining qisqa vaqt ichida zarur harakatni amalga oshirish qobiliyati bo‘lib, ko‘plab sport turlarida yuqori natijaga erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tezkorlikning rivojlanganlik darajasi sportchining texnik harakatlarni tez va aniq bajarishi, musobaqa vaziyatiga moslashishi va raqib harakatlariga o‘z vaqtida javob berishiga yordam beradi.

Tezkorlikning namoyon bo‘lish shakllaridan biri reaksiya tezligi hisoblanadi. Reaksiya tezligi sportchining ma’lum signalni qabul qilishi va unga javob harakatini boshlashi uchun ketadigan vaqt bilan belgilanadi. Sport faoliyatida signal ko‘rish, eshitish yoki harakat orqali qabul qilinishi mumkin. Reaksiya tezligini rivojlantirish uchun turli signallar asosida bajariladigan mashqlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Masalan, murabbiy tomonidan berilgan ovozli yoki vizual signalga ko‘ra yugurishni boshlash, yo‘nalishni o‘zgartirish, ma’lum harakatni bajarish yoki sport anjomiga javob qaytarish mashqlari reaksiya tezligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tezkorlikning yana bir muhim tarkibiy qismi alohida harakatni yuqori tezlikda bajarish qobiliyatidir. Bunday harakatlar qisqa vaqt ichida maksimal yoki unga yaqin tezlikda bajariladi. Ushbu qobiliyatni rivojlantirish uchun qisqa masofaga yugurish, tezkor sakrashlar, qisqa muddatli tezlanishlar va sport turiga xos tezkor harakatlardan foydalanish mumkin.

Harakatlar chastotasi ham tezkorlikning muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Harakatlar chastotasini rivojlantirishda qisqa vaqt davomida tez-tez takrorlanadigan harakatlardan foydalaniladi. Bunday mashqlar sportchining harakatlarni tezkor va ritmik bajarish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Tezkorlikni rivojlantirishda takroriy mashq metodi keng qo‘llaniladi. Ushbu metodda mashqlar yuqori tezlikda bir necha marta takrorlanadi. Mashqlar orasida sportchining yetarli darajada tiklanishi uchun dam olish oralig‘i belgilanadi. Mazkur metoddan foydalanishda mashqlar texnik jihatdan to‘g‘ri va yuqori sifatda bajarilishi muhim.

Interval metod ham tezkorlik va tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishda qo‘llanilishi mumkin. Bunda yuqori intensivlikdagi qisqa muddatli ishlar ma’lum dam olish oraliqlari bilan navbatlashtiriladi. Interval davomiyligi sportchining tayyorgarlik darajasi va mashg‘ulot maqsadiga qarab belgilanadi.

Tezkorlikni rivojlantirishda tezkor-kuch mashqlari alohida ahamiyatga ega. Chunki ko‘plab sport turlarida yuqori tezlikka erishish uchun sportchi qisqa vaqt ichida katta kuch hosil qilishi kerak. Sakrash, tezkor itarilish, qisqa masofaga tezlanish va portlovchi harakatlar tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Plyometrik mashqlar ham tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida qo‘llaniladi. Sakrash va tezkor itarilish xarakteridagi mashqlar mushaklarning qisqa vaqt ichida yuqori kuch hosil qilish imkoniyatini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Bunday mashqlarni bajarishda sportchining tayyorgarlik darajasi va texnik xavfsizlik talablariga rioya qilish zarur.

Tezkorlikni rivojlantirishda qisqa masofalarga yugurish mashqlari samarali vositalardan biri hisoblanadi. Qisqa masofaga maksimal tezlikda yugurish, startdan tez chiqish, tezlanishni takrorlash va yo‘nalishni o‘zgartirish bilan bog‘liq mashqlar turli sport turlarida qo‘llanilishi mumkin.

Sport o‘yinlarida tezkorlikni rivojlantirish uchun maxsus harakatlar bilan birlashtirilgan mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, sportchi qisqa masofaga tezlanishdan so‘ng to‘xtash, yo‘nalishni o‘zgartirish yoki texnik harakatni bajarishi mumkin. Bunday mashqlar tezkorlikni musobaqa sharoitiga yaqinlashtirish imkonini beradi.

Yakka kurash sport turlarida esa tezkorlik ko‘pincha hujum va himoya harakatlarining tezligi bilan namoyon bo‘ladi. Shu sababli sportchining reaksiya tezligi, qo‘l va oyoq harakatlari tezligi, masofani tez o‘zgartirish va qarshi harakatlarni bajarish qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi.

Tezkorlikni rivojlantirishda mashqlarni yuqori sifatda bajarish tamoyili muhim hisoblanadi. Agar sportchi charchoq sababli mashqlarni belgilangan tezlikda bajara olmasa, mashqning tezkorlikni rivojlantirish samarasi pasayishi mumkin. Shu sababli tezkorlik mashqlarini bajarish vaqtida dam olish oralig‘ini to‘g‘ri tashkil etish muhimdir.

Mashg‘ulotlarda tezkorlikni rivojlantirish uchun yuklamaning hajmi va intensivligi o‘rtasidagi nisbatni hisobga olish zarur. Tezkorlik mashqlarida odatda qisqa davomiylikdagi

yuqori intensivlikdagi harakatlar ustuvor bo‘ladi. Mashqlar orasidagi tiklanish vaqti esa sportchining keyingi mashqni yuqori tezlikda bajarish imkoniyatini ta’minlashi kerak.

Tezkorlik sifatining rivojlanishi boshqa jismoniy sifatlar bilan ham chambarchas bog‘liq. Jumladan, kuch va tezkor-kuch qobiliyatlari yetarli darajada rivojlangan sportchi yuqori tezlikda harakatlarni bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Koordinatsion qobiliyatlarning rivojlanganligi esa tezkor harakatlarning aniqligi va samaradorligini oshiradi.

Individual yondashuv tezkorlikni rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Sportchilarning biologik va funksional imkoniyatlari, sport tajribasi, tayyorgarlik darajasi hamda sport turining o‘ziga xos xususiyatlari turlicha bo‘lgani sababli tezkorlik mashqlarining hajmi va intensivligi individual tarzda belgilanadi.

Zamonaviy sport mashg‘ulotlarida tezkorlikni nazorat qilish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ham kengayib bormoqda. Videoanaliz, vaqtni aniq o‘lchash vositalari va turli monitoring tizimlari sportchining harakat tezligini baholash va mashg‘ulot jarayonini individual rejalashtirish imkonini beradi.

Videoanaliz orqali sportchining startdan chiqish tezligi, harakat amplitudasi, qadam uzunligi, yo‘nalish o‘zgarishi va boshqa texnik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish mumkin. Bu esa tezkorlikni rivojlantirish bilan bir qatorda harakat texnikasini takomillashtirishga ham yordam beradi.

Tezkorlik mashqlarini mashg‘ulotning qaysi qismida bajarish ham muhim masalalardan biridir. Sportchining charchamagan holatida yuqori tezlikdagi mashqlarni bajarish harakatlarning sifatini saqlab qolishga imkon beradi. Shu sababli tezkorlik mashqlarini ko‘pincha mashg‘ulotning asosiy qismida, sportchi yuqori darajada ish qobiliyatiga ega bo‘lgan paytda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, tezkorlikni rivojlantirishning samaradorligi mashqlarni to‘g‘ri tanlash, yuqori sifatda bajarish, yuklamalarni individuallashtirish, yetarli tiklanishni ta’minlash va mashg‘ulot jarayonini muntazam nazorat qilish bilan bog‘liq.

Xulosa. Sportchilarning tezkorlik sifatini rivojlantirish zamonaviy sport mashg‘ulotlarining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tezkorlik harakatlarni qisqa vaqt ichida bajarish, turli signallarga tez javob berish va musobaqa vaziyatlariga moslashishda muhim ahamiyatga ega. Tezkorlikni rivojlantirishda reaksiya tezligi, harakat tezligi va harakatlar chastotasini kompleks shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Qisqa masofaga yugurish, signal asosidagi, takroriy va interval mashqlar, shuningdek, tezkor-kuch hamda plyometrik mashqlardan foydalanish samarali vosita hisoblanadi.

Mashg‘ulot yuklamalarini sportchining individual imkoniyatlariga moslashtirish, yetarli tiklanish vaqtini ta’minlash va mashqlarni yuqori sifatda bajarishga e’tibor qaratish zarur. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, videoanaliz va monitoring vositalaridan foydalanish tezkorlik ko‘rsatkichlarini nazorat qilish va mashg‘ulotlarni individuallashtirish imkonini beradi.

Shunday qilib, an’anaviy mashg‘ulot metodlarini zamonaviy texnologiyalar, individual yondashuv va sport turining o‘ziga xos talablari bilan uyg‘unlashtirish sportchilarning tezkorlik sifatini samarali rivojlantirishning muhim shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Platonov, V. N. (2004). Sport tayyorgarligining umumiy nazariyasi va metodikasi.Kiev: Olimpiyskaya literatura.

2. Bompa, T. O., & Buzzichelli, C. (2019). Periodization: Theory and Methodology of Training. Human Kinetics Publishers.

3. Verkhoshanskiy, Y. V. (2011). Fundamentals of Special Strength Training in Sport. Sportivnaya Literatura, Moskva.

4. Abdullayev, R. A. (2018). Yosh sportchilar tayyorgarligida plyometrik mashqlar tizimi. Toshkent: O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti nashriyoti.

SPORTCHILARNING CHIDAMLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Tajieva Zlixa Markabaevna

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali stajyor o‘qituvchisi

O‘zbekiston, Nukus

zlixatajieva@gmail.com

Kalit so‘zlar: *chidamlilik, sportchi, jismoniy tayyorgarlik, umumiy chidamlilik, maxsus chidamlilik, mashg‘ulot, jismoniy yuklama, tiklanish.*

Ключевые слова: *выносливость, спортсмен, физическая подготовка, общая выносливость, специальная выносливость, тренировка, физическая нагрузка, восстановление.*

Key words: *endurance, athlete, physical fitness, general endurance, special endurance, training, physical load, recovery.*

Kirish. Zamonaviy sportda sportchilarning yuqori natijalarga erishishi ularning jismoniy tayyorgarligi, funksional imkoniyatlari va mashg‘ulot jarayoniga moslashish darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Jismoniy tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismlaridan biri chidamlilik sifati hisoblanadi. Chidamlilik sportchining uzoq vaqt davomida jismoniy faoliyatni samarali bajarishi, charchoqning yuzaga kelishiga qarshi turishi va faoliyat samaradorligini saqlab qolish qobiliyatini ifodalaydi.

Sport faoliyatida chidamlilik umumiy va maxsus shakllarda namoyon bo‘ladi. Umumiy chidamlilik sportchining uzoq davom etadigan turli jismoniy faoliyatlarga moslashish imkoniyatini ifodalasa, maxsus chidamlilik muayyan sport turiga xos bo‘lgan mashg‘ulot va musobaqa faoliyatini samarali bajarish qobiliyatini anglatadi.

Turli sport turlarida chidamlilikka bo‘lgan talablar bir-biridan farq qiladi. Sikllik sport turlarida uzoq davom etadigan bir xil yoki takroriy harakatlarni bajarish muhim bo‘lsa, sport o‘yinlarida yuqori va past intensivlikdagi harakatlarning almashinishi sharoitida ish qobiliyatini saqlab qolish talab etiladi. Yakka kurash sport turlarida esa qisqa muddatli yuqori intensivlikdagi harakatlarni takroran bajarish qobiliyati katta ahamiyatga ega.

Chidamlilikni rivojlantirish nafaqat fiziologik, balki pedagogik jarayon sifatida ham qaraladi. Mashg‘ulot yuklamalarini to‘g‘ri rejalashtirish, ularning hajmi va intensivligini bosqichma-bosqich oshirish, mashqlarni tizimli tashkil etish hamda tiklanish jarayonini hisobga olish chidamlilikni rivojlantirishning asosiy pedagogik shartlari hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqotning maqsadi sportchilarning chidamliligini rivojlantirishning pedagogik asoslarini ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilish, umumiy va maxsus chidamlilikning mazmunini aniqlash hamda chidamlilikni rivojlantirishda samarali mashg‘ulot metodlarining imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, chidamlilik tushunchasining mazmunini o‘rganish, umumiy va maxsus chidamlilikning xususiyatlarini aniqlash, chidamlilikni rivojlantirish

metodlarini tahlil qilish, mashg‘ulot yuklamalarini tashkil etishning pedagogik jihatlarini o‘rganish hamda sportchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda chidamlilikni rivojlantirish bo‘yicha metodik yondashuvlarni asoslash vazifalari belgilandi.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Tadqiqotning metodologik asosini sport mashg‘ulotlari nazariyasi, jismoniy tarbiya pedagogikasi, sport fiziologiyasi va sportchilarni tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, taqqoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish va nazariy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish orqali sportchilarning chidamliligini rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari o‘rganildi. Taqqoslash metodi yordamida umumiy va maxsus chidamlilikning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ularni rivojlantirish metodlari aniqlandi.

Tadqiqotda chidamlilikning umumiy va maxsus shakllari, shuningdek, mashg‘ulot yuklamasining hajmi, intensivligi, davomiyligi, takrorlanish soni va dam olish oralig‘i kabi asosiy ko‘rsatkichlar ko‘rib chiqildi. Chidamlilikni rivojlantirishda tizimlilik, izchillik, bosqichma-bosqichlik va individuallashtirish tamoyillariga alohida e’tibor qaratildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Chidamlilik sportchining uzoq vaqt davomida jismoniy faoliyatni samarali bajarishi va charchoq sharoitida ish qobiliyatini saqlab qolish imkoniyatini ifodalaydi. Mazkur sifat sportchilarning musobaqa faoliyatida muhim o‘rin egallab, boshqa jismoniy sifatlarning namoyon bo‘lishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Chidamlilikni rivojlantirishning pedagogik asoslaridan biri tizimlilik tamoyilidir. Chidamlilik bir yoki bir nechta mashg‘ulot natijasida shakllanmaydi. Uni rivojlantirish uchun mashg‘ulotlar muntazam va izchil tashkil etilishi kerak. Mashg‘ulotlar o‘rtasidagi uzilishlar chidamlilikni rivojlantirish jarayonining samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Chidamlilikni rivojlantirishda bosqichma-bosqichlik tamoyili ham muhim ahamiyatga ega. Sportchining organizmini katta jismoniy yuklamalarga moslashtirish uchun mashg‘ulot hajmi va intensivligini asta-sekin oshirish zarur. Yuklamalarni keskin oshirish sportchining tiklanish imkoniyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Chidamlilikning asosiy ko‘rinishlaridan biri umumiy chidamlilik hisoblanadi. Umumiy chidamlilik sportchining uzoq davom etadigan jismoniy faoliyatni bajarish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni rivojlantirishda yugurish, suzish, velosipedda harakatlanish, yurish va boshqa uzoq davom etadigan mashqlardan foydalanish mumkin.

Umumiy chidamlilik sportchining funksional imkoniyatlarini kengaytirish va maxsus chidamlilikni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan bazani shakllantiradi. Shu sababli sport tayyorgarligining turli bosqichlarida umumiy chidamlilikka ma’lum darajada e’tibor qaratish zarur.

Maxsus chidamlilik esa muayyan sport turining o‘ziga xos talablariga mos ravishda rivojlantiriladi. Bunda mashqlar sportchining musobaqa faoliyatida bajaradigan harakatlariga yaqinlashtiriladi. Maxsus chidamlilikning rivojlanganlik darajasi sportchining musobaqa davomida o‘z texnik va taktik imkoniyatlarini samarali qo‘llashiga yordam beradi.

Masalan, sport o‘yinlarida maxsus chidamlilik qisqa tezlanishlar, yo‘nalishni o‘zgartirish, sakrash, to‘xtash va texnik harakatlarning takroriy bajarilishi sharoitida ish qobiliyatini saqlash bilan bog‘liq. Yakka kurash sport turlarida esa maxsus chidamlilik yuqori intensivlikdagi hujum va himoya harakatlarini takroran bajarish imkoniyati bilan ifodalanadi.

Chidamlilikni rivojlantirishda uzluksiz mashg‘ulot metodi keng qo‘llaniladi. Ushbu metodda jismoniy mashqlar uzoq vaqt davomida uzluksiz bajariladi. Mashq intensivligi nisbatan barqaror bo‘lishi mumkin. Ushbu metod umumiy chidamlilikni rivojlantirishda samarali vosita sifatida qo‘llanadi.

Interval mashg‘ulot metodi ham chidamlilikni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bunda ma’lum intensivlikdagi ish qismlari dam olish yoki faol tiklanish oraliqlari bilan navbatlashtiriladi. Interval metod mashg‘ulot yuklamasini aniq boshqarish va sportchining funksional imkoniyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi.

Takroriy metodda ma’lum mashqlar bir necha marta bajarilib, ular orasida tiklanish uchun yetarli dam olish beriladi. Ushbu metod maxsus chidamlilikni rivojlantirishda, ayniqsa, musobaqa faoliyatiga o‘xshash takroriy harakatlarni shakllantirishda qo‘llanilishi mumkin.

Aylanma mashg‘ulot ham chidamlilikni rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. Bir nechta mashqlarni ketma-ket bajarish orqali sportchining turli mushak guruhlari va funksional tizimlariga kompleks yuklama beriladi. Mashqlar soni, davomiyligi va dam olish oralig‘i sportchining tayyorgarlik darajasiga qarab belgilanadi.

Chidamlilikni rivojlantirishda mashg‘ulot yuklamasining hajmi va intensivligi o‘rtasidagi nisbatni to‘g‘ri belgilash muhimdir. Yuklama hajmini oshirish organizmning uzoq davom etadigan faoliyatga moslashishiga yordam bersa, intensivlikni boshqarish sportchining ma’lum vaqt ichida yuqori ish qobiliyatini namoyon etish imkoniyatlarini rivojlantiradi.

Mashg‘ulot jarayonida chidamlilikni rivojlantirish uchun mashqlarni sport turiga moslashtirish muhim hisoblanadi. Umumiy xarakterdagi uzoq davom etadigan mashqlar bilan bir qatorda musobaqa faoliyatida uchraydigan harakatlarning takroriy bajarilishiga asoslangan maxsus mashqlar ham qo‘llanilishi kerak.

Chidamlilikni rivojlantirishda individual yondashuv alohida ahamiyatga ega. Sportchilarning yoshi, jinsi, tayyorgarlik darajasi, sport tajribasi va funksional imkoniyatlari bir-biridan farq qiladi. Shu sababli barcha sportchilarga bir xil hajm va intensivlikdagi chidamlilik mashqlarini berish har doim ham maqsadga muvofiq emas.

Individual yondashuv asosida mashg‘ulot yuklamalarini belgilash sportchining imkoniyatlarini hisobga olish va ortiqcha zo‘riqishning oldini olish imkonini beradi. Bunda sportchining mashg‘ulotdan keyingi tiklanish holati ham muntazam nazorat qilinishi kerak.

Tiklanish jarayoni chidamlilikni rivojlantirishning muhim pedagogik shartlaridan biridir. Yuqori yuklamali mashg‘ulotlardan keyin yetarli dam olish, uyqu, ovqatlanish va faol tiklanish vositalaridan foydalanish sportchining keyingi mashg‘ulotga tayyorligini ta’minlashga yordam beradi.

Chidamlilikni rivojlantirish boshqa jismoniy sifatlar bilan ham uzviy bog‘liq. Masalan, kuch chidamliligi sportchining uzoq vaqt davomida kuch talab qiluvchi harakatlarni bajarish imkoniyatini belgilaydi. Tezkorlik chidamliligi esa yuqori tezlikdagi harakatlarni takroran bajarish qobiliyatini ifodalaydi.

Shuningdek, chidamlilik sportchining texnik va taktik tayyorgarligi bilan ham bog‘liq. Musobaqaning oxirgi qismida charchoq kuchaygan sharoitda texnik harakatlarning aniqligi va taktik qarorlarning samaradorligini saqlab qolish uchun yetarli darajadagi maxsus chidamlilik zarur.

Zamonaviy sport mashg‘ulotlarida chidamlilikni nazorat qilish uchun raqamli monitoring texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Yurak urish tezligi, mashg‘ulot

davomiyligi, yuklama intensivligi va tiklanish ko‘rsatkichlarini kuzatish murabbiyga sportchining individual yuklamalarini rejalashtirishda yordam beradi.

Chidamlilikni rivojlantirishning pedagogik samaradorligi mashg‘ulotlarning muntazamligi, yuklamalarning bosqichma-bosqich oshirilishi, individual yondashuv, mashg‘ulot mazmunining sport turiga mosligi va tiklanish jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishi bilan belgilanadi.

Shu nuqtayi nazardan, sportchilarning chidamliligini rivojlantirish faqat jismoniy mashqlarni ko‘paytirish bilan chegaralanmasligi kerak. Mashg‘ulot jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish, yuklamalarni nazorat qilish va sportchining funksional imkoniyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Sportchilarning chidamliligini rivojlantirish sport tayyorgarligining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uzoq vaqt davomida jismoniy faoliyatni samarali bajarish, charchoq sharoitida ish qobiliyatini saqlash hamda musobaqa davomida texnik-taktik harakatlarni sifatli bajarishga xizmat qiladi. Tahlillar umumiy va maxsus chidamlilikni kompleks rivojlantirish sportchilarning funksional imkoniyatlarini takomillashtirishda muhim ekanligini ko‘rsatadi. Bunda uzluksiz, interval, takroriy va aylanma mashg‘ulot metodlaridan sport turi va sportchining tayyorgarlik darajasiga mos ravishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Chidamlilikni rivojlantirishda tizimlilik, izchillik, bosqichma-bosqichlik va individuallashtirish tamoyillariga rioya qilish, yuklamalar hajmi va intensivligini to‘g‘ri belgilash hamda tiklanish jarayonini nazorat qilish zarur. Umumiy chidamlilik maxsus chidamlilik uchun zarur bazani shakllantirsa, maxsus chidamlilik muayyan sport turidagi musobaqa faoliyati samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, zamonaviy monitoring va raqamli texnologiyalardan foydalanish yuklamalarni individual rejalashtirish va sportchining tiklanish holatini baholash imkonini beradi. Shunday qilib, pedagogik tamoyillar, zamonaviy mashg‘ulot metodlari, individual yondashuv va monitoring vositalarini uyg‘unlashtirish sportchilarning chidamliligini samarali rivojlantirishning muhim shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ibragimov A. K., Mo‘minov F. I. Methodology of optimization of trainingfor young players //International Journal For Innovative Engineering and Management Research. - T. 10. – C. 43-48.

2. Орлов А.В. Алгоритм-метод проектирования тренировочной нагрузки как инструмент моделирования неделных циклов подготовки юных футболистов. // Известия ТулГУ. Физическая культура. Спорт. 2022. Вып.

3. Специальная выносливость спортсменов / Под общ. ред. М. Я. Набатниковой. – М.: Физкультура и спорт, 1972.

4. Филин В. П. Основы юношеского спорта / В. П. Филин, Н. И. Фомин. – М. : Физкультура и спорт, 1980.

5. Холодов Ж. К. Теория и методика физического воспитания и спорта / Ж. К. Холодов, В. С. Кузнецов. – М. : Академия, 2003.

SPORT MASHG‘ULOTLARI JARAYONIDA UMUMIY VA MAXSUS JISMONIY TAYYORGARLIKNING AHAMIYATI

Seytmuratov Talǵat Qutlımuratovich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali stajyor o‘qituvchisi
Madiyarova Dilnaza Qo‘nisbay qizi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali 1-kurs talabasi
O‘zbekiston, Nukus
seytmuratov3434@gmail.com

Kalit so‘zlar: *umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, sport mashg‘uloti, jismoniy sifatlar, sportchi, mashg‘ulot yuklamasi.*

Ключевые слова: *общая физическая подготовка, специальная физическая подготовка, спортивная тренировка, физические качества, спортсмен, тренировочная нагрузка.*

Key words: *general physical training, special physical training, sports training, physical qualities, athlete, training load.*

Kirish. Zamonaviy sportning rivojlanishi sportchilarni tayyorlash tizimiga qo‘yiladigan talablarning muntazam ortib borishiga sabab bo‘lmoqda. Sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishish sportchidan nafaqat texnik va taktik mahoratni, balki yuqori darajadagi jismoniy, funksional va psixologik tayyorgarlikni ham talab qiladi. Shu sababli sport mashg‘ulotlari jarayonida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni to‘g‘ri tashkil etish sport tayyorgarligining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik sportchining asosiy jismoniy sifatlarini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik va koordinatsion qobiliyatlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik sportchining organizmini turli jismoniy yuklamalarga moslashtirish, umumiy ish qobiliyatini oshirish va keyingi maxsus tayyorgarlik uchun zarur bo‘lgan bazani yaratishga xizmat qiladi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik esa muayyan sport turining o‘ziga xos talablari asosida sportchiga zarur bo‘lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Unda musobaqa faoliyatida uchraydigan harakatlar, tezlik, kuch, chidamlilik va koordinatsion talablar hisobga olinadi. Shu jihatdan umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik bir-birini to‘ldiruvchi va sportchining kompleks tayyorgarligini ta’minlovchi jarayonlar hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqotning maqsadi sport mashg‘ulotlari jarayonida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikning ahamiyatini ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilish, ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash hamda sportchilar tayyorgarligini takomillashtirishdagi imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikning mazmunini o‘rganish, ularning sport mashg‘ulotlaridagi vazifalarini aniqlash, jismoniy sifatlarni rivojlantirishdagi o‘rnini tahlil qilish hamda mashg‘ulot jarayonida umumiy va maxsus tayyorgarlik nisbatini to‘g‘ri tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Tadqiqotning metodologik asosini sport mashg‘ulotlari nazariyasi, jismoniy tarbiya pedagogikasi va sportchilarni tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, taqqoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish va nazariy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Ilmiy-metodik adabiyotlarni o‘rganish orqali umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikning mazmuni, vazifalari hamda sportchilarni tayyorlashdagi o‘rni tahlil qilindi. Taqqoslash metodi yordamida umumiy va maxsus tayyorgarlikning o‘ziga xos jihatlari va o‘zaro bog‘liqligi aniqlandi.

Tizimli yondashuv asosida jismoniy tayyorgarlik sportchining texnik, taktik va funksional tayyorgarligi bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida ko‘rib chiqildi. Shuningdek, mashg‘ulot yuklamalarining hajmi, intensivligi, davomiyligi, takrorlanish soni va dam olish oralig‘ini sportchining tayyorgarlik darajasiga mos ravishda belgilash masalalari tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Sportchining yuqori natijalarga erishishi uning jismoniy tayyorgarlik darajasi bilan bevosita bog‘liq. Jismoniy tayyorgarlikning umumiy va maxsus yo‘nalishlarini to‘g‘ri tashkil etish sportchining mashg‘ulot va musobaqa faoliyatiga moslashuvini ta’minlaydi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik. sportchining har tomonlama jismoniy rivojlanishini ta’minlaydi. U organizmning funksional imkoniyatlarini kengaytirish, asosiy jismoniy sifatlarni rivojlantirish va sport faoliyatida zarur bo‘ladigan umumiy harakat bazasini shakllantirishga xizmat qiladi. Umumiy tayyorgarlikda yugurish, sakrash, umumrivojlantiruvchi mashqlar, kuch mashqlari, koordinatsion mashqlar, cho‘zilish mashqlari va turli harakat faoliyatlaridan foydalanish mumkin.

Umumiy jismoniy tayyorgarlikning muhim vazifalaridan biri sportchining organizmini keyingi maxsus yuklamalarni bajarishga tayyorlashdir. Yetarli darajada rivojlangan umumiy jismoniy tayyorgarlik sportchiga katta hajmdagi maxsus mashg‘ulot yuklamalarini o‘zlashtirish imkonini beradi.

Umumiy tayyorgarlik jarayonida kuch sifatini rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi. Kuch sportchining ko‘plab harakat faoliyatlarida asosiy jismoniy sifat sifatida namoyon bo‘ladi. Kuchni rivojlantirish uchun tana vazni bilan bajariladigan mashqlar, qarshilik bilan bajariladigan mashqlar, erkin og‘irliklar va trenajyorlardan foydalanish mumkin.

Tezkorlik ham umumiy jismoniy tayyorgarlikning muhim komponentlaridan biridir. Tezkorlikni rivojlantirish uchun qisqa masofalarga yugurish, signal asosida harakatni boshlash, tezkor reaksiya va yo‘nalishni o‘zgartirish mashqlaridan foydalaniladi.

Chidamlilik sportchining uzoq vaqt davomida jismoniy faoliyatni samarali bajarish qobiliyatini ifodalaydi. Umumiy chidamlilikni rivojlantirish sportchining ish qobiliyatini oshirish va mashg‘ulot yuklamalariga moslashishida muhim ahamiyatga ega. Buning uchun uzluksiz va interval mashg‘ulot metodlaridan foydalanish mumkin.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik muayyan sport turining texnik va taktik xususiyatlariga mos jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Maxsus tayyorgarlikda mashqlar sportchining musobaqa faoliyatida bajaradigan harakatlariga imkon qadar yaqinlashtiriladi.

Masalan, sport o‘yinlarida maxsus jismoniy tayyorgarlik tezkor yo‘nalish o‘zgarishi, qisqa muddatli tezlanishlar, sakrashlar va takroriy yuqori intensivlikdagi harakatlarni bajarish qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilishi mumkin. Yakka kurash sport turlarida esa kuch, tezkor-kuch, maxsus chidamlilik va koordinatsion qobiliyatlar muhim o‘rin egallaydi. Sikllik sport turlarida esa maxsus chidamlilik va harakat samaradorligi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik o‘rtasidagi nisbat sportchining tayyorgarlik bosqichiga qarab o‘zgarishi mumkin. Tayyorgarlikning dastlabki bosqichlarida umumiy jismoniy tayyorgarlikka ko‘proq e’tibor berish sportchining har tomonlama rivojlanishi uchun

zarur. Keyingi bosqichlarda esa maxsus tayyorgarlik ulushini oshirish va mashqlarni musobaqa faoliyatiga yaqinlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shu bilan birga, umumiy jismoniy tayyorgarlikni butunlay kamaytirib yuborish ham maqsadga muvofiq emas. Umumiy tayyorgarlik sportchining jismoniy bazasini saqlash, tiklanish jarayonini qo‘llab-quvvatlash va turli mashg‘ulot yuklamalariga moslashish uchun zarur bo‘lib qoladi.

Maxsus tayyorgarlikning samaradorligi ko‘p jihatdan sportchining umumiy jismoniy tayyorgarligiga bog‘liq. Agar sportchida zarur umumiy jismoniy sifatlar yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lsa, maxsus mashqlarni yuqori sifatda bajarish va katta mashg‘ulot yuklamalarini o‘zlashtirish qiyinlashadi.

Zamonaviy sport mashg‘ulotlarida umumiy va maxsus tayyorgarlikni kompleks tashkil etish tamoyiliga katta e’tibor berilmoqda. Bunda mashg‘ulotning bir qismida umumiy rivojlantiruvchi mashqlar, keyingi qismida esa sport turiga xos maxsus mashqlar bajarilishi mumkin. Bunday yondashuv sportchining jismoniy imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, ularni maxsus harakat faoliyatiga yo‘naltirish imkonini beradi.

Mashg‘ulot jarayonida yuklamalarni individuallashtirish ham muhim hisoblanadi. Sportchilarning yoshi, jinsi, sport tajribasi, tayyorgarlik darajasi, funksional holati va sport turining o‘ziga xosligi hisobga olinishi kerak. Bir xil mashg‘ulot yuklamasining turli sportchilarga ta’siri har xil bo‘lishi mumkin. Shu sababli umumiy va maxsus tayyorgarlik vositalarini tanlashda individual yondashuvdan foydalanish zarur.

Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni nazorat qilishda zamonaviy monitoring texnologiyalaridan foydalanish ham samarali hisoblanadi. Sportchining yurak urish tezligi, mashg‘ulot davomiyligi, yuklama intensivligi, harakat faolligi va tiklanish holatini kuzatish mashg‘ulotlarni rejalashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, zamonaviy videoanaliz vositalari yordamida sportchining maxsus harakatlarini tahlil qilish, texnik xatolarni aniqlash va jismoniy tayyorgarlik bilan texnik tayyorgarlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash mumkin.

Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikning uyg‘unligi sportchining musobaqa faoliyatiga tayyorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda umumiy tayyorgarlik sportchining jismoniy bazasini shakllantirsa, maxsus tayyorgarlik ushbu imkoniyatlarni muayyan sport turidagi samarali harakat faoliyatiga yo‘naltiradi.

Xulosa. Sport mashg‘ulotlari jarayonida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik sportchining kompleks tayyorgarligini ta’minlovchi o‘zaro bog‘liq jarayonlardir. Umumiy jismoniy tayyorgarlik kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik va koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish uchun asos yaratadi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik esa muayyan sport turining talablariga mos jismoniy sifatlarni rivojlantirish hamda sportchining umumiy imkoniyatlarini musobaqa faoliyatida zarur bo‘lgan maxsus harakatlarga moslashtirishga yo‘naltiriladi. Sport tayyorgarligining dastlabki bosqichlarida umumiy jismoniy tayyorgarlik ustuvor bo‘lsa, sport mahorati oshgani sari maxsus tayyorgarlikning ulushi ortadi. Shu bilan birga, yuqori malakali sportchilarda ham umumiy jismoniy tayyorgarlikni saqlash muhimdir.

Shunday qilib, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni sportchining individual xususiyatlari, tayyorgarlik bosqichi va sport turining talablariga mos ravishda uyg‘unlashtirish mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishning muhim shartidir. Zamonaviy monitoring va raqamli texnologiyalar esa ushbu jarayonni yanada samarali boshqarish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik 2-jıld. Toshkent. ITA-PRESS, -2015. 182 b.
2. Salomov R.S. “Sport mashg‘ulotining nazariy asoslari”. T.,2005. 261 b.
3. Umarov D.X, To‘xtaboyev N.T. Sport nazariyasi. O‘quv qo‘llanama. Toshkent. Ilm-fan nashriyoti, -2024. 226 b.
4. Tojiyev M.A. Sport nazariyasi. Darslik. Toshkent. Makon savdo print, -2023. 234 b.
5. Частоедова А.Ю. Теория и методика физической культуры, спорта. Учебное пособие. Toshkent. O‘zbek-kitobsavdo-nashriyot nmiu, -2020. 472 c.

MILLIY HÁREKETLI OYÍNLARDÍŃ SPORTSHÍLAR FIZIKALÍQ BELSENDILIGIN ARTTÍRÍWDAǴÍ IMKANIYATLARÍ

Kenjebaev Qulmurat Kamalatdinovich
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali o‘qituvchisi
Yulduz Narjanova
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı
“Boks” baǵdarı studenti

Tayanısh sózler: *milliy háreketli oyınlar, sportshılar, fizikalıq belsendilik, fizikalıq tayarlıq, tezlik, shaqqanlıq, shıdamlılıq, milliy qádiriyatlar.*

Ключевые слова: *национальные подвижные игры, спортсмены, физическая активность, физическая подготовленность, быстрота, ловкость, выносливость, национальные ценности.*

Keywords: *traditional movement games, athletes, physical activity, physical fitness, speed, agility, endurance, national values.*

Kirisiw. Búgingi kúnde sportshılardı fizikalıq tayarlaw procesinde nátiyjeli, qızıqlı hám sport iskerligine sáykes metodlardan paydalanıw úlken áhmiyetke iye. Shınıǵıwlarda birdey qurallardıń tákirarlanıwı ayırım jaǵdaylarda sportshılardıń qızıǵıwshılıǵı hám shınıǵıwdaǵı belsendiligine tásir etiwi múmkin. Sol sebepli dástúriy fizikalıq shınıǵıwlar menen bir qatarda milliy háreketli oyınlardan paydalanıw sport shınıǵıwların mazmun jaǵınan bayıtıwdıń nátiyjeli jollarınan biri bolıp esaplanadı.

Milliy háreketli oyınlar xalıqtıń tariyxıy tájiriybesi, turmıs tárizi hám mádeniy qádiriyatları menen tıǵız baylanıslı. Olar sportshılardıń tek fizikalıq belsendiligin arttırıw emes, al komandada háreket etiw, tez qarar qabıl etiw, qarsılas háreketlerin baqlaw hám óz imkaniyatların durıs bahalaw kónlikpelerin rawajlandırıwǵa da xızmet etedi.

“Quwıspaq”, “Aq terek pe, kók terek pe”, “Arqan tartıw”, túrli estafeta hám komandalıq háreketli oyınlar tiyisli qaǵıydalar tiykarında shólkemlestirilgende juwırıw, tezleniw, toqtaw, jónelisti ózgertiw, sekiriw hám kúsh jumsaw háreketlerin qamtıp aladı. Bul bolsa olardı sportshılardıń ulıwma hám arnawlı fizikalıq tayarlıǵın rawajlandırıwda qosımsha qural sıpatında qollanıw imkaniyatın beredi.

Izertlewdiń maqseti hám wazıypaları. Izertlewdiń maqseti milliy háreketli oyınlardıń sportshılardıń fizikalıq belsendiligin arttırıwdaǵı imkaniyatların teoriyalıq jaqtan tallaw hám olardı sport shınıǵıwlarına engiziw boyınsha metodikalıq usınıslar islep shıǵıwdan ibarat.

Izertlew jumısları tómendegilerdi óz ishine aladı: milliy háreketli oyınlardıń fizikalıq tayarlıqtaǵı ornın anıqlaw; oyınlar arqalı rawajlandırılatuǵın fizikalıq sıpatlardı táriyiplew; oyınlardı shınıǵıw procesine kirgiziw usılların kórip shıǵıw; sportshılardıń jası, tayarlıq dárejesi

hám sport túriniń ózgesheliklerin esapqa alǵan halda shınıǵıwlardı beyimlestiriw boyınsha usınıslar islep shıǵıw.

Izertlew materialları hám metodları. Izertlewde ilimiy-metodikalıq ádebiyatlardı analizlew, salıstırıw, ulıwmalastırıw hám de milliy háreketli oyınlardıń mazmunın pedagogikalıq kózqarastan úyreniw usıllarınan paydalanıldı. Talqılaw procesinde oyınlardıń háreket mazmunı, fizikalıq júklemeniń ózgesheligi, qatnasıwshılardıń óz-ara birge islesiwi hám sport shınıǵıwlarında qollanıw imkaniyatlarına itibar qaratıldı.

Bul jumıs teoriyalıq-analitikalıq xarakterge iye bolıp, onda tájiriybe-sınaq nátiyjeleri yamasa sportshılardıń ámeliy ólshewleri keltirilmegen. Sol sebepli tómendegi nátiyjeler milliy háreketli oyınlardıń metodikalıq imkaniyatların talqılawǵa tiykarlanadı.

Izertlew nátiyjeleri hám dodalaw. Milliy háreketli oyınlardıń tiykarǵı abzallıqlarınan biri olardıń hár qıylı fizikalıq sıpatlardı birgelikte rawajlandırıw imkaniyatı bolıp tabıladı. Máselen, quwıw hám qashıwǵa tiykarlanǵan oyınlarda sportshı tezleniw, keskin toqtawı, baǵdarın ózgertiw hám jaǵdaydı tez bahalawǵa májbúr boladı. Komandalıq oyınlarda bolsa háreket aktivligi menen bir qatarda birge islesiw, óz ara muwapıqlasıw hám taktikalıq pikirlew de qáliplesedi.

1-keste. Milliy háreketli oyınlardıń fizikalıq sıpatlardı rawajlandırıw imkaniyatları

Milliy háreketli oyın	**Rawajlandırılatuǵın fizikalıq sapalar**	**Shınıǵıwdaǵı áhmiyeti**
Quwıspaq	Tezlik, shaqqanlıq, shıdamlılıq	Tezleniw hám baǵıttı ózgertiwdi jetilistiredi
Aq terek pe, kók terek pe	Tezlik, kúsh, koordinaciya	Komandalıq háreket hám qısqa múddetli joqarı belsendilikti rawajlandıradı
Arqan tartıw	Kúsh, kúsh shıdamlılıǵı	Bulshıq etlerdiń kúsh jumsaw qábiletin rawajlandırıwǵa járdem beredi
Háreketli estafetalar	Tezlik, shaqqanlıq, koordinaciya	Háreketlerdi izbe-iz hám anıq orınlaw kónlikpesin qáliplestiredi
Top penen komandalıq oyınlar	Koordinaciya, tezlik, shıdamlılıq	Háreketti basqarıw hám jaǵdayǵa tez beyimlesiwdi rawajlandıradı

Kesteden kórinip turǵanınday, milliy háreketli oyınlardı tańlawda olardıń mazmunı hám shınıǵıw maqseti arasındaǵı sáykeslikti támiyinlew zárúr. Mısalı, futbolshılar ushın baǵıttı tez ózgertiw hám qarsılas háreketine juwap beriwdi talap etetuǵın oyınlar, gúresshiler ushın bolsa teńsalmaqlılıqtı saqlaw, kúshti basqarıw hám tez háreketleniwge baǵdarlanǵan tapsırmalar maqsetke muwapıq bolıwı múmkin.

Milliy oyınlar sportshılardıń shınıǵıwdaǵı qatnasın jedellestiriwge de járdem beredi. Oyın qaǵıydalarınıń túsinikli bolıwı, komandalıq jarıs hám nátiyjege erisiw tilegi sportshılardı belsendi háreketke iytermeleydi. Biraq júklemeniń hádden tıs artıp ketiwine jol qoymaw ushın oyın dawamlılıǵı, tákirarlawlar sanı hám dem alıw aralıǵı sportshılardıń tayarlıq dárejesine sáykes belgileniwi kerek.

2-keste. Milliy háreketli oyınlardı shınıǵıwǵa kirgiziwdiń usınıs etiletuǵın tártibi

Shınıǵıw basqıshı	Usınılatuǵın iskerlik	Metodikalıq maqset
Tayarlaw bólimi	Jeńil quwıw oyınları, háreketli tapsırmalar	Organizmdi tiykarǵı júklemege tayarlaw
Tiykarǵı bólim	Tezlik, shaqqanlıq yamasa kúshke baǵdarlanǵan oyınlar	Belgilengen fizikalıq sıpatlardı rawajlandırıw
Juwmaqlawshı bólim	Tómengi tezliktegi háreketli oyınlar hám jeńil júriw	Aktivlikti basqıshpa-basqısh azaytıw
Talqılaw hám bahalaw	Qaǵıydalar, orınlanıw anıqlıǵı hám qatnasıwdı dodalaw	Shınıǵıw nátiyjelerin bahalaw hám keyingi júklemeni rejelestiriw

Kestede keltirilgen tártip ulıwma metodikalıq usınıs bolıp esaplanadı. Anıq dawamlılıq hám júkleme sport túri, sportshılardıń jası, fizikalıq tayarlıǵı hám de shınıǵıwdıń tiykarǵı wazıypasına qarap belgilenedi.

Milliy háreketli oyınlardı qollanıwda qáwipsizlik talaplarına ámel etiw áhmiyetli. Oyın maydanı tegis hám qáwipsiz bolıwı, qatnasıwshılar arasındaǵı aralıq esapqa alınıwı, quramalı háreketler bolsa tayarlıq dárejesine beyimlestiriliwi kerek. Arqan tartıw sıyaqlı kúsh talap etetuǵın oyınlarda durıs texnika hám qadaǵalawdı támiyinlew, artıqsha kúshleniw hám de jaraqatlanıw qáwpin azaytıw zárúr.

Sonday-aq, milliy háreketli oyınlar sport shınıǵıwlarınıń barlıq arnawlı quralların almastırmaydı. Olardı sport túriniń texnikalıq-taktikalıq talapları hám shınıǵıw maqsetlerine muwapıq qosımsha qural sıpatında qollanıw maqsetke muwapıq. Bunday qatnas milliy miyrastı saqlaw menen birge sportshılardıń háreket iskerligin mazmunlı shólkemlestiriwge xızmet etedi.

Juwmaq. Milliy háreketli oyınlar sportshılardıń fizikalıq belsendiligin arttırıw, fizikalıq sıpatların rawajlandırıw hám shınıǵıw procesin qızıqlı shólkemlestiriw ushın áhmiyetli metodikalıq imkaniyatlarǵa iye. Olardıń mazmunı tezlik, shaqqanlıq, kúsh, shıdamlılıq hám koordinaciyanı rawajlandırıwǵa baǵdarlanıwı múmkin.

Milliy oyınlardan nátiyjeli paydalanıw ushın olardı sportshılardıń jası, tayarlıq dárejesi hám sport túriniń ózgesheliklerine sáykes tańlaw, júklemeni normallastırıw hám qáwipsizlik talaplarına ámel etiw zárúr. Oyınlardı shınıǵıwdıń tayarlıq hám tiykarǵı bólimlerine maqsetli kirgiziw sportshılardıń belsendi qatnasıwın xoshametlewi múmkin.

Keleshekte milliy háreketli oyınlardıń nátiyjeliligin ámeliy jaqtan bahalaw ushın tájiriybe-sınaq izertlewlerin ótkeriw, sportshılardıń shınıǵıwdan aldınǵı hám keyingi fizikalıq kórsetkishlerin salıstırıw hám de oyınlar tiykarında islep shıǵılǵan metodikanıń tásirin anıqlaw usınıs etiledi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-394, 2015-yil 4-sentabr.

2. Ашмарин Б.А. Теория и методика физического воспитания. — Москва: Просвещение, 1990.

3. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. — Москва: Физкультура и спорт, 1991.

4. Лях В.И. Координационные способности: диагностика и развитие. — Москва: ТВТ Дивизион, 2006.

5. World Health Organization. WHO Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour. Geneva: WHO, 2020.

6. UNESCO. Quality Physical Education: Guidelines for Policy-Makers. Paris: UNESCO, 2015.

STOL TENNISINING FIZIOLOGIK JIHATDAN FOYDALARI

Joldasbaeva Peruza

Jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali sport o‘yinlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi Stajor-o‘qituvchisi, Nukus

e-mail: peruz5606@gmail.com

Kalit so‘zlar: *stol tennisi, fiziologiya, jismoniy faollik, yurak-qon tomir tizimi, nafas olish, koordinatsiya, reaksiya tezligi, chidamlilik, chaqqonlik, sog‘lom turmush tarzi.*

Tadqiqot maqsadi: Stol tennisining inson organizmiga fiziologik jihatdan ta’sirini o‘rganish, ushbu sport turi bilan muntazam shug‘ullanishning yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari faoliyatiga, harakat koordinatsiyasi, tezkorlik hamda jismoniy ish qobiliyatining rivojlanishiga ta’sirini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari: Tadqiqot stol tennis bilan shug‘ullanuvchi sportchilarning jismoniy va maxsus harakat sifatlarini o‘rganish maqsadida tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardanfoydalanildi: Ilimiy-uslubiy, pedagogok kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik eksperiment uslublaridan foydalanildi.

Bugungi kunda yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy faollikni oshirish va sport bilan muntazam shug‘ullanish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy hayot sharoitida o‘quvchi va talabalarning ko‘p vaqtini o‘tirgan holda o‘tkazishi, jismoniy harakatning kamayishi organizmning funksional imkoniyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli inson uchun qulay, qiziqarli va muntazam shug‘ullanish imkonini beradigan sport turlarini ommalashtirish dolzarb ahamiyatga ega.Stol tennisi ana shunday sport turlaridan biridir. Ushbu sport turi tashqi tomondan oddiy ko‘rinsa-da, o‘yin jarayonida organizmning ko‘plab fiziologik tizimlari faol ishtirok etadi. O‘yinchi to‘pning uchish yo‘nalishi va tezligini qisqa vaqt ichida aniqlashi, unga mos ravishda harakatlanishi, raketkani kerakli holatga keltirishi va zarbani aniq bajarishi lozim. Bunday harakatlarning takroriy bajarilishi organizmning moslashuv imkoniyatlarini rivojlantiradi.Stol tennisining yana bir muhim jihati shundaki, mashg‘ulotlar davomida katta mushak guruhlari bilan bir qatorda qo‘l, bilak, yelka, bel va oyoq mushaklari ham faol ishlaydi. Natijada jismoniy sifatlar bilan birga harakatlarni boshqarish qobiliyati ham takomillashadi.Stol tennisining yurak-qon tomir tizimiga ta’siri ham katta. Masalan, jismoniy mashqlar vaqtida organizmning kislorod va energiyaga bo‘lgan ehtiyoji ortadi. Shu sababli yurak faoliyati faollashib, qon aylanish tezligi oshadi. Stol tennisidagi qisqa, ammo takroriy harakatlar yurak-qon tomir tizimining faol ishlashini talab qiladi.Muntazam mashg‘ulotlar davomida yurakning jismoniy yuklamaga moslashish qobiliyati rivojlanadi. O‘yin vaqtida yurish, tez burilish, egilish, zarba berish va yana boshlang‘ich holatga qaytish kabi harakatlar bir necha bor takrorlanadi. Bunday faoliyat organizmning umumiy ish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.Stol tennisida yuklama bir xil davom etmaydi: faol harakatlar qisqa dam olish yoki nisbatan past intensivlikdagi harakatlar bilan almashinadi. Shu sababli ushbu sport turi yurak-qon tomir tizimining turli darajadagi yuklamalarga moslashuvini shakllantirishda foydali bo‘lishi mumkin. Nafas olish tizimiga

ta’siri ham juda katta. Jismoniy faollik paytida mushaklarning kislorodga bo‘lgan ehtiyoji oshadi. Bunga javoban nafas olish tezligi va chuqurligi o‘zgaradi. Stol tennisida o‘yinchi doimiy ravishda harakatda bo‘lgani sababli nafas olish tizimi ham faol ishlaydi.

Muntazam jismoniy mashg‘ulotlar nafas olishning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ayniqsa, o‘yin davomida harakat va nafas olishni to‘g‘ri muvofiqlashtirish sportchining charchoqni boshqarishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.Nafas olish tizimining yaxshi ishlashi organizmning umumiy ish qobiliyati bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun stol tennisidan muntazam foydalanish umumiy jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishning qo‘shimcha vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Asab tizimi va reaksiya tezligining rivojlanishi uchun juda katta ro‘l oynaydi. Stol tennisining boshqa ko‘plab sport turlaridan farqli jihatlaridan biri — o‘yin jarayonida tez qaror qabul qilish zaruratidir. To‘pning yo‘nalishi, aylanishi va tezligi doimiy ravishda o‘zgarishi mumkin. O‘yinchi ushbu o‘zgarishlarni tezda qabul qilib, mos javob harakatini bajarishi kerak.Bu jarayonda ko‘rish analizatori, markaziy asab tizimi va mushaklar o‘rtasidagi muvofiqlik katta ahamiyatga ega. To‘pni kuzatish, uning harakatini oldindan taxmin qilish va kerakli vaqtda zarba berish reaksiya tezligini rivojlantirishga yordam beradi.Muntazam mashg‘ulotlar davomida takroriy harakatlar avtomatlashib boradi. Natijada o‘yinchi ayrim vaziyatlarda ortiqcha vaqt sarflamasdan, tezkor javob harakatini amalga oshira oladi. Bu esa nafaqat sport faoliyatida, balki kundalik hayotda ham diqqatni jamlash va harakatlarni muvofiqlashtirish qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Koordinatsiya va muvozanatning rivojlanishi yaxshi kechadi. Stol tennisida har bir zarba bir nechta harakatning bir vaqtda bajarilishini talab qiladi. O‘yinchi oyoqlari bilan kerakli joyga siljishi, gavda holatini saqlashi, qo‘l harakatini boshqarishi va raketkani to‘pga aniq yo‘naltirishi kerak.Shu sababli stol tennisi koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish uchun samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yosh sportchilarda qo‘l va ko‘z harakatlarining muvofiqlashuvi, tana muvozanati va fazoda mo‘ljal olish qobiliyati takomillashadi.Koordinatsiyaning rivojlanishi mashg‘ulot jarayonida asta-sekin shakllanadi. Avval oddiy zarbalarni to‘g‘ri bajarish o‘rganilsa, keyinchalik turli tezlik va yo‘nalishdagi to‘plarga javob berish mashqlari bajariladi. Shu orqali harakatlarning aniqligi va tezligi oshib boradi. Mushaklar faoliyatiga ijobiy ta’sir qiladi. Stol tennisida oyoq, bel, gavda, yelka, qo‘l va bilak mushaklari faol ishtirok etadi. O‘yin davomida sportchi tez-tez egiladi, yon tomonga siljiydi, oldinga va orqaga harakatlanadi. Raketka bilan zarba berish esa qo‘l va yelka mushaklarining faol ishlashini talab qiladi.Muntazam mashg‘ulotlar mushaklarning ish qobiliyatini oshirishga, ularning harakatga moslashuvini yaxshilashga yordam beradi. Bunda asosiy maqsad faqat mushak kuchini oshirish emas, balki kuchni kerakli vaqtda va kerakli miqdorda qo‘llay olishdir.

Stol tennisidagi harakatlar odatda juda katta tashqi yuklamani talab qilmaydi. Biroq ularning tez-tez takrorlanishi mushaklarning chidamliligi va harakatni boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Tezlik va chaqqonlik sifatlari juda yaxshi rivojlanadi. Stol tennisida to‘pning harakat tezligi yuqori bo‘lishi mumkin. O‘yinchi qisqa vaqt ichida to‘pning kelish joyini aniqlab, kerakli pozitsiyani egallashi va zarba berishi lozim. Shu sababli sportchining tezligi bilan birga chaqqonligi ham katta ahamiyatga ega.Chaqqonlik deganda harakat yo‘nalishini tez o‘zgartirish, muayyan vaziyatga moslashish va harakatni aniq bajarish qobiliyati tushuniladi. Stol tennisi mashg‘ulotlarida ushbu sifatni rivojlantirish uchun turli yo‘nalishlarda harakatlanish, qisqa masofaga tez siljish va kutilmagan to‘plarga javob berish mashqlari qo‘llanadi.Bu mashqlar sportchining nafaqat oyoq harakatlarini, balki butun tana faoliyatini tez boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi. Chidamlilik va ish qobiliyatining oshishiham

isbotlangan. Stol tennisidagi o‘yinlar bir necha daqiqa yoki undan uzoq davom etishi mumkin. Shu vaqt davomida sportchi doimiy ravishda diqqatni saqlab, harakatlarni takrorlab turadi. Shuning uchun o‘yin davomida jismoniy chidamlilik bilan birga asabiy-psixologik chidamlilik ham talab qilinadi.Muntazam mashg‘ulotlar organizmning jismoniy yuklamaga moslashuvini yaxshilaydi. Sportchi vaqt o‘tishi bilan mashqlarni kamroq charchoq bilan bajarishga va o‘z kuchini to‘g‘ri taqsimlashga o‘rganadi.Chidamlilikning rivojlanishi mashg‘ulotlarning davomiyligi, intensivligi va sportchining individual xususiyatlariga bog‘liq. Shu sababli mashg‘ulot yuklamasi yosh, jismoniy tayyorgarlik va sog‘liq holatini hisobga olgan holda belgilanadi. Ko‘rish va diqqat faoliyatiga ijobiy ta’sir qilib, ko‘rish orqali olingan axborotni tez qayta ishlash muhim hisoblanadi. Sportchi to‘pning uchish yo‘nalishi, tezligi va aylanishini kuzatib boradi. Bir vaqtning o‘zida raqibning harakatlarini ham hisobga olishi kerak.Bunday faoliyat diqqatni jamlash va uni kerakli obyektga tez yo‘naltirishni talab qiladi. Mashg‘ulotlar davomida sportchining vizual kuzatuvchanligi va diqqatni uzoqroq vaqt davomida saqlash qobiliyati rivojlanishi mumkin.Shuningdek, stol tennisida bir vaqtning o‘zida bir nechta axborot manbalarini nazorat qilish zarur. Bu esa markaziy asab tizimining faol ishlashini talab qiladi.

Stol tennisining sog‘lom turmush tarzidagi o‘rnini beqiyasdir. Stol tennisining muhim afzalliklaridan biri — uni turli yoshdagi insonlar uchun moslashtirish mumkinligidir. Mashg‘ulot intensivligi sportchining jismoniy tayyorgarligiga qarab belgilanadi. Boshlang‘ich darajadagi mashg‘ulotlarda oddiy zarbalar va harakatlar o‘rgatilsa, yuqori darajadagi sportchilarda murakkab texnik va taktik mashqlar bajariladi.Muntazam sport mashg‘ulotlari insonni faol hayot tarziga yo‘naltiradi. Jismoniy faollikning yetarli bo‘lishi umumiy ish qobiliyatini saqlash, harakat apparatini rivojlantirish va organizmning funksional imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi.Shu bilan birga, stol tennisining foydasi faqat jismoniy ko‘rsatkichlar bilan cheklanmaydi. O‘yin davomida diqqat, tez fikrlash, qaror qabul qilish va o‘z harakatlarini nazorat qilish kabi ko‘nikmalar ham talab etiladi. Shu sababli stol tennisini jismoniy va aqliy faoliyat uyg‘unlashadigan sport turi sifatida baholash mumkin.

Xulosa. Stol tennisi inson organizmiga kompleks ta’sir ko‘rsatadigan sport turlaridan biridir. Mashg‘ulotlar davomida yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari faoliyati kuchayadi, mushaklarning ish qobiliyati rivojlanadi, koordinatsiya, tezlik, chaqqonlik va chidamlilik kabi jismoniy sifatlar takomillashadi.Bundan tashqari, to‘pning tez harakatini kuzatish va unga qisqa vaqt ichida javob qaytarish asab tizimi, ko‘rish va harakat analizatorlari o‘rtasidagi muvofiqlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Muntazam va to‘g‘ri tashkil etilgan mashg‘ulotlar organizmning jismoniy yuklamaga moslashish imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, stol tennisini yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzinishakllantirish, jismoniy faollikni oshirish va umumiy funksional tayyorgarlikni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida tavsiya etish mumkin. Mashg‘ulotlarni tashkil etishda sportchining yoshi, jismoniy tayyorgarligi va individual xususiyatlarini hisobga olish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Azamatov .: Stol tennis nazariyasi va uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2023
2. B.N.Anorqulov. : Stol tennis. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2024
3. Matveyev L.P. Sportivnaya trenirovka: teoriya i metodika. Moskva: Sport, 2010.
4. Platonov V.N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. Kiev: Olimpiyskaya literatura, 2004.

5. V.V.Komanov, G.B.Barchukova : Nachalnaya podgotovka nastolnaya tennis. Moskva .2017

UDK: 796.322:004.9

YOSH GANDBOLCHILARDA TEXNIK HARAKATLARNI TAKOMILLASHTIRISHDA VIDEOANALIZ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Tajimuratov Kuat Djalgasbayevich[1], Baltanova Shaxnoza Elmuratovna[2]
[1]O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
“Sport o‘yinlari nazariyasi va metodikasi” kafedrasi stajyor o‘qituvchisi
[2]O‘zDJTSU Nukus filiali talabasi
Email: kuattajimuratov1313@gmail.com

Kalit so‘zlar: *gandbol, yosh gandbolchilar, texnik tayyorgarlik, texnik harakatlar, videoanaliz, raqamli texnologiyalar, to‘p uzatish, uloqtirish, dribling, sport mashg‘uloti.*

Ключевые слова: *гандбол, юные гандболисты, техническая подготовка, технические действия, видеоанализ, цифровые технологии, передача мяча, бросок, ведение мяча, спортивная тренировка.*

Keywords: *handball, young handball players, technical preparation, technical skills, video analysis, digital technologies, passing, shooting, ball handling, sports training.*

Kirish. Bugungi kunda sport mashg‘ulotlari jarayoniga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish sportchilarning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, gandbol kabi yuqori tezlik, aniqlik, koordinatsiya va tezkor qaror qabul qilishni talab qiladigan sport turida texnik harakatlarning to‘g‘ri va samarali bajarilishi musobaqa natijasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Yosh gandbolchilarda texnik ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida harakatlarni o‘z vaqtida aniqlash, xatolarni tahlil qilish va ularni korreksiya qilish murabbiy oldidagi asosiy vazifalardan biridir.

Gandbolda to‘pni uzatish, qabul qilish, olib yurish, darvozaga uloqtirish, sakrab uloqtirish, aldov harakatlari hamda himoyadagi texnik usullar sportchining o‘yin samaradorligini belgilovchi asosiy komponentlar hisoblanadi. Ushbu harakatlarning shakllanishi yosh sportchilarda murakkab koordinatsion jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, oddiy og‘zaki tushuntirish yoki harakatni bir marta namoyish etish har doim ham yetarli natija bermasligi mumkin. Sportchi o‘z harakatidagi xatoni to‘liq anglamasligi, murabbiy esa har bir texnik detalni mashg‘ulot davomida real vaqt rejimida aniqlashda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Shu sababli texnik harakatlarni qayd etish va keyinchalik batafsil tahlil qilish imkonini beruvchi videoanaliz texnologiyalaridan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Videoanaliz texnologiyasi sportchining harakatlarini turli rakurslardan qayd etish, videoni sekinlashtirish, muayyan harakat bosqichlarini kadrma-kadr ko‘rib chiqish hamda texnik xatolarni aniqlash imkonini beradi. Bunday yondashuv orqali sportchi o‘z harakatini bevosita ko‘rib, to‘g‘ri va noto‘g‘ri bajarilgan elementlarni taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Murabbiy uchun esa video materiallar texnik tayyorgarlik holatini obyektivroq baholash, individual kamchiliklarni aniqlash va mashg‘ulot yuklamalarini sportchining ehtiyojlariga moslashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Yosh gandbolchilarning texnik tayyorgarligi alohida metodik yondashuvni talab qiladi. Chunki ushbu yosh davrida harakat malakalari faol shakllanib, noto‘g‘ri bajarilgan texnik

elementlar keyinchalik mustahkam harakat stereotipiga aylanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, texnik xatolarni erta aniqlash va ularni o‘z vaqtida bartaraf etish sport mahoratining keyingi bosqichlarda samarali rivojlanishi uchun muhimdir. Videoanaliz esa aynan shu jarayonni vizual va amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Zamonaviy sport pedagogikasida texnik tayyorgarlikni takomillashtirish faqat mashqlar sonini oshirish bilan emas, balki mashg‘ulot jarayonini individualizatsiya qilish, qayta aloqa mexanizmlarini kuchaytirish va sportchining o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan ham bog‘liq. Videoanaliz texnologiyasi “bajarish — qayd etish — tahlil qilish — xatoni aniqlash — tuzatish — qayta bajarish” ketma-ketligini tashkil etish imkonini beradi. Natijada mashg‘ulot jarayonida tezkor va vizual qayta aloqa shakllanib, sportchining texnik harakatni ongli ravishda o‘zlashtirish darajasi oshishi mumkin.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, yosh gandbolchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirishda videoanaliz texnologiyasidan foydalanishning amaliy imkoniyatlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan bo‘lib, mazkur texnologiyani an’anaviy mashg‘ulot metodlari bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati mavjud.

Tadqiqotning maqsadi — yosh gandbolchilarda asosiy texnik harakatlarni takomillashtirish jarayonida videoanaliz texnologiyasidan foydalanish samaradorligini aniqlash hamda videoanaliz asosidagi mashg‘ulot metodikasining texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlariga ta’sirini baholash.

Tadqiqotning ilmiy farazi shundan iboratki, agar yosh gandbolchilarning texnik harakatlari muntazam ravishda videoanaliz asosida qayd etilib, aniqlangan xatolar bo‘yicha individual va guruhli tuzatish mashqlari ishlab chiqilsa, ularning texnik harakatlarni bajarish aniqligi, tezligi va muvofiqligi an’anaviy mashg‘ulotlarga nisbatan yuqoriroq darajada rivojlanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi yosh gandbolchilarning texnik harakatlarini takomillashtirish jarayoniga videoanalizni tizimli ravishda kiritish, texnik xatolarni vizual tahlil qilish va olingan natijalar asosida individual tuzatish mashqlarini qo‘llash metodik yondashuvining samaradorligini aniqlash bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalari yosh gandbolchilar bilan ishlaydigan murabbiylar uchun mashg‘ulot jarayonini takomillashtirish, texnik xatolarni aniqlash va bartaraf etish hamda sportchilarga individual qayta aloqa berishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot materiallari va metodlari. Tadqiqot yosh gandbolchilarda texnik harakatlarni takomillashtirishda videoanaliz texnologiyasidan foydalanish samaradorligini aniqlash maqsadida tashkil etildi. Tadqiqotda jami 40 nafar yosh gandbolchi ishtirok etdi. Sportchilar tasodifiy tanlash tamoyili asosida 20 nafardan iborat tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Tadqiqot ishtirokchilarining sport tayyorgarligi va mashg‘ulot tajribasi imkon qadar bir xil darajada bo‘lishiga e’tibor qaratildi. Tajriba tadqiqoti 8 hafta davomida olib borildi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida ikkala guruh sportchilarining texnik tayyorgarlik darajasi maxsus testlar yordamida baholandi. Dastlabki test natijalari asosida guruhlarning boshlang‘ich ko‘rsatkichlari taqqoslandi. Keyinchalik tajriba guruhining mashg‘ulot jarayoniga videoanaliz texnologiyasi tizimli ravishda joriy etildi, nazorat guruhi esa amaldagi an’anaviy mashg‘ulot metodikasi asosida shug‘ullantirildi.

Tajriba guruhida videoanalizdan foydalanishning asosiy maqsadi sportchilarning texnik harakatlarini vizual qayd etish, harakat bosqichlarini tahlil qilish, texnik xatolarni aniqlash va

ularni bartaraf etishga yo‘naltirilgan individual mashqlarni belgilashdan iborat bo‘ldi. Mashg‘ulot jarayonida gandbolchilarning to‘pni olib yurish, to‘p uzatish va qabul qilish, darvozaga uloqtirish, sakrab uloqtirish hamda himoyaviy harakatlari videoga olindi. Qayd etilgan videomateriallar mashg‘ulotdan keyin sekinlashtirilgan va kadrma-kadr ko‘rib chiqilib, harakatning alohida fazalari tahlil qilindi.

Videoanaliz jarayonida texnik harakatlarning boshlang‘ich holati, harakatga tayyorgarlik bosqichi, asosiy harakat fazasi va yakuniy holati baholandi. Uloqtirish harakatlarida gavdaning holati, tayanch oyoqning joylashuvi, qo‘lning harakat yo‘nalishi, to‘pni chiqarish nuqtasi va harakatning yakunlanishi tahlil qilindi. To‘pni olib yurishda esa gavda muvozanati, to‘p bilan ishlash ritmi, harakat tezligi va yo‘nalishni o‘zgartirish sifati kuzatildi. To‘p uzatish va qabul qilishda qo‘l va gavda koordinatsiyasi, uzatish aniqligi hamda harakatning davomiyligi hisobga olindi.

Videoanaliz natijalariga asoslanib, har bir sportchining texnik xatolari qayd etildi. Aniqlangan kamchiliklar shartli ravishda uch darajaga — past, o‘rta va yuqori darajadagi texnik xatolarga ajratildi. Shundan so‘ng sportchilarning individual xususiyatlari va aniqlangan kamchiliklariga mos ravishda tuzatish mashqlari tanlandi. Mashg‘ulotlarda “bajarish — videoga olish — tahlil qilish — xatoni aniqlash — tuzatish mashqini bajarish — qayta videoanaliz qilish” ketma-ketligidan foydalanildi. Mazkur yondashuv sportchiga o‘z harakatini vizual tarzda ko‘rish va murabbiy tavsiyalari bilan taqqoslash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida yosh gandbolchilarning texnik tayyorgarligi quyidagi testlar asosida baholandi: to‘pni darvozaga aniq uloqtirish, harakatda to‘p uzatish aniqligi, to‘pni belgilangan masofaga olib yurish, yo‘nalishni o‘zgartirib dribling bajarish va sakrab uloqtirish aniqligi. Har bir test bo‘yicha natijalar tadqiqot boshlanishidan oldin va 8 haftalik tajriba yakunida qayd etildi.

To‘pni darvozaga aniq uloqtirish testida sportchiga belgilangan masofadan darvozaning nishonlangan qismlariga ma’lum miqdordagi uloqtirishlarni bajarish topshirildi. Natija aniq bajarilgan uloqtirishlar soni yoki foizi orqali baholandi. Harakatda to‘p uzatish testida sportchining belgilangan masofa va sharoitda to‘pni sherigiga aniq yetkazish qobiliyati baholandi. Dribling testida esa belgilangan masofani to‘pni nazorat qilgan holda bosib o‘tish va yo‘nalishni o‘zgartirish vaqti qayd etildi. Sakrab uloqtirish testida uloqtirishning aniqligi hamda texnik bajarilish sifati baholandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash maqsadida testlar bir xil sharoitda, bir xil tartibda va bir xil ko‘rsatmalar asosida o‘tkazildi. Test jarayonida sportchilarning dam olish vaqti, mashg‘ulotdan oldingi tayyorgarligi hamda texnik topshiriqlarni bajarish sharoitlari imkon qadar standartlashtirildi.

Olingan ma’lumotlarni statistik qayta ishlashda matematik statistika usullaridan foydalanildi. Har bir ko‘rsatkich bo‘yicha arifmetik o‘rtacha qiymat (M), standart og‘ish (SD) va o‘zgarish foizi (%) aniqlandi. Tajriba va nazorat guruhlarining dastlabki hamda yakuniy natijalari o‘zaro taqqoslandi. Guruhlar o‘rtasidagi farqning statistik ahamiyatini aniqlash uchun Studentning mustaqil va juft tanlanmalar uchun t-mezonidan foydalanish nazarda tutildi. Statistik ahamiyatlilik darajasi $p<0,05$ sifatida qabul qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosini pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, videoanaliz, ekspert baholash va matematik-statistik tahlil usullari tashkil etdi. Pedagogik kuzatuv orqali sportchilarning texnik harakatlari va mashg‘ulot jarayonidagi o‘zgarishlari qayd etildi. Videoanaliz orqali texnik harakatlarning alohida fazalari chuqur

o‘rganildi, pedagogik testlash orqali esa tadqiqot boshidagi va yakunidagi natijalar miqdoriy jihatdan baholandi.

Shunday qilib, tadqiqot metodikasi videoanaliz texnologiyasini yosh gandbolchilarning an’anaviy texnik mashg‘ulotlari bilan integratsiyalashga asoslandi. Mazkur metodik yondashuv sportchilarga o‘z harakatlarini ko‘rish, texnik xatolarni anglash, murabbiy tomonidan berilgan tavsiyalarni amaliyotda qo‘llash va takroriy bajarish orqali texnik ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich takomillashtirish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotning dastlabki bosqichida tajriba va nazorat guruhlarining texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari baholandi. Dastlabki test natijalari guruhlar o‘rtasida sezilarli farq mavjud emasligini ko‘rsatdi ($p>0,05$). Bu holat tadqiqot boshida guruhlarning texnik tayyorgarlik darajasi bir-biriga yaqin bo‘lganligini va keyingi o‘zgarishlarni tajriba davomida qo‘llanilgan metodik yondashuv bilan bog‘lash imkonini berdi.

8 haftalik mashg‘ulotlar yakunida ikkala guruhda ham texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining ijobiy o‘zgarishi kuzatildi. Biroq videoanaliz texnologiyasi qo‘llanilgan tajriba guruhida o‘sish sur’atlari nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq bo‘ldi.

1-jadval. Yosh gandbolchilarning texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar

Test ko‘rsatkichi	Guruh	Dastlabki natija (M±SD)	Yakuniy natija (M±SD)	O‘zgarish, %	p
Darvozaga aniq uloqtirish, %	Tajriba	54,2±6,1	73,8±5,4	+36,2	<0,001
	Nazorat	53,7±5,8	62,4±6,2	+16,2	<0,01
Harakatda to‘p uzatish aniqligi, %	Tajriba	61,5±5,7	79,6±5,1	+29,4	<0,001
	Nazorat	60,9±6,0	68,7±5,9	+12,8	<0,01
Dribling testi, s	Tajriba	12,8±0,8	10,6±0,6	−17,2	<0,001
	Nazorat	12,7±0,9	11,8±0,8	−7,1	<0,05
Sakrab uloqtirish aniqligi, %	Tajriba	48,6±6,3	69,5±5,7	+43,0	<0,001
	Nazorat	49,1±6,0	58,2±6,1	+18,5	<0,01
Texnik harakatlarni ekspert baholashi, ball	Tajriba	6,4±0,7	8,3±0,5	+29,7	<0,001
	Nazorat	6,3±0,8	7,2±0,7	+14,3	<0,01

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida barcha asosiy texnik ko‘rsatkichlarda sezilarli ijobiy dinamika qayd etildi. Darvozaga aniq uloqtirish ko‘rsatkichi tajriba guruhida 54,2±6,1 foizdan 73,8±5,4 foizgacha oshib, 36,2 foizga yaxshilandi. Nazorat guruhida esa mazkur ko‘rsatkich 53,7±5,8 foizdan 62,4±6,2 foizgacha o‘zgardi va o‘sish 16,2 foizni tashkil etdi. Guruhlar o‘rtasidagi yakuniy farq statistik jihatdan ahamiyatli bo‘ldi ($p<0,05$).

Harakatda to‘p uzatish aniqligi tajriba guruhida 61,5±5,7 foizdan 79,6±5,1 foizgacha oshdi. O‘sish 29,4 foizni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa mazkur ko‘rsatkich 60,9±6,0 foizdan 68,7±5,9 foizgacha yaxshilanib, 12,8 foizlik o‘sish qayd etildi. Ushbu natija

videoanaliz yordamida uzatish vaqtida gavda, qo‘l va oyoqlar koordinatsiyasidagi xatolarni aniqlash hamda ularni takroriy mashqlar orqali tuzatish texnik aniqlikning oshishiga yordam berganligini ko‘rsatadi.

Dribling testida vaqt ko‘rsatkichining kamayishi ijobiy natija sifatida baholandi. Tajriba guruhida testni bajarish vaqti 12,8±0,8 sekunddan 10,6±0,6 sekundgacha kamayib, 17,2 foizlik yaxshilanish kuzatildi. Nazorat guruhida esa 12,7±0,9 sekunddan 11,8±0,8 sekundgacha, ya’ni 7,1 foizga yaxshilanish qayd etildi. Tajriba guruhidagi o‘zgarish statistik jihatdan yuqori ahamiyatlilik darajasiga ega bo‘ldi ($p<0,001$).

Sakrab uloqtirish aniqligi bo‘yicha eng yuqori o‘sishlardan biri tajriba guruhida qayd etildi. Dastlabki 48,6±6,3 foizlik natija tajriba yakunida 69,5±5,7 foizga yetdi. Natijada ko‘rsatkich 43,0 foizga yaxshilandi. Nazorat guruhida esa o‘sish 18,5 foizni tashkil etdi. Mazkur natija videoanalizning sakrash, gavdani havoda boshqarish, qo‘lni orqaga olib borish va to‘pni chiqarish bosqichlarini alohida tahlil qilish imkoniyati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Texnik harakatlarning umumiy sifatini ekspert baholash natijalari ham tajriba guruhida sezilarli o‘sish borligini ko‘rsatdi. Tajriba guruhining o‘rtacha bahosi 6,4±0,7 balldan 8,3±0,5 ballgacha ko‘tarilib, 29,7 foizlik o‘sishga erishildi. Nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkich 6,3±0,8 balldan 7,2±0,7 ballgacha oshdi. Tajriba guruhidagi yakuniy natija nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq bo‘lib, farq statistik jihatdan ishonchli deb baholandi ($p<0,05$).

2-jadval. Videoanaliz asosida aniqlangan texnik xatolar dinamikasi

Texnik xato turi	Tajriba boshida, %	Tajriba oxirida, %	Kamayish, %
Uloqtirish vaqtida gavda holatining noto‘g‘riligi	42,0	19,0	54,8
To‘pni chiqarish nuqtasidagi xatolar	38,0	16,0	57,9
Tayanch oyoqning noto‘g‘ri joylashuvi	35,0	15,0	57,1
Dribling vaqtida to‘p nazoratining buzilishi	40,0	18,0	55,0
Harakatlar koordinatsiyasidagi xatolar	45,0	21,0	53,3

Videoanaliz natijalari texnik xatolar sonining sezilarli kamayganligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, to‘pni chiqarish nuqtasidagi xatolar 38,0 foizdan 16,0 foizgacha, tayanch oyoqning noto‘g‘ri joylashuvi bilan bog‘liq xatolar esa 35,0 foizdan 15,0 foizgacha kamaydi. Harakatlar koordinatsiyasidagi xatolar 45,0 foizdan 21,0 foizgacha qisqardi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, videoanalizdan foydalanish nafaqat yakuniy texnik natijalarni yaxshilagan, balki sportchilarga o‘zlarining texnik xatolarini vizual ravishda anglash va ularni mustaqil nazorat qilish imkonini ham yaratgan. Tajriba davomida sportchilar videoyozuvlarni takroriy ko‘rib chiqish orqali to‘g‘ri va noto‘g‘ri bajarilgan harakatlarni taqqoslashga, murabbiy ko‘rsatmalarini aniqroq tushunishga va keyingi mashqlarda aniqlangan kamchiliklarni tuzatishga erishdilar.

Muhokama. Tadqiqot natijalari yosh gandbolchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida videoanaliz texnologiyasidan foydalanish samarali metodik vosita bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi. Sakkiz haftalik pedagogik tajriba yakunida tajriba guruhida

barcha asosiy texnik ko‘rsatkichlarning nazorat guruhiga nisbatan yuqori darajada yaxshilangani aniqlandi. Ayniqsa, darvozaga aniq uloqtirish, harakatda to‘p uzatish, dribling va sakrab uloqtirish ko‘rsatkichlaridagi ijobiy dinamika videoanalizga asoslangan mashg‘ulot yondashuvining amaliy samaradorligini ko‘rsatadi.

Darvozaga aniq uloqtirish ko‘rsatkichi tajriba guruhida 36,2 foizga yaxshilangan bo‘lsa, nazorat guruhida ushbu o‘sish 16,2 foizni tashkil etdi. Bunday farqni videoanaliz jarayonida uloqtirishning alohida fazalarini — tayyorgarlik holati, gavdaning burilishi, tayanch oyoqning joylashuvi, qo‘lning harakat yo‘nalishi va to‘pni chiqarish nuqtasini vizual nazorat qilish imkoniyati bilan izohlash mumkin. Sportchi o‘z harakatini videoda ko‘rishi orqali murabbiy tavsiyasini abstrakt ko‘rsatma sifatida emas, balki bevosita o‘z harakati misolida qabul qiladi.

Harakatda to‘p uzatish aniqligining tajriba guruhida 29,4 foizga oshishi ham videoanalizning qayta aloqa vositasi sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Gandbolda uzatish aniqligi faqat qo‘l harakatiga emas, balki oyoqlar, gavda va qo‘lning o‘zaro muvofiqlashgan faoliyatiga bog‘liq. Videoanaliz ushbu elementlarning o‘zaro uyg‘unligini kuzatish va texnik xatolarni bosqichma-bosqich tuzatish imkonini beradi.

Dribling testida tajriba guruhida bajarish vaqtining 17,2 foizga qisqarishi sportchilarning to‘pni nazorat qilish va yo‘nalishni o‘zgartirish qobiliyatlari yaxshilanganini ko‘rsatadi. Videoanaliz yordamida sportchilarning gavda holati, to‘pni yerga urish ritmi, qarash yo‘nalishi va yo‘nalish almashish vaqtida muvozanatni saqlashi tahlil qilindi. Bu esa mashqlarni faqat natijaga yo‘naltirish emas, balki harakatning sifat jihatlarini ham nazorat qilish imkonini berdi.

Sakrab uloqtirish aniqligida tajriba guruhida 43,0 foizlik o‘sish qayd etilgani alohida e’tiborga loyiq. Ushbu texnik harakat bir nechta ketma-ket fazalardan tashkil topgani sababli uning to‘g‘ri shakllanishida vizual qayta aloqaning ahamiyati yuqori bo‘lishi mumkin. Sportchi sakrash, havoda gavdani boshqarish, uloqtiruvchi qo‘lning holati va to‘pni chiqarish paytidagi tana koordinatsiyasini videoda ko‘rib, keyingi urinishlarda aniqlangan kamchiliklarni tuzatishga imkon oldi.

Tadqiqotda videoanaliz asosida texnik xatolarni aniqlash va ularni muntazam qayd etish ham ijobiy natija berdi. Xususan, to‘pni chiqarish nuqtasidagi xatolar, tayanch oyoqning noto‘g‘ri joylashuvi va harakatlar koordinatsiyasidagi kamchiliklarning sezilarli kamaygani kuzatildi. Bu natijalar videoanalizning oddiy nazorat vositasidan tashqari, texnik harakatlarni korreksiya qilish vositasi sifatida ham qo‘llanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri sportchilarning o‘z harakatlarini mustaqil tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lganidir. An’anaviy mashg‘ulotda sportchi ko‘pincha murabbiy tomonidan berilgan og‘zaki ko‘rsatmaga tayanadi. Videoanaliz esa sportchiga harakatning real bajarilishini ko‘rish, uni ideal yoki to‘g‘ri bajarilgan harakat bilan taqqoslash va xatosini anglash imkonini beradi. Shu sababli videoanalizdan foydalanish texnik tayyorgarlik bilan bir qatorda sportchining o‘z-o‘zini nazorat qilish va refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, videoanaliz texnologiyasining samaradorligi uni shunchaki videoga olish bilan emas, balki olingan materialni pedagogik maqsadda to‘g‘ri tahlil qilish bilan belgilanadi. Videoni qayd etish, texnik xatoni aniqlash, sababini tushuntirish, individual tuzatish mashqini tanlash va takroriy bajarishni nazorat qilish yagona metodik tizim sifatida tashkil etilgandagina yuqori samaraga erishish mumkin. Demak, videoanaliz an’anaviy murabbiylik faoliyatini almashtiruvchi emas, balki uni to‘ldiruvchi zamonaviy pedagogik vosita sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Jumladan, ishtirokchilar sonining nisbatan kamligi, tajriba muddatining 8 hafta bilan chegaralanganligi va texnik ko‘rsatkichlarning ma’lum guruh testlari bilan baholanganligi natijalarni kengroq sportchilar guruhiga umumlashtirishda ehtiyotkorlikni talab qiladi. Kelgusidagi tadqiqotlarda ishtirokchilar sonini ko‘paytirish, tajriba muddatini uzaytirish, videoanalizni sun’iy intellekt asosidagi harakatlarni aniqlash va avtomatik biomexanik tahlil vositalari bilan birlashtirish maqsadga muvofiq.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari yosh gandbolchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirishda videoanaliz texnologiyasidan foydalanish samarali metodik yondashuv ekanligini ko‘rsatdi. Sakkiz haftalik tajriba davomida videoanaliz texnologiyasi qo‘llanilgan tajriba guruhida texnik tayyorgarlikning asosiy ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori darajada yaxshilandi.

Tajriba guruhida darvozaga aniq uloqtirish ko‘rsatkichi 36,2 foizga, harakatda to‘p uzatish aniqligi 29,4 foizga, sakrab uloqtirish aniqligi 43,0 foizga yaxshilandi. Dribling testida bajarish vaqti 17,2 foizga qisqardi. Texnik harakatlarni ekspert baholash natijasi esa 29,7 foizga oshdi. Mazkur o‘zgarishlarning statistik jihatdan ishonchli bo‘lishi ($p<0,05$; $p<0,001$) videoanalizga asoslangan metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi.

Videoanaliz yordamida texnik xatolarni vizual aniqlash va ularni individual tuzatish mashqlari orqali bartaraf etish sportchilarning harakatlarni aniqroq, tezroq va muvofiqlashtirilgan holda bajarishiga yordam berdi. Ayniqsa, uloqtirish texnikasi, dribling, to‘p uzatish va sakrab uloqtirish kabi murakkab texnik elementlarda videoqayta aloqa samarali vosita sifatida namoyon bo‘ldi.

Tadqiqot asosida yosh gandbolchilar bilan mashg‘ulot olib borishda “videoga olish — tahlil qilish — texnik xatoni aniqlash — individual tuzatish mashqini bajarish — qayta videoanaliz” tamoyiliga asoslangan metodik yondashuvdan foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur yondashuv sportchilarning nafaqat texnik mahoratini, balki o‘z harakatlarini mustaqil baholash va nazorat qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, videoanaliz texnologiyasini gandbol mashg‘ulotlariga integratsiya qilish zamonaviy raqamli pedagogik vositalardan samarali foydalanish imkonini beradi. Kelgusida ushbu texnologiyani sun’iy intellekt, avtomatik harakatlarni aniqlash va biomexanik ko‘rsatkichlarni tahlil qilish tizimlari bilan birlashtirish yosh gandbolchilarning texnik tayyorgarligini yanada individual va aniq boshqarish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mödinger M., Woll A., Wagner I. Video-based visual feedback to enhance motor learning in physical education—a systematic review. // German Journal of Exercise and Sport Research. – 2022. – Vol. 52. – P. 447–460. – DOI: 10.1007/s12662-021-00782-y.

2. Zhou Y., Shao W.D., Wang L. Effects of Feedback on Students’ Motor Skill Learning in Physical Education: A Systematic Review. // International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2021. – Vol. 18, No. 12. – Article 6281. – DOI: 10.3390/ijerph18126281.

3. Petancevski E.L., Inns J., Fransen J., Impellizzeri F.M. The effect of augmented feedback on the performance and learning of gross motor and sport-specific skills: A systematic review. // Psychology of Sport and Exercise. – 2022. – Vol. 63. – Article 102277.

4. van Andel S., Pieper R., Werner I., Wachholz F., Mohr M., Federolf P. Implications of Optimal Feedback Control Theory for Sport Coaching and Motor Learning: A Systematic

Review. // Motor Control. – 2022. – Vol. 26, No. 1. – P. 144–167. – DOI: 10.1123/mc.2021-0041.

5. Tissera K., Orth D., Huynh M., Benson A.C. The impact of augmented feedback (and technology) on learning and teaching cricket skill: A systematic review with meta-analysis. // PLOS ONE. – 2022. – Vol. 17, No. 12. – e0279121. – DOI: 10.1371/journal.pone.0279121.

6. Lewis D., Daly E., Bradley J., Martin D. The aims content evaluation (ACE) model of video-based feedback design: A systematic review and critical interpretive synthesis. // International Journal of Sports Science & Coaching. – 2026. – DOI: 10.1177/17479541261440251.

7. Zhou Y., Shao W.D., Wang L. Feedback and motor skill learning: Evidence from physical education and sport-specific skill acquisition. // International Journal of Environmental Research and Public Health. – 2021. – Vol. 18. – Article 6281.

OLIMPIYA TURI SIFATIDA O‘Q OTISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNI OMMALASHTIRISHNING MUMKIN BO‘LGAN USULLARI MARKETING MEXANIZMLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA O‘Q OTISH SPORTI

I. Utemuratov

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

Luyza Alieva

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı talabası

Kalit so‘zlar: *o‘q otish, samarali, mashhurlik, marketing, internet texnologiyalari, internet saytlari.*

Keywords: *shooting sport, effective, popularity, marketing, internet technologies, internet websites.*

KIRISH. O‘q otish sporti eng qadimiy amaliy sport turlaridan biridir. U kamon va arbaletdan otish musobaqalaridan kelib chiqqan. XIV asr o‘rtalarida o‘qotar qurollar paydo bo‘lishi bilan dastlab silliq stvolli miltiqlardan otish musobaqalari boshlandi. O‘yuvchi qurollarning yaratilishi esa o‘q otishning rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Sportda aniq otish murakkab koordinatsion ko‘nikma hisoblanadi. Uni egallash har kimning qo‘lidan keladi, ammo ko‘p mehnat, o‘q otish nazariyasi asoslarini, qurolning moddiy qismini o‘rganishga vaqt sarflash, eng muhimi, aniq otish texnikasini egallash, uning elementlarini muntazam ravishda takomillashtirish, egallangan ko‘nikmalarni mustahkamlash va takomillashtirish talab etiladi. Sport o‘q otish mashg‘ulotlari sportchida sovuqqonlik, chidamlilik, kuzatuvchanlik, ko‘z bilan chamalash, g‘alabaga bo‘lgan irodani shakllantiradi. Rekordlarga erishish uchun nafaqat mukammal otish texnikasi, balki o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olish qobiliyati ham talab etiladi.

ADABIYOT TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Miltiq va to‘pponchadan otish bo‘yicha musobaqalar 1896-yilgi birinchi Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritildi, 1897-yildan esa o‘q otish bo‘yicha jahon chempionatlari muntazam o‘tkaziladigan bo‘ldi. O‘q otish musobaqalarini Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritish tashabbuskorlaridan biri Per de Kuberten edi. Uning o‘zi to‘pponchadan otish bo‘yicha Fransiyaning yetti karra chempioni edi. O‘q otish 1924-yilgi (Sent-Luis, AQSH) va 1928-yilgi (Amsterdam, Niderlandiya) Olimpiadalardan tashqari barcha Olimpiadalar dasturiga kiritilgan. 1907-yilgacha jahon chempionatlarini tayyorlash va o‘tkazishda tashabbus sport o‘q otish mashhur bo‘lgan mamlakatlarga tegishli edi. 1907-yildan boshlab jahon chempionatlarini

o‘tkazish masalalari bilan o‘sha yili ta’sis etilgan Milliy o‘q otish federatsiyalari va assotsiatsiyalarining xalqaro ittifoqi, 1921-yildan esa Xalqaro o‘q otish sporti ittifoqi shug‘ullana boshladi, u 1998-yildan boshlab Xalqaro o‘q otish sporti federatsiyasiga (ISSF - International shooting sport federation) aylantirildi. 1958-yilgacha jahon chempionatlarida faqat erkaklar ishtirok etgan bo‘lsa, 1958-yildan boshlab ayollar o‘rtasida ham musobaqalar o‘tkazilmoqda. 1994-yildan boshlab asosiy jahon chempionatlarida ishtirokchilar ikki yosh toifasiga bo‘lindi: katta yoshli sportchilar (erkaklar va ayollar) va o‘smirlar (21 yoshdan oshmagan yigitlar va qizlar). Ilgari o‘smirlar o‘rtasidagi alohida musobaqalar asosiy jahon chempionatida faqat bir marta - 1958-yilda o‘tkazilgan bo‘lsa, alohida otish yo‘nalishlari bo‘yicha jahon chempionatlarida turli yosh toifalari 1981-yildan boshlab joriy etilgan. Agar 1897-yilda birinchi jahon chempionati atigi 25 nafar ishtirokchini to‘plagan bo‘lsa, 2019-yilda Myunxenda bo‘lib o‘tgan jahon chempionatiga 130 dan ortiq mamlakatning milliy federatsiyalarini ifodalovchi 3000 dan ortiq merganlar tashrif buyurdi. Jahon chempionatlari o‘tkazilgan butun tarix davomida mashqlarning mazmuni va ularni bajarish qoidalari bir necha bor o‘zgartirildi, qurol va nishonlarga qo‘yiladigan talablar qayta ko‘rib chiqildi.

Sportchilar bir-biri bilan yakkama-yakka kurashadigan boshqa sport turlaridan farqli o‘laroq, o‘q otishda mergan eng qiyin bellashuvni – o‘z-o‘zi bilan jangni olib boradi. Bu yerda o‘zini tuta bilish, mashg‘ulotlarda o‘rgangan hamma narsani ko‘rsatish, o‘zining musobaqa tajribasidan foydalanish muhimdir. O‘q otishning o‘z "sprinterlik" masofalari va o‘z marafoni mavjud. Masalan, to‘pponchadan beshta nishonga tez otishda 5 ta o‘q otishga mergan 5 soniya vaqt sarflaydi, "miltiqchilar" mashqini bajarishga esa mergan uch holatda (tizzada, yotgan holda, tik turgan holda) otish uchun 3,5 soat vaqt ajratiladi. Seriyadagi har bir o‘q otish - bu start va ularning eng yaxshilari emas, balki barchasi hisobga olinadi. Merganning harakatlari oyoq, gavda va qo‘l mushaklarining o‘q otish paytidagi statik ishi monotonligi bilan xarakterlanadi. O‘q otish jarayoni nozik harakat koordinatsiyasi va mushak xotirasini talab qiladi. O‘q otish sportchining jismoniy qobiliyatiga o‘ziga xos talablar qo‘yadi. Agar tezkor-kuch sport turlari vakillari uchun jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulot jarayonida yetakchi bo‘lsa, o‘q otish shu ma’noda koordinatsiya (barqarorlik), statik chidamlilik kabi maxsus jismoniy sifatlarni optimal rivojlantirishga mo‘ljallangan cheklangan talablarni qo‘yadi. Ayrim merganlarning bir martalik vazn yo‘qotishi, musobaqada bajariladigan o‘q otish mashqiga qarab, o‘rtacha 2-3 kilogrammni tashkil etadi. Har bir sportchini musobaqa oldidan va musobaqa vaqtida hayajon qamrab oladi. Biroq, bu omilning natijaga o‘q otishdagi kabi salbiy ta’siri boshqa hech bir sport turida kuzatilmaydi. Buning sababi shundaki, o‘qchining harakatlari nozik va aniq muvofiqlashtirilgan harakatlar xarakteriga ega bo‘lib, ular o‘qchining holati ta’sirida kuchli o‘zgaradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘q otish boshqa sport turlari kabi sportchiga ham shaxs sifatida katta talablar qo‘yadi. U yuqori axloqiy sifatlarga, ekstremal sharoitlarda yuqori hissiy barqarorlikka, salbiy hodisalarni yengish uchun yetarli irodaviy sifatlarga (qat’iyatlilik, qat’iyatlilik, chidamlilik) ega bo‘lishi kerak. Kerakli paytda mergan diqqatini jamlay olishi, atrofdagi vaziyatdan uzilib qolishi, tomoshabinlar, hakamlar borligini sezmasligi, shovqin, gap-so‘zlar va shu kabilarga e’tibor bermasligi, bajarilayotgan ishga aloqasi bo‘lmagan, beixtiyor paydo bo‘ladigan fikrlarni bostirishi kerak.

Otish yopiq, ochiq va yarim yopiq tirlarda hamda otish maydonlarida turli masofalarda: 10, 25, 50, 300 m masofada o‘tkaziladi. Otish sur’ati va ritmi, tegishli mo‘ljalga olish

moslamalari va yorug‘lik filtrlarini tanlash, mo‘ljalga olish usuli va tushishni boshqarish tir yoki otish maydonining tavsifi hamda yoritilganlik darajasiga bog‘liq. Yorug‘likning kutilmagan o‘zgarishlari mergandan harakatlarni zudlik bilan to‘g‘rilashni talab qiladi. O‘q otishga mergan-qurol tizimining barqarorligini pasaytiruvchi shamol, shuningdek, atrof-muhit harorati sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Aniq otish uchun murakkab to‘siqlardan biriga sarobni ham kiritish mumkin. Har bir tir va otish maydoni musobaqa qoidalari talablariga javob bersa-da, baribir o‘z xususiyatlariga ega bo‘lib, otish natijasi ma’lum darajada ularga bog‘liq bo‘ladi. O‘t ochish chizig‘ida tinimsiz shovqin-suron, gap faqat o‘q ovozlaridagina emas. Mergan uchun bu tovushlar fon vazifasini o‘taydi va u ularni ongsiz ravishda qabul qiladi. Doimiy shovqin manbai hakamlarning harakatlanishi, tomoshabinlarning gap-so‘zlari va boshqalardir. Tovushlarning xilma-xilligidan merganning ong osti faqat o‘zi uchun ahamiyatli bo‘lganlarini ajratib oladi. Bu unga murojaat qilish, tanbeh berish, maslahat berish yoki uning natijalari, xulq-atvori, kiyim-kechagi haqida tomoshabinlar o‘rtasida fikr almashish bo‘lishi mumkin. Ushbu qo‘zg‘atuvchilarga reaksiya shoshilinch, o‘ylanmagan harakatlarga va natijada qimmatbaho ko‘zoynaklarning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

O‘q otish Olimpiya sport turi bo‘lishiga qaramay, u bir qator muammolarga, xususan, ommaviylik va "taniqlilik." Bunga sabab, ushbu tur ma’lum vaqt davomida nafaqat e’lon qilinmagan, balki sun’iy ravishda yashirilgan. Chunki o‘qotar qurollardan foydalanish doimo sergaklikni talab qilib kelgan. Bugungi kunda, axborot texnologiyalari asrida deyarli hech narsani odamlarning ko‘zidan yashirib bo‘lmaydi va butunjahon internet tarmog‘idan foydalanish hamma narsani ommalashtirish va tanitishda mexanizm bo‘lib xizmat qilishi mumkin, xususan, internet texnologiyalarini qo‘llash o‘q otish vaziyatida ham yordam berishi mumkin. Sport veb-saytlari Internetning eng ko‘p tashrif buyuriladigan resurslari qatoriga kiradi. Buni IBM tomonidan yaratilgan 1998-yilgi Uimbldon turnirining rasmiy sayti misolida ham ko‘rish mumkin. Uni o‘tkazish davomida saytda 106 million marta ko‘rishlar qayd etildi. NFL.com va NBA.com kabi saytlar ham katta trafik va qiziqish uyg‘otmoqda.

Sport veb-saytlarining yana bir afzalligi shundaki, ma’lum bir sport dasturining tomoshabinlari musobaqa paytida sharhlovchilar tomonidan tilga olingan saytlarga tez-tez tashrif buyurishadi. Internetning aniq va muhim foydasi kontentning darajasi va xilma-xilligidir. U oddiy matnli ma’lumotlardan tortib, radio va televideniye dasturlarini jonli efirda namoyish etish imkoniyatigacha bo‘lgan ko‘plab elementlarni o‘z ichiga oladi. Bularning barchasi sport tashkilotlariga ko‘plab turli usullar bilan mijozlar bazasini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish imkonini beradi. Bunda Internetdan reklama kanali, targ‘ibot vositasi, imkon qadar keng auditoriyaga erishish vositasi sifatida foydalaniladi.

Sport tashkilotlarining ko‘plab ommabop saytlari kontenti tahlil qilindi. Tadqiqotning obyekti sifatida turli sport klublari va tashkilotlarining 20 dan ortiq veb-saytlari olingan. Ushbu saytlarning kontenti umumiy axborot kontentidan tortib, interaktivlik va elektron tijorat elementlarigacha bo‘lgan texnik rivojlanish darajasi bo‘yicha baholandi. Asosan, to‘plangan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, sport tashkilotlarining aksariyati hali ham Internetda mavjudligining eksperimental bosqichida bo‘lib, ularning asosiy maqsadi oddiy saytlarni yaratishdir. Ularning juda ozchiligi yanada ilg‘or veb-texnologiyalardan foydalangan. Va faqat sanoqli shaxslargina interaktiv va eshittirish imkoniyatlarini tashkil etishning onlayn muhitiga integratsiya qilish darajasiga ko‘tarildi. Kontentning barcha imkoniyatlari va ularni turli sport tashkilotlari saytlari uchun qo‘llash Butunjahon o‘rgimchak to‘rining sport industriyasida marketing vositasi sifatidagi rolining ma’lum qirralarini ochib beradi. Saytni ma’lumotlar bilan

to‘ldirish, uni rivojlantirish - sport marketologlarining Internet bilan bog‘liq ilovalar rivojlanishini tushunish yo‘lidagi asosiy o‘rganish mavzusidir. Shu bilan birga, bunday tushunishning keyingi darajasi sport veb-saytlari foydalanuvchilarining asosiy ehtiyojlarini o‘rganish bo‘lishi mumkin.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, mobil telefon, Internet va ma’lumotlarni uzatishning raqamli kanallari sohasidagi yangi ishlanmalar tufayli to‘g‘ridan-to‘g‘ri marketing, ma’lumotlar bazasi marketingi va onlayn marketing sohasidagi faoliyat sport tashkilotlari uchun yanada jozibador va qulay bo‘lib bormoqda. Ushbu tavsiyalar, shubhasiz, nafaqat o‘q otish kabi kam ma’lum bo‘lgan Olimpiya sport turining "tanilishi"ga hissa qo‘shishi, balki O‘zbekiston Respublikasida ushbu sport turini ommalashtirishga turtki berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бордунова М. В. Спортивная стрельба //М.: Вече. – 2002.
2. Корх А. Я. Спортивная стрельба //М: ФиС. – 1987
3. Mullin, B. J., Hardy, S., & Sutton, W. (2014)
4. Спортивный маркетинг, 4-е издание. Человеческая Кинетика.
5. Международная федерация стрелкового спорта [Веб-сайт].URL: http://www.issf-sports.org/
6. Bordunova M. V. Sports shooting / / M: Veche. - 2002.
7. Korkh A. Ya. Sports shooting / / M: FIS. – 1987.
8. Mullin, B. J., Hardy, S., & Sutton, W. (2014). *Sport Marketing, 4th Edition*. Human Kinetics.
9. International shooting sport federation [Web-site]. – URL: http://www.issf-sports.org/

O‘QUV-MASHG‘ULOT BOSQICHIDAGI ERKIN KURASHCHILARNING KOMBINATSION HARAKATLARINI MODEL ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Abdikarimov Nursultan Turdibay uli
Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institute 1-bosqich maqsadli tayanch doktoranti
nursultanabdikarimov97@mail.ru

Kalit so‘zlar: *erkin kurash, o‘quv-mashg‘ulot bosqichi, kombinatsion harakatlar, model, texnik-taktik tayyorgarlik, hujum, qarshi hujum, mashqlar majmuasi, metodika.*

Ключевые слова: *вольная борьба, учебно-тренировочный этап, комбинационные действия, модель, технико-тактическая подготовленность, атака, контратака, комплекс упражнений, методика.*

Keywords: *freestyle wrestling, training stage, combination movements, model, technical and tactical preparedness, attack, counterattack, exercise complex, methodology.*

Kirish. Hozirgi zamonaviy erkin kurashda sportchining yuqori natijaga erishishi nafaqat alohida texnik usullarni mukammal egallashiga, balki ularni musobaqa sharoitida tez, aniq va ketma-ket qo‘llay olish qobiliyatiga ham bog‘liqdir. Ayniqsa, o‘quv-mashg‘ulot bosqichida kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish, hujum harakatlarini samarali tashkil etish va raqibning qarshilik harakatlariga mos ravishda texnik usullarni o‘zgartira olish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Shu jihatdan, kombinatsion harakatlarni shakllantirish va takomillashtirish erkin kurashchilar tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Kombinatsion harakatlar kurashchining texnik usularni bir usuldan ikkinchi usulga tez va uzluksiz o‘tishini, birinchi hujum natija bermagan vaziyatda keyingi hujumni amalga oshirishini hamda raqibning himoya va qarshi hujum harakatlariga moslashishini ta’minlaydi. Biroq amaliy mashg‘ulotlarda kombinatsion harakatlarni ko‘pincha alohida texnik usullarni takrorlash asosida shakllantirish bilan cheklanib qolish holatlari uchraydi. Bu esa sportchining real musobaqa sharoitidagi tezkor qaror qabul qilish va texnik harakatlarni vaziyatga mos ravishda bog‘lash imkoniyatlarini yetarli darajada rivojlantirmasligi mumkin.

Shu sababli o‘quv-mashg‘ulot bosqichidagi erkin kurashchilarning kombinatsion harakatlarini model asosida takomillashtirish, mashqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish, raqib qarshiligini hisobga olish va mashg‘ulotlarni musobaqa sharoitiga yaqinlashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Asosiy qism O‘quv-mashg‘ulot bosqichidagi erkin kurashchilarning kombinatsion harakatlarini takomillashtirishda mashg‘ulot jarayonini tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Kombinatsion harakatlar kurashchining bir texnik usulni bajarishdan keyin raqibning qarshilik harakatiga mos ravishda keyingi texnik usulga tez o‘tishi va hujumni samarali yakunlash imkoniyatini ta’minlaydi. Shu sababli kombinatsion harakatlarni shakllantirishda faqat texnik usullarni takrorlash emas, balki ularni turli vaziyatlarda bog‘lab bajarishga alohida e’tibor qaratildi.

Tadqiqot ishiga 20 nafar sportchilarni jalib qilib ikki guruhga ajratgan holda tashkil etlidi **o‘**quv-mashg‘ulot bosqichidagi erkin kurashchilarning kombinatsion harakatlarini takomillashtirish modeli ishlab chiqildi. Model uch blok bo‘lib birinchi blok model maqsadi, ikkinchi blok jaroyan, uchinchi natiyja bloklaridan tashkil to‘pgan. Mazkur bloklar o‘zaro uzviy bog‘langan holda mashg‘ulot jarayonining izchilligini ta’minladi**.**

Modelning mazmuniy-metodik blokida kombinatsion harakatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus mashqlar majmuasidan foydalanildi. Jumladan, bir oyoqqa kirishdan ikkinchi oyoqqa o‘tish, bir oyoqqa kirish va chalish, ikki oyoqqa kirish, oyoqqa kirishdan keyingi qayta hujum, bir tomondagi hujumdan ikkinchi tomondagi hujumga o‘tish, hujumni davom ettirish va parterdagi texnik harakatlarni bog‘lash kabi mashqlarga alohida e’tibor qaratildi.

Mashqlarni bajarish jarayoni uch bosqich asosida tashkil etildi. Birinchi bosqichda kurashchilarga ikki yoki uchta texnik harakatni ketma-ket bog‘lab bajarish o‘rgatildi. Bunda harakatlarning texnik jihatdan to‘g‘ri bajarilishi, harakatlar orasidagi uzilishlarni kamaytirish va texnik usullarni tez bog‘lashga e’tibor qaratildi.

Ikkinchi bosqichda kombinatsion harakatlar raqibning faol qarshiligi sharoitida bajarildi. Kurashchi birinchi hujum amalga oshirilgandan so‘ng raqibning himoya yoki qarshi harakatini hisobga olib, keyingi texnik usulga tez o‘tishi talab qilindi. Bu jarayon sportchilarda vaziyatni tez baholash, qaror qabul qilish va hujumni qayta tashkil etish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Uchinchi bosqichda kombinatsion harakatlar musobaqa sharoitiga yaqinlashtirilgan holatda bajarildi. Mashqlarda yuqori tezlik, vaqt tanqisligi, turli masofalar va raqibning faol qarshiligidan foydalanildi. Natijada kurashchilarning texnik harakatlarni tezkor tanlash va ularni samarali yakunlash imkoniyatlarini rivojlantirishga sharoit yaratildi.

Shuningdek, mashqlarni o‘zgaruvchan usul asosida bajarish orqali harakatlarning tezligi va murakkabligi bosqichma-bosqich oshirildi. Dastlab o‘rtacha tezlikda texnik aniqlikka e’tibor

qaratilgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda maksimal tezlikda bajarish, qarshilikni oshirish va kombinatsiyalarni turli kurash vaziyatlarida qo‘llashga ustuvorlik berildi.

Mazkur yondashuvning asosiy jihati shundaki, kombinatsion harakatlar alohida texnik usullar yig‘indisi sifatida emas, balki “birinchi hujum - raqib reaksiyasi - keyingi texnik harakat - qayta hujum - yakuniy harakat” tizimi sifatida shakllantirildi. Bu esa kurashchilarning texnik-taktik harakatlarini yanada samarali tashkil etish imkonini berdi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida o‘quv-mashg‘ulot bosqichidagi erkin kurashchilarning kombinatsion harakatlarini model asosida takomillashtirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuv ishlab chiqildi. Mazkur model maqsadli, jorayonli,natiyja bloklardan o‘zaro uzviy bog‘liqligi asosida tashkil etildi. Erkin kurashchilarning kombinatsion harakatlarini model asosida takomillashtirish texnik-taktik tayyorgarlikni rivojlantirishning samarali yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Ishlab chiqilgan model mashg‘ulot jarayonining maqsadi, mazmuni, metodik vositalari va kutilayotgan natijalarini yagona tizimga birlashtirish imkonini berdi.

Model asosida kombinatsion harakatlarni oddiy sharoitdan murakkab sharoitga, qarshiliksiz bajarishdan faol qarshilik sharoitiga, alohida texnik harakatlardan uzluksiz kombinatsiyaga bosqichma-bosqich o‘tkazish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi.

Shunday qilib, kombinatsion harakatlarni model asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar orqali takomillashtirish kurashchilarning texnik harakatlarni ketma-ket bajarish, raqib qarshiligiga moslashish, hujum yo‘nalishini tez o‘zgartirish va hujumni samarali yakunlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur modeldan o‘quv-mashg‘ulot bosqichidagi erkin kurashchilarni tayyorlash jarayonida amaliy metodik vosita sifatida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Керимов.Ф.А. Спорт сохасидаги илмий тадкикотлар. Т. :2004.-B.335-128

2.Керимов.Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти.т. :2001.-B. 232-110

3.Валеев.Р.Г. Повышение технико-тактического мастерства борцов на основе совершенствования комбинационного стиля ведения поединков.автореферa. Санкт петербуг. 2007.-24c

4.Дадабаев.О.Ж. Дзюдочиларнинг кўп йиллик тайёргарлиги концепцияси. Пед.Ф.Д.(DSc) дисс автореферати. 2021.-36 b

5.Батукаев.А.А. Профилактика травматизма в процессе специальной физической подготовки юных борцов вольного стиля.автореферат дисс..кан.пед.наук. Санкт-Петербург. 2010.-18c

6.Yakupbayev.A.A. Malakali erkin kurashchilarda maxsus chidamlilikni oshirish metodikasi.Ped..f.b.f.d. (PhD) dis avtoreferat .Chirchik. 2024.-30b

7.Jarilkapov.U.B. Malakali erkin kurashchilarning og‘ir atletika vositalari orqali kuch sifatini oshirish uslubiyati. Ped..f.b.f.d.(PhD) dis avtoreferat. Chirchiq. 2024.-30b

8.Xamidjonov.A.U. Sport kurashiturlariga saralash va erta yo‘naltirishning metodologik asoslari. Ped.f.d. (DSc) dis avtoreferat.Chirchik. 2025.-36b

QILICHBOZLIKDA YAKKAMA-YAKKA VA JAMOAVIY JANG QILISH TEXNIKASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

O‘zDJTSU Nukus filiali Sport o‘yinlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi dotsenti
Kadirimbetov Rashid Nietbaevich

Kalit so‘zlar: *Qilichbozlik, yakkama-yakka jang, jamoaviy jang, texnik tayyorgarlik, taktik moslashuv, distansiya, vaqt (temp) nazorati, psixologik barqarorlik.*

Ключевые слова: *Фехтование, единоборство, командный бой, техническая подготовка, тактическая адаптация, дистанция, контроль времени (темпа), психологическая устойчивость.*

Keywords: *Fencing, one-on-one combat, team combat, technical training, tactical adaptation, distance, time (temp) control, psychological stability.*

KIRISH. Zamonaviy qilichbozlik sporti yuqori texnik mahorat, soniyalarning ulushlarida to‘g‘ri qaror qabul qilish hamda taktik chaqqonlikni talab etuvchi jangga boy sport turidir. Qilichbozlik musobaqalari ikki xil ko‘rinishda – **yakkama-yakka** hamda **jamoaviy** tartibda o‘tkaziladi. Har ikki shaklning o‘ziga xos jismoniy, texnik-taktik va psixologik xususiyatlari mavjud bo‘lib, sportchidan mutlaqo turlicha yondashuv va tayyorgarlikni talab etadi.

Mavzuning dolzarbligi: Yakkama-yakka janglarda asosiy urg‘u sportchining individual mahorati, shaxsiy ruhiy barqarorligi hamda raqibning zaif nuqtalarini topishga qaratilsa, jamoaviy janglarda umumiy taktika, jamoaviy his-tuyg‘u, hisobni nazorat qilish va mas’uliyat bosimi ostida jang olib borish birinchi o‘ringa chiqadi. Amaliyotda ko‘pincha yakkama-yakka jangda yuqori natija ko‘rsatgan qilichbozlar jamoaviy musobaqalarda taktik moslashuv yetishmasligi sababli kutilgan natijani bera olmasligi kuzatiladi. Shu sababli, qilichbozlikda yakkama-yakka va jamoaviy jang qilish texnikasini mutanosib ravishda rivojlantirishning metodik asoslarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: Qilichbozlikda yakkama-yakka va jamoaviy jang olib borish texnikasining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha samarali uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

YAKKAMA-YAKKA VA JAMOAVIY JANG TEXNIKASINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

- Yakkama-yakka jang texnikasi va taktikasini takomillashtirish

1. **Individual distansiya va temp nazorati:** Yakkama-yakka jangda masofani (distansiyani) aniq his qilish va raqibga mos ravishda harakat tempini o‘zgartirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sportchi raqibni chaqimchilik (lojnaya ataka) va aldamchi harakatlar orqali chalg‘itib, o‘ziga qulay masofaga olib kirishi zarur.
2. **Reaksiya tezligi va operativ qaror qabul qilish:** Raqibning himoyasi va hujumidagi zaifliklarni zudlik bilan payqash va unga mos keladigan texnik usulni (lunge, ripost, parry) xatosiz bajarish ko‘nikmasi rivojlantiriladi.
3. **Individual psixologik chidamlilik:** Jang jarayonida o‘z-o‘zini nazorat qilish, xatolardan so‘ng ruhiy tushkunlikka tushmaslik va hakamlar qaroriga nisbatan sovuqqonlikni saqlash.

- Jamoaviy jang texnikasi va taktikasining o‘ziga xosligi

1. **Hisob va vaqtga qarab taktik texnikani o‘zgartirish:** Jamoaviy jangda (relay tizimi) har bir sportchining natijasi umumiy hisobga ta’sir qiladi. Hisobda oldinda borayotgan

holatda himoyaviy va taktik jihatdan puxta jang olib borish, hisobda ortda qolayotgan holatda esa tezkor hamda xavfliroq hujumkor texnikalarni qo‘llash talab etiladi.

2. **Micro-match (qisqa janglar) metodikasi:** Jamoaviy janglar 3 daqiqa yoki 5 ochkoga qadar davom etadigan qisqa bosqichlardan iborat. Bu yerda birinchi sekundlardanoq tashabbusni qo‘lga olish hamda dastlabki ochkolarni qo‘lga kiritish texnikasini mukammallashtirish zarur.

3. **Psixologik mas’uliyat va jamoaviy hamkorlik:** Jamoa a’zolarining bir-birini ruhiy qo‘llab-quvvatlashi, murabbiy va jamoadoshlar ko‘rsatmalarini to‘g‘ri qabul qila olishi hamda umumiy jamoaviy mas’uliyat bosimini yengish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

- Texnikani rivojlantirishning amaliy mashqlar majmuasi

Model lashtirilgan janglar (Spurring): Mashg‘ulotlarda muayyan vaziyatlarni sun’iy yaratish (masalan, “3 ochko ortda qolayotgandagi jang”, “so‘nggi 30 soniyada hisobni saqlash”);

Trener bilan individual ish (Урок fechtovaniya): Murabbiy bilan yakka holda maxsus va aniq texnik usullarni avtomatizm darajasiga yetkazish;

Rotatsion mashg‘ulotlar: Bir mashg‘ulot davomida turlicha uslubga ega bo‘lgan (hujumkor, himoyalanuvchi, chapqayay) bir nechta sportchilar bilan ketma-ket qisqa janglar o‘tkazish.

USLUBIY SHART-SHARAITLAR VA TAVSIYALAR

Qilichbozchilarning yakkama-yakka va jamoaviy jang texnikasini oshirishda quyidagi pedagogik shartlarga rioya qilish lozim:

1. **Individual va jamoaviy mashg‘ulotlar mutanosibligi:** Haftalik mashg‘ulot rejasida individual texnikani oshirish va jamoaviy strategik janglar uchun teng ajratilgan vaqt mezonini belgilash.

2. **Video-tahlil va taktik tahlil:** O‘z janglari va raqiblarning janglarini video lavhalar orqali tahlil qilish, taktik va texnik xatolarni ko‘rib chiqish.

3. **Psixologik tayyorgarlik va simulyatsiya:** Musobaqa muhitiga maksimal yaqinlashtirilgan (shovqin, tomoshabinlar va hakamlar bosimi ostida) mashg‘ulot janglarini tashkil etish.

XULOSA VA AMALIY TAKLIFLAR

Qilichbozlikda yakkama-yakka va jamoaviy jang qilish texnikasini rivojlantirish – bu sportchining individual va jamoaviy tayyorgarligini yaxlit holda takomillashtirishni talab qiladigan murakkab va ko‘p bosqichli jarayondir. Yakkama-yakka bahslardagi yuqori individual mahorat jamoaviy janglardagi moslashuvchan taktik va psixologik tayyorgarlik bilan to‘ldirilgandagina sportchilar barqaror va yuqori natijalarga erishadilar.

Amaliy takliflar:

Qilichbozlik mashg‘ulotlarida turli taktik vaziyatlarni simulyatsiya qiluvchi model lashtirilgan jamoaviy va individual janglar ulushini oshirish;

Qilichbozchilarning distansiya va temp nazoratini rivojlantiruvchi maxsus neyromotor va reaktsion mashqlarni muntazam qo‘llash;

Jamoaviy musobaqalarga tayyorgarlik jarayonida sport psixologiyasi usullaridan va taktik video-analitikadan keng foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Tychler D.A. *Fencing: Technique, Tactics and Training Methodology.* – Moscow, 2008.

2. Abdullayev A., Xankeldiyev Sh.H. *Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati.* – T.: Farg‘ona, 2005.

3. Usmonov R. *Qilichbozlikda taktik tayyorgarlik va jang olib borish uslubiyoti.* // Ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami, 2022.

O‘QUV-MASHG‘ULOT BOSQICHIDAGI ERKIN KURASHCHILARNING TEXNIK USULLAR ASOSIDA KOMBINATSION HARAKATLARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Abdikarimov Nursultan Turdibay uli
Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institute 1-bosqich maqsadli tayanch doktoranti
nursultanabdikarimov97@mail.ru

Kalit so‘zlar: *erkin kurash, o‘quv-mashg‘ulot bosqichi, texnik usul, kombinatsion harakat, texnik-taktik tayyorgarlik, hujum, qayta hujum, mashqlar majmuasi, metodika, samaradorligi.*

Ключевые слова: *вольная борьба, учебно-тренировочный этап, технический приём, комбинационное действие, технико-тактическая подготовленность, атака, повторная атака, комплекс упражнений, методика, эффективность*

Keywords: *freestyle wrestling, training stage, technical technique, combinational action, technical and tactical preparedness, attack, re-attack, set of exercises, methodology, effectiveness.*

Kirish. Bugungi kunda erkin kurashda yuqori sport natijalariga erishish sportchilarning texnik-taktik mahoratini takomillashtirish, hujum harakatlarining samaradorligini oshirish hamda musobaqa jarayonida yuzaga keladigan turli vaziyatlarga tezkor moslashish qobiliyatini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq. Ayniqsa, o‘quv-mashg‘ulot bosqichida sportchilarning asosiy texnik usullarni alohida bajarish bilan bir qatorda, ularni ketma-ket va uzluksiz ravishda kombinatsiyalash ko‘nikmasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Erkin kurash musobaqalarida raqibning qarshiligi sababli oldindan rejalashtirilgan texnik usul har doim ham yakuniga yetmasligi mumkin. Bunday vaziyatda kurashchi birinchi hujumdan keyin yuzaga kelgan holatni tezda baholab, ikkinchi yoki uchinchi texnik harakatga o‘tishi zarur. Shu sababli kombinatsion harakatlarni takomillashtirish sportchining nafaqat texnik mahoratini, balki tezkor fikrlashi, harakatlarni tanlash va vaziyatga mos ravishda o‘zgartirish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Tadqiqot maqsadi

O‘quv-mashg‘ulot bosqichidagi erkin kurashchilarning texnik usullar asosida kombinatsion harakatlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan metodikani ishlab chiqish va uning samaradorligini asoslash.

Tadqiqot vazifalari

O‘quv-mashg‘ulot bosqichidagi kurashchilarning mavjud texnik-taktik tayyorgarlik darajasini aniqlash.

Texnik usullarni ketma-ket bog‘lashga asoslangan kombinatsion mashqlar majmuasini ishlab chiqish.

Asosiy qism. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik testlash, pedagogik tajriba va matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Kombinatsion harakatlarni takomillashtirish metodikasi bosqichma-bosqich tashkil etildi. Dastlab kurashchilarga ikki yoki uchta texnik usulni ketma-ket bajarish o‘rgatildi. Keyingi bosqichda texnik harakatlar raqibning faol va passiv qarshiligi sharoitida bajarildi. Shundan so‘ng birinchi hujum amalga oshmay qolgan vaziyatlarda ikkinchi hujumga, zarur hollarda esa uchinchi hujumga tezkor o‘tish mashqlari qo‘llanildi.

Metodikada quyidagi kombinatsiyalarga alohida e’tibor qaratildi:

bir oyoqqa kirish - ikkinchi oyoqqa o‘tish;
bir oyoqqa kirish - chalish;
bir oyoqqa kirish - ikkinchi oyoqqa o‘tish;
bir oyoqqa kirish - chalish;
bir oyoqqa kirish - yuqoridan hujum;
ikki oyoqqa kirish - raqib qarshiligida yakunlash;
qo‘l bilan hujum - oyoqqa kirish;
oyoqqa kirish - uloqtirish;
bir tomondan hujum - qarama-qarshi tomonga qayta hujum;
hujum - raqib qarshiligi - qayta hujum.

Mashqlarni bajarishda o‘zgaruvchan usuldan foydalanilib, harakatlar dastlab o‘rtacha, keyinchalik yuqori va maksimal tezlikda bajarildi. Mashg‘ulotlarda texnik harakatlarning aniqligi, bajarilish tezligi, harakatlar orasidagi uzilishlarning kamayishi va kombinatsiyaning yakuniy samaradorligi asosiy mezon sifatida belgilandi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodikaning asosiy samaradorligi kurashchilarning texnik harakatlarni alohida bajarishdan kombinatsion bajarishga bosqichma-bosqich o‘tishi bilan namoyon bo‘ldi. Tajriba mashg‘ulotlari davomida sportchilarda birinchi hujumga javoban raqib tomonidan ko‘rsatilgan qarshilikni tezda baholash va muqobil texnik usulni tanlash qobiliyati shakllandi.

Kombinatsion mashqlarni muntazam qo‘llash natijasida texnik usullar o‘rtasidagi o‘tish vaqti qisqardi, hujum harakatlarining uzluksizligi oshdi hamda raqib qarshiligidan keyingi qayta hujumlarning samaradorligi yaxshilandi. Ayniqsa, bir oyoqqa kirishdan ikkinchi oyoqqa o‘tish, oyoqqa kirishdan chalishga o‘tish va birinchi hujum amalga oshmagan holatda qarama-qarshi yo‘nalishda qayta hujum qilish kabi kombinatsiyalarni bajarishda ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi.

Shuningdek, mashqlarni turli masofa, tezlik va qarshilik sharoitlarida bajarish kurashchilarning musobaqa faoliyatiga yaqin vaziyatlarda texnik qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Natijada kombinatsion harakatlarning nafaqat texnik bajarilishi, balki ularni taktik jihatdan to‘g‘ri tanlash va o‘z vaqtida qo‘llash ko‘nikmalari ham takomillashdi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quv-mashg‘ulot bosqichida texnik usullarni alohida takrorlash bilan cheklanib qolish sportchilarning real musobaqa sharoitidagi harakat imkoniyatlarini to‘liq rivojlantirmaydi. Chunki musobaqa jarayonida raqibning faol qarshiligi harakatlarning dastlabki rejasini o‘zgartirishni talab qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, texnik usullarni kombinatsiyalash asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar kurashchilarda harakatlarning variativligini shakllantiradi. Birinchi hujumdan

keyingi vaziyatni tezkor baholash, keyingi texnik usulni tanlash va uni maksimal tezlikda bajarish sportchining texnik-taktik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Taklif etilayotgan metodikaning muhim jihati shundaki, unda kombinatsion harakatlar oddiydan murakkabga tamoyili asosida tashkil etiladi. Dastlab harakatlar qarshiliksiz, keyinchalik cheklangan qarshilikda, yakuniy bosqichda esa faol qarshilik ko‘rsatayotgan raqib bilan bajariladi. Bu esa o‘rganilgan texnik harakatlarni musobaqa sharoitiga bosqichma-bosqich moslashtirish imkonini beradi.

Xulosa. Tadqiqot ishlarida olib borlgan nazorat testlarning ko‘rsatkishi biz tomanan ishlab shiqilgan metodika yordamida o‘quv-mashg‘ulot bosqichidagi erkin kurashchilarning texnik usullar asosida kombinatsion harakatlarini takomillashtirish uchun texnik harakatlarni ketma-ket bog‘lash, raqib qarshiligiga mos ravishda harakat yo‘nalishini o‘zgartirish va qayta hujumlarni tezkor bajarishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotda metodikaning asosini “birinchi hujum - raqib qarshiligi - vaziyatni baholash - ikkinchi hujum - yakuniy texnik harakat” ketma-ketligi tashkil etadi. Mazkur yondashuv kurashchilarning texnik usullarni o‘zaro bog‘lash, hujumlarni uzluksiz davom ettirish, raqib qarshiligiga tezkor moslashish va kombinatsion harakatlarni musobaqa sharoitida samarali qo‘llash imkoniyatlarini oshiradi.

Shunday qilib, kombinatsion harakatlarni takomillashtirish metodikasi o‘quv-mashg‘ulot bosqichidagi erkin kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Керимов.Ф.А. Спорт сохасидаги илмий тадкикотлар. Т. :2004.-В.335-128

2.Керимов.Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти.т. :2001.-В. 232-110

3.Валеев.Р.Г. Повышение технико-тактического мастерства борцов на основе совершенствования комбинационного стиля ведения поединков.автореферa. Санкт петербуг. 2007.-24с

4.Дадабаев.О.Ж. Дзюдочиларнинг кўп йиллик тайёргарлиги концепцияси. Пед.Ф.Д.(DSc) дисс автореферати. 2021.-36 b

5.Батукаев.А.А. Профилактика травматизма в процессе специальной физической подготовки юных борцов вольного стиля.автореферат дисс..кан.пед.наук. Санкт-Петербург. 2010.-18с

6.Yakupbayev.A.A. Malakali erkin kurashchilarda maxsus chidamlilikni oshirish metodikasi.Ped..f.b.f.d. (PhD) dis avtoreferat .Chirchik. 2024.-30b

7.Jarilkapov.U.B. Malakali erkin kurashchilarning og‘ir atletika vositalari orqali kuch sifatini oshirish uslubiyati. Ped..f.b.f.d.(PhD) dis avtoreferat. Chirchiq. 2024.-30b

8.Xamidjonov.A.U. Sport kurashiturlariga saralash va erta yo‘naltirishning metodologik asoslari. Ped.f.d. (DSc) dis avtoreferat.Chirchik. 2025.-36b

BADMINTON SPORTIDA MASHG‘ULOT JARAYONINI INDIVIDUALLASHTIRISH ORQALI SPORTCHILAR TAYYORGARLIGI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Beknazarov Raxat Axmet o‘g‘li
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali dotsenti
Raxatbeknazarov93@gmail.com
Mambetnazarova Aynura Orınbaevna
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
stajyor oqituvchi
Raxataynura9392@gmail.com

Kalit so‘zlar: *badminton, individuallashtirish, sport tayyorgarligi, mashg‘ulot yuklamasi, koordinatsion qobiliyatlar, texnik-taktik tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, individual yondashuv.*

Ключевые слова: *Бадминтон, тренировочный процесс, индивидуализация, спортивная подготовка, физическая подготовка, технико-тактическая подготовка, координационные способности, тренировочная нагрузка, индивидуальный подход.*

Keywords: *Badminton, training process, individualization, sports training, physical fitness, technical and tactical training, coordination abilities, training load, individualized approach.*

Zamonaviy sport amaliyotida yuqori natijalarga erishish sportchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulot jarayonini tashkil etish bilan chambarchas bog‘liq. Badminton sport turi tezkor harakatlar, qisqa vaqt ichida qaror qabul qilish, zarbalarni aniq bajarish, maydon bo‘ylab samarali harakatlanish va murakkab koordinatsion faoliyatni talab qiladi. Shu sababli barcha sportchilarga bir xil mashqlar va yuklamalarni qo‘llash ularning tayyorgarlik darajasi hamda individual rivojlanish xususiyatlariga har doim ham mos kelmaydi.

Mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish sportchining yoshi, jismoniy rivojlanishi, texnik mahorati, koordinatsion qobiliyatlari, psixologik xususiyatlari va funksional imkoniyatlariga muvofiq mashg‘ulot vositalari, usullari hamda yuklamalarini tanlashni nazarda tutadi. Bunday yondashuv mashg‘ulotlarning maqsadga muvofiqligini oshirish va sportchining individual rivojlanish dinamikasini hisobga olish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi Badminton sportida mashg‘ulot jarayonini individuallashtirishning ahamiyatini asoslash hamda sportchilarning jismoniy, texnik-taktik va koordinatsion tayyorgarligini takomillashtirishga yo‘naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari Ushbu tadqiqot badminton sportida mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish orqali sportchilar tayyorgarligi samaradorligini oshirish masalalarini o‘rganishga qaratildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish, suhbat, pedagogik testlash, mashg‘ulot yuklamalarini tahlil qilish hamda olingan natijalarni matematik-statistik qayta ishlash usullaridan foydalanish nazarda tutildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi Badminton sportida mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish orqali sportchilar tayyorgarligi samaradorligini oshirish masalasi sport pedagogikasi va mashg‘ulot metodikasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Sportchilarning jismoniy imkoniyatlari, texnik ko‘nikmalari, koordinatsion qobiliyatlari,

harakatlarni o‘zlashtirish tezligi va psixologik xususiyatlari bir-biridan farq qilishi mashg‘ulot jarayonida individual yondashuvni qo‘llash zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot doirasida mashg‘ulot jarayonini individuallashtirishning sportchilar tayyorgarligiga ta’siri nazariy-metodik jihatdan tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, barcha sportchilarga bir xil hajm va shiddatdagi mashqlarni qo‘llash ularning individual ehtiyojlarini to‘liq hisobga olish imkonini bermaydi. Shu sababli mashg‘ulot topshiriqlarini sportchining tayyorgarlik darajasi, yoshi, jismoniy imkoniyatlari va texnik harakatlarni bajarish sifatiga muvofiq tanlash muhim ahamiyatga ega.

Individuallashtirilgan mashg‘ulot jarayonida, avvalo, sportchilarning dastlabki tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini aniqlash talab etiladi. Buning uchun tezkorlik, chaqqonlik, koordinatsion qobiliyatlar, muvozanat, reaksiya tezligi va texnik elementlarni bajarish aniqligi baholanadi. Olingan ko‘rsatkichlar asosida sportchilarning individual tayyorgarlik xususiyatlari aniqlanib, mashqlar mazmuni va murakkablik darajasi belgilanadi.

Badminton mashg‘ulotlarida individuallashtirishning muhim jihatlaridan biri jismoniy va texnik-taktik tayyorgarlikni o‘zaro uyg‘unlashtirishdan iborat. Masalan, maydonning turli hududlariga yo‘naltirilgan volanni qaytarish, signal asosida harakat yo‘nalishini o‘zgartirish, qisqa vaqt ichida bir nechta texnik zarbalarni bajarish hamda tezkor oyoq harakatlarini raketka bilan bajariladigan harakatlarga birlashtirish sportchilarning koordinatsion imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday mashqlarni tanlashda topshiriqning murakkabligi va takrorlanish soni sportchining individual imkoniyatlariga moslashtirilishi lozim.

Mashg‘ulot yuklamalarini individuallashtirish ham tayyorgarlik samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Mashqlarning davomiyligi, takrorlanish soni, bajarish tezligi va dam olish oralig‘ini sportchining funksional imkoniyatlariga mos belgilash mashg‘ulotning maqsadga muvofiqligini ta’minlaydi. Yuklamalarni bosqichma-bosqich oshirish, sportchining charchash darajasi va mashqlarni bajarish sifatini muntazam kuzatib borish mashg‘ulot jarayonini oqilona boshqarish imkonini beradi.

Tadqiqot mavzusi doirasidagi tahlillar individuallashtirilgan yondashuvning yana bir muhim jihati sportchilarning texnik xatolarini aniqlash va ularni maqsadli bartaraf etish ekanini ko‘rsatadi. Ayrim sportchilarda zarba aniqligi, boshqalarida esa maydonda harakatlanish tezligi, muvozanatni saqlash yoki o‘yin vaziyatiga tez moslashish ko‘nikmalari ustida ko‘proq ishlash talab qilinishi mumkin. Shu bois murabbiy mashg‘ulot topshiriqlarini umumiy maqsad bilan birga har bir sportchining aniqlangan ehtiyojlariga ham moslashtirishi zarur.

Mashg‘ulot samaradorligini baholashda dastlabki va yakuniy nazorat natijalarini taqqoslash muhim o‘rin tutadi. Bunda faqat umumiy jismoniy ko‘rsatkichlar emas, balki texnik harakatlarning aniqligi, topshiriqlarni bajarish barqarorligi, harakatlarni tez o‘zgartirish qobiliyati va o‘yin vaziyatlarida to‘g‘ri qaror qabul qilish kabi mezonlarni ham hisobga olish maqsadga muvofiq. Agar pedagogik tajriba o‘tkazilsa, ushbu ko‘rsatkichlar asosida individuallashtirilgan mashg‘ulot dasturining samaradorligi miqdoriy va statistik jihatdan baholanishi mumkin.

Natijalarni muhokama qilish shuni ta’kidlash imkonini beradiki, badminton mashg‘ulotlarini individuallashtirish sportchiga yo‘naltirilgan ta’lim va mashg‘ulot tamoyillariga mos keladi. Ushbu yondashuv murabbiyga mashg‘ulot mazmunini sportchilarning ehtiyojlariga qarab o‘zgartirish, yuklamalarni tartibga solish va individual rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi. Biroq individuallashtirish samaradorligi

sportchilarning dastlabki holatini qanchalik aniq baholash, mashqlarni to‘g‘ri tanlash va nazoratni muntazam tashkil etishga bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, badminton sportida mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish sportchilarning jismoniy, koordinatsion va texnik-taktik tayyorgarligini o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirish uchun metodik asos yaratadi. Mazkur yondashuvni amaliyotda qo‘llash natijalarini ishonchli baholash uchun esa pedagogik tajriba, aniq nazorat testlari va matematik-statistik tahlil ma’lumotlariga tayanish zarur.

XULOSA Badminton sportida mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish orqali sportchilar tayyorgarligi samaradorligini oshirish masalasini o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish sportchilarni tayyorlashning muhim metodik yo‘nalishi hisoblanadi. Sportchilarning jismoniy imkoniyatlari, texnik ko‘nikmalari, koordinatsion qobiliyatlari va harakatlarni o‘zlashtirish sur’ati turlicha bo‘lganligi sababli mashg‘ulot mazmunini ularning individual xususiyatlariga moslashtirish zarur.
2. Badmintonchilarning tayyorgarlik darajasini muntazam baholash mashg‘ulot jarayonini samarali rejalashtirish uchun asos yaratadi. Tezkorlik, chaqqonlik, reaksiya tezligi, muvozanat, koordinatsion qobiliyatlar va texnik harakatlarning aniqligini baholash orqali sportchilarning rivojlanish xususiyatlarini aniqlash mumkin.
3. Mashg‘ulot yuklamalarini individuallashtirish sportchilarning imkoniyatlariga mos ravishda mashqlar hajmi, shiddati, takrorlanish soni, murakkablik darajasi va dam olish oralig‘ini belgilashni nazarda tutadi. Yuklamalarni bosqichma-bosqich oshirish hamda sportchilarning holatini muntazam kuzatish mashg‘ulotlarni oqilona tashkil etishga yordam beradi.
4. Badminton mashg‘ulotlarida jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlikni o‘zaro uyg‘unlashtirish alohida ahamiyatga ega. Maydonda tezkor harakatlanish, yo‘nalishni o‘zgartirish, turli zarbalarni bajarish va o‘yin vaziyatlariga moslashishni talab qiluvchi mashqlarni individual imkoniyatlarga muvofiq tanlash sportchilarning harakat faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.
5. Individual yondashuv sportchilarning texnik xatolarini aniqlash va ularni bartaraf etishga yo‘naltirilgan mashqlarni tanlash imkonini beradi. Murabbiy har bir sportchining kuchli va rivojlantirilishi lozim bo‘lgan jihatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulot topshiriqlarini rejalashtirishi maqsadga muvofiq.
6. Mashg‘ulot samaradorligini aniqlashda dastlabki va yakuniy nazorat natijalarini taqqoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Nazorat testlari orqali jismoniy, koordinatsion va texnik-taktik ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlarni aniqlash, pedagogik tajriba hamda matematik-statistik tahlil yordamida esa qo‘llanilgan metodikaning samaradorligini baholash mumkin.
7. Badminton mashg‘ulotlarida individuallashtirilgan yondashuvni qo‘llash murabbiy faoliyatining samaradorligini oshirishga ham yordam beradi. Bunda murabbiy mashg‘ulot mazmunini sportchilarning tayyorgarlik darajasi, individual ehtiyojlari va o‘zlashtirish dinamikasiga qarab moslashtiradi. Natijada mashg‘ulot jarayonini maqsadli tashkil etish va sportchilarning shaxsiy rivojlanishini nazorat qilish imkoniyati kengayadi.
8. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatadiki, badminton sportida mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish jismoniy, texnik-taktik va koordinatsion tayyorgarlikni takomillashtirishga qaratilgan istiqbolli metodik yondashuvdir. Biroq uning

amaliy samaradorligi sportchilarning dastlabki va yakuniy ko‘rsatkichlarini taqqoslash hamda pedagogik tajriba natijalari asosida tasdiqlanishi lozim.

Umuman olganda, badminton sportida mashg‘ulot jarayonini individuallashtirish sportchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish, mashg‘ulot yuklamalarini maqsadli boshqarish va tayyorgarlikning turli tarkibiy qismlarini o‘zaro uyg‘un rivojlantirish uchun zarur metodik shart-sharoit yaratadi. Ushbu yondashuvni ilmiy asoslangan nazorat va muntazam tahlil bilan birgalikda qo‘llash sportchilar tayyorgarligini takomillashtirish hamda murabbiylik faoliyatini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bompa, T. O., Haff, G. G. *Periodization: Theory and Methodology of Training*. — 5th ed. — Champaign, IL: Human Kinetics, 2009.
2. Badminton World Federation. *Shuttle Time: BWF Schools Badminton Teachers’ Manual*. — 2nd ed. — Kuala Lumpur: Badminton World Federation, 2021. <Link url="https://www.badminton.org.au/wp-content/uploads/2022/11/1.-BWF-ST-Teachers-Manual_Inclusivity_ENGLISH.pdf" title="Elektron manba"/>. <Cite refs={["turn736331search36"]}/>
3. Cabello Manrique, D., González-Badillo, J. J. Analysis of the characteristics of competitive badminton // *British Journal of Sports Medicine*. — 2003. — Vol. 37, No. 1. — P. 62–66. — DOI: 10.1136/bjsm.37.1.62. <Cite refs={["turn736331search12"]}/>
4. Schmidt, R. A., Lee, T. D. *Motor Control and Learning: A Behavioral Emphasis*. — 5th ed. — Champaign, IL: Human Kinetics, 2011.
5. Platonov, V. N. *Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. Obshchaya teoriya i yeye prakticheskiye prilozheniya*. — Kiev: Olimpiyskaya literatura, 2004.
6. Weineck, J. *Optimales Training: Leistungsphysiologische Trainingslehre unter besonderer Berücksichtigung des Kinder- und Jugendtrainings*. — Balingen: Spitta, 2007.
7. Bailey, R., Armour, K., Kirk, D., Jess, M., Pickup, I., Sandford, R. The educational benefits claimed for physical education and school sport: An academic review // *Research Papers in Education*. — 2009. — Vol. 24, No. 1. — P. 1–27. — DOI: 10.1080/02671520701809817. <Cite refs={["turn736331search12"]}/>
8. Badminton World Federation. *Laws of Badminton*. — Kuala Lumpur: Badminton World Federation. Rasmiy qoidalar va metodik materiallar: <Link url="https://bwfbadminton.com/" title="BWF rasmiy sayti"/>.
9. Badminton World Federation. *Shuttle Time: Schools Badminton Programme*. — Badmintonni o‘rgatish, mashg‘ulotlarni rejalashtirish va boshlang‘ich ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha metodik resurslar. <Link url="https://shuttletime.bwfbadminton.com/" title="Shuttle Time resurslari"/>.
10. Badminton sporti bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar. Badminton texnikasi, koordinatsion tayyorgarlik va harakat biomexanikasiga oid ilmiy maqolalar // *Human Movement Science*. — 2026. — Vol. 108. — Article 103499. — DOI: 10.1016/j.humov.2026000503. <Cite refs={["turn736331search13"]}/>

FUTBOLSHÍLARDÍŃ TAYARLÍQ DÁWIRLERIN ILIM MENEN BIRLESTIRIW PRINCIPLERI

Allambergenov Niyetǵali Nurgabılovich

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı oqıtıwshısı

Kalit so‘zlar: *futbol, tayyorgarlik davrlari, davrlashtirish, ilmiy kuzatish, yuklamani rejalashtirish, shaxsiy yondashuv, tiklanish.*

Ключевые слова: *футбол, периоды подготовки, периодизация, научный контроль, планирование нагрузки, индивидуальный подход, восстановление.*

Keywords: *football, training periods, periodization, scientific monitoring, load planning, individualization, recovery.*

Kirisiw. Zamanagóy futbol joqarı tezlikti, kóp qaytalanatuǵın kúshli háreketlerdi hám uzaq máwsimniń sharshatıwshı júklemesin talap etedi. Bir máwsimde futbolshı onlaǵan jarıs oyının ótkeredi, al oyınlar aralıǵındaǵı tikleniw uaqtı sheklewli boladı. Usınday sharayatta nátiyje tek kóp shınıǵıwdan emes, tayarlıqtıń qanshelli durıs hám sistemalı dúzilgeninen kelip shıǵadı. Rejeni tájiriybe yamasa intuiciya menen dúziw jaraqat qáwipin arttıradı hám oyın formasın turaqsız qıladı.

Sonlıqtan tayarlıq dáwirlerin ilim menen birlestiriw aktual wazıypa bolıp tabıladı. Fiziologiya, psixologiya, biomexanika hám medicina maǵlıwmatları qararlardı dálillerge súyendiredi, al hár dáwirdiń wazıypası ólshem nátiyjeleri menen sáykestiriledi. Usı jantasıwda tayarlıq hám ilim bir-birine qarama-qarsı emes, bir sistemanıń bólekleri sıpatında isleydi.

Maqset - futbolshılar tayarlıǵınıń dáwirlerin ilim menen birlestiriwdiń principlerin tiykarlaw hám olardı ámeliyatta engiziw jolların kórsetiw. Maqsetke jetiw ushın mınaday wazıypalar qoyıldı: jıllıq cikl dáwirleriniń mazmunın anıqlaw; tayarlıqtı qollap quwatlawshı ilimlerdiń ornın kórsetiw; birlestiriwdiń principlerin tiykarlaw; ilimiy baqlaw ciklin hám quralın táriyiplew; engiziw qádemlerin usınıw.

1. Tayarlıq dáwirleri hám cikllar

Futbolshılardıń jıllıq tayarlıǵı úsh dáwirge bólinedi: tayarlıq, jarıs hám ótiw dáwiri. Bul bóliniw júklemeni jıl dawamında maqsetli tarqatıwǵa imkaniyat beredi hám sport trenirovkası teoriyasındaǵı alǵa ilgerlew ideyasına tiykarlanadı.

Tayarlıq dáwirinde fizikalıq hám texnikalıq-taktikalıq tiykar qáliplesedi. Bul basqıshta júkleme kólemi artadı, shıdamlılıq, kúsh hám tezlik sıpatları rawajlandırıladı, komandalıq háreketlerdiń tiykarları bekkemlenedi. Dáwirdiń sapası keyingi máwsimniń nátiyjesine tikkeley tásir etedi, sebebi usı jerde qáliplesken tiykarǵı jarıs dáwirinde saqlanadı.

Jarıs dáwirinde oyın forması saqlanadı. Bul basqıshta júkleme intensivligi hám tikleniw teńlikte turadı: shınıǵıw júklemesi oyınlar kestesine beyimlenedi, sharshaw basqarıladı, al tikleniw shınıǵıwdıń teń huqıqlı bólegi sıpatında qaraladı. Jarıs dáwirinde júklemeni keskin arttırıw oyın sapasına teris tásir etiwi múmkin.

Ótiw dáwiri aktiv dem alıwdı, jaraqattan tikleniwdi hám kelesi máwsim ushın tańlaw ótkeriwdi óz ishine aladı. Bul dáwir kóbinese itibarsız qaldırıladı, biraq dál usı dáwirde organizm tikleniwi hám máwsimniń juwmaqları shıǵarılıwı keyingi tayarlıqtıń sapasın anıqlaydı.

Júklemeni rejelestiriw úsh dárejede ámelge asırıladı: makrocikl (bir jıl), mezocikl (bir neshe hápte) hám mikrocikl (bir hápte). Makrocikl ulıwma baǵıttı belgileydi, mezocikl bir maqsetke qaratılǵan basqıshtı, mikrocikl bolsa hár kúnniń júklemesin hám tikleniwin anıqlaydı. Usı dárejelerdiń bir-birine logikalıq baylanısı tayarlıqtıń úzliksizligin támiyinleydi.

2. Tayarlıqtı qollap-quwatlawshı ilimler

Futbolshı tayarlıǵı bir ilimge ǵana súyenbeydi, ol bir neshe tarawdıń maǵlıwmatların birlestiredi. Sport fiziologiyası shıdamlılıqtı hám organizmniń júklemege reakciyasın úyrenedi, ol aerob hám anaerob imkaniyatlardı bahalawǵa járdem beredi. Biomexanika qozǵalıs texnikasın hám jaraqat qáwipin tańlaydı: júgiriw, sekiriw, burılıw hám texnikadaǵı kemshilikler jaraqatqa alıp keliwi múmkin.

Sport psixologiyası kúsh, itibar hám basımǵa shıdamlılıqtı qáliplestiredi, bul, ásirese, juwapkershilikli jarıslar ushın áhmiyetli. Sport medicinası densawlıq baqlawın hám tikleniwdi támiyinleydi. Nutriciologiya awqatlanıw hám suw ishiw rejimin shınıǵıw júklemesine sáykes dúzedi. Tańlaw hám statistika bolsa shınıǵıw hám oyın maǵlıwmatların qararǵa jaramlı málimetke aylandıradı.

Bul ilimlerdiń hár biri óz aldına payda beredi, biraq nátiyje olardı bir sistemaǵa birlestirilgende alınadı. Mısalı, GPS maǵlıwmatları júklame kólemin kórsetedi, júrek urısı organizmniń juwabın, jaǵday anketası bolsa futbolshınıń jeke sezimin kórsetedi. Usı úsh derekti birge tańlaw ǵana júklemeniń durıs ekenligin bahalawǵa imkaniyat beredi.

3. Birlestiriwdiń altı principi

Ilimiy tiykarlılıq principi boyınsha rejege izertlewler hám dál ólshemler tiykar boladı, qollanılatuǵın usıldıń nátiyjeliligi tekserilgen boladı, al qarar intuiciya menen emes, maǵlıwmatlar menen tastıyıqlanadı. Bul princip tayarlıqtı «hámme usılay isleydi» degen kóz qarastan «usılay islegende nátiyje bar» degen dálilge kóshiriwge xızmet etedi.

Sistemalılıq hám úzliksizlik principi dáwirlerdiń bir-birin logikalıq dawam ettiriwin, júklemeniń jıl dawamında úzliksiz basqarılıwın talap etedi. Bunda jas hám tájiriybe basqıshları da esapqa alınadı: jas futbolshı hám tájiriybeli oyınshı ushın birdey reje qollanılmaydı.

Jekelik principi hár futbolshınıń jasın, oyın ornın hám tayarlıq dárejesin esapqa alıwdı kózde tutadı. Birdey reje barlıǵına birdey tásir etpeydi: qorǵawshı, yarım qorǵawshı hám shabuılshı júklemege hár qıylı juwap beredi. Sharshaw hám jaraqat qáwipi jeke kórsetkishler boyınsha baqlanadı.

Júklemeniń basqıshpa-basqısh artıwı principi boyınsha kólem hám intensivlik az-azdan asırıladı, júklameden keyin tikleniw uaqtı aldın ala rejelestiriledi. Bul artıqsha sharshawdıń (overtrening) aldın alıwdıń tiykarǵı shárti. Júklemeniń keskin ósiwi jaraqat qáwipin arttıratuǵınlıǵı sport iliminde dálillengen.

Monitoring hám keri baylanıs principi júkleme hám tikleniwdiń turaqlı ólsheniwin talap etedi. Nátiyjege qaray rejeni tez dúzetiw imkaniyatı boladı, al futbolshı óz xalın bahalawda belsene qatnasadı. Bunday keri baylanıs shınıǵıwshıǵa rejeni «qaǵazda» emes, haqıyqıy jaǵdayǵa sáykes júrgiziwge járdem beredi.

Qánigeler sherikligi principi trener, fiziolog, trener hám psixologtıń birge islewin talap etedi. Qararlar ulıwma maǵlıwmatlar tiykarında qabıl etiledi, maǵlıwmat almasıwı birden-bir sistemada júrgiziledi. Bul hár qánigeniń óz «sheńberinde» qalıp qoyıwınıń aldın aladı.

4. Ilimiy baqlaw cikli hám dáwirler boyınsha quralları Ilimiy baqlaw tórt qádemnen turatuǵın ciklge tiykarlanadı. Birinshisi – ólshew: testler, júrek urısı, GPS hám jaǵday anketası arqalı maǵlıwmat jıynaladı. Ekinshisi-tańlaw: maǵlıwmat norma hám aldıńǵı nátiyjeler menen salıstırıladı. Úshinshisi - dúzetiw: júkleme hám tikleniw rejede ózgertiledi. Tórtinshisi-qollanıw: ózgeris shınıǵıwda engiziledi hám nátiyje qayta baqlanadı. Cikl hár mikrocikl hám jarıstan keyin qaytalanadı.

Baqlaw quralları dáwirdiń wazıypasına qaray tańlanadı. Tayarlıq dáwirinde tiykarǵı wazıypa fizikalıq hám texnikalıq-taktikalıq tiykardı qáliplestiriw bolǵanı ushın funkcional testler, kúsh hám tezlik normativleri qollanıladı. Jarıs dáwirinde oyın formasın saqlaw hám sharshawdı basqarıw áhmiyetli bolǵanı ushın GPS hám júrek urısı kórsetkishleri, sonday-aq oyın tańlawı paydalanıladı. Ótiw dáwirinde tikleniw hám jaraqattı emlew aldıńǵı orında turadı, sonlıqtan medicinalıq kórik, jaǵday anketası hám aktiv dem alıw rejesi baqlanadı.

Reaksiya tezligi nafaqat stol tennisida, balki kundalik hayotda ham muhim harakat qobiliyati hisoblanadi. Stol tennisi mashg‘ulotlari orqali turli harakatlarga tez javob berish ko‘nikmasini shakllantirish mumkin.

Harakat koordinatsiyasini takomillashtirish koordinatsiya — inson harakatlarini aniq va muvofiq bajarish qobiliyatidir. Stol tennisida qo‘l, ko‘z, gavda va oyoq harakatlarining bir-biriga mos bo‘lishi talab etiladi.

To‘pga zarba berishda raketkaning burchagi, zarba kuchi, tana holati va to‘pning yo‘nalishi o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun muntazam mashg‘ulotlar harakatlarni boshqarish va muvofiqlashtirish qobiliyatini takomillashtirishga yordam beradi.

Tezkorlik va harakat aniqligi

Stol tennisida zarbalarni juda tez bajarish bilan birga, ularning aniqligi ham muhim. Faqat tez harakat qilishning o‘zi yetarli emas; sportchi to‘pni kerakli yo‘nalishga va belgilangan nuqtaga yo‘naltira olishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, mashg‘ulotlarda tezlik va aniqlikni birgalikda rivojlantirish maqsadga muvofiq. Buning uchun turli masofa va yo‘nalishlarga to‘p uzatish, belgilangan nuqtaga zarba berish kabi mashqlardan foydalanish mumkin.

Diqqat va konsentratsiya Stol tennisida sportchi o‘yin davomida diqqatini doimiy ravishda to‘pga va raqib harakatlariga qaratib turishi kerak. Bir lahza diqqatning susayishi zarbani noto‘g‘ri bajarishga olib kelishi mumkin.

Shu sababli stol tennisi mashg‘ulotlarida diqqatni jamlash, to‘p harakatini kuzatish va tez qaror qabul qilish ko‘nikmalari ham shakllanadi.

Sog‘lom turmush tarzida stol tennisining o‘rni

Sog‘lom turmush tarzi insonning kundalik hayotida jismoniy faollik, to‘g‘ri ovqatlanish, yetarli dam olish va zararli odatlardan voz kechish kabi omillarni qamrab oladi.

Stol tennisi jismoniy faollikni oshirishning qulay shakllaridan biri bo‘lishi mumkin. Mashg‘ulotlarni muntazam tashkil etish insonni harakatchan bo‘lishga undaydi va bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish imkonini beradi.

Ayniqsa, yoshlarni sportga jalb qilish ularning kundalik faolligini oshirish va sportga qiziqishini shakllantirish nuqtayi nazaridan muhimdir.

Yoshlar jismoniy tarbiyasida stol tennisidan foydalanish

Yosh stol tennischilarni tayyorlashda mashg‘ulot yuklamalarini ularning yoshi, jismoniy tayyorgarligi va texnik ko‘nikmalariga mos ravishda belgilash zarur.

Dastlabki bosqichda asosiy e’tibor raketkani to‘g‘ri ushlash, to‘g‘ri turish, harakatlanish va to‘pni his qilish kabi oddiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratiladi.

Keyingi bosqichlarda texnik harakatlar murakkablashtiriladi. Turli zarbalar, to‘pni yo‘naltirish, raqib harakatini kuzatish va taktik qaror qabul qilish elementlari kiritiladi.

Mashg‘ulot jarayonida jismoniy tayyorgarlik va texnik tayyorgarlikni bir-biri bilan bog‘liq holda olib borish samarali hisoblanadi.

Mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar

Stol tennisi mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish uchun quyidagi jihatlarga e’tibor berish maqsadga muvofiq:

- mashg‘ulotni yengil badan qizdirish mashqlari bilan boshlash;
- yuklamani asta-sekin oshirish;
- sportchining yoshi va tayyorgarlik darajasini hisobga olish;
- texnik harakatlarni bosqichma-bosqich o‘rgatish;
- tezkorlik va reaksiyani rivojlantiruvchi maxsus mashqlardan foydalanish;
- harakat koordinatsiyasiga qaratilgan mashqlarni muntazam bajarish;
- mashg‘ulotlar davomida dam olish oraliqlarini to‘g‘ri tashkil etish;
- xavfsizlik qoidalariga rioya qilish;
- mashg‘ulot natijalarini muntazam kuzatib borish.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, stol tennisi insonning bir nechta jismoniy va psixomotor qobiliyatlarini kompleks ravishda rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, reaksiya tezligi, chaqqonlik, harakat koordinatsiyasi, tezkorlik va harakat aniqligi stol tennisida muhim ahamiyatga ega.

Mashg‘ulot jarayonida sportchi nafaqat jismoniy harakatlarni bajaradi, balki vaziyatni tez baholash va harakat rejasini o‘zgartirishga moslashadi. Bu holat stol tennisini jismoniy va psixomotor tayyorgarlikni birgalikda rivojlantirishga xizmat qiluvchi sport turi sifatida ko‘rsatadi.

Shuningdek, stol tennisi mashg‘ulotlarini yoshlar o‘rtasida ommalashtirish ularning sportga qiziqishini oshirish va bo‘sh vaqtlarini foydali tashkil etish imkonini beradi.

Amaliy ahamiyati tadqiqot natijalaridan umumta’lim maktablari, sport maktablari, oliy ta’lim muassasalari va sport to‘garaklarida stol tennisi mashg‘ulotlarini tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tavsiya etilgan mashqlar yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, texnik harakatlarni takomillashtirish va musobaqalarga tayyorgarlik jarayonini samarali tashkil etishda qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, stol tennisi inson salomatligi va jismoniy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sport turlaridan biridir. Uning asosiy xususiyati sportchidan tezkor harakat, aniq zarba, yuqori reaksiya tezligi, diqqat va harakatlarni muvofiqlashtirishni talab qilishidir.

Stol tennisi mashg‘ulotlari chaqqonlik, tezkorlik, reaksiya, koordinatsiya va harakat aniqligini rivojlantirishga yordam beradi. O‘yin jarayonida sportchi to‘pning harakatini kuzatadi, vaziyatni baholaydi va qisqa vaqt ichida qaror qabul qiladi. Bu esa jismoniy sifatlar bilan bir qatorda psixomotor qobiliyatlarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yoshlarni stol tennisiga muntazam jalb qilish ularning jismoniy faolligini oshirish, sportga qiziqishini kuchaytirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim vosita bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun ta’lim muassasalari va sport tashkilotlarida stol tennisi mashg‘ulotlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish, mashg‘ulot mazmunini yosh sportchilarning individual xususiyatlariga moslashtirish va jismoniy hamda texnik tayyorgarlikni kompleks ravishda olib borish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matveyev L.P. **Teoriya i metodika fizicheskoy kultury.** — Moskva: Sport, 2008.
2. Jeleznyak Yu.D., Petrov P.K. **Osnovy nauchno-metodicheskoy deyatelnosti v fizicheskoy kulture i sporte.** — Moskva: Akademiya, 2002.
3. Volkov L.V. **Teoriya i metodika detskogo i yunosheskogo sporta.** — Kiyev: Olimpiyskaya literatura, 2002.
4. Platonov V.N. **Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte.** — Kiyev: Olimpiyskaya literatura, 2004.
5. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasi bo‘yicha o‘quv-uslubiy materiallar.
6. Stol tennisi bo‘yicha sportchilarni tayyorlash metodikasiga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar.

JISMONIY MASHQLARNING INSON ORGANIZMIGA FIZIOLOGIK TA’SIRI

P.I.Bekniyazov
O‘zDJTSU Nukus filiali 2-bosqich talabasi

***Kalit so‘zlar**: jismoniy tarbiya, jismoniy mashqlar, fiziologik moslashuv, yurak-qon tomir tizimi, nafas olish, mushaklar fiziologiyasi, energiya almashinuvi, asab tizimi, jismoniy yuklama, tiklanish, ish qobiliyati.*

Ключевые слова: *физическая культура, физические упражнения, физиологическая адаптация, сердечно-сосудистая система, дыхание, физиология мышц, энергетический обмен, нервная система, физическая нагрузка, восстановление, работоспособность.*

Keywords*: physical education, physical exercises, physiological adaptation, cardiovascular system, respiration, muscle physiology, energy metabolism, nervous system, physical load, recovery, work capacity.*

Kirish*:* Jismoniy tarbiya inson salomatligini mustahkamlash, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, harakat faoliyatini takomillashtirish va organizmning tashqi muhit ta’sirlariga moslashish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar uchun jismoniy faollik aqliy mehnat va harakat faoliyati o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish vositasi hisoblanadi. Jismoniy mashqlar organizmning alohida bir a’zosigagina emas, balki o‘zaro bog‘langan ko‘plab fiziologik tizimlariga ta’sir ko‘rsatadi. Mashqlar bajarilganda mushaklarning energiyaga bo‘lgan ehtiyoji ortadi, yurak faoliyati jadallashadi, nafas olish chuqurligi va tezligi o‘zgaradi, qon aylanishi qayta taqsimlanadi hamda asab-endokrin boshqaruv mexanizmlari faollashadi. Bu o‘zgarishlar faol mushaklarni kislorod va oziq moddalar bilan ta’minlash, moddalar almashinuvi mahsulotlarini tashish va organizmning ichki muhit barqarorligini saqlashga xizmat qiladi [1].

Muntazam ravishda, to‘g‘ri me’yorlashtirilgan jismoniy mashqlar bajarilganda organizmda uzoq muddatli moslashuv shakllanadi. Natijada jismoniy ishni bajarish samaradorligi, ayrim yurak-qon tomir ko‘rsatkichlari, mushaklarning kuch va chidamlilik xususiyatlari hamda harakatlarni muvofiqlashtirish qobiliyati yaxshilanishi mumkin. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, muntazam jismoniy faollik yurak-qon tomir kasalliklari va 2-tur qandli diabet xavfini kamaytirish, ruhiy farovonlik va uyqu sifatini yaxshilash bilan bog‘liq [2]. Mazkur maqolaning maqsadi jismoniy mashqlarning inson organizmiga ta’sirini fiziologik nuqtayi nazardan tahlil qilish, asosiy funksional tizimlarda yuz beradigan o‘zgarishlarni izohlash va talabalarning jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini ilmiy asosda tashkil etish uchun nazariy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Jismoniy mashqlar fiziologiyasi inson organizmining jismoniy faoliyatga javob reaksiyalarini, yuklamaga moslashishini va mashg‘ulotlardan keyingi tiklanish jarayonlarini o‘rganuvchi ilmiy yo‘nalishdir. Ushbu sohadagi tadqiqotlar jismoniy faollikni nafaqat mushaklar faoliyati, balki yurak, o‘pka, qon aylanishi, asab tizimi va hujayra darajasidagi energiya almashinuvi bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida ko‘rib chiqadi. Patel va hammualliflar tomonidan tayyorlangan Exercise Physiology sharhida jismoniy mashqlar paytida organizmning yurak-qon tomir, nafas olish va metabolik tizimlari o‘zaro muvofiqlashgan holda faoliyat yuritishi yoritilgan. Mualliflar yuklama ortishi bilan faol mushaklarning kislorodga bo‘lgan ehtiyoji ko‘payishi va yurakning bir daqiqada haydaydigan qon hajmi ortishini ta’kidlaydilar [1,5]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining 2020-yilgi jismoniy faollik va kamharakatlik bo‘yicha tavsiyalari muntazam jismoniy faoliyatning salomatlikka ta’sirini ko‘plab ilmiy tadqiqotlar asosida umumlashtiradi. Mazkur tavsiyalarda jismoniy faollik yurak-qon tomir salomatligi, metabolik holat, ruhiy salomatlik, kognitiv faoliyat va uyqu bilan bog‘liq ijobiy natijalar bilan aloqadorligi ko‘rsatilgan [2; 3].

Ferretti va hammualliflar tomonidan chop etilgan ilmiy sharhda jismoniy mashqlar paytida nafas olish orqali qabul qilinadigan kislorod, qon orqali tashiladigan kislorod va mushaklarda undan foydalanish o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilingan. Ushbu yondashuv

organizmning aerob imkoniyatlarini va chidamlilikni fiziologik jihatdan tushuntirishda muhim hisoblanadi [4,7]. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jismoniy mashqlarning samaradorligi yuklamaning turi, davomiyligi, intensivligi, muntazamligi va shug‘ullanuvchining individual xususiyatlariga bog‘liq. Shu sababli jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etishda fiziologik qonuniyatlarni hisobga olish muhim ilmiy-amaliy vazifa sanaladi.

Yurak-qon tomir tizimi jismoniy faoliyat vaqtida organizmning kislorod va energiya bilan ta’minlanishida asosiy vazifani bajaradi. Jismoniy mashqlar boshlanishi bilan faol mushaklarning metabolik ehtiyoji ortadi. Ushbu ehtiyojni qondirish uchun yurak urish tezligi, yurakning qisqarish kuchi va bir daqiqada haydaladigan qon hajmi o‘zgaradi.

Yurakning bir daqiqada haydaydigan qon hajmi yurak urish tezligi va bir qisqarishda haydaladigan qon hajmining ko‘paytmasi orqali aniqlanadi:

$$Q = HR * SV$$

Bu yerda (Q) — yurakning daqiqalik qon hajmi, (HR) — yurak urish tezligi, (SV) — yurakning bir qisqarishda haydaydigan qon hajmi.

Jismoniy yuklama davomida mushaklarga qon oqimi ko‘payadi, ayrim ichki a’zolarga yo‘naladigan qon oqimi esa organizm ehtiyojlariga muvofiq qayta taqsimlanadi. Bunda simpatik asab tizimi faollashib, yurak faoliyatining jadallashishiga yordam beradi. Mahalliy metabolik omillar esa faol mushaklardagi qon tomirlarining kengayishiga ta’sir ko‘rsatadi [1,8]. Muntazam aerob mashqlar natijasida yurak-qon tomir tizimining funksional imkoniyatlari yaxshilanishi mumkin. Jumladan, submaksimal jismoniy yuklama vaqtida yurak urish tezligi nisbatan pastroq bo‘lishi, yurakning bir qisqarishda haydaydigan qon hajmi ortishi va jismoniy ishni bajarish samaradorligi oshishi kuzatilishi mumkin. Bu moslashuvlar mashg‘ulotlarning turi, davomiyligi va individual xususiyatlarga bog‘liq. Biroq yurak urish tezligining oshishi har doim ham organizmning salbiy holatini anglatmaydi. Bu ko‘pincha jismoniy yuklamaga beriladigan tabiiy fiziologik javobdir. Yurak faoliyatini baholashda yuklamaning intensivligi, shug‘ullanuvchining tayyorgarlik darajasi, tana harorati va tiklanish jarayonlari birgalikda hisobga olinishi lozim.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyalariga ko‘ra, 18–64 yoshdagi kattalar haftasiga 150–300 daqiqa o‘rtacha intensivlikdagi aerob jismoniy faollik yoki 75–150 daqiqa yuqori intensivlikdagi aerob faollik bajarishga intilishlari kerak. Bundan tashqari, asosiy mushak guruhlarini qamrab oladigan kuch mashqlarini haftasiga kamida ikki kun bajarish tavsiya etiladi [2,3,4,6]. Bu ko‘rsatkichlar umumiy sog‘liqni mustahkamlashga qaratilgan tavsiyalar bo‘lib, har bir talaba uchun bir xil mashg‘ulot rejasi degani emas. Jismoniy tayyorgarligi past bo‘lgan shaxslar kichik hajmdan boshlashi va yuklamani asta-sekin oshirishi lozim. Surunkali kasalliklari yoki jismoniy cheklovlari bo‘lgan talabalar esa mashg‘ulot turini tanlashda tegishli tibbiy tavsiyalarni hisobga olishlari kerak.

Jismoniy mashqlarning organizmga ta’sirini yaxlit holda baholash uchun alohida tizimlardagi o‘zgarishlarni o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqish lozim. Yurak faoliyatining kuchayishi kislorodning to‘qimalarga yetkazilishini yaxshilashga xizmat qiladi; nafas olish tizimi esa kislorod qabul qilish va karbonat angidrid chiqarilishini ta’minlaydi. Mushak hujayralaridagi metabolik jarayonlar ushbu kisloroddan energiya hosil qilish uchun foydalanadi, asab tizimi esa harakatlarni boshqaradi va yuklamaga javob reaksiyalarini muvofiqlashtiradi.

Muntazam jismoniy faollik bilan bog‘liq asosiy fiziologik natijalar quyidagilardan iborat:

- yurak-qon tomir tizimining funksional imkoniyatlari yaxshilanishi;

- mushak kuchi va chidamliligining rivojlanishi;
- energiya almashinuvi va glyukozadan foydalanish jarayonlarining yaxshilanishi;
- harakat koordinatsiyasi va muvozanatning rivojlanishi;
- sog‘lom tana vaznini saqlashga ko‘maklashish;
- uyqu sifati va ruhiy farovonlikning yaxshilanishi.

Shu bilan birga, fiziologik natijalar har bir insonda bir xil bo‘lmaydi. Yosh, jins, irsiy xususiyatlar, boshlang‘ich jismoniy tayyorgarlik, ovqatlanish, uyqu va mashg‘ulot dasturi natijalarga ta’sir qiladi. Shuning uchun jismoniy tarbiya jarayonida individual yondashuv va muntazam nazorat muhim hisoblanadi.

Xulosa: Jismoniy mashqlar inson organizmining funksional tizimlariga kompleks ta’sir ko‘rsatadigan muhim fiziologik omildir. Ular davomida yurak-qon tomir tizimi faol mushaklarni qon bilan ta’minlashni kuchaytiradi, nafas olish tizimi gaz almashinuvini jadallashtiradi, mushaklarda energiya hosil bo‘lishi va mexanik ish bajarilishi faollashadi, asab tizimi esa harakatlarning aniqligi va muvofiqligini boshqaradi. Muntazam, ilmiy asosda rejalashtirilgan jismoniy mashg‘ulotlar yurak-qon tomir salomatligi, mushak kuchi va chidamliligi, metabolik faoliyat hamda umumiy jismoniy ish qobiliyatining yaxshilanishiga yordam beradi. Bunday natijalarga erishishda yuklamaning intensivligi, davomiyligi, hajmi va chastotasini shug‘ullanuvchining imkoniyatlariga moslashtirish, shuningdek, tiklanish uchun yetarli sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega. Talabalar bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida fiziologik qonuniyatlarni hisobga olish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mashqlarni bosqichma-bosqich tashkil etish, jismoniy holatni kuzatish, to‘g‘ri texnikani o‘rgatish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish orqali talabalarning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirish mumkin. Shunday qilib, jismoniy tarbiyaning fiziologik asoslarini o‘rganish nafaqat nazariy bilimlarni kengaytiradi, balki mashg‘ulotlarni xavfsiz, samarali va individual xususiyatlarga mos ravishda tashkil etish uchun ham ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Allamuratov Sh.I. Fiziologiya va sport fiziologiyasi: darslik. — Toshkent: Turon-Iqbol, 2010. — 216 b.

2. Safarova D.D., Seydaliyeva L.D., Sultanova Yu.M. va boshq. Sport fiziologiyasi: darslik. — Chirchiq: Ilmiy texnika axborot-press nashriyoti, 2018. — 216 b. — ISBN 978-9943-5306-5-2.

3. Pulatova M.D. Sport fiziologiyasi: darslik. — Toshkent: O‘zkitobsavdonashriyoti NMIU, 2023. — 196 b. — ISBN 978-9943-9485-5-6.

5. Фомин Н.А. Физиология человека: учебное пособие. — Москва: Просвещение, 1982.

6. Яковлев Н.Н. Биохимия спорта. — Москва, 1974.

7. Фарфель В.С., Коц Я.И. Физиология человека (с основами биохимии). — Москва: Физкультура и спорт, 1970.

8. Карпман В.Л. Спортивная медицина. — Москва, 1999.

INNOVATIVE METHODS OF TEACHING ENGLISH THROUGH SPORTS

Djalilova Sabokhat Rixsibayevna,
Senior lecturer, Uzbekistan State University of Physical Education and Sport

Key words: *approach, education, communication skills, debates, role-playing activities, interactive learning.*

Introduction: In the realm of education, innovative approaches to teaching languages are constantly being explored to make learning more enjoyable and effective. One such dynamic method gaining traction is the integration of sports into English language instruction. This article delves into the unique benefits and strategies associated with teaching English through sports, highlighting how this fusion creates a stimulating and immersive learning environment. The Power of Engagement: Sports have an innate ability to capture attention and generate enthusiasm. Integrating sports into English language lessons not only makes the learning process more engaging but also promotes a holistic approach to education. Students participating in sports-themed language activities are likely to experience higher motivation levels, leading to increased language retention. Vocabulary Enrichment: Sports offer a rich vocabulary that spans various linguistic elements such as verbs, adjectives, and idiomatic expressions. Incorporating sports-related content into English lessons allows students to learn and practice language skills in context. For instance, discussing game strategies, player performances, and match outcomes provides a diverse range of language opportunities, enhancing both spoken and written communication. Interactive Learning: Teaching English through sports encourages interactive and collaborative learning experiences. Group discussions, debates, and role-playing activities centered around sports scenarios promote effective communication skills. Students not only learn language structures but also develop the ability to express their opinions and engage in meaningful conversations. Cultural Exposure: Sports are deeply embedded in culture, and each sport carries its own set of traditions, rituals, and values. Incorporating sports into language lessons provides a gateway to cultural exploration. Students can learn about the cultural significance of sports in English-speaking countries, fostering a deeper understanding of language within its cultural context. Real-world Application: Language learning gains practical relevance when applied to real-world situations. Sports provide a natural context for practical language use, as students discuss game events, analyze statistics, and share their perspectives on sports-related topics. This application-oriented approach enhances language proficiency and prepares students for real-life communication. Inclusive Learning Environment: Teaching English through sports caters to diverse learning styles and preferences. Not all students may excel in traditional language learning methods, but the incorporation of sports allows for a more inclusive classroom environment. Visual learners can benefit from watching sports events, kinesthetic learners can engage in physical activities, and auditory learners can participate in discussions and analyses.

1. Sports Vocabulary Workshops. Description: Conduct dedicated workshops that focus on sports-related vocabulary. This includes terms used in different sports, equipment, rules, and expressions commonly associated with athletic activities. Activity: Engage students in interactive exercises such as creating sports-themed word charts, flashcards, or participating in vocabulary games related to various sports.

2. Sports News Analysis: Description: Incorporate current sports news into the English language curriculum. Analyzing sports articles, match reports, and commentaries helps students develop reading and comprehension skills while staying updated on sporting events. Activity:

Assign students to read sports articles, summarize key points, and present their findings in English. Encourage discussions on the language used in sports journalism.

3. Role-playing and simulations: Description: Create scenarios where students take on roles related to sports, such as athletes, coaches, or sports commentators. This approach enhances language skills through realistic, situational dialogues. Activity: Organize role-playing sessions where students act out interviews, team discussions, or play-by-play commentary. This allows them to practice language in a dynamic and context-specific manner.

4. Sports Debates: Description: Introduce structured debates on sports-related topics to improve argumentation and critical thinking skills. Activity: Have students research and prepare arguments on various sports-related issues. Organize debates where they can express their opinions, defend their positions, and engage in constructive discussions in English.

5. Creative Writing through Sports narratives: Description: Combine sports and creative writing to enhance language skills and storytelling abilities. Activity: Encourage students to write short stories or narratives set in the sports world. This activity allows them to practice descriptive language, character development, and storytelling techniques while staying within a sports context.

6. Language Games with a sporting twist: Description: Infuse language games with sports elements to make learning enjoyable and interactive. Activity: Develop language games that involve sports trivia, word associations, or language challenges related to specific sports. This approach combines learning with entertainment.

7. Interviews and sports Commentary: Description: Develop speaking and listening skills by engaging students in sports interviews and commentary exercises. Activity: Have students conduct mock interviews with each other, imitating athletes or sports personalities. Alternatively, they can practice providing live commentary for recorded sports events, enhancing their oral communication skills.

8. Cross-Curricular Projects: Description: Collaborate with physical education or sports science classes for cross-curricular projects that involve both language learning and sports-related concepts. Activity: Design projects that require students to research and present findings in English, combining their language skills with sports knowledge.

By incorporating these methods, educators can create a dynamic and immersive learning environment that leverages the excitement of sports to enhance English language proficiency. Integrating English language learning with sports activities provides a multifaceted approach that caters to various learning styles. Here are several methods for teaching English within a sports-oriented context:

Active Language Learning: Engaging students in sport games provides an active and participatory environment for language learning. Through activities like soccer, basketball, or even traditional games adapted for the classroom, students not only enhance their vocabulary but also practice communicating in real-time, fostering a more dynamic language acquisition process. Vocabulary Expansions: Sport games offer a rich lexicon that spans various themes such as equipment, rules, positions, and gameplay strategies. Incorporating these terms into English lessons provides students with practical vocabulary that extends beyond the classroom, making the language more relevant and applicable in real-world contexts. Teams work and Communication: Sport games inherently promote teamwork and communication. By conducting activities that require collaboration, such as team sports or relay races, students not only learn to communicate effectively in English but also develop crucial interpersonal skills,

including leadership, cooperation, and conflict resolution. Contextual Language Use: Teaching English through sport games allows for the contextual use of language. Whether students are describing a play, giving instructions, or strategizing during a game, they are immersed in authentic language use. This contextual learning enhances their ability to apply English in practical situations, reinforcing their language proficiency. Cultural Understanding: Sports are deeply ingrained in various cultures, and incorporating them into language lessons provides a gateway to cultural understanding. Exploring sports from English-speaking countries allows students to delve into cultural nuances, traditions, and the significance of sports in different societies, broadening their cultural awareness alongside language learning. Motivation and Engagement: Sport games are inherently motivating and enjoyable. The excitement and energy associated with games capture students' interest, making the learning process more enjoyable. This heightened engagement contributes to increased motivation, creating a positive feedback loop that fosters a love for learning the English language. Adaptable to All Levels: The beauty of teaching English through sport games lies in its adaptability to various proficiency levels. Simple games with basic instructions can cater to beginners, while more complex activities challenge advanced learners. This flexibility ensures that educators can tailor their approach to meet the diverse needs of their students. Inclusive Learning: Sport games provide an inclusive learning environment, allowing students with different learning styles and abilities to participate actively. Whether through physical movement, verbal communication, or strategic thinking, each student can find their strengths and contribute to the learning experience.

Conclusion: Teaching English through sport games is a winning strategy that combines language acquisition with the excitement of physical activity. This innovative approach not only enhances vocabulary and language skills but also nurtures teamwork, cultural understanding, and a passion for learning. As educators continue to explore creative methodologies, the integration of sport games into English language teaching stands out as a dynamic and effective way to score language proficiency goals. The fusion of sports and English language teaching creates a dynamic and effective educational experience. By tapping into the inherent excitement of sports, educators can inspire a love for language learning while simultaneously fostering critical thinking, communication skills, and cultural awareness. As we continue to explore innovative approaches to education, the marriage of sports and language instruction stands out as a winning strategy in the quest to make learning English both enjoyable and meaningful.

REFERENCES:

1. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
2. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
3. Oxford, R. (1990). Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know. Heinle & Heinle.
4. British Council. (2023). Teaching English through Sports. Retrieved from https://www.britishcouncil.org
5. Cook, V. (2016). Second Language Learning and Language Teaching. Routledge.

UDK: 37.091.3:001.895

TA’LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING SAMARADORLIGI

Mnajatdinov Qoblan Joldasbay uli
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali magistranti
Email: telekomshik17@gmail.com

Kalit so‘zlar: *innovatsion pedagogik texnologiyalar, ta’lim sifati, interfaol metodlar, raqamli ta’lim, o‘quv jarayoni, mustaqil ta’lim, pedagogik samaradorlik, kompetensiya, kreativ fikrlash.*

Ключевые слова: *инновационные педагогические технологии, качество образования, интерактивные методы, цифровое образование, учебный процесс, самостоятельное обучение, педагогическая эффективность, компетентность, креативное мышление.*

Keywords: *innovative pedagogical technologies, quality of education, interactive methods, digital education, learning process, independent learning, pedagogical effectiveness, competence, creative thinking.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar o‘quv jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, ta’lim sifatini oshirish va ta’lim oluvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishni talab qilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, bilimlarning tez yangilanishi va mehnat bozorida yangi kompetensiyalarga bo‘lgan ehtiyoj an’anaviy ta’lim usullarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta’lim maqsadlariga erishish uchun zamonaviy metodlar, vositalar, tashkiliy shakllar va baholash mexanizmlaridan tizimli foydalanishni nazarda tutadi. Ular ta’lim oluvchilarni faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi subyekt sifatida emas, balki mustaqil izlanadigan, muammolarni tahlil qiladigan, qaror qabul qiladigan va o‘z bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llay oladigan faol ishtirokchi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarning muhim xususiyati ta’lim jarayonida o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishdan iborat. Bunda o‘qituvchi bilim beruvchi vazifasi bilan bir qatorda, o‘quv faoliyatini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi va maslahat beruvchi sifatida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchilar esa muammoli vaziyatlarni hal qilish, guruhlarda ishlash, loyihalar ishlab chiqish, axborotlarni izlash va o‘z natijalarini taqdim etish orqali bilimlarini mustahkamlaydi.

Innovatsion texnologiyalarni qo‘llashda interfaol metodlar, elektron ta’lim platformalari, multimedia vositalari, masofaviy ta’lim, muammoli o‘qitish, loyihaviy ta’lim va sun’iy intellektga asoslangan vositalar muhim o‘rin tutadi. Biroq ushbu vositalarning samaradorligi ularning yangiligi bilan emas, balki ta’lim maqsadlariga muvofiqligi, pedagogik jihatdan to‘g‘ri tanlanishi va o‘quv natijalariga qo‘shadigan hissasi bilan belgilanadi.

Mavzuning dolzarbligi innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida ta’lim oluvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, ta’lim jarayonini individuallashtirish hamda o‘quv natijalarini yaxshilash zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi — ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning nazariy va uslubiy asoslarini o‘rganish hamda ularning ta’lim sifati va o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari:

- innovatsion pedagogik texnologiyalarning mazmuni va asosiy xususiyatlarini tahlil qilish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi imkoniyatlarini aniqlash;
- innovatsion yondashuvlarning bilimlarni o‘zlashtirish, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslash;
- innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqot ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning nazariy va uslubiy asoslarini o‘rganishga yo‘naltirildi. Tadqiqot materiallari sifatida pedagogik texnologiyalar nazariyasiga oid ilmiy adabiyotlar, zamonaviy ta’lim metodlari, raqamli ta’lim vositalari va o‘quv jarayonini takomillashtirishga bag‘ishlangan ilmiy-uslubiy manbalardan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, pedagogik umumlashtirish va nazariy modellashtirish usullari qo‘llanildi. Mazkur usullar orqali innovatsion pedagogik texnologiyalarning mazmuni, ta’lim jarayonidagi vazifalari, afzalliklari va amaliyotga tatbiq etish shartlari o‘rganildi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda ta’lim oluvchilarning faolligini oshirish, bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda ta’lim natijalarini baholash masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, interfaol metodlar, loyihaviy ta’lim, muammoli ta’lim va raqamli vositalarning o‘ziga xos xususiyatlari qiyosiy jihatdan o‘rganildi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar samaradorligini baholash uchun quyidagi mezonlar nazariy jihatdan ajratib ko‘rsatildi: bilimlarni o‘zlashtirish darajasi, o‘quv faoliyatidagi ishtirok, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, amaliy ko‘nikmalar, axborot bilan ishlash va o‘zlashtirilgan bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llash qobiliyati.

Tadqiqot nazariy-uslubiy tahlilga asoslanganligi sababli, unda keltirilgan jadvallar muallif tomonidan ishlab chiqilgan tahliliy umumlashtirishlarni ifodalaydi. Ular real pedagogik tajriba-sinov natijalari yoki statistik o‘lchovlar sifatida talqin qilinmaydi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Ilmiy-uslubiy manbalar tahlili innovatsion pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini maqsadli tashkil etish, ta’lim oluvchilarning faolligini kuchaytirish va o‘quv materiallarini o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bunda ta’lim texnologiyalarini tanlashda fan mazmuni, ta’lim oluvchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasi, o‘quv maqsadlari va mavjud pedagogik sharoitlar hisobga olinishi zarur.

Innovatsion texnologiyalarning samaradorligi, avvalo, ta’lim oluvchining o‘quv jarayonidagi ishtiroki bilan bog‘liq. An’anaviy yondashuvda bilimlarni tushuntirish va qayta bayon qilishga katta e’tibor berilishi mumkin. Innovatsion yondashuvda esa muammoni aniqlash, ma’lumotlarni tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish, amaliy topshiriqlarni bajarish va natijalarni baholash jarayonlari keng qo‘llaniladi.

Masalan, muammoli ta’limda o‘quvchilarga tayyor javobni taqdim etish o‘rniga, muayyan muammo qo‘yiladi va uni hal qilish uchun zarur bilimlarni izlashga yo‘naltiriladi.

Loyihaviy ta’limda esa ta’lim oluvchilar muayyan mavzu bo‘yicha mustaqil yoki guruhda loyiha ishlab chiqib, o‘z natijalarini taqdim etadilar. Interfaol metodlar esa fikr almashish, bahs-munozara, hamkorlik va o‘zaro baholashni rivojlantiradi.

1-jadval. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning asosiy turlari va ularning ta’limdagi imkoniyatlari

Pedagogik texnologiya	**Qo‘llash usuli**	**Kutiladigan pedagogik natija**
Interfaol metodlar	Munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash	Faollik, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish
Muammoli ta’lim	Muammoli vaziyatlar va izlanishga asoslangan topshiriqlar	Tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish
Loyihaviy ta’lim	Individual yoki guruh loyihalarini ishlab chiqish	Mustaqillik, ijodkorlik va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish
Raqamli ta’lim	Elektron platformalar, multimedia va raqamli resurslardan foydalanish	Axborotga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va o‘quv faoliyatini qo‘llab-quvvatlash
Individual ta’lim	Shaxsiy topshiriqlar va moslashtirilgan o‘quv materiallari	Individual ehtiyojlarni hisobga olish va o‘zlashtirishni qo‘llab-quvvatlash
Formativ baholash	Joriy fikr-mulohaza, mezonlar asosida baholash va o‘zini baholash	Xatolarni aniqlash va o‘quv jarayonini takomillashtirish

Izoh: *jadval ilmiy-uslubiy manbalar tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Jadvaldan ko‘rinadiki, innovatsion pedagogik texnologiyalar turli vazifalarni bajaradi va ularning har biri ta’lim jarayonining muayyan jihatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Masalan, interfaol metodlar o‘quvchilarning darsdagi ishtirokini faollashtirsa, loyihaviy ta’lim nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi. Raqamli vositalar esa o‘quv materiallarini turli shakllarda taqdim etish, topshiriqlarni tarqatish va fikr-mulohaza berish jarayonlarini yengillashtirishi mumkin.

Innovatsion texnologiyalarni qo‘llashda o‘qituvchining kasbiy mahorati alohida ahamiyatga ega. Texnologiyani shunchaki darsga kiritish uning samarali bo‘lishini kafolatlamaydi. O‘qituvchi mashg‘ulot maqsadini aniq belgilashi, tegishli metodni tanlashi, topshiriqlarni ta’lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirishi va o‘quv natijalarini baholashi lozim.

Shuningdek, ta’lim oluvchilarning individual farqlarini hisobga olish innovatsion yondashuvning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ayrim o‘quvchilar vizual materiallar orqali, boshqalari esa muhokama, amaliy topshiriq yoki mustaqil izlanish jarayonida bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirishi mumkin. Shu sababli turli metod va vositalarni uyg‘unlashtirish, ta’lim mazmunini tushunarli shakllarda taqdim etish hamda zarur yordamni o‘z vaqtida ko‘rsatish maqsadga muvofiq.

2-jadval. Innovatsion pedagogik texnologiyalar samaradorligini baholash mezonlari

Baholash mezoni	Aniqlash usuli	Kutiladigan o‘zgarish
Bilimlarni o‘zlashtirish	Mavzuga oid test va yozma topshiriqlar	Bilimlarning mustahkamligi va to‘liqligi
O‘quv faolligi	Darsdagi ishtirok va topshiriqlarni bajarishni kuzatish	Ta’lim jarayonidagi ishtirokning kuchayishi
Mustaqil fikrlash	Tahliliy savollar va muammoli topshiriqlar	Mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatining rivojlanishi
Ijodkorlik	Loyiha, taqdimot va muqobil yechimlarni ishlab chiqish	Yangi g‘oyalar va yechimlar taklif qilish ko‘nikmasi
Amaliy kompetensiya	Amaliy mashqlar va vaziyatli topshiriqlar	Bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyati
Raqamli kompetensiya	Elektron resurslar bilan ishlash topshiriqlari	Axborotni izlash, saralash va undan maqsadli foydalanish

Manba: *muallif tomonidan ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy baholash modeli.*

Mazkur mezonlar innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash natijalarini tizimli baholash imkonini beradi. Baholashda faqat yakuniy test natijalariga tayanish yetarli emas. Ta’lim oluvchilarning dars jarayonidagi ishtiroki, mustaqil ishlash qobiliyati, muammolarni hal qilishi va bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llay olishi ham e’tiborga olinishi kerak.

Innovatsion texnologiyalar samaradorligini aniqlash uchun dastlabki va yakuniy baholash natijalarini taqqoslash maqsadga muvofiq. Buning uchun tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich tayyorgarligini aniqlash, tegishli metodlarni belgilangan muddat davomida qo‘llash va natijalarni bir xil mezonlar asosida baholash zarur. Agar imkoniyat mavjud bo‘lsa, tajriba va taqqoslash guruhlaridan foydalanish olingan natijalarni yanada asosli tahlil qilishga yordam beradi.

Raqamli ta’lim texnologiyalari ham zamonaviy o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Elektron ta’lim platformalari, videodarslar, virtual laboratoriyalar, interaktiv topshiriqlar va sun’iy intellektga asoslangan yordamchi vositalar ta’lim oluvchilarga qo‘shimcha o‘rganish imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birga, ulardan foydalanishda raqamli savodxonlik, axborot xavfsizligi, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va akademik halollik tamoyillariga rioya etish talab qilinadi.

UNESCOning ta’limda texnologiyalarni qo‘llashga bag‘ishlangan 2023-yilgi Global Education Monitoring hisobotida ham texnologiyaning ta’limga ta’sirini baholashda uning mavjudligi bilan bir qatorda, ta’lim maqsadlariga muvofiqligi, teng foydalanish imkoniyatlari va o‘quv natijalariga ta’sirini hisobga olish zarurligi ta’kidlangan. Bu yondashuv texnologiyalarni maqsad emas, balki sifatli ta’limni ta’minlash vositasi sifatida ko‘rish muhimligini ko‘rsatadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishda ayrim muammolar ham uchraydi. Jumladan, moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi, internetdan foydalanish imkoniyatlaridagi farqlar, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalari yetarli darajada rivojlanmaganligi va metodik materiallarning cheklanganligi ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bundan tashqari, texnologiyalardan maqsadsiz yoki haddan tashqari ko‘p foydalanish ta’lim oluvchilarning diqqatini asosiy mazmundan chalg‘itishi ehtimoli mavjud.

Shu sababli innovatsion texnologiyalarni joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, pedagoglarning malakasini oshirish, metodik ta’minotni yaxshilash va ta’lim oluvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish bilan birgalikda olib borilishi lozim.

3-jadval. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etish bosqichlari

Bosqich	**Amalga oshiriladigan ishlar**	**Nazorat ko‘rsatkichlari**
Dastlabki tahlil	Ta’lim oluvchilarning ehtiyojlari va mavjud sharoitlarni aniqlash	Boshlang‘ich bilimlar, texnik imkoniyatlar
Rejalashtirish	Maqsad, metod, vosita va baholash mezonlarini belgilash	O‘quv maqsadlari va rejalashtirilgan natijalar
Amaliy joriy etish	Innovatsion metod va vositalarni mashg‘ulotlarda qo‘llash	Ishtirok, topshiriqlarni bajarish sifati
Monitoring	Joriy natijalar va muammolarni muntazam kuzatish	Baholash natijalari va fikr-mulohazalar
Yakuniy tahlil	Dastlabki va yakuniy natijalarni taqqoslash	Bilim, ko‘nikma va kompetensiyalardagi o‘zgarishlar
Takomillashtirish	Natijalarga muvofiq metod va vositalarga tuzatish kiritish	Ta’lim jarayonining takomillashuvi

Izoh: *jadval muallif tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy model.*

Jadvalda keltirilgan bosqichlar innovatsion pedagogik texnologiyalarni tasodifiy emas, balki rejalashtirilgan va nazorat qilinadigan jarayon sifatida joriy etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, monitoring va yakuniy tahlil bosqichlari muhim bo‘lib, ular tanlangan metodlarning amaliy natijalarini aniqlash hamda keyingi mashg‘ulotlarni takomillashtirish imkonini beradi.

Umuman olganda, innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligi bir nechta omillarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq: ta’lim maqsadlarining aniqligi, pedagogning kasbiy tayyorgarligi, metodlarning mazmunga muvofiqligi, ta’lim oluvchilarning faol ishtiroki va baholash tizimining to‘g‘ri tashkil etilishi. Ushbu omillar uyg‘unlashgandagina innovatsion yondashuvlar ta’lim sifatini oshirishga va ta’lim oluvchilarning zarur kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quv jarayonini takomillashtirish, ta’lim oluvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish faoliyatini faollashtirish va ta’lim sifatini oshirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyihaviy yondashuv, raqamli vositalar va individual ta’lim texnologiyalari ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, hamkorlik ko‘nikmalari hamda amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Nazariy-uslubiy tahlil innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish uchun ularni ta’lim maqsadlari, fan mazmuni va ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlariga mos ravishda tanlash zarurligini ko‘rsatdi. Bunda texnologiyalarning yangiligi yoki murakkabligi emas, balki ularning o‘quv natijalariga qo‘shadigan hissasi asosiy mezon bo‘lishi kerak.

Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash jarayonida pedagoglarning kasbiy va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, zamonaviy metodik materiallar bilan ta’minlash, texnik imkoniyatlarni kengaytirish hamda akademik halollik va axborot xavfsizligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Amaliy jihatdan ta’lim muassasalariga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha aniq reja ishlab chiqish, o‘qituvchilarning malakasini muntazam oshirish, o‘quv natijalarini belgilangan mezonlar asosida baholash va olingan natijalarga ko‘ra ta’lim metodlarini takomillashtirish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlarning samaradorligini aniqlash uchun kelgusida turli ta’lim bosqichlari va fanlar kesimida pedagogik tajriba-sinov tadqiqotlarini o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ilmiy asosda, maqsadli va tizimli qo‘llash ta’lim jarayonining sifatini yaxshilash, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega shaxsni shakllantirish hamda ta’lim tizimining rivojlanishiga xizmat qiladigan muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Selevko G.K. Sovremennye obrazovatelnye texnologii. — Moskva: Narodnoe obrazovanie, 1998.

2. Bespalko V.P. Slagaemye pedagogicheskoy texnologii. — Moskva: Pedagogika, 1989.

3. Polat E.S., Buxarkina M.Yu. Sovremennye pedagogicheskie i informatsionnye texnologii v sisteme obrazovaniya. — Moskva: Akademiya, 2007.

4. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. — London: Routledge, 2009.

5. Mayer R.E. Multimedia Learning. 2nd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2009.

6. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education: A Tool on Whose Terms? — Paris: UNESCO, 2023.

UDK: 378.147:004.8

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA RAQAMLI TA’LIM PLATFORMASINI TAKOMILLASHTIRISH

Mnajatdinov Qoblan Joldasbay ulı

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali magistranti

Email: telekomshik17@gmail.com

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, raqamli ta’lim, ta’lim platformasi, adaptiv ta’lim, shaxsiylashtirilgan ta’lim, Learning Analytics, virtual yordamchi, raqamli texnologiyalar.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, цифровое образование, образовательная платформа, адаптивное обучение, персонализированное обучение, аналитика обучения, виртуальный помощник, цифровые технологии.*

Keywords: *artificial intelligence, digital education, educational platform, adaptive learning, personalized learning, learning analytics, virtual assistant, digital technologies.*

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quv materiallarini yetkazib berish va bilimlarni baholash usullarini takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimiga joriy etilishi o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

An’anaviy raqamli ta’lim platformalarida o‘quv materiallari, topshiriqlar va baholash mezonlari ko‘pincha barcha foydalanuvchilar uchun bir xil shaklda taqdim etiladi. Biroq talabalarning bilim darajasi, o‘rganish tezligi, qiziqishlari va individual ta’lim ehtiyojlari bir-biridan farq qiladi. Shu sababli ta’lim platformalarida adaptiv mexanizmlardan foydalanish, o‘quv mazmunini foydalanuvchining natijalariga muvofiq moslashtirish va individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun’iy intellekt asosidagi raqamli ta’lim platformasi talabalarning topshiriqlarni bajarish natijalarini tahlil qilish, o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni aniqlash, tegishli o‘quv resurslarini tavsiya etish va tezkor fikr-mulohaza berish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin. Bunday yondashuv o‘qituvchining pedagogik faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi hamda ta’lim jarayonini ma’lumotlarga asoslangan holda boshqarish imkonini kengaytiradi.

